

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI.
FUQAROLIK JAMIYATI**

FANIDAN O‘QUV - USLUBIY

MAJMUA

TOSHKENT - 2021

O‘quv-uslubiy qo‘llanma.

Mualliflar: A.S.Xursandov va A.A.Sattorov. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati fani bo‘yicha OO‘MTVning 2018 yil 25 avgust 744 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy fan dasturi asosida tayyorlangan. 305 b.

Mualliflar:

A.S. Xursandov – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, “Ijtimoiy-gumanitar” fanlar kafedrasida boshlig‘i o‘rinbosari, s.f.b. f.d. (PhD), dotsent

A.A. Sattorov - O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, “Ijtimoiy-gumanitar” fanlar kafedrasida o‘qituvchisi, s.f.b. f.d. (PhD)

Taqrizchilar:

A. O‘tamurodov – O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrasida boshlig‘i, f.f.n., professor

F.A.Musayev - O‘zR. JXU “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida professori, f.f.d. professor

O‘quv - uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Uslubiy kengashining 2021 yil “27” avgust № 7-son majlisida muhokama etilib, nashrga tavsiya qilingan.

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ

"ТАСДИКЛАЙМАН"
ЎзМУ ректори

2018 йил "13" 02



"КЕЛИШИЛДИ"

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

2018 йил "13" 02

Рўйхатга олинган № 100

2018 йил



ЎЗБЕКИСТОННИ РИВОЖЛАНТИРИШ СТРАТЕГИЯСИ.
ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ

ФАН ДАСТУРИ

(Барча бакалаврият таълим йўналишлари учун)

ТОШКЕНТ-2018

Фан дастури Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими йўналишлари бўйича Ўқув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашнинг 2018 йил "18" 08 даги 4-сонли баённомаси билан маъқулланган.

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2018 йил "25" 08 даги 744 - сонли буйруғи билан маъқулланган фан дастурларини таянч олий таълим муассасаси томонидан тасдиқлашга розилик берилган.

Фан дастури Ўзбекистон Миллий университетида ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

- А.Утамурадов – Ўзбекистон Миллий университети, Демократик давлат қуриш назарияси ва амалиёти кафедраси мудири, профессор.
- Ж.Ё.Мавлонов – Ўзбекистон Республикаси Президенти девонининг масъул ходими, фалсафа доктори (PhD)
- У.Х.Бўтаев – ЎзМУ доцент в.б., фалсафа доктори (PhD)
- О.Мухаммадиева – ЎзМУ "Миллий гоё" ф.ф.н., доценти

Такризчилар:

- А.Муминов – Ўзбекистон миллий университет, сиёсий фанлар доктори, профессор.
- У.Идилов – ТДШИ кафедра мудири, сиёсий фанлар доктори, профессор.

Фан дастури Ўзбекистон Миллий университети Кенгашида кўриб чиқилган ва тасвир қилинган (2018 йил "13" 07 даги "3" -сонли баённома).

I. Ўқув фанининг долзарблиги ва олий касбий таълимдаги ўрни

“Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. Фуқаролик жамияти” фанини олий ўқув юртлири бакалаврият йўналишларида ўқитиш белгиланган. Дастурда фанининг мақсадлари, вазифалари, мазмуни ва малакавий талаблар белгиланган бўлиб, мамлакатимизни ривожлантириш стратегияси, фуқаролик жамиятининг шаклланиши ва ривожланишига оид қонуниятлар, тамойиллар, белгилар, амалга ошириш механизмлари ва унга доир замонавий концепциялар берилган.

Дастур фуқаролик жамиятининг шаклланиши ва ривожланишининг Биринчи Президент И.Каримов томонидан назарий методологик асосларининг ишлаб чиқилганлиги ва Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичидаги туб ўзгаришлар асосида тузилган. Шунингдек, 2017 йил 7 февралдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармонида мамлакатимизда ижтимоий-сиёсий ҳаётни, давлат ва жамият қурилишининг барча соҳаларини демократлаштириш ва либераллаштириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, фуқаролик жамиятини шакллантиришда аҳолининг иштирокини таъминлаш, давлат ва халқ ўртасида самарали мулоқотни ўрнатишнинг асосий йўналишлари асосида ишлаб чиқилган.

II. Ўқув фанининг мақсади ва вазифаси

Фани ўқитишнинг мақсади – талабаларга Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегиясининг мақсад ва вазифалари, асосий йўналишлари, Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичида фуқаролик жамиятининг шаклланиши ва ривожланиши жараёнида олиб борилаётган ислохотлар, фуқаролик жамиятини шакллантириш ва ривожлантиришда Ўзбекистоннинг ўзига хос хусусиятлари тўғрисида чуқур билим бериш орқали уларда фаол фуқаролик позицияси, танқидий таҳлил ва шахсий масъулиятини шакллантиришдан иборат.

Фанининг вазифаси Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичида амалга оширилаётган ислохотларнинг мазмун моҳиятини, Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича “Ҳаракатлар стратегияси”нинг асосий йўналишларини, уларни амалга ошириш механизмларини тушунтириш; фуқаролик жамиятини барпо этишнинг ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий ва маънавий асослари тўғрисидаги тасаввурларини бойитишдан иборат.

Фан бўйича талабаларнинг билим, кўникма ва малакаларига қуйдаги талаблар қўйилади. **Талаба:**

– Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичида фуқаролик жамиятининг шаклланиши ва ривожланиши жараёнида амалга оширилаётган ўзгаришлар, Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш “Ҳаракатлар стратегияси”нинг асосий йўналишлари, фуқаролик жамиятининг шаклланиш асослари, фуқаролик жамиятини барпо этишнинг илмий-методологик асослари, фуқаровийлик, фуқароллик жамияти институтлари, сайлов ҳуқуқи

эркинлиги, нодавлат нотижорат ташкилотлар, ижтимоий шериклик, давлат хусусий шериклик, жамоатчилик назорати ва давлат органлари фаолиятининг очиклиги тўғрисида *тасаввурга эга бўлиш*;

– “Инсон манфаатлари ҳамма нарсадан устун”, “Халқ давлат идораларига эмас, балки давлат идоралари халкимизга хизмат қилиши керак”, “Халқ бой бўлса, давлат бой ва қудратли бўлади” каби концептуал ғояларнинг мазмун моҳиятини, Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича “Харакатлар стратегияси”да белгиланган асосий йўналишлар ва вазифаларни *билиши ва улардан фойдалана олиши*;

– Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичида фуқаролик жамиятининг шаклланиши ва ривожланиши жараёнида олиб борилаётган ислохотларни янада такомиллаштириш бўйича ўзининг таклифларини бера олиш, мамлакатимиз зришаётган ютуқлар ва уларнинг халқаро микёсда эътироф этилишини таҳлил қила олиш *қўникмаларига эга бўлиши керак*.

III. Асосий назарий қисм (маъруза машгулотлари)

1-мавзу. Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичида фуқаролик жамиятининг шаклланиши ва ривожланиши

Фуқаролик жамияти қуриш мамлакатимизнинг асосий стратегик пировард мақсади. Фуқаролик жамияти инсоният тараққиётининг - юқори босқичи. Фуқаролик жамияти ғоялар эволюцияси. Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичида фуқаролик жамиятининг шаклланиши ва ривожлантириш стратегияси. Фанининг предмети, объекти, мақсади, ўқув, илмий, амалий, тарбиявий вазифалари, функциялари ва бошқа ижтимоий фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ҳамда ўзига хос хусусиятлари.

2-мавзу. Харакатлар стратегияси – Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичининг асоси

“Ривожланиш”, “стратегия”, “концепция” ва “инновацион ривожланиш” тушунчаларининг мазмуни ҳамда турли хил ёндошувлар. Мустақил Ўзбекистон Миллий тараққиёт моделининг ишлаб чиқилиши. Тараққиётнинг инновацион модели. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ривожланишининг илмий-методологик асослари ва устувор йўналишлари. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг Харакатлар стратегияси - миллий тараққиётимизнинг янги босқичи. “Инсон манфаатлари ҳамма нарсадан устун”, “Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халкимизга хизмат қилиши керак”, “Халқ бой бўлса, давлат ҳам бой ва қудратли бўлади” концептуал ғоялар – Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида кўзда тутилган ислохотларни ҳаётга тадбиқ этишнинг асоси.

3-мавзу. Давлат ва жамият қурилиши тизимини такомиллаштириш

Демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва мамлакатни модернизация қилишда Олий Мажлис, сиёсий партияларнинг ролини янада кучайтириш. Қонун ижодкорлиги фаолияти сифатини тубдан ошириш. Давлат бошқарувини марказлаштиришдан чиқариш, давлат хизмати тизимини ислох қилиш. Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиклигини таъминлаш, жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқук ва эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларига оид ахборотни тақдим қилишнинг замонавий шакллари жорий этиш. “Электрон ҳуқумат”, “халқ билан мулоқот”, “виртуал қабулхона”, “халқ қабулхоналари”, “танқидий таҳлил”, “қатъий тартиб интизом ҳамда шахсий масъулият”, “йўл харитаси”, “ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш секторлари” каби янги ибораларнинг мазмуни ва амалда қўлланилиши. Давлат хизматларини кўрсатиш самарадорлигини ошириш.

4-мавзу. Қонун устуворлигини таъминлаш ва суд-ҳуқук тизимини янада ислох қилишнинг устувор йўналишлари

Суд ҳокимиятининг чинакам мустақиллигини таъминлаш, суднинг нуфузини ошириш, суд тизимини демократлаштириш ва такомиллаштириш. Судлар фаолиятига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш. Одил судловни амалга ошириш самарадорлиги ва сифатини ошириш. Фуқароларнинг ҳуқук ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш қафолатларини таъминлаш. Маъмурий, жиноят, фуқаролик ва ҳўжалик қонунчилигини такомиллаштириш. Жиноятчиликка қарши курашиш ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштириш. Юридик ёрдам ва хизмат кўрсатиш тизимини такомиллаштириш. Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва назорат идоралари фаолияти устидан жамоатчилик назорати механизмлари самарадорлигини ошириш. “Қафолатланган хавфсизлик”, “адолат кўргони”, “ўз болангни ўзинг асра” тушунчаларнинг мазмуни ва амалда қўлланилиши.

5-мавзу. Иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари ва устувор йўналишлари

Иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштириш соҳасида инвестициялар ва инновацион гоълар. Иқтисодиётга инновациялар ва янги технологияларни жорий этишни рағбатлантириш механизмларини ишлаб чиқилиши. Таркибий ўзгартиришларни чуқурлаштириш, миллий иқтисодиётнинг етакчи тармоқларини модернизация ва диверсификация қилиш ҳисобига унинг рақобатбардошлигини ошириш. Тадбиркорликни қўллаб-қуватлашнинг замонавий механизмлари. “Хар бир оила –тадбиркор” тамойили. Иқтисодиётда давлат иштирокини камайитириш, хусусий мулк ҳуқуқини ҳимоя қилиш ва унинг устувор мавқеини янада кучайтириш, кичик

бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожини рағбатлантиришга қаратилган институционал ва таркибий ислохотлар. Солиқ ва божхона сиёсатини такомиллаштириш ва оптималлаштириш. Солиқ юкини камайтириш. Солиқ ва божхона маъмуриятчилигини соддалаштириш.

6-мавзу. Ижтимоий соҳадаги ислохотларни чуқурлаштириш

Аҳоли бандлиги ва реал даромадларини изчил ошириш. Илғор хорижий тажриба асосида аҳолининг муносиб ҳаёт кечириши учун зарур бўлган даромадларни аниқлаш бўйича “истеъмол саватчаси”га оид муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш ва соғлиқни сақлаш тизимини такомиллаштириш, хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш. Арзон уй-жойлар барпо этиш бўйича мақсадли дастурларни амалга ошириш, аҳолининг ҳаёт шароитлари яхшиланишини таъминловчи йўл-транспорт, муҳандислик-коммуникация ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш ҳамда модернизация қилиш. “Обод кишлок” ва “Обод маҳалла” давлат дастурларининг қабул қилиниши ва амалга оширилиши. Мактабгача, умумий ўрта, касб-хунаар ва олий таълим тизимидаги туб ўзгаришлар. Илм соҳасида инновацион ёндошувни ривожлантириш. Ёшлар - келажагимиз давлат дастурининг амалга оширилиши.

7-мавзу. Хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш

Ўзбекистон Республикасининг конституциявий тузуми, суверенитети, ҳудудий яхлитлигини муҳофаза қилиш. Ахборот хавфсизлигини таъминлаш. Фуқаролик, миллатлараро ва конфессиялараро тинчлик ҳамда тотувликни мустаҳкамлаш. Давлатнинг муҳофаза қилинишини мустаҳкамлаш. Давлат мустақиллиги ва суверенитетини мустаҳкамлаш. Ўзбекистоннинг ён-атрофида хавфсизлик, барқарорлик ва аҳил қўшничилик муҳитини шакллантириш. Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсий ва ташқи иқтисодий фаолиятининг норматив-ҳуқуқий базасини ҳамда халқаро ҳамкорликнинг шартномавий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилиш масалаларини ҳал этиш. Чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий ташқи сиёсати амалга ошириш.

8-мавзу. Коррупцияга қарши кураш – фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг устувор шarti

Коррупция ва унга қарши кураш тушунчаси. Коррупцияга қарши кураш борасида халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти ҳомийлигида қабул қилинган ЭКОСОС (БМТнинг иқтисодий ва ижтимоий кенгаши)нинг Коррупцияга қарши кураш резолюцияси (1995 йил), Давлат

мансабдор шахсларининг халқаро ахлоқ кодекси (1996 йил). Миллатлараро уюшган жиноятчиликка қарши кураш конвенцияси (2000 йил). 2008 йил июл ойида Ўзбекистон Республикасини БМТнинг “Коррупцияга қарши кураш конвенцияси”га қўшилиши. Ўзбекистон Республикаси “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни (2017 йил). Коррупцияга қарши кураш ишларида фуқаролар ҳамда фуқаролик жамияти институтларининг фаоллигини ошириш механизмлари.

9-мавзу. Фуқаро, фуқаровийлик ва фаол фуқаролик позицияси

Инсон ва фуқаро ҳуқуқлари. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси. Фуқаро ва фуқаровийлик тушунчаси. Фуқаровийликнинг асосий белгилари ва мезонлари. Фуқаронинг ўз ҳақ-ҳуқуқларини тушуниши, уни амалиётда қўллаш қўникмаси ва бошқа фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳурмат қилиши. Ҳуқуқий саводхонлик ва маданият – фуқаровийликни шакллантириш омили. Фуқаронинг ўз ҳатти-ҳаракати учун шахсий жавобгарлиги. Фуқаровийликни ижтимоий фаоллик нуқтаи назаридан шартли равишда даражаларга бўлиш ва унга таъсир кўрсатувчи омиллар. Фуқаролик онгининг жамият ҳаётида турли шаклларда намоён бўлиши ва ўзига хос хусусиятлари. Фуқаровий онг жамиятни бирлаштирувчи куч сифатида.

10-мавзу. Сайлов ҳуқуқи эркинлиги – фуқаролик жамиятининг шarti

Эркин сайловлар - фуқаролик жамиятининг асосий белгиси. Сайлов тушунчаси ва унинг асосий тамойиллари, тизимлари. Ўзбекистон қонунчилигида халқаро сайлов стандартларига асосланиши. Сенатор ва депутатларнинг сайловчилар олдида ҳисоб бериши, тайинлаш йўли билан шаклланидиган давлат органларининг сайловчи ташкилотлар олдидаги жавобгарлиги. Эркин сайловларни ўтказишда оммавий ахборот воситаларининг роли. Ўзбекистонда “Сайлов кодекси”ни қабул қилиш зарурияти.

11-мавзу. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтлари ва маҳаллий ўз-ўзини бошқариш

Фуқаролик жамиятининг шакллантириш ва ривожлантиришда демократик институтларнинг тутган ўрни. Кўппартиявийлик – фуқаролик жамият барпо этишининг муҳим шarti. Сиёсий партияларнинг Олий Мажлис Сенат, Қонунчилик палатаси, халқ депутатлари кенгашларидаги фаолиятини такомиллаштириш. Нодавлат ноэижорат ташкилотларининг фуқаролик жамияти институти сифатида ривожланиши учун яратилган шарт-шароитлар. Фуқаролик жамияти институтларини ривожлантириш истикболлари. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг ўрни. “Кучли давлатдан

- кучли фуқаролик жамият сари” концепцияси. Маҳалла фаолиятининг ташкилий асосларини янада такомиллаштирилиши.

12-мавзу. Жамоатчилик назорати ва давлат органлари фаолиятининг очиклиги.

Жамоатчилик назорати тушунчаси. Жамоатчилик назорати тизими, субъектлари, шакллари ва турли кўринишлари. Ваколатли фуқаролик жамияти институтларининг давлат ҳокимияти органлари устидан жамоатчилик назорати. Давлат органлари фаолиятининг очиклигини таъминлаш механизмлари. Жамоатчилик назорати тўғрисидаги қонуннинг (2018) қабул қилиниши ва унинг аҳамияти. Жамоатчилик назоратини амалга оширишда ОАВни ролини ошириш. Жамоатчилик бошқаруви тизимини такомиллаштириш.

13-мавзу. Ижтимоий шериклик.

Ижтимоий шериклик тушунчаси, ва унинг талқинлари. Ижтимоий шерикликнинг ривожланишининг назарий-ҳуқуқий асослари. Ҳамкорлик ва ижтимоий шериклик. Ижтимоий шерикликнинг турлари, мақсад ва вазибалари, субъектлари, ташкилий-ҳуқуқий механизмлари. Мамлакатимизда “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги қонуннинг (2014) қабул қилиниши ва унинг аҳамияти. Ўзаро манфаатли ҳамкорликнинг самарасини оширишга қаратилаган давлат – хусусий шерикликнинг замонавий механизмларини жорий этиш.

14-мавзу. Фаол фуқаролик позициясига эга бўлган ёш авлодни тарбиялашнинг асосий йўналишлари.

Фуқаролик позицияси тушунчаси ва уни шакллантирадиган асосий омиллар. Ёшларда фуқаролик позициясини шакллантиришнинг ижтимоий-маънавий ва ахлоқий жиҳатлари. Фуқаролик жамиятини ривожлантиришда фуқаролик маданияти ва шахсий масъулиятининг ўрни. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсати. Ёшлар бугунги ва эртанги қўнимизнинг ҳал қилувчи кучи. Ёшлар - келажагимиз давлат дастурининг амалга оширилиши. Ёшлар фаоллигини оширишда Ўзбекистон Ёшлар иттифоқининг ўрни.

IV.Семинар машғулотлар бўйича қўрсатма ва тавсиялар

Семинар машғулотлари мавзулари маърузалар мавзулари билан мос келади. Айни пайтда уларнинг режалари бир-биридан қисман фарқ қилади. Маърузалардаги фундаментал масалалар семинар машғулотлари мавзуларига ҳам ўтказилган. Бундан кўзда тутилган мақсад фаннинг муҳим масалаларини

чуқур ўзлаштиришдан иборат. Тушуниш ва ўзлаштириш осон бўлган масалалар мустақил таълимга кўчирилган.

Семинар машғулотлари бўйича қуйдаги мавзулар тавсия қилинади:

1. Фуқаролик жамиятини қуриш – стратегик мақсад.
2. Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичи.
3. Ўзбекистонни янада ривожлантириш бўйича “Ҳаракатлар стратегияси”нинг мақсад ва вазифалари.
4. Ўзбекистонни янада ривожлантириш бўйича “Ҳаракатлар стратегияси”нинг асосий йўналишлари.
5. Давлат ва жамият қурилиши тизимини такомиллаштириш.
6. Қонун устуворлигини таъминлаш ва суд-ҳуқуқ тизимини янада ислох қилишнинг устувор йўналишлари.
7. Иктисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари ва устувор йўналишлари.
8. Ижтимоий соҳадаги ислохотларни чуқурлаштириш.
9. Хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш.
10. Фуқаролик жамияти инсоният тараққиётининг - юқори босқичи.
11. Фуқаролик жамияти ғоялар эволюцияси.
12. Ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятининг асосий белгилари. Фуқаролик жамияти тўғрисидаги замонавий концепциялар.
13. Фуқаролик жамияти тушунчасининг келиб чиқиши ва унинг шаклланишининг асослари.
14. Фуқаролик жамияти фанининг мақсади, ўқув, илмий, амалий ва тарбиявий вазифалари, функциялари.
15. Фуқаролик жамияти фанининг бошқа ижтимоий фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ва ўзига хос хусусиятлари.
16. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантириш, ривожлантириш босқичлари ва истикболлари.
17. Фуқароларнинг ўз ҳуқуқлари, эркинликлари ва манфаатларини ҳимоя қиливчи фуқаролик жамияти институтларининг шаклланиши.
18. Фуқаролик жамияти институтларининг давлат ҳокимияти органлари устидан жамоатчилик назорати.
19. Қонун устуворлигининг таъминланиши.
20. Фуқаролик жамияти шаклланишининг халқаро ҳуқуқий тамойиллари ва манбалари.
21. Ўзбекистон Республикаси Конституциясида халқаро ҳуқуқ тамойилларининг акс эттирилиши ва ривожлантирилиши.
22. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини ривожлантиришда халқаро ҳуқуқ нормаларини имплементация қилиш масалалари.
23. Инсон ҳуқуқлари ва фуқаро ҳуқуқлари, эркинлик, мажбурият тушунчалари.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti boshlig‘i
professor

M.X.Rustambayev
2021 yil “ ____ ” _____

O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI.
FUQAROLIK JAMIYATI fanidan

ISHCHI O‘QUV DASTURI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy
va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2018 - yil “25” avgust kunidagi
“744”-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan
fan namunaviy dasturiga muvofiq
tayyorlangan.

Toshkent – 2021

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Kengashining 2021 yil “27” avgust kungi yig‘ilishida muhokama qilingan va ma’qullangan. (7-sonli bayonnoma)

“Yuriprudensiya”, “Iqtisodiyot” va “Psixologiya”yo‘n alishiga ixtisoslashtirilgan mutaxassisliklar uchun “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanidan ishchi o‘quv dasturi.– T.: O‘R JXU, 20 bet.

Dasturni tuzuvchi:

- Xursandov A.S.** “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida boshlig‘ining o‘rinbosari, siyos.f.b.f.d.(PhD), dotsent
- Sattorov A.A.** “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi, siyos.f.b.f.d.(PhD)

Taqrizchilar:

- A. O‘tamurodov** – O‘zMU “Ijtimoiy fanlar” fakulteti “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrasida mudiri, falsafa fanlari nomzodi, professor
- V.X. Qo‘chqorov** – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, siyosiy fanlar doktori, professor

1. SO‘Z BOSHI

Tinglovchi va talabalarni "O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fani bo‘yicha: mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘l ining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon‘yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda. Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘n alishlarni amalga oshirish maqsadida aholi va tadbirkorlarni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o‘rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo‘l lash amaliyoti, jamoat xavfsizligini ta‘minlash va ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘n alishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi mazmun-mohiyatini anglash; Harakatlar strategiyasi besh bosqichda, yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshirilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va bozor munosabatlariga asoslangan fuqarolik jamiyati barpo etishda tinglovchi va talabalarning tub ma‘noda dunyoqarashini kengaytirish, mustaqillikka sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ma‘naviyatini yuksaltirish, jamiyat siyosiy hayotini demokratiyalashuvi, siyosiy boshqarish jarayonlari, siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma‘rifiy hayot munosabatlari; shaxs, jamiyat va davlat tizimida inson manfaatining ustuvorligi, xalqaro munosabatlarda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy – ma‘rifiy aloqalar bilan bog‘liqligi hamda Harakatlar strategiyasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosatning mazmun-mohiyati haqidagi bilimlarini oshiradi.

Dasturning ikkinchi bo‘l imida tinglovchi va talabalar Fuqarolik jamiyati fanining predmeti, obykti, maqsad va vazifalari, fuqarolik jamiyati g‘oyalari evolyutsiyasi, fuqaro, fuqaroviylik va faol fuqarolik pozitsiyasi, qonun ustuvorligi - fuqarolik jamiyatining muhim omili, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta‘minlash, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklik, jamoat xavfsizligini ta‘minlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘l gan yosh avlodni tarbiyalashning asosiy yo‘n alishlarini anglash; huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari va o‘zaro ta‘sir etish mexanizmlari, fuqarolik jamiyatini takomillashtirishning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ma‘naviy asoslari to‘g‘risida tushunchalar berish; kurasnt (talaba)larning fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati, jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash to‘g‘risidagi tasavvurlarini boyitish masalalarini o‘z ichiga oladi.

Mazkur ishchi o‘quv dasturi tinglovchi va talabalarni o‘qish ko‘n ikmalarini shakllantirish, bilimlarini boyitish, amalda olib borilayotgan siyosatni to‘g‘ri anglashlari, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘l ishlari, kelgusidagi mehnat faoliyatlarida to‘g‘ri qo‘l lay olishlarini hamda siyosiy madaniyatini oshirishga yordam beradi.

1.1. FANNI O‘QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Fanni o‘qitishdan maqsad – tinglovchi va talabalarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan O‘zbekistonning rivojlantirish strategiyasining g‘oyaviy asoslari, maqsad va vazifalari, amalga oshirish shart-sharoitlari hamda omillarini o‘rgatish va ularda strategik tafakkurni shakllantirish hamda fuqarolik jamiyatining shakllanish va rivojlanish jarayonida olib

borilayotgan islohotlar, ularni amalga oshirish strategiyasining mazmun-mohiyati, fuqarolik jamiyatida inson, davlat va jamiyatning o'zaro munosabati, jamoat xavfsizligini ta'minlash, mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalashning asosiy tamoyillari, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida chuqur bilim berish orqali ularda faol fuqarolik pozitsiyasi va mas'uliyatini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – tinglovchi va talabalarga:

- O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining nazariy konseptual asoslari;
- O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi - mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning g'oyaviy asosi ekanligi;
- fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ma'naviy asoslari to'g'risida tushunchalar berish;
- tinglovchi va talabalarning fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati, jamoat xavfsizligini ta'minlash, jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlanish to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish va ilmiy-amaliy bilim berishdan iborat.

1.2. TINGLOVCHI VA TALABALARNING BILIMIGA, KO'N IKMA VA MALAKASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

“O'zbekiston Respublikasining rivojlantirish strategiyasi” fanini o'zlashtirish jarayonida tinglovchi va talaba:

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan O'zbekistonning rivojlantirish strategiyasining g'oyaviy asoslari, maqsad va vazifalari, amalga oshirish shart-sharoitlari hamda omillari, shu bilan birga, fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy asoslari; fuqaroviylik, fuqaro faolligi, demokratik institutlarni rivojlantirish; qonun ustuvorligi, saylov huquqi erkinligi; fuqarolik jamiyatini barpo etishning ilmiy-metodologik asoslari, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish; siyosiy partiyalarning o'rni va ahamiyati, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik, jamoat xavfsizligini ta'minlash, jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqqligi haqida **tasavvurga ega bo'l ishi**;

O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi - milliy taraqqiyotning g'oyaviy asosi ekanligi haqida ilmiy va nazariy masalalarni, fuqarolik jamiyati mazmun-mohiyatini chuqur anglagan holda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va jamoat xavfsizligini ta'minlashda faol ishtirok etish, xabardor bo'l ish, va ijtimoiy-siyosiy faolligi hamda daxldorlik tuyg'usini namoyon etish to'g'risida **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

Harakatlar strategiyasini targ'ibot qilishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida nazariy va amaliy ko'n ikmalari hamda mamlakatni demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini qurish bo'yicha o'zining erkin fikrini bildira olish; mamlakatimizda erishilayotgan yutuqlari va ularning xalqaro miqyosda e'tirof etilishini tahlil qilish **ko'n ikmalarga ega bo'l ishi kerak**.

1.3. FANNING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

"O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fani oliy ta'limda o'qitiladigan "O'zbekiston tarixi", "Siyosatshunoslik", "Huquqshunoslik", "Iqtisodiyot nazariyasi", "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar", "Falsafa", "Sotsiologiya", "Kasb etikasi", "Dinshunoslik" kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'l ib, ushbu fanlardan yetarli bilim va ko'n ikmalarga ega bo'l ish talab etiladi.

1.4. FANNI O‘QITISHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR

"O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fani bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazishda turli metod va zamonaviy o‘rgatish shakllaridan foydalaniladi. O‘quv fanni yaxshi o‘zlashtirish uchun uni bayon etish chog‘da faol o‘qitish usullaridan (muammoli holatlar hosil qilish, jamoaviy tafakkur faoliyatini tashkil etish, shaxsiy topshiriqlar berish, FSMU, aqliy hujum), informatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘zda tutilgan. Fanni o‘zlashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, ma‘ruzalari va farmonu qarorlari, darslik, o‘quv qo‘l lanmalar, elektron o‘quv qo‘l lanmalar va prezentatsiyalardan foydalanishi ko‘zda tutilgan. Fanni o‘rganishda mashg‘ulotlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi: ma‘ruza va seminar, fan mazmuniga tegishli o‘quv materiallarini mustaqil o‘rganish.

Tinglovchi va talabalarning bilim olishi, fanni o‘zlashtirishi va ularning bilimlarini haqqoniy baholash ko‘zda tutilgan. Elektron vositalar yordamida slaydlardan ma‘ruza darslarida foydalaniladi.

1.5. FANNING UMUMIY VA O‘QUV ISHLARI TURLARI

BO‘YICHA HAJMI

Umumiy o‘quv soati	– 96 soat.
Shu jumladan:	
Ma‘ruza	– 26 soat;
Seminar	– 28 soat;
Mustaqil ta‘lim	– 42 soat.

**Fanni o‘rganish bo‘yicha mavzularga ajratilgan soatlarning
taxminiy taqsimoti**

T/r	Bo‘lim, mavzular	Umumiy o‘quv soati	Auditoriya mashg‘ulotining turlari							Mustaqil ta‘lim
			Jami	Ma‘ruza	Seminar	Amaliy	Laboratoriya	Guruh (o‘yin, mashq)	Kurs ishi (loyiha)	
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>	<i>7</i>	<i>8</i>	<i>9</i>	<i>10</i>	<i>11</i>
I	O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi									
1.1	Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘n alishlari	8	4	2	2	-	-	-	-	4
1.2	Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘n alishlari	8	4	2	2	-	-	-	-	4
1.3	Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘n alishlari	8	4	2	2	-	-	-	-	4
1.4	Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘n alishlari	8	4	2	2	-	-	-	-	4
1.5	Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘n alishlar	8	4	2	2	-	-	-	-	4
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>	<i>7</i>	<i>8</i>	<i>9</i>	<i>10</i>	<i>11</i>
II	Fuqarolik jamiyati									
2.1	Fuqarolik jamiyati fanining predmeti, obykti, maqsad va vazifalari	6	4	2	2	-	-	-	-	2
2.2	Fuqarolik jamiyati g‘oyalari evolyusiyasi	8	6	2	4	-	-	-	-	2

2.3	Fuqaro, fuqaroviylik va faol fuqarolik pozitsiyasi	8	4	2	2	-	-	-	-	4
2.4	Qonun ustuvorligi - fuqarolik jamiyatining muhim omili	6	4	2	2	-	-	-	-	2
2.5	Axborot sohasini isloh qilish, axborot va soʻz erkinligini taʼminlash	6	4	2	2	-	-	-	-	2
2.6	Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari	6	4	2	2	-	-	-	-	2
2.7	Jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklik. Jamoat xavfsizligini taʼminlash	8	4	2	2	-	-	-	-	4
2.8	Faol fuqarolik pozitsiyasiga ega boʻlgan yosh avlodni tarbiyalashning asosiy yoʻnalishlari	8	4	2	2	-	-	-	-	4
	Jami	96	54	26	28					42

2. FANNING MAZMUNI

I – boʻlim. Oʻzbekistonni rivojlantirish strategiyasi

1.1-mavzu. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlari

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish.

Davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish boʻyicha vakolatlarini yanada kengaytirishdagi strategik vazifalar. Qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga taʼsirini kuchaytirishga yoʻnaltirilgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish masalasi. Siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular oʻrtasida sogʻlom raqobat muhitini shakllantirish.

Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish strategiyasi. Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish. Davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy taʼminot darajasini oshirish. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish.

Mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha vazifalarni amalga oshirishda oʻzaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini taʼminlash. Jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish. «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish.

Davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

1.2-mavzu. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'n alishlari

Sud hokimiyatining chinakkam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish. Sudyalarda va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish. Sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash. Sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish. Sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessida tomonlarining tortishuvi va teng huquqlik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish. «Xabeas korpus» institutini qo'l lash sohasini kengaytirish. Tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish. Sudlarni yanada ixtisoslashtirish. Sud apparatini mustahkamlash. Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. Fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish. Murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'l ish holatlariga yo'l qo'yganchilik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash. Buzilgan huquqlarni tiklashning zarur choralari. Sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. Fuqarolarning xususiy mulkka bo'l gan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash. Fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish. Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirish. Liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish. Jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish. Odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish. Jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish. Bir-birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish. Elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish. Diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish. Korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish. Aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish. Huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish. Tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish. Sud, huquqni

muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlarini o'qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish.

1.3-mavzu. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari

Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish. Makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash. Qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish va yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash. Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash. Mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish. Soliq yukini kamaytirish. Soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish. Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish. Ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish. Valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash. Bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash. Banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, moliyaviy barqarorligi va ishonchligini mustahkamlash. Istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish. Sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish, kengaytirish. Kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish. Yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish. Puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning Yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish. Milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash. Sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish. Ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish. Yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, mahalliy xomashyo resurslarini, sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish. Iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish. Mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish. Yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish. Ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish. Iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish.

1.4-mavzu. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish. Kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish. Byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya,

stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyasiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish. Yangi ish o'rinlarini yaratish. Aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash. Mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash. Ishsizlik darajasini kamaytirish. Mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotinqizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish. Aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'l lab-quvvatlashni kuchaytirish. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash. Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish. Aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash sohasini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish. Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish. Aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.

1.5-mavzu. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'n alishlar

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish. Axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish. Axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish. Fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash. Davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish. Atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon etkazadigan ekologik muammolarni oldini olish. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

Davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash. Mamlakatimizni xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o'rni va rolini oshirish. Rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnihilik muhitini shakllantirish. O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot etkazish. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish.

II -bo'l im. Fuqarolik jamiyati

2.1-mavzu. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti, obyekt, maqsad va vazifalari

Fuqarolik jamiyati ijtimoiy hayotning fenomeni. Fuqarolik jamiyati insoniyat taraqqiyotining-yuqori bosqichi. Fuqarolik jamiyati qurish mamlakatimizning asosiy strategik pirovard maqsadi. Fuqarolik jamiyati tushunchasining kelib chiqishi va uning shakllanishining asoslari. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti va obyekt. Fuqarolik jamiyati fanining maqsadi, o'quv, ilmiy, amaliy va tarbiyaviy vazifalari, funksiyalari. Fuqarolik jamiyati fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va o'ziga xos xususiyatlari.

2.2–mavzu. Fuqarolik jamiyati g‘oyalari evolyusiyasi

Fuqarolik jamiyati tushunchasining tarixiy ildizlari va ularning turli tavsiflari. Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarida fuqarolik jamiyati tushunchasiga oid o‘ziga xos yondshuvlar. Fuqarolik jamiyatining antik paradigmasi. Sharq mamlakatlarida fuqarolik jamiyati haqidagi ilk qarashlar. O‘rta asrlarda fuqarolik jamiyati g‘oyalarining rivojlanishi. Yangi davrda fuqarolik jamiyatining paradigmalari yaratilishi. G‘arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati paradigmasining rivojlanish an‘analari. Sharq sivilizatsiyasida Yangi davrda fuqarolik jamiyati paradigmasining o‘ziga xosligi. Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalar.

2.3–mavzu. Fuqaro, fuqaroviylik va faol fuqarolik pozitsiyasi

Fuqaroviylik tushunchasi. Fuqaroviylikning asosiy belgilari va mezonlari. Fuqaroning o‘z haq-huquqlarini tushuniish va uni amaliyotda qo‘l lash ko‘n ikmasi va boshqa fuqarolarning haq-huquqlarini hurmat qilishi. Fuqaroning o‘z hatti-harakati uchun shaxsiy javobgarligi. Fuqaroning davlat va jamiyat oldida o‘z huquqiy va ahloqiy mas‘uliyatini anglashi. Fuqaroviylikni faollik nuqtai nazaridan shartli ravishda darajalarga bo‘l ish va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar. Fuqarolik ongining jamiyat hayotida turli shakllarda namoyon bo‘l ishi va o‘ziga xos xususiyatlari. Fuqaroviy ong jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatida.

2.4–mavzu. Qonun ustuvorligi - fuqarolik jamiyatining muhim omili

Qonun ustuvorligi tushunchasi. Fuqarolik jamiyati qurishda qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishi. Hokimiyatlarning bo‘l inish tamoyili va konseptual asoslari. Konstitutsiya va qonunlarda adolat hamda inson manfaatlarining ustuvorligi. Qonun ustuvorligini ta’minlash mexanizmlarining ishlab chiqilishi. Fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg‘usini shakllantirish. Sud-huquq tizimini isloh qilish. Demokratik talablarga mutanosib keladigan mustahkam qonunchilik bazasining yaratilishi.

2.5-mavzu. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta’minlash

Fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida axborot sohasini isloh qilish, so‘z va axborot erkinligi. Ommaviy axborot vositalarini jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolar erkinligini ta’minlashning muhim sharti sifatida. Axborot va so‘z erkinligini ta’minlashning asosiy usullari. (Ochiq muloqot, Xalqaro Press klub, Yoshlar Press klubi) Fuqarolarning elektron murojaatlari, Prezidentning virtual qabulxonasi va “Xalq qabulxonalari”.

2.6–mavzu. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari

O‘zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘rni. “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyat sari” konsepsiyasi. Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko‘l amini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o‘zaro yaqin munosabatlarini ta’minlash. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo‘n alishlari.

2.7–mavzu. Jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklik. Jamoat xavfsizligini ta'minlash

Jamoatchilik nazorati tushunchasi. Jamoatchilik nazorati tizimi, subyektlari, shakllari va turli ko'rinishlari. Vakolatli fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazorati. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash mexanizmlari. Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi va uning ahamiyati.

Ijtimoiy sheriklik tushunchasi va uning talqinlari. Ijtimoiy sheriklikning rivojlanishining nazariy-huquqiy asoslari. Hamkorlik va ijtimoiy sheriklik. Ijtimoiy sheriklikning turlari, maqsad va vazifalari, subyektlari, tashkiliy-huquqiy mexanizmlari. Ijtimoiy sheriklik to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi va ahamiyati.

O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda, jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikni oshirish va "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyat sari" konsepsiyasi. Jamoat xavfsizligini ta'minlashni yanada takomillashtirish, vazifalar ko'l amini kengaytirish, jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarni ta'minlash.

2.8–mavzu. Faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari

Fuqarolik pozitsiyasi tushunchasi va uni shakllantiradigan asosiy omillar. Yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-ma'naviy va axloqiy jihatlari. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda fuqarolik madaniyati va mas'uliyatining o'rnini. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati. Yoshlar bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi. Barkamol avlod - yurt tayanchi. Yoshlar mas'uliyatini oshirishning tashkiliy-amaliy jihatlari. Yoshlar faolligini oshirishda O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligining o'rnini.

2.1. SEMINAR MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH

BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Seminar mashg'ulotlari tinglovchi va talabalarning ma'ruzalar hamda mustaqil ta'lim jarayonida olgan bilimlarini tekshirish, chuqurlashtirish, mustahkamlash, materialni mustaqil ravishda o'zlashtirishga ko'maklashish maqsadida o'tkaziladi. Seminar mashg'ulotlar bir o'quv guruhiga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Seminar mashg'ulotlar uchun tavsiya etiladigan mavzular

- 1.1. "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fanining obyekti va predmeti
- 1.2. Strategiyalarning shakllanishi tarixi va rivojlanishining o'ziga xos qonuniyatlari
- 1.3. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish
- 1.4. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish strategiyasi
- 1.5. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish strategiyasi
- 1.6. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari takomillashtirish

- 1.7. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yoʻn alishlari
- 1.8. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy oʻsish surʼatlarini saqlab qolish
- 1.9. Tarkibiy oʻzgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning Yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish
- 1.10. Qishloq xoʻjaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish
- 1.11. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yoʻn alishlari
- 1.12. Taʼlim va fan sohasini rivojlantirish. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish
- 1.13. Oʻzbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish
- 1.14. Axborot xavfsizligini taʼminlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga oʻz vaqtida va munosib qarshilik koʻrsatish
- 1.15. Davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish
- 1.16. Millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni taʼminlash sohasidagi ustuvor yoʻn alishlar
- 1.17. Fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash vazifalari
- 1.18. Atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish yoʻl lari
- 1.19. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish
- 1.20. Chuqur oʻylangan, oʻzaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yoʻn alishlar
- 2.1. Fuqarolik jamiyati insoniyat taraqqiyotining - yuqori bosqichi
- 2.2. Fuqarolik jamiyati tushunchasining kelib chiqishi va uning shakllanishining asoslari
- 2.3. Fuqarolik jamiyati fanining maqsadi, oʻquv, ilmiy, amaliy va tarbiyaviy vazifalari, funksiyalari
- 2.4. Fuqarolik jamiyati fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan oʻzaro bogʻliqligi va oʻziga xos xususiyatlari
- 2.5. Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, rivojlantirish bosqichlari va istiqbollari
- 2.6. Mulkchilikning xilma-xil shakllari
- 2.7. Xususiy mulk va mulkdorlar sinfini shakllantirish
- 2.8. Inson erkinligi va uning moddiy farovonlik bilan uzviy bogʻliqligi
- 2.9. Fuqarolarning oʻz huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qiliuvchi fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi
- 2.10. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazorati
- 2.11. Qonun ustuvorligining taʼminlanishi
- 2.12. Sharq va Gʻarb sivilizatsiyalarida fuqarolik jamiyati tushunchasiga oid oʻziga xos yondashuvlar
- 2.13. Sharq mamlakatlarida fuqarolik jamiyati haqidagi ilk qarashlar
- 2.14. Sharq allomalari asarlarida adolatli jamiyatni shakllantirish masalalari
- 2.15. Oʻrta asrlarda fuqarolik jamiyati gʻoyalarining rivojlanishi
- 2.16. Yangi davrda fuqarolik jamiyatining paradigmlarini yaratilishi
- 2.17. Gʻarb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati paradigmasining rivojlanish anʼanalari
- 2.18. Sharq sivilizatsiyasida Yangi davrda fuqarolik jamiyati paradigmasining oʻziga xosligi
- 2.19. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari. Fuqarolik jamiyati toʻgʻrisidagi zamonaviy konsepsiyalar
- 2.20. Fuqarolik jamiyatining modernizatsiya, postmodernizatsiya, liberalizm, neoliberalizm nazariyalari
- 2.21. Formatsion, sivilizatsion, modernizatsion yondashuvlar

- 2.22. XX asrning – 50-70 yillari zamonaviy ijtimoiy-siyosiy tizimlar nazariyasining rivojlanishi
- 2.23. XX asrning 90 yillari va XXI asrdagi global ijtimoiy-siyosiy tizim konsepsiyalari
- 2.24. Fuqarolik jamiyati qaror topishida ijtimoiy-texnologik innovatsiyalar va AKTlarning o‘rni va roli
- 2.25. Fuqarolik jamiyati shakllanishining xalqaro huquqiy tamoyillari va manbalari
- 2.26. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xalqaro huquq tamoyillarining aks ettirilishi va rivojlantirilishi
- 2.27. Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalariga amal qilish
- 2.28. Inson huquqlari va fuqaro huquqlari, erkinlik, majburiyat tushunchalari
- 2.29. Fuqaroligi bo‘l magan shaxslar va chet el fuqarolarining huquqiy holati
- 2.30. Shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy huquq va erkinliklar tushunchalari
- 2.31. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, inson va fuqarolar huquqlarining tavsifi
- 2.32. Fuqarolik jamiyati qurishda qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishi
- 2.33. Hokimiyatlarning bo‘l inish tamoyili va konseptual asoslari
- 2.34. Qonun ustuvorligini ta’minlash mexanizmlarining ishlab chiqilishi
- 2.35. Demokratik talablarga mutanosib keladigan mustahkam qonunchilik bazasining yaratilishi

2.2. LABORATORIYA ISHLARI MAVZULARINING TAXMINIY RO‘YXATI

O‘quv rejada ushbu fandan laboratoriya ishlari bajarilishi ko‘zda tutilmagan.

2.3. KURS LOYIHALARI (ISHLARI) MAVZULARINING TAXMINIY RO‘YXATI

O‘quv rejada ushbu fandan kurs ishlari bajarilishi ko‘zda tutilmagan.

2.4. MUSTAQIL TA’LIM MAZMUNI

Tinglovchi va talaba mustaqil ishni tayyorlash chog‘da “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda uning quyidagi shakllaridan foydalanishi tavsiya etiladi:

- darslik yoki o‘quv qo‘l lanmalar bo‘yicha fanlar boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar ma’lumotlarini o‘zlashtirish;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha fanlar bo‘l imlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- fanga oid ma’lumotlarni o‘rganish, ularni tahlil qilish, davriy ilmiy jurnallarda e’lon qilingan ushbu fanga tegishli maqolalar, Internet ma’lumotlari bilan tanishish;
- fanning dolzarb mavzulari bo‘yicha referatlar yozish, ularni taqdimotini o‘tkazish, ilmiy va ilmiy-uslubiy anjumanlarda ma’ruzalar bilan ishtirok etish.

“O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanidan tinglovchi va talabalarining mustaqil ishlarini referat, seminar, ma’ruza tayyorlash, Prezident asarlarini konspektlashtirish, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir yangiliklarni OAVda kuzatib borishlari va boshqa shakllarda tashkil etilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ish mavzularini belgilashda tinglovchi va talaba ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari mavzularini to‘l dirib borishga harakat qilishi lozim.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” O‘zbekiston Respublikasining dastlabki mustaqil rivojlanishi strategiyasi sifatida

2. 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'n alishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi, uning maqsadi va mohiyati
3. Davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirishdagi strategik vazifalar
4. Qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'n altirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish masalasi
5. Siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish
6. Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish vazifalari
7. Mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish yo'l lari
8. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish
9. «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish masalalari
10. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish
11. Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish
12. Mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini oshirish, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish
13. Sud hokimiyatining chinakkam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish
14. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash
15. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish
16. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning Yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish
17. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish
18. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish
19. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish
20. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish
21. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish
22. Davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish
23. Fuqarolik jamiyati tushunchasi. O'zbekistonda fuqarollik jamiyati istiqbollari. Fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash vazifalari
24. O'zbekiston hududidagi ekologik muammolar tavsifi
25. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish
26. O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish
27. Davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish
28. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari va tamoyillari

29. G'arbda fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari
30. Sharq mamlakatlarida fuqarolik jamiyati institutlarining o'ziga xos jihatlari
31. Davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro munosabatlari
32. Jamiyatni boshqarishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli
33. Fuqarolik jamiyati ijtimoiy tuzilmasida mulkdorlar sinfining o'rni
34. Yoshlar muammolarini hal etishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli
35. Mahalliy boshqaruvda fuqarolik jamiyati institutlarining roli

3. DASTURNING INFORMATSION METODIK TA'MINOTI

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning quyidagi zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya usullaridan foydalanish;
- seminar mashg'ulotlarida aqliy hujum, FSMU, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash.

3.1. ASOSIY ADABIYOTLAR

Normativ – huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston. 2019.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni, 2014 yil 28 dekabr. [www. lex.uz](http://www.lex.uz)
3. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni, 2015 yil 9 dekabr. www. lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. /O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, №1. 2017 yoki www. lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi № O'RQ-431-sonli Qonuni. Xalq so'zi gazetasi. 31.05.2017y. №108-soni yoki www. lex.uz
6. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida"gi № O'RQ-440-sonli Qonuni. Xalq so'zi gazetasi. 29.08.2017y. №172-soni yoki www. lex.uz
7. O'zbekiston Respublikasining "Huquqiy axborotlarni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi № 443-sonli Qonuni. Xalq so'zi gazetasi. 07.09.2017y. №179-soni yoki www. lex.uz
8. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslar shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi № O'RQ-445-sonli Qonuni. Xalq so'zi gazetasi. 12.09.2017y. № 182-soni yoki www. lex.uz
9. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi № O'RQ-458-sonli Qonuni. 09.01.2018y. www. lex.uz
10. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi № O'RQ-474-sonli Qonuni. Xalq so'zi gazetasi. 13.04.2018 y. № 73-soni yoki www. lex.uz
11. O'zbekiston Respublikasining "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi № O'RQ-489-sonli Qonuni. Xalq so'zi gazetasi. 30.07.2018 y. www. lex.uz

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagi “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. / O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, № 6. 2017.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni //Xalq so‘zi, 2017, 8 fevral yoki www.president.uz
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 fevral kunidagi “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. Xalq so‘zi gazetasi № 29-son.09.02.2017. yoki www.lex.uz
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 fevral kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. T.: Xalq so‘zi gazetasi № 31-son.22.02.2017. yoki www.lex.uz
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 aprel kunidagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. T.: Xalq so‘zi gazetasi № 75-son. 17.04.2018. yoki www.lex.uz
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 may kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili institutini ta’ sis etish to‘g‘risida”gi Farmoni. “Xalq so‘zi” gazetasi № 87-son., 2017 y., 7 may soni yoki www.president.uz
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 iyun kunidagi “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. T.: Xalq so‘zi gazetasi № 129-son. 30.06.2017. yoki www.lex.uz
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 iyul kunidagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘l lab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni. T.: Xalq so‘zi gazetasi № 132-son. 16.07.2017. yoki www.lex.uz
20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kunidagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida”gi Qarori. T.: Xalq so‘zi gazetasi № 184-son. 14.09.2017. yoki www.lex.uz

Prezident asarlari

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. T.-Ma’naviyat. 2008.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. -O‘zbekiston. 2010.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. -O‘zbekiston. 2011.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘l ishi kerak. T.: “O‘zbekiston”, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘l imizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2017.
8. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oily bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018.

9. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon boladi. 3-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2019.
10. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2020.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvar kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi 25.01.2020. yoki www.president.uz
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabr kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi 30.12.2020. yoki www.president.uz

Fanga doir asosiy adabiyotlar:

1. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, сиёсий мафкуралар, сийсий маданиятлар. – Т.: Шарқ. 1998.
2. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: назария ва хорижий тажриба. – Т.: Янги аср авлоди, 2006.
3. Жалилов С.Ҳ. Фуқаролик жамиятининг пойдевори. – Т.: Ўзбекистон, 2003.
4. Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т.: Шарқ, 2002.
5. Ўтамуродов А. ва бошқалар. Фуқаролик жамияти фанидан тушунча ва атамалар луғати. – Т.: Турон-Замин, 2017. 19,5 б.т.
6. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг долзарб муаммолари: Ўқув кўлланма / Т. Дўстжонов, М. Мирҳамидов, С. Ҳасанов. – Т.: Иқтисод – Молия, 2006.
7. Толибов И.И. Фуқаролик жамияти: тушунчаси, институтлари, асосий принциплари ва функциялари / Ред. А.Х. Саидов. – Т.: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий Маркази, 2008.
8. Хасанов Р., Ўтамуродов А. Фуқаролик жамияти: назария ва амалиёт. Услубий кўлланма. – Т.: 2016. 14 б.т.
9. Эргашев И. Давлат ҳокимияти ва бошқарувини демократлаштиришнинг назарий масалалари. Ўқув кўлланма. -Т.: "Академия", 2014.
10. Idivov U.Yu., Xursandov A.S. “Siyosatshunoslik”. O‘quv qo‘l lanma. -T.: O‘R MG HTI, 2019.
11. Xursandov A.S. "O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti". Darslik. - T.: O‘R MG HTI, 2019.
12. Xursandov A.S. "Fuqarolik jamiyati". O‘quv qo‘l lanma. -T.: “Complex print”, 2019.
13. O‘tamurodov A. va boshqalar. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati. Darslik. - T.: O‘R MG HTI, 2020.
14. O‘tamurodov A. va boshqalar. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati. O‘quv qo‘l lanma. - T.: O‘R MG HTI, 2020.

3.2. FANGA DOIR QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик. – Т.: Шарқ, 2001.
2. Аристотель. Политика. – М.: АСТ, 2006.
3. Афлотун. Қонунлар. Урфон Отажон таржимаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. - 458 бет.
4. Абдуазимов О. Фуқаролик жамияти ва оммавий ахборот воситалари. –Т.: Академия, 2008.
5. Гуломов М. Маҳалла – фуқаролик жамиятининг асоси. – Т.: Адолат, 2003.
6. Берк Е. Правление, политика и общество / пер. с англ. – Канон-Пресс-Центр, 2001.
7. Беруний Абу Райҳон. 100 ҳикмат: ибратли сўзлар. – Т.: Фан, 1993.
8. Бобур. Бобурнома. – Т.: Юлдузча. 1989.
9. Гегель Г.В.Ф. Философия права / Пер. Б.Г. Столпнера, М.И. Левиной; Сост. Д.А. Керимов, В.С. Нерсеянс. – М.: Мысл, 1990.

10. Ибн Сина. Избранные философские произведения. Отв. ред. Асимов М.С. – М.: Наука, 1980.
11. Коев Дж., Арато Е. Гражданское общество и политическая теория. Пер. с англ. – М.: 2003.
12. Нишанбаева Е.З. Фукаротик жамияти ва ижтимоий шериклик тамойиллари. – Т.: Шарқ, 2015.
13. Мавлонов Ж.Ё. Гражданское общество: от концепта к концепциям и парадигмам (социально-философский анализ). Монография. – Т.: Истиклол нури, 2014.
14. Маликова Г.Р. Фукаротлар ўзини ўзи бошқариш органлари – миллий демократик институт / Масъул муҳаррир А.Х. Саидов. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009.
15. Муминов Е.А. Модернизация гражданского общества в Республике Узбекистан и Королевстве Испания. – Т.: ИПТД имени Г. Гуляма, 2011.
16. Навоий А. Махбуб ул-кулуб. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1988.
17. Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк– Т.: Адолат, 1997.
18. Платон. Государство // Платон. Соч. в 3-х томах. Т. 3. Часть II. М., 1971.
19. Рахманов А. Гражданское общество: достижения, проблемы, перспективы: учебное пособие. – Т.: Академия, 2007.
20. Темур тузуклари. Б. Аҳмедов тахрири остида– Т.: Ғ.Ғулом номидаги Нашриёт -матбаа бирлашмаси, 2008.
21. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
22. Цицерон. Диалоги. О государстве. О законах – М.: Наука, 1966.
23. Юсуф Хос Хожиб кутадғу билиг. – Т.: Фан. 1971.
24. Кайковус. Қобуснома. – Т.: Мерос, 1992.
25. Усманов М. Узбекистан по пути к сильному гражданскому обществу: тенденции и перспективы / М.Усманов, А. Саидов. - Ташкент: Внеш Инвест Пром, 2014.
26. Факторы развития гражданского общества и механизмы его взаимодействия с государством / под ред. Л.И. Яковсона. — М.: Вершина, 2008.
27. Мўминов А., Назаров Қ.Н. Ўзбекистон: Ахборотлашган жамият сари. -Т.: "Турон замин зиё", 2013.
28. Кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлида Кўлланма. -Т.: "Сано-стандарт", 2013.
29. Қаршибоев М. Кўнгиш – озод ҳам ўзинг, обод ҳам ўзинг. -Т.: "Маънавият", 2013.
30. Go‘zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O‘zbekistonim! “25”: Uslubiy qo‘l lanma/ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi; Respublika ma’naviyat targ‘ibot markazi; Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – Toshkent: “ Ma’naviyat”, 2016.

3.3. ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI

Internet tizimi uchun quyidagi saytlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. www.lex.uz
2. www.president.uz
3. www.strategy.uz
4. www.ziyonet.uz
5. www.edu.uz
6. www.ma'naviyat.uz
7. www.bilim.uz
8. www.senat.uz
9. www.nauka.uz
10. www.faylasuf.uz
11. www.muloqot.uz

12. www.xs.uz
13. www.gov.uz
14. www.mahalla.uz
15. www.kasaba.uz

**Ijtimoiy-gumanitar fanlar
kafedrası boshlig‘i
dotsent A.A.Tolipov**

**Universitet boshlig‘ining
birinchi o‘rinbosari
professor M.M. Mirakulov**

**O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti**

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası

**O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI. FUQAROLIK
JAMIYATI FANIDAN**

MA’RUZALAR MATNI

Ma’ruza matni Ijtimoiy-gumanitar
fanlar kafedrası majlisida
muhokama etilgan va ma’qullangan.
Bayonnoma №_1_
2021 yil, “_23_” _07_

T o s h k e n t – 2021

1.1.1.-mavzu. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘n alishlari

- 1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish.**
- 2. Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish.**
- 3. O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar kontseptsiyasi.**
- 4. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish samaradorligini oshirish.**

1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish.

Mamlakatimizda boshqaruv sohasini demokratlashtirish bosqichlari sifatini tubdan yaxshilash, fuqarolarning erkinliklari, huquqlari, munosib turmush tarzi va manfaatlarini ta‘minlash, bunda davlat idoralari mas‘uliyatini kuchaytirish, xalq bilan ochiq muloqotlarni yo‘l ga qo‘yishda yangi samarador vositalar va usullarni joriy etish, “Inson manfaatlarini barcha narsadan ustun” shiori ostida ish olib borish hisoblanadi. Prezident Sh.Mirziyoyev davlat va boshqaruv organlari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilot mutasaddilari faoliyatiga nisbatan ta‘kidlaganlaridek, *“Biz keyingi paytda odamlar bilan muloqot qilishni unutib qo‘ydik. Ularning ichiga kirib, ochiq va samimiy gaplashish, dardini eshitish bizning faoliyatimizda, afsuski, oxirgi o‘ringa tushib qoldi”*¹. Xalq qabulxonalarining barcha hududlarda ish boshlagani, xalq bilan keng miqyosda muloqot olib borilayotgani davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiq-oshkoraligini ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko‘lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat boshqaruvining mutlaqo yangi va samarali faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni talab qiladi.

Shu munosabat bilan mamlakatda davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash va davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish uchun elektron portallar va ma‘lumotlar bazalari yaratildi.

Xususan, ruxsat beruvchi hujjatlar va litsenziya olishni soddalashtirish uchun www.license.gov.uz, «yagona darcha» tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishni ta‘minlash uchun bir darcha.uz veb-saytlari yaratildi. Davlat xizmatlarini qayta ko‘rib chiqish va optimallashtirish natijasida tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatga olishning tartib-taomillari 4 marta, ro‘yxatga olish uchun zarur vaqt esa 30 daqiqaga qadar qisqartirildi.

Shu bilan birga, so‘n ggi yilda amalga oshirilgan keng ko‘l amlilarning obyektiv tahlili, davlat boshqaruvi organlari faoliyati, aholi bilan ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot natijalari mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli hal etishga ehtiyoj vujudga kelganligini ko‘rsatdi.

Bu, birinchi navbatda, quyidagi holatlarga taalluqlidir:

bir qator idoralarning vazifalari deklarativ xususiyatga egaligi va ularni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yetarli emasligi;

faqat holatlarni qayd etish va statistikani to‘plashdan iborat bo‘lib qolgan faoliyatni baholashning samarasiz tizimi va bu ko‘pchilik hollarda joylardagi ishlarning haqqoniy holatini aks ettirmaydi;

hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va aholining eng muhim muammolarini hal qilishda mahalliy hokimiyat organlari rolining pasayishiga olib keluvchi davlat funksiyalarining haddan tashqari markazlashtirilganligi;

byurokratashtirish va yuqori sarf-xarajatlarga olib kelayotgan innovatsion rivojlanishning past darajasi;

xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan davlatning tartibga solish va xo‘jalik funksiyalari qo‘shib olib borilishi, sog‘lom raqobat muhitining rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi imtiyoz va preferentsiyalarni tanlab taqdim etish amaliyoti;

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ. Ҳалқ сўзи, 8 декабрь, 2016 йил.


hududlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ayrim rahbarlarda lozim darajada mas'uliyat va tashabbuskorlikning mavjud emasligi.

Ushbu kamchiliklar iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Bu borada davlat rahbari tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmon 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'n alishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda muhim qadam hisoblanadi hamda mohiyatiga ko'ra O'zbekistonning davlat va jamiyat qurilishida yangi sahifani ochib beradi.

Mustaqillik tufayli biz o'zligimizni angladik, ozod xalq, mustaqil davlat sifatida O'zbekistonning ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilish imkoni tug'ildi. Qisqa davr ichida davlat va jamiyat qurilishida, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida ulkan zafarlar qo'l ga kiritildi, fuqarolarimiz ongida tom ma'noda yangicha qarash va yangicha fikrlash asoslari shakllandi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning "O'zbek modeli" asosida yurtimizda ijtimoiy yo'n altirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar juda muhim bir maqsadga, yani hokimiyatlar bo'l inishining konstitutsiyaviy printsiptini hayotga tadbiiq etish, ular o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi, mahalliy davlat vakillik organlari vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud-huquq tizimini liberallashtirish va mustaqilligini taminlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining roli va ahamiyatini, ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi.



Mamlakatimizda davlat hokimiyati subyektlari

Prezidentlik instituti va uning shakllanishi. Prezident so'zi lotincha bo'l ib, "oldinda o'tiruvchi" degan ma'noni bildiradi. O'zbekiston tarixida prezidentlik boshqaruvi birinchi bor 1990 yil 24 martda ta'sis etildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga Islom Karimov saylandi. 1991 yil 18 noyabrda "O'zbekiston Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bu qonunga 1997 yil 26 dekabr va 1999 yil 19 avgustda hamda 2003 yil 24 aprelda, 2007 yil 11 aprelda o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Mustaqillik yillarida prezidentlik instituti to'l a shakllandi. O'zbekiston Konstitutsiyasi 19-bobining 89-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi. Prezidentlik lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'l magan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq prezident bo'lishi mumkin emas. Prezident fuqarolar tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'l i bilan 7 yil muddatga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" mavzusidagi ma'ruzasida davlat qurilishi va boshqaruv sohasidagi eng muhim vazifa bo'lgan mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishish yo'l larini belgilab berdi. Shunga ko'ra, 2006 yili

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to‘g‘risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)” loyihasi matbuotda e‘lon qilinib, xalqning fikr mulohazalari o‘rganildi va natijada ushbu qonun Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan 2007 yili 29 martda ma‘qullandi. Prezident Islom Karimov 2007 yil 11 aprelda “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunga imzo chekdi. 2010 yil 27 yanvardagi Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi Prezident ma‘ruzasida ham aynan davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tildi. Ana shu “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to‘g‘risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)”gi Qonunga ko‘ra, Konstitutsiyamizning 89-moddasi yangi tahrirda qabul qilindi.

Bugungi kunda Konstitutsiyamizning **89-moddasida** “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta‘minlaydi” degan qoida belgilab qo‘yildi. Natijada Prezidentning ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i sifatidagi norma olib tashlandi, parlament faoliyatiga oid “muxolifat”, “ko‘pchilik” kabi tushunchalar kiritildi.

93-moddaning 15-bandi quyidagicha tahrir qilindi: “15) viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o‘z sha‘ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o‘z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli”.

102-moddaning ikkinchi qismi quyidagicha tahrir etildi: “Viloyat va Toshkent shahar hokimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi”. Ushbu qonun 2008 yil 1 yanvaridan kuchga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilgari egallab turgan Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimining tugatilishi davlat hokimiyati va boshqaruvini liberallashtirish va demokratlashtirish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi.

Demak, mustaqillik yillarida mamlakatimizda prezidentlik instituti shakllanib, u yanada takomillashdi, uning huquqiy negizlari mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, prezidentlik institutini yanada liberallashtirish, dunyodagi rivojlangan davlatlar boshqaruvi tizimiga mos tizimga o‘tish bo‘yicha bir qator takliflarni ilgari surdi. Bu takliflar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 96-moddasiga taalluqlidir.

Mamlakat Prezidenti turli sabablarga ko‘ra, o‘z vazifasini bajara olmaydigan holat yuzaga kelgan taqdirda noaniqlik, ushbu moddani turlicha talqin etishga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida uning yangi tahririni quyidagi mazmunda bayon etish taklif qilindi: “Mamlakatning amaldagi Prezidenti o‘z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy muddat ichida, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonunga to‘liq muvofiq holda, mamlakat Prezidenti saylovi o‘tkaziladi”.

Prezidentlik instituti faoliyatining shakllanish davri

Davlat boshlig'i va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi.
Fuqarolarning huquq va erkinliklari, Konstitutsiya va qonunlar kafili.
1990 yil 24 mart – Prezident lavozimi joriy etildi.
1991 yil 18 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi va unga 1997 yil 26 dekabrda, 1999 yil 19 avgustda , 2003 yil 24 aprelda, 2007 yil 11 aprelda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.
1991 yil 29 dekabr –O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti saylandi.
1995 yil 26 mart – I.A.Karimovning vakolatlarini 1997 yildan 2000 yilga qadar uzaytirish bo‘yicha referendum o‘tkazildi.
2000 yil 9 yanvar – Prezident saylovida I.A.Karimovning (91.9 foiz)g‘alabasi.
2002 yil 22 yanvarda o‘tkazilgan referendum yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati 5 yildan 7 yil qilib o‘zgaritirildi.
2007 yil 23 dekabrda Prezident saylovida to‘rtta nomzod ichidan I.A. Karimov g‘alaba qozondi (88.1 foiz).
Mamlakat Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoni (93-moddaning 20-bandi).
O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi (93-moddaning 24- bandi).
Vakolati tugashi munosabati bilan iste’foga chiqqan Prezident umrbod Senat a’zosi lavozimini egallaydi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida mamlakatimizda ikki palatali parlamentning barpo etilishi natijasida Prezident vakolat muddatining o‘zgartirilishi va unga tegishli ayrim vakolatlar Senat va Bosh vazirga o‘tkazildi. 2007 yilda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o‘zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i ekanini belgilaydigan norma chiqarib tashlandi, davlat boshqaruvida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishga oid, ya’ni Oliy Majlis Qonuchilik palatasidagi siyosiy partiya fraksiyalariga hukumat dasturlariga yoki uning ayrim yo‘n alishlariga qo‘shilmagan taqdirda o‘zini muxolifat deb e’lon qilishi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. 2009 yil 1 iyuldan kuchga kirgan “Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining takomillashtirishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni mazkur yo‘nalishdagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘l di.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o‘tkazishda mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi. Bu esa O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tomonidan e’tirof etilgan, markaziy davlat hokimiyati organlari o‘z vakolatlarini borgan sari mahalliy davlat hokimiyati organlariga o‘tkazib borish lozimligi xususidagi g‘oyaning amaldagi tasdig‘idir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti	
<i>Shu kungacha bo‘lgan holat</i>	<i>Prezidentimizning muhim takliflari</i>
93-moddaning 8-bandi: 8) Ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; respublika oliy hokimiyat va boshqaruv	93-moddaning 8-bandi: 8) Respublika oliy hokimiyati va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat

organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi.	qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi.
93-moddaning 12-bandi: 12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi.	93-moddaning 12-bandi: 12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi.
93- moddaning 15-bandi: 15) viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli.	93-moddaning 15-bandi: 15) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli.
93-moddaning 16-bandi: 16) Respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi.	93-moddaning 16-andi: 16) Respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli.
96-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti betobligi sababli o'z vazifasini bajara olmasligi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qo'shma qaroriga ko'ra tuzilgan davlat tibbiy komissiyasi xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda o'n kun muddat ichida palatalarning qo'shma favqulodda yig'ilishida deputatlar, senatorlar orasidan uch oyigacha bo'lgan muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini vaqtincha bajaruvchi saylanadi. Bu holda uch oy muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga umumxalq saylovi o'tkazilishi shart.	96-modda. Mamlakatning amaldagi Prezidenti o'z vakolatlarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlarini vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy ichida "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunga to'liq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o'tkaziladi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat (Parlament). Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat har bir davlatda o'ziga xos xususiyatga ega va turlicha ataladi (masalan, AQShda – Kongress, Shvetsiyada - Riksdag, Xitoy Xalq Respublikasida – Xalq vakillari umumxitoy majlisi). O'zbekistonda bunday hokimiyat Oliy Majlis deb nomlanadi. Uning maqomi, tizimi, tuzilishi, vazifalari, ish faoliyatiga oid qoidalarni belgilashda dunyodagi ilg'or davlatlarning va umuman, oliy qonun chiqaruvchi organni tashkil qilish bo'yicha xalqaro tarixiy tajriba chuqur o'rganilgan va inobatga olingan.

O'zbekistonda Oliy Majlis ayni paytda hokimiyatning qonun chiqaruvchi va vakillik organi hisoblanadi, uning tarkibidagi deputatlar xalq mafaatlarini ifodalaydi. Oliy Majlis 5 yil muddatga saylanadi. 25 yoshga etgan O'zbekiston fuqarolari saylanish huquqiga ega.

2010 yil 12 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo‘shma majlisida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi” mavzusida ma’ruza qildi. Ushbu ma’ruzada o‘ta dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan muhim vazifalarni hal etishda davlat hokimiyati tarmoqlarini, xususan, parlamentni yanada rivojlantirish va mustahkamlash, siyosiy partiyalarning rolini oshirish, mamlakatimiz sud-huquq tizimini, saylov qonunchiligini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, shuningdek, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonunchilik tashabbuslari ilgari surildi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning 2010 yil 12 noyabrda o‘tkazilgan qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi” mavzusidagi ma’ruzasi hamda mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishda Oliy Majlis Senati va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining rolini kuchaytirish borasidagi vazifalari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Aslida parlament frantsuzcha “parler”- gapirmoq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, rasmiy so‘zlashish joyi ma’nosini anglatadi. Parlament davlatning oliy vakillik organi hisoblanadi va qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Parlament qonun bo‘yicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat bo‘lib, hududiy saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida belgilangan yoshga to‘lgan fuqarolardan saylanadi. Parlamentarizm tajribasi shuni ko‘rsatadiki, parlament bir palatali va ikki palatali bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, demokratik mamlakatlarning aksariyatida parlament ikki palatalidir. XX asarning so‘n ggi o‘n yilligida ikki palatali parlamentlar soni 45 tadan 75 taga ko‘paydi. Hozirgi zamonda ikki palatali tizim parlamentarizm taraqqiyotining asosiy tendentsiyasiga aylandi. 2000 yilning 14 martida Parij shahrida bo‘lib o‘tgan jahon senatlarining maxsus anjumanida parlamentning ikki palatali bo‘lishi mamlakat hayotida ijobiy rol o‘ynaydi, degan xulosaga kelindi.

1990-1994 yillarda mamlakatimiz parlamenti Oliy Kengash nomi bilan atalib, bir palatali, 150 deputatdan iborat edi. 1995-2004 yillarda parlament Oliy Majlis nomi bilan atalib, bir palatali va uning 250 deputati mavjud edi. Mustaqillik yillarida xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 deputat, tuman va shahar Kengashlariga esa 30 nafar deputat saylanishi yo‘lga qo‘yildi. 2005-2009 yillarda Oliy Majlis ikki palatali parlament bo‘lib, uning quyi Qonunchilik palatasi 120 deputat, Senat (yuqori palatasi) esa 100 senatordan tashkil topdi, jami 220 deputatdan iborat bo‘lib keldi. Ikki palatali milliy parlamentni tashqil qilish masalasi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovtomonidan 2000 yil 25 mayda Oliy Majlisning 2-sessiyasida ilgari surildi. “Shuni yaxshi anglab olishimiz zarurki, hayot o‘zgarishi bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va ma’naviy ongi ulg‘ayishi bilan, bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham, uning faoliyatida ham tegishli o‘zgarishlar bo‘lishi tabiiydir. Shu holatlarni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o‘tish taklifini kiritmoqchiman, ya’ni biz 2004 yilda bo‘lib adigan saylovlarda parlamentni ikki palatali qilib tashkil etishimiz lozim”².

Oliy Majlisning 2001 yil 6 dekabrda qabul qilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish to‘g‘risidagi qaroriga ko‘ra, 2002 yil 27 yanvarda referendum o‘tkazildi. Shu asosdagi “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

2002 yil 12 dekabrda Oliy Majlisning 10-sessiyasi xalqimizning xohish irodasi bilan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunlar hamda ularni amalga oshirish to‘g‘risida qarorlar qabul qildi. Shuningdek, 2003 yil 24 aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida to‘plangan parlamentarizm tajribasi, O‘zbekiston xalqining qadriyatlarini va mentalitetini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan ushbu qonunlar ikki palatali parlamentimiz vakolatlarini va faoliyatining tashkiliy shakllarini aniq belgilab berdi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish, mashhur olim Aleksis de Tokvilning talqinicha, “shunday bir siyosiy institutki, u nafaqat siyosatchilar uchun, balki, umuman barcha fuqarolar uchun bir

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. – Асарлар, 8-жилд. Тошкент: Ўзбекистон, 2000- 483-бет.

maktabdir. Bu institutga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar yuksak-ki, u fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. O'zini-o'zi boshqarish organlari siyosiy madaniyat elementlarini shakllantirishning ham beqiyos omilidir. Oxir-oqibatda bu organlar faoliyati siyosiy tizimning bir butun barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlab beradi. Millat jamoaviy institutlarsiz ham erkin hukumat shakllantirishi mumkin. Lekin u erkinlikning haqiqiy ruhiga ega bo'la olmaydi".

XX asrning ikkinchi yarmida **ikkinchi nazariya** paydo bo'ldi. Ushbu "umumiy farovonlik davlati" nazariyasi bilan bog'liq holda, munitsipal (o'zini o'zi boshqarishga doir) kontseptsiya ham paydo bo'ldi. Munitsipalitetlar jamiyatning barcha tabaqalari manfaatlarini ta'minlovchi va qo'riqlovchi ijtimoiy xizmat ko'rsatish vositasi sifatida qaraldi. Yevropa, Shimoliy Amerika va Yaponiya kabi mamlakatlarda munitsipal kengashlar maqomi huquqiy jihatdan munitsipal ijroiya boshqaruvidan yuqori qo'yilgan bo'lib, ularning vakolatiga quyidagilar kiradi: mahalliy byudjetni qabul qilish, yuqori tashkilotlar tomonidan hal qilinmagan ayrim masalalar bo'yicha me'yoriy qarorlar qabul qilish, mahalliy soliqlarni joriy etish, shuningdek, ko'pchilik davlatlarda munitsipalitetning ijroiya rahbarlik organlarini tashkil etish va ularni nazorat qilish, mahalliy referendumlarni belgilash.

AQSh ijtimoiy-siyosiy hayotida ham munitsipalitetlar muhim o'rin egallaydi. Munitsipal maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, sanitariya ishlari, suv bilan ta'minlash, parklar, yong'inga qarshi xizmatlarni boshqarish asosan munitsipal kengashlar tasarrufidadir. Ayrim mamlakatlarda (masalan, Germaniyada) kengashlar o'z vakolatlarini ijroiya organlariga berish huquqiga ham ega.

Sobiq SSSR davrida mahallaning mazmuni va vazifalari butunlay soxtalashtirilgan edi. Bu davrda mahallalar o'zining huquqiy maqomini yo'qotdi. Ularning asosiy faoliyati sobiq kommunistik partiyaning mahalliy tashkilotlarini qo'l lab-quvvatlashdan, shuningdek, sho'raviy odatlarni targ'ib qilish, oilalardagi marosimlar va boshqa tadbirlarni o'tkazishda kommunistik partiyaning "ko'z va qulog'i" bo'lib turish kabi vazifalardan iborat bo'lib keldi. Bu davrda qadimdan ma'naviyat, ta'lim va tarbiya masalalarini hal etib kelgan mahallalarning o'rni deyarli yo'qqa chiqarildi.

Mustaqillik davriga kelib fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining qonuniy maqomini mustahkamlashga, ularni fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir jiddiy islohotlar amalga oshirildi (2.1.1-rasm). O'zbekistonda mahallalar milliy mustaqillik davriga kelibgina o'zini o'zi boshqarish organiga aylandi. O'zbekiston Konstitutsiyasi mahallaning maqomini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida mustahkamladi. Mamlakatimizda shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini oldi. Jumladan, mustaqillik davrida yurtimizda 10 mingdan ko'proq o'zini o'zi boshqarish organlari shakllangan bo'lsa, ulardan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi. Mahalla mustaqil tashkilot sifatida qaytadan mustahkamlandi va ularning aksariyati o'zining qadimgi nomlarini va xalq o'rtasidagi obro'-e'tiborlarini qaytadan tiklab oldi.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarishning demokratik tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Demokratiya, oshkoralik, fikrlar xilma-xilligi tamoyili.
2. Vorislik tamoyili.
3. Ijtimoiy munosabatlarni demokratlashtirish.
4. Yuksak ma'naviyat tamoyili.
5. Mahalla xavfsizligini ta'minlash tamoyili.
6. Fuqaro yig'ini raisi (oqsoqoli) va maslahatchilarining o'z mas'uliyatini his qilish tamoyili.
7. Ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat, ijtimoiy kafolat tamoyili (jamoatchilik va o'zaro yordam).
8. Kengash, mashvarat (maslahatlashish) tamoyili.
9. Insonparvarlik.
10. Mustaqillik va h.k.

Bunday boshqaruv tamoyillari sifat va miqdor ko'rsatkichlari orqali amalga oshiriladi.

Sobiq sho'ro davrida **ma'muriy-buyruqbozlik tizimi** quyidagi tamoyillarga asoslangan edi:

1. Byurokratlarcha markazlashuv.

2. Nomenklatura (yuqoridan ro'yxat asosida tayinlash) boshqaruvi.
3. O'ziga o'zi xizmat qilish, shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yish.
4. Buyruqbozlik (majburlash, dahshatli qarorlar chiqarish).
5. Demokratiyani tan olmaslik.
6. Rasmiyatchilik (qog'ozbozlik).
7. Mahdudlik (maxfiy ma'lumotlar asosida boshqarish).
8. Konservatizm va h.k.

Xalq bilan muloqot bu - fuqarolarning va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish, aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning yangi samarali mexanizmlari va usullarini joriy etish, barcha darajadagi davlat hokimiyati organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berishi tizimini amaliyotga joriy etish, shu asosda xalqning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgan boshqaruvning yangi shaklidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2016 yil 17 dekabrda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida F-4760-son farmoyishida aynan joylarda "xalq qabulxonalarini"ni tashkil etish, talab etiladigan davlat xizmatlarini aholiga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha bir idora orqali ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, "Adolat-qonun ustuvorligida" tamoyilini jamiyat hayotida keng qaror toptirish, oila institutini mustahkamlash, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiyalash va iqtisodiyotning barqaror sur'atlar bilan o'sishini ta'minlash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi³.

O'zbekistonda davlat boshqaruvi asoslari va hokimiyat organlarining aynan milliy demokratik tamoyillar asosida qaror topishi bu eng avvalo, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovni buyuk davlat va siyosat arbobi sifatidagi tashabbuslari, amaliy islohotlari bilan bog'liqdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li" asarida yangilangan jamiyat asoslari va davlat tuzilishini quyidagicha ta'riflaydi: "Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, jamiyatning siyosiy tizimini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish lozim bo'ladi"⁴.

Ushbu masalalarni bevosita amaliyotda tadbiq qilish uchun O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz" risolasida (2000 y.) 7 ta ustuvor vazifadan birinchi va ikkinchi vazifalar sifatida siyosiy sohada quyidagi masalalar:

- siyosiy hayotning barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish;
- ko'ppartiyaviylik muhitini ta'minlash;

- nodavlat tuzilmalarini, fuqarolik jamiyatini qaror toptirish;

- fikrlar xilma-xilligiga erishish, Ommaviy axborot vositalarini tom ma'nodagi "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarish;

- inson huquq va erkinliklarini, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni qaror toptirish;

Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida:

- hokimiyat organlarining konstitutsiyaviy asosda bo'linishini taminlash;
- mamuriy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish;
- kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, yangilash tizimini takomillashtirish⁵ kabi ustuvor yo'n

alishlar belgilab berilgan edi.

Mazkur yo'n alishlar O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimiga davlat boshlig'i sifatida Prezident, respublika hukumati sifatida Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari, markaziy davlat boshqaruvi idoralari va ularning joylardagi mahalliy organlari, viloyat, shahar, tuman hokimlari, ularning bo'limlari va boshqarmalari kabi boshqaruv institutlarini joriy etilishida muhim asos bo'lib xizmat qildi.

³Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили" давлат дастурини ишлаб чиқиш ва амалга оширишнинг ташкилий чора-тадбирлари тўғрисидаги Ф-4760-сон Фармойиши. Т.: 2016 йил 17 декабрь. // <http://lex.uz/docs/3121798>.

⁴Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. -Т.: "Ўзбекистон", 1992.-Б.16.

⁵Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Асарлар, 8-жилд. Т., Ўзбекистон, 2000. Б. 319-321.

Keyingi yillarda boshqaruv sohasidagi vazifalarning bir qismi respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazildi, mahalla tizimini shakllantirishga katta e'tibor berildi. Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash ishlari amalga oshirildi va bu boradagi islohotlar davom ettirilmocqda.

Lekin shuni ham aytib o'tish joizki, bugungi kunda prezidentlik instituti amal qilayotgan davlatlarda davlat boshqaruvining umumiy va o'ziga xos huquqiy xususiyatlari mavjud. Garchi tarixiy-huquqiy nuqtai nazardan dunyoda prezidentlik instituti davlat boshqaruv shaklining asosan keng tarqalgan va tan olingan instituti bo'lsa-da, u davlat amerikacha yoki bu davlat frantsuzcha modellarga to'la asoslangan, deya ayta olmaymiz va bunday deyshning o'zi ham noto'g'ri bo'ladi. Chunki, xalqaro huquq tili bilan aytganda, har bir davlat o'ziga xos taraqqiyotga va milliy huquqiy tizimga, o'ziga xos suveren demokratik rivojlanish yo'liga egadir. Masalan, davlat boshqaruvining prezidentlik respublikasiga asoslangan mamlakatlarga xos bo'lgan xususiyatlardan biri - bu prezidentning fuqarolar tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri va yashirin ovoz berish orqali saylanishi hisoblansa, ayrim mamlakatlarda prezident bilvosita saylov huquqi asosida saylanadi. Xususan, AQShda prezident to'g'ridan-to'g'ri emas, balki saylovchilar kollegiyasi orqali, Indoneziyada milliy konsultativ kongress orqali, Italiyada parlament palatalarining qo'shma majlisida saylanadi.

O'zbekistonda Respublikasida Prezident lavozimi 1990 yil 24 martda Oliy Kengashning 1-sessiyasida ta'xis etildi. O'zbekistonda prezidentlik lavozimini mustahkamlanishida 1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobi "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti" deb nomlanib, mazkur bob 9 modda (89-97 moddalar)ni qamrab olib, unda prezidentlikka nomzod oldiga qo'yiladigan talablar, Prezidentni saylash tartibi, Prezident qasamyodining matni, uning vakolatlari, Prezident chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa huquqiy normalar belgilangan.⁶

Shuningdek, 2008 yil 1 yanvardan boshlab⁷, O'zbekiston Respublikasida Prezidentning huquqiy maqomi yangi mazmun kasb etib, uning zimmasiga davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlash mas'uliyati yuklatildi. Mazkur normaning mazmun-mohiyati shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hokimiyatlar bo'linishi printsiptiga asosan tashkil qilingan bo'g'inlar tarkibiga kirmaydi, balki Konstitutsiyada mustahkamlangan vakolatlari asosida har uch mustaqil bo'g'in faoliyati natijasida davlat hokimiyatining maqsadi va mazmuni yagonaligini ta'minlash funksiyasini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega, mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi.

Mamlakatimizda prezidentlik institutining boshqa davlatlardan farqli o'laroq, yana bir muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. O'zbekistonda, avvalambor, milliy tarixiy taraqqiyot, ko'p mingyillik o'ziga xos huquqiy tizim hamda rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasini inobatga olgan holda hech bir davlatga o'xshamaydigan, bugungi kunda xalqaro jamoatchilikning katta qiziqishi va doimiy e'tiborida bo'lgan prezidentlik institutining o'ziga xos tajribasi yaratilgan.

2002 yil 4 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining beshinchi bo'limi XVIII, XIX, XX va XXIII-boblariga demokratik o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi sabab bo'ldi. Unga muvofiq, Prezident vakolatlarining bir qismi, birinchi navbatda, davlat boshqaruvi organlari vakillarini tayinlash va tasdiqlash kabi masalalar Oliy Majlisning Senatiga o'tkazildi. 89-moddaning "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining raisi hisoblanadi", degan 2-xatboshisi olib tashlandi.

Shuningdek, 2007 yil 11 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunni imzolanishi O'zbekiston Respublikasi

⁶Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т., "Ўзбекистон", 2017 й. XIX-боб.

⁷Ўзбекистон Республикасининг "Давлат бoшқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мamlakatни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида"ги Конституциявий қонуни. Т.: 2007 йил 11 апрель, ЎРҚ-88-сон. Манбаа: <http://www.lex.uz/docs/1164590>.

Prezidentining ilgari egallab turgan Vazirlar Mahkamasi raisi lavozimini tugatilishi davlat hokimiyati va boshqaruvini liberallashtirish va demokratlashtirish yo'lida navbatdagi qadam bo'ldi.⁸

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasi yangi tahrirda bayon etildi: "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi". Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikka parlament faoliyatiga oid "parlamentdagi ko'pchilik" tushunchasi hamda parlament faoliyatiga oid "muxolifat" tushunchasi ham kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda o'tkazilgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" nomli ma'ruzasi mamlakatimizning demokratik taraqqiyot yo'lidan og'ishmay yanada ildamlab borishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu ma'ruzada o'ta dolzarb ahamiyatga molik bo'lgan muhim vazifalarni hal etishda davlat hokimiyati tarmoqlarini, xususan, parlamentni yanada rivojlantirish va mustahkamlash, siyosiy partiyalarning rolini oshirish, mamlakatimiz sud-huquq tizimini va saylov qonunchiligini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, shuningdek, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonunchilik tashabbuslari ilgari surildi.

Parlamentarizm printsiplari asosida faoliyat ko'rsatuvchi davlat institutlari bilan bog'liq masalalar O'zbekistonda huquqiy davlatchilikning qaror topishiga taalluqli muammolar silsilasida muhim o'rin tutadi. Chunki XXI asrning boshlariga kelib oddiy bir haqiqat - to'la vakolatga ega bo'lgan parlamentsiz mamlakatda to'laqonli demokratiya bo'lishi mumkin emasligi yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Binobarin, fuqarolar demokratiya to'g'risidagi tasavvurlarini avvalo davlatni idora etishda o'zlari ishtirok etishlarining real imkoniyati bilan, qolaversa parlament orqali qonun ijodkorligi jarayoniga ta'sir ko'rsata olish imkoniyatlari bilan bog'laydilar.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida xalqaro huquq me'yorlari va rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalariga mos o'zining yangi saylov qonunchiligini yaratdi. O'zbekistonda demokratik tamoyillarga xos saylov yo'l i bilan davlat boshqaruvi organlarini shakllantirish hamda saylov jarayonlarining huquqiy bazasini yanada mustahkamlash borasidagi islohotlar o'zining muayyan taraqqiyot bosqichiga ega. Xususan:

- birinchi bosqich O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingunga qadar bo'lgan davr bo'lib, bunda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida" va O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida" bir qator qonunlar qabul qilindi.

- ikkinchi bosqich Konstitutsiya qabul qilingan vaqtdan - 1997 yilgacha bo'lgan davrni o'zi ichiga oluvchi milliy saylov tizimining to'liq qaror topishi, davlat boshqaruvi organlarini tashkil etilishi bosqichi bo'lib hisoblandi.

- uchinchi bosqich 1997 yildan 2005 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan amaldagi saylov jarayonlarini tartibga soluvchi qonunlarga ayrim o'zgartirishlar kiritish xususan, "Markaziy saylov komissiyasi to'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda ikki palatali milliy parlament tizimini rivojlantirish bosqichi hisoblanadi.⁹

Jumladan, Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat Parlament har bir davlatda o'ziga xos hususiyatga ega bo'lib u turlicha nomlanadi (masalan, AQShda-Kongress, Shvetsiyada-Riksdag, Xitoy Xalq Respublikasida-Xalq vakillari umumxitoy majlisi). O'zbekistonda bunday hokimiyat-Oliy Majlis deb nomlanadi. Uning maqomi, tizimi, tuzilishi, vazifalari, ish faoliyatiga oid qoidalarni belgilashda dunyodagi ilg'or davlatlarning va umuman, oliy qonun chiqaruvchi organni tashkil qilish bo'yicha xalqaro tarixiy tajriba chuqur o'rganilgan va inobatga olingan. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda o'tkazilgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" nomli mavzusidagi ma'ruzasi hamda mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishda Oliy Majlis Senati va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining rolini kuchaytirish borasidagi vazifalari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ikki palatali milliy parlamentni tashkil qilish masalasi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2000 yil 25 mayda ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 11-sessiyasida ilgari surilgan edi. "Shuni yaxshi anglab olishimiz zarurki, hayot o'zgarishi

⁸Ўзбекистон Республикасининг "Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида"ги Конституциявий қонуни. -Т., 2007 йил 11 апрель, ЎРҚ-88-сон.

⁹Усмонов Қ. Ўзбекистонда парламент тараққиётининг янги босқичи .Т., 2004, 11 – 12 бет.

bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va ma'naviy ongi ulg'ayishi bilan, bizning parlamentimiz tashkil etilishida ham, uning faoliyatida ham tegishli o'zgarishlar bo'lishi tabiiydir. Shu holatlarni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tish taklifini kiritmoqchiman, yani biz 2004 yil bo'l adigan saylovlarda parlamentni ikki palatali qilib tashkil etishimiz lozim".¹⁰

Oliy Majlisning 2001 yil 6 dekabrda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2002 yil 27 yanvarda Oliy Majlisni ikki palatali parlament tizimiga o'tkazish yuzasidan xalq referendumini o'tkazildi. Shu asosda "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

2002 yil 12 dekabrda ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 10-sessiyasi xalqimizning xohish irodasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunlar hamda ularni amalga oshirish to'g'risida maxsus qarorlar qabul qilindi. Shuningdek, 2003 yil 24 aprelda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" Qonun ishlab chiqildi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida to'plangan parlamentarizm tajribasi, O'zbekiston xalqining qadriyatlari va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan ushbu qonunlar ikki palatali parlament vakolatlarini va faoliyatining tashkiliy shakllarini aniq belgilab berdi.

2011 yil 18 aprelda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78,80,93,96 va 98-moddalariga) gi" Qonuni qabul qilindi. 2011 yil 18 aprelda O'zbekiston Prezidenti tomonidan imzolandi va 19 apreldan kuchga kirdi. Natijada, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining vakolatlari, Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlariga, Vazirlar Mahkamasi vakolatlariga hamda Bosh Vazirni tayinlash tartibiga hamda vakolatlariga tubdan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

O'z o'rnida ikki palatali parlamentning tashkil etilishi, O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyatni o'z taraqqiyotida yangi pog'onaga olib chiqdi. Eng asosiysi, garchi qonunchilik jarayoni ancha murakkablashgan bo'lsa-da, qabul qilingan qonunlarning sifati sezilarli darajada oshdi. Qonunlarni qabul qilishda siyosiy partiyalarning roli kuchaydi. Qonun loyihalarini partiyalarning fraktsiyalarida oldindan ko'rib chiqish, Qonunchilik palatasi yalpi majlislarida huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda ularning fikrlarini albatta eshitish amaliyoti shakllandi.

Mazkur islohotlar o'z natijasiga ko'ra, yana bir bor davlat hokimiyatining bo'linish tamoyilida mavjud sharoitlarni o'ziga hosligini inobatga olish, jahondagi rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasidan ijodiy foydalanish amaliyotini isbotlab berdi. Shuningdek, davlat boshqaruvining yana bir muhim tarmog'i bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Hukumati - Vazirlar Mahkamasi davlat hokimiyati tizimining yagona bir tarmog'i hisoblanadi.

Qonunlar ro'yobga chiqarilishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash ijro etuvchi organlarning asosiy vazifasidir. Hokimiyatlar bo'linishi printsiptiga muvofiq, ijro etuvchi hokimiyat, ya'ni mamlakat hukumati Vazirlar Mahkamasiga yuklatiladi. Odatda ijroiya hokimiyat parlamentga o'tkazilgan saylovlardan so'n g kamida bir oy ichida shakllantiriladi. Vazirlar Mahkamasining asosiy huquqiy maqomi-uning mustaqil O'zbekiston hukumati ekanidadir. Unga, o'z vakolati doirasida, qonunlarni va Prezident farmonlarini ijro etish masu'liyatini yuklangan. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruv idoralari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi muassasalariga rahbarlik qiladi¹¹.

2007 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimining tugatilishi-davlat hokimiyati va boshqaruvini liberallashtirish va demokratlashtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Mustakillik yillarida Vazirlar Mahkamasi, ya'ni ijroiya hokimiyat tarkibi 4 marta yangidan tasdiqlandi. 2010 yil 12 martda amaldagi Vazirlar Mahkamasi tarkibi belgilandi.

¹⁰Каримов. И.А. Озод ва обод Ватан. эркин ва фаровон хаёт- пировард мақсадимиз. Асарлар, 8-жилд. Т., Ўзбекистон, 2000. Б. 319-321.

¹¹«Ўзбекистон республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида» Ўзбекистон республикасининг Қонуни, 1993 йил 6 май.2003 йил 29 августь «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 йил, № 5, 202-модда) ўзгартишлар ва қўшимчалар киритилиб, унинг янги таҳрири тасдиқланган.

Demokratik tamoyillar asosida 2005 yili O‘zbekistonda Vazirlar Mahkamasi rahbari - Bosh vazir lavozimi joriy etildi. Konstitutsiyaning 89-moddasi birinchi bandidagi Prezidentga tegishli vakolatlar ijroiya hokimiyatga o‘tkazildi. Bu holat bir qator dunyo mamlakatlarida, xususan Frantsiya va Rossiya davlatlari Konstitutsiyalari normalarida ham mavjud. Vazirlar Mahkamasi qonun, farmon, farmoyish, qaror ijrolarini ta’minlash maqsadida maxsus qarorlar qabul qiladi hamda nazorat yo‘li bilan boshqaruvini amalga oshiradi, ijro hokimiyatini ta’minlaydi.

Umuman, hozirgi kunda mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida islohotlar chuqurlashtirilmoqda. Oliy Majlis vakolatlari tartibida Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi (lot. erk, ixtiyor, hoxish) bildirish huquqi berildi. Vazirlar Mahkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi Prezident vakolati doirasidan chiqarildi.

Saylovlarda eng ko‘p deputatlik o‘riniga ega bo‘lgan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh vazir nomzodining Parlament tomonidan ko‘rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi konstitutsiyaviy tartib belgilanib, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi (saylovchi tashkilot vakillarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilingan qarorlar) instituti joriy qilindi.

Oliy Majlisga hokimiyat vakillik organlari va tashabbuskor guruhlardan nomzod ko‘rsatish instituti tugatildi. Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod ko‘rsatish huquqi faqat siyosiy partiyalarga berildi. Oliy Majlisga saylovlarni tayinlash instituti tugatildi va uning o‘rniga “Saylov kampaniyasi boshlanishini e’lon qilish” instituti joriy etildi. Bu vazifani O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi amalga oshirishi belgilab qo‘yildi.

Siyosiy partiyalarning vakolatli vakili tushunchasi “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonun hujjatiga kiritildi. Mazkur institut Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko‘rsatgan siyosiy partiya saylov uchastkasida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish huquqini vujudga keltirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o‘rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritilishi, Oliy Majlis palatalari qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish bo‘yicha qaror qabul qilishi, bunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste’foga chiqishi borasidagi kiritilgan takliflar ushbu yo‘nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan Bosh vazirning qaror qabul qilishi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiga nomzodlar Bosh vazir tomonidan taqdim etilishi Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazir vakolatlarini yanada mustahkamlab, uning mas’uliyatini kuchaytirdi.

Mutaxassis olim R.Jumayev ta’kidlaganidek, “O‘zbekistan siyosiy tizimining moslashuv qobiliyatining qat’iy usuli o‘l aroq, siyosiy tizim yaxlitligini saqlab qolgan holda bosqichma-bosqich zamonaviy andozalarga o‘tmoqda. Mahalliy hokimiyat tuzilmalari, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, jamiyat va ijodiy uyushmalarning mustaqillik darajasi kengayib, erkinlik darajasi bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Ularning faoliyatini jonlantirish, umumdemokratik o‘zgarishlar jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlash O‘zbekistonning bugungi rivojlanish bosqichidagi eng dolzarb vazifalaridan biridir”¹².

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, mamlakatimizda davlat boshqaruvi sohasida chuqur demokratik islohotlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash jarayonlari eng avvalo, milliy madaniy xususiyatlarga tayangan holda, dunyo xalqlari umume’tirof etilgan demokratik tamoyillarga asoslanib, muntazam holda tadrijiy evolyutsion amalga oshirilayotganligi bilan xarakterlidir.

Mustaqil taraqqiyot yo‘li i O‘zbekistonda davlat boshqaruvining aniq maqsadlarini belgilab olishda va amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Bu mamlakatimizda mustaqillik tufayli belgilab olingan “Kuchli davlatdan, kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tish” jarayonida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Davlat hokimiyatini tashkil etishda, uning bo‘linishi tamoyiliga amal qilish huquqiy davlat qurishda muhim va belgilovchi ahamiyatga ega. Unda qonun ustuvorligi, fuqarolarning erkinligi, huquq va manfaatlarini amalda ta’minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari shakllanadi va mustahkamlanib boradi.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, davlat va jamiyat munosabatining demokratik mohiyatga ega ekanligini anglatadi. Mazkur maqsad faol fuqarolik jamiyatini qurishning strategiyasini belgilab beradi.

¹²Jumayev P. “Davlat va jamiyat: demokratlashiriш йўлида”. –Т., “Шарқ” нашриёти, 1998 й, 31-бет.

Davlat va jamiyat boshqaruvini demokratlashtirish va modernizatsiyalash umum e'tirof etilgan demokratik printsiplarga, qonun ustuvorligi, davlat hokimiyati va boshqaruvini erkinlashtirish, davlat hokimiyatini tashkil etishda hokimiyat bo'linishi printsipti, adolat, inson erkinligi va manfaatlar ustuvorligi, saylovlar, ko'ppartiyaviylik kabi mezonlarga asoslanganligi bilan xarakterlanadi. Demokratiya umume'tirof etilgan qadriyatdir. Uni amalga oshirishda har bir xalq, mamlakatning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, milliy ma'naviy xususiyatlari, milliy davlatchiligi negizlari bilan bog'liq xususiyatlari ham hisobga olinishi, hurmat qilinishi demokratiya talablariga mos keladi.

O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasining ishlab chiqilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonining qabul qilinishi yaqin istiqbolda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-g'oyaviy sohalarida amalga oshirilishi zarur bo'lgan dasturiy mo'ljallarni belgilab berdi. Bu mustaqil taraqqiyot yo'limizni aniq maqsadlar orqali ifoda etadi hamda demokratik qadriyatlarni yanada chuqurroq hayotimizga singib, demokratik fuqarolik jamiyatini qaror topishiga xizmat qiladi.

2. Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ko'rinishlari, tasnif mezonlariga bog'liq holda, quyidagicha taqsimlanishi mumkin:

- hokimiyatlarning bo'linish tamoyili bo'yicha: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari;

- hududiy miqyosi bo'yicha: mintaqaviy (hududiy), mahalliy hokimiyatlar;

- davlat faoliyati ko'rinishi bo'yicha: fuqarolik, harbiy, huquq-tartibot, maxsus ixtisoslashgan hokimiyatlar;

- tashkiliy-huquqiy me'yorlarga bo'yicha: jamoaviy, yakkatartibdagi hokimiyatlar;

- qaror qabul qilish shakli bo'yicha: kollegial, yakka-tartibdagi hokimiyatlar;

- davlat boshqaruv vazifalarini amalga oshirish shakli va usullari bo'yicha: siyosiy, ma'muriy, moliyaviy, kuch ishlatuvchi, iqtisodiy, jazo, nazorat-kuzatuv, maslahat, muvofiqlashtiruvchi hokimiyatlar;

- yuklatilgan vakolatlarni bajarish xususiyatlari bo'yicha: markaziy hokimiyatboshqaruvi, funktsional hokimiyat boshqaruvi.¹³

Xususan, 1995 yil mamlakatimiz tarixida birinchi marta ko'p partiyaviylik asosida o'tkazilgan erkin parlament saylovlariham, joylarda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlaridan tortib, vakillik, ijroiya, sud organlarigacha bo'lgan idora tizimlarini barpo etish, barcha siyosiy va jamoatchilik harakatlari, partiyalar hamda respublika aholisining jamiki qatlamlaridan vakillar bo'lgan respublika parlamenti - Oliy Majlisni shakllantirish imkonini berdi¹⁴.

Davlat hokimiyati va boshqaruvida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, ayniqsa faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davrida (2000-2010 yy.) jadallashdi. Ushbu jarayon, jumladan, aholining siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qildi. XXI asrning dastlabki yillarida islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish dasturi" doirasida fuqarolarning o'z xohish-irodasini erkin ifodalashi, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlashi uchun zaruriy huquqiy maydon, imkoniyatlar va kafolatlar yaratish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish chora-tadbirlari kompleksi yaratildi¹⁵.

2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan referendumda O'zbekiston xalqi mamlakatda ikki palatali parlamentni tuzishni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yilga o'zgartirishni yoqlab ovoz berdi. 2002 yil 4 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari

¹³Василенко И.А. Государственное и муниципальное управление: учебник для академического бакалавриата / И. А. Василенко. -6-е изд., пер. и доп. -М. : Издательство Юрайт, 2014. С. 494.

¹⁴Каримов И.А. Бунёдкорлик - фаровон ҳаёт асоси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг IV- сессиясида сўзланган нутқ, 1995 йил 21 декабрь. 84-бет.

¹⁵XXI аср дastlabки йилларида ислохотларни чуқурлаштириш ва жамиятни янгилашнинг устувор йўналишларини амалга ошириш дастурлари рўйхати. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 10 июнь "Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлис XIV сессиясидаги маърузаси асосий қоидаларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"даги Қарорига илова // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари Миллий базасининг веб-сайти – www.lex.uz.

to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni qonun ustuvorligini, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud tarmoqlari o'rtasida muvozanatni, ulardan har birining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir ishlarning asosiy yo'nalishlari ekanini belgilab berdi¹⁶.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbuslari bilan 2003 yil 9 dekabrda "Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-3358-son Farmoni qabul qilinib, unda jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va isloh qilishning hozirgi bosqichi talablariga muvofiq iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarining hokimiyat vakolatlarini qisqartirish, davlat va xo'jalik boshqaruvi vazifalarini aniq chegaralab qo'yish, shuningdek respublika davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida: "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, qo'mitalar, agentliklar, shuningdek ular huzurida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladigan davlat boshqaruvi tuzilmalari respublika davlat boshqaruvi organlari jumlasiga kiradi"¹⁷ deb belgilab berildi. Ushbu jarayon O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini zamonaviy talablar asosida isloh etishni ilk modernizatsiyalashgan usulini boshlab berdi. Bugun davlat boshqaruvi tushunchasiga zamonaviy yondashuv deb qaralayotgan "modernizatsiyalash strategiyasi" eng avvalo davlat hokimiyati organlari tizimida "institutsional o'zgarish" vositalaridan keng foydalanadigan kontseptsiya sifatida e'tirof etiladi. Bunda eng asosiy e'tibor davlat hokimiyati organlari faoliyatini belgilashda:

- vakolat va vazifalarning tashkiliy-huquqiy asoslarini qayta takomillashtirish;
- xizmatchi kadrlar va moddiy resurslarni hisobga olgan holda optimallashtirish;
- strategik rejalashtirishning innovatsion shakllarini joriy etish;
- byurokratiyadan xoli qilish, faoliyatning shaffofligini oshirish;
- davlat hokimiyati organlari ish samaradorligini o'l chash indikatorlarini qo'l lash kabi talablar mazkur kontseptsianing asosiy belgilari sifatida baholanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz boshqaruv tizimida demokratik davlatlar tajribasida sinalgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasida barqaror muvozanat, bir-birining faoliyati ustidan nazorat qilish va o'zaro chegaralab turishni ta'minlovchi mexanizm shakllantirildi. Bu mexanizm Konstitutsiya va qonunlarimizda mustahkamlangan. O'zbekiston Prezidenti, ijro hokimiyatining boshlig'i sifatida, hokimiyatning konstitutsiyaviy asosda bo'linishi tamoyili doirasida Konstitutsiya bo'yicha o'ziga yuklangan vazifalarni bajarib, turli hokimiyat tarmoqlarining o'zaro hamkorlikda ishlashini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 89-moddasida "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi", degan qoida mustahkamlab qo'yilgan. **Shuningdek, mamlakat va jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichida, Prezidentlik instituti hokimiyat tarmoqlarining o'zaro kelishilgan holda faoliyat yuritishini ta'minlovchi institut sifatida o'zini namoyon etadi.**

Prezidentning hokimiyatlar bo'linishi sharoitidagi hokimiyat tarmoqlarining o'zaro mutanosib ishlashini ta'minlashga qaratilgan faoliyatining konstitutsiyaviy asosi 93-moddaning 8-bandida mustahkamlangan bo'lib, unga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi"¹⁸. Mazkurjihat bugungi kunda bir qator MDH mamlakatlari davlat hokimiyatini tashkil etish amaliyoti tajribasida ham davlat boshlig'i - Prezidentning hech bir hokimiyat tarmog'iga mansub bo'l masdan, balki ularning o'zaro bahamjihat ishlashini ta'minlovchi institut sifatida faoliyat yuritishi qonun hujjatlarida isbotlangan. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 80-moddasi 2-bandida mustahkamlanishicha, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti davlat hokimiyati organlarining muvofiqlashgan tarzda faoliyat olib borishini va

¹⁶Ўзбекистон Республикасининг "Референдум якунлари ҳамда давлат ҳокимияти ташкил этилишининг асосий принциплари тўғрисида"ги Конституциявий Қонуни // Халқ сўзи. – 2002. - 12 апрель.

¹⁷Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 11-12-сон, 178-модда.

¹⁸Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2017. 93-модда. (93-модданинг биринчи қисми 8-банди Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелдаги ЎРҚ-366-сонли Қонуни тахририда-ЎР ҚХТ, 2014 й., 16-сон, 176-модда).

o‘zaro harakat qilishini ta’minlaydi¹⁹. Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida Prezident davlat organlarining muvofiqlashgan tarzda faoliyat olib borishini va o‘zaro harakat qilishining kafili ekanligi belgilab qo‘yilgan²⁰.

Ba’zi xorijiy manbalarda hokimiyatning konstitutsiyaviy bo‘linishi tamoyili ko‘phokimiyatchilik holatiga olib kelishi, davlat hokimiyati ta’sirini zaiflashtirishi mumkin, degan fikrlarni ham uchratish mumkin. O‘zbekistonda davlat hokimiyati yagona bo‘lib, uning birdan-bir manbai, Konstitutsiyaning 7-moddasiga binoan, xalqdir. Hech bir davlat o‘z organi hokimiyatini mutlaqo suveren (mustaqil) holda amalga oshirmaydi va bunga intilmaydi ham. Davlat hokimiyati tegishli organlar o‘rtasida bo‘linmaydi, uni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari konstitutsiya bergan vakolatlar doirasida amalga oshiradi.

O‘zbekistonda parlament tizimini isloh qilish, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining sifati va asosli bo‘lishini yaxshilash bilan bir qatorda davlat miqyosidagi manfaatlar bilan mintaqalarning manfaatlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash, davlat va jamiyat qurilishida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki ko‘lamini ancha kengaytirish imkonini berdi.

2007 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunni²¹ amalga oshirish natijasida qonunchilik hokimiyati bo‘lmish Oliy Majlis va joylardagi mahalliy kengashlarning vakolatini, ijro hokimiyati bo‘lgan hukumatning mustaqilligini oshirish, Prezidentning vakolat va vazifalariga o‘zgartishlar kiritish va ularni qisqartirish imkoni yaratildi.

Birinchi chaqiriqdagi parlament ishining (2004-2009 yy.) yakunlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini ikki palatali parlamentga aylantirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlarning to‘g‘riligi va o‘z vaqtida amalga oshirilganini isbotladi. Qabul qilinayotgan qonunlarning sifati jiddiy ravishda yaxshilandi, samarali o‘zaro tiyib turish va muvozanat tizimi yaratildi, davlat miqyosidagi va hududiy manfaatlarining mutanosibligi va uyg‘unligi ta’minlandi. Mamlakatimizning qonun chiqaruvchi organi faoliyatida siyosiy partiyalar, mahalliy vakillik hokimiyati organlarining roli va ta’siri yanada oshdi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tashabbusi bilan 2010 yilda qabul qilingan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi”ga asosan, davlat hokimiyati idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, shu jumladan, prokuratura faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish va qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha adliya organlarining rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan yangi huquqiy mexanizmlarni joriy etadigan hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish talab etildi. Adliya organlarining huquq ijodkorligi sohasi va huquqni qo‘llash amaliyotida yagona davlat siyosatini o‘tkazishdagi rolini kuchaytirish uchun ularga zarur bo‘lgan tegishli vakolatlarining berilishi mamlakatimizning huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tizimida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali mexanizmini yaratish imkonini berdi, bu esa mazkur organlar faoliyatida qonuniylik va qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qildi²².

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarga muvofiq²³, Oliy Majlis palatalari mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining hisobotini eshitish huquqiga ega bo‘ldi. Binobarin, mazkur qonun markaziy va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati ustidan parlament nazoratini takomillashtirish, davlat hokimiyati tizimida o‘zaro tiyib

¹⁹См. Конституция Российской Федерации. -М.: Юрлит, 2008.

²⁰Тожикистон Конституцияси. -Душанбе: Ирфон, 2006.

²¹Ўзбекистон Республикасининг “Давлат бoшқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида”ги Конституциявий Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. -2007. -№15. -151-модда.

²²И.А.Каримов. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. // www.press-service.uz.

²³Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг айрим моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (78, 80, 93, 96 ва 98-моддаларига)”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. -2011. - №16. - 159-модда.

turish va manfaatlar muvozanati mexanizmlarini yanada rivojlantirishning, mamlakatimizda keng ko‘lamli demokratik ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda parlament rolini oshirishning muhim omiliga aylandi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat hokimiyati o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va muvozanat tizimi faqat rahbarlar emas, balki aniq bir shaxsning ham o‘zini namoyon etishi hamda muhim institutsional o‘zgarishlar tashabbuskori bo‘lishi uchun erkin va haqiqiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan taqdirdagina ravnaq topadi. Albatta, bu bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va muayyan davlatdagi kuchli, ochiq hamda adolatli fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Bu borada Osiyo mintaqasida rivojlangan Xitoy va Yaponiyada amalga oshirib kelinayotgan zamonaviy ma‘muriy islohotlar ham alohida e‘tiborga loyiq. Xitoydagi ma‘muriy islohotlarning asosiy yo‘n alishlari etib, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari apparati xodimlarini qisqartirish, takrorlanuvchi funktsiyalarni bartaraf etish, Davlat kengashi tuzilmasini qayta tuzish, samarali kadrlar siyosatini yuritish, korruptsiyaga qarshi kurash kabi vazifalar ustuvorligi belgilangan. Bir paytning o‘zida islohotlar jamiyatdagi barqarorlikni buzilmasligiga jiddiy e‘tibor berildi. Buni nohukumat tashkilotlar bilan ishlash bo‘yicha davlat organlari funktsiyalari kuchaytirilganida ham ko‘rish mumkin²⁴.

XXI asrning boshida boshlangan Yaponiyadagi ma‘muriy islohotlarning o‘ziga xos jihati davlat xizmati funktsional va tarkibiy o‘zgarishlarga asosiy e‘tibor qaratilishi bilan izohlanadi. Buning asosiy mazmuni yagona davlat tartibga solish mexanizmi doirasida umumiy boshqaruvchilik darajasini ko‘tarish maqsadida huquq va javobgarlikni qayta taqsimlashdan iborat. Islohot natijasida bosh vazir va uning funktsional roli kuchaytirildi, vazirlik va idoralar qayta tuzildi, ular ma‘muriyati faoliyatini baholashning yangi shakllari joriy etildi, bir qism boshqaruv funktsiyalari quyi organlarga berildi, davlatning kadrlar siyosati o‘zgartirildi.

Xususan, Yaponiyada davlat boshqaruvi kadrlar siyosatida betaraflik, xolislikni ta‘minlash hamda kadrlar masalasini ilmiy asoslantirilgan boshqaruvini rivojlantirish uchun ma‘lum bir davlat xizmatchisiga nisbatan kadrga oid ishlar bevosita qo‘l ostida bo‘lgan rahbari tomonidan emas, balki boshqa davlat organi tomonidan kadrga doir vakolatlar professional tarzda bajara oladigan tizimning ishlab chiqilganligida.

Aynan Yaponiyada ushbu tizim:

1) alohida (har bir) davlat xizmatchisining ishga olinishi, ishdan bo‘shatilishi, bo‘ysunuvi va xodim ustidan nazorat olib borish kabi bevosita kadrga oid masalalar markaziy davlat organlari darajasida vazirlik, qo‘mita va boshqa organlar rahbarlari (ya‘ni vazir, rais va h.k) tomonidan, mahalliy darajada esa prefektura (viloyat, shahar, tuman) mer (hokim)lari tomonidan amalga oshiriladi;

2) kadrga oid boshqaruvda siyosiy betaraflik, xolislikni ta‘minlash hamda kadrlar masalasining ilmiy asoslantirilgan boshqaruvini ta‘minlash maqsadida mustaqil organ-kadrlar masalasi bo‘yicha davlat boshqaruvi organini joriy etilishi.

Davlat markaziy apparati darajasida bunday organ Kadrlar boshqarmasi deb nomlansa, mahalliy darajada kadrlar bo‘yicha komissiya yoki adolat komissiyalari faoliyat yuritadi²⁵.

2014 yil 16 apreldagi O‘RQ-366-son “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga)”gi Qonun tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini ta‘minlash jarayonini yanada yuqori bosqichga olib chiqdi. Xususan, mazkur qonun bilan jamoatchilik va parlament nazorati institutlarini joriy etish uchun konstitutsiyaviy asos yaratildi, ijro etuvchi hokimiyatning vakillik organlari oldidagi mas‘uliyati yanada oshirildi. O‘zbekiston Respublikasining davlat mexanizmini samarali tartibini o‘rnatish jarayonida ijro etuvchi apparatning o‘rniga alohida e‘tibor qaratildi.

²⁴Армянинова А.А. Государственное управление в Японии и Китае: сравнительный анализ // Гуманитарные научные исследования. ФГБОУ ВО “Башкирский государственный университет”, 2017. № 1 [Электронный ресурс]. URL: <http://human.snauka.ru/2017/01/18875>

²⁵Нематов Ж. Японияда давлат хизматининг ўзига хос хусусиятлари: қиёсий-ҳуқуқий таҳлил.//Ўзбекистон Республикасида давлат хизматини ислоҳ этишининг ҳуқуқий асослари: давра сухбати материаллари. - Тошкент: Baktria press, 2015. Б.38.

Ijro etuvchi apparat bu-respublika Hukumati faoliyatini tashkiliy va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlashni, Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislarini, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari loyihalarini tayyorlaydi, ularni amalga oshirish yuzasidan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqadi hamda tizimli ravishda ijroni nazorat qiladi²⁶.

Ijro etuvchi apparatning tuzilmasiga Ijro etuvchi apparat boshqaruvchisi va uning o'rinbosari, Ijro etuvchi apparatning tarkibiy bo'linmalari-mamlakat iqtisodiyotining muhim komplekslari, tarmoqlar va sohaları bo'yicha -tahlil departamentlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining kotibiyati, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosarlarining apparatlari, Ijro etuvchi apparat boshqaruvchisi va o'rinbosarining kotibiyatlari, Huquqiy ekspertiza va xalqaro shartnomalar boshqarmasi, funktsional bo'limlar kiradi.

Davlat rasmiy hokimiyat tashkiloti sifatida o'zining ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha turli vazifalarini bajarar ekan, bu hokimiyatni belgilangan tartibda tashkil etiladigan davlat hokimiyati organlari va boshqaruv idoralari yordamida amalga oshiradi. Bu tizim davlat hokimiyatining yordamchi instituti, uning qarorlarini hayotga joriy etuvchi, hokimiyat vakolatlarini ma'lum huquq va majburiyatlarga muvofiq tarzda amalda ijro etadigan uning tuzilmalari bo'lib hisoblanadi. Demak, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hokimiyat tarmoqlari tizimida:

- funktsional;
- institutsional;

- personal jihatlari bilan ajralib turadi. Uning tizimida juda katta boshqaruv, moddiy va insoniy resurslar to'plangan bo'lib, bu holat davlat hokimiyati organlarining jamiyatda tutgan real o'rni va ahamiyatiga ta'sir etadi.

Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish bo'yicha islohotlarni amalga oshirish jarayonida hokimiyat tarmoqlari vakolatlari va nazorat funktsiyalarini kuchaytirish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bu borada boshqaruv apparatini demokratlashtirish quyidagilarni anglatadi:

- hokimiyatni markazdan soqit qilish-boshqaruv tizimida quyi pog'onada turadigan hokimiyat organlari vakolatlarini kengaytirish;
- hokimiyat vakolatini berish-davlat boshqaruvi vazifalarining bir qismini fuqarolik jamiyati institutlari va tashkilotlariga o'tkazish;
- hokimiyatni demokratlashtirish-boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish²⁷.

Davlat idoralari davlat hokimiyatini ijro etish va davlat boshqaruv vazifalarini amalga oshirish uchun tashkil qilinadi. Bunda davlat-boshqaruv faoliyatining ijtimoiy maqsadi sifatida quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- me'yoriy hujjatlar, insonlarning xatti-harakat qoidalarini qabul qilish bilan bog'liq muvofiqlashtirish vazifasi;
- huquq-tartibot, qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlaydigan tashkilotchilik vazifasi;
- fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iborat muhofaza vazifasi²⁸.

Davlat va hokimiyat vakolatlarining mavjudligi-davlat organining katta ahamiyatga molik belgisi. Boshqa belgi, alomatlar bilan birgalikda u bir tomondan, davlat hokimiyati organlari va boshqaruv idoralari o'rtasida, boshqa tomondan esa, davlat tashkilotlari hamda nodavlat idora va tashkilotlar o'rtasida aniq chegara qo'yish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasidagi davlat idoralari davlat hokimiyatini amalga oshirishning yagona tizimini tashkil etadi. O'zbekiston fuqarolari davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini amalga oshirar ekan, saylovlar va o'z vakillari orqali davlat organlarini shakllantirishga

²⁶“Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Ижро этувчи аппарати тўғрисида” Низом. 3-банди. Вазирлар Маҳкамасининг 2008 йил 2 майдаги 81-сон қарорига 2-илова.

²⁷Хутинаев И.Д. Децентрализация государственной власти как элемент теории институционализации // Социология власти. – 2005. - №6. С.83-84.

²⁸Раҳмонов А. “Ўзбекистон Республикасида давлат бошқаруви”. Т., “Академия” 2006 й. Б. 25-26.

ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasiga muvofiq "Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar"²⁹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasida qayd etilganidek, mahalliy hokimiyat idoralari vakolatiga quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish masalalari;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa aniq bo'l adiki, O'zbekistonda davlat organlari tizimi deganda uning markaz, viloyatlar, tuman va shaharlardagi vakillik idoralari hamda mahalliy davlat hokimiyat organlarining yaxlitligi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'n alishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so'zsiz amalga oshirish, joylarda ishlarni tashkil etish, birinchi navbatda, jamoatchilik oldida hisobot berish shakllari va uslublarini tubdan takomillashtirish, aholining hayot sifati va darajasini yuksaltirish, davlat organlari rahbarlarining mas'uliyatsizligi holatlarining yuzaga kelishiga qat'iy ravishda barham berish hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbuslarini har tomonlama qo'l lab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3182-son qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga asosan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yangicha tizim-sektorlar faoliyati yo'l ga qo'yildi. Unga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlari tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) hokimlari, prokuratura, ichki ishlar va davlat soliq xizmati hududiy organlari rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 4 ta sektorlarga bo'lindi³⁰. Hududlar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar ishini tashkil etish "mahalla-tuman (shahar)-viloyat-respublika" sxemasiga muvofiq faoliyatini tashkil etilishi mazkur qarorda belgilab qo'yildi. Ushbu jarayon:

- davlat boshqaruvi organlarining vazifalari, funktsiyalari va vakolatlari, ularni amalga oshirish mexanizmlari hamda javobgarlik sohasini aniqlashtirish, muvofiqlashtirish hamda strategik rejalashtirish jarayonlarini markazlashtirishdan chiqarish va takomillashtirishga;
- davlat boshqaruvi organlari faoliyatini tashkil etishning institutsional, moliyaviy asoslarini takomillashtirish, davlat xizmatlarining sifati va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish, shu jumladan, ularning elektron shaklda taqdim etilishini to'laqonli ta'minlashga o'tish, "Elektron hukumat" tizimini yanada rivojlantirishga;
- iqtisodiyot tarmoqlarini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirish va xo'jalik boshqaruvi organlari maqomini qayta ko'rib chiqishga;
- mahalliy davlat hokimiyati organlarini tashkil etish va faoliyatini takomillashtirishga;

²⁹Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т., “Ўзбекистон”, 2017 йил, 99-модда.

³⁰Йил sarxisosibi. 2017 йил-шиддатли islohotlar йили. -Т.: “Адолат”, 2017. -96 б.

- professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, davlat boshqaruvi organlari faoliyatida korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etishga xizmat qiladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari apparati faoliyatini amalga oshirish, ya'ni uning asosiy maqsadlari tizimiga xizmat qilish roli-vazifalarga ajratilganligidadir. Shu bois, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida qabul qilinishi nazarda tutilgan, "Davlat xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, shuningdek, davlat boshqaruvi tizimini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tarkibi mazmunini samarali amalga oshirilishini ta'min etuvchi majburiy vazifalar o'zining aniq ifodasini topadi.

3. O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar kontsepsiyasi.

O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar kontsepsiyasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta asosiy yo'n alishi belgilab berildi.

Birinchi yo'n alish ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bag'ishlangan. Mazkur sohadagi chora-tadbirlar quyidagilarni nazarda tutadi:

ijro etuvchi hokimiyat organlarini tashkil etish va tugatishning aniq mezonlari hamda tartib-taomillarini joriy qilish;

kadrlar va moddiy resurslardan oqilona foydalangan holda, ijro etuvchi hokimiyat organlarini optimallashtirish;

ijro etuvchi hokimiyat organlarining mustaqilligini oshirish hamda ularning Vazirlar Mahkamasi bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish;

davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini izchil takomillashtirish va «Elektron hukumat» tizimini yanada keng joriy etish;

ma'muriy adliyani rivojlantirish va murojaatlarni kollegial eshitishni joriy qilish.

Ikkinchi yo'n alish ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalarini, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohalarini aniqlashtirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan quyidagi masalalar bo'yicha chora-tadbirlar ko'riladi:

rivojlanish dasturlarini shakllantirishda hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining tashabbuskorligi va rolini oshirish;

maqsadli indikatorlarga erishishga asoslangan, barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning rahbarlari faoliyatini baholashning printsipliy yangi tizimini joriy qilish;

xalqaro amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan, shu jumladan, sifat menejmenti, indikativ rejalashtirish, outsorsing, kraudsorsing kabi ishni tashkil etishning zamonaviy uslublaridan foydalanish;

rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini monitoring qilishda jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlikning zamonaviy shakllarini joriy etish.

Uchinchi yo'n alish iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sirni qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish hisoblanadi. Ushbu yo'n alishda quyidagilar rejalashtirilmoqda:

xususiy sektor samarali faoliyat ko'rsatayotgan sohalarda davlat ishtirokidagi tijorat tashkilotlarini tuzishni cheklash va amaldagi davlat korxonalarini qayta tashkil etish;

iqtisodiy faoliyatda davlat ishtirokining aniq bozor mexanizmlarini ishlab chiqish;

ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda ijtimoiy hamda davlat-xususiy sheriklikning huquqiy va institutsional bazasini takomillashtirish;

ayrim davlat funktsiyalarini xususiy sektorga o'tkazish.

To'rtinchi yo'n alishda, jumladan, quyidagilar orqali vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish nazarda tutilgan:

davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning roli va javobgarligini oshirish;

hududiy organlarning rahbar kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish masalalarida mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kuchaytirish.

Beshinchi yo'n alish davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion g'oyalar, ishlanma va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan. Mazkur chora-tadbirlar qatorida quyidagilarni ta'kidlash lozim:

davlat xizmatlari ko'rsatish tartib-taomillarini optimallashtirish va soddalashtirishni ta'minlaydigan davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini joriy etish;

innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqishga investitsiyalarni faol jalb etish;

zamonaviy ilmiy-tadqiqot va innovatsion yutuqlarni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun zarur bo'lgan rivojlangan infratuzilmani yaratish;

tabiatni muhofaza qilish, resurs va energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish.

Va nihoyat, so'nggi oltinchi yo'nalishda professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurashishning ta'sirchan mexanizmlarini o'rnatish belgilangan. Ularga erishish uchun quyidagilar rejalashtirilgan:

davlat xizmatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash, aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning yangi mexanizmlarini joriy etish;

davlat xizmatchilarining mehnatiga haq to'lash va ijtimoiy ta'minotining zamonaviy tizimini kiritish orqali ularning mehnat unumdorligini oshirish.

Bundan tashqari, Farmon bilan O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasi normalarini amaliy ro'yobga chiqarish bo'yicha 40 dan ortiq aniq tadbirlarni nazarda tutuvchi «Yo'l xaritasi» tasdiqlandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotla kontseptsiyasini amalga oshirish bo'yicha komissiya hamda davlat boshqaruvi tizimini tanqidiy o'rganish va uni tubdan isloh qilish yuzasidan takliflar tayyorlash bo'yicha ishchi guruhlar tashkil etildi.

Komissiya ishchi guruhlar tomonidan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari sifatli ishlab chiqilishini tashkil etadi, shuningdek, Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasi va «Yo'l xaritasi»ning to'liq, o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan qat'iy nazorat olib boradi.

Shu bilan bir qatorda, Komissiyaga davlat boshqaruvi tizimini tanqidiy o'rganish va uni tubdan isloh qilish bo'yicha takliflar tayyorlash jadvalini tasdiqlash vazifalari yuklatildi, unga asosan 100 dan ortiq davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish rejalashtirildi.

Ma'muriy islohotlarning amalga oshirilishi quyidagi natijalarga erishishga qaratilgan.

1. Kutilayotgan islohotlarning to'liq amalga oshirilishini ta'minlashga, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muammolarini o'z vaqtida aniqlash va samarali hal etishga qodir bo'lgan, innovatsion rivojlanishning umumjahon tendentsiyalariga javob beradigan davlat boshqaruvi tizimini yaratish, shu jumladan, quyidagilar orqali yaratish:

ortiqcha va o'ziga xos bo'lmagan vazifa, funktsiya va vakolatlarni bartaraf etish, takrorlash va parallelizmi tugatish hisobiga davlat boshqaruvi tizimini optimallashtirish hamda nomarkazlashtirish;

davlat boshqaruvini byurokrtiyadan holi qilish va uning sarf-xarajatlarini pasaytirish, boshqaruv qarorlari qabul qilish tizimining faoliyat samaradorligini va shaffofligini oshirish;

strategik rejalashtirish, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar tizimini joriy etish;

iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sir ko'rsatishni yanada qisqartirish hamda boshqaruvning sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va aholining ishchanlik faolligini oshirishga qaratilgan bozor mexanizmlarini kengaytirish;

jamoatchilik va parlament nazoratining, eng avvalo, korruptsiya ko'rinishlarining oldini olishga qaratilgan samarali shakllarini joriy etish.

2. Fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, ularning farovonligini va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidan qanoatlanlik darajasini yanada oshirish, shu jumladan, quyidagilar orqali yanada oshirish:

davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar bilan huquqiy munosabatlarini aniq tartibga solishga qaratilgan ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish;

ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlari va harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibini takomillashtirishni, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini kollegial eshitish mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutuvchi ma'muriy adliya tizimini rivojlantirish;

«Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish orqali davlat xizmatlari ko'rsatishning samaradorligini oshirish;

jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash.

O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, so'zsiz, innovatsion rivojlanishning zamonaviy tendentsiyalari va jahon standartlarini hisobga olgan holda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishga yangi kuch bag'ishlaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlarning amalga oshirilishi «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan ulug'vor g'oyani hayotga to'liq tatbiq etishga xizmat qiladi.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat boshqaruvining mutlaqo yangi va samarali faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni talab qiladi.

Shu munosabat bilan mamlakatda davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish va modernizatsiya qilish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash va davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish uchun elektron portallar va ma'lumotlar bazalari yaratildi.

Xususan, ruxsat beruvchi hujjatlar va litsenziya olishni soddalashtirish uchun www.license.gov.uz, «yagona darcha» tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishni ta'minlash uchun birdarcha.uz veb-saytlari yaratildi. Davlat xizmatlarini qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish natijasida tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olishning tartib-taomillari 4 martaga, ro'yxatga olish uchun zarur vaqt esa 30 daqiqaga qadar qisqartirildi.

Shu bilan birga, so'nggi yilda amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarning obyektiv tahlili, davlat boshqaruvi organlari faoliyati, aholi bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqot natijalari mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli hal etishga ehtiyoj vujudga kelganligini ko'rsatdi.

Bu, birinchi navbatda, quyidagi holatlarga taalluqlidir:

bir qator idoralarning vazifalari deklarativ xususiyatga egaligi va ularni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yetarli emasligi;

faqat holatlarni qayd etish va statistikani to'plashdan iborat bo'lib qolgan faoliyatni baholashning samarasiz tizimi va bu ko'pchilik hollarda joylardagi ishlarning haqqoniy holatini aks ettirmaydi;

hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va aholining eng muhim muammolarini hal qilishda mahalliy hokimiyat organlari rolining pasayishiga olib keluvchi davlat funksiyalarining haddan tashqari markazlashtirilganligi;

byurokratlashtirish va yuqori sarf-xarajatlarga olib kelayotgan innovatsion rivojlanishning past darajasi;

xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan davlatning tartibga solish va xo'jalik funksiyalari qo'shib olib borilishi, sog'lom raqobat muhitining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi imtiyoz va preferentsiyalarni tanlab taqdim etish amaliyoti;

hududlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ayrim rahbarlarda lozim darajada mas'uliyat va tashabbuskorlikning mavjud emasligi.

Ushbu kamchiliklar iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Bu borada Davlat rahbari tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmon 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'n alishi bo'yicha Harakatlar

strategiyasini amalga oshirishda muhim qadam hisoblanadi hamda mohiyatiga ko'ra O'zbekistonning davlat va jamiyat qurilishida yangi sahifani ochib beradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasini amalga oshirish bo'yicha komissiya hamda davlat boshqaruvi tizimini tanqidiy o'rganish va uni tubdan isloh qilish yuzasidan takliflar tayyorlash bo'yicha ishchi guruhlar tashkil etildi.

Komissiya ishchi guruhlar tomonidan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari sifatli ishlab chiqilishini tashkil etadi, shuningdek, Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasi va «Yo'l xaritasi»ning to'liq, o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan qat'iy nazorat olib boradi.

Shu bilan bir qatorda, Komissiyaga davlat boshqaruvi tizimini tanqidiy o'rganish va uni tubdan isloh qilish bo'yicha takliflar tayyorlash jadvalini tasdiqlash vazifalari yuklatildi, unga asosan 100 dan ortiq davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish rejalashtirildi.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash.

O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, so'zsiz, innovatsion rivojlanishning zamonaviy tendentsiyalari va jahon standartlarini hisobga olgan holda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishga yangi kuch bag'ishlaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlarning amalga oshirilishi «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan ulug'vor g'oyani hayotga to'liq tatbiq etishga xizmat qiladi.

4. Davlat xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2005 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisidagi ma'ruzasida belgilab berilgan jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalashning ustuvor vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha PQ-24-son qarori bilan "Davlat qurilishi va boshqaruvi, qonunchilik hokimiyatining roli va ta'sirini kuchaytirish sohasida islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish kontseptsiyasi"³¹tasdiqlangan bo'lib, mazkur Kontseptsiyada "Davlat xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini tayyorlash va unda davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi, davlat xizmatini o'tash tartibi hamda davlat xizmatchilarining javobgarligi va mas'uliyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni aks ettirish nazarda tutilgan edi.

Shu bilan birga, respublikamizda davlat xizmatining ayrim sohalari yoki ayrim toifadagi davlat xizmatchilarining faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonun hujjatlari ham qabul qilingan bo'lib, ular jumlasiga "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi, "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi, "Prokuratura to'g'risida"gi, "Sudlar to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi va shu kabi qonunlar majmuasi kiradi. Ushbu qonunlarda tegishli sohada davlat xizmatini tashkil etish printsiplari, tegishli sohadagi davlat xizmatchilarining maqomi, ularga qo'yilgan talablar, javobgarlik va ular tomonidan xizmatni o'tash shartlari belgilab qo'yilgan.

Bu sohada muhim qonunchilik hujjatlari sifatida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2003 yil 9 dekabrda "Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-3358-son va 2003 yil 22 dekabrda "Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-3366-son farmonlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Mazkur farmonlarda respublika boshqaruv organlari, xo'jalik boshqaruv organlarining tizimi va ularning toifalari aniq tasniflab berildi.

Shuningdek, milliy qonunchiligimizda ayrim davlat organlarida davlat xizmatini o'tash yuzasidan Hukumat yoki Prezident hujjati darajasida xizmatni o'tash tartiblari tasdiqlangan

³¹ Манба. <http://www.lex.uz/acts/682776/> Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 й., 10-11-сон, 71-модда; 45-сон, 337-модда.

bo‘lib, masalan ichki ishlar, prokuratura, davlat soliq va davlat bojxona xizmati, Sud departamenti organlarida xizmatni o‘tash tartibi-tamoyillarida xizmatni o‘tashning umumiy printsiplari, xizmatga qabul qilish, xizmat bo‘yicha o‘shish va xizmatdan ozod qilish shartlari, davlat xizmatchilariga qo‘yiladigan talablar, ularning mas‘uliyati, majburiyatlar va ta‘qiqar, attestatsiya va rotatsiya shartlari, darajalar va unvonlar, ijtimoiy himoya kabi qoidalar batafsil tartibga solingan. Boshqa organlarning ayrimlarida ham bu qoidalar ichki idoraviy hujjatlarda o‘z aksini topgan.

Ko‘rinib turibdiki, davlat xizmatini tashkil etishga oid qonunchilik bugungi kunda bir-biriga bog‘liq bo‘l magan holda tarqoq rivojlanib kelmoqda. Ularni unifikatsiya qilishga, yagona kontseptual, tizimli qonun hujjati qabul qilishga ehtiyoj mavjud.

Rejalashtirilayotgan ma‘muriy islohotlar, shunchaki shakliy o‘zgartirishlar, qaysidir tashkilotni tugatib, boshqasini tashkil etish emas, balki davlat va jamiyatni erkinlashtirish va isloh qilishning hozirgi bosqichi talablariga javob beradigan zamonaviy davlat menejmentini joriy etish va o‘z navbatida strategik maqsadlarimizga erishish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘lishi lozim.

Bugun milliy Parlament tomonidan erishilgan yutuqlar bilan birga, hokimiyat vakillik organlari, siyosiy partiyalar va Ekologik harakatning o‘tgan davrdagi faoliyati tanqidiy ruhda tahlil qilindi hamda kelgusi islohotlarni yanada chuqurlashtirish yo‘l ida muhim vazifalar belgilab olindi. Jumladan, ushbu vazifalarni amalga oshirish hamda sohada nazoratni kuchaytirish maqsadida yuqori palata huzurida maxsus komissiyalar tashkil etildi. Komissiya a‘zolari har oyda joylarga chiqib, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni barataraf etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari yuklatildi. Toshkent shahrida tumanlar darajasida xalq deputatlari kengashlari ta‘sis etildi. Natijada, Toshkent shahri aholisi ham o‘z vakillari-deputatlar orqali tumanlarni boshqarishda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘l di. Fuqarolarning kaoflatlangan mehnat huquqlarini ta‘minlash, yoshlar hamda oila va ayollar masalalari bo‘yicha Parlament komissiyalari tashkil etilib, ular tomonidan milliy va xalqaro hamkorlik doirasidagi dolzarb masalalarni ochiq muhokama etishda sezilarli darajada faollik ko‘rsatildi. Parlament va ijroiya hokimiyatining hamkorligini samarali kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis palatalaridagi doimiy vakili lavozimi ta‘sis etildi va uning huquqiy maqomi belgilab berildi.

Davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimining aholi va tadbirkorlik subyektlari ehtiyojlarini to‘liq qanoatlantiradigan sifat jihatidan yangi darajagi o‘tishiga ayrim tizimli muammolarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 dekabr kuni “Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur Faromon va Qaror davlat xizmatlarining sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkoniyatini tubdan oshirish bo‘yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ulug‘vor g‘oyani so‘zsiz amalga oshiruvchi asosiy g‘oyalarni belgilab berdi. Mazkur g‘oyalarning amalda tatbiq etilishi davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasida “Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi” degan muhim tamoyilni joriy etish imkonini beradi. Xususan, mazkur sohadagi davlat siyoatini amalga oshirishga mas‘uliyat yuklangan alohida davlat organi-O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi. Amalga oshirilayotgan ushbu islohotlarning uyg‘unligi va izchilligini ta‘minlaydi, davlat xizmatlarini sifatli bajarish uchun vakolatli organlar va tashkilotlarning javobgarligini oshiradi. Shu bilan birga, aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasida boshqaruvni amalga oshirishning aniq tashkiliy-institutsional asoslarini shakllantirish ta‘minlanmoqda. Shuningdek, davlatni aholi bilan o‘zaro bog‘laydigan yagona joy sifatida Davlat xizmatlari markazlari va Xalq qabulxonalari davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish, fuqarolarning vaqt va moliyaviy xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, ularning davlat organlari faoliyatidan qanoatlanganlik darajasini oshirishga xizmat qilishi joriy etildi.

2017-2021 yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida yana bir jamiyatning muhim instituti “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish, unda mazkur qonunning normalarini “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi qonunlarga moslashtirish, ombudsman mintaqaviy vakillarining huquqiy maqomi, vakolat va majburiyatlarini belgilash nazarda tutildi.

Bu strategik vazifalarni ilgari surilishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrda qabul qilingan “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida tuzilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda (tumanga bo‘ysunuvchi shaharlardan tashqari) tuzilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari (bundan keyin – xalq qabulxonalari) va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (bundan keyin – Virtual qabulxonasi) vazifalari va vakolatlarini belgilanishi bilan uzviy ravishda bog‘liqdir.

Prezident farmonida ularning aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to‘laonli himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari (bundan buyon – murojaatlar) bilan ishlashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta‘minlash, fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga, Hukumatga, davlat boshqaruvi organlariga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlariga va xo‘jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarining so‘zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratish, Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonaga kelib tushgan hamda tegishliligi bo‘yicha davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlariga yuborilgan murojaatlar ko‘rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish, Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonaga kelib tushayotgan murojaatlarning qayd etilishi, umumlashtirilishi, tizimlashtirilishi va ko‘rib chiqilishi ustidan nazorat qilinishi bo‘yicha yagona elektron tizimini joriy etish va yuritish yo‘li bilan murojaatlar bilan ishlashda zamonaviy - kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish kabi vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi qonunlarni qabul qilinishi bilan mamlakatda parlament nazoratini amalga oshirishning hozirgi davrga – fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatga xos bo‘lgan darajaga ko‘tarish dolzarb vazifaga aylangan edi. Shuning uchun ham Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) yuqorida qayd etilgan qonunlarda nazarda tutilgan qonunlar ijrosi, ularning shaffofligini ta‘minlash jarayonlarini parlament nazorati ostiga olishisha qator vakolatlar beradi, fuqarolarning o‘z qonuniy huquq va erkinliklarini buzilayotganligiga doir murojaatlarini adolatli va samarali tarzda hal etishga imkoniyatlar yaratadi. Parlamentning inson huquq va erkinliklarini himoyalash va ta‘minlashga doir faoliyatini olib boradigan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)ning huquqi va mustaqil institut sifatida faoliyat yuritishi kafolatlanadi.

Fikrimizcha, davlat va ma‘muriy tuzilmalarni yanada chuqurroq isloh qilishga intilish-bu davlat apparatini modernizatsiyalashning evolyutsion davomidir. Uning mohiyati davlat boshqaruvining milliy organlarini tuzish bosqichidan ularning ish faoliyatini takomillashtirish bosqichiga o‘tish bilan belgilanadi.

Ma‘lumki, hozirgi davrda demokratik islohotlarni rivojlantirishning yangi vazifalaridan kelib chiqib, davlat boshqaruvi apparati zimmasiga o‘z-o‘zini takomillashtirish borasida jiddiy vazifalar yuklatilgan.

Davlat, islohotlar tashabbusi bilan chiqish va ularni amalga oshirish borasidagi vazifalarni bajarar ekan, asta-sekinlik bilan umummilliy vazifalarni amalga oshiruvchi, fuqarolik

jamiyatini qurishni tashkiliy jihatdan ta'minlovchi tizimga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, boshqaruv organlari faoliyatini modernizatsiyalash borasida ham amaliy qadamlar tashlanmoqda va qonuniy nuqtai nazardan takomillashtirilmoqda.

Boshqaruv organlarini islohotlashtirish markazda va joylarda davlat hokimiyatining yangi organlarini paydo bo'l ishiga va rasmiylashuviga yordam berdi, davlat qurilishini kontseptual ta'minlash sohasidagi bo'shliqni to'ldiradi, bizga meros bo'lib qolgan boshqaruv tuzilmalarining ma'lum darajada rivojlanish imkoniyatini ta'minlaydi, iqtisodiyotdagi ayrim boshqaruv organlarini davlat tasarrufidan chiqarish hamda mulkchilikning nodavlat shakllariga va amal qilish tamoyillariga asoslangan tashkilotlarni tuzish borasida qo'shimcha turtki bo'l di.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi PF-5185-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasini amalga oshirish doirasida davlat boshqaruvining 93 ta organi isloh qilinganligi, shu jumladan 77 ta vazirlik va idora qayta tashkil etilganligi, 7 tasi tugatilganligi, 9 tasi yangidan tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'n alishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so'zsiz amalga oshirish, joylarda ishlarni tashkil etish, birinchi navbatda, jamoatchilik oldida hisobot berish shakllari va uslublarini tubdan takomillashtirish, aholining hayot sifati va darajasini yuksaltirish, davlat organlari rahbarlarining mas'uliyatsizligi holatlarining yuzaga kelishiga qat'iy ravishda barham berish hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3182-son qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga asosan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yangicha tizim-sektorlar faoliyati yo'l ga qo'yildi. Unga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlari tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) hokimlari, prokuratura, ichki ishlar va davlat soliq xizmati hududiy organlari rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 4 ta sektorlarga bo'l indi³². Hududlar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar ishini tashkil etish "mahalla-tuman (shahar)-viloyat-respublika" sxemasiga muvofiq faoliyatini tashkil etilishi mazkur qarorda belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining davlat organlari nomi

VAZIRLIKLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
3. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi
4. O'zbekiston Respublikasi bandlik va Mehnat munosabatlari vazirligi
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
8. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
9. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi
10. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
11. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi
12. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
13. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi
14. O'zbekiston Respublikasi texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi
15. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
16. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi

³² Ўил сарҳисоби. 2017 йил-шиддатли ислохотлар йили. -Т.: "Адолат", 2017. Б.96.

17. O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi
18. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi
19. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi
20. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi
21. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi
22. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi
23. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi
24. Mahalla va oilani qo'l lab-quvvatlash vazirligi.

DAVLAT QO'MITALARI

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi
4. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
5. O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi
6. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bo'yicha davlat qo'mitasi
7. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi
8. O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi
9. O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi
10. O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi
11. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa sanoati davlat qo'mitasi

DAVLAT INSPEKTSIYALARI

1. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi katta va alohida muhim suv xo'jaligi obyektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi davlat don inspeksiyasi
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi o'simliklar karantini davlat inspeksiyasi.

AGENTLIKLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi
2. "Kommunxizmat" agentligi
3. O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi
4. O'zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligi
5. "O'zbekkino" milliy agentligi
6. Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida atom energetikasini rivojlantirish agentligi
8. O'zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligi

Prezidentimizning 2020 yil 29 dekabr kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish sohasida quyidagilar belgilandi:

Islohotlarimiz xalqimizning kundalik hayotida o'z ifodasini topishi, kutgan natijalarimizga erishish ko'p jihatdan davlat boshqaruvidagi samaradorlikka bevosita bog'liq. Shu maqsadda kelgusi yilda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim.

Birinchidan, davlat boshqaruvi idoralari faoliyatini tubdan takomillashtirish talab qilinadi.

Ko'pgina vazirlik va idoralar faoliyatida qaror qabul qilish haddan tashqari markazlashgan. Ularning vazifalari aniq va to'liq belgilanmagani sababli faoliyatlarida bir-birini takrorlash holatlari mavjud. Sababi – ko'pchilik vazir o'rinbosarlari, o'rta bo'g'in rahbarlari masalani hal qilish uchun tashabbus ko'rsata olmaydi.

Buning sababi nimada? Ularning yo bilimi, malakasi yo'q, yo qat'iyati etmaydi, yoki korrupsiyaga berilgan.

Afsuski, bunday rahbarlar aholi kutayotgan hayotiy muammolarni hal qilish o'rniga keraksiz qog'ozbozlik va natijasiz majlislar o'tkazish bilan ovora bo'lib qolmoqda.

Yana bir jiddiy kamchilik shuki, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan xodimlar sonini va ish jarayonlarini optimallashtirish choralari ko'rilmayapti.

Shuning uchun Hukumat ikki oy muddatda boshqaruvda bir-birini takrorlaydigan idoralar, funksiyalar va byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha hujjatlar loyihalarini tayyorlasin. Bunda davlat boshqaruvi xodimlari sonini o'rtacha 15 foizgacha optimallashtirishni nazarda tutish zarur.

Kelgusi yil oxiriga qadar elektron davlat xizmatlarini 60 taga ko'paytirib, ularni 300 taga, masofaviy xizmatlar ulushini esa kamida 60 foizga yetkazish zarur.

Ikkinchidan, boshqaruv idoralarining hududiy masalalarni hal qilishdagi mas'uliyat va javobgarligi kuchaytiriladi.

Kelgusi yil boshidan har bir vazirlik o'z ishini tuman, shahar, qishloq va mahalla kesimida rejalashtiradi va tashkil etadi. Vazirlar va ularning o'rinbosarlari faoliyatiga joylarda amalda qanday o'zgarish bo'l ganiga qarab baho beriladi.

Bosh vazir o'rinbosarlari, vazirlar, o'zlarining quyi tizim rahbarlari va xodimlarini yangicha talablar va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali ishlashga o'rgatish va malakasini muntazam oshirib borish uchun mas'ul bo'l adi.

Deputat va senatorlarni o'zlari saylangan hududdagi muammolar, tegishli vazirlik va hokimliklar tomonidan qay darajada hal etilayotganini doimiy o'rganib, nazorat qilib borishga chaqiraman.

Shu o'rinda yana bir masala – tuman, shahar va mahalla boshqaruvida samaradorlikni oshirish uchun xodimlar soni va maoshini hududning o'ziga xosligi va ish hajmidan kelib chiqib belgilash lozim. Masalan, Samarqand viloyatining Paxtachi tumanida 150 ming, Urgut tumanida 500 mingdan ortiq aholi yashaydi. Yoki Shayxontohur tumani aholisi qariyb 350 ming, Bektemirda esa – 46 ming nafar. Lekin ushbu tumanlarda boshqaruv xodimlari soni va ularning ish haqi bir-biridan katta farq qilmaydi.

Shuning uchun Hukumat ikki oy muddatda o'rta va quyi bo'g'in boshqaruv idoralarining faoliyatini tubdan takomillashtirish, ulardagi xodimlar soni va mehnatiga haq to'lash shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha qaror loyihagini kiritsin.

Uchinchidan, mahalliy ijro organlari, vakillik idoralari hamda mahallaning institutsional asoslarini yanada takomillashtirish lozim.

Mahalliy hokimlik va kengashlar bundan 27 yil avval, ya'ni, hokimlik instituti joriy etilgan dastlabki paytda qabul qilingan Qonun asosida ishlamoqda. Bu hujjat bugungi islohotlarimiz talablariga mutlaqo javob bermasligini hisobga olib, uni tubdan yangilash zarur.

Islohotlarimiz natijalari, bo'l ayotgan o'zgarishlar va aholining kayfiyati avvalo mahallada seziladi. Shu ma'noda, **“mahalla – jamiyatimizning yorug' yuzi va vijdoni ko'zgusi”**, desak, to'g'ri bo'l adi. Shuning uchun barcha darajadagi rahbarlar pastga tushib, o'z sohasi bo'yicha mahallalardagi muammolarni o'rganishi va ularga echim topishi, odamlar sezadigan natijani ta'minlashi shart.

Bundan buyon mahalladagi ishlarning ahvoli vazirlik, idoralar va hokimliklar ishini baholashda bosh mezon bo'lib qoladi.

Shuningdek, mahallaning nufuzini, uning resurs va imkoniyatlarini oshirish, xodimlarining moddiy ta'minotini yaxshilash bo'yicha dastur ishlab chiqish zarur.

Joriy yilda tumanlar byudjetiga qo'shimcha manbalarning kamida 10 foizini bevosita mahalladagi muammolarni hal etishga sarflash bo'yicha ishlarni boshlab, bu maqsadlarga 70 milliard so'm ajratildi. Endi bu vakolatni yanada kengaytirib, tuman byudjeti xarajatlarining 5 foizini ham ana shunday maqsadlarga yo'naltirish bo'yicha yangi tartib joriy etiladi.

Buning natijasida bu yangi eksperiment orqali birgina G'ijduvon tumanida 8 milliard so'm yoki Farg'ona shahrida 11 milliard so'm mablag' aynan aholi dolzarb deb hisoblaydigan muammolarni hal etish uchun sarflanadi.

Mahalla raisi va uning o'rinbosarlari vakolatlarini kengaytirib, ularga aholi muammolarini bevosita hal qilish imkonini yaratishimiz kerak. Bunda mahalla raisiga mahalliy kengash majlisida ko'rilishi majburiy bo'lgan masalalarni kiritish huquqini berish lozim. Bu orqali muammolarni tezkor hal qilishga erishish imkoniyati yaratiladi.

Mahallada ishlayotgan malakali va tashabbuskor kadrlarni davlat idoralari rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Qonunchilik palatasi va Senat, Vazirlar Mahkamasi bilan birga 2021 yil 1 aprelga qadar mahalliy ijro va vakillik organlari hamda mahalla instituti faoliyatini tubdan takomillashtirishga oid yangi qonun loyihalarini ishlab chiqsin. Ushbu hujjatlarda hokimlar, ularning o'rinbosarlari va maslahatchilarining vakolat chegarasi, vazifa va funksiyalari aniq belgilanishi lozim.

To'rtinchidan, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga muvazirlik bo'lib qolish kundalik hayot tarzimizga aylanishi shart.

Bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman, har bir fuqaro safarbar etilishi zarur.

Korrupsiya o'ta og'ir jinoyat ekani va unga nisbatan muvazirlik bo'lib qolish g'oyasini farzandlarimizga yoshlik davridan boshlab singdirishimiz, ularga faqat halol mehnat va tadbirkorlik orqali daromad topishni o'rgatishimiz lozim.

Shuningdek, korrupsiyaning oldini olishda barcha davlat organlarida qaror qabul qilish jarayonlari, ochiq va faqat ochiq bo'lib qolishini ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, fuqarolarimiz joriy yildan boshlab ochiq e'lon qilinayotgan davlat xaridlariga oid ma'lumotlardan foydalanib, o'rinli masalalarni ko'tarmoqda.

Moliya vazirligi uch oy muddatda davlat idoralari byudjetdan tashqari jamg'armalarining daromad va xarajatlari, davlat ulushiga ega bo'lgan tashkilotlar xaridlari, davlat subsidiya va grantlariga oid ma'lumotlarni e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'ysin.

Bundan tashqari, oxirgi ikki yilda hokimlarning 2,5 mingga yaqin qarori sudlar tomonidan bekor qilingani bundan buyon ularning qaror qabul qilishida ochiqlikni ta'minlash zarurligini taqozo etmoqda. Shuning uchun mahalliy davlat hokimiyati idoralarining qarorlarini hisobga qo'yish va e'lon qilish bo'yicha elektron axborot tizimi joriy etiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bir oy muddatda ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatini kengaytirish bo'yicha taklif kiritilsin.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali vositalaridan biri – kadrlarni tanlash va ishga qabul qilishning ochiq tizimini yo'lga qo'yishdan iborat. Ushbu tizim asosida kadrlarni tanlashda eski usullardan voz kechib, ularning intellektual salohiyatini, ma'naviy fazilatlarini baholaydigan ochiq va oshkora tanlov tizimi joriy etiladi.

Shuningdek, korrupsiyaning oldini olish bo'yicha davlat xizmatchilarini muntazam o'qitish va bilimni baholab borish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Beshinchidan, islohotlarimiz samarasini har bir inson o'z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o'z vaqtida va samarali ta'minlash lozim.

So'n ggi 4 yilda barcha sohalarida keng ko'lab aml o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha 150 ta qonun, 2 mingga yaqin farmon va qarorlar qabul qilindi. Lekin joylarda barcha rahbarlar ham ushbu hujjatlar mazmun-mohiyatini tushunib, berilgan imkoniyatlardan foydalanmoqda, aholi va tadbirkorlarga zarur shart-sharoit yaratmoqda, deb ayta olmaymiz.

Amaldagi nazorat tizimi esa ko‘proq formal tusga ega bo‘lib, ijroni tashkil etishdagi muammolarni aniqlash va hal qilishga yo‘naltirilmayapti. Shuning uchun kelgusi yilda bu borada yangi ish tizimi joriy etiladi.

Endi Adliya vazirligi, uning hududiy boshqarma va bo‘limlarining asosiy vazifasi qabul qilingan hujjatlarni mas’ullarga etkazish, tushuntirish, amaliyotda qo‘llashga ko‘maklashish va nazorat qilishdan iborat bo‘lib adi. Shu maqsadda Adliya vazirligiga zarur vakolat va resurslar beriladi.

Shuningdek, qabul qilingan hujjatlar ijrosini tashkil etishda jamoatchilik ishtiroki va nazorati keng yo‘lga qo‘yiladi. Jumladan, “jamoatchilik eshituvlari” va “jamoatchilik monitoringi” tizimi joriy qilinadi. Bu jarayonga fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolar ham faol jalb etiladi.

Shuningdek, tahlillar asosida ijroga xalaqit berayotgan ortiqcha vazifa va funksiyalar qisqartiriladi.

Davlat idoralaridagi ijro sifati va holatini viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlarida, respublika darajasida esa – Vazirlar Mahkamasida har oyda tanqidiy muhokama qilib borish amaliyoti joriy etiladi.

Hukumat Adliya vazirligi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va Davlat boshqaruvi akademiyasi bilan birga bir oy muddatda ushbu tizimni joriy etish bo‘yicha zarur choratadbirlarni belgilasin.

Adliya vazirligi barcha ommaviy axborot vositalari, jumladan, televidenie orqali **“Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda”**, degan mavzuda ko‘rsatuv va chiqishlar tashkil etib, xalqimizga islohotlar mohiyati va natijalarini etkazib borish tizimini joriy etsin.

Oltinchidan, davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o‘rni va mavqei yanada mustahkamlash –islohotlarimizning eng ustuvor yo‘naltirilganidir.

Xabaringiz bor, ayni paytda Kasaba uyushmalari federatsiyasi boshchiligidagi mutasaddi idoralar, banklar va hokimliklar tomonidan joylarda uyma-uy yurib, 6 milliondan ortiq xotin-qizlarning muammolari puxta o‘rganildi.

Achchiq bo‘lsa ham, to‘g‘risini tan olib aytishimiz kerak: bu o‘rganishlarimiz natijasida birinchi marta joylardagi haqiqiy ahvol yuzaga chiqdi. Shular asosida “Ayollar daftari” shakllantirilmoqda, xotin-qizlarni qiynayotgan ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga amaliy echim topilmoqda.

Bu ishlarga mahallalarda yangi tashkil etilgan “Ayollar maslahat kengashlari” ham yaqindan ko‘mak berilmoqda. Lekin bu hali ayollar muammolarini echish uchun biz bajarishimiz shart va zarur bo‘lgan ishlarning boshlanishi, xolos.

Biz mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opa-singillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim.

Ayollarning andisha qilib, biz erkaklarga ayta olmagan dardu tashvishlari, kundalik muammolari, orzu-niyatlarini ularning o‘zidan yaxshi tushunadigan inson yo‘q.

Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi rolini oshirish bo‘yicha olib borgan islohotlarimiz natijasida Parlamentimiz yangi tarkibining 30 foizi ayollardan iborat bo‘lib di. Viloyat, shahar va tuman hokimlarining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimi joriy etildi.

Endi xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o‘rni va nufuzini oshirish ularga yangi imkoniyatlar yaratish bo‘yicha navbatdagi qadam sifatida hayotni va ayollar muammolarini yaxshi biladigan, faol va tashabbuskor opa-singillarimizdan iborat Respublika Xotin-qizlar jamoatchilik kengashini tashkil etishni taklif qilaman.

Kengashga bu borada katta tajribaga ega bo‘lgan Senatimiz Raisi Tanzila Kamolovna Norboyeva rahbarlik qilsa, degan taklifni bildirsam, o‘ylaymanki, barchangiz meni qo‘llab-quvvatlaysiz.

Joylardagi Xotin-qizlar kengashlari faoliyatiga esa hokimlarning ushbu masalalar bo‘yicha maslahatchilari rahbarlik qilishi eng to‘g‘ri yo‘l bo‘lib adi.

Xotin-qizlarni qo‘l lab-quvvatlash bo‘yicha respublika va hududiy jamg‘armalarni yangi tashkil etiladigan kengashlar ixtiyoriga o‘tkazib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb hisoblayman.

Ayollarning biznes sohasidagi loyihalarini qo‘l lab-quvvatlash hamda joylarda aniqlangan xotin-qizlar muammolarini hal etish uchun byudjetdan qo‘shimcha ravishda 1 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltiriladi. Buning uchun “Xalq banki” tomonidan joylarda xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘qitish, biznesga oid namunaviy rejalarini ishlab chiqish va kredit olishda ularga amaliy yordam ko‘rsatishning yangi tizimi joriy etiladi.

Oliy Majlis palatalari va Hukumat bir oy muddatda xotin-qizlarning jamiyatdagi va davlat boshqaruvidagi mavqeini yanada oshirishga qaratilgan yaxlit tizim yaratish bo‘yicha taklif ishlab chiqsin.

Yana bir muhim masala – nuroniy otaxon va onaxonlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz ham qarz, ham farzdir.

Respublika “Nuroniylar” jamg‘armasi tomonidan keksalarga doimiy yordam ko‘rsatilishi uchun uning moliyaviy imkoniyatlari yanada kengaytiriladi. Buning uchun keyingi yilda ushbu jamg‘armaga byudjetdan 100 milliard so‘m ajratiladi.

O‘zgaralar parvarishiga muhtoj bo‘lgan 16 mingdan ziyod keksalarga yordam berish, ularning hayotini mazmunli tashkil etish uchun to‘l o‘vlar miqdori oshiriladi hamda ularga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar ko‘lami kengaytiriladi. Shuningdek, Buxoro, Qarshi va Urganch shaharlarida yangidan tashkil etiladigan sihatgohlarda hamda mavjud dam olish maskanlarida jami 25 mingdan ortiq nuroniylarning sog‘lig‘i tiklanadi.

Markaziy telekanallarimizda namoyish etilayotgan “O‘talar so‘zi – aqlning ko‘zi” ko‘rsatuvi soni ko‘paytirilib, mazmunan boyitilsa, shuningdek, “Nuroniylar maslahati”, “Mahallada guruh” kabi yangi ko‘rsatuvlar tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Yettinchidan, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarini qo‘l lab-quvvatlashni davom ettiramiz.

Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini joylardagi dolzarb muammolarni hal etishga qaratish zarur.

Ayniqsa, mavjud muammolarni aniqlash, ularni chuqur tahlil qilish, echimlari bo‘yicha taklif ishlab chiqish, ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta‘minlashga ijtimoiy buyurtma asosida nodavlat notijorat tashkilotlari keng jalb etiladi. Bunday hamkorlikni, eng avvalo, ta‘lim, madaniyat, tibbiyot, ekologiya, qurilish, kadastr, transport, kommunal xo‘jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish kabi muammoli sohalarda keng joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ishlarni tashkil etish uchun kelgusi yilda byudjetdan 60 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga, Qonunchilik palatasida nodavlat notijorat tashkilotlarining doimiy vakili institutini joriy etishni taklif qilaman. Ushbu vakil quyi palata yig‘ilishlarida ishtirok etish, qabul qilinayotgan qonunlarga ta‘sirchan jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklik masalalarini kiritish bo‘yicha takliflar berish vakolatiga ega bo‘lishi zarur, deb hisoblayman.

1.2/1. -Mavzu. QONUN USTUVORLIGINI TA‘MINLASH VA SUD - HUQUQ TIZIMINI YANADA ISLOH QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Reja:

1-§. Sud hokimiyatining chinakkam mustaqilligini ta'minlash, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish jarayonida sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

2-§.Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va iqtisodiy qonunchilikni takomillashtirish.

3-§. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarlikning oldini olish tizimini takomillashtirish yo'llari, jamoatchilik nazorati va kafolatlangan xavfsizlik.

1-§. Sud hokimiyatining chinakkam mustaqilligini ta'minlash, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish jarayonida sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish

Sud hokimiyatining chinakkam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash hamda odil sudlovga erishish orqali sudning nufuzini oshirish va xalqning sudga bo'lgan ishonchini mustahkamlash sud – huquq tizimini isloh qilish sohasida davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'n alishlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018 yil 28 dekabr kuni Parlamentga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "...yurtimizda so'nggi yillarda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq sohasini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va odil sudlovga erishish, huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan". O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr – qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi mustahkamlanib qo'yilgan (13-modda). Ijtimoiy qadriyatlarning davlat foydasini emas, balki inson foydasini ko'zlab o'zgartirilishi jamiyat tomonidan to'la qo'llab – quvvatlanadi. Zero, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi tamoyilining Konstitutsiyamizda belgilanganligi (11-modda) mustaqilligimizning eng muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, faqat shunday umum e'tirof etilgan, jahon tajribasida sinovdan o'tgan demokratik yo'l bilangina odil sudlov lozim darajada amalga oshirilishi, Konstitutsiyaga va inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarga so'zsiz rioya etilishi, ijtimoiy adolat, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlash, qonuniylik va huquqiy tartibotning mustahkamlanishiga erishish mumkin.

Sud hokimiyatining tashkil etilishi va amal qilishi asoslarini belgilovchi qonunlarning qabul qilinishi so'zsiz jamiyatni demokratlashtirish borasidagi jiddiy yutuqlar sirasiga kiradi. Ular jumlasiga O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunlari, Fuqarolik, Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual, Jinoyat, Jinoyat protsessual, Ma'muriy javobgarlik, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodekslar va boshqa qonun hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmonlari va qarorlarini kiritish mumkin. Sud hokimiyatining yagonaligi, sudyalarning mustaqilligi, sud korpusining shakllantirilishini belgilaydigan huquqiy qoidalar, shuningdek sudlar faoliyatini moliyalashtirish va moddiy – texnika masalalari ayni shu hujjatlarda bayon qilingan. Protsessual kodekslarda esa huquqiy demokratik davlat barpo etish sharoitida odil sudlovni amalga oshirish tamoyillari, sud ishlarini xalqaro andozalarga muvofiq tarzda yuritish qoidalari, ya'ni sud ishlarini yuritishda tortishuv, aybsizlik prezumtsiyasi, protsessda tomonlar tengligi kabi tamoyillar o'z aksini topdi. Sudyalar korpusini shakllantirish tizimini sud hokimiyatining mustaqilligi printsipiga to'liq moslashtirish, bu jarayonda keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlash, ichki ishlar vaziri, Milliy gvardiya qo'mondoni va Bosh prokurorning respublika hududlariga shaxsan mas'ul etib tayinlanishi, "mahalla posboni" lavozimi tugatilib, uning o'rniga profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy etilishi, jinoyat qonunchiligini yanada takomillashtirish va liberallashtirish maqsadida jinoyat va jinoyat-protsessual kodekslarining yangi loyihalarini tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar sud-huquq sohasidagi islohotlarning izchilligi va qat'iyligidan dalolatdir.

O'tgan davr mobaynida sud tizimi faoliyati samardorligini oshirish, sudyalarni tanlash va joy – joyiga qo'yish tartibini takomillashtirish, har bir ish bo'yicha qonuniy, asoslantirilgan va adolatli sud qarori chiqarilishini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora – tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi sud tizimi – Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va uning tarkibida harbiy sudlar, fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy va ma'muriy sudlar to'la – to'kis tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy kengashi tuzildi, sudyalik lavozimiga muddatsiz davrga tayinlash (saylash) tartibi joriy qilindi. Ta'kidlash joizki, barcha toifadagi sud ishlarini sayyor sud majlislarida ko'rib chiqish amaliyotining kengaytirilganligi aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish va sud hokimiyatining ochiqligini oshirish yo'lida ko'rilgan muhim chora bo'ldi. Sudyalar tomonidan aholi bilan ochiq muloqotlar tashkil etilayotgani, mahalla, korxonalar va tashkilotlarda sayyor sud majlislari o'tkazish yo'lga qo'yilgani tizimning ochiqligini ta'minlash bilan birga, aholining sud tizimiga, adolatga, davlatga ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sud hokimiyati organlari faoliyatining tahlili ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan qator muammo va kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan chora – tadbirlar rejasini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Sud hokimiyati organlarining xususiyatlari shundaki, ular konstitutsiyaga asosan (106 - modda), qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Lekin, bu davlat hokimiyati tizimiga kirgan har bir hokimiyat amaliy ish yuritishda qarama – qarshi ish olib borishi mumkin, degan ma'noni anglatmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11 – moddasiga muvofiq davlat hokimiyatining tizimi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linsada, ularning biri ikkinchisidan ajralgan holda ish yuritmaydilar. Davlat hokimiyati tizimining bo'linish printsipiga asoslanishi, hokimiyatni o'ta markazlashtirishdan, uni yagona yuqori mansab egasi qo'lida bo'lishidan saqlaydi, bitta hokimiyatning o'zboshimchalik bilan ish yuritishiga yo'l qo'ymaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106 - moddasida va O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonunining 2 – moddasida ko'rsatilganidek, sud o'z faoliyatini mustaqillik, sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi printsiplari asosida amalga oshiradi. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron – bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Bugungi kunda sud hokimiyati davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i ekanligi to'g'risidagi nuqtai – nazar to'la qaror topdi. Huquqiy davlat g'oyasining e'lon qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida va mustaqil tarmog'i sifatida e'tirof qilinganidan keyingina qonunlarda o'z aksini topgan muayyan nazariy baza yaratildi.

Shaxsning huquqlarini himoya qilish muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan sud nazorati g'oyasi, shubhasiz, ma'naviy jahatlarga ega bo'lib, o'z ildizlari bilan teran o'tmishga singib ketadi. Hokimiyat bo'linishi haqidagi ta'limot amalda dunyodagi barcha demokratik rivojlangan mamlakatlarning konstitutsiyaviy qonunchiligida va davlat qurilishida mujassam bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud hokimiyatiga maxsus bob bag'ishlangan bo'lib, unda "sud hokimiyati" atamasi sud tizimining tashkil etilishi va sudlar faoliyatining tamoyillarini qamrab oladigan qator asosiy qoidalar orqali ochib beriladi.

Fanda sud hokimiyatining ta'rifi bo'yicha ikkita asosiy yondoshuv mavjud bo'lib, birinchi kontseptsiyaga ko'ra, "sud hokimiyati qonunga bo'ysundirilgan va sud ishlarini yuritish tartibida qonunni qo'llashga da'vat etilgan organlar tizimini tashkil qiladi" deyilsa, "ikkinchisida" sud hokimiyatini sud ishlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq faoliyat sifatida talqin etiladi. Muhimi, har ikkala kontseptsiyada sud hokimiyatini ifodalovchi uzviy birlikdagi ikkita asosiy jihat ajratib ko'rsatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi sud hokimiyati tushunchasiga birinchi marta quyidagicha ta’rif beradi: ”Sud hokimiyati – bu sudlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi printsipiga so‘zsiz rioya qilish asosida jinoiy, fuqarolik, xo‘jalik ishlarini va ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish bo‘yicha vakolatidir”³³.

“Oliy sud Plenumi ta’rifida sud hokimiyatining muhim funksiyalari qayd etilgan bo‘lsada, ...O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga yuklangan konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish o‘z aksini topmagan” deb, ba’zi protsessualchi olimlar yuqorida keltirilgan ta’rifga qo‘shimcha tarzda “O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati davlat hokimiyatining bir tarmog‘i sifatida inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga doir davlat faoliyatining ham ma’nosi va mazmunini belgilab beradi”³⁴.

Mazkur ta’rif “sud hokimiyati” atamasiga singdirilgan teran mazmunni hozirgi davr, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi oldida turgan g‘oyat katta ahamiyatga ega vazifa – davlat organlarini inson huquqlarini hurmat qilishga majbur etish, huquqiy me‘yorlarni real huquq va majburiyatlarga aylantirish, davlatning inson oldidagi o‘z vazifalarini bajarishini ta‘minlash nuqtai – nazaridan to‘liq ochib beradi. Zero, sud hokimiyati alohida qonun hujjatlarida belgilangan, bir necha ko‘rinishlarda (konstitutsiyaviy, fuqarolik, iqtisodiy, harbiy, jinoiy va ma‘muriy) qaror topgan tartib – qoidalar asosida faqat maxsus ta‘sis etilgan davlat organlari - sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Ularning asosiy maqsadi - qonuniy, asoslantirilgan va adolatli yechimga erishilishini ta‘minlashdan iborat.

Sud tizimining huquqiy negizlaridan biri – Konstitutsiyaning 107- moddasiga muvofiq, respublikada Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, harbiy sudlar, fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy va ma‘muriy sudlar amal qiladi. Sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun bilan belgilanib, favqulodda sudlar tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

1993 yil 6 mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonun³⁵ Konstitutsiyaviy sudning faoliyatini tashkil qilish masalalariga bag‘ishlangan ilk hujjat bo‘lgan.

Umumiy yurisdiksiya sudlari, shuningdek xo‘jalik (hozirda iqtisodiy) sudlarining faoliyati dastlab O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun³⁶ bilan tartibga solingan. Ushbu huquqiy hujjatda sud tizimining tashkiliy asoslaridan tashqari demokratik huquqiy davlatning faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashning zaruriy sharti sifatida sudyalarning mustaqilligi kafolatlari belgilab qo‘yilgan.

Inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradigan sud hokimiyatining shakllantirilishi, davlatda ijtimoiy barqororlik va qonunchilikning ta‘minlanishi, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi, “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunlarning qabul qilinishi O‘zbekiston Respublikasida sud islohoti ilk bosqichining asosiy mazmunini tashkil etdi.

Sud hokimiyatining chinakkam mustaqilligini ta‘minlash va sud organlarining nufuzini oshirishga qaratilgan islohotlarning dastlabki bosqichida sud tuzilishiga oid asosiy tamoyillarining hozirgi zamon andozalariga va xalqaro huquq me‘yorlariga mos bo‘lishiga erishildi. Unda, sud ishlarini yuritish, aybsizlik prezumtsiyasi, tortishuv jarayoni, himoya huquqi singari muhim tamoyillar mustahkamlandi, sudning demokratizmi, obyektivligi, har qanday fuqaroning sudga murojaat qilish imkoniyati kengaytirildi.

Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, sud hokimiyati sohasidagi chuqur tub o‘zgarishlar birinchi va ikkinchi avlod qonunlari qatorida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Ma‘muriy javobgarlik, Fuqarolik kodeslari, “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti – harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi, “Advokatura

³³Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорларининг тўплами. 1991 -1997. – Т.: “Шарк”, 1997. – Б. 5-6.

³⁴Ўзбекистонда суд ҳокимияти: Ислохотлар даври/ Муаллифлар: А. А. Полвонзода, Ғ. А. Абдумажидов ва бошқ. – Т.: “Адолат”, 2002. – Б. 14 – 15.

³⁵Мазкур Қонун Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майдаги ЎРҚ – 434-сонли “Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий суди тўғрисида”ги Конституциявий қонунига асосан ўз кучини йўқотган.

³⁶Мазкур Қонунга ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилиб, 2000 йил 14 декабрь 162-II сон Ўзбекистон Республикасининг “Судлар тўғрисида”ги янги таҳрири қабул қилинди.

to'g'risida"gi va boshqa qonunlar muhim ahamiyat kasb etdi va sud – huquq tizimini qayta qurish sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, sudning jamiyat va davlatdagi o'rnini belgilash va sud tizimini demokratlashtirish asoslarini yaratish jarayonida zaruriy qadam bo'ldi.

Hozirgi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hayotimizning har bir sohasiga keng kirib kelib, mamlakatimizning iqtisodiy va ma'naviy yo'nalishlarini jadal sur'atda rivojlantirmoqda.

Bu boradagi keng ko'lamli ishlar sud tizimida ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martda qabul qilingan "Zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish dasturi doirasida boshlanib, izchillik bilan bosqichma – bosqich davom etib kelmoqda.

Mazkur dastur asosida sudlar faoliyatida kompyuterlashtirish darajasi va kompyuter texnikasidan foydalanish samaradorligini oshirish, sudlarda axborot tizimlari va resurslarini yaratish, tadbirkorlik subyektlari va aholiga ko'rsatiladigan interfaol xizmatlar ko'lamini kengaytirish va sifatini yaxshilash borasida davomli ishlar olib borilmoqda. Ushbu huquqiy hujjatlar ijrosi bo'yicha, shuningdek, umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyatiga zamonaviy AKTni joriy etishning kontseptual yo'n alishlari va maqsadli ko'rsatkichlari belgilab olindi hamda O'zbekiston Respublikasi umumiy yurisdiksiya sudlarida AKT joriy qilish dasturi huquqiy asos sifatida qabul qilindi.

O'tgan davrda ushbu dastur asosida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan hamkorlikda quyi sudlarda mahalliy hisoblash tarmoqlarini tashkil etish va ularni korporativ tarmoqqa birlashtirish borasida zarur texnik hujjatlar ishlab chiqildi.

Qog'ozsiz va avtomatlashtirilgan ish jarayonlariga bosqichma – bosqich o'tish yo'li bilan sud ishlarini yuritishning tezkorligini ta'minlash choralari ko'rilmoqda. Bu borada fuqarolar uchun ma'lumotlar almashishining elektron vositalari orqali ariza, da'vo arizasi, iltimosnoma va ularga ilova qilinadigan hujjatlar bilan birgalikda sudga murojaat qilish amalga oshirilmoqda.

Xususan, "O'zbekiston qonun ustuvorligi yo'lida hamkorlik" qo'shma loyihasi doirasida yaratilgan "E - SUD" milliy elektron sudlov tizimining sud buyrug'ini chiqarish bo'yicha Zangiota, Yuqori Chirchiq, Bekobod tumanlararo sudlari, Toshkent shahri fuqarolik ishlari bo'yicha Yakkasaroy, Mirzo Ulug'bek, Mirobod, Shayxontohur va Uchtepa tumanlararo sudlarida, bugungi kunda esa respublikamizning barcha sudlarida samarali faoliyat yuritmoqda.

2015 yil 9 iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi Qonunga asosan, amalda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 39 ta moddasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi va 2016 yilning 1 yanvaridan boshlab fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga elektron shaklda murojaat qilish tartibi belgilandi. Natijada fuqarolar tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga elektron shaklda murojaat qilish, sudlar esa, chaqiruv qog'ozlari, qaror nusxalari va boshqa sud hujjatlarini elektron shaklda yuborish imkoniyatiga ega bo'ldi.

"E - SUD" milliy elektron axborot sudlov tizimini sudlar faoliyatiga yanada jadal sur'atlarda joriy etish va undan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining 2016 yil 28 yanvardagi "Fuqarolik ishlari bo'yicha Respublika sudlarida elektron aloqa vositalaridan foydalangan holda berilgan murojaatlarning ko'rib chiqilishini ta'minlash hamda Toshkent shahar va Toshkent viloyat sudlarida "E - SUD" milliy elektron sudlov axborot tizimidan foydalanishni yo'l ga qo'yish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Ta'kidlash o'rinliki, ushbu tizim (www.esud.uz) jismoniy va yuridik shaxslarning sudlarga murojaat qilish jarayonini tezlashtirish va sudlarda ishlarni ko'rish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Sudlar faoliyatiga zamonaviy AKT ning izchil joriy qilinishi, xech shubhasiz, inson huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

2017 yil 30 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan “Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ № 3250 – son qarordan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad sudlar faoliyati ochiqligi, shaffofligi va tezkorligini ta‘minlashdan iborat bo‘lib, sudlarda ishlarining o‘z vaqtida ko‘rilishi ustidan samarali nazorat tizimini yaratish maqsadida ularning ishini avtomatlashtirish va faoliyati haqidagi ma‘lumotlarni tizimlashtirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, sudlarda ish ko‘rilishi samaradorligini ta‘minlovchi axborot tizimlari va resurslarini takomillashtirish, sudlar tizimida axborot xavfsizligi va xavfsiz elektron hujjat aylanishini ta‘minlash, sudyalarning va sud xodimlarining kompyuter savodxonligi va o‘z ishida axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasini oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Mazkur qaror bilan 2017-2020 yillarda sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish navbatdagi yangi dasturi tasdiqlandi. Dasturning amaliy ijrosi doirasida 2018 yil sentyabridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining yangi rasmiy veb – sayti, undagi interaktiv xizmatlar yaratildi, www.sud.uz, www.oliysud.uz va www.supcourt.uz manzillari bo‘yicha sayt joylashtirildi. Endilikda ushbu tizim orqali fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga elektron murojaat qilish bilan birga sud majlislarining jadvali, kuni va vaqtdan elektron tarzda xabardor bo‘lish, barcha sud qarorlari bilan tanishish mumkin.

O‘zbekistonda ilk marotaba doimiy ishlovchi sud majlislarining onlayn translyatsiyasi joriy etildi. Bu holat ayni sud jarayonini Oliy sudning veb – sayti orqali to‘g‘ridan – to‘g‘ri kuzatib borish imkoniyatini beradi. Hozirda ushbu tizim sinov tariqasida O‘zbekistonning chekka hududlari bo‘lgan Xorazm, Surxondaryo va Namangan viloyatlaridagi 12 ta sudga o‘rnatildi va ishga tushirildi. 2018 yilning oxiriga qadar 22 ta, 2019 yilda esa 100 dan ortiq sudni onlayn translyatsiya tizimiga o‘tkazish rejalashtirilmoqda³⁷.

Xalqaro ekspertlar ushbu jihatga alohida e‘tibor qaratib, O‘zbekistonda ishlab chiqilgan davlat boshqaruviga AKT ni keng joriy qilish, “elektron hukumat” va elektron hujjat aylanishi tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan me‘yoriy – huquqiy bazaga yuksak baho berdi. Shu munosabat bilan AKT sohasida amalga oshirilayotgan chora – tadbirlar sudlarni to‘liq axborotlashtirish uchun zarur sharoit yaratayotgani va bu, o‘z navbatida, mamlakatimizda elektron sudlovni tatbiq etishni jadallashtirish imkonini beradi. Odil sudlovning ochiq – oshkoraligi va undan foydalanish imkoniyatini ta‘minlash elektron sudlov tizimini joriy qilish hamda sud faoliyatini AKT bilan to‘liq jihozlash borasidagi ishlarining asosiy samarasidir. Bu printsiplarning hayotga tatbiq etilishi sud axborotidan foydalanish huquqini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Sud jarayonlarini boshqarish bo‘yicha ishonchli elektron tizimlarni ishlab chiqilayotganligi va joriy etilayotganligi samarali, zamonaviy hamda hisob beruvchi sud tizimini shakllantirishda, eng muhimi, ishlarni sudda oshkor ko‘rib chiqish printsiplari, axborot ochiqligi, odil sudlovdan foydalanish va uning oshkoraligini ta‘minlashda texnologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

2-§.Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta‘minlash. Ma‘muriy, jinoyat, fukarolik va iqtisodiy qonunchilikni takomillashtirish

Mustaqillik yillarida sud – huquq sohasini izchil demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlash, fuqarolar huquq hamda erkinliklarini himoya qilish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha ulkan ishlar qilindi. Xalqaro normalarga mos soha qonunchiligi shakllantirilib, muntazam takomillashtirib borildi. Aytish mumkinki, mazkur yo‘n alishdagi deyarli barcha normativ – huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlangan chora – tadbirlar dasturlarida, avvalambor, inson fuqaro huquq va erkinliklari u qanday maqomda faoliyat ko‘rsatishidan qat‘iy – nazar, birlamchi ekanligi, ularning manfaatlarini himoya qilish va bunda, sud organlarining roli hamda mas‘uliyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilganligini ko‘rish mumkin.

Bugungi kunda bizning huquqiy doktrinamiz demokratik tamoyillarga asoslangan bo'lib, eng avvalo, O'zbekiston Konstitutsiyasi talablariga ko'ra inson huquqlari ustuvorligini ta'minlaydi, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti –harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqini kafolatlaydi.

Konstitutsiyaning ushbu qoidasi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga mos keladi. Xususan, "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 8-moddasida aytilganidek:" "Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonunlari taqdim etgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda bunday huquqlarning vakolatli milliy sudlar tomonidan samarali qayta tiklanishini talab qilish huquqiga egadir". Bundan tashqari, xalqaro me'yorlar davlatlarning sud himoyasida bo'lish imkoniyatlarini rivojlantirish borasidagi burchini ham ko'rsatib o'tadi ("Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro Paktning 2-moddasi).

Odil sudlovni amalga oshirish sifatini yaxshilash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasi kafolatlarini kuchaytirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, birinchidan, sud organlari faoliyatining shaffofligini yanada ta'minlash, aholi bilan ochiq muloqotni kengaytirish va odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik roli kuchaytirildi;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi veb – saytida sud qarorlarini tizimli ravishda e'lon qilish tartibi joriy etildi;

uchinchidan, sudlar faoliyati to'g'risida har chorakda viloyat sudlari raislari va ularning o'rin bosarlari tomonidan muntazam – ravishda brifinglar o'tkazish yo'lga qo'yildi;

to'rtinchidan, sud hujjatining mazmun - mohiyatini sud protsessi ishtirokchilariga to'liq tushuntirib berish sud amaliyotiga kiritildi;

beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlari tomonidan sud ishlarini nazorat tartibida, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan sudlar tomonidan sud ishlarini appelyatsiya va kassatsiya tartibida ko'rib chiqish amaliyotining obzorlarini har chorakda e'lon qilish qat'iy belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 iyul "Sud huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashining sudyalarni tanlash va lavozimga tayinlashning xolisligi va shaffofligiga ishonchni oshirish maqsadida har bir hududda sudyalari korpusini shakllantirishga ko'maklashuvchi komissiyalar tuzildi.

Inson huquqlarini sud orqali himoya qilish va sud himoyasida bo'l ishi muammosiga bo'lgan diqqat-e'tibor butunlay asoslidir. U yoki bu idoralar va mansabdor shaxslarning har qanday noqonuniy qarori, xatti – harakatlari yoki harakatsizliklari ustidan sudlarga hech qanday to'siqsiz murojaat qilish imkoniyati erkinlikning muhim sharti hisoblanadi. Sudga shikoyat bilan murojaat qilish, bunday shikoyat bilan ma'muriy tartibga shikoyat qilishga nisbatan qator afzalliklarga ega, chunki sudda ish ko'rish qat'iy qoidalar asosida bo'lishi qonun bilan tartibga solingan.

Bugungi kunda sudga bemalol murojaat qilish tamoyilning soni va shularga etarli bo'lgan sudlar va sudyalari bilan ta'minlanishi; professional yuristlar ko'rsatadigan malakali yordamning etarli bo'lishi; aholining kambag'al qatlamlari uchun ham odil sudlov bo'lishini ta'minlash; sudda ish ko'rishga oid qoidalarining soddalashtirilishi va tabaqalashtirilishi kabi dolzarb vazifalar ijrosiga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuni qayd etish zarurki, odil sudlovning amalga oshirilishi bir qator umume'tirof etilgan demokratik tamoyillar: qonunchilik (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 15-moddasi 2-qismi); sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 112 - moddasi); barchaning qonun va sud oldida tengligi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 18 –moddasi 1- qismi); fuqarolarning sud himoyasida bo'l ishi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 44-moddasi); aybsizlik prezumtsiyasi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26 - moddasi); barcha sudlarda ishlarning ochiq ko'rib

chiqilishi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 113 - moddasi); sud ishlarini yuritish tili (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 115 - moddasi); gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining himoyalash huquqi bilan ta‘minlanishiga (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 118 - moddasi) asoslanadi.

Ushbu tamoyillar dasturiy, dastlabki qoidalar sifatida odil sudlovni tashkil etish, uning organlarining davlat mexanizmidagi va jamiyatning siyosiy tizimidagi, eng asosiysi, inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi roli va o‘rni haqidagi masalalarga doir qonunchilikning barcha talablari uchun negiz hisoblanadi.

Mamlakatimizda odil sudlovning rivojlanishi va takomillashishi amaliyotidan kelib chiqib, xalqaro hujjatlarda belgilangan qoidalar asosida odil sudlov demokratik negizlarining mazmuni boyitilib borilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda bunday jarayon ancha faollashganligini ko‘rish mumkin.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng xalqimiz o‘z davlat boshqaruvi va taraqqiyotini o‘zi hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Xalqimiz xohish-irodasining namunasi bo‘lgan va xalqning muxtor vakillari siymosida qabul qilingan Konstitutsiyada demokratik-huquqiy davlat qurish mamlakatimiz oldida turgan eng muhim masalalardan biri ekanligi belgilab berildi.

Huquqiy davlat qurish va uning qurilish printsiplarini jamiyatda qaror toptirish jarayonida eng avvalo, respublikamiz fuqarolarining huquqiy bilim va madaniyatini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Mamlakatimiz rahbari davlat boshqaruvini yanada demokratlashtirish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘l gan islohotlar ko‘l aminini belgilab berar ekan, avvalo boshqaruv sohasidagi o‘zgartirishlar va shuning bilan bir qatorda bozor iqtisodiyoti printsiplari qaror topib borayotgan bir sharoitda fuqarolar, tadbirkorlar va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquq va erkinliklari yanada ishonchli muhofaza qilinishi lozimligini alohida ta‘kidladi.

Ma‘muriy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha. Ma‘muriy qonunchilik davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ma‘muriy qonunchilik – ijro etuvchi hokimiyatning tashkil qilinishi va amal qilishi jarayonida, davlat boshqaruvi faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuidir.

O‘tgan so‘ngi yillar davomida ma‘muriy qonunchilikni takomillashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi qabul qilindi. Shuningdek, eng asosiysi respublikamizda ma‘muriy sudlar faoliyati tashkil etildi.

Ma‘muriy qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo‘n alishlari quyidagilarni:

- ma‘muriy qonunchiligi normalarini ko‘rib chiqish va unifikatsiyalash;
- ma‘muriy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini ma‘muriy qonunchilik asosida ishonchli muhofaza qilinishini ta‘minlash;
- ma‘muriy-protsessual qonunchilik normalarini tizimlashtirish va uyg‘unlashtirish;
- ma‘muriy protsessda shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini ishonchli ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirish va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligining samarali tizimini yaratish davlatning qonuniylik va huquq-tartibotni ta‘minlash, inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, tinchlik va xavfsizlikni ishonchli himoya qilish bo‘yicha ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, sud-tergov amaliyoti tahlili, shuningdek, xalq bilan bevosita muloqot natijalari ushbu sohada bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatmoqda, jumladan:

birinchidan, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish, jinoyat ishlari bo‘yicha sudgacha

va sud jarayonida qonuniylikni ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi huquqiy bo'shliqlarning mavjudligi;

ikkinchidan, jinoyatlarni profilaktika qilish va oldini olish, shuningdek, fuqarolarga yuksak huquqiy madaniyat va qonunga hurmat hissini singdirish borasidagi huquqiy mexanizmlarning etarli darajada samarador emasligi;

uchinchidan, alohida turdagi jinoyatlarni sodir etganlik uchun sanksiyalar qilmishlarning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasiga nomuvofiqligi, jumladan jazoning muqobil turlari, rag'batlantiruvchi normalar va jamoat ta'sir choralari etarli darajada qo'llanilmasligi va samarasizligi;

to'rtinchidan, tezkor-tergov tadbirlarini o'tkazish sifatining qoniqarsizligi va protsessual qonunchilik talablarini buzgan holda olingan ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanilishi;

beshinchidan, xalqaro amaliyotda e'tirof etilgan jinoyat-huquqiy institutlarning etarli darajada implementatsiya qilinmaganligi, jumladan yuridik shaxslar jinoiy javobgarligining mavjud emasligi;

oltinchidan, sud-tergov faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish juda past darajada ekanligi va boshqalar.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasida Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslari qariyb 25 yil oldin qabul qilinganligi, o'tgan davr mobaynida jamiyatdagi munosabatlar, odamlarning yashash tarzi, ongi, dunyoqarashi o'zgarganligi va bu kodekslar davr talabiga javob bermay qolganligi ta'kidlandi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarligidagi idoralararo komissiyaga 2019 yil 1 iyuliga qadar Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslarining yangi loyihalarini tayyorlash topshirildi. Bugungi kunda zamonaviy xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'n alishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning mutlaqo yangi ustuvor yo'n alishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 14.05.2018 yil 14 maydagi № PQ-3723 - sonli Qarori bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish kontseptsiyasi tasdiqlandi.

Ushbu kontseptsiyada quyidagilar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning asosiy yo'n alishlari va vazifalari etib belgilab berildi:

- jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish;
- jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish;
- fuqarolar huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarining ta'sirchan va ishonchli muhofaza qilinishini ta'minlash;
- jinoyat-protsessual qonunchiligi normalarini tizimlashtirish va uyg'unlashtirish;
- jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini ishonchli ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- jinoyat protsessining yangi shakl va tartib-taomillarini kiritish.

Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha. Fuqarolik qonunchiligining asosiy manbalaridan biri bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi 1993 - 1996 yillarda, ya'ni bundan 24 yil avval, iqtisodiyot endigina rivojlana boshlagan, iqtisodiyotni huquq bilan tartibga solishga kirishilgan bir sharoitlarda ishlab chiqilgan va 1997 yil 1 martdan boshlab amalga kiritilgan edi.

O'tgan yillar davomida mamlakatimizda fuqarolik qonun hujjatlarini takomillashtirish va unifikatsiya qilish masalalariga doir bir qator xalqaro konferentsiyalar va davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Ta'kidlash lozimki, Fuqarolik va fuqarolik protsessual Kodekslarini takomillashtirish yuzasidan ishlar olib borilar ekan, fuqarolik qonun hujjatlari rivojlanishining strategiyasi hamda uni bosqichma-bosqich taktik jihatdan amalga oshirish masalalari bo'yicha aniq to'xtamga kelish zarur bo'lib hisoblanadi.

Biz qonun hujjatlari yuzasidan nimalarga ega ekanligimizni va yaqin yillar hamda kelajak istiqboldagi 15-20 yil ichida fuqarolik qonun hujjatlarini rivojlantirish bo'yicha qanday ishlar olib borilishi kerakligi yuzasidan aniq tasavvurga ega bo'l ishimiz lozim.

Bu boradagi qonunchilik bazasini yaratish, takomillashtirish hamda ularni amalga oshirish yuzasidan tegishli ishlar rejalashtirilishi kerak. Fuqarolik va Fuqarolik protsessual Kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish Fuqarolik va Fuqarolik protsessual Kodekslarining tegishli matnlarini barcha konstruktiv va mazmun elementlarini tubdan o'zgartirishga yo'naltirilmagan holda asosan mazkur kodeksning ayrim institutlari va normalarini yangilashga, bozor iqtisodiyoti sharoitlariga mos kelmaydigan yoki yuridik texnika qoidalarini buzadigan Kodeksdagi mavjud qoidalarni chiqarib tashlashga hamda bir qator moddalarni yangi tahrirda bayon qilishga qaratilgan bo'l ishi kerak.

Bunda eng asosiy vazifa, chuqur tahlillar va ilmiy asoslarga tayangan holda fuqarolik qonun hujjatlarida vujudga kelgan ayrim bo'shliqlarni to'ldirish, huquqni qo'llovchi uchun qiyinchilik tug'diradigan holatlarni bartaraf etish, tovarlar, ishlar, xizmatlar bozorida erkin raqobatni ta'minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilishi lozim.

Fuqarolik qonun xujjatlarini takomillashtirish uchun avvalo quyidagilarga aloxida e'tibor qaratish lozim:

- fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirishga;
- fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalarini to'laqonli bajarishga;
- sud orqali himoyalani huquqini ta'minlashga;
- sudga murojaat qilish shakllarini tushintirishga
- fuqarolik ishini yuritish va sud hujjatlarini ijrosini ta'minlashga.

Iqtisodiy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha. Iqtisodiy qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilarni:

- iqtisodiy protsessual qonunchiligi normalarini ko'rib chiqish va unifikatsiyalash;
- iqtisodiy-protsessual qonunchilik normalarini tizimlashtirish va uyg'unlashtirish;
- iqtisodiy protsessda yuridik shaxslarning huquqlarini ta'minlash;
- birinchi instantsiya sudida, apellyatsiya va kassatsiya instantsiyasida ish yuritish;
- chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlarni yuritish;
- iqtisodiy sudlarning sud hujjatlarini qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish, iqtisodiy sudlarning sud hujjatlarini ijro etish mexanizmlarini takomillashtirish va boshqalarni o'z ichiga oladi

3-§. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarlikning oldini olish tizimini takomillashtirish yo'l lari, jamoatchilik nazorati va kafolatlangan xavfsizlik

Jamoat tartibini saqlash, avvalambor, voyaga etmagan va yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning buzg'unchi tahdidlarni barvaqt aniqlash bo'yicha yakdil harakatlarni, ularni hamkorlikda va sifatli bartaraf etilishini ta'minlash maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'n alishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, Respublikamizda huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini kelgusida tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari deb quyidagilar hisoblanadi:

birinchidan, taraqqiy etayotgan respublikamiz hududlarini xavfsizligining garovi sifatida harakatlar yakdilligi asosida barcha davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlik qilishning amaliy mexanizmini joriy etish;

ikkinchidan, "Jaholatga qarshi ma'rifat" ezgu g'oyasi asosida har bir mahalla kesimida diniy-ekstremistik xususiyatga ega bo'lgan huquqbuzarliklarni sodir etish sabab va shart-

sharoitlarini barvaqt aniqlash va bartaraf etishga, birinchi navbatda, ekstremistik oqim mafkurasi ta'siri ostiga tushib qolgan shaxslarni tuzatishga alohida e'tibor qaratish;

uchinchidan, prokuratura organlari tomonidan kundalik asosda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, shu jumladan, ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlashga amaliy yordam ko'rsatish, shuningdek, aniqlangan qonunbuzarliklar, sun'iy to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rish;

to'rtinchidan, aholiga eng yaqin bo'lgan joylarda kuch va vositalar faoliyatini bevosita boshqarish va muvofiqlashtirishning samarali tizimini yaratish maqsadida ichki ishlar organlarining amaldagi tuzilmasini takomillashtirish;

beshinchidan, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibining intellektual va kasbiy darajasini oshirish, ularga qo'shimcha tadbir va ishlardagi ishtiroki tufayli ortiqcha vazifalar yuklanishini bartaraf etish maqsadida sohaviy xizmatlar o'rtasidagi vazifalarning aniq chegaralarini belgilash;

oltinchidan, jinoyatlarga choralar ko'rish va ularni fosh etishda, birinchi navbatda, tezkorlik va muvofiqlashgan hamkorlikni ta'minlash maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlarni "Xavfsiz axoli punkti" apparat-dasturiy kompleksi imkoniyatlaridan keng foydalanishga yo'naltirish.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarlikni oldini olish tizimini takomillashtirish uchun tumanlar va shaxarlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi, tadbirkorlikni rivojlantirish va muammoli oilalar bilan ishlash ustidan nazorat qilish jamoatchilik kengashlarini tuzish;

jamoatchilik kengashlari tarkibini tuman, shaxar xalq deputatlari Kengashlari deputatlari raisligida mahalla faollari, mehnat faxriylari, fan, madaniyat va san'at vakillari, mashhur sportchilar va boshqa jamoatchilik vakillari hisobidan shakllantirish maqsadga muvofik.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar – bu davlat organlari va jamoat tashkilotlari bo'lib, ular o'z faoliyatini qonun hamda demokratik printsiplarga asoslangan holda amalga oshiradilar, qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlaydilar, fuqarolar, mehnat jamoalari, jamiyat va davlatning huquq va erkinliklarini himoya qiladilar, huquqbuzarlikning oldini olish va qonun hamda huquq tartibotni buzgan shaxslarga davlatning majburlov yoki jamiyatning ta'sir choralari qo'llaydilar.

Ushbu tushuncha o'zining mohiyatiga ko'ra barcha davlat organlariga tegishlidir, chunki sanab o'tilgan funktsiyalar ularning barchasiga xosdir. Hozirgi kunda huquqni muhofaza qiluvchi faoliyati tushunchasini ta'riflashda unga bir qadar chegaralangan mazmun berish an'anasi keng tarqalgan. Masalan, ayrimlar uchun jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi vakolatli davlat organlari amalga oshirayotgan faoliyat deb hisoblansa, boshqalar uchun esa jamoat tartibini ta'minlash deb qaraladi³⁸. Olimlarning ta'kidlashicha, huquqni muhofaza qiluvchi organlar jumlasiga – ichki ishlar, prokuratura, adliya organlari, davlat xavfsizligi xizmati, milliy gvardiya, soliq, bojxona xizmatlari, advokatura va boshqa organlar kiradi. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining tashkiliy asoslari hamda funktsiyalarini o'rganib chiqish uchun bir qancha normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish zarur bo'ladi, vaholanki ularning aniq miqdorini aniqlash mushkul. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlari tayanadigan huquqiy negizini odatda tasniflashga yondashiladi.

Ta'kidlash kerakki, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tartibga soluvchi mustahkam huquqiy baza yaratildi. Xususan, 2000 yil 14 dekabrda (yangi tahrirda) "Sudlar to'g'risida"gi, 2001 yil 29 avgustdagi (yangi tahrirda) "Prokuratura to'g'risida"gi, 1995 yil 30 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi, 1996 yil 27 dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi, 1998 yil 25 dekabrda "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi, 2001 yil 23 avgustdagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi, 2016 yil 16 sentyabrda "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 yil 14 dekabrda "Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risidagi, sudyalarning malaka darajalari to'g'risidagi, sud xodimlarining mansab darajalari to'g'risidagi, harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi nizomlarga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 164-II-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 8 avgustdagi "Qamoqqa

³⁸ Jones & Bartlett. The Field of law Enforcement. Chapter 1. 2011. p.2.

olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"gi PF-3644-son, 2004 yil 20 fevraldagi "Umumiy yurisdiksiya sudlarining ayrimlarini tugatish va qayta tashkil etish to'g'risida"gi PF-3400-son, 2008 yil 1 maydagi "O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3993-son, 2016 yil 5 oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-son, 2016 yil 21 oktyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-son fanmonlari hamda 2011 yil 23 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1602-son, 2006 yil 31 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-458-son qarorlari, 2012 yil 29 dekabr-dagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" PF-3949-son farmoyishi, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 25 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida" 270-son, 1991 yil 2 noyabr-dagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi 278-son, 1997 yil 30 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 374-son, 2001 yil 22 sentyabrgi "O'zbekiston Respublikasi sudlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 383-son, 2010 yil 21 maydagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 98-son, 2009 yil 9 martdagi "Advokatlik faoliyatini litsenziyalash va advokatlik tuzilmalarini tashkil etish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 60-son, 2012 yil 31 oktyabrdagi "Sudyalarga, prokuratura organlari hamda O'zbekiston respublikasi bosh prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti xodimlariga imtiyozli shartlarda uy-joy sotib olishga uzoq muddatli ipoteka kreditlari berish tartibi to'g'risidagi nizomni hamda sudyalarga, prokuratura organlari hamda O'zbekiston respublikasi bosh prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti xodimlariga uy-joylarni ijaraga olganlik (ijaraga turganlik) uchun har oylik pul kompensatsiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 312-son qarorlari shular jumlasidandir³⁹.

Bugungi kunda huquqni muxofaza qiluvchi organlar va nazorat idoralari ustidan jamoatchilik nazorati hamkorligini oshirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmogda. Jumladan, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar huquqni muxofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi hamda aniqlangan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar to'g'risidagi axborotni almashadi, shu jumladan elektron shaklda almashadi, shuningdek boshqa axborotni almashishni amalga oshiradi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlashda, jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish, ularni fosh etishda, jinoyat ishlarini tergov qilishda, jinoyatchilarni qidirishda, bedarak yo'qolganlarning turgan joyini aniqlashda, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasida huquqni muxofaza qiluvchi organlar organlariga o'z vakolatlari doirasida ko'maklashadilar.

Kafolatlangan xavfsizlik. O'zbekiston Respublikamizda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolarning havfsizligi kafolatlangan. Bu kafolat davlatning eng asosiy qonuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalari hamisha ustivor, birlamchi kuchga egadir. Boshqa qonunlarning barchasi u yoki bu tarzda konstitutsiyaviy me'yorlar asosida yaratiladi, uni rivojlantiradi va ro'yobga chiqaradi. Uning asosida normativ huquqiy-

³⁹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотларининг миллий базаси – www.lex.uz

xujjatlar ishlab chiqiladi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasi kuchli axloqiy zaminga egadir. Unda avvalo insonparvarlik, adolat g'oyalari mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyaning "insonga qaratilganligi" xususiyatini alohida ajratib ko'rsatish lozim. Konstitutsiyaning markazida inson, fuqaro, uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini turadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o'z maqomi, tuzilishi, yo'nalishi hamda asosiy tamoyillari, yaxlit mundarijasiga, ya'ni Muqaddimasidan boshlab so'nggi moddasiga qadar mustaqillik va istiqloq ruhi, demokratik tamaddun mazmuni bilan ajralib turadi. Shu o'rinda aytish o'rinliki, demokratik huquqiy davlat qurish hamda jamiyatni umuminsoniy qadriyatlar asosida tashkil etishda, shubhasiz Konstitutsiyaning tutgan o'rnini va ahamiyati beqiyos ekanligini e'tibordan qoldirmaslik zarur. Mazmun mohiyati bilan huquqiy demokratik davlatda hech bir fuqaro hech bir odam o'z ijtimoiy-shahsiy hayotini, o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur qila olmaydi. Shuning uchun ham biz Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyatini chuqur bilishimiz, oldimizda turgan muammolarni echishda Asosiy Qonunimizdan javob topishga intilishimiz lozim.

Mustaqil davlatimizning Konstitutsiyasi kelajagi buyuk davlatning ishonchli huquqiy kafolatlarini hamda kafolatlangan xavfsizlikni mustahkamlaydi. U bizga inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik va taraqqiyot tamoyillari yig'indisini ifodalaydigan huquqiy va adolatli davlat qurish yo'larini aniq ifoda etgan va xalq manfaatlarini himoya qiluvchi eng oliy qonun sifatida doimiy yo'lchi yulduz bo'lib xalqimiz borayotgan yo'lni yoritib boradi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, qonun ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan vazifalar aniq belgilab berildi. Shundan kelib chiqib, sud hokimiyatining chinakkam mustaqilligiga erishish orqali fuqarolar huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatini mustahkamlash, sudlarni "Adolat qo'rg'oni" ga aylantirish maqsadida so'nggi yillarda to'planib qolgan muammolarni bartaraf etish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tuzatish borasida amaliy qadamlar tashlanmoqda.

Bu borada davlatimiz rahbarining 2018 yil 17 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni muhim dasturilamal bo'layotir. Unda tizimni takomillashtirish va maqbullashtirish borasidagi o'zgarishlar, sudyalarning malaka va mahoratiga nisbatan talabchanlik oshirilishi, sud jarayonlarini puxta tashkil etish bo'yicha o'rta qo'yilgan masalalar o'z burchi va qasamyodiga sodiq har bir sudyani adolat tarozisini mahkam tutishga undaydi.

Tizimni isloh qilish jarayonida jinoyat ishlarini qo'shimcha tergovga qaytarishdek odil sudlov mazmun-mohiyatiga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan amaliyotga chek qo'yilgani ayni muddaodir. Binobarin, tajribasiz hamda mas'uliyatni zimmasiga olishdan cho'chiydigan ayrim sudyalarga qo'l keladigan bu usul sud nufuzini tushirib, fuqarolarning unga nisbatan ishonchini susaytirib qo'ygan edi.

O'tgan yillar davomida sudning barcha darajasi tuman, shahar, viloyat, va Respublika Oliy sudi faoliyatida jinoyatchilikning murakkab turlariga oid ishlarni ko'rib chiqish jarayonlarida bevosita chiqargan qarorlarning hech biri takror ko'rishga qaytarilgan emas.

Odamlar sudyaning noxolisligi, ishlarning yuzaki ko'rilishi, sansalorliklardan nolib bo'lishgan. Bunday holatlar negizida mutaxassislarda malaka etishmasligi, ularning mas'uliyatsizligi, dalilni to'la tekshirmasdan xulosa chiqarishi yotganligini guvoni bo'lish mumkin.

Bugun biz huquqiy demokratik davlat qurayapmiz. Shundan kelib chiqib, qonunlarimiz ham takomillashtirilmoqda. Masalan, sobiq tuzum davrida bir xil shakldagi qonunlar asosida yashab, mehnat qilgan bo'lsak, mustaqillik davrida huquqiy asoslarimiz milliy qadriyat, urf-odatlarimizga moslab yangidan ishlab chiqildi, xalqimizga xos bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillari asosida maromiga etkazildi. Endi hamma gap ularni og'ishmay amalga oshirish, Prezidentimiz va xalqimiz oldida sudyalarning bergan qasamyodiga sodiq faoliyat olib borishda qoldi xolos.

Odamlar sudga "Adolat qo'rg'oni", sudyalarga uning "Mustahkam qalqoni" sifatida qaramog'i lozim. Darhaqiqat, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, fuqarolarning ana shu

ishonchini amalda oqlay olayotganimiz yo‘q. Suiiste‘molchilik, qonundan chetga chiqish, jinoiy ishlarni yuzaki ko‘rib chiqish, noxolislik holatlari ko‘payib ketdi. Sudya qachon xolis bo‘ladi? Albatta, ayblanuvchiga hukm -chiqarayotgan chog‘da uning o‘rniga o‘zini qo‘yib, qonunni mahkam ushlaganida. Shu bois sudyalarning O‘zbekiston xalqiga murojaatida odil sudlovni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan barcha muhim vazifalar aniq qilib belgilab berildi. Ularni bajarish har bir xodimdan zimmasiga yuklatilgan vazifani sidqidildan, halol va vijdonan bajarishni talab etadi. Endilikda eskichasiga ishlab bo‘lmaydi. Zero, sudya faoliyatiga uning xalq bilan muloqoti, fuqaroning buzilgan huquqini tiklay olishi, har bir inson taqdirini hal etishda ongda adolat, tilda haqiqat, dilda poklik bo‘lishiga qarab baho beriladi.

O‘z bolangni o‘zing asra. Yurtimizning mustaqilligini mustahkamlashda va uning gullab yashnashida, oilada singdirilgan tarbiya, vatanga muhabbat, mehr-oqibat, o‘zaro hurmat kabi yuksak insoniy fazilatlarining o‘rni beqiyosdir. Bola tarbiyasida eng muhim shart–sharoit oilaning mustahkam, ma‘naviy sog‘lom asosga qurilganligi, ayniqsa ota – onaning o‘zi tarbiyalangan, ular o‘rtasida totuvlik, ahillik, chin do‘stlik barqaror bo‘lishi, bolalarni hayotga tayyorlash, ularning kundalik e‘tiqodi tarzida ma‘suliyatli ekanligini tushunishlari kerak.

Oilaning asosiy vazifasi sog‘lom avlodni kamol toptirishdan iboratdir. Zero har bir millat va jamiyatning bebaho hazinasi - sog‘lom, ma‘naviy barkamol oiladir. Hozirgi sharoitda oilalarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan, sharqona axloqiy xususiyatlar aks etgan ma‘naviy-axloqiy munosabatlar qaror topmoqda. Oilada huquqiy, axloqiy va ruhiy asoslar takomillashib bormoqda. Uyda sog‘lom axloqiy muhit, o‘zaro muomala madaniyati, axloqiy tamoyil chuqur ildiz otmasa, oilada bo‘shliq, salbiy holatlarning qaror topishi muqarrar.

Bola voyaga etib, unda fikrlash alomatlari namoyon bo‘lsa, uni yaxshi kuzatish va ahvolini o‘rganish lozim bo‘ladi. Chunki bolaning qalbi sodda va toza bo‘lib, u har qanday naqshni qabul qilishga tayyor. Agar yaxshilikka odatlantirilsa, yaxshilik bilan ulg‘ayadi. Uning savobiga ota-ona va tarbiya beruvchilar sherik bo‘ladi. Agar yomonlikka odatlansa, yomonlik bilan ulg‘ayadi va javobgarlik uning yaqinlari bo‘yniga tushadi.

Har bir ota-ona farzandining sog‘lom, baquvvat, ma‘naviy jihatdan yetuk inson bo‘lib etishishini istaydi va buning uchun bor kuch va g‘ayratini ayamaslikka harakat qiladi. Ba‘zi otanalarni tajribasizlik qilib “Bolamni yaxshi edirsam, hech kimdan kam qilmay kiyintirsam, hayotda o‘z o‘rnini topa olishi aniq”, deb noto‘g‘ri fikrga boradilar. To‘g‘ri, bunday otanalarning farzandlari jismonan sog‘lom bo‘lishi mumkin, lekin ularning ruhiy, aqliy va ma‘naviy jihatdan rivojlanishi ham etarli darajada bo‘lsa nur ustiga nur bo‘l ar edi.

Hozirgi davrda insoniyat ma‘naviyatidagi o‘zgarishlar oilaga tegishli ayrim global muammolarni keltirib chiqardi. Ba‘zi mamlakatlarda asrlar davomida shakllangan burch, oilaviy sadoqat, e‘tiqod kabi axloqiy-ma‘naviy asoslarga, oilaviy madaniyat va an‘analarga bepisandlik, nikohga hurmatsizlik qarashlari nisbatan kuchaydi, bolalar va keksa ota-onalarni bolalar va qariyalar uyiga joylashtirish hollari ortdi. Oila sha‘nini ulug‘lash, avlodlar an‘analarini qadrlab, ularga sodiq bo‘lish kabi milliy fazilatlar o‘z qadrini yo‘qotmoqda. Oilaga munosabat borasidagi bunday ma‘naviy tanazzul ko‘plab mamlakatlarni qamrab oldi. Bu esa yangi avlodlarda ba‘zi zararli odatlar: chekish, spirtli ichimliklar ichish, giyohvandlik, ayollar va bolalar jinoyatchiligi, ajrimlar kabi illatlarning urchib ketishiga olib keldi. Oilaning qadrsizlanishi insoniyat ma‘naviy hayotining davomiyligida ko‘plab muammolar paydo bo‘l ishiga olib kelishini tarix isbotladi.

Shunday ekan oila atalmish muqaddas dargohning mustahkamligiga, unda kamol topayotgan bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash masalalariga hech birimiz befarq bo‘la olmaymiz. Har bir oilaning muqaddas vazifasi - farzandlarni o‘stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma‘naviy tomondan yetuk qilib, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat.

Shu o‘rinda Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlab o‘tganidek: “Agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘l ib turmasak, ularni ilmu hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas. Biz, ko‘pincha bolam maktabda, o‘qishda yoki chet elda ishlayapti, deb xotirjam yuribmiz. Lekin bizning bunday soddaligimiz, beparvoligimizdan dushmanlar makkorlik bilan foydalanmoqda. Bizning jonu jahonimiz bo‘lgan

farzandimiz dushmanlar qoʻlida qurolga aylanib qolsa, buning uchun avvalo kim aybdor? Oʻzimiz emasmi? Shuning uchun maktab, litsey va kollejlardagi, oliy oʻquv yurtlaridagi taʼlim-tarbiya, birinchi navbatda, davomat masalasiga nihoyatda jiddiy eʼtibor berishimiz shart. Birona oʻquvchi yoki talaba uzrsiz oʻqishga kelmay qoʻysa, taʼlim maskani ham, oila ham, mahalla, hokimiyat idoralari ham bu toʻgʻrida bong urishi, sergak tortishi, buni favqulodda bir hol deb baholashi kerak. Ana shunday nazorat tizimi samarali va oʻzaro bogʻliqlikda ishlaydigan boʻlsa, albatta biz vaziyatni qoʻlga olib, uni ijobiy tomonga oʻzgartira olamiz”.

Afsuski, bugungi tezkor oʻzgarishlar davrida yoshlarimiz ongi va qalbini egallash uchun astoydil urinayotgan yovuz kuchlar mavjud. Ular ayrim yoshlarning soddadilligidan foydalanib, ularga moddiy va maʼnaviy yordam koʻrsatish kabi bahonalar bilan oʻz tuzoqlariga ilintirishga harakat qilmoqdalar. Demak barcha ota-onalar farzandlarni tarbiyasi bilan astoydil shugʻullanib, doimo nazorat qilib borishlari lozim. “Bola ota-ona qoʻlida bir omonatdir”, deydi buyuk allomalarimiz. Davlatimiz rahbari taʼbiri bilan aytganda, oʻz bolamizni oʻzimiz asrashimiz kerak. Bu har birimizning insoniy burchimiz ekanligi bilan bir qatorda, kerak boʻlsa konstitutsiyaviy majburiyatimiz hamdir. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganidek keyingi yillarda xalqimiz oʻrtasida keng tarqalgan “Oʻz uyingni oʻzing asra!” degan daʼvatga bugun “**Oʻz bolangni oʻzing asra!**” deb qoʻshimcha kiritish vaqti keldi.

Prezidentimizning 2020 yil 29 dekabr kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida qonun ustuvorligini taʼminlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yoʻnalishlari sohasida quyidagilar belgilandi:

Inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, qonun ustuvorligini taʼminlashga qaratilgan islohotlar yangi 2021 yilda ham izchil davom ettiriladi.

Xabaringiz bor, soʻn ggi 4 yil davomida sud-huquq sohasini isloh etish borasida dadil qadamlarni qoʻydik. Bu yoʻn alishdagi ustuvor masalalar yuzasidan 40 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi.

Adolat bu – davlatchilikning mustahkam poydevoridir. Adolat va qonun ustuvorligini taʼminlashda esa sud hokimiyati hal qiluvchi oʻrinni egallaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraydigan boʻlsa, bu borada hali qiladigan ishlarimiz juda koʻp.

Birinchidan, yangi yildan boshlab joriy etiladigan “**bir sud – bir instansiya**” tamoyili sud qarorlarining adolatli, qonuniy va barqarorligini taʼminlashda bosh mezon boʻlsa, ishi lozim.

Hozirgi kungacha viloyat sudlari chiqargan qaror ustidan berilgan shikoyatlar shu sudlarning oʻzida koʻrib chiqilar edi. Birgina 2019 yilda viloyat sudlari qabul qilgan 13 mingta shunday qaror Oliy sud tomonidan oʻzgartirilgan va bekor qilingan.

Kelgusi yildan boshlab bir-birini takrorlaydigan sud bosqichlari qisqartiriladi. Odil sudlovga xos boʻlmagan ishlarni nazorat tartibida koʻrish amaliyoti bekor qilinadi.

Navbatdagi muhim masala – yangi yildan boshlab fuqarolik, iqtisodiy va jinoyat ishlari boʻyicha viloyat darajasidagi 3 ta sudlar bitta sud sifatida birlashtiriladi. Bu yangilik aholi va tadbirkorlarga katta qulayliklarni yaratadi. Shuningdek, kelgusi yildan sud muhokamasiga qadar sudda ishlarni dastlabki eshitish amaliyoti yangi tartib sifatida joriy etiladi. Bunda ishni toʻxtatish yoki tugatishga asos etarli boʻlsa, sud ishni avvalgiday tergov yoki prokurorga qaytarmasdan, oʻzining yakuniy qarorini qabul qiladi.

Yana bir muhim yangilik – investorlar huquqlarini munosib himoya qilish maqsadida Oliy sudda investitsiyaviy nizolar va raqobatga oid ishlarni koʻrish boʻyicha maxsus sudlov tarkibi tashkil etildi.

Endi investorlar, oʻz xohishiga koʻra, nizoni hal qilish uchun toʻgʻridan-toʻgʻri Oliy sudga murojaat qilishi mumkin.

Sud tizimida raqamlashtirish yanada kengaytirilib, fuqarolarimizga sud binosiga kelib yurmasdan, “onlayn” tartibda murojaat qilish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, fuqarolar oʻz arizalarini koʻrib chiqish jarayonini masofadan turib kuzatib borishi mumkin boʻladi.

Ikkinchidan, jazoni ijro etish tizimida insonparvarlik tamoyilini keng qo'llash borasidagi ishlar davom ettiriladi. Jumladan, xalqaro standartlardan kelib chiqib, 25 ta manzil-koloniya bosqichma-bosqich qisqartiriladi.

Bundan buyon birinchi marta ozodlikdan mahrum etilgan shaxsga berilgan jazo engilrog'i bilan almashtirilsa, u manzil-koloniya o'tkazilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri probatsiya nazoratiga olinadi. Mazkur yengillik natijasida hozirda jazo o'tayotgan 6 ming nafar shaxsga o'z mahallasi nazorati ostida oilasi bag'rida bo'lish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, jazoni engilrog'i bilan almashtirish va shartli ozod qilish to'g'risida taqdimnoma kiritish vakolati jazoni ijro etish muassasalaridan yangi tashkil etiladigan **insonparvarlik komissiyalariga o'tkaziladi**.

Uchinchidan, tezkor-qidiruv, tergov va jazoni ijro etish sohasida qiynoqlarning oldini olish tizimini tubdan takomillashtirish zarur. Ushbu holatlar hali ham uchrab turgani, fuqarolarda jiddiy e'tirozlarni keltirib chiqarayotgani hamda mamlakatimizning xalqaro nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ham ayni haqiqat.

Oliy Majlis palatalari, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz qiynoqlarning oldini olish bo'yicha Ombudsman vakolatlarini kengaytirish, shuningdek, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish yuzasidan ikki oy muddatda o'z takliflarini ishlab chiqishi zarur. Bunda Ombudsman tomonidan har chorakda jamoatchilik vakillari bilan birgalikda tergov izolyatori va jazoni o'tash muassasalariga "monitoring tashriflari" tizimi yo'lga qo'yilishi kerak.

Oliy Majlis palatalari har yili Ombudsmanning qiynoqlarning oldini olish bo'yicha ma'ruzasini eshitib, bu illatga butunlay barham berish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni belgilashi lozim.

To'rtinchidan, o'tgan yili 1995 yilgacha yurtimizga ko'chib kelganlarga O'zbekiston fuqaroligini to'g'ridan-to'g'ri berish tartibi belgilandi. Bu bilan 50 ming nafardan ortiq shaxslarga fuqarolik olish imkoniyati yaratildi.

Kelgusi yilda bu ishlarni davom ettirib, 2005 yilgacha mamlakatimizga kelib doimiy yashayotgan, fuqaroligi bo'l magan shaxslarga ham to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston fuqaroligini bersak, nima deysizlar? Bu o'zgarish bilan yana 20 ming kishi O'zbekiston fuqarosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan buyon yurtimizda 15 yil davomida muqim yashagan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston fuqaroligini berishning doimiy tartibi joriy qilinadi.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar yaqin-uzoq mintaqalarda kuzatilayotgan ziddiyat va to'qnashuvlar sharoitida biz yurtimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi ishlarimizni yanada jadallashtirishimiz lozim.

Kelgusi yilda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini rivojlantirish bo'yicha islohotlarimizni davom ettiramiz. Xususan, Qurolli Kuchlarimiz qudratini, qo'shinlarning professional va jismoniy salohiyatini yuksaltirish, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor qaratamiz.

Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash, har bir mahallada xavfsiz muhit yaratish bo'yicha yangicha yondashuvlar joriy etiladi. Huquq-tartibot idoralari aholi osoyishtaligi va fuqarolar manfaatlarining chinakkam himoyachisiga aylantirishga qaratilgan islohotlarimiz izchil davom ettiriladi.

So'nggi yillarda respublikamizda yuz bergan tabiiy va texnogen ofatlar, kuz-qish mavsumida sodir bo'layotgan yong'in va boshqa ko'plab noxush holatlar bu boradagi mavjud tizimni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Yurtimizda barpo etilayotgan ko'plab yirik obyektlar va baland qavatli binolarda yong'in xavfsizligini ta'minlashning yangi tizimini tashkil etish zarur. Shuningdek, sohaning moddiy-texnik bazasini va kadrlar salohiyatini tubdan mustahkamlash lozim.

Shu sababli 2 oy muddatda "Favquloddagi holat to'g'risida"gi Qonun loyihasi hamda yuqorida qayd etilgan muammolar yechimiga qaratilgan Hukumat dasturi ishlab chiqilsin, deb Murojaatnomada ta'kidlangan

1.3-1 – MAVZU: IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USTUVOR YO‘N ALISHLARI

REJA

1. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sohasida islohotlar.
2. Milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minlash.
3. O‘zbekiston Respublikasida davlat byudjeti taqsimoti va soliq siyosati

1. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sohasida islohotlar.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning dastlabki natijalari aholining hayoti va kundalik turmushida o‘zining yaqqol ifodasini topmoqda, odamlarning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o‘rib bormoqda.

Milliy valyutamizning erkin konvertatsiyasi yo‘lga qo‘yildi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘n alishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishning muhim shartlaridan biridir.

Strategiyaning «Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari» bobida xususiy mulk huquqi va kafolatlarini himoya qilish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesga to‘liq erkinlik berish, ular faoliyatiga davlat idoralarning noqonuniy aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik, davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida davlatning ishtirokini kamaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish va bozor munosabatlarini chuqurlashtirish jarayonida liberallashtirish, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini demokratlashtirish, milliy xo‘jalikda tarkibiy o‘zgarishlarni jadallashtirish makroiqtisodiy mutanosiblikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib kelayotir. Liberallashtirish tamoyillari tufayli qator yillar mobaynida mamlakatimizda iqtisodiy o‘sish barqaror turibdi. Jumladan, o‘tgan yili yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur‘atlari 5,3 foizni tashkil etdi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng ko‘lamda rivojlantirish orqali amalga oshirilmoqda. Liberallashtirish uzluksiz, doimiy jarayon sifatida bundan keyin takomillashib boraveradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oila tadbirkorligini rivojlantirish, «Har bir oila — tadbirkor» Dasturini izchil amalga oshirish uning kafolati bo‘la oladi. Ayrim davrlarda davlat “charchagan” xususiy va jamoa mulki obyektlarini “jonlantirib”, keyin ularni xususiy qo‘l larga sotishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, yalpi ichki mahsulotning 81 foizi nodavlat, 19 foizi esa davlat sektorida ishlab chiqarilmoqda. Yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotlari, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida nodavlat sektor ulushi 100 foizga yaqinlashib qoldi. Ish bilan band aholining 80 foizdan ziyodi mazkur tizimda mehnat qilayotir⁴⁰.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning ilk bosqichida chakana savdo va umumiy ovqatlanish shaxobchalari, uy-joy va maishiy xizmat obyektlari xususiy qo‘llarga sotildi, imtiyozli va tekin berildi. Maqsad aholida bozor ko‘nikmalarini hosil qilish va mustahkamlash edi. Ikkinchi va uchinchi bosqichlarda o‘rta va yirik korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi.

⁴⁰<http://21asr.uz/post/iqtisodiyotni-liberallashtirish-kimga-nima-beradi>.

Natijada aktsiyadorlik jamiyatlari, davlat ulushi bo'lgan kompaniyalar, uyushmalar yuzaga keldi.

Bozor qanchalik mukammal vosita bo'lmasin, barcha muammolarni hal etishga qodir emas. U davlat aralashuvisiz iqtisodiy muvozanatni ta'minlay olmaydi. 2007-2008 yillarda boshlangan global moliyaviy iqtisodiy inqiroz saboqlari buni yaqqol ko'rsatdi. Bozor o'zicha barchaga barobar foiz stavkasi, baho va daromadlar mexanizmini yarata olmaydi. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi nisbatni saqlash mikrodarajada davlat ishtiroki va nazorati bilangina ta'minlanishi mumkin. Xuddi mana shu ikki narsada ishlab chiqarish va aholi daromadlarini o'stirishning beqiyos imkoniyati mujassam.

Bosqichma-bosqich erkinlashtirib borish o'tish davrining o'zidayoq o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. 90-yillar o'rtalariga kelib yalpi sanoat mahsuloti, keyin esa yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish bozor islohotlaridan oldingi darajada tiklandi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yillarida ham iqtisodiyotda o'sish davom etdi. Islohotlarni chuqurlashtirish, tarkibiy qayta qurishlar, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, kichik biznesni rivojlantirish, xususiy mulkning ustuvor rolini ta'minlash, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirib borish hisobiga iqtisodiy samaradorlik ta'minlandi.

Mamlakatimizda har yili 30 mingdan ziyod kichik biznes subyektlari barpo etilmoqda. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi 2018 yilda 56,9 foizga, sanoat ishlab chiqarishida esa 45 foizga yetkazildi. Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar ulushi 52 foizni tashkil etdi⁴¹.

Keyingi ikki yilda 378 aktsiyadorlik jamiyatidagi davlat ulushi savdoga qo'yildi. Qayd etish lozimki, nisbatan muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan «Navoiyazot», «Farg'onazot», «Urganch ekskavator», «Qizilqum sement», «Jizzax akkumulyator zavodi», «Qo'qon yog'moy zavodi» kabi aktsiyadorlik jamiyatlari, «Aloqabank», «Turonbank» kabi banklar, «O'zagro sug'urta» kompaniyasidagi davlatga tegishli aktsiyalar savdoga qo'yildi. Bu nima beradi?

Birinchidan, aktsiyadorlik jamiyatlari davlatga tegishli qismining sotilishi davlat g'aznasiga mo'may mablag' keltiradi. Ikkinchidan, davlatning qo'li xo'jalik yumushlaridan birmuncha bo'shaydi. Uchinchidan, mamlakatda tadbirkorlik muhiti kengayadi. Bundan ham davlat, ham mulkdorlar va oddiy kishilar yutadi. Asosiysi, bozor islohotlarini chuqurlashtirish shuni talab qiladi.

Davlatning monopol mavqei uglevodorod xomashyosi, rangli metallar, uran qazib olish, temir va avtomobil yo'llari, aviatashuvlar, elektr energiyasi ishlab chiqarish, elektr va kommunal tarmoqlarda saqlanib qolishi lozim. Boshqa sohalardagi davlat aktivlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish davom etadi. Xususiylashtirilgan davlat mulki obyektlari chet ellik investorlarga sotilmoqda. Jumladan, yuzlab mulk majmualari tanlov asosida investitsiya kiritish sharti bilan «0» qiymatda yangi mulkdorlarga sotildi. Ular esa investitsiya kiritish, minglab ishchi o'rinlarini yaratish majburiyatini oldi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni pirovard maqsad bo'lmasligi kerak. Agar erkinlashtirish sur'atlari, iqtisodiyotning o'sish sifat ko'rsatkichlari, aholi turmush darajasi barobarida kechsa yanada yaxshi bo'ladi. O'zbekiston iqtisodiy o'sish prognozlariga ko'ra, dunyodagi tez rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan joy oldi. Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida ham oldingi o'rinlarga chiqdi. Ushbu ko'rsatkichlar hozirgi sharoitda ancha yuqori hisoblanadi. Chunki jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hali to'la barham topgani yo'q, davlatlarning bir-biriga sanksiya va embargolar qo'l lashi avj olmoqda. Qolaversa, muhim tovarlarga tashqi talab kamayib, narxlar pasayib bormoqda, talabga nisbatan taklif ustunroq. Bu kabi tashqi iqtisodiy va siyosiy beqarorlik milliy iqtisodiyotga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, albatta.

Davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish uchun davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha Dasturida to'la quvvat bilan ishlamayotgan davlat korxonalarini tugatish va ochiq savdolar orqali yangi xususiy mulkdorlar ixtiyoriga o'tkazish, strategik ahamiyatga ega bo'lmagan va foydalanilmayotgan davlat ulushini to'la sotish, qator korxonalaridagi davlat ulushi aktsiyalarini fond bozorida sotish orqali 51 foizgacha tushirish va boshqa chora-tadbirlar ko'zda

⁴¹<http://21asr.uz/post/iqtisodiyotni-liberallashtirish-kimga-nima-beradi>.

utilgan. Shu bilan birga, bu tadbirlarni o'tkazish mexanizmlari ham takomillashtirildi. Jumladan, davlat aktivlarini sotish muddatlari qisqartirildi, savdolaridagi davlat aktivlariga ikki oy muddatda talab tushmagan taqdirda, ularning bahosini 50 foizgacha, har 15 kunda esa 10 foizga pasaytirish, shunda ham sotilmasa investitsiya kiritish va yangi ish o'rinlarini yaratish sharti bilan «0» qiymatda sotish, Markaziy bankning qayta moliyalash yillik stavkasi miqdorida chegirma berish, davlat obyektlarini qismlarga bo'lib sotish, xarid to'lovlariga imtiyoz berish, davlat obyektlarini ijarachilarga sotilishga ustunlik berish, xo'jalik organlarining ustav kapitalidagi davlat ulushlarini sotishdan tushgan mablag'lar korxonalarini modernizatsiya qilishga yo'naltirilishi mumkinligi va boshqalar belgilab qo'yildi.

Valyuta va tashqi savdo bozorini erkinlashtirish iqtisodiyotni liberallashtirishning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, davlat pul-kredit siyosatiga jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab qiladi. Monetar siyosat davlat yoki uning Markaziy banki tomonidan makroiqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsatish maqsadida muomaladagi pul massasini oshirish yoki pasaytirish orqali amalga oshiriladigan vositadir. Bu siyosat foiz stavkasi va ayirboshlash kursi, to'lov balansi, ustidan nazorat, inflyatsiyani jilovlash, umumiy bandlikni oshirish, baholar darajasini me'yorlash va boshqa tadbirlarni ham o'z ichiga oladi. Monetar siyosat bir amerikalik tili bilan aytganda, "bir tanga ustida umbaloq oshish"dir.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq, 2017 yil 2 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Valyuta siyosatini erkinlashtirish to'g'risidagi farmonni imzoladi. Undan asosiy maqsad, barcha bozor ishtirokchilari uchun bir xil sharoit yaratish bo'lib, bozordagi turli-tuman valyuta kurslari o'rniga yagona rasmiy kurs bir dollarga 8100 so'm miqdorida belgilandi. Korxonalar va aholida chet el valyutasini erkin sotib olish imkoni paydo bo'ldi. Bu qadar radikal yondashuv hatto ancha bilimdon bo'lgan iqtisodchilarni ham xavotirga solib: endi nima bo'ladi, milliy valyuta kursining roppa-rosa ikki baravarga pasaytirilishi inflyatsiyaning yangi xalqasini keltirib chiqarmaydimi, degan mulohazalarni tug'dirgan edi. Lekin fevralda bir dollar 8188,33 so'mga ko'tarilgan bo'lsa, keyin asta-sekin so'm mustahkamlana boshladi va iyun oxiriga kelib, bir dollar 7813 so'mga tushdi. Endilikda aholida «dollarlashtirishdan» birmuncha qaytish tendentsiyasi, pul o'tkazmalarini milliy valyutada olishni afzal ko'rayotgani kuzatila boshladi.

Bu tendentsiya bundan keyin ham davom etishi, so'm o'z qadrini ko'tarib borishi mumkin. Xo'sh, nima uchun so'm bugun o'z pozitsiyasini mustahkamlayapti, giperinflyatsiya yo'q. Chunki, birinchidan, dollar kursi pasayishida Markaziy bankning valyuta birjasidagi intervensiyasining ham roli bor. Bu vosita ham ko'pchilik mamlakatlar amaliyotida uchrab turadigan valyuta ayirboshlash kursiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishdir. Bu holat "betaraf" xarakterga ega bo'lib, mamlakat oltin-valyuta zahiralarining keskin kamayib ketishiga olib kelmaydi. Ikkinchidan, asosiysi, valyuta bozoridagi noaniqlik, nufuzli valyuta kurslarining har kuni, har soatda o'ynab turishi aholida ajiotaj, ya'ni shov-shuv talabni kuchaytirayotgan edi. Endi esa Prezident va Markaziy bank kafolati ostida valyuta bozoriga aniqlik va shaffoflik kiritildi. Bugun O'zbekistonlik turist, biznesmen, talaba yoki davolanuvchi chet elda turib konversion kartasidagi valyutani bankomatdan xohlagan miqdorda naqd mablag' sifatida yechib olishi mumkin. Ikki yil oldin buni faqat orzu qilish mumkin edi.

Uchinchidan, liberallashtirish iqtisodiyotning qaysi sohasida kechmasin, kompleks xarakterga ega bo'lib, ma'lum shart-sharoitlarni taqozo etadi. Ayni paytda mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik va investitsion faollik saqlanib turibdi, iqtisodiy o'sish bo'yicha davlat dasturlarini ro'yobga chiqarish jadal bormoqda. Soliq va bank tizimi islohotlari ketmoqda, biznesni yuritish va eksport sohasidagi ma'muriy to'siqlar olib tashlanmoqda. Bular hammasi pul-kredit tizimini takomillashtirish, sohani liberallashtirishga xizmat qiladi.

Valyuta bozori liberallashtirish tashqi savdoga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu sohada raqobatbardoshlikni oshirish, eksport korxonalarini qo'llab-quvvatlash, fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini rag'batlantirish, ularga imtiyozlar tizimini takomillashtirish, bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish va tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish muddatlarini keskin qisqartirish, tashqi savdo tariflarini pasaytirishga oid hujjatlarni rasmiylashtirishlarning elektron shakliga o'tish va boshqa chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Rasmiy valyuta kursi qiymatini yuqori darajada ma'muriy yo'l bilan sun'iy ushlab turilishi milliy tovar va xizmatlar eksporti rivojining asosiy to'siqlaridan biri edi. Boshqacha aytganda, valyuta bozori erkinlashmagani milliy tovar va xizmatlarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini pasaytirar, eksportda xomashyo hissasi yuqori qolishiga olib kelardi. Endi esa mamlakat eksporti tarkibida noxomashyo tovarlari hissasi oshirish, sohada institutsional qayta qurishlar, oxir-oqibatda import o'rnini bosadigan modeldan eksportga yo'naltirilgan tashqi iqtisodiy modelga o'tilmoqda. Tinch okeani havzasidagi Osiyo yangi industrial mamlakatlari rivojlanish tajribasi xuddi shunday. Ammo eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish raqobatbardosh mahsulotlarni taqozo qiladi. Bu esa chetdan mashina va asbob uskunalar, yangi texnika va texnologiya kiritishni talab qiladi. Tashqaridan kirmasa, tashqariga chiqarib ham bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyoti tartibi shunday. Milliy iqtisodiyot go'yo ikki tomonlama qatnovli katta magistral yo'lga bo'g'ilishdi.

2017 yil 29 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Qarorda tashqaridan kiritiladigan tovarlarga boj to'lovlar o'rtacha 14,5 foizdan 6,5 foizgacha tushirish ko'zda tutilgan. Ma'lumki, tashqi savdoni keyingi erkinlashtirgunga qadar O'zbekistonda noqishloq xo'jalik mahsulotlariga import stavkalari eng yuqori edi. Qishloq xo'jalik mahsulotlariga esa yaqinlashgan import bojlari boshqa hamkor mamlakatlarga nisbatan aksincha past edi. O'tgan yil oktyabr oyidan boshlab barcha tovarlarga bojxona import bojlari o'rtacha 2,5 martaga pasaytirildi. Tashqi savdoning liberallasuvi eksport-import operatsiyalari kuchayishiga, milliy iqtisodiyotning dunyo bozoridan o'rin olishini osonlashtirishga, asosiysi mamlakatimizning qo'shimcha qiymat global zanjiriga integratsiyalashuviga xizmat qilishi shubhasiz.

Iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini, jumladan, valyuta bozorini liberallashtirish, davlatning xalqaro imiji bilan bog'liq katta voqea. Lekin ular ustidan, shuningdek, emissiya, chet eldan pul ko'chirmalari ustidan qat'iy nazorat o'rnatilmasa, iqtisodiyotning real o'sishi va muomaladagi pul miqdori o'sish sur'atlari o'rtasidagi farq sifatida doimo paydo bo'ladigan inflyatsiyani keltirib chiqarishi hech gap emas. Monetar siyosat bilan fiskal siyosatni qo'shib olib borish bunday holatlarning oldini olish imkonini beradi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari haqida so'z borar ekan, Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha O'zbekiston dunyo reytingida 187 mamlakat o'rtasida 134-inchi o'rinda turishi ta'kidlandi. Vaholanki, yurtimiz boy tabiiy resurslarga, katta iqtisodiy salohiyatga ega. Hamma gap ana shu zaxirani xalq manfaati yo'lida oqilona va samarali ishlata olishdadir.

Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlar o'z vaqtida joriy qilinmagani jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi iqtisodiy taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash o'ta muhim ahamiyatga ega. Buning uchun O'zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo'yicha kuchli milliy g'oya, milliy dastur kerak.

2018 yil faol tadbirkorlikni rivojlantirish e'tibor markazida bo'ldi. Bu sohani qo'llab-quvvatlash, biznes subyektlarini jadal va barqaror rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'riladi.

Ayrim korxonalariga imtiyozlar berilgani erkin raqobat muhiti bo'g'ilishiga olib keldi. Endi bunday amaliyotdan voz kechiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida teng va halol raqobat muhitini yaratish maqsadida "Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada samarali ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon loyihasi ishlab chiqilib, keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi.

Bojxona tartib-taomillarining murakkabligi tadbirkorlikka to'sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jahon bankining hisobotiga ko'ra, eksport-import hujjatlarini

rasmiylashtirish bo'yicha O'zbekiston 190 davlat orasida 175-o'rinda turadi. Bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish uchun Belgiyada 1 soat kifoya qilsa, O'zbekistonda 1 oy muddat sarflanadi. Shu munosabat bilan kelasi yildan boshlab, tadbirkorlik subyektlari uchun bojxona ko'rigida xavf-xatardan ogoh etish tizimi, ya'ni, tadbirkorlar qanchalik halol ekaniga qarab, ularni "yashil" va "qizil" yo'laklar orqali o'tkazish joriy etiladi.

Ayni vaqtda noqonuniy tekshirishlar, xususiyy biznes faoliyatiga asossiz aralashishga qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish tizimi tubdan qayta ko'rib chiqiladi. Tekshirish o'tkazishga ruxsat berishning maxsus elektron axborot tizimiga o'tilib, uning nazorati Bosh prokuraturaga yuklanadi. Barcha tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish 2 yilga to'xtatiladi.

Biz bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini o'zaro sheriklik asosida xususiyy sektorga o'tkazish bo'yicha ishlar davom ettiriladi. Internet tarmog'ida elektron savdolar va auksionlar orqali er uchastkalarini, jumladan, tadbirkorlar uchun ajratishning yagona tartibi o'rnatilib, 2018 yildan elektron savdo maydonlari orqali davlat aktivlarini sotish bo'yicha elektron tizim tashkil etildi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda puxta va barqaror bank-moliya tizimi ulkan ahamiyatga ega. 2018 yilda bank tizimi faoliyatini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda banklar bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida samarali va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda xalqaro standartlar asosida valyutani liberallashtirish jarayoni boshlandi. Valyuta siyosati biznes va iqtisodiyotni rivojlantirish manfaatlariga to'liq xizmat qilishi, investitsiya faoliyatiga ijobiy turtki berishi lozim.

2018 yilda soliq siyosatini amalga oshirishda keskin chora-tadbirlardan voz kechildi. Chunki islohotlar davrida davlat tizimining uzluksiz faoliyat ko'rsatishi uchun byudjet barqaror bo'l ishi kerak.

O'zbekistonda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish niyatida bo'lgan investorlar uchun mamlakatimizni jozibali qilish maqsadida soliq tizimi takomillashtiriladi. Barcha biznes toifalari uchun soliq yukini kamaytirish va qulaylashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish zarur. Soliq imtiyozlari berishda individual yondashuvlardan voz kechib, ularni faqat iqtisodiyotning ma'lum tarmoqlari uchun qo'llash amaliyotiga o'tildi.

Davlatimiz rahbari aytganidek, byudjet tizimini qayta ko'rib chiqish, byudjet daromadlari va xarajatlari ochiq va oshkora bo'lishi ta'minlash lozim.

Tashqi iqtisodiy sohada hali ishga solinmagan katta imkoniyat va zaxiralar mavjud. Bu borada Markaziy Osiyo mamlakatlari va yirik sheriklar – Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, AQSh, Turkiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish davom ettiriladi. Kelasi yilda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'l ish bo'yicha muzokaralarni qayta boshlanadi. Asosiy maqsad – tashqi bozorga sifatli va sertifikatlangan mahsulotlarni "o'zbek brendi" nomi bilan olib chiqishdan iborat.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Davlatimiz rahbari iqtisodiyotimizdagi yetakchi tarmoq – qishloq xo'jaligi sohasidagi eng muhim vazifalarga to'xtalib o'tdi. Yurtimizda 51 foizdan ziyod aholi qishloq joylarda yashaydi. Biroq qishloq xo'jaligi mahsulotlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 17 foizdan oshmaydi. Agrar soha mahsulotlarini qayta ishlash hajmi esa 10 foizga etmaydi. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha kompleks dastur ishlab chiqish lozim.

Hududlarni jadal iqtisodiy rivojlantirish haqida so'z borar ekan, bu borada mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari, imkoniyat va javobgarligini kengaytirish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi. Buning uchun Davlat-xususiyy sheriklik munosabatlarini joriy etish kontsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish kerak.

Qurilish-pudrat tashkilotlari va quruvchilarning zamonaviy avlodini yaratish – dolzarb masalalardan biri. Shu maqsadda qurilish sohasini 2030 yilgacha innovatsion rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarga to'xtalib, ilg'or xorijiy tajriba asosida aholining munosib hayot darajasi uchun zarur bo'lgan daromadlarni aniqlash bo'yicha "iste'mol savatchasi" tushunchasini qonunchilikda mustahkamlash va uni amalda ta'minlash mexanizmlarini yaratish lozimligini qayd etdi.

Ayni vaqtda aholining real daromadlari, ish haqi, stipendiya, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni bosqichma-bosqich oshirish bo'yicha ham amaliy choralar ko'rildi.

2018 yilda namunaviy va arzon uy-joylar qurish ko'lami joriy yilga nisbatan 1,5 barobar ko'paytirildi⁴².

Ma'lum qilinganidek, kelasi yil yangi yo'l lar barpo etish, transport-logistika infratuzilmasini yanada rivojlantirish, ko'rsatlayotgan xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha bir qator ishlar rejalashtirilgan.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida respublikada 55,0 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,0 mingtaga ko'p, deb xabar bermoqda Davlat statistika qo'mitasi.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 38,0 mingta (13,3%)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 323,5 mingtani tashkil etgan.

2019 yilning 1 yanvar holatiga 339,0 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 22,1% savdo, 17,5% sanoat, 9% qurilish, 7,7% qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1% tashish va saqlash, 2,2% axborot va aloqa, 2,0% sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 29,2% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Toshkent shahri (71318 ta), Toshkent (35385 ta), Samarqand (26297 ta) va Farg'ona (29529 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (11109 ta), Navoiy (11281 ta) hamda Xorazm (15765 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 323 517 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 38,0 mingta (13,3%)ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,9% savdo, 17,6% sanoat, 9,0% qurilish, 7,6% qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,1% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1% tashish va saqlash, 2,2% axborot va aloqa, 2,1% sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,4% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi⁴³.


Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Toshkent shahri (69236 ta), Toshkent (31030 ta), Farg'ona (29128 ta), Andijon (27391 ta) va Samarqand (25066 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Sirdaryo (10367 ta), Navoiy (11175 ta) hamda Jizzax (14226 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 55 011 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 34,1%ga ko'p. Yangi tashkil yetilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahri (12714 ta), Toshkent (5456 ta), Samarqand (4831 ta) va Farg'ona (4338 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (1507 ta), Navoiy (2027 ta) hamda Xorazm (2299 ta) viloyatlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

⁴²<http://taraqqiyot.uz/2018-yil-faol-tadbirkorlik-innovatsion-go'valar-va-tehnologiyalarni-k-ullab-k-uvvatlash-yili>.

⁴³<https://kun.uz/news/2019/01/15/2018-yil-ozbekistonda-55-mingta-yangi-korxonalar-tashkil-etildi>.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda⁴⁴



Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1avgustholatiga)⁴⁵

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
O'z. Respublikasi	324,6	100,0	309,6	100,0
Q. Respublikasi	15,3	4,7	14,9	4,8
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	28,1	8,7	26,6	8,6
Buxoro	18,0	5,6	17,2	5,5
Jizzax	14,2	4,4	13,5	4,4
Qashqadaryo	20,7	6,4	20,1	6,5
Navoiy	10,7	3,3	10,5	3,4
Namangan	21,9	6,8	20,9	6,8
Samarqand	24,5	7,5	23,1	7,5
Surxondaryo	16,0	4,9	15,2	4,9
Sirdaryo	10,8	3,3	10,0	3,2
Toshkent	33,6	10,4	29,9	9,6
Farg'ona	28,3	8,7	27,8	9,0
Xorazm	15,1	4,6	14,3	4,6
Toshkent sh.	67,3	20,7	65,6	21,2

⁴⁴<http://uza.uz/oz/society/O'zbekistonda-7-oyda-33926-mingta-korkhona-va-tashkilot-yangi--13-08-2018>.

⁴⁵ O'sha manba.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko‘pi savdo (11719 ta), sanoat (11279 ta), qurilish (6370 ta) va qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (5628 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (1178 ta), axborot va aloqa (1236 ta) hamda tashish va saqlash (2115 ta) faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

2019 yil 1 yanvar holatiga 265,0 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar – 72,4 mingta, oilaviy korxonalar – 15,5 mingta, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar – 170,2 mingta va boshqalar 6,9 mingtani tashkil etgan⁴⁶.

Bu maqsadlarni to‘liq va samarali amalga oshirish uchun tegishli huquqiy asos va mexanizmlarni yaratish zarur. Shu munosabat bilan Bosh vazir, Prezidentning Davlat maslahatchilari barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlar hokimlari bilan birgalikda Murojaatnomadan kelib chiqadigan ustuvor vazifalarni so‘zsiz amalga oshirishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tasdiqlashni ta‘minlash vazifasi topshirildi.

2. Milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta‘minlash

Mamlakat iqtisodiyotini yanada yuksaltirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli investitsiyaviy loyihalarning amalga oshirilishi, uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasining hayotga izchil tatbiq etilayotgani sanoat tarmoqlarining rivojlanish imkonini bermoqda. Harakatlar strategiyasida tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan uning raqobatbardoshligini oshirish masalasiga katta e‘tibor berildi.

Shundan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, xususan, sanoat tarmoqlari jadal rivojlanishini ta‘minlash, buning uchun zamonaviy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va menejment strategiyalaridan keng foydalanish lozim bo‘ladi. Ayni paytda respublikamiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon‘yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ruyobga chiqarishni taqozo etmoqda. Bu sanoat tarmoqlarida menejment strategiyalaridan samarali foydalanishda o‘z aksini topadi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida: Barqaror va zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirmasdan turib, xalq farovonligi va yuksak hayot darajasini ta‘minlashga erishib bo‘lmaydi. “Strategiya, bu – yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlari dasturidir”. Iqtisodiyot tarkibida sanoatning rivojlanish dinamikasidagi muhim o‘zgarish korxonalar va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishi, texnik va texnologik yangilanish asosida chuqur tarkibiy o‘zgarishlar va diversifikatsiyaning amalga oshirilgani hisoblanadi. Sanoat siyosatidagi asosiy ustuvor ahamiyat institutsional islohotlarning sifatini oshirish va tadbirkorlik faoliyatiga keng yo‘l ochib berish, sanoat ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, o‘rta va uzoq muddatda sanoatni rivojlantirish bo‘yicha dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilganligini ta‘kidladi⁴⁷.

Sanoat tarmoqlarida menejment strategiyasini amalga oshirishda iqtisodchi olimlar V.Kattakishiyev, I.Mamayusupovlar tashkilotning resurslar bilan ta‘minlanganlik darajasi, strategiyani amalga oshirishdagi o‘zgarishlarga menejmentning tayyorgarligi, taklif etilayotgan strategiyani biznesning ichki va tashqi qatnashchilariga, shuningdek, kompaniyaning jamiyat bilan o‘zaro munosabatlariga ta‘sirini hisobga olish zarur ekanligini ko‘rsatib o‘tgan.

⁴⁶<https://kun.uz/news/2019/01/15G'2018-yil-ozbekistonda-55-mingta-yangi-korxonalar-tashkil-etildi>.

⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi (Nyu-York shahri, 2017 yil 19 sentyabr) (Xalq so‘zi, 2017 yil 20 sentyabr).

G.Ford (“Mening hayotim, mening yutuqlarim” asari, XIX asr oxiri – XX asrning 1-yarmi) qarashlarida: qashshoqlikning birlamchi sababi mening fikrimcha, eng avval sanoatda va qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish va taqsimotni bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi kabi mutanosiblikdan keladigan zarar juda ulkandir. Bu kabi zararni ishda faol xizmat qiladigan dono rahbariyat bartaraf etmog‘i kerak. Agar rahbar pulni xizmatdan yuqori qo‘yadigan bo‘lsa, unda zarar ko‘rish davom etaveradi. Zarar yaqin ko‘ruvchilar bilan emas, faqat uzoqni ko‘ruvchi aqllilar yordamida bartaraf etiladi deya ta‘kidlagan. Tadbirkor kapital mulkni yoki kapitalni nazorat qiluvchi, boshqa ishlab chiqarish omillarini tashkil qilish qobiliyatiga ega va ko‘pchilik holatlarda yangilik kirita oluvchi shaxsdir. Zamonaviy hamkorlikning taraqqiyoti va tashkilotlarni paydo bo‘l ishi bilan tadbirkor taraqqiy topgan korxonada yagona shaxs bo‘l ib namoyon bo‘l a olmaydi deya o‘z asarida keltirib o‘tgan⁴⁸. R.I.Nurimbetov, S.I.Axmedovlar ilmiy izlanishlarida AQShda mahsulot sifatini boshqarish tajribasida sanoatning keng iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish bilan tez sur‘atlarda rivojlana boshladi. Lekin tovarlarning sifati ancha past darajada edi. Amerikalik mutaxassislarining ta‘kidlashicha, korxonalar joriy xarajatlarning 25-30 foizi mahsulot nuqsonlarini aniqlash va topishga sarflanar edi. Nuqsonli mahsulotlarni almashtirish uchun ketgan xarajatlar umumiy xarajatlarning 30 foizidan ham oshib ketishiga olib kelardi. AQShlik ko‘pgina mutaxassislar sifatning pastligi mehnat unumdorligi va raqobatbardoshlikning oshishiga asosiy to‘siq deb hisoblashardi. Yaponiya tajribasi shuni ko‘rsatdiki, sifatni oshirish – hech qachon tugamaydigan ishdir. “Yapon mo‘jizasi”ning asosiy kontseptsiyasi – xoh ishlab chiqarish, xoh boshqarish yoki xizmat ko‘rsatish bo‘l sin, mukammal texnologiyadir deya ta‘kidlagan⁴⁹.

Milliy iqtisodiyotda olib borilgan islohotlar natijasida sanoat korxonalari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, ularning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish maqsadida investitsiyalar kiritilmoqda. Natijada 2017 yilda sanoat tarmoqlaridagi yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini o‘rtacha 8 foizga qisqartirish va raqobatdoshligini oshirishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Sanoatni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash loyihalari, shuningdek, 2015-2019 yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturining hayotga samarali tatbiq etilishi natijasida respublikada YaIMga sarflanadigan energiya sarfi 7,4 foiz, yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini esa o‘tgan yilga nisbatan o‘rtacha 10,6 foiz kamaytirishga erishildi⁵⁰. Mamlakatdagi sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxi 2015 yildagi 20 foizdan 2017 yilga kelib 25 foizgacha kamaytirildi.

2019 yilning birinchi yarmida korxonalar tomonidan 1 trillion 656 milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘shish sur‘atini 103,5 foizga yetkazishga erishilganli, investitsiya dasturi ijrosi 158 foizga, sanoat mahsulotlari eksporti prognozi 583,3 foizga, mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish prognozi 161 foizga bajarildi.

Hisobot davrida 9 ta loyiha bo‘yicha 4 million 867 ming dollar miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilib, bu boradagi prognoz 271 foizga yoki yillik ko‘rsatkich 79 foizga bajarilgan bo‘l sa-da, korxonalar investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada faollashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

2019 yilda 45,4 ming gektar maydonda moyli ekinlar etishtirish, 73 ming tonna hosil jamg‘arish va undan 17,2 ming tonna o‘simlik moyi, 46 ming tonna shrot ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

2019 yilda korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini o‘tgan yilga nisbatan 8-10 foizga oshirish, investitsiya va mahsulotlar ishlab chiqarishni

⁴⁸ B.Kattakisiev, I.Mamayusupov. Strategik menejment fanidan praktikum. – T., “Fan va texnologiyasi”, 2008,232 bet.

⁴⁹ R.I.Nurimbetov, S.I.Ahmedov Ishlab chiqarish menejmenti. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. – T.: “Talqin”, 2008. – 112 bet.

⁵⁰ 2015 yil 4 martdagi “2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PF-4707-sonli farmoni.

mahalliyashtirish, moyli ekin etishtirish dasturlari ijrosini ta'minlash, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,5 trillion so'mga, o'sish sur'atini 111 foizga yetkazish va 7 million dollarlik sanoat mahsulotlarini eksport qilish belgilandi⁵¹.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytganda, mamlakatdagi ishlab chiqarish korxonalari, jumladan, sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Shu o'rinda, sanoat tarmoqlarida sanoat mahsulotlariga iste'mol bozori talabini to'la qondirish, shu bilan birga, import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish hajmini kengaytirish kabi ustuvor vazifalar turibdi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu sohaning texnik jihati qurollanish darajasiga bog'liq sanalib, mazkur vazifani hal etish birinchi galda sanoat tarmoqlarini yangi texnologiyalar bilan ta'minlashni samarali tashkil etish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu maqsadda respublikamizda ishlab chiqarishni rivojlantirish va tayyorlanayotgan mahsulotlarni jahon standarti talabiga integratsiyalashuvini ta'minlash uchun davlat byudjeti tomonidan bir qator yirik ishlab chiqarish majmualari moliyalashtirilmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish sharoitida davlat milliy iqtisodiyotimiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi obyektlarni yangi texnik va texnologik jihozlash uchun moliyalashtiradi. Xususiylashtirishning kengayishi hamda xususiy sektorning rivojlanib borishi bilan davlat byudjeti mablag'lari evaziga investitsiyalash kamayib boradi. Boshqa jihatdan iqtisodiyotning erkinlashuvi chet el investorlarining O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlariga yondashuviga yo'l ochib berdi. Hozirgi kunda qora va rangli metallurgiyaga chet el qo'yilmalari 63,5 foizni, neft-gaz kompleksiga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining umumiy oqimidan 19,8 foizni tashkil etdi. Ayniqsa, oxirgi 2016-2019 yillar davomida respublikamizning sanoat tarmoqlariga bevosita investitsiyalarni jalb etishga alohida e'tibor berildi. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishga yurtimizda qulay investitsion muhitning yaratilishi, xorijiy investorlarga imtiyoz va preferentsiyalarning taqdim etilishi katta rol o'ynadi.

Shuni qayd qilish lozimki, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida 13339 ta loyiha amalga oshirilib, 2,1 trillion so'mdan ko'p kreditni o'zlashtirishga erishildi. 10 ta erkin iqtisodiy zona, 5 ta kichik sanoat zonasining tashkil etilishi sanoat tarmoqlariga, umuman mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir jarayonini nechog'liq ahamiyatli ekanligini ko'rsatib turibdi. "Peugot" va "Citroyon" brendi bilan engil avtomobillarni ishlab chiqarish bo'yicha zavod barpo etilmoqda. Shuningdek, tayyor charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha umumiy qiymati 12,7 million dollar bo'lgan 10 ta loyiha amalga oshirildi.

Buning ustiga, shu davrda mamlakatimiz YaIM umumiy hajmining yildan-yilga o'sish sur'atlari bilan sanoat mahsulotlarini realizatsiya qilish hajmining yildan-yilga o'sish sur'atlari o'rtasida ham proportsional bog'liqlik mavjud. O'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan davlatlarning barchasida moliyaviy munosabatlar bir necha zamonaviy xususiyatlarni o'zida mujassam etmoqda. Bunday holat iqtisodiyotning barcha jabhalarida o'zini namoyon qilyapti. Bu bildirilgan fikr, jumladan, O'zbekiston Respublikasi va uning iqtisodiyotidagi etakchi tarmoqlardan birini tashkil etuvchi sanoat korxonalariga ham tegishlidir. Bunday sharoitda ularni aniqlash va tegishli muammolarni hal etishda ana shu aniqlangan o'ziga xos bo'lgan zamonaviy xususiyatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jarayonlarni hisobga olgan holda, masalan, faqat to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida sohaga 32 mln. dollar miqdoridagi investitsiyalarni jalb qilish hisobidan 3 ta yangi va modernizatsiya qilingan zamonaviy engil sanoat korxonalari ishga tushdi. 2017-2021 yillarda umumiy qiymati 400 milliard AQSh dollari miqdorida 649 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, keyingi 5 yilda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1,5 marta, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizga, qayta ishlash tarmog'i 80 foizdan 85 foizga oshadi

2018 yilda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi joriy narxlarda 407 514,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yil bilan taqqoslaganda 5,1 % ga o'sdi. YaIM deflyatori indeksi 2017 yildagi narxlarga nisbatan 128,1 foizni tashkil etdi. Aholi jon boshiga

⁵¹ <https://yogmoy.uz/ru/post/view?slugq2019-jil-i-arim-jillik-akunlari-va-2019-jil-ii-arim-jilligi-ucun-belgilangan-prognoz-kursatkiqlari-izrosi-muokamasiga-bagislangan-mazlis>.

hisoblangan YaIM 12 365,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga yuqoridir.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati YaIM o'sish sur'atiga sanoat tarmog'i eng katta ta'sir ko'rsatdi (2,1 f.p.) va o'tgan yilga nisbatan 10,6 % ga o'sdi. Sanoat tarmog'idagi ijobiy dinamika tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'i qo'shilgan qiymatining 28,2 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat tarmog'i qo'shilgan qiymatining 6,4 % ga va boshqa sanoat tarmoqlarining 4,7 % ga o'sishi hisobiga ta'minlandi.

2018 yil yakunlari bo'yicha, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush metallurgiya va metallni qayta ishlash sanoatiga (mashina va uskunalardan tashqari) to'g'ri keldi va 24,5 % ni tashkil etdi⁵².

Yuqorida bayon qilingan va keltirilganlardan kelib chiqishi mumkin bo'lgan eng umumiy xulosa shundan iboratki, bugungi kunda sanoat tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar respublikamiz iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo'lib, ular mamlakatimizning YaIMini ishlab chiqarishda, byudjet daromadlarini shakllantirishda, asosiy kapitalga investitsiyalarda va tashqi iqtisodiy faoliyatda hal qiluvchi rolni o'ynamoqda.

Shu bilan birga O'zbekistonda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni yildan yilga ortib bormoqda va ularni quyidagilardan ham bilish mumkin.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 7560 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2043 taga yoki 37,0 %ga o'sgan.

Davlat statistika qo'mitasi xabariga ko'ra, ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 4006 tasi qo'shma, 3554 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Toshkent shaharda 4728 ta (jamidagi ulushi 62,5%), Toshkent viloyatida 851 ta (11,3%) va Samarqand viloyatida 396 tani (5,2%) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xorazm viloyatida 71 ta (0,9%), Qashqadaryoda 85 ta (1,1%), Navoiy viloyatida 109 ta (1,4%) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi 121 tani (1,6%) tashkil etgan⁵³.

Bu mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rilsa, eng ko'p sanoatda 2995 tani (39,6%), savdoda 1668 tani (22,0%) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1225 tani (16,2%) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 97 tani (1,3%), axborot va aloqada 209 tani (2,8%), tashish va saqlashda 214 tani (2,8%) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 339 tani (4,5%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 325 tani (4,3%) va qurilishda 488 tani (6,5%) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 2385 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1522 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 428 ta, Turkiya Respublikasi – 364 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 351 ta, Qozog'iston Respublikasi – 246 ta, va Koreya Respublikasi – 161 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar

⁵²<https://stat.uz/uploads/dokladG'2018/yanvar-dekabr/uz/1.pdf>

⁵³<https://kun.uz/news/2019/01/15/ozbekistonda-xorijiy-kapital-ishtirokidagi-korxonalar-soni-malum-qilindi>

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 728 tasi sanoat, 654 tasi savdo, 229 tasi qurilish, 190 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 297 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

O'zbekistonda 2019 yil 1 yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 262,9 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 14,5%ga oshgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 60,0 mingtasi (22,8%) Toshkent shahri, 25,4 mingtasi (9,6%) Toshkent, 23,3 mingtasi (8,9%) Farg'ona hamda 22,6 mingtasi (8,6%) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 262,9 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 70,5 mingtasi (26,8%) – savdo, 56,2 mingtasi (21,4%) - sanoat, 29,0 mingtasi (11,0%) - qurilish, 24,0 mingtasi (9,1%) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 19,7 mingtasi (7,5%) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 13,1 mingtasi (5,0%) - tashish va saqlash, 6,7 mingtasi (2,6%) - axborot va aloqa sohasi, 5,4 mingtasi (2,0%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 38,4 mingtasi (14,6%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi⁵⁴.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 48,9 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 28,2%ga ko'proq. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahri (12071 ta), Toshkent (5080 ta), Samarqand (4312 ta) va Farg'ona (3780 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo (1354 ta), Xorazm (2009 ta) hamda Navoiy (1810 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda 11713 ta, sanoatda 11262 ta, qurilishda 6360 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 5586 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda 1154 ta, axborot va aloqada 1228 ta hamda tashish va saqlashda 2107 ta tashkil etilgan⁵⁵.

3. O'zbekiston Respublikasid davlat byudjeti taqsimoti va soliq siyosati

O'zbekistonda so'n gi yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida hamda iqtisodiyot sohasini tartibga solish va uni rivojlantirish yuzasidan muhim bo'lgan ikkita qonun qabul qilindi.

• «2019 yil uchun soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'n alishlari qabul qilinishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasining ba'zi qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»;

• «O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida»;

Bu hujjatlarni prezidentning iyun oyida imzolagan «O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini mukammallashtirish kontsepsiyasi haqida»gi qarorida belgilangan tamoyillarni amalga oshirishga hizmat qiladi.

2019 yilgi Davlat byudjeti loyihasida 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'n alishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan soliq va byudjet siyosati islohotlarning asosiy yo'n alishlari aks ettirilgan.

2019 yilgi Davlat byudjeti daromadlar qismi 2018 yil iyun oyida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish Kontsepsiyasining asosiy yo'n alishlariga muvofiq shakllantirilgan.

Soliq islohotlarining maqsadi iqtisodiyot va aholiga soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirishdan iborat.

⁵⁴ <https://kun.uz/news/2019/01/15/respublikada-263-mingtaga-yaqin-kichik-korxonalar-ishlamogda>.

⁵⁵ O'sha manba.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida deputatlar O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlari hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘n alishlarini ko‘rib chiqildi.

Keyingi yilda Davlat byudjeti daromadlari 102,6 trln so‘mni, xarajatlari 107,1 trln so‘mni tashkil etishi rejalashtirilmoqda. Byudjet taqchilligi 4,3 trln so‘m, yoki YaIMga nisbatan 1,1 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

2019 yilda Davlat byudjetining xarajatlari 107,1 trln. so‘mni tashkil etadi. Bu o‘tgan yildagiga nisbatan 1,4 baravar ko‘p bo‘lib, bunda Davlat byudjetining xarajatlari asosan ijtimoiy sohalarga yo‘naltiriladi.

2019 yil Davlat byudjeti quyidagicha taqsimlangan:

Ijtimoiy soha xarajatlari 57,8 trln. so‘mni yoki umumiy xarajatlarga nisbatan 54,0 foizini;

Maktabgacha ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishga 4 trln. so‘m, umumiy ta‘limga 17,1 trln. so‘m, kadrlar tayyorlashga 3,8 trln. so‘m;

Sog‘liqni saqlashni moliyalashtirishga 12,1 trln. so‘m ;

Madaniyatni moliyalashtirish uchun 1,0 trln. so‘m

Ilm-fanga 0,8 trln. so‘m;

Ijtimoiy nafaqalar, kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam to‘lash va kompensatsiya to‘lovlari uchun 5 267,2 mlrd. so‘m;

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlarini amalga oshirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 6,3 trln. so‘m ajratiladi.

Soliq va byudjet siyosatini takomillashtirish, byudjetlararo munosabatlarni yanada mustahkamlash, aholi turmush darajasini oshirish, aholining muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning manzilliligini oshirishga qaratilgan tizimni yaratish, ish haqi va boshqa to‘lovlarning inflyatsiyaga ta‘sirini baholash asosida tabaqalashtirilgan holda oshirish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni 2019 yilda ham davom ettirish ko‘zda tutilmoqda.

Prezidentning 2018 yil 29 iyundagi farmoni bilan tasdiqlangan soliq siyosatini takomillashtirish Kontseptsiyasining asosiy yo‘n alishlari doirasida 2019 yildan e‘tiboran:

1) ish haqi fondiga soliq yuki quyidagicha kamaytirilmoqda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining yagona stavkasining 12 foiz miqdorida o‘rnatilishi va fuqarolarning majburiy sug‘urta badallarining (ish haqidan 8 foiz) bekor qilinishi natijasida “qo‘lga” tegadigan ish haqi miqdori o‘rtacha 6,5 foizga oshadi;

ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to‘lov miqdori 12 foizgacha pasaytirilmoqda;

2) davlat maqsadli jamg‘armalariga aylanmadan (oborotdan) 3,2 foiz miqdorida undiriladigan majburiy ajratmalar bekor qilinmoqda;

3) yuridik shaxslarning foyda solig‘i stavkalari 14 foizdan 12 foizgacha, tijorat banklari uchun – 22 foizdan 20 foizgacha, dividend va foiz ko‘rinishidagi daromadlar bo‘yicha to‘lov manbaidan soliq – 10 foizdan 5 foizgacha, yuridik shaxslar mol-mulk solig‘i – 5 foizdan 2 foizgacha pasaytirilmoqda.

Mazkur choralar natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar va jismoniy shaxslar ixtiyorida qariyb 10 trillion so‘m mablag‘ qoladi.

Ushbu choralar bilan bir qatorda yig‘ilish qatnashchilari tomonidan resurslardan oqilona foydalanish va byudjetga tushumlarning to‘liqligini ta‘minlashga yo‘n altirilgan soliq siyosatini takomillashtirish sohasidagi qo‘shimcha takliflar atroflicha ko‘rib chiqildi, jumladan:

- mutlaq miqdorlarda belgilangan soliq stavkalarini indeksatsiya qilish (er solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, aktsiz solig‘i);

- sigareta uchun aktsiz solig‘i bo‘yicha qat’iy belgilangan stavka bilan bir qatorda advalor stavkasini joriy etish;

- yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari va mehnat faoliyatining hisobi yuritilishi murakkab bo‘lgan shaxslar uchun fuqarolarning sug‘urta badallari o‘rniga yagona ijtimoiy to‘lovlarni joriy etish (sug‘urta badallarining bekor qilinishi sababli);

- ayrim turdagi foydali qazilmalar (qum, ohak, shag'al va boshqalar) uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha mutlaq miqdorlarda qat'iy belgilangan eng kam stavkalarni kiritish.

2019 yil 1 yanvardan:

- umumta'lim maktablari o'qituvchilari va rahbarlari ish haqlarini 10 foizga, malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchilarning ish haqlarini esa tabaqalashgan holda 15 foizdan 25 foizgacha;

- mehnatiga kam haq to'1 anadigan byudjet sohasida ishlovchi xodimlar ish haqlarini 5 foizdan 15 foizgacha oshirish ko'zda tutilmoqda.

Taklif etilayotgan choralar byudjet sohasida mehnat qilayotgan 360 mingdan ortiq xodimlarni qamrab olishi aytib o'tildi. Misol uchun, byudjet tashkilotining eng past oylik oluvchi texnik xodimlarining ish haqlari, ustama va qo'shimchalardan tashqari, 502 ming so'mdan 577 ming so'mgacha oshiriladi.

2019 yilgi byudjetda oliy ta'lim muassasalarining o'qituvchilari va ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimlari hamda ularning rahbarlari ish haqlarini 1,5 barobarga, davlat muassasalarining tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining ish haqlarini o'rtacha 26,5 foizga (2018 yilning 1 dekabridan 20 foizga oshirilishiga qo'shimcha ravishda) oshirish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, byudjet sohasida ishlovchi xodimlarning ish haqlarini inflyatsiya darajasidan kam bo'1 magan miqdorda oshirish hamda ijtimoiy nafaqalarni moliyalashtirishga mo'ljallangan mablag'larni 20 foizga oshirish hisobga olingan.

Investitsiya xarajatlari 11,9 trillion so'm miqdorida rejalashtirilmoqda. Ushbu mablag'lar O'zbekiston Prezidenti va Hukumati qarorlari bilan belgilangan strategik muhim loyihalarni, shu jumladan, ichimlik suvi ta'minoti, suv xo'jaligi obyektlarini, transport-kommunikatsiya infratuzilmalarini hamda ta'lim va tibbiy-ijtimoiy muassasalarni rivojlantirish va rekonstruktsiya qilish dasturlarini amalga oshirishga yo'n altiriladi.


Shuningdek, yig'ilishda 2019 yilda 12 trillion so'mdan ziyod mablag' ajratilayotgan sog'liqni saqlash sohasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, tibbiyot muassasalarini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan o'z vaqtida ta'minlash maqsadida qariyb 1 trillion so'm, sog'liqni saqlash sohasidagi asosiy dasturlarni amalga oshirish uchun 661,5 milliard so'm, zamonaviy diagnostika, laboratoriya va davolash uskunalari bilan jihozlashga 58 milliard so'm mablag' ajratilmoqda.

Yagona ijtimoiy to'lov miqdorining pasaytirilishi va fuqarolarning majburiy sug'urta badallari va aylanmadan (oborotdan) to'lanadigan majburiy ajratmalarning bekor qilinishi munosabati bilan yuzaga kelgan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining taqchilligini qoplash hamda pensiya va nafaqalarning o'z vaqtida so'zsiz to'lanishini ta'minlash maqsadida 4,7 trillion so'm miqdoridagi subsidiya byudjet xarajatlarida ko'zda tutilgan.

Arzon uy-joylar qurish bo'yicha dasturlarni moliyalashtirishda ishtirok etadigan banklarga kredit liniyalari ochish xarajatlariga 3 trillion so'm miqdorida mablag'lar rejalashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasidavlat byudjeti taqsimoti va soliq siyosati diogrammalarda quyidagicha ko'rinishga ega⁵⁶.

⁵⁶ Quyida berilayotgan barcha diagramma ko'rinishidagi ma'lumotlar budget_2019_uzb. rasmiy saytidan olingan.



2019 yildan boshlab Davlat byudjeti loyihasi kelayotgan yil uchun byudjet parametrlari hamda kelgusi ikki 2020-2021 yillarga mo'ljallangan o'rtta muddatli byudjet mo'ljallarini o'z ichiga oladi.

ЎРТА МУДДАТЛИ БЮДЖЕТ МЎЛЖАЛЛАРИ ЎЗ ИЧИГА ҚЎЙИДАГИЛАРНИ ОЛАДИ:

<p>Ўрта мuddатли макроиқтисодий доиралар</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Бюджетга таъсир кўрсатадиган асосий макроиқтисодий кўрсаткичлар: ЯИМ ўсиши, инфляция даражаси, валюта курси ва ҳоказолар
<p>Бюджет солиқ сиёсати концепцияси</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Солиқ сиёсати ва Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. • Давлат бюджети харажатлари соҳасидаги устувор йўналишлар.
<p>Ўрта мuddатли бюджет доиралари</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Давлат бюджети даромадларининг умумий ҳажми; • Давлат бюджети харажатларининг умумий ҳажми; • Давлат бюджети тақчиллиги; • Давлат қарзининг чекланган миқдори; • Тармоқлар бўйича харажатларнинг чегаралари (лимитлар)

Byudjetni o'rtta muddatli rejalashtirishga o'tish makroiqtisodiy va soliq-byudjet barqarorligini qo'llab quvvatlash uchun zarur. "Rejalashtirish doirasi" bir yil bo'lsa, joriy muammolarni hal etish masalalari strategik maqsadlardan ko'ra muhimroq maqsadlarga aylanib qolishi mumkin. Uch yillik mo'ljallarning mavjudligi istiqbol uchun ishlashga yordam beradi. O'rtta muddatli byudjet mo'l jallari bugun amalga oshirilayotgan soliq byudjet siyosatining bir

necha yildan keyin mamlakat iqtisodiyotiga va aholi turmush darajasiga ta'sirini baholash imkonini beradi.

О'рта muddatli makroiqtisodiy ko'rsatkichlari



2019 – 2021 yillarga mo'ljallangan o'рта muddatli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning o'рта muddatli prognozidan, demografik o'zgarishlardan, jahon bozorida strategik tovarlar narxlari o'zgarishidan, tashqi va ichki investitsiyalar hajmidan, asosiy savdo hamkorlarining iqtisodiyoti rivojlanishidan va boshqa omillardan kelib chiqib shakllantirilgan.

2019-2021 йилларга мўлжалланган МАКРОИҚТИСОДИЙ КЎРСАТКИЧЛАР ПРОГНОЗИ


■ кутилаётган ижро ■ прогноз



2019-2021 йилларга мўлжалланган МАКРОИҚТИСОДИЙ КЎРСАТКИЧЛАР ПРОГНОЗИ




2019-2021 йилларга мўлжалланган МАКРОИҚТИСОДИЙ КўРСАТКИЧЛАР ПРОГНОЗИ



2019-2021 йилларга мўлжалланган МАКРОИҚТИСОДИЙ КўРСАТКИЧЛАР ПРОГНОЗИ



2019-2021 йилларга мўлжалланган МАКРОИҚТИСОДИЙ КўРСАТКИЧЛАР ПРОГНОЗИ




2019-2021 йилларга мўлжалланган МАКРОИҚТИСОДИЙ КўРСАТКИЧЛАР ПРОГНОЗИ




Мамлакатимиз солиқ ислоhotining ustuvor yo‘nalishlari:

- korxonalar va jismoniy shaxslar uchun soliqlarni kamaytirish;
- biznes uchun qulay shart-sharoitlar, hajmi va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar tadbirkorlik subyektlari uchun teng shart-sharoitlar yaratish;
- qonuniy va munosib haq to‘l anadigan ish o‘rinlarini ko‘paytirish;
- mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish.


Ўзбекистон Республикаси Солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепциясида қуйидагилар назарда тутилади:



солиқ қонунчилини соддалаштириш, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлардаги зиддиятлар ва қарама-қаршиликларни бартараф этиш, инсофли солиқ тўловчиларнинг қонуний манфаатларини ва ҳуқуқларини ҳимоя қилишни кучайтириш;



солиқ тўғрисидаги қонун ҳужжатлари барқарорлигини таъминлаш ҳамда ҳаволаки нормалар ва қонуности ҳужжатларини имкон қадар бартараф этган ҳолда Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси нормаларининг тўғридан-тўғри таъсир қилишини таъминлаш;



солиқ назорати шакллари ва усулларини ўзгартириш, жумладан, замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш ҳисобига ўзгартириш.

ЖИСМОНИЙ ШАХСЛАР ДАРОМАДЛАРИГА СОЛИҚ СОЛИШНИНГ ЎЗГАРИШИ

АМАЛДАГИ ТИЗИМ

	ЖШДС	СУҒУРТА БАДАЛИ
энг кам ойлик иш ҳақининг 10 бараваридан ортиқ	22,5%	+ 8%
энг кам ойлик иш ҳақининг 5 бараваридан 10 бараваригача	16,5%	+ 8%
энг кам ойлик иш ҳақининг 1 бараваридан 5 бараваригача	7,5%	+ 8%
энг кам ойлик иш ҳақининг 1 бараваригача	0%	+ 8%

ЯНГИ ТИЗИМ

ЖШДС	СУҒУРТА БАДАЛИ
12%	+ 0%

<p>ОЛИЙ ТОИФАЛИ БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИ</p>	<p>ИШ ҲАҚИ</p> <p>2 750 минг сўм.</p>	<p>КОНЦЕПЦИЯГАЧА</p> <p>ЖШДС 390,7 минг сўм. + суғурта бадаллари 220,0 минг сўм.</p> <p>КОНЦЕПЦИЯДАН КЕЙИН</p> <p>ЖШДС 330,0 минг сўм.</p>	<p>Қўлга оладиган ИШ ҲАҚИ</p> <p>2139,3 минг сўм.</p> <p>2 420,0 минг сўм.</p>
	<p>ИШ ҲАҚИ</p> <p>4 484 минг сўм.</p>	<p>КОНЦЕПЦИЯГАЧА</p> <p>ЖШДС 896,1 минг сўм. + суғурта бадаллари 387,5 минг сўм.</p> <p>КОНЦЕПЦИЯДАН КЕЙИН</p> <p>ЖШДС 581,3 минг сўм.</p>	<p>Қўлга оладиган ИШ ҲАҚИ</p> <p>3594,7 минг сўм.</p> <p>4 262,7 минг сўм.</p>

2019 йилда фойдага солинадиган солиқ

<p>Солиқнинг базавий ставкаси</p>	↓	14 фоиздан 12 фоизга пасайтирилади
<p>банклар учун</p>	↓	22 фоиздан 20 фоизга
<p>дивидендлар ва фоизга солиқ</p>	↓	10 фоиздан 5 фоизга
<p>уяли алоқа компаниялари учун ставка</p>	↑	14 фоиздан 20 фоизга ошади, қўшимча фойда солиғи бекор ҳисобига

■ Турли тоифадаги солиқ тўловчилар учун солиқ режимларини ва солиқларни тўлаш қоидаларини унификациялаш.

Барча тадбиркорлик субъектлари, шу жумладан, солиқ солишнинг соддалаштирилган тартибда бўлган тадбиркорлик субъектлари қуйидагиларни тўлайди:

<p>Ер солиғи</p>	<p>Юридик шахслар мол-мулк солиғи</p>	<p>Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ</p>
------------------	---------------------------------------	--

Кичик бизнес субъектлари ихтиёрий тартибда ҚҚС тўлаши мумкин.


Davlat byudjeti daromadlari

2019 yilga mo'ljallangan Davlat byudjeti daromadlari 102,6 trln. so'm yoki YaIMga nisbatan 24,2 foiz miqdorida rejalashtirilgan, bu 2018 yil yakunlari bo'yicha kutilayotganidan 37,8 foizga ko'pdir.

ДАВЛАТ БЮДЖЕТИ ДАРОМАДЛАРИ ТУЗИЛМАСИ



2019 ЙИЛ УЧУН ТАЪЛИМ ХАРАЖАТЛАРИ ПРОГНОЗИ, МЛРД.СЎМ.



Аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлашга сарфланадиган харажатлар

АҲОЛИНИ ИЖТИМОЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШГА САРФЛАНАДИГАН ДАВЛАТ БЮДЖЕТИ ХАРАЖАТЛАРИ ҚУЙИДАГИЛАРДАН ИБОРАТ:

- уруш ва меҳнат фахрийлари учун пансионатлар ҳамда санаторийларни, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш муассасаларини сақлаб туриш;
- аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш бўйича мақсадли тадбирлар, шу жумладан болалигидан ногиронларга нафақалар тўлаш;
- бола туғилганда нафақалар тўлаш учун ваколатли органга маблағлар ажратиш;
- айрим тоифадаги шахслар учун қонун ҳужжатларида белгиланган компенсация тўлаш;
- Чернобиль АЭСдаги авария оқибатларини бартараф этишда иштирок этган шахсларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш;
- жамоат ишларни молиялаштириш;
- ижтимоий нафақалар;
- кам таъминланган оилаларга моддий ёрдам ва ҳоказолар.



КАМ ҲАҚ ТЎЛАНДИГАН ИШЧИЛАР УЧУН ИШ ҲАҚИ МИҚДОРЛАРИНИНГ ОШИШИ

Резрадрлар	Бюджет ташкилотларида ишловчилар сони, минг киши	2018 йил 1 январдан			2019 йил 1 январдан		
		Асосий иш хақи, минг сўм	Ойлик иш хақи		Асосий иш хақи, минг сўм	Ойлик иш хақи	
			Устама билан, минг сўм	Солиқлардан кейин, минг сўм		Устама билан, минг сўм	Солиқлардан кейин, минг сўм
I	166,3	426,5	490,4	427,3	577,3	663,8	583,5
II	65,4	469,4	539,8	462,4	607,7	698,8	614,3
III	135,7	516,4	593,8	511,8	638,2	733,9	645,1
IV	87,6	567,9	653,1	566,6	668,4	768,7	675,7

Pensiya ta'minoti

Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi pasaytirilishi hamda fuqarolarning sug'urta badallari va majburiy ajratmalar bekor qilinishi munosabati bilan yuzaga keladigan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining taqchilligini qoplash uchun 4,7 mlrd. so'm miqdoridagi mablag'lar 2019 yilgi byudjet parametrlarida nazarda tutilgan.

2019 yilda Vazirlar Mahkamasining zahira jamg'armasiga 908,6 mlrd. so'm yo'naltiriladi, bu esa 2018 yildagiga nisbatan 73,7 foizga ko'proqdir.

BYUDJET VA SOLIQ SOHASIDAGI ASOSIY TUSHUNCHALAR:

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti – Qoraqalpog'iston Respublikasi pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi Davlat byudjetining bir qismi hisoblanib, moliya yili mobaynida daromad manbalari va miqdorlarini hamda xarajatlar yo'n alishlari va miqdorlarini nazarda tutadi.

Byudjet tasnifi – bu barcha darajalardagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlarini, uningdek, byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalarini va davlat qarzi turlarini bir xil turdagi belgilar bo'yicha guruhlariga bo'linishi.

Byudjet tizimi byudjetlari – O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari.

Byudjet tashkiloti – Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan, davlat funktsiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan notijorat tashkilotdir.

Byudjetdan ajratiladigan mablag'lar – O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlaridan byudjet tashkilotlari hamda byudjetdan mablag' oluvchilar uchun nazarda tutiladigan pul mablag'laridir.

Yalpi ichki mahsulot – bu mamlakat hududida bir yil davomida ishlab chiqarilgan barcha tayyor mahsulotlar va xizmatlarning umumiy bozor qiymati.

G'aznachilik – Davlat byudjetining ijrosini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli moliya organidir.

Byudjetlararo transfertlar – O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, davlat maqsadli jamg'armalariga hamda buning aksicha o'tkaziladigan, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga hamda bunga aksincha o'tkaziladigan mablag'lardir.

Mahalliy byudjet– Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda moliya yili mobaynida daromadlar manbalari va miqdorlari hamda xarajatlar yo'n alishlari va miqdorlari nazarda tutiladi.

Soliq imtiyozlari – soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq yoki qisman ozod qilish, shuningdek, soliq to'lovchi uchun soliq yukini boshqacha tarzda yengillashtirishdir.

Respublika byudjeti – Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ularga tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynidagi mablag‘lar sarfi yo‘n alishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Prezidentimizning 2020 yil 29 dekabr kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari va ustuvor yo‘n alishlari sohasida quyidagilar belgilandi:

Yangi yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat bo‘l adi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o‘shish hisobiga erishiladi.

So‘nggi 4 yilda iqtisodiyotimizning barcha jabhalariga bozor mexanizmlarini joriy etish borasida jiddiy qadamlar tashlandi. Endigi vazifa – chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o‘shishning poydevorini yaratishdan iborat. Shularni inobatga olib, keyingi yilda quyidagi yo‘n alishlarda keng qamrovli ishlarni amalga oshiramiz.

Birinchidan, kambag‘allikni qisqartirish borasida kompleks yondashuv va nostandart usullarni joriy etamiz.

Bir haqiqatni aniq tushunib olishimiz kerak – kambag‘allik masalasi kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish bilan o‘z-o‘zidan hal bo‘l ib qolmaydi. Buning uchun ta‘lim, sog‘liqni saqlash, kasb-hunarga o‘qitish, ichimlik suv, energiya va yo‘l infratuzilmasi bilan bog‘liq kompleks muammolarni hal etib borish kerak.

Nima uchun biz “temir daftar”ni joriy etdik? Bundan maqsad – ehtiyojmand aholini to‘g‘ri aniqlash va shu asosda, ular bilan manzilli ishlashni tashkil etishdir.

Kelgusi yildan to‘l iq ishga tushadigan “Ijtimoiy reestr”da “temir daftar”dagi barcha ma‘lumotlar qamrab olinib, ehtiyojmand oilalarga 30 dan ziyod ijtimoiy xizmatlar elektron shaklda ko‘rsatiladi.

Birinchi navbatda, kambag‘al aholining asosiy ehtiyojlarini kafolatli ta‘minlashimiz lozim. Bu masalada xalqaro ekspertlar bilan chuqur tahlil asosidagi hisob-kitoblar yakuniga etkazilmoqda. Kelgusi yil 1 martdan boshlab aholining minimal iste‘mol xarajatlari miqdori e‘lon qilinadi.

Hukumat ikki oy muddatda ijtimoiy kafolatlarni bir tizimga keltirib, ularni minimal me‘yorlar darajasida bosqichma-bosqich ta‘minlash bo‘yicha dastur ishlab chiqsin.

“Temir daftar”ga kiritilgan har bir fuqaroni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha “motivatsiya, ko‘n ikma va moliyaviy ko‘mak” tamoyili asosida yangi mexanizm joriy etiladi.

Kambag‘allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil – bu insonning intilishi, o‘z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo‘l ishi kerak. Shu maqsadda kelgusi yili mahallalarda aholini kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha mingdan ziyod markazlar tashkil etiladi. Bunda kasb-hunarga o‘qitilgan har bir shaxs uchun o‘quv markazlariga 1 million so‘mgacha subsidiya berilib, buning uchun byudjetdan 100 milliard so‘m ajratiladi. O‘quv kurslarini tamomlab, o‘z biznesini boshlamoqchi bo‘lgan fuqarolarga asbob-uskuna xarid qilish uchun 7 million so‘mgacha subsidiyalar beriladi.

Shuningdek, har bir tumanning imkoniyati va rivojlanish yo‘n alishidan kelib chiqib, dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan oilalarga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratiladi.

Ehtiyojmand aholi bandligini ta‘minlashga Bandlikka ko‘maklashish hamda Jamoat ishlari jamg‘armalaridan 500 milliard so‘m yo‘n altiriladi.

Pandemiya sharoitida o‘z ishini yo‘qotgan aholini kambag‘allikka tushib qolishiga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak. Shuning uchun kelgusi yildan boshlab yangicha tizim joriy etiladi. Unga ko‘ra, vaqtincha ishsizlik nafaqasi 3 barobar oshiriladi va bunda 6 ta hujjat talab etiladigan eski byurokratik tartib bekor qilinadi.

Kambagʻallikni qisqartirish borasida hududlardagi haqiqiy holatga baho berish, amalga oshirilayotgan ishlar ijrosini nazorat qilish Oliy Majlis palatalari va mahalliy Kengashlarning diqqat markazida boʻlishi lozim.

Har bir tuman va shahar hokimi bir oy muddatda oʻz hududida kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha manzilli dastur ishlab chiqib, uning ijrosi boʻyicha har chorakda mahalliy Kengashlarda hamda ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa hisobot berib borishi zarur. Bu masala barcha rahbarlarning birinchi darajali vazifasi va ish samarasini baholaydigan asosiy mezonga aylanishi kerak.

Ikkinchidan, iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirishda davlat kompaniyalarini transformatsiya qilishni jadallashtirish kerak.

Hozirgi vaqtda davlat ishtirokidagi korxonalarining aksariyati moliyaviy barqaror boʻlmagan uchun davlatga ogʻir yuk boʻlib qolmoqda. Shuning uchun joriy yildan barcha davlat korxonalarini isloh qilish dasturi amalga oshirilmoqda. Jumladan, kelgusi yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinati, “Oʻzbekneftgaz”, “Oʻzbekgidroenergo”, “Oʻzavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro moliya bozoriga chiqib, davlat kafolatisiz mablagʻ jalb qilish imkoniyatiga ega boʻladi.

Tan olish kerak, mutaxassislarning bilim va malakasi, yirik korxonalarining texnik imkoniyatlari, ularni mustaqil transformatsiya qilish uchun yetarli emas. Shuning uchun elektr energetikasi, neft-gaz va kimyo sanoati, mashinasozlikdagi yirik korxonalar hamda tijorat banklarini isloh qilishga Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda “MakKinzi”, “Boston konsalting Grupp”, “Rotshild” kabi xalqaro tan olingan kompaniyalar jalb etildi.

2021 yilda strategik ahamiyatga ega boʻlgan 32 ta yirik korxonalar va tarmoqni transformatsiya qilish ishlari amalga oshiriladi. Banklar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish eʼtiborimiz markazida boʻladi.

2021 yilda “Sanoatqurilishbank”, “Asaka bank”, “Ipoteka bank”, “Aloqa bank”, “Turon bank” hamda “Qishloq qurilish bank”ni xususiyashtirishga tayyorlaymiz. Kamida bitta yirik bankdagi davlat ulushi strategik investorlarga toʻliq sotiladi. Bu borada etakchi Yevropa banklari bilan muzokaralar olib borilmoqda.

Tarkibiy islohotlarning yana bir yoʻn alishi bu – davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirishdir.

Biz davlat aktivlarini ochiq-oshkora va samarali sotish uchun, xalqaro moliyaviy va huquqiy maslahatchilarni jalb etgan holda, qator korxonalarni xususiyashtirishga oid keng qamrovli ishlarni boshladik.

Kelgusi yilda “Fargʻona azot” va “Dehqonobod kaliy” zavodlari, “Koka-kola ichimligi” korxonasi, “Bildirsoy” va “Chorvoq” oromgohlari, “Ichan qalʼa” va “Hayat Rejensi” mehmonxonalarini, “Poytaxt” biznes majmuasi, Alkogol, Yogʻ-moy kabi tarmoqlardagi 83 ta yirik korxonadagi davlat ulushi sotuvga qoʻyiladi.

Umuman olganda, davlat ulushi boʻlgan korxonalar soni, kelgusi ikki yilda kamida 3 barobar qisqartiriladi.

Uchinchidan, tovar va moliya bozorlarida erkin raqobat muhitini shakllantirish hamda tadbirkorlarga xomashyo sotib olish uchun teng imkoniyatlar yaratish zarur.

Hozirgi kunda elektr energiyasi, gaz, qimmatbaho metallar, mineral oʻgʻitlar, transport xizmatlari kabi yoʻn alishlarda monopoliya bozorlar mavjud boʻlib, ularda koʻplab muammolar saqlanib qolmoqda.

Shu oʻrinda bir masalaga alohida toʻxtalib oʻtmoqchiman. Iqtisodiy faollik va aholi daromadlari oʻsgani sayin, energiya resurslariga boʻlgan talab ortib boradi. Shuning uchun neft-gaz va energetika sohalaridagi islohotlarni va boshlangan yirik loyihalarni yakuniga yetkazishimiz lozim. Jumladan, 2021 yilda davlat va xususiy elektr stansiyalari hamda isteʼmolchilar oʻrtasida elektr energiyasi ulgurji bozorini shakllantirish boshlanadi.

Shuningdek, tabiiy gaz taʼminotida monopoliyani bekor qilib, bozor mexanizmlarini joriy etamiz. Bunda ishlab chiqaruvchi va importyorlarga birja orqali tabiiy gazni sotish, ulgurji

iste'molchilar esa gazni sotib olish huquqiga ega bo'lgan. "O'ztransgaz" kompaniyasi esa faqat gazni transportirovka qiladi.

Suyultirilgan gaz bozorida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida uning importiga o'rnatilgan bojlar bekor qilinadi.

Zargarlik sohasida ham tadbirkorlarga xomashyo sotib olish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Bunda kelgusi yil 1 martdan boshlab, kumushni birja orqali ishlab chiqaruvchilarga erkin sotish tartibi o'rnatiladi.

Avtomobil sanoatida sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish va korxonalariga teng sharoitlar yaratish orqali sohada ishlab chiqaruvchilar soni ko'paytiriladi.

2021 yildan boshlab oziq-ovqat, neft va elektrotexnika kabi tarmoqlarda 73 ta aksiz solig'i bekor qilinadi.

Yana bir masala – hozirgi kunda davlat xaridlarida atigi 4 foiz tadbirkor qatnashmoqda.

Kelgusi yilda 24 ta yirik davlat korxonasiga davlat xaridi bo'yicha ochiq-oshkora talablar joriy etiladi. Natijada mahalliy tadbirkorlarimiz har yili kamida 10 trillion so'mlik mahsulotlarini ushbu korxonalariga sotish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Bundan buyon barcha davlat xaridlari jamoatchilik va Parlament nazoratida bo'ladi.

To'rtinchidan, iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi.

Garvard universiteti tadqiqotlariga ko'ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyatlar va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, neftgaz-kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat hamda "yashil iqtisodiyot" bilan bog'liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz "drayverlari"ga aylanishi uchun barcha etarli sharoitlar mavjud.

Bu tarmoqlarda xususiy sektorning tashabbuslari va yangi loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda kooperatsiyani rivojlantirish bo'yicha barcha choralar ko'rilishi lozim.

Hozirgi kunda G'ozg'ondagi dekorativ toshlar, Namangandagi tayyor kiyim-bosh, Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi "Texnopark" kabi sanoat klasterlari o'z samarasini ko'rsatib, shu tizim afzalliklarini namoyon etmoqda.

Hukumat kelgusi yil 1 aprelgacha istiqbolli sanoat klasterlari ro'yxatini aniqlab, ularni jadal rivojlantirish uchun alohida dastur ishlab chiqsin.

Shuningdek, "bojxona hududida qayta ishlash rejimi"da sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish zarur.

Shu bilan birga, investitsiya siyosatini yuritishda davlat ishtirokini pasaytirib, xususiy va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushini oshirish kerak.

Geologiya sohasida joriy yilda 21 ta kon va istiqbolli maydonlar ochiq auksion orqali investorlarga sotildi. 2021 yilda yana 50 ta kon va istiqbolli maydonlar mahalliy va chet ellik investorlarga ochiq mexanizmlar asosida sotiladi. Bunday ishlarni boshqa yo'n alishlarda ham davom ettirishimiz kerak.

Umuman olganda, kelgusi yilda 23 milliard dollar qiymatidagi investitsiyalarni o'zlashtirish zarur. Natijada 226 ta yirik sanoat va infratuzilma obyektlari ishga tushiriladi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida 2 ta yirik metallurgiya zavodi, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida texnogen rudani qayta ishlash zavodi, shuningdek, respublikamiz bo'yicha to'qimachilik, qurilish materiallari, charm-poyabzal, oziq-ovqat va farmatsevtika tarmoqlarida yuzlab yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etiladi.

Birgina Toshkentdagi "Yashnobod" texnoparkida yana 11 ta zamonaviy elektrotexnika korxonasi ishga tushirilib, u yerdagi jami korxonalar soni 17 taga va ishlovchilar soni 11 mingtaga etkaziladi.

Toshkent, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida jami quvvati 760 megavatt bo'lgan yangi elektr stansiyalari ishga tushiriladi.

Qashqadaryo viloyatida qiymati 3 milliard 600 million dollar bo'lgan, yiliga 1,5 million tonna kerosin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlab chiqaradigan majmua to'liq mahsulot berishni boshlaydi.

Beshinchidan, makroiqtisodiy barqarorlik – iqtisodiy islohotlarning mustahkam poydevoridir.

Shuning uchun kelgusi yilda inflyasiyaviy targetlash doirasida narx-navo o‘shirishini 10 foizdan oshirmaslik Markaziy bank va Hukumatning asosiy vazifasi bo‘ladi. Bu borada global pandemiya oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga jiddiy e‘tibor qaratish zarurligini yana bir bor tasdiqladi. Shu boisdan ham asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida import sohasidagi boj to‘l ovlari bo‘yicha berilgan imtiyozlar yana bir yilga uzaytiriladi.

Umuman, xalqimiz xotirjam bo‘l ishi kerak: sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, bu borada kafolatlangan zaxirani yaratish va ularni bozorga uzluksiz etkazib berish hamda narx-navo barqarorligini ta‘minlash ishlariga ustuvor darajada e‘tibor qaratiladi. Buning uchun Hukumat va hokimliklar tomonidan barcha choralar ko‘riladi hamda bu masala Prezidentning doimiy nazoratida bo‘ladi.

Shuningdek, 2021 yilda iqtisodiyotni kamida 5 foizga o‘shirishini, byudjet defitsiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,4 foizdan oshmasligini ta‘minlashimiz zarur. Kelgusi 2 yilda esa byudjet defitsitini 2 foizdan oshirmaslik bo‘yicha Hukumat zarur chora-tadbirlarni belgilashi lozim.

Mana, valyuta bozori erkinlashganiga ham 3 yildan oshdi. Shu davrda erkin valyuta ayirboshlash bo‘yicha yurtimizda etarli tajriba to‘plandi. Endi iqtisodiyotimizning xorijiy valyutaga bog‘liqlik darajasini bosqichma-bosqich kamaytirish kerak. Shu maqsadda kelgusi yilda valyuta kreditlari ulushini hozirgi 50 foizdan 45 foizga, ya‘ni, kamida 2 milliard dollarga pasaytirish lozim.

Yangi yilda milliy valyutada chiqariladigan xalqaro obligatsiyalar ulushini hozirgi 25 foizdan kamida 40 foizga oshirish zarur.

Shu bilan birga, kelasi yili banklararo valyuta bozori “onlayn” platformaga o‘tkaziladi va tadbirkorlarga valyutani bevosita bankning o‘zidan sotib olish uchun imkoniyat yaratiladi. Natijada tadbirkorlar valyutani hozirgidek 4 kunda emas, yarim soatda sotib olishi mumkin bo‘ladi.

Yana bir masala – hozirgi kunda O‘zbekistonning davlat tashqi qarzi Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi mezonlariga ko‘ra xavfsiz hisoblanadi. Ayni vaqtda tashqi qarz hisobidan hududlarda amalga oshiriladigan loyihalar bundan buyon mahalliy kengashlar va jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi. Ularning natijalari to‘g‘risida jamoatchilikka hisobot berish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, davlat nomidan tashqi qarz olish kamaytirilib, investitsiya va infratuzilma loyihalariga ko‘proq xususiy kapital jalb etiladi. Masalan, keyingi yilda davlat-xususiy sheriklik asosida 40 dan ortiq yirik va o‘rta loyihalarni amalga oshirish boshlanadi.

Markaziy bank moliya bozorida raqobatni oshirish maqsadida 1 fevralga qadar bank bo‘lmagan kredit tashkilotlari to‘g‘risida qonun loyihasini kiritсин.

Shuningdek, mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi.

Oltinchidan, tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha yanada qulay sharoitlar yaratiladi.

Bir narsani alohida ta‘kidlash kerak, pandemiya davrida iqtisodiyotning barqaror ishlashi uchun tadbirkorlar davlat bilan teppa-teng hissa qo‘shdilar. Shuning uchun barchamiz tadbirkorlarga yelkadosh bo‘lib, ularni doimo qo‘llab-quvvatlashimiz shart. Bu borada ishbilarmonlarning haq-huquqlarini, ayniqsa, xususiy mulk daxlsizligini ta‘minlash – barcha darajadagi davlat organlarining asosiy vazifasi bo‘l ishi lozim.

Shu bilan birga, ayrim joylarda davlat organlari tizimidagi rahbar va mutasaddilar tomonidan tadbirkorlarning mulkka doir huquqlarini buzish holatlari davom etmoqda. Bunday mansabdorlarni ma‘muriy javobgarlikka tortish bo‘yicha Biznes-ombudsmanga vakolat berishni taklif etaman.

Kelgusi yilda “Soliqchi – ko‘makchi” tamoyili asosida tadbirkorlar uchun ularning biznes hamkorining soliq qarzdorligi haqidagi ma‘lumotlarni olish imkoniyati yaratiladi.

Tadbirkorlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida 105 ta litsenziya va ruxsatnoma turlari bekor qilinadi, 115 tasi bo'yicha esa tartib-qoidalar soddalashtiriladi.

Pandemiya sharoitida aylanma mablag' tanqisligiga duch kelgan tadbirkorlarimiz "oyoqqa turib olishlari" uchun ularga ko'mak berishni davom ettiramiz.

Turizm, transport va umumiy ovqatlanish sohaslariga berilgan imtiyozlar kelgusi yil yakunigacha uzaytiriladi. Shuningdek, 20 mingta tadbirkorning 400 milliard so'mlik yer va mulk solig'ini to'lash muddatini yana bir yilga uzaytirishni taklif etaman.

Bundan tashqari, 1 milliard so'mgacha davlat xaridlari doirasida avans miqdori 30 foizga yetkaziladi.

Umuman, tadbirkorlikni moliyaviy qo'l lab-quvvatlash borasidagi ishlarni davom ettirish maqsadida oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kelgusi yilda 6 trillion so'm imtiyozli kreditlar ajratiladi. Shuningdek, Hukumat tomonidan Jahon banki bilan birgalikda boshlangan qishloqlarda tadbirkorlikni rivojlantirish dasturini kengaytirish uchun qo'shimcha 100 million dollar yo'naltiriladi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq 5 mingga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qayta ko'rib chiqilib, ularning soni qisqartiriladi hamda Tadbirkorlik kodeksi ishlab chiqiladi.

Xabaringiz bor, bundan 4 yil oldin tadbirkorlik subyektlarida tekshirishlar o'tkazishga moratoriy e'lon qilgan edik. Buning natijasida o'tgan davrda tadbirkorlar soni 2 barobar ko'payib, 400 mingtaga yetdi. Shuning uchun moratoriy muddatini yana bir yilga uzaytirishni taklif etaman.

Shu bilan birga, Hukumat tomonidan bozorda teng raqobat muhitini yaratish va halol-pok tadbirkorlarni – takror aytaman – zamonaviy texnologiyalar asosida ishlayotgan vijdonli tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirishga qaratilgan mexanizmlar joriy etiladi.

Yettinchidan, kambag'allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beradigan omil bu – qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirishdir.

Bunda har gektar yerdan olinadigan daromadni hozirgi o'rtacha 2 ming dollardan kamida 5 ming dollargacha yetkazish ustuvor vazifa qilib qo'yiladi. Buning uchun qishloq xo'jaligiga eng ilg'or texnologiyalar, suvni tejaydigan va biotexnologiyalarni, urug'chilik, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarni keng joriy etishimiz lozim.

Avvalo, fermer va dehqonlarning erdan manfaatdorligini oshirish kerak. Manfaaddorlik va adolat bo'lgan joyda, albatta, o'zgarish va o'sish bo'ladi. Bu borada yerdan foydalanish huquqlarini kafolatlash va yerlarni bozor aktivlariga aylantirish masalasini ko'rib chiqish vaqti keldi.

Shuning uchun Hukumat ikki oy muddatda yerdan foydalanish huquqini mustahkamlash, uning iqtisodiy qiymatini belgilash va moliyaviy oborotga kiritish mexanizmlarini joriy qilish bo'yicha taklif kiritsin.

Kelgusi yili barcha viloyatlarda Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar markazlari tashkil etilib, ularda "yagona darcha" tamoyili asosida 100 dan ortiq agroxizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yiladi. Bu markazlar orqali yerning sifatini yaxshilash, kasalliklarga qarshi kurashish, urug'liklarni tanlash bilan bog'liq muhim xizmatlar ko'rsatiladi.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, yerning unumdorligini oshirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etishga ilk bor 600 million dollardan ziyod kredit va grant mablag'lari jalb qilinadi.

Suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etiladigan yer maydonlari 5 barobarga ko'paytirilib, 430 ming gektarga etkaziladi, 90 ming gektar yangi yerlar o'zlashtiriladi.

Sakkizinchidan, barcha viloyat, tuman va shahar hokimlari birinchi marta 2020 yil boshida o'z zimmasiga olgan majburiyat va rejalari ijrosi haqida mahalliy kengashlar oldida hisobot berdi.

Bugungi kunda ishimizdagi eng katta kamchilik – bilim yetishmasligi, afsuski, barcha sohalarda sezilmoqda.

Holbuki, birorta hududni ham, tarmoqni ham zamonaviy ilm va bilimlarsiz rivojlantirib bo'lmaydi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 50 foizidan ortig'i "bilimlar iqtisodiyoti" hisobidan, ya'ni, innovatsiyalar va yuqori malakali kadrlar tomonidan yaratilayotgani buni yaqqol isbotlamoqda.

Bundan buyon har bir qishloq yoki mahalla o'z yo'nalishi va "o'sish nuqtalari"dan kelib chiqib rivojlantiriladi. Buning uchun kelgusi yilda 3 trillion so'mlik mablag'ga ega bo'ladigan hududlar infratuzilmasini rivojlantirish jamg'armasini tuzishni taklif etaman. Jamg'arma mablag'lari mahalliy kengashlar takliflariga asosan infratuzilma loyihalarini qo'shma moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Shuningdek, 84 ta tuman va shaharda sanoat salohiyatini yanada oshirish uchun 100 ta texnopark, kichik sanoat zonalarini, hududiy klaster va logistika markazlari tashkil etiladi.

Kelgusi yilda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini zarur infratuzilmalar bilan ta'minlash uchun 1,6 trillion so'm yo'naltiriladi.

Hukumat hududlarda 130 ming kilometr uzunlikdagi past kuchlanishli elektr tarmoqlari va 40 mingdan ortiq transformatorni bosqichma-bosqich yangilash dasturini kelgusi yil 1 aprelga qadar tasdiqlashi zarur. Shuningdek, 5 mingdan ortiq ta'mirtalab ko'priklarni tiklash bo'yicha dastur qabul qilinadi. Bu ishlarga 2021 yilda 400 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi.

Yana bir muhim masala – so'n ggi 3 yilda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 5 millionga yaqin aholi yashaydigan 1 ming 200 ta mahalla va qishloqlar qiyofasi tubdan o'zgardi. Lekin pandemiyaga tufayli ushbu yo'n alishdagi ishlarimizni vaqtincha to'xtatishga majbur bo'lgan edik.

Hukumat bir oy muddatda 2021 yil uchun "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini ishlab chiqib, tasdiqlasin. Ushbu dasturlarni respublika va mahalliy byudjetlar tomonidan teng ulushlarda moliyalashtirishni nazarda tutsin.

Xalqaro moliya institutlari ham mazkur dasturda ishtirok etish uchun 270 million dollar yo'naltirishga tayyor ekanini bildirdi.

Hududlarning rivojlanishi uchun muhim omillardan biri bu – ularning o'rtasida transport aloqasini ta'minlashdir. Qisqa qilib aytganda, barcha aholi punktlaridan poytaxtimizga, eng yirik shaharlar va turistik markazlarga tezda kelib-ketish imkoniyatini beradigan, o'zaro bog'langan transport tarmog'ini yaratishimiz lozim.

Shu maqsadda Hukumatga keyingi yil 1 martdan boshlab ichki turizm yo'nalishlaridagi aviaqatnovlarni yo'l ga qo'yish va aviachipta narxining bir qismini byudjetdan qoplab berish tizimini joriy etish vazifasi yuklanadi.

Shuningdek, bir qator hududiy aeroportlar davlat-xususiy sheriklik asosida tashqi boshqaruvga beriladi.

Keyingi yilda 2 ta tezyurar poezd harakati yo'l ga qo'yiladi, Buxoro – Urganch – Xiva temir yo'l ini elektrlashtirish boshlanadi.

Aholi punktlari o'rtasidagi, ayniqsa, qishloqlarni tumanlar markazlari bilan bog'laydigan uzluksiz avtobus qatnovlari xususiy sektorni jalb qilish orqali ko'paytiriladi.

Toshkent shahrida yer usti metrosining 12 kilometrlik ikkinchi bosqichi foydalanishga topshiriladi. Shu tariqa yer osti va er usti metro liniyalari yaxlit tizim sifatida bir-biriga ulanadi.

Turizmni rivojlantirish bo'yicha 2021 yilda ham izchil islohotlarni davom ettiramiz. Ayniqsa, ziyorat turizmi va ichki turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, turizm obyektlari atrofidagi er maydonlari, suv va yo'l infratuzilmalarini yaxshilash uchun byudjetdan 1 trillion so'm ajratiladi.

To'qqizinchidan, kelgusi yil aholining ijtimoiy himoyasi yanada kuchaytiriladi.

Nogironlikni belgilashning jahon andozalariga mos "ijtimoiy modeli"ga bosqichma-bosqich o'tiladi.

Muhtoj aholini protez-ortopediya buyumlari va rehabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash bo'yicha yangi tizim joriy etiladi. Bu imkoniyatdan qariyb 50 ming nafar yurtdoshimiz foydalanishi mumkin bo'ladi.

Ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha olib borayotgan ishlarimiz ko'lami yanada kengaytiriladi. Bunda 27 mingta yoki bu yilga nisbatan 2,5 barobar ko'p oilaning ipoteka

krediti bo'yicha dastlabki badallarini to'lash va kredit foizlarini subsidiyalash uchun 2,4 trillion so'm yo'naltiriladi.

O'n inchidan, yangi eksport bozorlariga chiqish Hukumatning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Kelgusi yilda Jahon savdo tashkilotiga a'zolik masalasi hamda Yevropa Ittifoqi bilan keng qamrovli hamkorlik bo'yicha ishlarni faollashtirish lozim.

"GSP+" tizimi doirasidagi imtiyozlarni mamlakatimizda samarali qo'llash uchun alohida dastur ishlab chiqish kerak.

O'zbekiston yaqinda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. Ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar bozorlarida to'laqonli ishtirok etish uchun milliy texnik tartibga solish me'yorlarini ularning talablariga moslashtirish bo'yicha ishlarni jadallashtirish zarur.

Kelgusi yilda korxonalariga xomashyo sotib olish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish uchun Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan 100 million dollar ajratiladi.

Eksport qiluvchilarga chet elda savdo uylari va do'konlar ochish hamda reklama xarajatlarining 50 foizi qoplab beriladi.

Umuman, Hukumatga kelgusi yilda tovar va xizmatlar eksportini kamida 20 foizga oshirish vazifasi topshiriladi.

1.4-1-MAVZU: IJTIMOY SOHANI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Reja:

1. O‘zbekistonda aholi bandligi ta‘minlash borasida olib borilayotgan islohotlar.
2. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya tizimidagi yangilanishlar.
3. Arzon uy-joylar barpo etish bo‘yicha maqsadli o‘zgarishlar tahlili.

Tayanch tushunchalar. Islohot, aholi daromadi, yalpi ichki mahsulot, iste‘mol savatchasi, infratuzilma, modernizatsiya, muhandislik-kommunikatsiyasi, taqsimlash.

1. O‘zbekistonda aholi bandligi ta‘minlash borasida olib borilayotgan islohotlar.

Har qanday iqtisodiyotning bosh masalasi inson va uning ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Bu albatta insonning jamiyatdagi o‘rni, ishlab chiqarilgan moddiy ne‘matlarni taqsimlash munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi ishlab chiqarishning holatiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘l sa ham, taqsimot masalasi ham o‘ziga xos muhim o‘rin tutadi. Taqsimlash – bu har bir xo‘jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarilgan mahsulotdagi ulushini aniqlash jarayonidir.⁵⁷

O‘zbekistonda shakllantirilayotgan ijtimoiy yo‘n altirilgan bozor iqtisodiyoti ommaviy farovonlikni mo‘ljallab olinib oladi. Unga erishish uchun bozor mexanizmiga xos vositalar ishlatiladi. Hozirgi zamon iqtisodiyoti yuksak rivojlangan texnika-texnologiya, sifatli ish kuchi va taraqqiy etgan menejmentga asoslangani uchun farovonlikni ta‘minlaydigan yuqori mehnat unumdorligiga erishadi. Yuksak ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyotda insonparvarlik printsiplari amal qilishi uchun zamin yuzaga keladi. Ammo farovonlikni ta‘minlash insoniylik bilan bir qatorda jamiyatning iqtisodiy tizimida ham sifat o‘zgarishlari bo‘l ishini talab etadi. Hozirgi kunda bunga mulkning demokratlashuvi natijasida – ko‘p xil mulkchilik negizida ish tutish bilan erishiladi. Bu yerda asosiy jihat – mulksizlarning mulkdorlarga aylanishidir. Hozirgi kunda ish kuchi sohiblari boshqa mulk egalari ham aylanmoqdalar

Yuqorida aytilganidek, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi taqsimot qonuniga muvofiq iqtisodiyot subyektlarining daromadi ularga qarashli resurslarning miqdori va samarali ishlatilishiga qarab belgilanadi. Bunga binoan olingan daromadlar ishlab chiqarish omillari daromadlari yoki bozor daromadlari hisoblanadi va har bir omil o‘z egasiga alohida daromad keltiradi. Ishchi kuchi egasi ish haqi, kapital egasi foyda, ko‘chmas mulk egasi renta, pul egasi foiz, aksiya egasi dividend shaklida daromad oladi. Taqsimot qonuniga ko‘ra, daromadlar ekvivalent ya‘ni babbaravar, tengma-tenglik tamoyiliga asoslanishi – har bir subyekt o‘z qo‘lidagi ishlab chiqarish omili yordamida tovar va xizmatlar yaratishga qo‘shgan hissasiga qarab daromad olishi kerak. Bunday daromadlar iqtisodiyotda bozor daromadlari deb ataladi. Bu asosiy daromad turi bo‘lsada u yagona daromad emas, undan tashqari bozor tamoyillari emas, balki insonparvarlik qoidalariga asoslangan nobozor daromadlari ham bo‘ladi.

Bozor daromadlari olinish usuliga va shakllanish manbalariga ko‘ra farqlanadi. O‘z olinish usuliga ko‘ra daromadlar mehnatga asoslangan va mehnatsiz topilgan daromadlarga bo‘linadi. Ish haqi, foyda kabi daromadlar mehnatga asoslangan daromadlar, deb hisoblansa, qo‘yilmalar uchun foiz, meros kabi daromadlar mehnatsiz daromadlar jumlasiga kiradi. Shakllanish manbalariga ko‘ra daromadlar ish haqi, mulkdan kelgan daromadlarva ijtimoiy to‘l ovlarga bo‘linadi. Mulkdan kelgan daromadlar sirasiga foyda, renta, foiz, dividend daromadlari mansubdir. Ijtimoiy to‘lovlar bilan bog‘liq daromadlar pensiya, stipendiya va hokazolardan iborat.

Aholi daromadlari darajasini aniqlashda nominal, ixtiyorida bo‘lgan va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi. Nominal daromad – aholi tomonidan ma‘lum vaqtda pul shaklida olgan daromadlarining miqdori. Ixtiyordagi daromad – nominal daromaddan soliqlar va turli majburiy to‘lovlar chiqarib tashlangandan so‘n g, aholi ixtiyorida shaxsiy iste‘mol va

⁵⁷Макроэкономика: учебник для вузов / Л.П. Кураков, М.В. Игнатьев, А.В. Тимирязова и др.; Изд-во ИАЭП, 2017. – 336 с.


jang'arish uchun qoladigan daromad. Real daromad – aholining ixtiyorida qolgan daromadga qancha tovar va xizmatlar sotib olishi bilan aniqlanadi, daromadning xarid qobiliyatini anglatadi yoki real daromad – bu iste'mol etiladigan tovar va xizmatlarda ifoda etilgan daromad bo'lib, muayyan narx-navo sharoitida pul daromadlariga bozorda nima berilishini bildiradi.⁵⁸

Real daromad ikki narsaga bog'liq bo'ladi. A) qo'lda mavjud bo'lgan pul daromadining yoki aholi ixtiyorida qolgan daromadning miqdoriga teng. b) pul birligining xarid qobiliyati.⁵⁹ Bu bozorda narxga bog'liq bo'ladi, ya'ni narx qimmatlashsa u kamayadi, narx arzonlashsa ortadi. Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarishni o'sishi, aholining turmush darajasi ko'tarilayotganligiga qaramay, eng boy va eng kambag'allar o'rtasidagi tafovut oshib bormoqda.

BMT ning ma'lumotiga ko'ra, dunyodagi eng boy 3 odamning boyligi Afrika, Osiyo, Lotin Amerikasi qit'asidagi 48 ta kam rivojlangan mamlakatlarning yillik yalpi ichki mahsulotidan ortiq. Sayyoramizning 225 eng boy odamlarining umumiy daromadi 1 trln. dollardan ortiq. Shunday bir vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarda yashayotgan 4,4 mlrd. aholining 3/5 qismi kanalizatsiyadan foydalanmay, 1/3 qismi toza ichimlik suvidan iste'mol qilishdan, 1/3 qismi sog'liqni saqlash xizmatidan foydalanishdan mahrum etilgan. Yevropaliklar bir yilda 11 mlrd. 6 dollarlik iste'mol qilgan muzqaymoqning qiymati, dunyoda toza ichimlik suvi va kanalizatsiyaga muhtoj bo'lganlar ehtiyojini to'la qondirish imkonini beradi.⁶⁰

Aholi daromadlarini munosib ravishda taqsimlashda aholini ish bilan ta'minlash asosiy vazifalarni bajaradi. Chunki aholining ish bilan ta'minlanganligi uy xo'jaligidagi daromadlarini oshirishiga xizmat qiladi, bu esa o'z o'rnida aholining turmush farovonligini oshirishiga ta'sir qiladi.

So'nggi yillarda davlatimiz tomonidan aholini banligini oshirishga qaratilgan faol siyosati natijasida 2018 yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2018 yilda mehnat resurslari soni 18829,6 ming kishini tashkil etib, 2017 yilga nisbatan 163,3 ming kishiga, yoki 0,8 % ga o'sishi kuzatildi. Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi soni 14641,7 ming kishini (jami mehnat resurslarining 77,7%), iqtisodiy nafaol aholi soni esa 4187,9 ming kishini (22,2 %) tashkil etdi.



Rasm-1. Mehnat resurslari sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2018 yil yanvar-dekabr, ming. kishi)⁶¹


⁵⁸Макроэкономика: учебник для вузов / Л.П. Кураков, М.В. Игнатъев, А.В. Тимирясова и др.; Изд-во ИАЭП, 2017. – 336 с.

⁵⁹Макроэкономика: учебник для вузов / Л.П. Кураков, М.В. Игнатъев, А.В. Тимирясова и др.; Изд-во ИАЭП, 2017. – 336 с.

⁶⁰Журнал Вопросы экономики М. 2003 г. №3 стр. 46


⁶¹www.stat.uz Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитасининг расмий маълумотлари

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2014-2018 yillarda aholining umumiy daromadining o'tgan davrlarga nisbatan o'sish tendentsiyasiga ega bo'lib 2018 yilda aholining umumiy daromadi 242,6 trln. so'mni tashkil qildi. 2014-2018 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real umumiy daromad ham o'sish tendentsiyasiga ega bo'lib 2018 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real umumiy daromadi 2018 yilda 7,3 mln. so'mni tashkil qildi (1-rasm).



2-rasm. 2018 yilning yanvar-dekabr holatiga O'zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlarining o'sish sur'atlari (2017 yilning mos davriga nisbatan, %)⁶²

2018 yil yakuniga ko'ra aholi jon boshiga umumiy daromadlari bo'yicha Toshkent shahrida (15 mln. 804,6 ming so'm) hamda Navoiy (13 mln. 697,1 ming so'm), Buxoro (10 mln 856,2 ming so'm), Toshkent viloyatida (9 mln. 70,8 ming so'm) va Xorazm (9 mln. 176 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlari qayd etilganligi kuzatildi. Aholi jon boshiga daromadlarning eng quyi ko'rsatkichlari esa Qoraqalpog'iston Respublikasida (6 mln. 323,1 ming so'm) qayd etildi⁶³.



3-rasm. Aholining umumiy daromadining tarkibi (2013-2018 yillar).⁶⁴

⁶² www.stat.uz Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитасининг расмий маълумотлари

⁶³ www.stat.uz Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитасининг расмий маълумотлари

⁶⁴ Дастлабки манбаа.

Aholining umumiy daromadlari hajmining sezilarli darajada o'sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida 76,3 % ulushi ishlab chiqarish va mol-mulkdan olingan daromadlar ulushiga to'g'ri keladi. Qolgan qismi esa 23,7% transfertlardan olingan daromad.

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholini daromadlarini oshirishga qaratilgan islohotlar natijasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2018 yil dekabr oyida 2 561,3 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 29,1 % ga o'sdi. 2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 822,2 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 25,0 % ga o'sdi.

Quyida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2000-2017 yillarda aholi jon boshiga daromadlar, ish haqi va pensiyalarning yildan yilga o'sib borish tendensiyalarini kuzatish mumkin. Ammo so'nggi yillarda daromadlarning tarkibidagi asosiy manbalaridan hisoblangan ish haqi hamda pensiyalarning o'sish sur'atlari pasaygan bo'lib, bu holat aholining umumiy daromadlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

1-jadval


2000-2017 yillarda respublika aholisi daromadlari, ish haqi va pensiyalar to'g'risida ma'lumot⁶⁵

Ko'rsatkichlar nomi	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2017 y.
I. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so'mda	96,4	371,8	1765,8	5649,6
o'tgan yilning mos davriga nisbatan real o'sishi, %	124,7	117,4	120,1	108,4
II. Yillik o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda	13,5	81,5	504,8	1457,8
o'tgan yilning mos davriga nisbatan, %	146	138,7	129,4	112,7
III. Belgilangan o'rtacha pensiya miqdori (yil oxiriga), ming so'mda	7,4	31,7	171,9	556,8
o'tgan yilning mos davriga nisbatan, %	152	143,5	125,9	112,7

O'tgan davr mobaynida aholi jon boshiga daromadlar muntazam ravishda oshib borgan va 2017 yil ma'lumotlari bo'yicha daromadlar 2000 yildagi darajasiga nisbatan 13,2 marta real oshgan. Shuningdek, ushbu davr oralig'ida o'rtacha ish haqi hamda pensiyalar miqdori mos ravishda 24,3 va 18,6 marta ortgani kuzatildi.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini qo'l lab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida aholining kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 2017 yilda 55,7 % ni tashkil etdi (3-rasm).


⁶⁵ www.stat.uz Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитасининг расмий маълумотлари



Rasm-4. O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibida, kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi, %.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o‘sishi iqtisodiy faoliyat turlarining axborot va aloqa (33,8% ga), sanoat (30,6% ga), bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatlarida (29,9 % ga), qurilish (29,2% ga) kuzatildi.

O‘rtacha ish haqining yuqori miqdori iqtisodiy faoliyat turlarining bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida - 3 500,5 ming so‘m (respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 92,1 %ga yuqori), ahborot va aloqada - 3 347,5 ming so‘m (83,7 % ga), sanoatda - 2 731,1 ming so‘m (49,9 % ga), tashish va saqlashda - 2 507,4 ming so‘m (37,6 % ga), qurilishda - 2 297,3 ming so‘m (26,1 % ga) kuzatildi (2-rasm).



4-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2018 yil yanvar-dekabr)⁶⁶

Respublika bo‘yicha o‘rtacha real hisoblangan ish haqi 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 1 550,4 ming so‘mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 6,4 % ga o‘sdi.

Bundan tashqari, aholi daromadlari va turmush darajasini qat‘iy oshirib borish, aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarni yanada ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish hamda respublika fuqarolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida 2021 yilning yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish

⁶⁶ www.stat.uz Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитасининг расмий маълумотлари

to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonga muvofiq 2021 yilning 1 fevraldan boshlab byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar hamda nafaqalar miqdori 1,1 baravar oshirildi, 2021 yilning 1 fevraldan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida bazaviy hisoblash miqdori (oldinlari "eng kam ish haqi" deb yuritilgan) – oyiga 245000 so'm; 2019 yil 1avgustdan boshlab yoshga doir pensiyalar – oyiga 436 150 so'm;bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladigan nafaqa – oyiga 436 150 so'm; Zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa oyiga 267 650 so'mni tashkil qildi. Bundan tashqari, 2019 yil 1 avgustidan boshlab II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning nogironlik pensiyalari eng kam miqdori yoshga doir eng kam pensiyaning 50 foizidan 75 foiziga oshirildi; II guruh nogironligi bo'lgan yolg'iz shaxslar – pensionerlarning pensiyalariga ustama miqdori eng kam ish haqining 50foizidan 75 foiziga oshirildi; boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi miqdori mehnatga layoqatsiz oila a'zolari soniga amaldagi foizlar nisbati saqlangan holda yoshga doir pensiyaning eng kam miqdoridan kelib chiqib belgilandi. 2019 yilning 1 avgustidan I guruh nogironlik nafaqasi, shuningdek, 16 yoshdan katta bolalikdan I guruh nogironlik nafaqasi oluvchilarga har oyda eng kam ish haqining 25 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov joriy qilingan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil may oyidagi "Aholini ijtimoiy himoya qilishning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan 2021 yilning 1 iyun kundan e'tiboran zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa oyiga 440.000 so'm etib belgilandi. Yuqorida keltirilgan raqamalardan ma'lumki mamlakatimizda aholi daromadini oshirish hamda aholining ijtimoiy zaif qatlamani qo'llab quvvatlanib ularning turmush farovonligini oshirmoqda.

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan aholi daromadlari va turmush darajasini yanada oshirish, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan choratadbirlar natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar, ish haqi va pensiyalar izchil ravishda o'sib borgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Aholining real daromadlarini oshirishda "iste'mol savatchasi"ga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Sodda qilib aytganda, iste'mol savatchasi – muayyan vaqt davomida inson hayoti va uning salomatligini saqlash uchun zarur mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarning eng kam to'plami. Hamma ovqatlanishi, kiyinishi, kommunal va boshqa xizmatlar haqini to'lashi, zarur dori-darmonlarni xarid qilishi lozim va h.k. Bularning bari mahsulotlar savatchasini butlash uchun asos hisoblanadi. Uning ma'lumotlaridan, o'z navbatida, **tirikchilik uchun zarur eng kam miqdorni (iste'mol savatchasining qiymat bahosini)** belgilash uchun foydalaniladi.⁶⁷

Iste'mol savatchasi quyidagilarning miqdorlarini belgilash uchun hisob-kitobga asos bo'lmog'i lozim:

- eng kam ish haqi va pensiyalar;
- bazaviy ijtimoiy to'lovlar: ishsizlik, bolani parvarishlash, boquvchisini yo'qotganlik nafaqalari, stipendiyalar va boshqalar.

Savatcha tarkibi: oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlar

Iste'mol savatchasiga kiruvchi tovarlar va xizmatlar to'plami har bir mamlakatda turlicha. Uning tarkibi davlat darajasida belgilanadi va ko'plab omillar: tabiiy-iqlim sharoitlari, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarish xususiyatlari, tovarlar va xizmatlarning haqiqatda iste'mol qilinishi va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

An'anaga ko'ra iste'mol savatchasi 3 qismdan iborat bo'ladi:

1–oziq-ovqat mahsulotlari;

2–nooziq-ovqat tovarlari: kiyim-kechak, poyabzal, birinchi navbatda zarur bo'lgan buyumlar, dori-darmonlar, madaniy-maishiy va xo'jalik uchun mo'ljallangan tovarlar va h.k.;

3–xizmatlar: kommunal, transport, madaniy-ma'rifiy va h.k.

⁶⁷ Ахмедов Д.К., Ишмухаммедов А.Э., Жумаев К.Х., Жумаев З.А. макроиктисодиёт (дарслик) – Т.: ТДИУ, 2004 й. 240 б.

Odatda iste'mol savatchasi aholining 3 ta asosiy ijtimoiy-demografik guruhi: mehnatga layoqatli aholi, pensionerlar va bolalar uchun ishlab chiqiladi. Ya'ni aholining turli qatlamlari tirikchiligi uchun zarur eng kam miqdorni belgilashda muayyan davrda iste'mol savatchasidagi barcha ne'matlarni iste'mol qilish normalarini aniqlash zarur. Masalan, oddiy fuqaro normal hayot kechirishi uchun har kuni iste'mol qilishi kerak bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari to'plami va miqdorini hisoblash. Yoki barcha kommunal xarajatlarni qoplashi uchun oyiga qancha summa zarurligini.

Odatda iste'mol savatchasi tarkibiga kishi ularsiz bamaylixtir, sog'lom yashashi mumkin bo'lgan tovarlar: tamaki mahsulotlari, alkogolli ichimliklar, delikates (tansiq) mahsulotlar, zebziynat buyumlari kiritilmaydi.

Iste'mol savatchasiga qanday xizmatlar kiritiladi

Xizmatlar ham inson uchun muhimlik darajasi va hayotiy zarurligiga qarab farqlanishi mumkin. Biroq oziq-ovqat tovarlari yuzasidan bir qarorga kelish masalasi ozmi-ko'pmi tushunarli bo'lsa, xizmatlarning zarur to'plamini belgilashda savollar yuzaga kelishi mumkin. Aholi tirikchiligi uchun zarur eng kam miqdorni belgilashda qanday xizmatlar to'lovi hisob-kitobga kiritilishi kerak? To'g'ri, birinchi navbatda, bular kommunal va transport xarajatlardir.

Ayni vaqtda, inson o'z hayotiy faoliyatida boshqa, dolzarbliki jihatidan muhim servis turlaridan ham faol foydalanadi: uyali aloqa va internetdan foydalanadi, tibbiy yordam, turli mutaxassislar maslahatlarini oladi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar: teatr, muzeylarga borish xarajatlari ham alohida e'tiborga loyiq. Zero kishi nafaqat jismoniy ehtiyojlarini qondirishi, balki aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan etarli darajada rivojlanishi lozim.

Shu sababli yuqorida sanab o'tilganlarning bari ichki iste'mol savatchasini ishlab chiqishda inobatga olinishi lozim degan fikrdamiz.

Iste'mol savatchasi tarkibiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Xullas, ichki iste'mol savatchasini ishlab chiqishda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- demografik omillar: oilalar katta-kichikligi va tuzilishi, aholining tarkibi va jins-yosh tuzilmasi va boshqalar;

- ijtimoiy-iqtisodiy omillar: oilalarda oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarning haqiqatda iste'mol qilinishi; barcha guruhdagi aholining ehtiyojlari, ularning daromadi darajasi va boshqalar;

- inson salomatligini saqlash va hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan eng kam iste'mol hajmlari hamda tovarlar va xizmatlar ro'yxati bo'yicha ilmiy tavsiyalar;

- aholining ijtimoiy himoyalaniishini ta'minlashga doir davlatning moliyaviy imkoniyatlari;

- tovarlar va xizmatlarning real bozor narxlari;

- boshqa mamlakatlarning tajribasi va boshqalar.

Fikrimizcha, yuqorida sanab o'tilgan barcha omillar, xorij tajribasining tahlil natijalari bilan birga, iste'mol savatchasini ishlab chiqish aholi daromadlari va aholi turmush farovonligiga ta'sir etuvich asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Prezidentimiz tomonidan 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga qilgan

Murojaatnomada quyidagilar ta'kidlandi:

So'nggi 4 yilda iqtisodiyotimizning barcha jabhalariga bozor mexanizmlarini joriy etish borasida jiddiy qadamlar tashlandi. Endigi vazifa – chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o'sishning poydevorini yaratishdan iborat. Shularni inobatga olib, keyingi yilda quyidagi yo'nalishlarda keng qamrovli ishlarni amalga oshiramiz.

Birinchiidan, kambag'allikni qisqartirish borasida kompleks yondashuv va nostandart usullarni joriy etamiz.

Bir haqiqatni aniq tushunib olishimiz kerak – kambag'allik masalasi kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish bilan o'z-o'zidan hal bo'lib qolmaydi. Buning uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, kasb-hunarga o'qitish, ichimlik suv, energiya va yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq kompleks muammolarni hal etib borish kerak.

Nima uchun biz "temir daftar"ni joriy etdik? Bundan maqsad – ehtiyojmand aholini to'g'ri aniqlash va shu asosda, ular bilan manzilli ishlashni tashkil etishdir.

Kelgusi yildan to'liq ishga tushadigan "Ijtimoiy reestr"da "temir daftar"dagi barcha ma'lumotlar qamrab olinib, ehtiyojmand oilalarga 30 dan ziyod ijtimoiy xizmatlar elektron shaklda ko'rsatiladi.

Birinchi navbatda, kambag'al aholining asosiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlashimiz lozim. Bu masalada xalqaro ekspertlar bilan chuqur tahlil asosidagi hisob-kitoblar yakuniga yetkazilmoqda. Kelgusi yil 1 martdan boshlab aholining minimal iste'mol xarajatlari miqdori e'lon qilinadi.

Hukumat ikki oy muddatda ijtimoiy kafolatlarni bir tizimga keltirib, ularni minimal me'yorlar darajasida bosqichma-bosqich ta'minlash bo'yicha dastur ishlab chiqsin.

"Temir daftar"ga kiritilgan har bir fuqaroni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha "motivatsiya, ko'n ikma va moliyaviy ko'mak" tamoyili asosida yangi mexanizm joriy etiladi.

Kambag'allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil – bu insonning intilishi, o'z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo'l ishi kerak. SHu maqsadda kelgusi yili mahallalarda aholini kasb-hunarga o'qitish bo'yicha mingdan ziyod markazlar tashkil etiladi. Bunda kasb-hunarga o'qitilgan har bir shaxs uchun o'quv markazlariga 1 million so'mgacha subsidiya berilib, buning uchun byudjetdan 100 milliard so'm ajratiladi. O'quv kurslarini tamomlab, o'z biznesini boshlamoqchi bo'l gan fuqarolarga asbob-uskuna xarid qilish uchun 7 million so'mgacha subsidiyalar beriladi.

Shuningdek, har bir tumanning imkoniyati va rivojlanish yo'n alishidan kelib chiqib, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan oilalarga 10 sotixdan 1 gektargacha er maydonlari ajratiladi.

Ehtiyojmand aholi bandligini ta'minlashga Bandlikka ko'maklashish hamda Jamoat ishlari jamg'armalaridan 500 milliard so'm yo'n altiriladi.

Pandemiya sharoitida o'z ishini yo'qotgan aholini kambag'allikka tushib qolishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Shuning uchun kelgusi yildan boshlab yangicha tizim joriy etiladi. Unga ko'ra, vaqtincha ishsizlik nafaqasi 3 barobar oshiriladi va bunda 6 ta hujjat talab etiladigan eski byurokratik tartib bekor qilinadi.

Kambag'allikni qisqartirish borasida hududlardagi haqiqiy holatga baho berish, amalga oshirilayotgan ishlar ijrosini nazorat qilish Oliy Majlis palatalari va mahalliy Kengashlarning diqqat markazida bo'l ishi lozim.

Har bir tuman va shahar hokimi bir oy muddatda o'z hududida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha manzilli dastur ishlab chiqib, uning ijrosi bo'yicha har chorakda mahalliy Kengashlarda hamda ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa hisobot berib borishi zarur. Bu masala barcha rahbarlarning birinchi darajali vazifasi va ish samarasini baholaydigan asosiy mezonga aylanishi kerak.

2. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya tizimidagi yangilanishlar.

Ma'lumki, ijtimoiy soha milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi hisoblangan iqtisodiyotning uchlamchi sektori – xizmatlar sohasiga tegishli bo'lib, u umumiy iqtisodiy munosabatlar tizimiga kiradi va umumiy iqtisodiy qonunlarga bo'ysunadi. Ijtimoiy sohaga jamiyat hayot faoliyatining mustaqil va muhim tarkibiy qismi maqomining berilishi uning mohiyatini iqtisodiy nuqtai nazaridan tadqiq etish bilan birga bordi. Qayd etish lozimki, "ijtimoiy soha" tushunchasining mazmunini dastlab "noishlab chiqarish sohasi" atamasi doirasida yoritib berish ustuvor o'rinda bo'ldi. Bunday yondashuv uzoq vaqt davomida iqtisodiy adabiyotda, reja va statistik faoliyatda keng ko'lamda qo'llanib kelindi. Ijtimoiy sohani noishlab chiqarish tarmoqlari majmuiga tenglashtirish 1980 yillarning oxirigacha davom etdi. Keyinchalik noishlab chiqarish sohasidan ijtimoiy sohaning ajralib chiqishi yuz berdi. Ayni vaqtda ijtimoiy soha tarkibidan fan, davlat boshqaruvi, moliya chiqarilib, uning tarkibiga turizm industriyasi, ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari, tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq faoliyat, yo'lovchi tashish transporti va boshqalar, shuningdek, ijtimoiy maqsadlarga xizmat qiluvchi moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari (masalan, umumiy ovqatlanish) kiritila boshlandi.

Shuni qayd etish joizki, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy adabiyotda "ijtimoiy soha" "noishlab chiqarish sohasi" tushunchasini amalda muomaladan chiqarib, ilmiy adabiyotga kirib kelgan bo'lsa-da, hozirgi paytda ham bu ikki tushunchani bir-biriga tenglashtirish tarafdorlari mavjud.

Masalan, “Iqtisodiy lug’at” mualliflari quyidagilarni ta’kidlaydilar: “ijtimoiy (noishlab chiqarish) soha – bu bevosita moddiy ne’matlar yaratilmaydigan (san’at, madaniyat, sport, fan, ta’lim, sog’liqni saqlash) sohadir”⁶⁸.

“Ijtimoiy soha iqtisodiyoti” o’quv qo’llanmasi mualliflari ijtimoiy soha deganda “kishilarning ijtimoiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan maxsus iqtisodiy munosabatlar sohasi”ni tushunadilar. Garchi mazkur ta’rif birmuncha aniqroq bo’lsada, unda qaysi iqtisodiy obyektlar o’rtasida ushbu maxsus iqtisodiy munosabatlar yuzaga kelishi ko’rsatilmaganligini ta’kidlash lozim.

Bozor iqtisodiyotiga o’tayotgan mamlakatlar iqtisodiy adabiyotlarida, ayniqsa, iqtisodchi olimlar mulohazalarida, "ijtimoiy himoya" atamasining turlicha talqinini uchratish mumkin. Masalan, ayrim adabiyotlarda "aholini ijtimoiy himoyalash" tushunchasining mazmuni ikki xil, ya’ni keng va tor ma’noda keltiriladi. Keng ma’noda, "ijtimoiy himoya" deganda mamlakat aholisining ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui tushunilsa, tor ma’noda, davlat va jamiyatning aholining yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta’minlanmagani tufayli yordamga, ko’makka muhtoj fuqarolarga ko’rsatilayotgan g’amxo’rligi nazarda tutiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 martdagi “Keksalar, nogironligi bo’lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko’rsatish sohasidagi faoliyatga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo’yicha” 203-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda mamlakatimizda quyidagilar: keksalar, nogironligi bo’lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa qatlamlar deb yuritiladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar deganda **nafaqat ijtimoiy yordam va nafaqalar bilan ta’minlashni, shu bilan birga, ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish tizimini izchil rivojlantirishni ham qamrab oladi.** Ya’ni Aholining ijtimoiy ehtiyojmand o’zgalarning parvarishiga muhtoj keksalar va yolg’iz yashovchi keksalar, I va II guruh nogironlari, nogiron bolalar, muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar, ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar, yetim va ota-ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalar ehtiyojmand kishilar hisoblanadi. Ya’ni davlat siyosati aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy xizmatlarga muhtoj shaxslarni aniqlash va hisobga olish hamda ularga ushbu xizmatlar ko’rsatilishini tashkil etish orqali amalga oshirish hisoblanadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj toifalarga kam ta’minlanganlar, ko’p bolali onalar, nogironlar, yolg’iz qariyalar va boshqalar kiradi. Har qanday tuzum va jamiyatda aholining bunday toifalari u yoki bu darajada uchraydi. Adolatli jamiyat hamisha ularni himoya qilishni o’z zimmasiga oladi. Shuning uchun ham O’zbekiston o’z mustaqilligiga erishganidan keyin kuchli ijtimoiy siyosat yuritdi. Ijtimoiy sohaga muhim e’tibor hozirgi paytda ham davlat siyosatining ustuvor yo’n alishlaridan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o’ttiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko’rish va uni o’tkazish to’g’risida”gi Qarori qabul qilingan bo’lib, bu yilgi bayram “Yangi O’zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” degan bosh g’oyani o’zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda targ’ibot-tashviqot ishlari dasturi asosida amalga oshirilyapti. Chunki Qarorda ushbu Dasturni 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’n alishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi hamda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib qabul qilinadigan Davlat dasturining ma’no-mazmunidan kelib chiqqan holda tayyorlash belgilangan. Bu beshta ustuvor yo’n alishning to’rtinchisida aynan ijtimoiy sohani rivojlantirish ko’zda tutilgan. U quyidagicha bayon etilgan: “Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo’naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog’lig’ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo’l - transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo’yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim,

⁶⁸ Большой экономический словарь /Под.ред. А.Н.Азрилияна. 5-е изд., доп. и перераб. М., 2002. – С.1048

madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish"ga yo'n altirilgan.

Bu borada belgilangan vazifalarni o'qigan har bir gazetxon ko'z oldida birinchi galda ana shu yo'n alishlar bo'yicha mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ulkan ishlar gavdalanadi, albatta.

O'tish davrining O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, jahonda "O'zbek modeli" deb nom qozongan beshta tamoyilning to'rtinchisi aynan aholining murakkab demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritishdan iborat qilib belgilangan edi. Hatto, mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar mohiyati xalqaro ekspertlar tarafidan aynan "ijtimoiy yo'n altirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish" deb ham nomlandi. Bu bejiz emas edi.

Chunki bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqasiga, ayniqsa, unga mohiyatan tamoman zid bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish hamisha murakkab kechadi. Bu aholining muayyan qismi hayotida keskin tarzda aks etadi. Bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tayotganda, xususan, eski ishlab chiqarish tizimi, mavjud iqtisodiy integratsiya tabiiy ravishda izdan chiqadi, ularning barini yangidan shakllantirishga to'g'ri keladi. Shuningdek, mulkka egalik qilishning shakli o'zgaradi, davlat korxonalari, hatto, ekin erlari egalari o'zgaradi, ishchi kuchi ham bevosita bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida qayta taqsimlanadi. Demak, ijtimoiy himoyaga muxtojlar safining o'zgarib, ya'ni kamayib-ko'payib turishi ham tabiiy holdir.

Shuning uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida aholining himoyaga muhtoj qismini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning kafolatli tizimi yaratilmas ekan, bu og'ir ijtimoiy mushkulotlarga olib kelishi mumkin. Mustaqil O'zbekistonda avval-boshdan bu borada oqilona yo'l tutildi. Shu sababdan ham mamlakatimizda faol ijtimoiy siyosat olib borilishi natijasida sog'liqni saqlash tizimida qator islohotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish, davolashning zamonaviy texnologiya va usullarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish davlat siyosatining eng muhim yo'n alishlaridan biriga aylandi. Davlat tomonidan ajratiladigan byudjet mablag'lari yordamida ishlab chiqarishni rivojlantirish, fan-texnika sohasini taraqqiy ettirish, ijtimoiy ehtiyojlarni qoplash, davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlash masalalari hal etiladi. Shu orqali davlat kam ta'minlangan va yordamga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlarining ijtimoiy himoyalashni ta'minlaydi, iqtisodiyotning ustuvor sohalarini rivojlantirish choralarini ko'radi.

Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishni dasturlashtirish – aholining tibbiy xizmatlarga, dori-darmonlarga va sanitariya-epidemiologik xizmatlarga bo'lgan talabini me'yor darajasida tashkil etishni asoslash va uning xarajatlarini ishlab chiqishni anglatadi. Prezidentimiz tomonidan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'n alishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi ijtimoiy sohadagi muammolarni bosqichma-bosqich hal qilinishida ayni muddao bo'ldi. Harakatlar strategiyasining 4,2 bandida aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga doir vazifalar keltirilgan. Jumladan, aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'n altirgan holda sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish; farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash; oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishini kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha

kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish masalalarini hal qilish bugungi kunning oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.⁶⁹

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 martdagi “O‘zbekiston Respublikasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi vazifalarni amalga oshirishda muhim dasturilamal hujjat vazifasini o‘tamoqda. Qaror birlamchi tibbiyot muassasalari joylashuvini oqilona tashkil etish, ularda ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, patronaj tizimini sifat jihatdan tubdan yaxshilash, mamlakatda, uning har bir hududi va aholi yashash punktlarida kasallanish darajasini pasaytirish, profilaktika ishlarini yanada yaxshilashga qaratilgan.

2017 yilning 16 mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni e‘lon qilindi. Shoshilinch tibbiy yordamning tezkorligini, texnologikligi va samaradorligini tubdan kuchaytirishga, aholiga o‘z vaqtida malakali shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha davolash, ilmiy-metodik va ta‘lim ishlarining butun kompleksini eng yuqori darajada tashkil etishga yo‘naltirilgan aholiga shoshilinch tibbiy yordam berish tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida qator muhim yo‘n alishlar belgilab olindi. Tez tibbiy yordam ko‘chma brigadalarini tasdiqlangan normativlarga muvofiq dori vositalari, tibbiyot buyumlari va sarflash materiallari bilan bosqichma-bosqich ta‘minlash, shu jumladan, ushbu maqsadlar uchun 2017 yilda moliyalashtirish hajmi kamida 2 baravar ko‘paytirilishi keltirib o‘tilgan.⁷⁰

Mamlakatimizda sog‘lom, har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalash hamda salomatligini ta‘minlashda ta‘lim va tibbiyot muassasalarining o‘rni beqiyos. Shu bois ham bugungi kunda ushbu sohalarni tubdan isloh qilish masalasiga e‘tibor kuchaytirilmoqda. Prezidentimizning 2017 yil 21 avgustdagi “Ta‘lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning mantiqiy davomi sifatidagi choralarni o‘z ichiga olgan.

Mazkur qarorni qabul qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ta‘lim va tibbiyot muassasalarida byudjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish hamda uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e‘tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo‘li bilan byudjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini tubdan qayta ko‘rib chiqishga yo‘n altirilgan.

Qarorga muvofiq, 2017 yilning 1 sentyabridan xalq ta‘limi tuman (shahar) bo‘liqlarida va tibbiyot birlashmalarida markazlashtirilgan moliya buxgalteriya xizmatlari tashkil qilinmoqda. Ushbu xizmatlarning asosiy vazifalari quyi muassasalarning xarajatlar smetasini tuzish va ijrosini ta‘minlash, ish haqlarining hisoblanishi va to‘lov anishini nazorat qilish, zarur bo‘lgan moddiy qiymatliklar va xizmatlarni xarid qilish, shuningdek, muassasalarning byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobining yuritilishini ta‘minlash, ularning faoliyat sohasi bo‘yicha tovarlar sotish, xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan daromadlarini iqtisodiy tahlil asosida monitoring qilib borishdan iborat qilib belgilangan.⁷¹

Byudjetdan ajratilayotgan mablag‘lar doirasida aholi sog‘lig‘i ko‘rsatkichlarining mezonlari talablariga javob berishini ta‘minlash, boshqa ko‘rsatilgan to‘lovlarni amalga oshirishda bemorlarning tibbiy xizmatlarni tanlash imkoniyatlarini yaratish, ya‘ni tibbiyot muassasalari tomonidan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar bozorida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishni taqozo etadi. Natijada, sarf etilayotgan moliyaviy resurslardan maqsadli


⁶⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли фармони.

⁷⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 мартдаги “Шошилинч тиббий ёрдамни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4985-сонли фармони.

⁷¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 21 август “Таълим ва тиббиёт муассасаларини молиялаштириш механизмини ҳамда давлат молиявий нazorати тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги ПҚ-3231-сонли қарори

foydalanish va xizmatlar bilan ular orasida o‘zaro bog‘liqlik darajasini oshirish orqali samaradorlikka erishiladi hamda tizimni moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash jarayonlari takomillashadi. Pirovardida, aholining o‘rtacha umr ko‘rish yoshi ortib, bolalar o‘rtasida o‘lim, turli yuqumli kasalliklar darajasi kabi ko‘rsatkichlar optimallasadi. Inson salohiyati eng faol bunyodkor omil bo‘lib, mamlakatning islohotlar va tub o‘zgarishlar yo‘lidan tinimsiz ilgarilab borishini ta‘minlab beradi. Bu omilning kuchi va ta‘siri, eng avvalo, yuksak ma‘naviyat, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi davrida insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarni vujudga keltirish borasida aholini ijtimoiy himoyalash, tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish, fuqarolar madaniyatini oshirish, jismoniy tarbiyani yaxshilash, aholini mehnat bilan bandligini ta‘minlashga qaratilishi kerak.

2018 yilda O‘zbekiston Respublikasida 5296 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari mavjud bo‘lib, ularning soni 1991 yilga (3139 ta) nisbatan deyarli ikki barobardan ko‘proqqa oshdi. Shifoxona muassasalari soni esa aksincha, 1991 yilda 1388 ta shifoxona muassasasi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2018 yilga kelib 20 foizga kamaydi, ya‘ni 1135 tani tashkil etdi (6-rasm).



6-rasm. Davolash profilaktika muassasalari soni⁷²

1991 yilda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasida 75 ming shifokor faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib ularning soni 84,1 ming kishini (12 foizga oshdi) tashkil etadi. O‘rta tibbiyot xodimlari soni esa 1991 yilga nisbatan 41 foizga (341,3 ming kishi) ko‘paydi. 1-jadval ma‘lumotlari bo‘yicha 10000 aholiga hisoblangan shifokorlar soni 35,5 (1991 yil) dan 26,2 (2016 yil) gacha, o‘rta tibbiyot xodimlari soni esa mos ravishda 114,7 dan 106,3 gacha kamaygan. Mavjud shifokorlarning 34 foizini oliy toifali shifokorlar tashkil etadi.

⁷² www.stat.uz Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитасининг расмий маълумотлари

Aholining tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanganligi⁷³

Yillar	Jami shifokorlar soni (ming)	10000 aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni	Jami o'rta tibbiyot xodimlari soni (ming)	10000 aholiga to'g'ri keladigan o'rta tibbiyot xodimlari soni
1991 y.	75	35,5	242,2	114,7
1995 y.	76,2	33,2	249,6	108,9
2000 y.	81,5	32,8	259,7	104,7
2005 y.	76,5	29,1	271	103
2010 y.	79,9	27,4	310,2	106,5
2016 y.	84,1	26,2	341,3	106,3

Bundan tashqari, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash sohalarini uzoq muddatli rivojlantirish bo'yicha kontseptsiyalar qabul qilindi. Ijtimoiy soha xodimlarining ish haqi o'rtacha 1,5-2 barobar oshirildi.

Fikrimizcha, davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy sohaning tubdan o'zgarishini va sog'liqni saqlash muassasalari moliyaviy resurslarini boshqarish jahon talablari darajasiga chiqishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'l amlil ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevralidagi "Xotin-qizlarni qo'l lab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonda Xotin-qizlarni qo'l lab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Unga ko'ra;

birinchidan, xotin-qizlarni qo'l lab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish;

ikkinchidan, xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarning manzilli ro'yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish;

uchinchidan, xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash;

to'rtinchidan, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi va moslashishi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin hamkorlikni ta'minlash masalalari ustuvor yo'n alish etib belgilangan.

Shuningdek, mazkur Farmonning yana bir ahamiyatli tamoni shundaki, tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitasining xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha «Mo'tabar ayol» ko'krak nishoni joriy etildi. Bu nishon jamiyat va

⁷³ www.stat.uz Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитасининг расмий маълумотлари

davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan xotin-qizlarning rahbatlantirish maqsadida bu ham yurtimizda ayollarga bo'lgan hurmatning belgisi hisoblanadi.

Respublikamizda Xotin-qizlar faoliyatini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 iyundagi "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3785-son Qaroriga asosan tuman, shahar hokimi o'rinbosarlari xotin-qizlar qo'mitasi raislari oilani mustahkamlash, ajrimlarning oldini olish, tug'ilish va nikohni o'z vaqtida qayd etish, targ'ibot va ma'rifat ishlari bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rishga shaxsan mas'ul etib belgilangan.

Mazkur Qarorga asosan tuman, shahar FHDYo bo'l imlari mudiralari qayd qilinayotgan fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlarining qonuniyligi uchun shaxsan mas'ulligi, shuningdek ular bugungi kunda nafaqat qayd qiluvchi organ, balki, oila institutini mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va oilaviy ajralishlarning oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarda faol ishtirok etishlari belgilab berildi.

218 yil davomida respublika FHDYo bo'limlari tomonidan 773 ming 520 nafar bolalarga tug'ilganlik haqidagi guvohtonmalar topshirildi, 331 ming 379 ta nikoh qayd etilib, nikoh tuzilganligi haqidagi guvohtonmalar o'z egalariga topshirildi.

Shuningdek xotin-qizlar qo'mitalari, FHDYo bo'l imlari xodimlari boshqa mutasaddi idoralar hamkorligida oilalarni mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni yaxshilash, nikohdan ajralishlarni oldini olish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, namunali oilalarni targ'ib qilish ishlari muntazam ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, barcha FHDYo bo'limlari tomonidan 2018 yil davomida joylarda 4353 ming marotaba "Oila Dorilfununi" o'quv mashg'ulotlari o'tkazilib, unda 281 ming 947 ta nikohlanuvchi shaxslar qamrab olindi.

Shu bilan bir qatorda kollej va litsey hamda umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari bilan psixolog, tibbiyot xodimlari, diniy ulamolar ishtirokida 4 ming 134 marotaba "Yosh oila quruvchilar maktabi" o'quv kurslari o'tkazilib, unda 184 ming 062ta ishtirokchilar qatnashdi.

Shuningdek, ishtirokchi yoshlarga oila qadriyatlarini, oiladagi mas'uliyat, uning huquqiy asoslari va tibbiy savodxonlik haqida tushunchalar berildi.


Bundan tashqari 3 ming 433 marotaba xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha mutaxassislar va "Oila" ilmiy amaliy tadqiqot markazi xodimlari bilan o'quv mashg'ulotlari olib borilib, unda 118 ming 498ta ishtirokchi qatnashdi.

Aniqroq qilib ko'rsatadigan bo'lsak, 5 ming 826 marotaba MFYlarda, 1 ming 256 marotaba korxonalar va muassasalarda, 1 ming 729 marotaba ta'lim muassasalarida, o'quv-seminarlar tashkil qilinib ma'ruzalar o'qilgan, 812 marotaba radio va televideniyalarda ko'rsatuvlarda chiqish qilinib, 665 marotaba bosma nashrlarda maqolalar berilgan, shuningdek barcha hamkor tashkilotlari bilan birgalikda 3 ming 502 marotaba sayyor qabullar o'tkazilgan.

Natijada 2018 yil davomida xududlarda 26585 ta yarashtiruv ishlari olib borilgan va 17851 ta oilalarni saqlab qolishga erishilgan, yolg'iz ona arizasiga asosan tug'ilishni qayd etish holatlari

ФХДЁ ходимлари ва ҳамкор ташкилотлар томонидан ўтказилган тарғибот ишлари

- "Oila dorilfununi" o'quv mashg'ulotlari 4353
- "Yosh oila quruvchilar" maktabi o'quv kurslari 4134
- xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash b'uyicha mutaxassislar bilan hamkorlikda o'tkazilgan o'quv seminarlari 3433



o'tgan yilga nisbatan 1 ming 182 taga, otalik belgilashlar soni 1 ming 347 taga kamaygan. Lekin, olib borilgan bir qator ijobiy ishlarga qaramasdan 2018 yil davomida, 2017 yilga nisbatan ajrimlar soni 397 taga ko'paygan.

Ajrimlar natijasida 24 ming 499 ta voyaga etmagan yosh bolalar yoki ota yoki onaning to'laqonli mehri va qarovidan mahrum bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 iyundagi PQ-3785-sonli "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida belgilangan vazifa va tadbirlarni bajarish yuzasidan qabul qilingan "Qo'shma ko'rsatma"ning 4-bandiga asosan "2019 yilning 1-iyuliga qadar qayd etilmagan tug'ilganlik, o'lim holatlarini aniqlash nuqtai nazaridan to'liq xatlovdan o'tkazilishi, uning natijasida tug'ilganlik, o'lim holatlarini qonun hujjatlariga muvofiq manzilli qayd etilishini ta'minlanishi belgilangan"ligi sababli barcha tadbirlar amalga oshirilgan, ushbu tadbirlar natijasiga ko'ra farzandiga tug'ilganlik haqidagi guvohnoma olmagan ota-onalarga 16 ming 364 tug'ilish, noqonuniy oila kurib yashayotgan er-xotinlarga 15 ming 371 nikoh, hamda o'z vaqtida o'lim guvohnomasi olinmagan vafot etganlarning yaqinlariga 1902 ta o'lim guvohnomasi rasmiylashtirilib, taqdim etildi.

Shuningdek, Respublikamiza Xotin-qizlar faoliyatini takomillashtirish borasida "Qizlarjon" klubi tashkil etildi. Mazkur klub Respublikamizdagi barcha ta'lim muassasalari, mahallalar, korxonalar va tashkilotlarda yosh qizlarning ma'naviyatini yuksaltirish, iqtidorli qizlar safini kengaytirish, ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida jamoatchilik asosida "Qizlarjon" klublari tashkil etilgan.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan to'garaklar faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish bo'yicha 2018-2019 o'quv yilida "Qizlarjon" klublarining yagona rejasi xududlarga ijro uchun yo'naltirildi.

Klublar faoliyatining asosiy maqsadi qizlarni odob-axloq tamoyillari asosida tarbiyalash, ularni oilaga tayyorlash, kasb-hunarga o'rgatish, kiyinish va muomala madaniyatini, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini yuksaltirish, ongi va qalbini turli g'oyaviy tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan.

"Qizlarjon" klubi faoliyati orqali faol va iqtidorli qizlar safini kengaytirish, o'zaro hamkorligini mustahkamlash, ularning xalqimizning odob-axloq me'yorlari, milliy qadriyatlarimiz hamda istiqloq g'oyalari hurmat ruhida tarbiyalash, oilaviy hayotga tayyorlash, turli yot g'oyalar, "ommaviy madaniyat" ta'siriga tushib qolishlarining oldi olinmoqda.

Mashg'ulotlarda talaba va o'quvchi qizlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, pazandalik, bichish-tikish singari ro'zg'or yumushlarini, shuningdek, gigiena va sog'lom turmush tarzi qoidalari amal qilish, mustaqil hayotga tayyorgarlik borasidagi bilim va ko'nikmalarni puxta o'zlashtirib olishlari uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

Klub yetakchilari tomonidan "Tengdosh-tengdoshga" shiori ostida olib borilayotgan targ'ibot va tushuntirish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu bilan har bir qiz ilg'or o'quvchilar safida yurishga, o'qishda, jamoat ishlarida faol bo'lishga intilmoqda.

Bundan tashqari, 2019 yilning birinchi yarim yiligi holatiga ko'ra Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 100 milliard so'm ajratildi. Joriy yilning 6 oyi davomida ushbu mablag'larning 41 foizi o'zlashtirilib, xotin-qizlar tomonidan 1 ming 755 ta loyiha amalga oshirildi va 2 ming 240 ta ish o'rni yaratildi.

Shuningdek, 2019 yil 23 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Prezidentimiz yig'ilishda maktab ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritarkan, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir" degan fikrini alohida ta'kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to'xtaldi.

Ma'lumki, murakkab o'tish yillarida maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy muhit, o'qituvchi kasbining obro'yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika

fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga etarli e'tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Keyingi yillarda ana shu muammolarni samarali hal etish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan xalq ta'limi tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning huquqiy-me'yoriy asoslari mustahkamlandi. Ota-onalar, jamoatchilikning istaklari inobatga olinib, yurtimizda 11 yillik maktab ta'limi tizimi tiklandi. So'nggi uch yilda yurtimizda 157 ta umumta'lim maktabi yangidan qurildi.

Ulug' allomalarimiz nomlari bilan atalgan ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta'lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Pedagog xodimlar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda. Oxirgi 3 yilda o'qituvchilarning ish haqi o'rtacha 2,5 barobar oshirildi.

Ammo amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'lim tizimida hamon tizimli muammolar borligi, maktablarning moddiy-texnik bazasi, ayrim pedagog xodimlarning bilim va malakasi bugungi zamon talablariga javob bermasligi yig'ilishda tanqid qilindi. Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etildi. Maktablardagi kamchiliklarni tuzatish, ta'lim sifatini nazorat qilish uchun ota-onalar, keng jamoatchilikning ishtiroki zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

Videosektor yig'ilishida xalq ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, muammolarni kompleks hal etish masalalari chuqur tahlil qilinib, kelgusidagi vazifalar muhokama etildi.

Davlatimiz rahbari o'qituvchining maqomi va nufuzini oshirish, huquqlari va imtiyozlarini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Ikkinchi tomondan, o'qituvchi va murabbiylarning o'zi ham bilim va kasb mahoratini oshirish, jamoat ishlarida faol ishtirok etish, halol mehnati va tashabbuskorligi bilan bu kasbning obro'sini oshirishi kerakligiga urg'u berildi.

Yig'ilishda pedagogika yo'n alishidagi oliy o'quv yurtlari faoliyatini tanqidiy o'rganib, takomillashtirish, ularni eng nufuzli ta'lim muassasalariga aylantirish, pedagoglikka moyilligi bo'lgan yoshlarni maqsadli tarbiyalab borish bo'yicha vazifalar belgilandi. Unda ishtirok etgan rahbar va mutasaddilar, ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan tajribali va fidoyi muallimlar, ziyolilar, mahalla faollari muhokama qilingan masalalar yuzasidan o'z fikr-takliflarini bildirdilar.

Prezidentimiz "El-yurt taqdiriga befarqlik - xiyonatdir", "yo sadoqat, yo xiyonat", "yo hozir, yoki hech qachon", "xalqimiz, vijdon oldida javobgarlikni his qilgan holda ishlashimiz kerak", "Biz endi jamiyatimizda o'qituvchilarni «siz»lab, ularning sha'ni va hurmatini boshimizga ko'taradigan, ularni tom ma'noda kelajak bunyodkorlari, deb ulug'laydigan muhitni yaratishimiz zarur" degan so'zlarini amaliyotga keng joriy etish

3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli o'zgarishlar tahlili.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisi uchun sifatli va zamonaviy uy-joylar qurish hamda aholini keng ko'lamli uy-joylar bilan ta'minlash dolzarb vazifa sifatida quyilmoqda. Uy-joylar qurilishi natijasida o'z shaxsiy xonadoniga ega bo'lgan xalqimizda azaldan qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Bunda uy-joyga shunchaki ko'chmas mulk yoki vaqtinchalik boshpana emas, balki vatan ichidagi mo'jaz vatan sifatida munosabatda bo'linadi. Shu bois, ham yurtimizdagi har bir oila moddiy sharoiti, ijtimoiy ahvoli va darajasidan qat'i nazar o'z shaxsiy uyiga ega bo'lishini istaydi.

Mamlakatimiz aholisi uchun sifatli va zamonaviy uy-joylar qurish hamda aholini keng ko'lamli uy-joylar bilan ta'minlash dolzarb vazifa sifatida quyilmoqda. Uy-joylar qurilishi natijasida o'z shaxsiy xonadoniga ega bo'lgan xalqimizda azaldan qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Bunda uy-joyga shunchaki ko'chmas mulk yoki vaqtinchalik boshpana emas, balki vatan ichidagi mo'jaz vatan sifatida munosabatda bo'linadi. Shu bois, ham yurtimizdagi har bir oila moddiy sharoiti, ijtimoiy ahvoli va darajasidan qat'i nazar o'z shaxsiy uyiga ega bo'lishini

istaydi. Bugungi kunda respublikamizning qaysi hududiga borsangiz, albatta bo'layotgan bunyodkorlik ishlaridan, zamonaviy uy-joy va binolarning qurilishidan hayratlanmay ilojingiz yo'q. Hozirda eski shahar o'rnida yangi va zamonaviy uyjoylar va aholiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlarining xizmat ko'rsatish sifatini yuqoriligi hayratimizni yanada oshiradi. Bu borada, mamlakatimiz Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ijtimoiy sohani isloh qilish masalalariga alohida e'tibor qaralib, "O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining g'oyat muhim yo'nalishi bo'lgan ijtimoiy sohani isloh qilish bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi ham bosqichma-bosqich ta'minlanmoqda"⁷⁴-deb ta'kidlandi.

Mamlakatimiz Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, 2017-2021 yillarda respublikamizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'n alishlari belgilab berildi. Shuningdek, Harakatlar strategiyasi hamda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib har yili qabul qilinadigan Davlat dasturining 4 yo'n alishida "Arzon uy-joylar qurish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l - transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish" belgilanin kelinmoqda.

Bevosita davlat rahbarining tashabbusi bilan O'zbekistonning ko'p millatli xalqining talab va istaklarini inobatga olib, 2017 yilda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joylar qurish loyihasini amalga oshirishga kirishildi.

Uy-joy qurilish borasida Uy-joy Kodeksida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlarida, hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlarida, soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot olib borilayotganligi ham ushbu mavzuning yanada dolzarbligini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 yanvardagi "2017 — 2020 yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruktsiya qilish dasturini samarali amalga oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2728-sonli qarorida joriy yilda yosh oilalarning, eskirgan uylarda yashovchilarning hamda uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan boshqa toifalardagi fuqarolarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash yuzasidan qabul qilingan qarorlarga muvofiq Toshkent shahrida va respublikaning boshqa shaharlarida maydoni 554,8 ming kvadrat metr bo'lgan 191 ta ko'p kvartirali uylar qurilishi va rekonstruktsiya qilinishi amalga oshirilmoqda⁷⁵.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 21 oktyabrdagi "2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namonaviy loyihalar bo'yicha arzon uyjoylar qurish dasturi to'g'risida"gi Qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur qaror ijrosi qishloq aholisining keng qatlami uchun zamonaviy va shinam uylardan foydalanish darajasini tubdan oshirishga, er resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashga va qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurilishini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda⁷⁶.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 oktyabrdagi "2017-2020 yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruktsiya qilish dasturini samarali amalga oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3350-sonli qarori va mazkur masalaga doir qator hujjatlar bu sohadagi ishlarni samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda⁷⁷.

Keyingi yillarda respublikada qishloq aholi punktlarining me'moriy qiyofasini yaxshilash, namonaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joylar qurish hisobiga qishloq aholisining hayot darajasi va sifatini oshirish, qishloqda muhandislik va transport kommunikatsiyalarini, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini jadal rivojlantirish bo'yicha ko'l amli ishlar amalga oshirildi. Faqat

⁷⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.

⁷⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони // Халқ сўзи 2017 й. 08.02. № 28 (6722).

⁷⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқсўзи 2017 й. 23.12.

⁷⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 13 январдаги "2017 -2020 йилларда шаҳарларда арзон кўп квартирали уйлارни қуриш ва реконструкция қилиш дастурини самарали амалга ошириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-2728-сонли қарори.

2009-2016 yillarda qishloq joylarda 1308 turar joy massivida umumiy maydoni 9 million 573 ming kvadrat metr bo'lgan 69 557 ta shinam uy-joy qurildi. Qishloqlardagi 83,5 mingdan ortiq oilaning yashash sharoiti yaxshilandi⁷⁸.

2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi doirasida qishloq joylarda arzon uy-joylar toifasiga — hovlidagi imoratlar va obod hovlilar bilan birgalikda ikki, uch qavatli ko'p kvartirali (2-3 xonali) uylar va 0,02 gektar o'lgan er uchastkalarida aholi zich tumanlarda joylashtiriladigan hovlisida imoratlari bo'lgan bir qavatli 2 va 3 xonali uylar kiritilgan.

Shaharlardagi arzon uy-joylarning narxi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 16 yanvardagi 14-sonli "Ko'p kvartirali uyjoylarni qurilishi va rekonstruksiyasini moliyalashtirish, shuningdek yosh oilalarga, eskirgan uy-joylarda yashovchi hamda boshqa toifadagi uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj fuqarolarga ko'p kvartirali uy-joydagi kvartiralarni realizatsiya qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori bilan tasdiqlangan.

Unga ko'ra, ko'p kvartirali uy-joylardagi kvartiralar buyurtmachi – "O'zshahar qurilish invest" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan taqdim etilgan har bir kvartira bo'yicha alohida, ko'p kvartirali uyning qurilishi yoki rekonstruksiyasini moliyalashtirish va realizatsiya qilish bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlar o'z ichiga olgan ma'lumotnomada belgilangan narxlarda realizatsiya qilinadi.

2017 yilda yosh oilalarning, eskirgan uylarda yashovchilarning hamda uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan boshqa toifalardagi fuqarolarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash yuzasidan qabul qilingan qarorlarga muvofiq Toshkent shahrida va respublikaning boshqa shaharlarida maydoni 554,8 ming kvadrat metr bo'lgan 191 ta ko'p kvartirali uylar qurilishi va rekonstruksiya qilinishi amalga oshirildi.

Xalqaro moliya institutlari mablag'larini turar-joy qurilishini rivojlantirish bo'yicha dasturlarni moliyalashtirishga jalb etish ko'rsatkichlarini tahliliy nuqtai nazardan ko'radigan bo'lgan sak, aynan 2017-2021 yillarda qishloq uylari qurilishiga, ko'p kvartirali uylar qurilishiga hamda qishloq massivlari infratuzilmasi qurilishiga jami 1280,0 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag' jalb qilinishi rejalashtirilmogda(2-jadval).

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari rahbarlarining zimmasiga arzon ko'p kvartirali uylar, tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, infratuzilma obyektlari o'z vaqtida foydalanishga topshirilishi, hududlar obodonlashtirilishi, shuningdek, fuqarolar kvartiralarga joylashtirilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatilishi belgilab qo'yildi.

4-jadval

Xalqaro moliya institutlari mablag'larini turar-joy qurilishini rivojlantirish bo'yicha dasturlarni moliyalashtirishga jalb etish ko'rsatkichlari, (mln. AQSh dollari)⁷⁹

№	Xalqaro moliya institutlari	Hammasi	Shu jumladan					Mablag'larni yo'naltirilishi
			2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	
	Jami	1280	218	469	393	100	100	
1	Osiyo taraqqiyot banki	500	100	100	100	100	100	Qishloq uylari qurilishiga

⁷⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 21 октябрдаги "2017-2021 йилларда қишлоқ жойларда янгиланган намунавий лойиҳалар бўйича арзон уй-жойлар қуриш дастури тўғрисида"ги ПҚ-2639 сонли қарори // "Халқ сўзи", 2016 йил 25 октябр

⁷⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 23 октябрдаги "2017-2020 йилларда шаҳарларда арзон кўп қвартирали уйларни қуриш ва реконструкция қилиш дастурини самарали амалга ошириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-3350-сонли қарори.

		200	-	100	100	-	-	Ko'p qavatli uylar qurilishiga
2	Islom taraqqiyot banki	300	113	94	93	-	-	Qishloq uylari qurilishiga
3	Arab iqtisodiy rivojlanishining Quvayt fondi	30	5	25	-	-	-	Qishloq massivlari infratuzilmasini qurilishiga
4	Saudiyaning taraqqiyot fondi	50	-	50	-	-	-	Qishloq uylari qurilishiga
5	Turkiyaning "Ziroat" davlat banki	200	-	100	100	-	-	Ko'p qavatli uylar qurilishiga

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Osiyo taraqqiyot banki bilan birgalikda "Ipoteka-bank" ATIB, "Asaka-bank" ATB va "O'zsanoatqurilishbank" ATB uchun ipoteka kredit resurslari berilishini nazarda tutuvchi "O'zbekistonning ipoteka bozorini kengaytirish" loyihasi tayyorlanmoqda, shuningdek, 3-jadvalga muvofiq, Turkiyaning "Ziroat" davlat banki qarzini jalb etish masalasi ishlab chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 oktyabrdagi "2017-2020 yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini samarali amalga oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3350-sonli Qarorida arzon ko'p kvartirali uylarda kvartira sotib olish uchun boshlang'ich badalning o'rtacha miqdori 25 foiz darajasida saqlanishi va kvartiralarni qavatlar bo'yicha taqsimlashda suiiste'molchilik faktlarining oldini olish maqsadida, muvofiq, kvartiralarni yosh oilalarga, eskirgan uylarda yashovchilarga va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj boshqa toifadagi fuqarolarga sotish shartlari asosida boshlang'ich badalning tabaqalashtirilgan miqdori amaliyotga tatbiq etilishi belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, bugungi kunda mamlakatimizda aholining hayot sharoitlar va turmush farovonligini oshirish maqsadida shahar va qishloq joylarida yo'l-transport, muxandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda moderinatsiyalash qatori ishlar olib borilmoqda. Bu borada ja qulaylik yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, 2017-2021 yillarda respublikamizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'n alishning 4 yo'n alishda alohida beligilangan bo'lib ushbu vazifani bajarish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda olis qishloqlarda istiqomat qilayotgan oddiy odamlarning yashash sharoitini yaxshilashga etarlicha shart-sharoitlar yaratish maqsadida Davlatimiz rahbarining 2018 yil 29 martdagi "Obod qishloq dasturi to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, joriy yilda har bir tumanda 2 tadan qishloqda, keyingi yildan boshlab esa har yili har bir tumanda 3 tadan qishloqda keng ko'l amlil qurilish-obodonlashtirish ishlari amalga oshirish belgilandi.

2018 yilda "Obod qishloq" dasturi doirasida respublikaning 159 ta tumanidagi 417 ta qishloqning me'moriy qiyofasini tubdan yangilash va hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida ulardagi yo'l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarida qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

2021 yil davlat Dasturida mamlakatimizda jami 45 oilaga mo'ljallangan 54 ming uy-joy qurilishi rejalashtirilib, bunga 11 trillion so'm mablag' ajratildi. Bu esa 2016-2020 yillarda mobaynida sohaga ajratilgan mablag' bilan teng.

2020 yil aholini ijtimoiy himoya qilish borasida tub burilish yili bo‘ldi, desak, mubolag‘a bo‘l maydi.

Avvalo, aholining muayyan qatlami o‘rtasida kambag‘allik mavjudligini birinchi marta tan olib, uni qisqartirish bo‘yicha keng qamrovli ishlarni boshladik.

Barcha tuman va shaharlarda, har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi – “temir daftar” tizimi joriy etildi. Qisqa muddatda bu tizim orqali 527 ming fuqaroning bandligi ta‘minlandi.

Bundan tashqari, o‘zini o‘zi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi hamda ko‘pgina cheklovlarning bekor qilinishi tufayli 500 ming nafar fuqaro mehnat faoliyatini qonuniy tarzda yo‘lga qo‘ydi.

Dehqon xo‘jaligi va tomorqa yer egalari 300 milliard so‘m imtiyozli kredit va subsidiya ajratilgani ham qishloq aholisini ijtimoiy qo‘l lab-quvvatlashda yangi yo‘n alishga aylandi.

Toshkent shahri, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarida tashkil etilgan “IT-parklar”da 500 dan ortiq zamonaviy kompaniyalar ish boshladi.

Yakunlanayotgan 2020 yilda markazlashgan ichimlik suv ta‘minotini yaxshilash uchun 3 trillion so‘m yoki 2016 yilga nisbatan 5 barobar ko‘p mablag‘ ajratildi. Natijada aholining toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanish darajasi 73 foizga yetdi.

Birgina joriy yilda ijtimoiy nafaqa oluvchilar qamrovi 2 barobarga oshirilib, 1 million 200 ming nafarga etkazildi. Ushbu maqsadlarga byudjetdan 2016 yilga nisbatan 5 barobar ko‘p mablag‘ ajratildi.

Kichik yoshdagi bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish darajasi 4 yil davomida 2 barobar ortib, 60 foizga yetdi. Bog‘chalar soni esa 3 barobarga ko‘payib, 14 mingdan oshdi.

Bu yil oliy ta‘limga qabul parametrlari 2016 yilga nisbatan 2,5 barobarga o‘tdi, yoshlarimizni oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 25 foizga yetdi.

Ehtiyojmand oilalarning mingga yaqin qizlari ilk bor oliy o‘quv yurtlariga alohida davlat grantlari asosida qabul qilindi.

O‘zbekiston “Ochiq ma‘lumotlarni kuzatish” xalqaro indeksida 125 pog‘onaga ko‘tarilib, 44-o‘rinni egalladi. Bunda davlat va jamiyat boshqaruvi sohasidagi 20 ta yo‘n alish bo‘yicha ko‘rsatkichlarni oshkor qilib borish amaliyoti joriy etilgani muhim ahamiyat kasb etdi.

“Iqtisodiy erkinlik” reytingida ham mamlakatimizning 26 pog‘ona ko‘tarilgani islohotlarimizning xalqaro maydondagi yana bir e‘tirofi bo‘ldi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini yuritish ustuvor vazifalardan biridir.

Ana shu muhim yo‘n alishlarda boshlagan ishlarimizni davom ettirish va yangi, yuksak bosqichga ko‘tarish maqsadida kirib kelayotgan 2021 yilga mamlakatimizda **“Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”**, deb nom berishni taklif etaman.

2021 yil nomida belgilangan sohalarni tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagi keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishimiz lozim.

Birinchidan, bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo‘lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi.

Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta‘lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – bog‘cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta‘lim yo‘nalishi bilan to‘liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat.

Kelgusi yil yakuni bilan maktabgacha ta‘lim qamrovini 65 foizga, 2023 yil oxirida esa 75 foizga yetkazishimiz kerak. Bu ishlarga byudjetdan 600 milliard so‘m subsidiya berish hisobidan qo‘shimcha ravishda 2 mingta nodavlat bog‘cha tashkil etilib, xususiy sektor ulushi 25 foizga yetkaziladi.

Shuningdek, 2021 yilda maktabga tayyorlashning bepul tizimi bilan 560 ming nafar 6 yoshli bolalar yoki ularning 82 foizi qamrab olinadi.

Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'limning muqobil shakllari yanada kengaytiriladi. Bunda YUNISEF hamda Jahon banki bilan hamkorlikda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktabgacha ta'limni uyda berish modeli ham yo'lga qo'yiladi.

Ikkinchidan, maktab ta'limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish, muallimlarga munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar jadal davom ettiriladi.

Kelgusi yili 30 ta yangi maktab qurish, 320 ta maktabni ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida byudjetdan 2 trillion so'm ajratiladi.

Sohada yagona "elektron ta'lim" tizimini joriy etishga kelgusi 2 yilda 250 milliard so'm yo'naltiriladi.

Ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchi va domlalar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish lozim.

Bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazzamon va tushunarli darsliklar yaratish zarur. Bu borada kelgusi o'quv yilida boshlang'ich sinflarda davlat ta'lim standarti o'rni, ilg'or xorijiy tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan "Milliy o'quv dasturi" joriy etiladi.

Umumta'lim maktablaridagi ta'lim sifati poytaxtda ham, olis qishloqlarda ham yuqori bo'lishi shart. Buning uchun chekka hududlarda maktablarni malakali kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha alohida dastur amalga oshiriladi. Jumladan, boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan o'qituvchilar oyligiga 50 foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa – 100 foiz ustama haq to'lanadi.

Shuningdek, hududlarda xususiy maktablar faoliyatini rag'batlantirish uchun byudjetdan subsidiyalar ajratiladi.

Yoshlarning iqtidori va salohiyatini to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan uzluksiz tizim yaratiladi.

Kelgusi yilda yurtimizda 10 ta Prezident maktabi, kimyo-biologiya, matematika, axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan 197 ta maktab o'z faoliyatini boshlaydi.

Iqtidorli o'g'il-qizlarimizning yuqori texnologiyalar va bilimlarni chuqur o'zlashtirishiga keng sharoit yaratish hamda raqobatbardosh milliy kadrlarning yangi avlodini tayyorlash maqsadida Toshkent shahrida yangi zamonaviy universitet tashkil etamiz. Ushbu oliygohda chet eldagi etakchi olimlar va professor-o'qituvchilar jalb qilinib, yoshlarga eng zamonaviy dasturlar asosida ta'lim-tarbiya beriladi.

Bolalarimizning mehnat ko'nikmalarini maktab davridan boshlab shakllantirib borish maqsadida "kasbga o'rgatish tizimi" joriy etiladi.

Yana bir masala – pedagoglar malakasini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ma'lumki, muallimlar hozirgi vaqtda har 5 yilda malaka oshiradi. Bundan buyon ularning "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida o'z malakasini uzluksiz oshirib borishi yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, o'qituvchilarning o'z fanini bilishi, pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligidan kelib chiqib, toifa berish mezonlari ham qayta ko'rib chiqiladi.

Yana bir bor takrorlayman, jamiyatda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'lishi lozim. Muallimlarimiz bolalarga sifatli ta'lim berish va o'z ustida ishlashdan boshqa narsa haqida o'ylamasligi uchun davlat barcha sharoitlarni yaratib berishi zarur. Shu bois o'qituvchi, murabbiy va metodistlar mehnatiga munosib haq to'lash bo'yicha boshlagan ishlarimiz kelgusi yilda ham davom ettiriladi. Buning uchun xalq ta'limi xodimlarini rag'batlantirish hududiy jamg'armalariga 330 milliard so'm yo'naltiriladi.

Shu bilan birga, 240 mingdan ziyod maktab o'qituvchilariga sinf rahbarligi uchun ustama to'lovlar 1,5 barobarga oshirilib, byudjetdan 400 milliard so'm qo'shimcha mablag' ajratiladi.

Uchinchidan, oliy ta'limning qamrovi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Keyingi yildan boshlab oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshiriladi.

Oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingga yetkazamiz. A'lo baholarga o'qiyotgan, ijtimoiy himoyaga

muhtoj qizlar uchun maxsus stipendiyalar joriy etiladi. Hozirgi vaqtda yoshlar eng nufuzli oliygohlarga kirish uchun intiladi, lekin oliy o'quv yurtlari o'rtasida bilimli va iqtidorli yoshlarni jalb qilish bo'yicha raqobat yo'q. Shu sababli xususiy oliygohlarga ham zarur mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmasi berish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Oliygothlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'in lari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkaziladi. Shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'n alishi bo'yicha turdosh oliygoth va tarmoq korxonalariga birlashtiriladi.

Nufuzli xorijiy universitetlar, ilmiy va innovatsion markazlar bilan aloqalarni kuchaytirish, ular bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirishimiz zarur.

Shu munosabat bilan kelgusi yilda "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlarining magistratura va doktoranturasida o'qishga yuboriladigan yoshlar soni 5 barobarga oshiriladi. Bu dastur orqali ilk bor bakalavr yo'n alishida chet ellarga 100 nafar o'g'il-qizlarimizni yuboramiz. Keyingi yillardan ularning soni 2-3 barobarga ko'paytiriladi.

Yangi yilda yurtimizdagi 30 ta yetakchi oliygothga o'quv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi beriladi.

To'rtinchidan, mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalardir.

Kelgusi yilda ilm-fan sohasida oliygothlar va ilmiy tashkilotlardagi doktorantlar soni 4,5 mingga yetkaziladi yoki 2017 yilga nisbatan 3 barobarga oshiriladi. Ushbu maqsadlar uchun byudjetdan qo'shimcha 240 milliard so'm ajratiladi.

Ilg'or xalqaro amaliyot asosida dotsent va professor ilmiy unvonlari, falsafa va fan doktori ilmiy darajalarini berish vakolati o'z yo'nalishi bo'yicha nufuzli bo'lgan oliygothlarning ilmiy kengashlariga o'tkaziladi.

Prezidentimizning 2020 yil 29 dekabr kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlar sohasida quyidagilar belgilandi:

Ehtiyojmand oilalarning farzandlari, chin yetim, nogironligi bo'lgan va davolanishga muhtoj bolalarga alohida mehr-muruvvat ko'rsatish bo'yicha yangi tizim joriy etiladi.

Hozirgi kunda respublikamizda alohida e'tiborga muhtoj 18 yoshgacha bo'lgan 150 ming nafar farzandlarimiz bor. Ularning ta'lim olishi, aniq bir kasbni egallashi uchun ko'maklashish, og'ir kasallikka chalinganlarni davolash, chin etimlarga hayotda o'z o'rmini topishga yordam berish, uy-joy bilan ta'minlash – nafaqat vazifamiz, avvalo, insoniy burchimizdir.

2021 yilda birinchi marta byudjetdan 900 nafar chin yetim yoshlarni uy-joy bilan ta'minlashga 50 milliard so'm ajratiladi.

Umuman, bunday ezgu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish uchun Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondini tashkil etib, unga byudjetdan 100 milliard so'm yo'naltirsak, o'ylaymanki, sizlar ham bu tashabbusni qo'llab-quvvatlaysiz. Bu mablag'lar yil davomida ko'paytirib boriladi.

Bu tashabbus umumxalq harakatiga aylanishi, saxovatpesha hamyurtlarimiz ushbu xayrli ishga munosib hissa qo'shishiga ishonchim komil.

Oliy Majlis palatalari Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini qonun darajasida mustahkamlab, bu borada faollik ko'rsatgan yurtdoshlarimizni rag'batlantirishni ham nazarda tutishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, Bolalar Ombudsmani to'g'risidagi qonunni qabul qilishning ham vaqti-soati keldi.

Umuman yoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha yuqorida qayd etilgan forumda juda ko'plab masalalar yechimini kelishib oldik. Shuning uchun bugun ular to'g'risida batafsil to'xtalmadim.

Barchamiz uchun endigi vazifa – ushbu tashabbus va takliflarni to'liq amalga oshirishdan iborat.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

2021 yil uchun yana bir muhim yo'nalish sifatida belgilangan tibbiyot sohasida quyidagi ustuvor vazifalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Birinchiidan, kelgusi yilda ham koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashni tizimli ravishda davom ettirish – eng muhim vazifalarimizdan biri bo'ladi.

Bu ishlar uchun 2021 yil davlat byudjetida 3 trillion so‘m zaxira shakllantirildi. Ushbu mablag‘lar hisobidan, albatta, aholini koronavirusga qarshi emlash tadbirlari ham amalga oshiriladi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati sifatini oshirish, uning moddiy-texnik bazasini yaxshilash va zamonaviy laboratoriyalar tashkil etishga 200 million dollar yo‘naltiriladi.

Pandemiya saboqlaridan kelib chiqqan holda, tibbiyot sohasini raqamlashtirish ko‘lami yanada kengaytiriladi. Jumladan, barcha tibbiyot muassasalarida masofaviy xizmatlarni ko‘paytirish, poliklinika va kasalxonalarini elektron ish yuritishga o‘tkazish choralari ko‘riladi. Shuningdek, respublika ixtisoslashgan tibbiyot markazlari va ularning filiallari o‘rtasida telemeditsina yo‘lga qo‘yilib, diagnostika va davolash uchun joylardagi imkoniyatlar yanada kengaytiriladi.

Ikkinchidan, ona va bola sog‘lig‘iga e‘tibor – jamiyatga, kelajakka e‘tibordir.

Shu maqsadda keyingi yildan boshlab 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar va homilador ayollarga 7 turdagi vitaminlar, bolalar uchun parazitlar kasalliklarga qarshi dori vositalari bepul tarqatiladi. Bu jarayon bilan 2021 yilda – 11 million nafar, 2022 yilda – 17 million nafar aholi qamrab olinadi va bu ishlarga 100 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltiriladi.

Ayollar va bolalarni yod, temir, foliy kislotasi, vitaminlar va parazitlarga qarshi dorilar bilan bepul ta‘minlash orqali aholi o‘rtasida kamqonlik 25 foizga kamaytiriladi.

Uchinchidan, tibbiyotning birlamchi bo‘g‘inini kuchaytirish, ayniqsa, qishloq va mahallalarda tibbiy xizmatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish zarur.

Bu borada birlamchi bo‘g‘in da umumiy amaliyot shifokori o‘rniga oilaviy shifokor va unga yordamchi sifatida 5 nafar o‘rta tibbiyot xodimidan iborat “tibbiy brigadalar” tashkil etiladi.

Har bir mahallada, eng avvalo, 5 yoshgacha bolalar, shuningdek, tug‘ish yoshidagi va homilador ayollar, nogironligi bo‘lganlar, qon-tomir, onkologik, endokrin kabi kasalliklarga moyilligi bo‘lgan fuqarolar bilan ishlashning alohida tizimi joriy etiladi.

Shu bilan birga, davlat tomonidan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari ro‘yxati qayta shakllantirilib, ular bilan aholini kafolatli ta‘minlash tizimi bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, tibbiy xizmatlar ko‘rsatishda birlamchi bo‘g‘in qamrovini kengaytirish maqsadida kelgusi 3 yilda 315 ta “oilaviy shifokor” punkti va 85 ta oilaviy poliklinika ishga tushiriladi.

Bundan tashqari, “qishloq shifokori” dasturi doirasida olis hududlarda ish boshlaydigan mingdan ortiq vrachga 30 million so‘mdan yordam puli beriladi hamda ular xizmat uylari bilan ta‘minlanadi.

Olis va chekka hududlarda birlamchi va ixtisoslashgan tibbiy yordam ko‘rsatish va ehtiyojmand aholi uchun skrining tadbirlariga xususiy shifoxonalar ham jalb etilib, ularga subsidiya ajratiladi.

O‘rta bo‘g‘in tibbiyot xodimlari – hamshira va feldsherlarning obro‘si va mavqeini oshirishga alohida urg‘u beramiz. Jumladan, 47 ta Ibn Sino nomidagi texnikumlarni har yili bitiradigan 20 mingdan ortiq o‘g‘il-qizlarimiz tibbiyotning bir nechta sohalarida kasb egasi bo‘lib chiqadi. Shuningdek, o‘rta bo‘g‘in tibbiyot xodimlariga “hamshiralik ishi” bilan mustaqil shug‘ullanish uchun ruxsat beriladi.

To‘rtinchidan, hozirgi kunda 12 mingdan ziyod fuqarolarimiz oq qon va og‘ir irsiy gematologik kasallikdan aziyat chekmoqda.

Shu sababli kelgusi yilda onko-gematologiya sohasi hamda davolash qiyin bo‘lgan kasalliklar bo‘yicha murakkab diagnostika va tibbiy amaliyotlar uchun byudjetdan 250 milliard so‘m ajratiladi.

O‘tkir buyrak etishmovchiligi bo‘lgan 5 mingdan ortiq bemor esa ilk bor bepul gemodializ xizmati bilan qamrab olinadi va shu maqsadlar uchun byudjetdan 140 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Shuningdek, endokrin kasalliklarni aniqlash va davolash maqsadida hududiy shifoxonalarda maxsus bo‘limlar tashkil etiladi. Buning uchun 2021 yilda byudjetdan 150 milliard so‘m ajratiladi.

Yana bir masala – aholimizning katta qismini qiynaydigan o‘tkir qon-tomir kasalliklari bo‘yicha 35 ta tumanlararo markaz tashkil etamiz. Ushbu markazlar aholiga infarkt va insult holatlarida tezkor va malakali tibbiy yordam ko‘rsatish orqali o‘lim va nogironlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu tariqa har yili kamida 30 ming nafar insonning hayoti saqlab qolinadi.

Beshinchidan, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish – aholi salomatligini ta‘minlashda muhim omildir.

Kelgusi yilda 70 ta jismoniy tarbiya va sport muassasasi, 16 mingta bog‘cha va maktablarni sport jihozlari bilan ta‘minlashga 100 milliard so‘m ajratiladi. Shuningdek, barcha tuman markazlari va shaharlarda maxsus piyodalar va velosiped yo‘l aklari barpo etiladi.

Aholini ommaviy sport turlariga keng jalb qilish orqali 2021 yilda qamrov hozirgi 19 foizdan 25 foizga yetkaziladi.

Sport haqida gapirganda, yana bir muhim vazifa oldimizda turganini ta‘kidlab o‘tmoqchiman.

Yaqinda Osiyo olimpiya kengashi 2025 yilda Yoshlar o‘rtasida Osiyo o‘yinlarini Toshkent shahrida o‘tkazish bo‘yicha qaror qabul qildi. Bu mamlakatimizga ko‘rsatilgan katta ishonch, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Ayni vaqtda buning mas‘uliyati ham katta ekanini, o‘ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz. Qit‘amiz miqyosidagi ushbu musobaqaga hozirdan boshlab puxta tayyorgarlik ko‘rishimiz lozim.

Oltinchidan, xalqimizning madaniy-ma‘rifiy hayotini yuksaltirish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi.

Bunda madaniyat va san‘at muassasalari faoliyatini jonlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga byudjetdan 420 milliard so‘m yo‘n altiriladi. Jumladan, hududlarda 22 ta teatr va madaniyat obyekti quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Toshkent shahrining markazida Milliy akademik drama teatri, mashhur yapon arxitektori Tadao Ando loyihasi asosida yangi san‘at muzeyi, zamonaviy kutubxona hamda Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ijod maktabidan iborat madaniyat va ma‘rifat majmuasini barpo etish bo‘yicha amaliy ishlar boshlanadi. Mustaqilligimizning 30 yilligiga bag‘ishlab poytaxtimiz markazida “Istiqlol” majmuasi qad rostlaydi.

Ilgari ko‘p yillar davomida o‘tkazib kelingan Toshkent xalqaro kinofestivali “Ipak yo‘li durdonasi” – Toshkent xalqaro kinofestivali nomi bilan qayta tashkil etiladi.

Shu o‘rinda yana bir muhim masalaga alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman. Boy tariximiz durdonasi bo‘lgan madaniy merosimizni asrab-avaylab, kelajak avlodlar uchun bezavol yetkazishimiz zarur. Hozirgi vaqtda ularning soni 7 mingdan ziyodni tashkil etadi.

Afsuski, keyingi paytlarda bebaho madaniy merosimiz bo‘lgan ayrim obidalarimizga zarar etkazish holatlari uchrayotgani bu borada e‘tibor susayganidan dalolat beradi. Bu ish nafaqat Madaniyat vazirligi, balki mahalliy hokimliklar, mahalla, ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilikning ham diqqat markazida bo‘l ishi kerak.

Hukumat bir oy muddatda madaniy meros obyektlarining hisobini yuritish, saqlash va himoyasini ta‘minlash bo‘yicha alohida dastur qabul qilishi lozim.

Qadrli xalq vakillari!

Yangi yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat bo‘ladi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o‘shish hisobiga erishiladi.

So‘n ggi 4 yilda iqtisodiyotimizning barcha jabhalariga bozor mexanizmlarini joriy etish borasida jiddiy qadamlar tashlandi. Endigi vazifa – chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o‘shishning poydevorini yaratishdan iborat. Shularni inobatga olib, keyingi yilda quyidagi yo‘n alishlarda keng qamrovli ishlarni amalga oshiramiz.

Birinchidan, kambag‘allikni qisqartirish borasida kompleks yondashuv va nostandart usullarni joriy etamiz.

Bir haqiqatni aniq tushunib olishimiz kerak – kambag‘allik masalasi kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish bilan o‘z-o‘zidan hal bo‘lib qolmaydi. Buning uchun ta‘lim, sog‘liqni saqlash,

kasb-hunarga o'qitish, ichimlik suv, energiya va yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq kompleks muammolarni hal etib borish kerak.

Nima uchun biz "temir daftar"ni joriy etdik? Bundan maqsad – ehtiyojmand aholini to'g'ri aniqlash va shu asosda, ular bilan manzilli ishlashni tashkil etishdir.

Kelgusi yildan to'liq ishga tushadigan "Ijtimoiy reestr"da "temir daftar"dagi barcha ma'lumotlar qamrab olinib, ehtiyojmand oilalarga 30 dan ziyod ijtimoiy xizmatlar elektron shaklda ko'rsatiladi.

Birinchi navbatda, kambag'al aholining asosiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlashimiz lozim. Bu masalada xalqaro ekspertlar bilan chuqur tahlil asosidagi hisob-kitoblar yakuniga yetkazilmoqda. Kelgusi yil 1 martdan boshlab aholining minimal iste'mol xarajatlari miqdori e'lon qilinadi.

Hukumat ikki oy muddatda ijtimoiy kafolatlarni bir tizimga keltirib, ularni minimal me'yorlar darajasida bosqichma-bosqich ta'minlash bo'yicha dastur ishlab chiqsin.

"Temir daftar"ga kiritilgan har bir fuqaroni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha "motivatsiya, ko'nikma va moliyaviy ko'mak" tamoyili asosida yangi mexanizm joriy etiladi.

Kambag'allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil – bu insonning intilishi, o'z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo'l ishi kerak. Shu maqsadda kelgusi yili mahallalarda aholini kasb-hunarga o'qitish bo'yicha mingdan ziyod markazlar tashkil etiladi. Bunda kasb-hunarga o'qitilgan har bir shaxs uchun o'quv markazlariga 1 million so'mgacha subsidiya berilib, buning uchun byudjetdan 100 milliard so'm ajratiladi. O'quv kurslarini tamomlab, o'z biznesini boshlamochi bo'lgan fuqarolarga asbob-uskuna xarid qilish uchun 7 million so'mgacha subsidiyalar beriladi.

Shuningdek, har bir tumanning imkoniyati va rivojlanish yo'nalishidan kelib chiqib, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan oilalarga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratiladi.

Ehtiyojmand aholi bandligini ta'minlashga Bandlikka ko'maklashish hamda Jamoat ishlari jamg'armalaridan 500 milliard so'm yo'naltiriladi.

Pandemiya sharoitida o'z ishini yo'qotgan aholini kambag'allikka tushib qolishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Shuning uchun kelgusi yildan boshlab yangicha tizim joriy etiladi. Unga ko'ra, vaqtincha ishsizlik nafaqasi 3 barobar oshiriladi va bunda 6 ta hujjat talab etiladigan eski byurokratik tartib bekor qilinadi.

Kambag'allikni qisqartirish borasida hududlardagi haqiqiy holatga baho berish, amalga oshirilayotgan ishlar ijrosini nazorat qilish Oliy Majlis palatalari va mahalliy Kengashlarning diqqat markazida bo'l ishi lozim.

Har bir tuman va shahar hokimi bir oy muddatda o'z hududida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha manzilli dastur ishlab chiqib, uning ijrosi bo'yicha har chorakda mahalliy Kengashlarda hamda ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa hisobot berib borishi zarur. Bu masala barcha rahbarlarning birinchi darajali vazifasi va ish samarasini baholaydigan asosiy mezonga aylanishi kerak.

Kelgusi yil aholining ijtimoiy himoyasi yanada kuchaytiriladi.

Nogironlikni belgilashning jahon andozalariga mos "ijtimoiy modeli"ga bosqichma-bosqich o'tiladi.

Muhtoj aholini protez-ortopediya buyumlari va rehabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash bo'yicha yangi tizim joriy etiladi. Bu imkoniyatdan qariyb 50 ming nafar yurtdoshimiz foydalanishi mumkin bo'ladi.

Ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha olib borayotgan ishlarimiz ko'lami yanada kengaytiriladi. Bunda 27 mingta yoki bu yilga nisbatan 2,5 barobar ko'p oilaning ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badallarini to'lash va kredit foizlarini subsidiyalash uchun 2,4 trillion so'm yo'naltiriladi.

**1.5/1 –MAVZU: XAVFSIZLIK, MILLATLARARO TOTUVLIK VA
DINIY BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH HAMDA CHUQUR
O‘YLANGAN, O‘ZARO MANFAATLI VA AMALIY TASHQI SIYOSAT
SOHASIDAGI USTUVOR YO‘N ALISHLAR
REJA**

- 1. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish**
- 2. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik masalalari**
- 3. O‘zbekiston Respublikasining o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosati**

1. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish

Tarixdan ma’lumki, har qanday davlatning mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi, xalqning erki va tinchligi uning o‘z armiyasi, Qurolli Kuchlari tomonidan himoya qilinadi. Mustaqilligini, tinchligini asray olgan davlatgina barqaror rivojlanadi, tinchlik, xotirjamlik, osoyishtalik qaror topgan mamlakat gullab-yashnaydi.

Shu bois istiqbolimizning dastlabki kunlarida – 1991 yil 6 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi. 1992 yil 14 yanvar kuni esa mustaqil davlatimiz tarixida yana bir muhim qadam qo‘yildi. Shu kuni mamlakatimiz hududidagi barcha harbiy qism va bo‘linmalarni O‘zbekiston yurisdiksiyasiga o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Qurolli Kuchlarning mamlakat suvereniteti va hududiy yaxlitligini saqlash, xalqimizning tinchligi hamda bunyodkorlik mehnatini himoyalash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini inobatga olib hamda mamlakatimiz hududidagi harbiy qism va bo‘linmalarning davlatimiz tasarrufiga o‘tkazilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 29 dekabrda qabul qilingan qonuniga binoan 14 yanvar O‘zbekistonda Vatan himoyachilari kuni deb e’lon qilindi.

O‘tgan yillar mobaynida yurtimizda davr talabi va jahon andozalariga javob beradigan Qurolli Kuchlarni barpo etish, mamlakatimiz mustaqilligi, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlash, barqaror va izchil demokratik taraqqiyotimizning ishonchli kafolati bo‘lgan milliy armiyamizni shakllantirish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Avvalo, harbiy soha islohotlari bilan bog‘liq strategik maqsadlarga erishishning muhim huquqiy poydevori bunyod etildi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 52-moddasida “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish — O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchi” ekanligi alohida belgilab qo‘yildi. Asosiy qomusimizda, shuningdek, O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining huquqiy maqomi ham aniq belgilab berilgan bo‘lib, unga ko‘ra Qurolli Kuchlar O‘zbekiston suvereniteti va hududiy yaxlitligi, respublikamiz aholisining osuda hayoti va xavfsizligini ta’minlash maqsadida tashkil etilishi qayd etildi. Shuningdek, “Mudofaa to‘g‘risida”, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunlar Qurolli Kuchlarimiz tashkiliy asoslarini o‘zida mujassam etdi.

Mamlakatimiz hududiga suqilib kiradigan har qanday tajovuzkor bosqinchiga qarshi qat’iy zarba berishga qodir bo‘lgan Maxsus operatsiyalarni amalga oshiradigan kuchlar, Terrorchilikka qarshi kurashish korpusi bo‘linmalari va boshqa zamonaviy jangovar bo‘linmalar tashkil etildi va ularning faoliyatini kuchaytirish davom ettirilmoqda. Bugun Armiyada xizmat qilishning nufuzi baland. Yigitlarimiz uchun harbiy sohada xizmat qilish, nafaqat faxrli burch, balki yuksak shon-sharafga aylandi.. Barcha ota-onalar o‘z farzandlari voyaga etgach, uning Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilishini niyat qilishadi. Chunki zamonaviy jangovar texnik qurollarni mukammal egallagan yigitlarimiz millatning, yurtning iftixori bo‘lishayotganini hammamiz ko‘rib turibmiz.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan konstitutsiyasining 1 moddasida «O'zbekiston - Suveren demokratik Respublika». Davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bilan bir manoni bildiradi» deb yozib qo'yilgan.

Suveren demokratik davlatning belgilariga quyidagilar kiradi.

Suveren davlat bu - xozirgi davlatshunoslik fanida davlatning ichki va tashqi siyosatidagi to'la mustaqilligi tushuniladi.

«Suverenitet» «Suveren» so'zlari bilan «Mustaqillik» «Mustaqil» degan so'zlar o'zaro sinonim so'zlar bo'lib, ular bir manoni anglatadi

«Davlat» degan tushunchaning o'zi ham mustaqillikni anglatadi. Ammo tarixda shakllan mustaqil, mazmunan esa qaram davlatlar ko'p bo'lgan.

Suveren davlatning eng muxim belgilariga asosan quyidagilar kiradi

- davlat daxlsiz o'z hududiga va daxlsiz davlat chegarasiga ega bo'lishi:

- davlat shaxslarni fuqarolikka qabul kilish va ularni fuqarolikdan mahrum etish huquqiga ega bo'lishi

- davlat va asosiy qonuni – konstitutsiyaga ega bo'lishi

-davlat xokimiyatining 3 hokimiyatga ega bo'lishi yani-qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatiga ega bo'lishi

- davlat o'zining xarbiy tuzilmasi va milliy qo'shiniga ega bo'lishi

- davlat o'z byudjetiga, mulkiga, moliya va soliq tizimiga ega bo'lishi

- davlat o'z davlat ramzlari:gerbi, bayrog'i, madhiyasi, va o'z poytaxtiga ega bo'lishi

Davlat o'zining davlat tiliga ega bo'lishi: (bu til maxsus qonun asosida yoki tarixiy anana bo'yicha aniqlanadi)

- davlat o'z tarakkiyot yo'lini va o'z mamuriy tizimini belgilay olish huquqiga ega bo'lishi hamda boshqa huquqlar kiradi.

Mustaqil suveren davlat o'z ichki va tashqi ishlarini boshqa davlatlarning huquqlarini, shuningdek, xalqaro huquq qoidalari hamda me'yorlarni buzmaganda hal qiladi.

O'zbekiston mustaqilligining asoslari,qoidalari, shartlari va talablari 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «**O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida**» gi Qonunda o'z ifodasini topgan

Suverenitetlik, mustaqillik bizga, xalqimizga, in'om etgan boylar, qulayliklar, xukuqlar, imkoniyatlar nechog'lik salmoqli, mazmunli ekanligini va bizning xalq, millat, davlat, hudud sifatida ko'tarilishimiz, xalqaro mikyosga chiqishimiz, ajdodlarimizning ulug'ligini munosib ravishda davom ettirish uchun o'zimizni safarbar kilishimiz darkorliginiko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan birinchi marta 2017 yil 22 dekabrda mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga taqdim etilgan Murojaatnomada mudofaa va xavfsizlik masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Prezidentimiz jahonda keskin iqtisodiy raqobat, axborot xurujlari, terroristik tahdidlar tobora kuchayib borayotganligi. Dunyoning turli joylarida, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida qonli to'qnashuv va nizolar davom etayotgani, bunday notinch keskinlik o'choqlari kamayish o'rniga ko'payib borayotganligi ta'kidlab, ana shunday tahlikali vaziyatni hisobga olgan holda, biz yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz shartligi – zamon talabi ekanligini aytib o'tdilar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston davlatining ichki va tashki siyosatida mustahkam izchillikning mavjudligi, Birinchi Prezidentimiz, mustakilligimizning tashabbuskori, tashkilotchisi va rahnamosi I.A.Karimov boshlab bergan O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, mustakil tarakkiyot yo'li, ichki va tashki siyosat davom etayotgani davlatimiz kudratining va siyosiy barkarorligining yorqin misolidir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham milliy xavfsizlikni ta'minlash va uni kafolatlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Tabiiyki, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlamasdan turib, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy masalalarni hal qilib bo'lmaydi. Shu sababli Prezidentimiz deyarli har bir tadbirda bu dolzarb mavzuga alohida e'tibor qaratadi. 2017 yil 7 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF- 4947 sonli Farmonining⁸⁰. beshinchi yo‘n alishi Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangani ham ushbu masalaning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

Murojaatnoma va Harakatlar strategiyasida Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘n alishlar sifatida quyidagi masalalarni hal qilish vazifalari qo‘yilgan:

- O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

- axborot xavfsizligini ta‘minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi o‘z vaqtida va munosib harakatlarni tashkil etish;

- fuqarolar, millatlar va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

- davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;

- atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga zarar yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish;

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar masalasida esa:

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o‘rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekistonning tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish;

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, jahon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborot yetkazish;

- O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatini normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- davlat chegarasini demilitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish.

Mamlakatimiz xavfsizligining ishonchli tayanchi bo‘lgan milliy armiyamizda olib borilayotgan islohotlarimizning samarasini oshirishda yangidan qabul qilinayotgan Mudofaa doktrinasi muhim rol o‘ynaydi. Ushbu doktrina O‘zbekiston tashqi siyosatining ochiqlik tamoyilini, yaqin qo‘shnilar bilan do‘stona va amaliy munosabatlarni rivojlantirishni ifoda etadi. Unda davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkam himoya qilish ustuvor vazifa sifatida aniq belgilab qo‘yilgan. Mamlakatimiz geostrategik joylashuvining o‘ziga xosligi, shuningdek, mintaqada vujudga kelayotgan harbiy-siyosiy holatni hisobga olgan holda, Qurolli Kuchlar birlashmalarining vazifa va tuzilmalari qayta ko‘rib chiqildi. Milliy gvardiya barpo etildi, armiyani yangi qurol- aslaha va zamonaviy harbiy texnika bilan ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mudofaa sanoati bo‘yicha davlat qo‘mitasi tuzildi. Harbiy kadrlar tayyorlash sohasida olib borilayotgan tizimli o‘zgarishlar asosida Qurolli Kuchlar akademiyasining faoliyati tubdan qayta tashkil etildi. Harbiy xizmatchilar, ularning oilalari va faxriylarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu haqda gapirganda, 2017 yilda harbiy xizmatchilar uchun 56 ta ko‘pqavatli uy barpo etilganini va bu ishlar kelgusi yilda yanada katta hajmda davom ettirilishini ta’kidlash joiz.

Harakatlar strategiyasida yana bir yangilik sifatida davlatimizning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, armiyamizning jangovar qudrati va salohiyatini oshirish ham eng muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Qurolli Kuchlarni zamonaviy qurol- aslaha va harbiy texnikalar bilan ta‘minlash uchun Mudofaa-sanoat kompleksini shakllantirish va rivojlantirish davlat dasturini qabul qilishi zarurligi belgilab qo‘yildi.

Xavfsizlik ichki va tashqi omillarga bog‘liq. Shuning uchun O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyili har qanday mojaroni tinch, siyosiy muzakoralar yo‘li bilan hal

⁸⁰Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947 сонли Фармони. 2017 йил 7 февраль.

qilishni nazarda tutadi, kuch ishlatish, kuch bilan tahdid qilish kabi usullarni qat'iy rad etadi. Milliy xavfsizlik ko'p jihatdan mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n uchinchi yalpi majlisida "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni senatorlar tomonidan ma'qullandi va 2018 yil 9-yanvar kuni mazkur qonun tasdiqlandi.

Mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan Shanxay Hamkorlik Tashkilotining tashabbuskor davlatlaridan biri O'zbekiston bo'lib, xalqaro xavfsizlik kollektiv tarzda ishonchli, kafolatli bo'lib ishiga ishonadi.

ShHTning eng muhim hujjatlaridan biri - "Terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash to'g'risida" Konvensiya qabul qilinadi. ShHTning 2002 yilgi sammitida uning Xartiyasi qabul qilinadi va Toshkentda joylashtirilgan ShHTning Mintaqaviy Aksilterror tuzilmasi tuzildi. ShHTning Kotibiyati Shanxayda joylashgan. 2000- yillarga qadar tashkilotning faoliyati ancha kengayib keldi va ayni paytda uning kun tartibida a'zo dalatlarning iqtisodiy, madaniy, transport, energetika va xavfsizlik sohalarida hamkorlik masalalari doim muhokamada turibdi.

Mamlakatimizga nisbatan tashqi tazyiqlar diniy ekstremizm, terrorizm, «demokratiya eksporti» singari turli ko'rinishlarda o'zini namoyon qilmoqda. Ayrim hollarda ba'zi bir fuqarolarning bunday kuchlar ta'siriga tushib qolishi ham uchramoqda. Ammo ana shunday tajovuzkor kuchlarning asl maqsadlari chuqur anglangan holda ularning niyatlari puchga chiqarishga erishib kelinyapti. Davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan puxta strategiyalar tufayli diniy ekstremizm, terrorizm singari usullar vositasida qilingan hurujlar engib o'tilmoqda.

O'tgan davr tajribasi endilikda hukumat va rahbarlar oldiga xavf-xatarlarga qarshi oddiygina kurash emas, balki ularning oldini olish masalasini ko'n dalang qilib qo'ymoqda. Prezident asarlari mutaxassis olimlar, mutasaddi rahbarlarning dasturul-amali, bu asarlarda ko'rsatib berilgan tinchlik va barqarorlik tamoyillari hukumatimiz tashqi siyosatining asosiy qoidasi bo'lib qoldi. Xalq bu dunyoda kimning kim ekanligini angladi. Natijada o'tgan davr mobaynida xalqimizda tashqi ta'sirlarga nisbatan "mafkuraviy immunitet" shakllandi. Buning uchun esa, avvalo, mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan har bir shaxs "milliy manfaatlar" tuzilmasi, jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashning samarali yo'li nimalardan iborat ekanligini aniq tasavvur etishi, chuqur anglashi kerak.

Har bir shaxs xavfsizlik va osoyishtalikni harbiy qurollar yoki jazo choralari bilan emas, balki tashqi mafkuraviy ta'sirlarga to'laqonli javob bera oladigan jamoani shakllantirish orqali ta'minlashga intilishi kerak. Buning uchun esa, u yetarli bilimga, siyosiy salohiyatga ega bo'lishi darkor. Zero, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, bugungi kunda har qanday rahbar, u qaysi lavozimda ishlamasin, avvalo siyosiy jarayonlarni chuqur idrok eta bilishi kerak. Ushbu tadqiqot davlat rahbarining mazkur fikrini nazarda tutgan holda milliy ustuvorliklarning tarkibiy jihati – tinchlik va barqarorlikni ta'minlash masalasi bo'yicha avvalo rahbar xodimlar bilimini kuchaytirishga qaratilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda hamda mintaqamizda tinchlik va barqarorlikka taxdid soluvchi qanday omillar mavjud? Bu savolga javob berishdan oldin quyidagi tushunchalarga aniqlik kiritib olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Fundamentalizm” so‘zining ma’nosi nima? «Fundamentalizm» so‘zining ma’nosi - poydevorga, asosga qaytish demak. Diniy fundamentalizm esa dinning ilk paydo bo'lish holatini tiklash, tarixiy taraqqiyot natijasida to'plangan yangi qoidalar, aqidalar, odatlar, nazariyalarni butkul rad etishni talab qiladi. «Dinni tozalash va asl holiga qaytarish»ni fundamentalistlar o'zlarining bosh maqsadlari qilib olganlar. Fundamentalizm – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'lib bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning yo'n alishi. Diniy fundamentalizm – aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, *vahiy* va *mo'jizalarning* muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga murosasiz, so'zma-so'z talqinga asoslangan e'tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo'yadigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'lib -yo'riqlarni qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'lib laniladigan istilohdir.

Ekstremizmning mohiyati, asosiy yoʻn alishlari. Ekstremizmning mohiyati, asosiy yoʻnalishlari — «Ekstremizm» (lotincha extremus "oʻta" — «keskin» maʼnolarida) favqulodda, oʻta ashaddiy, keskin harakat qilish, shunday gʻoyalarni targʻib qilishdir. Ekstremistlar uchun din bir mafkura, xolos. Ularning asosiy maqsadi — kuch ishlatib, jamiyatni tahlika va beqarorlik girdobiga solib, zulm bilan hokimiyatni egallash. Ular qonunlarni pisand qilmaydilar, gʻalayonlar, tartibsizlik-larni keltirib chiqarishga intiladilar. Oxir-oqibatda terrorga uradilar.

Siyosiyashgan diniy ekstremistik guruhlarining bosh maqsadi nima? Siyosiyashgan diniy ekstremistik guruhlarining bosh maqsadi – mamlakat suvereniteti, chegaralari daxlsizligi, konstitutsion tuzumiga, jamiyatdagi dinlararo va millatlararo barqarorlikka tahdid tugʻdirish, xalqning davlatga, hukumatga, kelajakka ishonchini yoʻqotish, aholi, avvalo yoshlar ongini zaxarlash orqali jamiyatni kuchsizlantirish. Kurash usullari — avval boshida ular oʻzlarining oqimiga sodda, aldanuvchan va yoshlarni ogʻdarib oladilar, keyin maqsadlarini amalga oshirish uchun biror mamlakatda toʻn tarishni, terroristik amaliyotni, yollanma qotillik, hukumatga bosim oʻtkazishni amalga oshiradilar. Ijrochi kuchga, odatda juda katta mablagʻ va qurol-yarogʻ beriladi. Birinchi Prezident I.Karimov diniy ekstremizmga qarshi kurashda — Islom dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzlik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan koʻplab radikal va ekstremistik markazlarning, birinchi navbatda, yoshlar ongini zaharlab zombiga aylantirib, ulardan terrorchilarni tayyorlash boʻyicha konveyr tashkil etayotgan, xalifalik tuzishdek turli xom-xayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlash kerak degan gʻoyani ilgari suradilar. **Diniy ekstremizm Oʻzbekiston milliy manfaatlarini uchun katta xavf.** Diniy ekstremizm Oʻzbekiston milliy manfaatlarini uchun ham boshqa har qanday davlat, jamiyat mavjudligi va kelajagi uchun katta xavfdir. Uning asosiy maqsadi mamlakat suvereniteti, chegaralari daxlsizligi, konstitutsion tuzumiga, jamiyatdagi dinlararo va millatlararo barqarorlikka tahdid tugʻdirish, xalqning davlatga, hukumatga, kelajakka ishonchini yoʻqotish, aholi, avvalo yoshlar ongini zaxarlash orqali jamiyatni kuchsizlantirishdan borat ekan bu bilan hech qanday murosa qilib boʻlmaydi

Oʻzbekiston Respublikasi diniy mutaassiblik, akidaparastlik, ekstremizm va terrorchilikning mintaqaviy va umumbashariy miqyosdagi xavf ekanidan kelib chiqib, jahon hamjamiyati bilan birgalikda unga qarshi kurashishi lozimligi toʻgrisidagi gʻoyani jaxonning nufuzli tashkilotlari minbarlaridan eʼlon qilib kelmoqda. Toʻgrisini aytish kerak, Oʻzbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurash siyosatining mohiyatini rivojlangan mamlakatlar va dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari kechroq angladi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1993 yil 28 sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida kilgan maʼruzasida jaxon hamjamiyatini Afgoniston muammosini izchil oʻrganish va yechishga chaqirdi. «Tolibon» harakatining diniy mutaassib va jangarilik faoliyati haqidagi ushbu haqqoniy fikr faqat AQSHdagi 2001 yil 11 sentyabr fojialaridan soʻng tan olindi.

Birinchi Prtezident I.A.Karimov tashabbusi bilan 1998 yilda tashkil topgan «6+2» guruhining BMT rahbarligida 1998-1999 yillarda olib borgan faoliyati Afgonistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega boʻl ganini taʼkidlash zarur.

2001 yilning 28 sentyabrida BMTning Xavfsizlik Kengashi 1373(2001)-sonli rezolyutsiyani qabul qilib, BMT doirasida terrorizmga qarshi kurash qoʻmitasini tuzdi. Ushbu qoʻmitaning tuzilishi va faoliyati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov taklif kilgan terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazining kontseptsiyasiga hamoxangdir. Zero, Birinchi Prezident 1999 yilning noyabrida Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik Tashkilotining (EXHT) Istanbulda boʻl ib oʻtgan sammitida va 2000 yilning 7-8 sentyabr kunlari Nyu-Yorkda boʻlib oʻtgan BMT Bosh Assambleyasining «Ming yillik sammiti»da BMT tuzilmalarida terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazini tuzish taklifini bayon qilgan edi. Ushbu tashabbus roʻyobga chiqqanidan soʻng, Oʻzbekiston 2001 yilning dekabr va 2002 yilning avgust oylarida BMT Xavfsizlik Kengashining yukorida zikr etilgan rezolyutsiyasining bajarilishi xususida BMTning Terrorizmga qarshi kurash qoʻmitasiga maʼruzalar taqdim etdi. Oʻzbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi olib borayotgan siyosatining

maksadi mintaqada global miqyosda tinchlik, barqarorlikni saqlash, mamlakat mustaqilligi va ravnaqi, xalqning erkin va farovon hayotini ta'minlashdir.

Ma'lumki, BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan 13 ta hujjati (11 ta Konventsiya va 2 ta protokol) mavjud. Hozirda O'zbekiston 12 ta ana shunday xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan. O'zbekiston Yevropa Ittifoqi doirasida ham terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan 7 xalqaro shartnomani imzolagan. Qayd etilgan konventsiya va protokollarda mustahkamlab qo'yilgan qoidalar Respublikamizda qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ham izchil ifodasini topayotganini ta'kidlash zarur.

Bugungi kunda MDH mamlakatlari xavfsizlik xizmatlari orasida juda yaqin hamkorlik munosabatlari o'rnatilgan. 2017 yil 5 aprelda Moskvada MDH mamlakatlari xavfsizlik xizmatlari rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda bugungi kunda terrorchilar hujumi barcha MDH mamlakatlariga xavf solayotgani ta'kidlandi. Terrorchilik bilan kurashish uchun barcha mamlakatlar maxsus xizmatlari yaqindan hamkorlik qilishi muhimligi qayd etildi.

Sankt-Peterburgda va boshqa ayrim joylarda bo'lib o'tgan fojialar misolida terrorchilik xavfini inkor qilib bo'lmazligi aytiladi. MDH mamlakatlariga terrorchilikdan boshqa yana bir necha xavflar tahdid solmoqda. Ular orasida uyushgan jinoyatchilik, narkotrafik, korruptsiya va davlatlar ichki siyosatiga tashqaridan aralashish kabi xatarlar bor. Bugungi kunda MDH mamlakatlari xavfsizlik xizmatlari orasida juda yaxshi hamkorlik munosabatlari o'rnatilgan⁸¹.

Suriyadagi ISHIDning asosiy kuchlari yo'q qilinishi tufayli u yerdan qochib, to'zib ketgan jangarilar o'z qonli harakatlarini Pokiston, Afg'onistonda davom ettirildi. Ularning va Markaziy Osiyoga tahdidi ortayotgani sababli xavfsizlik xizmatlari rahbarlari tez-tez uchrashib turishga zaruriyat paydo bo'lmoqda. Yana shunday uchrashuv 2017 yil 19 dekabrda Moskva shahrida bo'lib o'tdi. Unda tomonlar Afg'oniston hududlari orqali Markaziy Osiyo respublikalari va MDH hududlariga jiddiy xavf paydo bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlar va ularga qarshi choralar rejalarini kelishib oldilar⁸².

Respublikamiz ekstremizm va terrorizm bilan birga uni moliyalashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lgan narkobiznes va narkotrafikka qarshi kurashda ham kat'iy siyosat olib bormokda. 1999 yilda «Giyoxvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi, 2000 yilda «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi, 2004 yilda «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizمنى moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi konunlarning kabul kilingani fikrimizni tasdiklaydi.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi tizimli va tadrijiy kurash olib bormokda. Bu kurash mamlakatimizda fukarolik jamiyatini kurish va inson xukuklarini ta'minlash uchun xizmat kiladi.

Xalqaro shartnomalarda ishtirok etish. Respublikamiz terrorizmga qarshi karatilgan ko'plab xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya kilib, ulardagi majburiyatlarini izchil bajarib kelmokda. Shu bilan birga, bu masalalarda o'zining tashabbuslarini ilgari surayotganini ham aloxida ta'kidlash zarur.

2. O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalalari

Bugungi kunda xavfsizlik masalalari butun dunyoda eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Yil sayin davlatlar tomonidan mudofaa tizimi va harbiy sohaga ajratilayotgan harajatlarining oshib borishi fikrimizni tasdiqlaydi. Biroq, faqatgina zamonaviy qurol yarog'ga ega bo'lishning o'zigina xavfsizlikni ta'minlamaydi. Chunki, guvoh bo'lib turganimizdek, zamonaviy buzg'unchi kuchlar ochiqcha jang qilmay, balki to'satdan qo'poruvchilik amaliyotlarini qo'llash, harbiylar emas balki tinch aholini nishonga olish kabi qabih usullardan foydalanadilar. Bunda

⁸¹<http://sputniknews-uz.com/society/20170405/5133386/MDH-xavfsizlik-xizmatlari-uchrASHUVLhtml>

⁸²<http://www.tvc.ru/news/show/id/129616>

esa, milliy va diniy nizolarni keltirib chiqarish asosiy maqsad hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmida davlat-huquqiy, etno-hududiy va etnodemografik zaminda 300 dan ortiq katta-kichik nizolar qayd qilingani ham ushbu fikrning o'rinli ekanini tasdiqlaydi.

Millatlar mavjud ekan, ular o'rtasida o'zaro munosabatlar ham bo'ladi. Shunday ekan, bugun globallashuvning bu jarayonga o'tkazayotgan salbiy ta'sirining oldini olish haqida bosh qotirish va samarali mexanizmlarni topish o'z mustaqilligini, erkini, o'ziga xosligini qadrlashga qodir bo'lgan barcha millatlar oldida turgan eng dolzarb vazifa hisoblanadi.

Respublikamizda ham millatlararo totuvlikni ta'minlash orqali tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlab borish g'oyasi davlatimiz birinchi rahbarlarining doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham o'z saylovoldi dasturidayoq tinchlikni ta'minlash, millatlar va dinlararo totuvlik muhitini qo'l lab quvvatlash, din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi ayovsiz kurash masalalarini asosiy tamoyil sifatida olg'a surdi.

Saylovoldi dasturidan kelib chiqqan holda, so'n ggi oylarda Prezidentimiz tashabbusi bilan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" ishlab chiqildi. Strategiyada beshinchi yo'n alish sifatida "*Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'n alishlar*" belgilandi. Bu ham, yurtimizda fuqarolarimiz xavfsizligi, millatlar va diniy bag'rikenglikka berilayotgan e'tibordan dalolat beradi.

"Bag'rikenglik" tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik kabi fanlar doirasida keng istifoda etiladi. "Tolerantlik" – lotincha "tolerare", ya'ni "chidamoq", "sabr qilmoq" ma'nosini anglatgan bu so'z, asosan biror narsani, o'zgacha fikr yoki qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'i nazar, imkon qadar bag'rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Xususan, ushbu tushuncha deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'l diruvchi ma'no kasb etib, "chidamlilik", "bardoshlilik", "toqatlilik", "o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish", "muruvvatlilik", "himmatlilik", "kechirimlilik", "mehribonlik", "hamdardlik" kabi ma'nolarga ega.

Taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lgan bag'rikenglik borasida 1995 yil 16 noyabrda BMT tizimida Fan, ta'lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkilot (YuNESKO) Bosh konferentsiyasining 28-sessiyasida "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi" qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat'i nazar, bag'rikenglikni targ'ib etish, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qo'yilgan.

1998 yil 6 noyabrda Toshkentda o'tkazilgan YuNESKO Ijroiya Kengashining 155-sessiyasida «Tinchlik madaniyati va YuNESKOning a'zo davlatlaridagi faoliyati» Deklaratsiyasi qabul qilindi. YuNESKOning «Tinchlik madaniyati» kontseptsiyasi BMT tomonidan ma'qullanib, 2000 yil «Xalqaro tinchlik madaniyati yili», 2001 yil esa «Xalqaro madaniyatlararo muloqot yili» deb e'lon qilindi.

BMT Bosh Assambleyasining 2018 yil 12 dekabrda yalpi sessiyasida O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» maxsus rezolyutsiyasini qabul qilindi.

Bizga ma'lumki, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017 yil sentyabrda Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida mazkur rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqqan edi.

Rezolyutsiyaning asosiy maqsadi — barcha uchun ta'lim olish imkoniyatini taqdim etish, savodsizlik va bilimsizlikni bartaraf etishdan iborat.

Shuningdek, hujjatda "bag'rikenglik va o'zaro hurmatni o'rnatish, diniy erkinlikni ta'minlash, dindorlar huquqlarini himoya qilish va ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik"ka ham chaqirilgan.

Rezolyutsiya BMTning barcha a'zo davlatlari tomonidan bir ovozdan qo'l lab-quvvatlangan va mazkur hujjatga 50 dan ortiq davlat hammualliflik qilgan.

Bizga ma'lumki, millat (arabcha-xalq) –muayyan xududda istiqomat qiladigan, umumiy til, madaniyat urf-odat, qadriyatlar va ruhiy yaqinlik bilan farqlanuvchi etno ijtimoiy birlik hisoblanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzida 1600 dan ortiq millat bo'l ib, (*ayrim manbalarda 3000 dan ortiq*) ularning soni bir necha o'n mingdan bir necha yuz milliongachani tashkil etadi.

Son jihatdan millatlar to'rt guruhga bo'l inadi. Bularga:

a) eng ko'p sonli millatlar (Xitoylar 1 mlrd.dan ortiq, — hindlar, amerikaliklar, ruslar, yaponlar yuz mil.dan ortiq);

b) ko'p sonli millatlar (50 mln.dan 100 mln. gacha — inglizlar, frantsuzlar, ispanlar, turklar va boshqalar);

v) yirik millatlar (10 mln.dan – 50 mln.gacha – o'zbeklar, portugallar, polyaklar va boshqalar);

g) kam sonli millatlar (xar biri bir necha o'n mingdan bir mln.gacha).

Ammo shuni ta'kidlash joizki millatlarning soni ularni buyukligi yoki gegemonligi uchun asos bo'l a olmaydi. Zero, barcha millatlarning teng, ozod va erkinligi “Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi”da belgilangan asosiy qoidalardan bo'l ib, jahon siyosatining asosiy tamoyillari biri hisoblanadi.

Yer yuzidagi 1600 millatdan bor-yo'g'i 200 ga yaqini o'z davlatchiligiga ega, xolos, Bunday sharoitda (hozirgi zamon davlatlarining 90 foizga yaqini polietnik, ya'ni ko'p millatli davlatlarni tashkil etadi) butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta'minlash uchun ularning manfaatlari ruxiyati, intilishlarini muntazam o'rganib borish, ijtimoiy-siyosiy xayotda buni doimo e'tiborga olishish taqozo etadi.

Ma'lumotlar ko'ra, hozirgi dunyodagi faqat 20 ga yaqin davlat aholisi tarkibida boshqa millatlar vakillarining ulushi 5 foizdan kamni tashkil etadi. Qolgan davlatlarning deyarli barchasida 5 va undan ortiq millat va elatlar vakillari istiqomat qilib, ularning aholi tarkibidagi ulushi ancha salmoqlikdir.

Har qanday ko'p millatli mamlakatning muvaffaqiyatli rivojlanishi ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy-siyosiy asoslar hamda axloqiy mezonlar bilan bir qatorda ko'p jihatdan mamlakatdagi etnik birliklar va diniy konfessiyalar o'rtasida totuvlik hamda mustahkam tinchlikka bog'liq. Ko'p millatli davlatdagi etnoslararo hamda millatlararo tolerantlik milliy xavfsizlikni shakllanishida muhim omillardan biri bo'l ib xizmat qiladi.

Jahon tajribasi millatlararo munosabatlarda bir yoqlama, yuzaki yondashuv mamlakatda jiddiy siyosiy muammolarni keltirib chiqarishni ko'rsatmoqda. Xususan, davlat o'z nomini bergan (titul) millat bilan o'sha joyda yashaydigan boshqa millat va elat vakillari o'rtasidagi munosabatlar jiddiy e'tiborni talab etadi. Aks holda, jamiyat jamiyat xayotidagi tinchlik va barqarorlik izdan chiqishi mumkin. Millatlararo munosabatlarda uyg'unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p millatlik jamiyat siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga, ma'naviy-ruxiy muhitning sog'lom bo'lishiga samarali ta'sir etadi.

Shu bois sho'rolardan keyingi makonda yangi mustaqil davlatlar shakllanishida etnoslararo va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishning dolzarbligi va ahamiyati yanada ortdi. O'zbekistonda bu masala nazokat va ehtiyotkorlik bilan hal etildi.

Ayrim sobiq Sovet respublikalaridan farqli ravishda, istibdod davri yo'qotishlari uchun “aybdor”larning qidirilmaganligi ham alohida ahamiyatga ega bo'l di.

O'zbekistonda xalqaro demokratik tamoyillarga muvofiq keluvchi, fuqarolarning teng huquqligini belgilab bergan qonunchilik bazasi millatlararo totuvlikni saqlash va mustahkamlashning muhim omili bo'l ib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida “O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi”,-deb ta'kidlangan. Respublika Konstitutsiyasining 18-moddasida ham millatlararo munosabatlar aniq belgilab berilgan: “O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar”. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasining “Saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni ham O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga,

ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'iy nazar teng saylov huquqini beradi" (3-modda). O'zbekiston fuqarolarning qonun oldida tengligi qoidasi o'zbek xalqining respublika xududida yashovchi barcha millatlar vakillari bilan munosabatlarni uyg'un holga keltirishning huquqiy kafolati bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston xududida istiqomat qiluvchi kam sonli etnoslar huquqlarini himoyalashning davlat kontseptsiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida aniq aks ettirilgan: "O'zbekiston Respublikasi o'z xududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarini va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi".

O'zbekiston davlat siyosati millatchilik, irqchilik, genotsid, xalqlarni zo'rlik bilan chiqarib yuborish yoki boshqa joylarga ko'chirish, o'zga xalqlar huquqlarining kamsitilishi va assimilyatsiya siyosatini to'liq inkor etadi. Respublika Konstitutsiyasining 57-moddasiga muvofiq "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushish, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylantirilgan birlashmalarning, Milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ta'qiqlanadi".

O'zbekistonning mustaqillik taraqqiyot yo'li davomida mamlakatda tinchlik va barqarorlik saqlab qolindi, Milliy totuvlikka erishildi. O'zbekistonda milliy davlatchilik qaror topayotgan eng og'ir davrda Islom Karimov turli ekstremistik kuchlar yo'liga va jamiyatni siyosiy, diniy, milliy va boshqa belgilari bo'yicha parokanda qilish tahdidlari yo'l iga mustahkam to'siq qo'ydi. Mamlakatimizda amalga oshiralayotgan milliy siyosat bir qator yirik davlatlarning nufuzli siyosatchilari va turli diniy konfessiyalar rahbarlari tomonidan e'tirof etilganligi bejiz emas.

O'zbekiston diyorida qadimdan turli tsivilizatsiya vakillari, madaniy qatlamlar, xilma-xil e'tiqod va dunyoqarashlar yonma-yon yashab kelgan. Bu yerda yashovchi xalq boshqa joydan ko'chib kelib, o'rmas hib qolgan emas. Bu zamin ota-bobolarimiz yashab o'tgan azaliy va muqaddas makondir. Bu zamin Sharq va G'arbning, Shimol va Janubning, qadim o'tmish va buyuk kelajakning tutashgan joyi, Markaziy Osiyoning yuragi, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng ko'hna o'choqlaridan biridir. Bu tuproqda jahonni hayratga solgan sivilizatsiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub diniy va falsafiy an'analar shakllangan. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit bu yurtni «falsafiy tafakkur beshigi», deb bejiz ta'riflamagan. Shuni ta'kidlash joizki, bizning tsivilizatsiyamiz o'ziga xos bag'rikenglik tafakkur uslubiga tayanadi.

Uch ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, oliyjanoblik va insonparvarlik millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an'analar avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

Malumotlarga ko'ra, bundan yuz yil avval hozirgi respublikamiz hududida 70 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilgan. 1926 yilda respublikamizda 90 millat va elat yashagan bo'lsa, 1959 yilda ularning soni 113 taga, 1979 yilda 123, 1989 yilda esa 130, 2018 yilda 136 taga etgan.

O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining milliy tarkibi to'g'risida ma'lumot⁸³
(yil boshiga; ming kishi)

	1991 y.		2011 y.		2017 y.	
	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %
Jami aholi	20607,7	100,0	29123,4	100,0	32120,5	100,0

⁸³<https://stat.uz/uz/432-analitcheskie-materialy-uz/2033-o-zbekiston-respublikasining-demografik-holati>.

<i>Shu jumladan:</i>						
o'zbek	14995,3	72,8	23983,2	82,3	26917,7	83,8
qoraqolpoq	431,9	2,1	641,5	2,2	708,8	2,2
tojik	980,7	4,8	1411,6	4,8	1544,7	4,8
qozoq	845,3	4,1	832,7	2,9	803,4	2,5
rus	1593,8	7,7	837,5	2,9	750,0	2,3
qirg'iz	182,6	0,9	254,6	0,9	274,4	0,9
tatar	414,6	2,0	218,6	0,8	195,0	0,6
turkman	126,6	0,6	174,7	0,6	192,0	0,6
koreys	183,7	0,9	188,0	0,6	176,9	0,6
ukrain	146,8	0,7	78,2	0,3	70,7	0,2
boshqalar	706,4	3,4	502,8	1,7	486,9	1,5

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, nafaqat mamlakatga nom bergan o'zbek xalqi, balki shu muqaddas zaminda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining ham millat sifatida saqlanib qolishi va rivojlanishi uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratish masalaga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, ko'p millatli diyorumizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash va yanada mustahkamlashning muhim omili bo'lgan millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millatga mansub aholining ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan milliy-madaniy markazlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish uchun Birinchi Prezident tashabbusi bilan 1992 yil 13 yanvarda Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tuman hokimliklari, shuningdek, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda millatlararo munosabatlar sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishida qatnashish, milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va o'ziga xos an'ana, urf-odat va rasm-rusumlarni tiklash hamda rivojlantirishda ularga ko'maklashish deb belgilandi.

O'tgan 27 yildan sal oshiqroq davr mobaynida Respublika baynalmilal madaniyat markazi atrofida turli milliy madaniy markazlar uyushgan holda faoliyat olib bordi. Bu markazlar o'z millatlarining tili, madaniyati, urf-odatlari, an'alarini saqlab qolishi, yanada rivojlantirishi bo'yicha faol ish yurityapti. Umumxalq bayramlarini nishonlashga bag'ishlangan katta-kichik tantanalarning deyarli hech biri mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elat vakillarining kuy, qo'shiq va raqslarisiz o'tmaydi.

O'zbekistonda o'ziga xos bir milliy mentalitet yuzaga kelgan, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, o'z-o'zidan, millat millatga, madaniyat madaniyatga ta'sir o'tkazadi, ular bir-biridan aks ta'sir oladi ham. Shu tariqa har bir milliy madaniyat amalda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligidan iborat bo'lib boradi.

Bugungi o'zbek madaniyatini, sharqona va g'arbona madaniyatlar uyg'unligidan iborat, deb hisoblashga to'la haqlimiz. G'arb madaniyatining ijobiy jihatlarini o'zlashtirish – faqat yutuq. Ammo o'arbda demokratiyaning suiiste'mol qilinishi oqibatida yuzaga kelgan “omnaviy madaniyat”ning kirib kelishidan ehtiyot bo'lish kerak.

2017 yilning 24 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni asosida Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan madaniy markazlarning bir guruh faollari mukofotlandi. Davlatimiz rahbari Vatanimizning yuksak mukofotlarini tantanali ravishda topshirdi.

2017 yil 19 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, Respublika baynalmilal madaniyat markazi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 ta milliy madaniy markaz, shuningdek, O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, 34 ta do'stlik jamiyati faoliyati o'zaro birlashtirildi.

Shu tariqa bu qo'mita millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini mustahkamlashga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlovchi boshqaruv organi maqomiga ega bo'ldi.

Darhaqiqat, Harakatlar strategiyasi asosida beshinchi ustuvor yo'nalish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami har qanday kishini mamnun etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan shu yil 15 avgustda qabul qilingan **“2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi Farmoyishda muayyan ma'noda hozirgacha amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilib olindi.

Jumladan, unda millatlararo totuvlikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhda tashqi siyosat yuritish sohasidagi eng muhim ishlar ham tilga olingan. Unda yuqorida aytib o'tilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etilgani, Yevropa Ittifoqi va 21 ta xorijiy mamlakat bilan savdo-iqtisodiy, investitsiya, texnologiya va moliyaviy-texnik sohalarda 22 ta “yo'l xarita”lari tasdiqlangani aytilgan.

Millatlararo munosabatlar yo'nalishidagi yana bir dolzarb masalalardan biri aholining milliy tarkibiga mos keladigan ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish. Bu borada respublikamizda bugungi kunga kelib, 9691 ta maktab faoliyat yuritayotgani, shundan 8853 ta maktabda o'zbek tilida, 862 ta maktabda rus tilida, 366 ta qoraqolpoq tilida, 370 ta maktabda qozoq tilida, 244 ta maktabda tojik tilida, 43 ta maktabda turkman tilida, 42 ta maktabda qirg'iz tilida ta'lim berish yo'lga qo'yilganini ta'kidlash kerak⁸⁴. Bular orasida ikki yoki uch tilda o'quv mashg'ulotlari olib borilayotgan maktablar ham bor. Xalq ta'limi vazirligiga qarashli pedagogik institutlarida o'zbek tilidan tashqari rus, tojik, turkman, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq tillarida ham mashg'ulotlar olib boriladigan maktablar uchun mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Respublikamizdagi ommaviy axborot vositalarining faoliyati ham aholi milliy tarkibining rang-barang ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda 8 tilda, ya'ni o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, turkman, ingliz, koreys tillarida gazeta va jurnallar chop etilmoqda.

O'zbekiston televideniyesi orqali qator xorijiy tillardagi ko'rsatuvlarning muntazam ravishda namoyish qilinishi va maxsus radio eshittirishlarning turli tillarda efirga uzatilayotgani ham diqqatga sazovor. Zero, 12 (o'zbek qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik, ozarbayjon, rus, tatar, boshqird, koreys, uyg'ur) tillarida teleradio eshittirishlar efirga chiqmoqda. Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonning millatlararo siyosati insoniylikka, demokratiyaga qarshi bo'lgan siyosatning har qanday ko'rinishlarini to'liq va mutlaq rad etishga asoslangan.

Ko'rinib turganidek, millatlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish borasida O'zbekiston o'ziga xos tajriba ortirdi. Bunda faqat milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash bilan cheklanmaslik, balki mamlakatdagi barcha millatlarning umumiy birdamligiga erishish tamoyiliga amal qilindi va bu siyosat:

- ko'p millatlilikni yaratuvchilik qudratiga ega bo'lgan omil sifatida tan olish;
- fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, shaxsi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat'i nazar, tengligini ta'minlash;
- milliy mansubligidan qat'i nazar, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi teng huquqli ishtirokini kafolatlash;
- milliy til, urf-odatlar va an'analar hurmat qilinishini ta'minlash va ularning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish
- ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanishini ta'minlash;

⁸⁴<http://www.uzedu.uz/Xtv/BarchasiPage/67?tp=86>

- fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan milliy, irqiy, diniy adovat va nizoni targ'ib qiluvchi faoliyatga yo'l qo'ymaslik;

- millatlar va elatlar huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga doir xalqaro qoidalar ustuvorligini tan olish kabi tamoyillarga tayangan holda izchil amalga oshirilmoqda.

Shuni unutmaslik kerak-ki, qaerda millatlararo totuvlik g'oyasining ahamiyati anglab etilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, ular tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo'layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Millatlararo totuvlik g'oyasini amalga oshirishga g'ov bo'ladigan eng xatarli to'siq - tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g'oya tuzog'iga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Birgina fashizm g'oyasi XX asrda insoniyat boshiga avvalgi barcha asrlardagidan ko'ra ko'proq kulfat, ofat-balolar yog'dirib, oxir-oqibatda o'zi ham halokatga uchradi. Lekin hanuzgacha fashizm, shovinizm, irqchilik g'oyalarini tiriltirib, millatlararo totuvlik, hamjihatlik g'oyasiga qarshi «salib yurishi» uyushtirishga urinayotgan kuchlar borligi barchamizni hushyor torttirishi lozim.

Bag'rikenglikning muhim yo'n alishlaridan biri "diniy bag'rikenglik"dir. Turli din vakillari e'tiqodidagi mavjud farqlardan qat'iy nazar, ularning yonma-yon, o'zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy ta'limotga hurmat bilan qarashni anglatadigan mazkur tushuncha, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkin bo'l gani holda, bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e'tirof etishini nazarda tutadi. "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi"da ta'kidlanganidek, *"Bag'rikenglik bo'lmasa, tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi"*.

Asrlar mobaynida o'lkamizning shaharu qishloqlarida masjid, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko'rsatib, turli millat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o'z diniy marosimlarini ado etib kelganlar. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagan. Bu esa, millati va diniy qarashidan qat'i nazar, insonni ardoqlash va o'zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish kabi tuyg'ular o'lka aholisining qon-qoniga singib ketganidan dalolat beradi. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos bo'lgan diniy bag'rikenglikning ma'naviy asosini tashkil qiladi.

Ma'lumki, har bir dinning o'ziga xos aqidalari mavjud. Ularba'zan bir-biriga mutanosib bo'l sa, ba'zan zid ham kelishi mumkin. Diniy bag'rikenglik ana shu xilma-xillik asosida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini oladi, turli e'tiqodlarning yonma-yon va bir paytda mavjud bo'la olishi uchun xizmat qiladi.

Qadim zamonlardanoq o'lkamizda zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik kabi dinlar mavjud bo'lgan. Eng qadimiy va keng tarqalgan dinlardan biri bo'lmish zardushtiylikning vatani ham bizning yurtimizdir. Zero, u qadimgi Xorazmda shakllanib, rivoj topgan.

Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda buddizm ham muhim o'rin tutgan. Hattoki, Buxoro shahrining nomi ham "Vaxara" – buddaviylar ibodatxonasi nomidan kelib chiqqan, degan fikrlar ham bor.

Markaziy Osiyoga islom dinining yoyilishi arafasida bu erga Eron orqali Suriyadan kirib kelgan nestorian yo'n alishidagi nasroniylik dini muhim mavqeni egallagan. VI asr boshlarida Samarqandda nestorian episkopi, VIII asrda esa mitropoliti xizmat qilgan. Shuningdek, qadimda hozirgi Toshkent va Xorazm viloyatlari hududlarida nasroniy diniga mansub aholi ham yashagan.

VIII asrda Markaziy Osiyoga arablar bilan birga islom dini ham kirib keldi. Aholining bu dinni qabul qilishi asta-sekinlik bilan, bir tekis bo'l magan holda yuz berdi. Aholining bir qismi o'zlarining qadimgi dinlariga e'tiqod qilishda davom etdi. Bu vaqtda islom va mahalliy dinlarning, ularga xos qadriyat va odatlarning qorishuvi yuz berdi. Movarounnahr xalqlarining islom diniga zid kelmaydigan ma'rifiy-axloqiy g'oyalari, huquqiy me'yor va urf-odatlar to'l a saqlanib qoldi hamda islom ta'limoti asosida yanada sayqallandi. Bu holat Movarounnahrda islomning o'ziga xos xususiyatlar kasb etishiga sabab bo'l di. Bu ham yurtimizda uzoq yillar davomida shakllangan diniy bag'rikenglik samarasi edi.

O‘l kada tinchlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlashda islom ta‘limotidagi o‘zga din vakillari bilan o‘zaro murosa yo‘lini tutish, ular bilan dunyoviy ishlarda hamkorlik qilish va hamjihatlikda yashashga chorlovchi tamoyillar ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, islom ta‘limotidagi dinni qabul qilish yoki qabul qilmaslik qalbgaga bog‘liq, insonning to‘liq ixtiyoridagi amal deb qaralishi mintaqada diniy bag‘rikenglik muhiti barqaror bo‘lishi uchun asosiy omillardan bo‘ldi.

Diyorimizdan etishib chiqqan allomalarning asarlarida ham diniy bag‘rikenglik bilan bog‘liq qadriyatlar targ‘ib qilingan g‘oyalarni uchratamiz. Jumladan, Shayx Ahmad Yassaviy ham o‘z hikmatlarida o‘zga din vakillariga yaxshi munosabatda bo‘lishni uqtirgan:

Sunnat ermish, kofir bo‘l sa, berma ozor,

Ko‘n gli qottig‘ dilozordan xudo bezor.

Yurtimizdan etishib chiqqan allomalarimizning bu kabi o‘g‘itlari uzoq yillar davomida xalqimizning bag‘rikeng bo‘l ishga, turli din va elatlar bilan tinch-totuvlikda hayot kechirishga chorlab kelgan.

Shu bilan birga Islom dinining asosi bo‘l gan Qur‘oni karimda ham bag‘rikenglik sharaflangan. Jumladan, Mumtahana surasining 8-oyatida Alloh taolo shunday deydi: “Din to‘g‘risida sizlar bilan urushmagan va sizlarni o‘z yurtinigizdan (haydab) chiqarmagan kimsalarga nisbatan yaxshilik qilishingiz va ularga adolatli bo‘l ishingizdan Alloh sizlarni qaytarmas. Albatta, Alloh adolatli kishilarni sevar”. Hadisi sharifda Payg‘ambarimiz (s.a.v.) shunday marhamat qiladilar: “Imonning afzali sabr va bag‘rikenglikdir”. Chindan ham, dinimiz ta‘limotiga ko‘ra, bag‘rikeng bo‘l ish imon belgisidir.

Hozirgi kunda yurtimizda istiqomat qilayotgan turli din vakillari uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi, ayniqsa, diniy bag‘rikenglikka doir qoidalarning qonuniy asoslarda mustahkamlanishi tahsinga sazovordir. Eng avvalo, Konstitutsiyamizning 31-moddasida mustahkamlangan *“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”*, degan qoida diniy bag‘rikenglik uchun dasturul amal bo‘l ib xizmat qilmoqda. Bu tamoyilga ko‘ra, har kim o‘z dini va e‘tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog‘i lozim. Bir kishining din borasidagi qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

Bundan tashqari, Konstitutsiyamizning 18-moddasida ham *“O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘l ib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat printsiplariga mos bo‘lishi shart”*, degan norma asosida turli diniy e‘tiqoddagi insonlarning dini va e‘tiqodidan qat‘i nazar qonun oldida teng ekanligi e‘tirof etilgan.

Konstitutsiyamizning 61-moddasida esa, respublikamizda faoliyat olib boruvchi diniy tashkilotlar va birlashmalarning davlatdan ajratilgani haqidagi qoida mustahkamlangan. Unda aytilishicha, *“Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi”*. Bu qoidaning mohiyati shundaki, O‘zbekistonda har qanday din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan va barcha diniy konfessiyalar qonun oldida barobardir. Davlat diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo‘llab-quvvatlaydi hamda ular o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatilishiga ko‘maklashadi.

O‘zbekistonda e‘tiqod erkinligi va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlashda qonunchilik ham takomillashib bordi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonun 1991 yilda qabul qilingan bo‘lib, 1993 yilda kiritilgan ba‘zi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar bilan 1998 yilga qadar amalda bo‘lib keldi. So‘n ggi yillar davomida mazkur qonunni davr talablari asosida tubdan o‘zgartirish zarur bo‘lib qoldi va 1998 yilning 1 may oyida va 2021 yil iyun oyida Respublika Oliy Majlisi tomonidan qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

Vijdon erkinligi haqidagi qonun dinga e‘tiqod qilish yoki o‘zga e‘tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan darajadagina cheklanish mumkinligini ta‘minlaydi.

Mazkur me'yor 1966 yil 16 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktning 18-moddasiga muvofiqdir.

Xalqaro huquqiy hujjatlarda ham e'tiqod erkinligi va diniy bag'rikenglik xalqaro huquq himoyasida ekani ta'kidlanadi. Jumladan, 1948 yili qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 18-moddasida "*Har bir inson fikr, vijdon, din va e'tiqod erkinligi huquqiga egadir*", deb ta'kidlangan. 1966 yili qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt"da ham "*Biror odam ham o'z ixtiyori bilan o'z dini va e'tiqodiga ega bo'l ish yoki ularni qabul qilish erkini kamsitadigan majburiy xatti-harakatlarga duchor bo'l masligi kerak*", deb ko'rsatilgan. Bu esa, diniy bag'rikenglikning nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro huquqiy normalar muhofazasida ekanidan ham dalolat beradi.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi huquqiy me'yorlarning qonunchilikka kiritilishi diyorumizda rasmiy faoliyat olib borayotgan barcha din vakillariga katta imkoniyatlar yaratib berdi. Jumladan, mustaqillikkacha respublikada bir necha cherkov va sinagogalar faoliyat olib borgan bo'lsa, qonuniy asoslar mustahkamlangach, dunyoning turli mintaqalarida diniy ibodatlarini amalga oshiruvchi Evangel-Lyuteran jamoasi, Rim-katolik cherkovi, "Yettinchi kun adventistlari" diniy tashkiloti, bahoiylar, yahudiylar diniy jamoalari kabi konfessiyalar yurtimizda rasmiy faoliyat yurita boshladi.

Hukumatimiz tomonidan turli diniy tashkilotlarning o'z faoliyatlarini amalga oshirish va mamlakat hayotida faol ishtirok etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi. Jumladan, markaziy televidenie orqali O'zbekiston musulmonlari idorasi ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlarni berib borishi, Buxoriy, Termiziy, Moturidiy kabi mashhur allomalarning tavalludiga bag'ishlangan anjumanlarning keng ko'l amda nishonlanishi kabi tadbirlarni aytib o'tish o'rinlidir. Ayniqsa, haj ibodatini to'la-to'kis va hamjihatli holda ado etish uchun barcha sharoitlar yaratilgani tahsinga sazovor.

O'z navbatida pravoslavlar uchun Isroil, Gretsiya va Rossiya, katoliklar uchun Isroil va Italiya, armanlar uchun Isroil va Armaniston, yahudiylar va bahoiylar uchun Isroil, krishnachilar uchun Hindiston va buddaviylar uchun Koreyada joylashgan muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil qilinmoqda.

Bundan tashqari, Prezidentimiz farmoniga ko'ra, 1903 yilda qurilgan "Svyataya Bogoroditsa" ibodatxonasining Arman apostol cherkoviga topshirilgani, o'z vaqtida faoliyati to'xtatib qo'yilgan Evangel-Lyuteran cherkovi Kirxasining respublikamizda istiqomat qiluvchi nemislarning diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida "Vidergeburt" nemis madaniyat markaziga foydalanish uchun qaytarib berilgani va 1996 yilning dekabrda ushbu konfessiyaning yurtimizda faoliyat boshlaganining 100 yilligining keng nishonlanishi ham yuqoridagi fikrimiz isboti bo'la oladi.

Shuningdek, xristianlarning "Rojdestvo", "Pasxa", yahudiylarning Rosh-Ashona (Yangi yil), Yom-Kipur (Gunohlardan poklanish bayrami), Pesax (Pasxa), buddaviylarning Sagaalgan (yangi yil), Donchod-xural (Buddaning tug'ilgan kuni) kabi bayramlarni nishonlash uchun yurtimizda yashovchi shu din vakillari keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

2000 yil 13–15 sentyabrda Toshkentda o'tgan dinlararo muloqot YuNESKO Kongressi Markaziy Osiyodagi madaniy, diniy va etnik xilma-xillikni muhokama qildi. Unda 40ga yaqin davlatdan 80dan ortiq turli din va konfessiyalarga mansub vakillar, yirik mutaxassislar ishtirok etdi. Kongressdan so'n g 18 sentyabrda Buxoro shahrida "Tasavvuf va dinlararo muloqot" mavzusida xalqaro simpozium bo'l ib o'tdi. Unda "tasavvuf"ga bag'rikenglikni targ'ib etuvchi, tinchlikka chaqiruvchi islom dinining noyob, o'ziga xos ko'rinishi, degan ta'rif berildi. Shuningdek, 2001 yil sentyabrda Toshkentda o'tgan Osiyo – Tinch okeani mintaqasi YuNESKO "Bag'rikenglik tarmog'i"ning ikkinchi yig'ilishida bag'rikenglik tamoyillari o'zbek xalqining urf-odatlarini bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlandi.

Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha xalqaro islom tashkiloti (ISESKO) tomonidan Toshkentning islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishi munosabati bilan 2007 yil 14-15 avgustda Toshkent va Samarqand shaharlarida "O'zbekistonning islom tsivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi" mavzuida bo'l ib o'tgan xalqaro konferentsiyada ham mamlakatimizning jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini kamol toptirish yo'l idagi yutuqlari yana bir bor e'tirof

etildi. Shuningdek, 2014 yilning 15-16 may kunlari Samarqand shahrida **“O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy tsivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati”** mavzusida xalqaro konferentsiya o‘tkazildi. Bugungi kunda ham mamlakatimiz boy tarixiy, ilmiy-ma’rifiy va madaniy merosni o‘rganish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va targ‘ib etish, islomning ma’rifiy g‘oyalarini yoyish hamda diniy bag‘rikenglikni qaror toptirish va mustahkamlashda butun dunyoga o‘rnak bo‘l moqda. 2017 yil noyabr oyida Samarqand shahrida BMT shafeligida **“Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘l idagi hamkorlik”** mavzusida xalqaro fnjuman o‘tkazildi va unda mintaqadagi fundamental muammolar muhokama qilindi. 2021 yil noyabr oyida Xiva shahrida YUNESKO bilan hamkorlikda **“Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida”** xalqaro anjumanini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Bag‘rikenglikning ziddi “mutaassiblik”dir. Umumiy ma’noda “mutaassiblik” – bu bir g‘oyaning to‘g‘riligiga qattiq ishonish va undan o‘zgaralarini keskin rad etishni anglatadi. Mazkur fenomenning xavfli jihati shunda-ki, u borgan sari kuchayib ksenofobiya, ekstremizm va xatto terrorizmga aylanadi.

Terrorizm butun dunyoda tinchlikni ta’minlash yo‘l idagi asosiy g‘ov, to‘siqdir. Zero, XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro miqyosda o‘zini ochiq namoyon etayotgan xatarli voqealardan biri, turli shiorlar bilan niqoblangan terrorizm mintaqalar va mamlakatlar hayotiga birdek tahdid solmoqda. Keng ko‘l am va xilma-xil ko‘rinishlar kasb etayotgan ushbu illatga qarshi kurash butun dunyo uchun dolzarb muammo bo‘l ib qolmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, bugun dunyo bo‘yicha 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Bir yil mobaynida butun Yer yuzida sodir etilgan teraktlar va ularning oqibatida halok bo‘l ganlarning soni bir necha o‘n mingni tashkil etishi terrorizmning tinchlik va xotirjamlikni izdan chiqarishga qaratilgan asosiy tahdidlardan biriga aylanganini ko‘rsatadi.

Ayni paytda, zamonaviy terrorizmning, bir tomondan, tobora shafqatsizroq g‘ayriinsoniy mohiyat, ikkinchi tomondan, aqlga sig‘dirish qiyin bo‘l gan jug‘rofiy ko‘l amlar kasb etib borayotganini alohida ta’kidlash muhim. Hozirda har kuni dunyoning u yoki bu burchagida kimlarnidir qo‘rquvga solish orqali muayyan maqsadlarga erishishni ko‘zlagan qo‘poruvchilik harakatlari amalga oshirilmoqda. Va, afsuski, ularning soni muntazam oshib bormoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida diniy mutaassib oqimlar faoliyati XX asrning 80-yillari boshlarida xorijiy ekstremistik markazlar sa’y-harakatlari bilan shakllana boshladi. Mintaqada xorijdan kelayotgan moliyaviy yordam hisobiga jangari sifatida foydalaniladigan shaxslarni tanlash va tayyorlash bilan shug‘ullanadigan guruhlar paydo bo‘l di. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgan 1990-yillarning boshlarida esa, bu guruhlar faollashib ketdi. Mintaqada asosan “Hizbut-tahrir”, “Turkiston islom harakati”, “Akromiylar”, “Nurchilar” kabi guruhlarining faoliyati kuzatildi.

Islom asoslarini buzib talqin qilish, ilmsiz, tashqi ta’sirga beriluvchan aholini o‘z talqinidagi diniy g‘oyalar bilan zaharlash, o‘zlariga qo‘shilmagan kishilarga, davlatlarga va tuzimlarga nisbatan zo‘ravonlik, buzg‘unchilik, qotillik qo‘l lashni halol deb hisoblash kabi xususiyatlar yuqorida zikr etilgan tashkilotlarning barchasiga xosdir. Afsuski, so‘n ggi yillarda mazkur guruhlar faoliyati natijasida dunyo bo‘ylab har yili 30 mingdan ortiq tinch fuqaro halok bo‘l moqda. O‘n lab million aholi o‘z uylarini tashlab ketish va dunyoning turli mamlakatlarida sarson-u sargardon bo‘l ishga majbur qolmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra esa, bir milliarddan ortiq yosh bolalar ochlikdan o‘l ish xavfi ostidadir. Ularning aksar qismi terrorchilik avj olgan, buzg‘unchi guruhlar tomonidan egallab turilgan hududlarga to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda Iroq, Suriya, Nigeriya, Afg‘oniston, Yaman, Liviya hanuz dunyoning eng qayno nuqtalari hisoblanadi. Tahlilchilar fikricha, hech qaysi davlat o‘zining terrorchilar xurujidan holi ekaniga 100 foiz kafolat bera olmaydi. Jumladan, 2015 yilda dunyoning 96 mamlakati, u yoki bu darajada terrorchilikdan aziyat chekkan.

Mana shunday sharoitda, ekstremizm va terrorizm xavfini to‘g‘ri anglab etish, unga qarshi amaliy choralar ko‘rish davr talabidir. Shunday ekan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: *“Yanada ogoh va sergak bo‘l ish, eng asosiy boyligimiz bo‘l gan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko‘p millatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko‘z qorachig‘idek asrash*

hamda yanada mustahkamlash O'zbekistonni o'z Vatani, deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir".

Davlatimizning din sohasidagi siyosati O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida yanada mustahkamlandi. Strategiyaning beshinchi yo'nalishida "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar" belgilangan.

Strategiyaning ushbu yo'n alishida amalga oshirilgan ishlarni chuqur tahlil qilsak, 25 ta amaliy islohotni amalga oshirishni ko'zda tutadigan 54 dan ortiq qonun hujjati qabul qilinganining o'zi bu boradagi davlat siyosatida jiddiy o'zgarishlar va haqiqiy sifat jihatidan yangilanishlar miqyosidan dalolat beradi.

O'zbekiston xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari kabi dunyoga mashhur notijorat nohukumat tashkilotlar bilan konstruktiv hamkorlik uchun o'z eshiklarini ochdi.

Ta'kidlash joiz, uzoq yillardan buyon birinchi marta BMTning e'tiqod erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Ahmad Shahid O'zbekistonga keldi. Ushbu tashrifning yakunlari O'zbekiston parlamenti tomonidan qabul qilingan alohida hujjatda o'z aksini topdi. Mazkur hujjat e'tiqod erkinligini ta'minlash, e'tiqod erkinligi to'g'risidagi qonunchilikni qayta ko'rib chiqish va diniy tashkilotlar faoliyatini soddalashtirishga qaratilgan kompleks tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Mamlakatimizda 16 diniy konfessiyaga mansub 2 ming 256 ta diniy tashkilot faoliyat yuritmoqda. Jumladan, 2063 islom dini bilan bog'liq tashkilotlar, 175 xristianlik tashkiloti, 8 yahudiy, 6 bahoiy jamoalari, "Iegova shohidlari", bitta Krishna jamiyati va bitta Budda ibodatxonasi, shuningdek, O'zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati mavjud.

O'zbekistonda diniy masalalar bilan bog'liq muammolari bo'lgan odamlar va oilalar "qora ro'yxati"dan xalos bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilk bor o'zining afv etish huquqidan foydalandi. Natijada ko'pchiligi diniy jinoyatlar uchun mahkum etilgan 3000 dan ortiq fuqaro afv etildi.

O'zbekistonda – ta'lim olish huquqi barcha fuqarolarga ularning dinga munosabatidan qat'iy nazar ta'minlanadi.

Oliy va o'rta diniy ta'lim muassasalariga fuqarolar majburiy umumiy o'rta ta'lim olganlaridan so'ng qabul qilinadi.

Diniy o'quv maskanlarida diniy fanlardan dars beruvchi shaxslar diniy ta'limga ega bo'lishlari lozim.

Bugungi kunda respublikamizda O'zbekiston Islom akademiyasi, Toshkent islom instituti, Mir Arab oliy madrasasi, 9 madrasa, shu jumladan, 2 ixtisoslashtirilgan ayollar bilim yurti, Toshkent pravoslav seminariyasi, Toshkent xristian seminariyasi kabi o'quv dargohlari faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimizda Islom tsivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro tadqiqot markazlari tashkil etilgan. Viloyatlarda kalom, hadis, fiqh, aqida va tasavvuf ilmlarini o'rganishga ixtisoslashtirilgan 5 ilmiy maktab ochilgan.

Shuningdek, O'zbekiston to'liq Injil xristianlari markazi, O'zbekiston Evangel xristian-baptistlar cherkovlari uyushmasi va boshqalar faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, "Ziyorat turizmi"ni rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e'tibor ham O'zbekistonning xayrixohligi va ochiqligidan dalolat beradi. Turizm sohasini sifatli diniy-ma'rifiy dasturlar bilan boyitish ishlari olib borilmoqda. Jahon hamjamiyatiga islomning haqiqiy insonparvar mohiyatini etkazish, uning boy merosini asrash va o'rganishga qaratilgan xalqaro tadbirlar tashkil etilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda Qur'on, Eski Tavrotning 16 kitobi va Injilning barcha kitoblari o'zbek tiliga tarjima qilingan va nashr etilgan. Har yili iyul oyida apostollar Petr va Pavel sharafiga diniy kitoblar yarmarkasi hamda diniy kitoblar va cherkov buyumlari xalqaro ko'rgazmasi o'tkazib kelinmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston ushbu sohadagi qonunchilik va huquqni qo‘l lash amaliyotini takomillashtirish ishlarini faol davom ettirmoqda.

Umuman, O‘zbekistonning din sohasidagi siyosati zahirida davlatning dunyoviyligi, din va davlat bir-biridan ajratilgani haqidagi tamoyil yotadi.

3. O‘zbekiston Respublikasining o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosati

Har qanday suveren davlat jahon hamjamiyatiga o‘zining tashqi siyosiy qarashlari, umumplanetar muammolarga munosabatlari hamda azaliy munozaralar va muzokaralar obyekt bo‘lgan urush va tinchlik masalalariga yondoshuvlari bilan kirib boradi. Bu borada O‘zbekiston o‘z mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq aniq siyosiy pozitsiyasini va tashqi siyosat borasidagi Kontsepsiyasini bayon etdi. Jumladan, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O‘zbekistonning tashqi siyosatini qonun bilan kafolatlab berdi. Uning 17-moddasida O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekt sifatida davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning dahlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanishi belgilab qo‘yildi. Davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida turli ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi, zarur bo‘l ganda ulardan ajralib chiqishi mumkin ligi asosiy qonunda belgilab berildi.

Shu bilan birga 1994 yilda “O‘zbekiston tashqi siyosat tamoyillari tug‘risida” qonun qabul qilindi. Unda quyidagi tamoyillar o‘z aksini topgan edi:

o‘zaro manfaatlarni inobatga olgan holda o‘z milliy manfaatlarining ustuvorligini ta‘minlash, biron-bir buyuk davlatlarning ta‘sir doiralariga kirmaslik;

odamlar va davlatlar orasidagi munosabatlarda umumbashariy qadriyatlar ustuvorligini ta‘minlagan holda, respublika xalqaro sahnada tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, mojarolarni tinch yul bilan hal qilish uchun harakat qiladi;

teng huquqlilik va uzaro manfaat, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

mafkuraviy qarashlardan qat‘i nazar tashqi siyosatda ochiqlik tamoyilini ta‘minlash;

xalqaro huquq me‘yorlarining milliy huquqdan ustuvorligi;

tula ishonch asosida ikki va kup tomonlama tashqi aloqalarni urnatish, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashirish.

Uzbekiston xalqaro siyosatga kirib borgani sari uning xalqaro masalalar borasidagi faolligi, tashabbuskorligi tobora oshib bordi. Masalan, Uzbekiston Respublikasi 100 dan ortiq xalqaro tashkilotga a‘zo bo‘l di. Shular orasida BMT, ShHT, MDH, EXHT, Islom konferentsiyasi tashkiloti va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekistan tashqi siyosatida buyuk davlatlar bilan bo‘l gan munosabatlari alohida ahamiyatga ega. 2002 yil 12 martda Uzbekistan bilan AQSh o‘rtasida “Strategik sheriklik va hamkorlik asoslari” to‘g‘risida deklaratsiya imzolandi. Ikki yildan so‘n g, 2004 yil iyun oyida Uzbekistan va Rossiya rahbarlari Strategik sheriklik to‘g‘risidagi bitmga imzo qo‘yishdi. Uzbekiston Xitoy, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi bilan ham o‘z munosabatlarini aynan strategik hamkorlik darajasiga ko‘targan.

Uzbekiston Respublikasining tashqi siyosati murakkab xalqaro muhitda shakllanib va rivojlanib kelmoqda. “Sovuq urush” davri tugaganidan so‘ng shakllanayotgan yangi jahon tartiboti Markaziy Osiyo davlatlari va ayniqsa, Uzbekistonga ham jiddiy ta‘sir qilmoqda. Xususan, Uzbekiston ham mintaqada yangicha avj olayotgan geosiyosiy kurashdan xoli emas. 21-asr boshida davlatimiz yangi jahon tartiboti va umuman, xalqaro tizimga moslashib, mustaqil siyosat yurgizishdek muhim sinovdan o‘tmoqda.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, O‘zbekiston davlatining ichki va tashqi siyosatida mustahkam izchillikning mavjudligini mustaqil davlatchilik tarixi isbotlab turibdi. Birinchi Prezident I.A.Karimov tamal toshini qo‘ygan va jahon maydonida o‘ziga xos sinovlardan o‘tgan O‘zbekiston davlati tashqi siyosati zamonaviy talablar, bugungi ehtiyojlar va dunyoviy

qarashlarning eng ilg'or namunalari bilan boyitib borilmoqda. Demak, O'zbekiston o'zining yangi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev timsolida o'tgan 25 yilda to'plangan tarixiy tajribalarga tayangan holda uni yanada boyitish, takomillashtirish, rivojlantirish yo'lidan bormoqda.

O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga o'z vaqtida va adekvat javob choralari orqali echishni talab etadigan XXI asrning o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy voqeliklarini inobatga olgan holda qurilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatining asosiy maqsadlari bu davlat mustaqilligi va suverenitetini yanada mustahkamlashdan, mamlakatning xalqaro munosabatlarini to'laqonli subyekti sifatidagi o'rni va rolini yanada kuchaytirishdan hamda milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, mamlakat iqtisodining barqaror va tez sur'atlar bilan o'sishi, uning ochiq demokratik davlat qurish yo'lidagi jadal siyosat olib borishi va rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratishdan iboratdir. O'zbekiston o'z tashqi siyosatida quyidagi printsiplarga sodiq bo'lib qolmoqda:

- o'zining milliy manfaatlariga asoslangan ochiq, pragmatik va puxta o'ylangan tashqi siyosat olib borish;

- teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, suverenitetni, hududiy yaxlitlikni hurmat qilish, chegaralarning daxlsizligi va davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, munozarali masalalarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik;

- Tashqi siyosiy faoliyat kontseptsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlariga, uning farovonligi va xavfsizligiga, mamlakatni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlariga, amaldagi milliy qonunchilik hamda qabul qilingan xalqaro majburiyatlarga amal qilgan holda ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish, shuningdek ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi;

- O'zbekiston tinchliksevar siyosat yuritadi va harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Aslini olganda tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, davlatning siyosiy qarashlari va jahon hamjamiyatidagi xalqaro munosabatlarda uzviylikning mavjudligi uning jahon hamjamiyatidagi mavqeini belgilash bilan birga ichki siyosatda barqaror taraqqiyotning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda mavjud ichki va tashqi siyosatning ana shunday sog'lom, qat'iyatli va ishonchli rivojlanishining mavjudligi bevosita uning ham dunyoviy, ham ichki mavqeini belgilamoqda. Hozirgacha mavjud siyosiy qarashlar XXI asrda inson va insoniyat taqdiri bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlar tizimini qamrab olmoqda. Jumladan, Prezident Sh.Mirziyoyev bugungi kunda va olis istiqbolda O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy vazifalarini aniq belgilab berdi. Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi qo'shni davlatlardagi qurolli mojarolarga va keskinlik o'choqlariga aylanishining oldini olish yuzasidan siyosiy, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlarni ko'radi, shuningdek o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari va obyektlari joylashtirilishiga yo'l qoymaydi;

- siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarda xalqaro hamkorlikni izchillik bilan rivojlantirish;

- mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyatni va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;

- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot zonasiga aylantirish, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikka erishishga ko'maklashish;

- jahonning etakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko'pqirrali tizimini shakllantirish, mintaqada geosiyosiy muvozanatni saqlab turish, O'zbekistonning savdo, iqtisodiy, texnologik, transport va boshqa aloqalarini keng diversifikatsiya qilish;

- mavjud yoki yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida hal etish uchun siyosiy diplomatik hamda xalqaro huquqiy mexanizmlardan, jumladan, preventiv diplomatiya chora-tadbirlaridan foydalanish;

- O'zbekistonning siyosiy va savdo-iqtisodiy sohadagi ishonchli, mas'uliyatli sherik sifatidagi xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatimizning tashqi dunyo uchun investitsion, sayyohlik, madaniy-tarixiy jozibadorligini kuchaytirish;

- milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari va ilg'or texnologiyalarini jalb etish jarayonlarini kuchaytirish uchun ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish;

- O'zbekistonning dunyoning yirik bozorlariga kafolatli chiqishini ta'minlaydigan ko'p muqobilli transport-kommunikatsiya yo'l aklarining tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

- xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash.

Yuqoridagi vazifalar, aytish mumkinki, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga tobora chuqurroq kirib borishini ta'minlaydi. Har tomonlama o'zaro manfaatli hamkorlik chuqurlashib boradi. Ayni paytda O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqegini, siyosiy va iqtisodiy salohiyatini namoyon qiladi.

Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, keyingi 2-3 oyda O'zbekistonning tashqi siyosatida muhim voqealar yuz berdi. Jumladan, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti 2016 yil 24 dekabr kuni amaliy tashrif bilan Samarqandga keldi. Har ikki davlat rahbarlari azaliy qardoshlik tuyg'ulari asosida shakllangan yaqin qo'shnichilik tuyg'ularini ifoda etishdi. Xalqlarimiz tarixiy, madaniy va diniy qadriyatlarini mushtarak ekanligi, ana'ana va urf-odatlarini o'xshashligi siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan har ikki davlat o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunish va ishonchga asos bo'l ishi ta'kidlandi. Har ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, savdo va madaniy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga kelishib olindi. 2016 yil 16 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi tashqi ishlari vaziri o'rinbosari Alan Dunkanni qabul qildi. O'zbekiston Buyuk Britaniyani jahon siyosati va iqtisodiyotida muhim o'rin tutadigan davlat bilan siyosiy, iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni izchil davom ettirish, xalqaro maydonda, jumladan, mintaqaviy xavfsizlik masalalari bo'yicha hamkorlikni yanada mustahkamlashga kelishib olindi. 2017 yil 19 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev jahon banki vitse-prezidenti Siril Myullerni, 1 fevral kuni esa Amerika-O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemmni qabul qildi. Shu yilning 15 fevral kuni Iqtisodiy Hamkorlik bo'yicha Rossiya Hukumatlari komissiyasining navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Rossiya Federatsiyasi hukumati raisining o'rinbosari Dmitriy Kozakni qabul qildi. Bular O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan mustahkam aloqada bo'l ganligidan, har tomonlama manfaatli hamkorlikni yanada chuqurlashtirib borayotganidan dalolat beradi.

2017 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida qayd etilgan masalalar, muammolar, ularning echimlari bilan bog'liq vazifalar qo'yilishi, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar mutlaqo yangi, hal qiluvchi bosqichga kirganini yaqqol ko'rsatmoqda. Murojaatnomada boshqa muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar qatorida ijtimoiy taraqqiyotning asosiy negizi bo'l gan, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, milliy va mintaqaviy xavfsizlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik masalalariga alohida to'xtalib o'tildi. Ma'lumki, tinchlik, barqarorlik bo'l magan joyda kelajakda taraqqiyot rejalarini tuzishga imkoniyat bo'l maydi. Shu sababli mustaqillikning daslabki kunlaridan boshlab xavfsizlik va barqarorlikni xalqaro maydonda ham Markaziy Osiyo mintaqasida ham milliy xavfsizlikni ta'minlash masalasi O'zbekistonning davlat siyosatidagi ustuvor yo'n alish va qat'i tamoyili bo'l ib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda imzolangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'n alish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida mamlakatimizni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'l gan yo'n alishlardan biri sifatida uning beshinchi yo'n alishi *xavfsizlik*,

millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'n alishlari deb nomlangan.

*Bu - dolzarb mavzu, Prezidentimiz tomonidan 2017 yil 19 sentyabr BMT Bosh Assamblyasining 72 — sessiyasi minbaridan aytildi va tashkilotga a'zo davlatlar tomonidan qo'l lab-quvvatlandi*⁸⁵.

2017 yil 10 noyabrda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferentsiyada ham mamlakatimizda Harakatlar strategiyasi doirasida chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli hamda amaliy tashqi siyosat olib borilayotganining va O'zbekiston yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik hamda ahil qo'shnicilik muhitini shakllantirish bo'yicha qat'i qadamlar tashlayotganining yaqqol ifodasi bo'ldi.

Prezidentimiz mintaqadagi xavfsizlik masalasiga alohida to'xtalar ekan, jumladan, shunday dedi: “...Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlashdir. Bugungi kunda mintaqaning barcha mamlakatlari terrorism, diniy ekstrimizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga duch kelmoqda... Xavfsizlikka tahdidlarni “o'ziniki va o'zgalarniki” deb ajratishdan voz kechish, “yaxlit xavfsizlik” tamoyiliga rioya qilish zarur, degan qat'i fikrdamiz”⁸⁶.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev konferentsiyada alohida qayd etganidek, bizning bosh maqsadimiz — umumiy sa'y-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdan iborat.

Darhaqiqat, bugun O'zbekiston yaqin qo'shnicilik, do'stlik tamoyillariga tayangan holda, faol hamda pragmatik siyosat olib bormoqda.

Yurtboshimiz tashabbusi tufayli mintaqa mamlakatlari bilan siyosiy, savdo- iqtisodiy, transport-logistika va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik aloqalari jadal sur'atlarda rivojlanib boryapti. Masalan, yil boshidan buyon O'zbekistonning mintaqa mamlakatlari bilan tovar aylanmasi o'rtacha 20 foiz, ayrim davlatlar bilan esa qariyb 70 foiz o'sgani ham bu sa'y-harakatlarning amaliy tasdig'idir.

Forum ishtirokchilari tomonidan ta'kidlanganidek, O'zbekiston bahsli, ta'bir joiz bo'lsa, o'ta jiddiy hamda nozik masalalarni tezroq hal qilish va o'zaro ishonchni yanada mustahkamlash bo'yicha siyosati hamda intilishi qat'i ekanligini so'zda emas, amaliy ishlari bilan isbotlamoqda. O'zbek — qirg'iz davlat chegarasining 85 foizi bo'yicha kelishuvga erishilgani, chegara-o'tkazish postlari faoliyati qayta tiklangani, chegaradosh viloyatlar aholisining o'zaro bordi-keldisi ancha engillashgani buning yaqqol tasdig'idir. Bularning barchasi Markaziy Osiyoda siyosiy ishonch muhitini mustahkamladi, odamlarimizning kelajakka bo'lgan ishonchini yanada kuchaytirdi.

Davlatimiz rahbari xalqaro konferentsiyada mintaqada tinchlik va barqarorlikni, davlatlar o'rtasida hamkorlik hamda muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, transport- logistika, madaniy-gumanitar sohalarda aloqalarni kengaytirishga yo'n altirilgan amaliy tashabbuslarni ilgari surdi.

Xalqaro anjumanda ekspertlar mintaqada xavfsizlikka erishish uchun qo'shni davlatlar sa'y-harakatlarini birlashtirish, faol madaniy-gumanitar muloqotni davom ettirish, mamlakatlarimizda madaniyat kunlari va turli ijodiy tadbirlarni muntazam tashkil qilish, ta'lim hamda sayyohlik sohasidagi almashuvlarni “xalq diplomatiyasi”ning eng muhim vositasi sifatida rivojlantirish Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash va barqaror taraqqiyotga erishishning muhim omili hisoblanishini ta'kidladi. Shu ma'noda, oddiy hamda ochiq insoniy muloqot — mintaqada do'stlik, hamjihatlik va barqarorlik muhitini mustahkamlaydigan eng ishonchli usuldir.

O'zbekiston rahbari ilgari surgan ezgu tashabbuslar pirovardida oliy maqsadga, ya'ni

⁸⁵Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи. “Халқ сўзи”, 2017 йил 20 сентябрь, № 189(6883).

⁸⁶Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференциядаги нутқи / “Халқ сўзи” газетаси 2017 йил 11 ноябрь № 228(6922)сон.

“Markaziy Osiyo” deb atalgan umumiy uyimizda tinchlik hamda barqarorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan⁸⁷.

2017 yil 4 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan kelgan Afg‘oniston Islom Respublikasi sobiq Prezidenti Muhammad Ashraf G‘ani rasmiy tashrifi davomida ham o‘zaro manfaatli aloqalar va xavfsizlik masalalari alohida muhokama qilingandi.

Ikki davlat rahbarlari va hukumatlar delegatsiyalari o‘rtasidagi muloqotlar chog‘da savdo-iqtisodiyot, transport, tranzit, energetika, kimyo, agrosanoat, ta‘lim, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirish, o‘zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilingandi.

Muzokaralar yakunida O‘zbekiston va Afg‘oniston Prezidentlarining Qo‘shma bayonoti imzolangandi.

Bugungi kunda Tolibon muvaqqat hukumati bilan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, va boshqa sohalarda hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan kelishuvga kelingan. Surxon - Puli Xumri elektr uzatish liniyasini qurish, Mozori Sharif - Shibirg‘on - Maymana - Hirot temir yo‘l ini barpo etish, yuk tashish, bojxona sohasidagi aloqalarga kelishilgan.

Shuningdek, tashrif doirasida umumiy qiymati 500 million dollardan ziyod bo‘lgan 40 dan ortiq eksport shartnomasi imzolandi.

2017 yil 6-7 mart kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmanistonga davlat tashrifi davomida ham ikki davlat va mintaqa hayoti, xavfsizligi bilan bog‘liq masalalar muhokama markazida bo‘ldi.

Bu yaqinlik mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlik rivojiga asos bo‘lmoqda. O‘zbekiston - Turkmaniston aloqalari 2007 yilda imzolangan Do‘stona munosabatlar va har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash to‘g‘risidagi davlatlararo shartnoma asosida izchil taraqqiy etmoqda.

Oliy darajadagi tashriflar muntazamlik kasb etgani davlatlararo munosabatlar yuksak darajada ekanidan dalolatdir. O‘zbekiston va Turkmaniston Prezidentlarining bu galgi uchrashuvi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asos solgan o‘zaro manfaatli va faol muloqotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Mamlakatlarimizning siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorligini rivojlantirish borasidagi maqsad va yondashuvlari mushtarakligi, tomonlar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalarda bir-birini qo‘l lab-quvvatlab kelyapti.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Turkmanistonning tashqi siyosati betaraflik, tinchliksevarlik, yaxshi qo‘shnichilik tamoyillariga qurilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida ham izchil hamkorlik qilinmoqda.

Transchegaraviy daryolardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatlarimiz sayyohlik sohasida ham ulkan imkoniyatlarga ega. “Buyuk ipak yo‘li” loyihasi doirasida o‘zaro sayohatlar tashkil etilmoqda.

Muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov Qo‘shma bayonotni, O‘zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o‘rtasida strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar. Tegishli vazirlik va idoralar o‘rtasida 2018-2020 yillarda iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma, temir yo‘l transporti sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga oid memorandum, 2017-2019 yillarga mo‘l jallangan madaniy-gumanitar hamkorlik dasturi, 2017-

⁸⁷Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мазусидаги халқаро конференциядаги нутқи / “Халқ сўзи” газетаси 2017 йил 11 ноябрь № 228(6922)сон. Яна: <http://senat.uz/uz/news/2017/artides/15-11.html>

2018 yillarda tashqi ishlar vazirliklari oʻrtasidagi hamkorlik dasturi, Oʻzbekistondan Turkmanistonga qishloq xoʻjaligi texnikalari va kimyo mahsulotlari etkazib berish toʻgʻrisidagi shartnomalar imzolandi. Xorazm viloyati bilan Dashovuz viloyati, Buxoro viloyati bilan Lebap viloyati hokimliklari oʻrtasida savdo- iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik toʻgʻrisida bitimlar imzolandi.

Shuningdek, Prezidentimizning Turkmanistonga 19-20 may kunlari boʻlgan amaliy tashrif davomida ham shu kabi masalalar muhokama qilindi va tegishli shartnomalar imzolandi. Ikki davlatning tinchlikparvar tashqi siyosati, xalqaro muammolar borasida bir-birini qoʻllab-quvvatlashi, turli tahdidlarning oldini olish masalalariga yondashuvlari oʻxshashligi alohida taʼkidlandi. Oʻzbekiston ham, Turkmaniston ham terrorizm, diniy ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, qurol-yarogʻ va narkotik moddalar kontrabandasiga qarshi hamkorlikda kurashish tarafdori. Tashrif yakunlari mamlakatlarimizning vaqt sinovidan oʻtgan va izchil rivojlanib borayotgan hamkorligiga yangi surʼat baxsh etadi⁸⁸.

Ayrim ekspertlarning fikricha, Markaziy Osiyo istiqbolda 2040 yilgacha eng tez oʻsuvchi mintaqalardan biriga aylanishi mumkin. Biroq imkoniyatlar hamda bu oʻsish sifati mintaqa davlatlari oʻrtasidagi mintaqaviy hamkorlik shakli va uning darajasi bilan belgilanadi. Bugungi kunda uch davlat (Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Turkmaniston) sanoatlashtirishni jadallashtirish siyosatini faol ravishda amalga oshirmoqda. Oʻzbekiston 2030 yilga qadar iqtisodiyotning strategik sohalarida umumiy qiymati 40 milliard dollardan koʻproq boʻlgan 657 loyihani amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Bu roʻyxatga sanoatdagi, shuningdek, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yoʻnaltirilgan loyihalar kiradi. Ushbu loyihalarni amalga oshirish YaIM tuzilmasidagi sanoat sohasi ulushini 2016 yildagi 32,9 foizdan 2030 yilgacha 40 foizga qadar etkazish imkonini beradi. Bu esa “Oʻzbekiston-Qozogʻiston”, “Oʻzbekiston-Turkmaniston” iqtisodiy boʻgʻinlarini yaratish va yangi “Oʻzbekiston-Turkmaniston-Qozogʻiston” konfiguratsiyasini yaratish mumkin⁸⁹.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2018 yil 5 apreldagi farmoni bilan oʻrta muddatli istiqbolda Oʻzbekiston Respublikasining asosiy xorijiy sheriklar bilan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy hamkorligini rivojlantirishning ustuvor yoʻn alishlari tasdiqlandi. Unga koʻra Oʻzbekiston davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini uzil-kesil nihoyasiga etkazish tashqi siyosatimizning ustuvor yoʻn alishlaridan biri sifatida qayd etilgan.

Chegarani huquqiy jihatdan rasmiylashtirishni hal etish masalasini jadallashtirish Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturida ham oʻz aksini topgan.

Maʼlumki, mintaqa markazida joylashgan Oʻzbekiston Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari bilan umumiy chegaraga ega. Uning uzunligi 7000 kilometrdan ziyod, jumladan, Qozogʻiston bilan – 2356,31, Qirgʻiziston bilan – 1476,12, Tojikiston bilan – 1296,9, Turkmaniston bilan – 1831,49, Afgʻoniston bilan – 143 kilometrni tashkil etadi⁹⁰.

Keyingi yillarda Oʻzbekistonning xorijiy davlatlar bilan hamkorligi faollashishi barobarida, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalari boʻyicha muzokaralar jarayoni muntazamlilik kasb etdi. 2016 yil avgust oyidan 2018 yil avgust oyiga qadar Oʻzbekiston hukumati delegatsiyasi qoʻshni mamlakatlar hukumat delegatsiyalari bilan jami 65, jumladan, Qozogʻiston bilan 18, Qirgʻiziston bilan 28, Tojikiston bilan 9, Turkmaniston bilan 9, Afgʻoniston bilan 1 uchrashuv oʻtkazdi⁹¹.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 5 sentyabrdagi Qirgʻiziston Respublikasiga, 2018 yil 9 martdagi Tojikiston Respublikasiga davlat tashriflari davomida oʻzbek-qirgʻiz davlat chegarasi haqidagi shartnomaning kelishilgan qismi va Oʻzbekiston-Tojikiston davlat chegarasining ayrim uchastkalari haqidagi shartnoma imzolanishi chegarani

⁸⁸<http://xs.uz/index.php/homepage/rasmij/item/10227-zbekiston-turkmaniston-ardoshlik-rishtalari-mustakamlanib-amkorlik-yuksak-natizhalar-bermo-da>

⁸⁹<http://kuauz/news/2017/04/22/uzbekiston-turkmaniston-kozogiston-angi-ucburcak-sakllanadimi>

⁹⁰<http://uza.uz/oz/society/davlat-chegaralarini-rasmiylashtirishni-zhadallashtirish-zbe-16-08-2018>

⁹¹<http://uza.uz/oz/society/davlat-chegaralarini-rasmiylashtirishni-zhadallashtirish-zbe-16-08-2018>

delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegaraoldi muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Pirovardida, O'zbekiston Prezidentining ochiq va pragmatik siyosati tufayli O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston o'rtasidagi davlat chegaralarining tutashuv nuqtasini belgilab olish masalasida anglashuvga erishildi. 2017 yil noyabr oyida Samarqandda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo bo'yicha yuksak darajadagi Xalqaro konferentsiya doirasida bu borada tegishli shartnoma imzolandi.

Qozog'iston bilan davlat chegarasini delimitatsiya qilish nihoyasiga etib, ayni paytda bu haqidagi shartnoma uchun zarur hujjatlarni tayyorlash bo'yicha muzokaralar o'tkazilmoqda.

Turkmaniston bilan Davlat chegarasi haqidagi shartnoma 2000 yil sentyabr oyida Ashxobodda imzolaniib, unda 10 ta uchastka bo'yicha ishlarni davom ettirishga kelishilgan edi. 2017 yil mart oyida mamlakatimiz Prezidentining Turkmanistonga davlat tashrifi chog'da Ashxobodda erishilgan yuksak darajadagi kelishuvga muvofiq, uzoq yillik tanaffusdan so'ng chegara masalalari bo'yicha ishchi guruhlar muzokaralari tiklandi.

2018 yil fevral oyida Afg'oniston rasmiylari bilan bo'lgan uchrashuvda Amudaryo sohillari bo'ylab chegara chizig'ini mustahkamlash masalasi ko'rib chiqildi.

O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan chegaralari masalasini tartibga solish nafaqat mintaqa va MDH mamlakatlari, balki butun dunyoda ijobiy e'tirofga sazovor bo'ldi. Xorijiy ekspertlarning bu haqdagi fikrlari e'tiborga loyiq.

Britaniyalik siyosatshunos Saypir Furstenberg: «Hukumat tepasiga kelganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, Shavkat Mirziyoyevning ezgu ishlari nafaqat so'zda, balki amalda ham o'z isbotini topmoqda. Uning Nyu-Yorkka tashrifi O'zbekiston rahbarining BMTga so'n ggi 15 yildagi ilk tashrifi bo'l di. Shu yo'sinda Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonning ko'p yillar davom etgan o'z-o'zini yakkalatish jarayoniga nuqta qo'ydi. Bundan tashqari, Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan mamlakat kelajagiga oid ko'plab g'oyalar hayotga tatbiq etila boshladi. Xususan, Qirg'iziston bilan chegarani delimitatsiya qilish haqidagi shartnomaning tuzilishi O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar bilan sheriklik munosabatlarini tiklash yo'lidagi sa'y-harakatlarining amaliy natijasi bo'ldi. Ushbu muammo ikki tomonlama munosabatlarni yo'lga qo'yishda to'siq bo'lib kelayotgan edi».

AQSh Davlat kotibining Janubiy va Markaziy Osiyo ishlari bo'yicha yordamchisi o'rinbosari Ellis Uells: «Bugungi kundagi eng muhim yangiliklardan biri shuki, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Natijada Markaziy Osiyo davlatlarining o'z salohiyatini to'liq namoyon qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Shavkat Mirziyoyev davlatni tashqi dunyoga ochmoqda, qo'shnilarga do'stlik qo'lini uzatmoqda, chegaralarga oid masalalarni hal etish choralarini ko'rmoqda»⁹².

MDH davlatlari institutining Markaziy Osiyo bo'limi mudiri Andrey Grozin: «Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo siyosat maydonida paydo bo'lishi qo'shni mamlakatlar munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonda rahbariyat o'zgargandan so'ng Markaziy Osiyoda davlatlararo munosabatlar tizimi shakllanmoqda. O'tgan yil mobaynida Toshkent turli yo'nalishlarda yuksak darajadagi faollikni namoyish qildi. Shavkat Mirziyoyevning Bishkekka tashrifi va chegaralarni qisman delimitatsiya va demarkatsiya qilish to'g'risidagi kelishuvning imzolanishi bunga yorqin misoldir».

Nashriyotning amerikalik kolumnisti va "Corsair LLC" konsalting kompaniyasi boshqaruvchi direktori Jeyms Durso «O'zbekiston Qirg'iziston bilan chegarani delimitatsiya qilish to'g'risidagi kelishuvni imzoladi. Toshkent hatto Norin daryosida GES qurilishida yordam berishga rozi bo'l di. Farg'ona vodiysida nazorat-o'tkazish punktlari ishining tiklanishi va aholining ikki mamlakat o'rtasida bordi-keldilarini engillashtirish Shavkat Mirziyoyevning Bishkekka tashrifining muhim natijalaridan biri bo'ldi»⁹³, deb yozadi.

Xorijiy siyosatshunos va ekspertlarning bunday izohlarini ko'plab keltirish mumkin. Ular Prezident Shavkat Mirziyoyevning yaxshi qo'shnilik va do'stlikka asoslangan ochiq siyosati

⁹²<http://uza.uz/oz/society/davlat-chegaralarini-rasmiylashtirishni-zhadallashtirish-zbe-16-08-2018>

⁹³ Ўша манба.

O'zbekiston rahbari murosa qilish va yillar davomida to'planib, qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni rivojlantirish yo'lida g'ov bo'lib kelayotgan eng murakkab masalalarga echim topish qobiliyatiga ega ekanidan dalolat bermoqda, degan yakdil fikrda.

Darhaqiqat, Qirg'iziston va Tojikiston bilan imzolangan chegara haqidagi shartnomalar mamlakatimiz uchun zamonaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, chegaraoldi hududida savdo, tovar aylanishi hajmini oshirish yo'lida keng imkoniyatlarni ochib berdi va eng asosiysi, tarixiy ildizi tutash, qon-qarindosh xalqlar bordi-keldisi uchun qulay sharoitlar yaratdi.

Qirg'iziston bilan chegara punktlaridagi cheklovlarni olib tashlash, Tojikiston bilan chegara postlarining to'laqonli faoliyat yuritishi bo'yicha erishilgan kelishuvlar tufayli har kuni o'zbek-qirg'iz chegarasidan o'tuvchi fuqarolar soni 30 mingtani, o'zbek-tojik chegarasidan o'tuvchilar esa 20 mingtani tashkil etmoqda⁹⁴.

O'zbekiston davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari bilan muzokaralar jarayoni 2000 yilda Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini belgilash va jihozlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq boshlangan.

Ushbu jarayon 2000 yil sentyabrda Ashxobodda Turkmaniston bilan yuqorida qayd etilgan chegara to'g'risidagi kelishuv imzolanishiga qadar davom etdi. 2002 yil 5 oktyabrda Dushanbeda o'zbek-tojik chegarasining kelishilgan qismi to'g'risidagi kelishuv imzolangan.

Qo'shni mamlakatlar bilan chegaralarni qat'iy tartibga solish bo'yicha 15 yildan buyon davom etayotgan muzokaralar natija bermagani hech kimga sir emas. Natijada barcha boshi berk ko'chaga kirib qolgan edi.

Afsuski, buning natijasida chegaralarni delimitatsiya qilish jarayoni kechikibgina qolmay, O'zbekiston va mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish yo'lida sun'iy to'siqlar paydo qildi va bundan asosan oddiy fuqarolar, ayniqsa, chegara yonidagi aholi aziyat chekdi.

O'zbekistonning qo'shni respublikalar bilan munosabatlarida yuzaga kelgan holat ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha yo'nalishlarni qayta ko'rib chiqish va chegaralarni delimitatsiya qilish masalalarini hal etish yondashuvlarini o'zgartirish, chegara o'tkazish punktlari faoliyatini yo'lga qo'yishni qat'iy talab etardi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidenti topshirig'iga ko'ra, chegaralarni uchta asosiy tamoyil asosida delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo'yicha qo'shni mamlakatlar bilan muzokaralar o'tkazishga qaror qilindi. Birinchisi – o'zaro manfaatlarni qat'iy hisobga olish, ikkinchisi – chuqur o'ylangan oqilona murosa, uchinchisi – yer uchastkalari bilan teng almashinuv. Barcha tomonlar mazkur tamoyillarga rioya qilmasdan turib, chegaralarni tartibga solishning imkoni yo'q, degan fikrga kelishdi, chunki barcha Markaziy Osiyo mamlakatlariga avvalgi tizimdan mazkur muammo bo'yicha chalkashlik meros bo'lib qolgan edi.

Samarqand shahrida 2017 yil 10-11 noyabr kunlari BMT shafeligida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha «Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik» mavzuida xalqaro konferentsiyada O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston o'rtasidagi bahsli nuqtalar bo'yicha kelishuvga erishildi.

Qozog'iston bilan davlat chegarasi delimitatsiyasi bo'yicha kelishuvga erishib bo'lingan, endilikda davlat chegaralari demarkatsiyasi bo'yicha zarur hujjatlarni tayyorlash uchun muzokaralar ketmoqda.

Turkmaniston bilan davlat chegarasi bo'yicha kelishuv 2000 yilda Ashxobodda imzolangan. 2017 yil martida ikki davlat rahbarlari uchrashuidagi kelishuvga ko'ra chegara masalalari bo'yicha ishchi guruhlarining muzokaralari yana tiklandi.

Afg'oniston bilan 2018 yil fevralida o'tkazilgan uchrashuv davomida Amudaryo qirg'oqlari bo'ylab chegarani mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Qirg'iziston va Tojikiston bilan chegara masalasida erishilgan kelishuvlar mamlakatimizning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirdi, tovar aylanmasi hajmi o'sishiga olib keldi,

⁹⁴<http://uza.uz/oz/sciety/davlat-chegaralarini-rasmiylashtirishni-zhadallashtirish-zbe-16-08-2018>

eng muhimi chegara hududida yashovchi fuqarolarning chegaralardan o'tishda erkin harakatlanishiga imkon yaratdi.

Endilikda O'zbekiston-Qirg'iziston chegarasidan kuniga 30 mingga yaqin kishi, Tojikiston bilan chegaradan esa kuniga 20 mingga yaqin kishi o'tmoqda.

“Qo'shni mamlakatlarga ishchi safarlarimiz davomida ham biz ushbu davlatlarning mansabdor shaxslari va oddiy aholisi O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevga qo'shni davlatlar bilan ochiq va xayrixoh siyosati uchun samimiy minnatdorchilik bildirishlariga guvoh bo'l amiz», deyilgan edi⁹⁵.



Markaziy Osiyoda chegaralari delimitatsiya va demarkatsiya qilishdagi asosiy muammolar sifatida quyidagilar keltirilgan:

Birinchi va asosiy muammo — legitim asosning, ya'ni Markaziy Osiyoning qariyb barcha mamlakatlari bilan davlat chegaralarini delimitatsiya qilish uchun barcha tasdiqlash tartib-taomillaridan o'tgan huquqiy asosning yo'qligidir.

Ikkinchi muammo — 1924-1927 yillarda, ya'ni Markaziy Osiyo davlatlarini hududiy-chegaralash ishlari amalga oshirilgan yillardagi hamda 1930 yilda va undan keyin qabul qilingan hujjatlardagi qarama-qarshiliklardir.

Uchinchi muammo — xaritalarda aks ettirilgan chegara liniyalari amaliyotda yerlardan, irrigatsiya tarmoqlaridan foydalanish, infratuzilma inshootlari, uy xo'jaliklari va qabristonlar joylashuvida umuman mos kelmaydi.

Ba'zan ommaviy axborot vositalarida yerlarni almashish, ayrim uchastkalarda chegaralarni belgilash hamda anklav masalalarida unchalik ham to'g'ri bo'l magan axborotlar tarqatiladi. Shu sababli, noto'g'ri talqinlarning oldini olish maqsadida chegaralarni huquqiy rasmiylashtirishning barcha tartib-taomillari oxirigacha yetkazilguncha ushbu masalalarda barvaqt xulosa chiqarishdan tiyilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Chegaralarni huquqiy rasmiylashtirish ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda delimitatsiya ishlari, ya'ni chegaralarni xaritada aks ettirish ishlari bajariladi. Ikkinchi bosqichda esa demarkatsiya, ya'ni stolbalarni o'rnatish va boshqa qurilish ishlarini bajarish bilan bog'liq jismoniy ishlar amalga oshiriladi.

2017 yilga kelib O'zbekistonning BMT bilan hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2017 yilning 18-20 sentyabr kunlari AQShga tashrif buyurdi. 19 sentyabr kuni Nyu-York shahrida Prezidentimiz BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashdi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Bosh kotibga BMT Barqaror taraqqiyot

⁹⁵<https://kun.uz/51441427>. Марказий Осиёда чегараларни делимитация ва демаркация қилишдаги асосий муаммолар.

maqsadlariga erishishning "Yo'l xaritasi" O'zbekistonni 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini qo'l lab-quvvatlayotgani uchun minnatdorchilik bildirdi. Shavkat Mirziyoyev Antoniu Guterrish bilan mamlakatimiz va BMT o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari, mintaqaviy masalalar bo'yicha fikr almashdi. "Markaziy Osiyo mintaqasi-tashqi siyosatimizning bosh ustuvor yo'n alishi", deb alohida ta'kidladi Yurtboshimiz. O'zbekiston Prezidenti BMT Bosh kotibini 2017 yil 10-11 noyabr kunlari Samarqandda o'tkazish rejalashtirilgan Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror taraqqiyotning dolzarb masalalari bo'yicha xalqaro anjumanda shaxsan ishtirok etishga taklif qildi. Shu o'rinda Antoniu Guterrish 2017 yil iyun oyida O'zbekistonga tashrifi chog'da ko'rsatilgan mehmondo'stlik va samimiy qabul uchun Shavkat Mirziyoyevga minnatdorchilik bildirdi. Samarqandda bo'lib o'tgan muzokaralar yakunlarini yuksak baholadi. 2017-2020 yillarda BMT, jumladan, Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi qabul qilinganiga alohida e'tibor qaratdi. Bosh kotib O'zbekiston Prezidentining Bosh Assambleyaning 72-sessiyasidagi nutqi mazmundor bo'lganini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zlab, quyidagilarni bayon etdi:

- Umumxalq muhokamasidan so'ng besh yilga mo'ljallangan 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi qabul qilinganligini;

- 2017 yil mamlakatimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatli yili", deb e'lon qilinib, mamlakatimizning barcha hududlarida Prezidentning Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganligini;

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari janob Zayd Raad Al-Husaynning O'zbekistonga tashrifi (10.05.2017y.) yakunlari bo'yicha inson huquqlarini himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash yuzasidan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilganligini;

- O'zbekistonda 2017 yilning 6 sentyabr kundan milliy valyutani erkin konvertatsiya qilish tizimiga to'liq o'tilganligini;

- mamlakatimizda ilk bor tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Ombudsman instituti joriy etilganligini;

- Xavfsizlik Kengashini bugungi kun talablariga mos ravishda kengaytirish zarurligini;

- Bosh kotibning O'zbekistonga tashrifi yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan "yo'l xaritasi"ning amaliy ijrosini ta'minlashni;

- O'zbekiston bugungi kunda o'zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratayotganligini;

- O'zbekiston - Qirg'iziston davlat chegaralari to'g'risidagi shartnoma imzolanishi o'tgan yigirma olti yil davomida birinchi marta ushbu g'oyat nozik masala bo'yicha katta natijaga erishilganligini;

- 2017 yil 10-11 noyabr kunlari Samarqandda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida o'tkaziladigan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'l idagi hamkorlik" mavzusidagi yuqori darajadagi xalqaro anjumanda mintaqadagi fundamental muammolarni muhokama qilishni rejalashtirganligi sababli, ushbu anjuman yakunida biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlikni ta'minlash va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarini qo'l lab-quvvatlashga doir maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifini kiritishni mo'ljallanayotganligini;

- BMT Bosh kotibining "suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liq", degan pozitsiyasini to'la qo'llab-quvvatlanishi hamda O'zbekiston BMTning preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konventsiyalar loyihalarini qo'llab-quvvatlanishini;

- O‘zbekiston BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko‘rgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha 2017 yil qabul qilingan maxsus dastur to‘l iq amalga oshirilishi tarafdori ekanligini; (*Prezidentimiz Orol fojiasi aks ettirilgan xaritanani butun dunyoga namoyish etdi*).
- Afg‘onistonda tinchlikka erishishning yagona yo‘li – markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o‘rtasida oldindan hech qanday shart qo‘ymasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borishdir. Muzokaralar Afg‘onistonliklarning o‘zlari hal qiluvchi o‘rin tutadigan holda, Afg‘oniston hududida va BMT shafeligida o‘tishi lozimligini;
- AQSh Prezidenti Donald Tramp ma‘muriyatining Afg‘oniston bilan qo‘shni mamlakatlarni afg‘on muammosini tinch yo‘l bilan hal qilishga ko‘maklashishga oid da‘vatini qo‘llab-quvvatlashini;
- O‘zbekiston Afg‘onistonning iqtisodiy tiklanishiga, uning transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirishga, milliy kadrlarini tayyorlashga katta hissa qo‘shayotganligini;
- Afg‘oniston masalasi global miqyosdagi masalalar markazida bo‘lishi lozimligi. Xalqaro hamjamiyatning sa‘y-harakatlari, birinchi navbatda, Afg‘onistondagi o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilishi kerakligini;
- Terrorizm va diniy-ekstremizga qarshi birgalikda kurashishni;
- O‘zbekiston globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat - BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqilishini;
- Islom dinida Qur‘oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahihi Buxoriy"ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan, ulug‘ zot Imom Buxoriyning ma‘rifati islom to‘g‘risidagi ta‘limotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilinganligini;
- Markaziy Osiyo Uyg‘onish davrining ko‘plab buyuk allomalarining islom va jahon tsivilizatsiyasiga qo‘shgan bebaho hissasini, g‘oyat boy merosini asrab-avaylash va o‘rganish maqsadida Toshkentda tashkil etilayotgan Islom tsivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu maqsadga xizmat qiladi. Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining "Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishlarini;
- O‘zbekiston hech qanday blokka qo‘shilmaslik maqomini saqlab qolgan holda, ochiq muloqotga tayyorligini va barcha sheriklar bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo‘lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor ekanligi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan jahon hamjamiyatiga uqtirildi⁹⁶.

2020 yil 24 sentyabr kuni Bosh Assambleyaning 75- sessiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tarixida birinchi marta butunlay yangi formatda – koronavirus pandemiyasi tufayli onlayn muloqot rejimida bo‘lib o‘tdi.

Bunday global falokat sayyoramizda so‘n ggi yuz yilda kuzatilmagan edi. Bu ofat butun insoniyatning zaif jihatlarini yaqqol ko‘rsatdi. Hozirgi tahlikali va murakkab vaziyat er yuzidagi barcha davlatlar va xalqlar o‘zaro bog‘liq ekanini, o‘rtamizda muntazam muloqot, ishonch va yaqin hamkorlik o‘ta muhimligini isbotladi.

Mazkur sessiyada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zbek tilida nutq so‘zlab, quyidagi bir qator takliflar bilan chiqish qildi va taklif va tashabbuslar butun ishtirokchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi, jumladan:

1) BMT shafeligida **Pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to‘g‘risidagi xalqaro kodeksni** ishlab chiqish;

⁹⁶ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Ўзбекистон Республикаси. Президенти Ш.М Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нуткидан. 2-жилд. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ,2018. –Б. 245-254.

2) yana bir bor **Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini** qabul qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini qo'l lab-quvvatlashga chaqirish;

3) **Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish va inson huquqlarini ta'minlashda parlamentlar rolini oshirish to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini** qabul qilish;

4) Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida **Transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqaviy markazini ochish;**

5) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global antiterror strategiyasi doirasidagi **Mintaqaviy qo'shma rejaning 10 yillik natijalari va kelgusi istiqbollariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyani o'tkazish;**

6) 2021 yilda YUNESKO bilan hamkorlikda qadimiy Xiva shahrida "**Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida**" degan mavzuda xalqaro forumni o'tkazish;

7) Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida afg'on xalqining dardu tashvishini tinglaydigan, doimiy faoliyat ko'rsatadigan qo'mita tashkil etish;

8) Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini qabul qilish;

9) **Qashshoqlikni tugatish va kambag'allikka qarshi kurashishni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi navbatdagi sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash hamda ushbu masalalarga bag'ishlangan global sammitni o'tkazish.**

Bosh Assambleyaning 75-sessiyasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining muvofiqlashtiruvchi xalqaro tuzilma sifatidagi markaziy o'rnini yanada kuchaytirish lozimligi, O'zbekiston jahonning barcha mamlakatlari bilan keng ko'lamli va o'zaro manfaatli sheriklikni, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning institutlari bilan amaliy muloqotni rivojlantirish uchun doimo tayyor ekanligi ta'kidlandi⁹⁷.

Umuman, O'zbekiston bilan BMT o'rtasidagi hamkorlik aloqalari yildan yilga mustahkamlanib bormoqda. Mustaqillik davrida O'zbekiston davlati BMT bilan samarali hamkorlikni yo'l ga qo'ya oldi, balki BMT faoliyati va obro'sini yanada o'sishiga o'zining katta hissasini qo'shdi, dunyo hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egalladi.

Prezidentimizning 2020 yil 29 dekabr kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'n alishlar sohasida quyidagilar belgilandi:

Kelgusi yilda mamlakatimizning tashqi siyosatini amalga oshirishda quyidagi vazifalarga ustuvor ahamiyat beriladi.

Birinchidan, davlatimiz olib borayotgan ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosatni inobatga olib hamda uzoq muddatli strategik maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi takomillashtiriladi.

Ikkinchidan, tashqi siyosatimizning ustuvor yo'n alishi bo'l gan Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va o'zaro ishonch ruhidagi aloqalarimizni yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratamiz.

Murakkab pandemiya sharoiti biz bir-birimizga qanchalik bog'liq va kerak ekanimizni yana bir bor yaqqol namoyon etdi. Bu ijobiy jarayonlarni chuqur o'rganish va yanada rivojlantirish maqsadida joriy yilda Toshkent shahrida Markaziy Osiyo xalqaro instituti tashkil etildi.

Kelgusi yili Toshkentda mintaqamizning Janubiy Osiyo bilan munosabatlariga doir yuqori darajadagi xalqaro konferensiya o'tkaziladi.

Shular qatorida Xiva shahrida YUNESKO bilan hamkorlikda "Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida" xalqaro anjumanini o'tkazish rejalashtirilgan.

⁹⁷ www.president.uz

Uchinchidan, asosiy xorijiy sheriklarimiz hisoblangan Rossiya, Xitoy, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa davlatlar bilan ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytiramiz.

Tashqi ishlar vaziri va uning o‘rinbosarlari hamda yurtimizning chet ellardagi elchilari mazkur davlatlar bilan yangi, yanada samarali ish tizimini joriy etishlari zarur.

To‘rtinchidan, biz qo‘shni Afg‘oniston zaminida tinchlik o‘rnatilishiga qat’iy ishonamiz va bu ezgu yo‘l da amaliy yordamni bundan keyin ham ayamaymiz.

Afg‘on muammosini hal etishga qaratilgan global sa’y-harakatlarga Toshkent Xalqaro konferensiyasi ham mustahkam poydevor yaratdi, desak, mubolag‘a bo‘l maydi.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyoni Hind okeani bilan bog‘laydigan Trans-afg‘on transport yo‘lagini barpo etish borasida dastlabki amaliy qadamlarni tashladik. Bu loyihaning ro‘yobga chiqarilishi butun mintaqamizda barqarorlik va iqtisodiy o‘rnatilishga ta‘minlashga beqiyos xizmat qiladi.

Beshinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa nufuzli xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirish masalalari doimo e‘tiborimiz markazida bo‘ladi.

Joriy yilda respublikamiz ilk bor Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashkilotiga raislik qildi va pandemiyaga qaramasdan, ko‘zda tutilgan 60 dan ziyod barcha xalqaro tadbirlar muvaffaqiyatli o‘tkazildi, 70 ga yaqin muhim hujjatlar qabul qilindi.

2021-2022 yillarda O‘zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotiga raislik qilishi bo‘yicha ham jiddiy tayyorgarlikni boshladik.

Oltinchidan, inson huquqlarini ta‘minlash, so‘z va diniy e‘tiqod erkinligi bo‘yicha erishayotgan yutuqlarimizni tegishli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda izchil mustahkamlab boramiz.

Kelgusi yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida **“Inson huquqlari bo‘yicha ta‘lim”** global forumi, yoshlar huquqlariga bag‘ishlangan Butunjahon yoshlar anjumani, diniy erkinlik masalalari bo‘yicha mintaqaviy konferensiyalarni o‘tkazamiz.

Yettinchidan, dunyoning ko‘plab mamlakatlaridagi vatandoshlarimizni qo‘llab-quvvatlash va ular bilan aloqalarimizni yanada mustahkamlash maqsadida **“Vatandoshlar”** jamg‘armasini tuzishni taklif etaman.

Sakkizinchidan, jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqamiz.

Barchangizga ma‘lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining rezolyusiyasi bilan har yili 30 iyul – Xalqaro do‘stlik kuni sifatida keng nishonlanadi. Shu bois ushbu sanani O‘zbekistonda **“Xalqlar do‘stligi kuni”** deb belgilashni taklif etaman.

To‘qqizinchidan, mintaqamizda, butun dunyoda ekologik vaziyatning tobora yomonlashib borayotgani bizni jiddiy tashvishga soladi.

Qo‘shni davlatlar va jahon jamoatchiligi bilan birgalikda Orol dengizi halokati oqibatida yuzaga kelgan ekologik fojialar ta‘sirini yumshatishga qaratilgan harakatlarni qat’iy davom ettiramiz.

Dengizning qurigan tubida yuz minglab gektar o‘rmon va butazorlar tashkil etilayotgani, Orolbo‘yi hududlarida amalga oshirilayotgan ulkan qurilish va obodonchilik ishlari xalqimizni yuksak marralar sari ruhlantirmoqda. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda tuzilgan Orolbo‘yi mintaqasida inson xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ko‘p tomonlama Trast fondi doirasidagi amaliy ishlarni yanada kuchaytiramiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tahlillariga ko‘ra, pandemiya xavfi hali uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkin. Demak, insoniyat boshidagi sinovlar yana qancha davom etishi noma‘lum.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, nufuzli ekspertlar prognoziga ko‘ra, pandemiya butun dunyoda inqirozli holatlar, ijtimoiy keskinlik, qashshoqlik kabi muammolarni kuchaytirishi mumkin.

Barchamizga ayonki, pandemiyadan keyin dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasi albatta o'zgaradi.

To'plangan tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, kuchli va samarali boshqaruv tizimiga, bir yoqadan bosh chiqarib yashaydigan aholiga ega bo'lgan davlatlar pandemiyaning keng tarqalish xavfini o'z vaqtida bartaraf etishga qodir bo'lgan adi. Buni O'zbekistonning pandemiya davridagi kurash tajribasi ham isbotlab turibdi. Lekin erishgan natijalarimizga mahliyo bo'lgan masdan, jahondagi vaziyatga sergaklik bilan qarab, barchamiz – kim bo'lgan ishimiz, qaysi vazifada ishlashimizdan qat'ii nazar, mamlakatimizning milliy manfaatlarini ta'minlash haqida jiddiy o'ylashimiz zarur.

Bugungi murakkab sharoitda yurtimizda boshlangan keng qamrovli islohotlar, yangi O'zbekistonni barpo etish sari tashlayotgan dadil qadamlarimizning bardavom bo'lgan ishini ta'minlash eng asosiy vazifamiz bo'lgan ishi shart.

Global inqiroz sharoitida iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlash, joylardagi mavjud muammolarni manzilli hal etish, ko'makka muhtoj yurtdoshlarimizni qo'lgab-quvvatlash, yoshlarimizning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish – Prezidentdan boshlab, barcha darajadagi rahbarlarning bosh vazifasi bo'lgan mog'ib darkor.

2.1/1-mavzu: Fuqarolik jamiyati fanining predmeti, obykti, maqsad va vazifalari

Reja:

- 1. Fuqarolik jamiyati fanning predmeti, obykti, maqsad va vazifalari.**
- 2. Fuqarolik jamiyati fanining qonuniyatlari, tushunchalari va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.**
- 3. Fuqarolik jamiyati - taraqqiyotning yuqori bosqichi.**

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Fuqaro, fuqarolik jamiyati, davlat, davlat hokimiyati, demokratik jamiyat, demokratik davlat, huquqiy davlat, siyosiy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning huquq va erkinligi, inson huquqlari.

1. Fuqarolik jamiyati fanning predmeti, obykti, maqsad va vazifalari

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish islohotlari jarayonida jahondagi turli mamlakatlarda shu kabi jamiyat asoslarining yaratilish tajribasi, bu sohadagi islohotlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslarining shakllantirilishi, ularga doir nazariy ishlanmalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, fuqarolik jamiyatining bu insoniyat uchun muhim bo'lgan ijobiy jihatlari (tamoyillari va yashash muhiti) o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash va huquqiy davlat sari rivojlanish sari intilishiga doir islohotlarida muhim tajriba sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, fuqarolik jamiyatiga doir fanni oliy ta'lim tizimida o'qitish muhim dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuning uchun ham Fuqarolik jamiyati fani jahonda bir necha minglab yillar davomida yig'ilgan umuminsoniy qadriyatlarni hozirgi umuminsoniy va demokratik qadriyatlar bilan uyg'un holda o'rganishi va ulardan xulosalar chiqarishi tufayli yosh avlodni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu fan insoniyatning eng so'nggi taraqqiyot bosqichi va insoniy birligi to'g'risidagi ta'limotlarni hozirgi davr bilan mustahkam bog'liqlik holda o'rganadi, insonni jamiyat qonuniyatlari va qadriyatlari asosida yashashga undaydi, bu yo'ldan inson manfaatdorligini asoslaydi. Bu jarayonda Fuqarolik jamiyati fani boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan hamkorlik qiladi. Umuman olganda, bu fan insonni hozirgi davrning so'nggi sivilizatsiyasi –

fuqarolik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlari, tamoyillari va uning shaxsni kamolga yetkazishdagi roliga doir bilimlar bilan qurollantiradi.

Hozirga kelib dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyatining qurilganligi, mazkur jamiyat siyosiy instituti sifatida huquqiy davlat bunyod etilganligi, bu kabi jamiyat va davlatlar muhitida inson va uning faoliyati uchun erkinlik yaratilishi, inson huquqlarini himoyalashning miqyosi nihoyatda keng ekanligi kabi omillar demokratiya qurish yo‘lidan ketayotgan davlatlarni qiziqitirmoqda. Shuning uchun ham o‘tish davrida yashayotgan mamlakatlar siyosiy elitasi fuqarolik jamiyatini nafaqat ijtimoiy model sifatida, balki uni ta‘lim tizimiga joriy etish asnosida yosh avlodni shakllantirish omili sifatida ham e‘tirof etmoqda.

O‘zbekiston davlati mustaqillikka erishganidan keyin bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan mustaqil fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish, inson manfaatlarini qondirish, ular huquq va erkinliklarini ta‘minlash, jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish asnosida barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga va adolat prinslarini amal qilishiga erishish kabi ezguliklarga asoslanadigan muhitni yaratish uchun fuqarolik jamiyati qurishni asosiy strategik maqsad sifatida e‘lon qildi.

Shu sababdan ham Birinchi Prezident I.A.Karimov mustaqillikning ilk yillaridayoq “bizning bosh strategik maqsadimiz qat‘iy va o‘zgarmas bo‘l ib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat”⁹⁸ degan g‘oyani ilgari surgan edi.

2016 yilning so‘n ggi choragidan boshlab mamlakatimizga davlat rahbari sifatida o‘z faoliyatini boshlagan Sh.M.Mirziyoyev mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlanishi uchun muhim kuch-qudrat manbai - “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g‘oyani ilgari surishi, unga monand bo‘lgan huquqiy asoslar va jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishi natijasida O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish islohotlari avj oldi, unga nisbatan xalqimizning ishonchi yuksala boshladi. U Prezidentlikni bajarish uchun kirishgan dastlabki kundayoq quyidagi konseptual g‘oyani ilgari surdi: “Mustaqil taraqqiyot yillarida Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashida mustahkam poydevor bo‘l ib xizmat qilmoqda”⁹⁹.

Shu bilan birga, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarini rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari e‘tiborga molik: “Xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo‘lgan Konstitutsiyamiz yurtimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz qariyb 28 yil davomida bosib o‘tgan g‘oyat murakkab va sharaflı yo‘l Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuchi va ulkan salohiyatidan dalolat beradi.

Asosiy qonunimiz negizida yaratilgan Harakatlar strategiyasi bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishda, innovatsion va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o‘rin egallamoqda”¹⁰⁰.

“Fuqarolik jamiyati” tushunchasi - insoniyatning bir necha asrlar mobaynida shakllangan tafakkurlash mahsuli bo‘l ib, u inson huquqlari va erkinliklarining ta‘minlash darajasining naqadar yuksalganligi darajasi mezoni sifatida namoyon bo‘l di. Fuqarolik jamiyatining poydevori va asoslarini yaratish uchun avvalambor u haqdagi g‘oyalarning genezisini va rivojlanishini bilishga zarurat tug‘iladi. Fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun uning asoslari (iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma‘naviy) yaratilishi lozim. Fuqarolik jamiyatining asoslari quyidagilardan iborat:

⁹⁸Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.: Ўзбекистон. 2000. 8-жилд. -Б-331.

⁹⁹ Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. -Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017.-Б.102-103.

¹⁰⁰ Мирзиёев Ш.М. “Билимли авлод – буюк келажакнинг, тadbirkor халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир”. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси қабул қилинганининг 26-йиллиги муносабати билан бўлиб ўтган тантанали маросимдаги маърузаси. // Халқ сўзи. 2018 йил 7 декабрь. 247-сон. ёки www.president.uz

Iqtisodiy asos - shaxs va jamiyat manfaatlarining umumiylikiga asoslangan mulk shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy plyuralizm, ko'p ukladlilik, erkin bozor munosabatlari; jamiyatning har bir a'zosini o'z mulkiga ega, u yoki bu mulkni o'z xohishi bilan tasarruf eta olish erkinligining mavjudligi, bu mulkdan foydalanish va uni sarflash huquqiga ega bo'l ishi, xususiy mulk daxlsizligi, har bir shaxsning davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, mehnat va iste'mol faoliyati erkinligi bilan ta'minlanganligi;

ijtimoiy-siyosiy asos - fuqarolik jamiyati qurilayotgan davlatning mustaqil va suveren ekanligi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatlarning bir-biridan ajratilganligi; fuqarolarning o'z maqsadlarini himoya qilish maqsadida ma'lum nodavlat tashkilotlarga birlashgan bo'l ishi, hokimiyatni uchga bo'l inishi prinsipi amalda o'z aksini topganligi, hokimiyatlarni turli markazlar, guruhlar yoki shaxslar qo'l ida to'planib qolmasligi; siyosiy plyuralizmning mavjudligi; davlat hokimiyati vakolati funksiyalarining sekinlik bilan quyi vakillik organlari va o'zini o'zi boshqarish organlariga berib borilishi;

huquqiy asosi - jamiyatda insonning yashashi va rivojlanishi uchun muhim zarurat bo'lgan erkinlik, tenglik, adolat qadriyatlarining qaror topganligi, shaxslar va fuqarolar o'rtasida o'zaro tenglikning ta'minlanganligi, ularning huquq va erkinliklarini davlat tomonidan to'liq ravishda e'tirof etilishi; adolat prinsiplariga amal qilinishi; bir shaxsning erkinligi ikkinchi shaxsning erkinligiga daxl etsa, uning erkinligi shu yerda to'xtalishi, davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari o'zaro mushtarkligining shakllanishi;

ma'naviy asos - insonlar o'z qadr-qimmatini har qanday tajovuzlardan himoya qila olish qobiliyatini shakllanganligi, xalqning jamiyat qadriyatlari himoya qila olish salohiyatining mavjudligi, vijdon erkinligining amal qilishi, jamiyatda ahloqiy me'yorlarga amal qilish urf-odatlarining shakllanganligi, biron-bir mafkuraning yakka hokimlik qilishga urinishlarining cheklab qo'yilganligi, fuqarolarning ma'naviy va ijtimoiy jarayonlarda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari uchun barcha shart-sharoitlarning mavjudligi, har bir fuqaroning o'z mustaqil fikrlashi va qarashiga ega ekanligini namoyon qilish uchun barcha sharoitlarning mavjud ekanligi, ma'naviy jarayonlarni faqat jamiyat va fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi, har bir fuqaroning qanday dunyoqarash yoki dinga kirishi uning o'zi tomonidan hal etilishi, diniy erkinlik, barcha dinlar va mafkuralarning o'zaro hamkorlikda yashashlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarning yaratilganligi.

Umuman olganda "fuqarolik jamiyati" atamasi turli xorijiy adabiyotlarda umumiy mohiyatga ega, shu bilan birga, har bir mamlakatning milliy an'analarini ham uyg'unlashtiradigan tushuncha bo'l ib, u hozirgi davrdagi talqinlarda jamiyatning muayyan shakli (holati va xususiyati)ni, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tabiatini, rivojlanish darajasini ifodalaydi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari doimo davlatni takomillashtirish, huquq va qonunning rolini yuksaltirish muammolari hal etish bilan chambarchas tarzda o'zaro bog'liqdir.

Ba'zi olimlarning fikricha, demokratik jamiyat - bu "eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakkam demokratiyaning oliy mazmuni - shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg'unlantirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi". Fuqarolarning davlat hayotida ishtirok etishi jarayoni ancha kuchayib bormoqda va siyosiy partiyalar, nohukumat tashkilotlar faoliyatida, hayotning barcha jabhalari, shu jumladan inson huquqlari sohasida ham organlar va mansabdor shaxslar faoliyatining ijtimoiy nazoratini hamkorlikda amalga oshirishga qaratilgan ommaviy axborot vositalarining faollashuvida o'z aksini topmoqda.

Fuqarolik jamiyati - bu, ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishda faol qatnashadigan, davlatning bedodligi va aralashuviga yo'l qo'ymaydigan huquq hukmron bo'lgan, fuqarolar va davlat hamkorlik asosida ishlaydigan ongli individlar jamiyatidir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatiga ta'rif berilmagan bo'l sa-da, unda fuqarolik institutlarini tashkil etish va ular faoliyatining huquqiy asoslari e'tirof etilgan, ularning davlat bilan o'zaro hamkorligi prinsiplari belgilangan¹⁰¹.

Fuqarolik jamiyati fanining predmeti sifatida fuqarolik jamiyatining shakllanishi, rivojlanishi, har bir milliy davlatda fuqarolik jamiyati qaror topishining umumiy, o'ziga xos qonuniyatlarini va tamoyillari o'rganiladi. Fuqarolik jamiyati fanining *predmeti* - kishilik tarixida insonlarning o'zaro munosabatlari natijasida yuksak jamiyatga doir qadriyatlar va tuzilmaviy unsurlarning shakllanishi, ularning rivojlanib borishi natijasida ideal jamiyatda insonlar o'zaro aloqalarining qonuniyatlarini shakllanishi, rivojlangan mamlakatlarda uzoq tarixiy rivojlanish natijasi o'laroq shakllangan yuksak insoniy birlik - fuqarolik jamiyatining institutlari hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati fanining *obyekti* - bu insoniy jamiyatning oddiydan murakkabga, o'zini o'zi takroran yaratib turadigan insoniy birlikka o'sib o'tishi, va nihoyat, rivojlangan mamlakatlarda shakllangan fuqarolik jamiyati va uning institutlari hisoblanadi. Xususan, mazkur Fuqarolik jamiyati o'quv qo'l lanmasining obyekti - ana shu tarixiy voqeliklarga uyg'un tarzda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati

¹⁰¹ Фуқаролик жамияти: ютуқлар, муаммолар, истиқболлар. Т.: Академия. 2007.

unsurlariga doir g'oyalarning rivojlanishi, mustaqillik davriga kelib fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi, undagi tamoyillarning rivojlangan davlatlar bilan qiyosiy tahlillari hisoblanadi.

Fanni o'qitishdan maqsad - kursant va tinglovchi yoshlar ongida fuqarolik jamiyatiga doir tasavvurlarni singdirish, ularda jamiyatni rivojlantirishga doir mustaqil fikrlash ko'n ikmalarini shakllantirish, Vatanga sadoqat his-tuyg'ularini yuksaltirish kabilardan iboratdir.

Fanning vazifalari quyidagilarda namoyon bo'adi:

- jahon tajribasi va milliy voqeliklarni o'rganish asnosida fuqarolik jamiyatiga doir klassik va zamonaviy konsepsiyalar mazmun-mohiyatini ochib berish;
- kursant va tinglovchilarga fuqarolik jamiyatiga doir tushunchalarni tahlil qilishda, unga doir nazariyalarni o'rganishda har tomonlama ko'maklashish, ularning jamiyatga doir qarashlarini boyitish;
- fuqarolik jamiyati qurish islohotlarida shaxsning rolini ochib berish asnosida talabalarda shaxsiy fuqarolik nuqtai nazarlarni shakllantirishga yordamlashish;
- talabalar ongiga fuqarolik jamiyati qurish jarayonida paydo bo'l adigan muammolar va ularning yechimlariga doir bilimlarni singdirish;
- talabalarga fuqarolik jamiyatiga doir nazariy ishlanmalarni tahlil qilish ko'n ikmalarini shakllantirishlarida ularga har tomonlama ko'maklashish;
- taraqqiyotning "O'zbek modeli" va fuqarolik jamiyatini barpo etishning ilmiy-metodologik asoslariga doir bilimlarni o'zlashtirishlariga ko'maklashish;
- talabalarga huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari va o'zaro ta'sir etish mexanizmlariga doir tushunchalar, bilimlar berish;
- fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy asoslarini ochib berish;
- fuqarolik jamiyatining iqtisodiy tayanchi - davlat va xususiy mulkchilik, tadbirkorlik va fermerlikni rivojlantirishga doir bilimlar berish;
- talabalar ongini fuqarolik jamiyatining ma'rifiy va ruhiy asosi - milliy ma'naviyatni tiklash va uni rivojlantirishga doir bilimlar bilan boyitish;
- "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilining mazmun-mohiyatini tushuntirish;
- "Adolat - qonun ustuvorligida" tamoyilining mohiyati va ahamiyatiga doir bilimlar berish;
- inson manfaatlarining hamma narsadan ustunligi;
- Harakatlar strategiyasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir konseptual maqsadlarning mazmun-mohiyati;
- Prezidentning "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qiladi" degan g'oyasini ahamiyatini ochib berish;
- saylov huquqi erkinligi - fuqarolik jamiyatining muhim mezoni ekanligini asoslash;
- fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishida jahon tajribasining o'rini ochib berish;
- ijtimoiy innovatsiyalarning fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishiga ta'siri to'g'risida bilimlar berish;
- siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarni erkinlashtirish islohotlarini fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib berish;
- jamiyatda fuqarolar manfaatlari muvozanatini ta'minlash masalasi haqida tushunchalar berish;
- fuqarolarning moddiy farovonligini oshirish bo'yicha "Xalq boy bo'l sa, davlat boy bo'l adi" tamoyilining mohiyatini tushuntirish;
- fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda siyosiy partiyalarning o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish;
- nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi o'rini ochib berish;
- ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirishga doir bilimlar berish;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yoritib berish;
- ijtimoiy sheriklik to'g'risida;
- jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlanish masalalarini yoritish;
- kursant va tinglovchi yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish mexanizmlariga doir bilimlar berish.

Fuqarolik jamiyati fanini kursant va tinglovchilar tomonidan o'zlashtirish jarayonida ularda quyidagi bilim va ko'n ikmalarini shakllantirish mo'ljallanadi:

- Fuqarolik jamiyati to'g'risida nazariy bilimlar va ularning O'zbekistondagi islohotlar jarayonida amal qilishi, namoyon bo'lishining o'ziga xos jihatlari to'g'risida;
- kursant va tinglovchilarda fuqarolik jamiyatiga doir nazariy bilimlar va ko'nikmalar;
- rivojlangan davlatlarda fuqarolik jamiyatining shakllanish va rivojlanishi tajribalari;
- fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi va faoliyat yuritishi to'g'risida;
- o'tmish, bugun va kelajak voqealarini baholashda ilmiy bilishning turli uslublaridan foydalanish;

- fuqarolik jamiyatini rivojlanishiga uyg'un ravishda davlat boshqaruv organlarini demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlari;
- davlat hokimiyati organlari tizimi va fuqarolik jamiyati o'zaro munosabatlari;
- fuqarolik jamiyati institutlari va davlat boshqaruvining o'ziga xos jihatlari;
- fuqarolik jamiyati qurish islohotlarining mazmun-mohiyatiga doir muayyan bilimlarga ega bo'lishi;
- fuqarolik jamiyat qurishning milliy va umuminsoniy demokratik tamoyillarini;
- fuqarolik jamiyat qurishga doir ilg'or tajriba va usullarni;
- rivojlangan davlatlarda mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalashning asosiy tamoyillari hamda ularning "O'zbek modeli" tamoyillari bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirishni;
- fuqarolik jamiyatini qurishning huquqiy asoslarini;
- taraqqiyotning "O'zbek modeli" tamoyillari mohiyatini bilishi va ulardan erkin ravishda foydalana olishi, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyatini bilishi va uni amalga oshirish jarayonida ishtirok etishga moyillik tuyg'ularini uyg'otish;
- markazlashgan rejali iqtisodiyot va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining bir-biridan farqli tomonlarini anglab etish; mamlakatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishining inqilobiy va tadrijiy (evolyutsion) yo'llarining yutuq va kamchiliklarini baholay olish; mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiyashtirish va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishning mohiyati va bosqichlari;
- mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, kuchli ijtimoiy siyosatning mohiyatini anglab etish, ularni amalda qo'llay olish ko'n ikmalariga ega bo'l ishi;
- tinglovchilarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatini anglagan holda o'z mutaxassisligi bo'yicha ulardan samarali tarzda foydalanish;
- "O'zbek modeli" asosida erishilgan natijalarni bilish va ularni aholi o'rtasida targ'ib etish;
- Harakatlar strategiyasi vazifalarini amalga oshirish, unga doir islohotlarning mohiyatini o'zlashtirish, mamlakatda fuqarolik jamiyatini qurish jarayoniga doir o'z mustaqil munosabatlarini bildira olish qobiliyatini egallash;
- mamlakatimizning jahon integratsiyasiga kirib borish jarayonlari, bu sohadagi yutuqlarni erkin tahlil qila olish malakalariga ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

2. Fuqarolik jamiyati fanining qonuniyatlari, tushunchalari va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

Barcha fanlar kabi Fuqarolik jamiyati fanining ham o'ziga xos qonuniyatlari, tushunchalari mavjud. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi umume'tirof etilgan qonuniyatlarini 2 guruhga ajratish mumkin.

1-guruh. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi umume'tirof etilgan qonuniyatlar:

- mulkiy munosabatlarning qaror topishi va rivojlanishi;
- inson haq-huquqlari va erkinliklarining real ta'minlanishi;
- boshqaruv jarayonlarining nomarkazlashuvi;
- jamiyatning plyuralistik g'oyalar asosida rivojlanishining ustuvorligi;
- fuqarolarning davlat boshqaruviga oid qarorlarni qabul qilishda ta'siri va mavqeining oshib borishi;
- fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy hayotidagi mavqeining oshib borishi;
- fuqaroviylik va fuqaro faolligining jamiyat hayotiga ta'sirini kuchayib borishi va b.q.

2-guruh. Har bir mamlakatning milliy va tarixiy rivojlanishidagi o'ziga xos jihatlarni hisobga oladigan qonuniyatlar:

- o'rta mulkdorlar qatlamining shakllanishi;
- o'z-o'zini boshqarish institutlarining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va rolining oshib borishi;
- ijtimoiy himoyaning manzilli tashkil etilishi va amalga oshirilishi;
- ma'naviy yetuklikka erishish imkoniyatlarining oshirib borishi va yoshlarning bunyodkor kuchga aylanishi va b.q.

Fanning asosiy tushunchalari: fuqaro, fuqarolik jamiyati, davlat, huquqiy davlat, siyosiy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning huquq va erkinligi, inson huquqlari, jamiyatining ijtimoiy tuzilmasi, jamiyatining iqtisodiy asoslari, demokratik institutlar, qonun ustuvorligi, saylov, saylov huquqi, fuqaroviylik, fuqaroviy faollik, yurt tinchligi, vatan ravnaqi

daxldorlik hissi, ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish, o'zini-o'zi boshqarish, millatlar va konfessiyalararo totuvlik, bag'rikenglik jamoatchilik nazorati, davlat organlari faoliyatining ochiqligi, ijtimoiy sheriklik kabilardir.

Fuqarolik jamiyati fanini o'qitish jarayonida ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalaniladi.

Ilmiylik - fuqarolik jamiyati to'g'risidagi g'oyalar, nazariyalar, zamonaviy konsepsiyalarni tahlil qilish asosida uning metodologik nazariy asoslarini ko'rsatish.

Tarixiylik - fuqarolik jamiyatining shakllanishining tarixiy bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan holda jahon tajribasida erishilgan yutuqlardan foydalanish asosida tahlil etish.

Mantiqiylik - fuqarolik jamiyati shakllanishining genezisidan to bugungi holatigacha bo'lgan jihatlarini (asosiy belgilari, omillari, tamoyillari, funksiyalari) uzviylik asosida tahlil qilish.

Tizimlilik - fuqarolik jamiyatini bir butun tizim sifatida va har bir belgilarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va tizimdagi o'rni va rolini aniqlash.

Qiyosiy tahlil - fuqarolik jamiyati shakllanish va rivojlanish tajribalarini solishtirish, har bir davlatdagi o'ziga xos jihatlarini ko'rsatish.

Fuqarolik jamiyati fani O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti o'quv rejasidagi O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, Falsafa, Milliy g'oya, Iqtisodiyot nazariyasi va Dinshunoslik kabi fanlar bilan o'zaro bog'liqdir. Bu fanlarda fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining turli yo'n alishlaridagi holati, qonuniyatlari, tamoyillari o'rganiladi. Fuqarolik jamiyati fanning o'ziga xosligi shundan iboratki, u jamiyatni rivojlanib boruvchi bir butun yaxlit tizim va tizimning tarkibiy qismlari sifatida o'rganadi. Ijtimoiy fanlarning xulosalari asosida fuqarolik jamiyati fani jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini umumlashtiruvchi funksiyani bajaradi.

Fuqarolik jamiyati fanining *metodologik funksiyasi* ijtimoiy fanlarning rivojlanishi ijtimoiy jarayonlarni o'rganishning umumiy yo'n alishlarini belgilashda, ishlab chiqilgan me'yorlarning dasturil amal sifatida foydalanishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Fuqarolik jamiyati fanining *prognostik funksiyasi* jamiyatning rivojlanish istiqbollari oldindan ko'rishga inson huquqlari va erkinliklarining namoyon bo'l ishida ko'rinadi. Jamiyatning har bir fuqarosi o'z kasbi-kori va ixtisosligidan qa'tiy nazar jamiyat rivojlanishi to'g'risidagi bilimlari chuqur egallashi orqaligina yon atrofida ro'y berayotgan voqea hodisalarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini bilishi, ularni boshqarishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish, bunyodkor kuchga aylanishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy fanlarda "fuqarolik jamiyati" va "davlat" tushunchalari uzoq vaqt unchalik farqlanmay kelindi, ular aynan tushunchalar sifatida ishlatilgan. Biroq, XVII asr o'rtalaridan boshlab, jamiyatning turli jabhalarini tabaqalashishi, ularni davlat hokimiyati boshqaruvidan chiqarish, uzviy huquq va erkinliklarga ega bo'lgan erkin va mustaqil individni kamol toptirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyotning ikki tamoyilini yuzaga keltirdi va ularni ijtimoiy ong va fanda aks ettirish zarurati paydo bo'ldi.

Davlatda hokimiyatning uchga bo'linishi, siyosiy partiyalar, manfaatlar guruhlarini (kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari va h.k.) paydo bo'lishi bilan jamiyat hayoti mazmuni endi faqat davlat hokimiyati bilan cheklanib qolmaslikni taqozo etdi. Jamiyat boshqaruvi dunyosiga yangi ishtirokchi institutlar kirib kela boshladi, ular siyosiy qarorlar qabul qilish, fuqarolik jamiyati strategiyasini ishlab chiqish, shaxs faoliyatining umumiy maqsad va mazmunini shakllantirish jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsata boshladi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi absolyutizm ag'darilganidan so'n g shakllangan yangi hayotni, ya'ni fuqarolarning shaxsiy hayotini davlat tazyiqidan xalos etishni aks ettiradi. Davlatning ijtimoiy tuzilmalaridan ajralishi, u ijtimoiy munosabatlarning nisbatan mustaqil jabhasiga aylanish natijasi o'lgan aroq paydo bo'ldi. Fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishi jarayonida hozirgi davr huquqi va davlati vujudga keldi.

Fuqarolik jamiyati kategoriyasi tarixan insoniyat rivojlanishining shunday bir alohida yoʻn alishini aks ettiradiki, u har bir davrning oʻziga xos mutafakkirining oqilonalik, erkinlik, farovonlik va adolat hukm suruvchi ideal jamiyat modelini yaratishga intilishi bilan tavsiflanadi. Davlat, oila, qabila, millat tushunchalari, diniy va boshqa birliklardan farq qiluvchi fuqarolik jamiyati kategoriyasi, yuqorida qayd etib oʻtganimizdek, XVIII-XIX asrlarga kelib oʻrganila boshlandi.

“Erkin fuqarolik jamiyatiga dunyodagi koʻplab davlatlar asrlar davomida toʻplangan tajriba va demokratik anʼanalarni rivojlantira borib yetib kelgan, - deb taʼkidlagan edi I.A.Karimov. - Biz bunday jamiyatni qurishni, barpo etishni orzu qilmoqdamiz va shunga intilmoqdamiz”¹⁰².

Yevropa va Amerika mamlakatlarining, katta mintaqalarida fuqarolik jamiyatining shakllanishi yangi davrda boshlandi. Olimlar va mutaxassislar fikriga koʻra, fuqarolik jamiyatining rivojlanishini uch bosqichga ajratish mumkin. Bunda bir bosqichdan keyingi bosqichga oʻtishda jamiyat va davlat tuzumida katta oʻzgarishlar, ijtimoiy va siyosiy tangliklar, ommaviy harakatlar, sinflarning toʻqnashuvlari, jamiyat mafkurasida tub oʻzgarishlar yuz bergan.

Birinchi bosqich shartli ravishda XVI-XVII asr. Bu davrda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy asoslari yaratildi. Ular jumlasiga sanoat va savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish turlarining ixtisoslashuvi, mehnat taqsimotining teranlashuvi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi kiritish mumkin. Shuningdek, yagona markazlashgan davlatlarning tashkil topishi bilan feodal tarqoqlik davrida mavjud boʻlgan tengsizlik, huquqsizliklarga barham berishga eʼtibor berila boshlandi.

Ikkinchi bosqichi XVIII asr oxiridan XIX asr oxrigacha davom etdi. Bu davrda eng rivojlangan mamlakatlarda umumiy yuridik tenglik va erkinlikka, tadbirkorlik erkinligi va shaxsiy tashabbusga asoslangan dastlabki kapitalizm koʻrinishidagi fuqarolik jamiyati shakllandi.

Uchinchi bosqich (XIX asr oxiri va keyingi davr) vertikal feodal tuzilmalar oʻrnini erkin odamlarning huquqiy tengligi va oʻzaro bitimlariga asoslangan gorizontol munosabatlar egallagani bilan tavsiflanadi. Insoniyatning koʻp asrlik tarixida barcha odamlar, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qatʼi nazar, jamiyat hayotining huquqiy jihatdan teng ishtirokchilari deb eʼtirof etilishi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Ular har kimga oʻzini erkin xohish-irodaga ega boʻlgan, oʻz harakatlari va ularning huquqiy oqibatlarini uchun javob berishga qodir shaxs sifatida namoyon etish imkoniyatini beruvchi qonunlar bilan eʼtirof etilgan qator huquqlar va erkinliklarga ega boʻla boshladi.

Fuqarolik jamiyatining amalda yuzaga kelishiga Huquqlar haqidagi bill (Angliya, 1689 y.; AQSH, 1791 y.) yoki Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (Fransiya, 1789 y.)ning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Fuqarolik jamiyati - oʻz shaxsi, ijodiy tashabbusini erkin namoyon etuvchi teng huquqli odamlar jamiyati, ortiqcha taqiqlar va keraksiz maʼmuriy tartibga solishdan holi teng imkoniyatlar jamiyati sifatida shakllandi. Tabaqaviy imtiyozlarning tugatilishi va fuqarolik huquqlarining paydo boʻlgan ishi fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Shaxsning huquq va erkinliklarini taʼminlovchi huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy negizi boʻlib xizmat qiladi.

¹⁰²Karimov I.A. Biz kelaqagimizni ўz qўlimiz bilan quramiz. Toshkent, «Ўzbekiston», 1999, 7-jild. - B.304.

Fuqarolik jamiyatining davlatdan ajralishi aynan tabaqalar o'rtasidagi tengsizlikni tugatish va ijtimoiy munosabatlarni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida yuz bergan. Bu jarayonga butun aholi nomidan ish ko'ruvchi vakillik davlatining shakllanishi asos bo'lgan.

Buning uchun odamlarning yuridik tengligi ularga huquq va erkinliklar berish orqali qonun yo'li bilan tan olindi. Tabaqaviy tengsizlik o'rnini egallagan umumiy yuridik tenglik shaxsning mutlaqo yangi ijtimoiy holatini belgilab berdi. Endi individlar, ularning ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, erkin hamda ijtimoiy hayotning to'laqonli ishtirokchilari deb e'tirof etildi.

3. Fuqarolik jamiyati - taraqqiyotning yuqori bosqichi

"Fuqarolik jamiyati" va "huquqiy davlat" tushunchasi XVIII asrda paydo bo'lgan. Odamlar hayoti va faoliyatining ikki tomoni: ularning shaxsiy manfaatlari, tashabbusi, ixtiyoriy faoliyati jabhasi va odamlar xulq-atvorlarini davlatning xohish-irodasiga bo'ysunuvchi xalq hokimiyati jabhasi shu tushunchalarda o'z ifodasini topdi.

Fuqarolik jamiyati - ochiq ijtimoiy tuzilma. Unda so'z erkinligi, shu jumladan, tanqid qilish erkinligi, oshkorlik, har xil axborotlar olish erkinligi, har bir hududga erkin kirish va chiqish huquqi, boshqa mamlakatlar bilan keng miqyosda, doimiy asosda axborot, ta'lim texnologiyalari almashinuvi, chet davlatlar va jamoat tashkilotlari bilan madaniy va ilmiy hamkorlik, xalqaro huquq prinsiplari va normalariga muvofiq xalqaro xorijiy birlashmalar faoliyatiga ko'maklashish ta'minlanadi. U umumiy insonparvarlik tamoyillariga sodiq bo'lib, dunyo miqyosidagi shunday tuzilmalar bilan o'zaro aloqa qilish uchun ochiqdir.

Fuqarolik jamiyati - murakkab tarkibli va plyuralistik tizim. Tabiiyki, har qanday ijtimoiy organizm tizimning muayyan xossalari majmuiga ega bo'lib, biroq fuqarolik jamiyatiga ularning to'laqligi, barqarorligi va samaraliligi xosdir. Rang-barang ijtimoiy shakllar va institutlar (kasaba uyushmalari, partiyalar, birlashmalar, tadbirkorlar, klublar va h.k.)ning mavjudligi individlarning turli tuman ehtiyojlari va manfaatlarini ifodalash va ro'yobga chiqarish, odamzotning barcha qobiliyatlarini namoyon etish imkonini beradi.

Fuqarolik jamiyati - o'zini o'zi rivojlantiruvchi va o'zini o'zi boshqaruvchi tizim. Individlar har xil tashkilotlarga birlashib, bir-biri bilan rang-barang munosabatlar o'rnatib, o'zlarining ba'zan qarama-qarshi, ba'zan umumiy manfaatlarini ro'yobga chiqarib, jamiyat siyosiy hokimiyati kuchiga ega bo'lgan davlatning aralashuvisiz uyg'un va izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil ravishda o'zini o'zi rivojlantirishning ichki manbalariga egadir.

Fuqarolik jamiyati - huquqiy davlat bilan uyg'unlikda yashaydi. Bu yerda inson va fuqaroning tabiiy va o'zlashtirilgan huquqlarini tan olish, ta'minlash va himoya qilish ularni bir-biriga bog'lovchi omil sifatida amal qiladi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy unsuri ayrim shaxs bo'lsa, fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlar, guruhlar va hokozolar uni shakllantiruvchi omillardir. Ular shaxsning manfaatlari, maqsadlari, niyatlari va boshqa ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi. Shu sababli iqtisodiy va siyosiy hokimiyatni bir-biridan ajratish - haqiqiy fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi va qaror topishining bosh omili hisoblanadi. Iqtisodiy hokimiyat bilan siyosiy hokimiyat qo'shilganida muqarrar tarzda iqtisodiy hokimiyatning bir markaz, bir odam yoki shaxslar guruhi qo'lda jamlanishi yuz beradi. Agar siyosiy va iqtisodiy hokimiyatlar turli markazlar, boshqa-boshqa qo'ldalarda jamlansa, ular bir-birini cheklab turadi.

Fuqarolik jamiyati hokimiyatning oqilonaligi va odionaligi, shaxs erkinligi va farovonligi haqidagi g'oyalarning huquqiy ustunligi, huquq va qonunning birligi, davlat hokimiyatining turli tarmoqlari faoliyatini huquqiy chegaralash g'oyalari bilan mushtarakdir.

Huquqiy davlatni fuqarolik jamiyati rivojlanishining natijasi va uning o'zini o'zi yanada takomillashtirishi omili, deb hisoblash mumkin. Huquqiy davlatchilikning shakllanish jarayoni, hech shubhasiz, ancha uzoq davr davom etadi. U fuqarolik jamiyati shakllanishi bilan birga takomillashib bordi. Har bir davlatda bo'lganidek, huquqiy davlat hokimiyatining suverenligi ham mamlakat ichida uning barcha fuqarolarga va ular tashkil etuvchi nodavlat tashkilotlariga nisbatan ustunligida va undan tashqarida davlatning tashqi siyosatni yuritish, boshqa davlatlar bilan munosabatlar o'rnatishda va mustaqilligida namoyon bo'lgan.

Yetuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy davlat qurish mumkin emas. Chunki, ongli va erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdir. Shunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ va davlat xohish-irodasi o'rtasida bog'lovchi bo'lgan hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzul kabilarga qarshi ish ko'rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berishdan iboratdir.

Huquqiy davlat - bu shunday bir davlat hokimiyatidirki, u huquq normalariga binoan va ular doirasida ish ko'radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur'at etmaydi, fuqarolar va ularning birlashmalarining uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e'tirof etadi.

Totalitar davlatda xavfsizlikni ta'minlash huquqiy tartibotni muhofaza qilish, odamlar xulq-atvorini davlat belgilagan huquqiy qoidalarga muvofiqligini ta'minlash faoliyatidan iborat bo'ladi, davlat hokimiyatiga tatbiqan xavfsizlikni davlat xavfsizligi va fuqarolik jamiyati xavfsizligiga ajratish yuz bermaydi.

Fuqarolik jamiyatining xavfsizligi (jamoat xavfsizligi) quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

-ijtimoiy adolat;

-davlat bilan o'zaro munosabatlarda fuqarolarning va umuman jamiyatning huquqlarini e'tirof etilishi;

- qonuniylik tartibi;

- fuqarolarning iqtisodiy farovonligi;

- demokratik plyuralizm;

- jamiyatning ochiqligi;

- fuqarolik jamiyatining shaklan milliy, mazmunan umuminsoniyliги.

Fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi inson huquqlari va fuqaro huquqlarining farqlanishini belgilab berdi. Inson huquqlarini fuqarolik jamiyati, fuqaro huquqlarini - davlat ta'minlaydi. Ikkala holatda ham shaxs huquqlari to'g'risida so'z yuritiladi, biroq birinchi holatda ayrim inson sifatidagi shaxsning yashash, erkinlik huquqlari nazarda tutilsa, ikkinchi holatda - uning siyosiy huquqlari nazarda tutiladi.

Inson huquqlari va fuqaro huquqlari o'rtasidagi farq muayyan asoslarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) Inson huquqlari davlat tomonidan e'tirof etilgani va qonun yo'l i bilan mustahkamlanganidan, ularning egasi - inson u yoki bu davlatga mansubligidan qat'iy nazar mavjud bo'l ishi mumkin. Fuqaro huquqlari esa mazkur shaxs qarashli bo'lgan davlat tomonidan himoya qilinadi;

2) dunyoda hali anchagina odamlar umuman fuqarolik maqomiga ega emas (fuqaroligi bo'lmagan shaxslar - apatridlar). Binobarin, ular rasmiy darajada fuqaro huquqlariga emas, balki inson huquqlariga egadirlar. Fuqarolik jamiyatining vazifasi ijtimoiy hayotning rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir. Shu sababli, uning asosiy tarkibiy qismlarining vazifalari qatoriga bu jarayon normal kechishi uchun shart-sharoit yaratib beruvchi institutlar faoliyati tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy qadriyatlarini oila, mulk, shaxs, erkinlik, huquq, ma'naviyat, tartib, davlatchilik kabilar tashkil etadi. Bunda hammani majburiy tartibda mulkdorlarga aylantirish nazarda tutilmaydi - ularning ko'pchiligi buni xohlamaydi, biroq bunday imkoniyat har kim uchun saqlanishi lozim. Mulk har doim shaxs va butun jamiyat erkinligining bosh omili sifatida amal qiladi. Mulkka nisbatan hurmat mavjud bo'lmagan joyda shaxsга nisbatan hurmat ham mavjud bo'lmaydi.

Fuqarolik jamiyati tuzilmalari "yuqoridan" turib emas, balki "quyidan" - fuqarolarning tashabbusi bilan, ixtiyoriy asosda, tabiiyki, muassislarning manfaatlari, qiziqishlari va moyilliklariga muvofiq tuziladi. Ularning erkinligi davlat tuzilmalariga qaram emaslikda, ichki qoidalar bilan nazarda tutilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan o'zini o'zi boshqarish faoliyatida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari mavjud bo'lib ular quyidagilardir:

- erkin individlar uyushmasi;

- o'zaro hamkorlikka asoslangan ijtimoiy tuzilma;

- murakkab tuzilishga ega bo'lgan plyuratistik tizim;

- o'zini o'zi rivojlantiradigan va o'zini o'zi boshqaradigan tizim.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim omillari:

1) iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining rang-barangligi, bozor munosabatlari;

2) inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz e'tirof etish va himoya qilish;

3) hokimiyatning qonuniyligi va demokratik xususiyati;

4) qonun va odil sud oldida hammaning tengligi, har bir shaxsning yuridik jihatdan ishonchli himoyalanganligi;

5) hokimiyatning uchga bo'linishi va hokimiyatlarning o'zaro aloqasi prinsipiga asoslangan huquqiy davlat;

6) siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, konstruktiv muxolifatning mavjudligi;

7) so'z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi;

8) fuqarolarning shaxsiy hayotiga davlatning aralashmasligi, ularning o'zaro majburiyatlari va burchlari;

9) sinfiy va milliy totuvlik, ijtimoiy sherikchilik;

10) odamlarning o'zlariga munosib turmush darajasini ta'minlovchi samarali ijtimoiy siyosat.

Fuqarolik jamiyati qator tamoyillarga tayangan holda faoliyat ko'rsatadi. Jumladan:

- siyosiy sohada hamma odamlarning huquq va erkinliklarining tengligi;

- butun jahon hamjamiyatida yuridik kuchga ega bo'lgan qonunlar asosida fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlangan huquqiy himoya;
- individlarning mulkka ega bo'lish va halol mehnati uchun adolatli haq olish huquqiga asoslangan iqtisodiy mustaqil ekanligi;
- qonun bilan kafolatlangan fuqarolarning manfaatlari, kasbiy belgilari bo'yicha davlatdan va siyosiy partiyalardan mustaqil ijtimoiy birlashmalarga birlashish imkoniyatlari;
- siyosiy partiya va fuqarolik harakatlarini tashkil etishda fuqarolarning erkinligi;
- fuqarolarni erkin, madaniyatli, ma'naviy va ijtimoiy faol, jamiyat a'zolarini qonun oldida ma'suliyatli qilib shakllantiradigan fan, madaniyat, ta'lim va tarbiya uchun zaruriy moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratish;
- faqat qonun bilan cheklangan davlat senzurasidan tashqari erkin aoliyat yuritadigan OAV yaratish va faoliyat yuritish erkinligi;
- davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtiradigan mexanizmning (konsensusning) mavjudligi, hamda fuqarolik jamiyati xavfsizligini davlat organlari tomonidan ta'minlanishi. Bu mexanizm, rasmiy bo'lgan adimi, norasmiy bo'lgan adimi, u o'z ichiga qonuniy aktlarni, xalq vakillarini demokratik saylov yo'li bilan hokimiyatning, o'z-o'zini boshqarishning turli organlari kabilari vositasida tayinlash kabilarni oladi.

Iqtisodiy sohada fuqarolik jamiyat asosini ko'p ukladli iqtisod, mulkning turli shakllari va boshqariladigan bozor munosabatlari tashkil etadi;

huquqiy sohada esa - hokimiyat boshqaruvi vakolatlarini markazda yig'ilib qolmasligi, hokimiyatlar bo'linishi, siyosiy plyuralizm, fuqarolarning davlat va jamoat ishlarida ishtirok etishlari, qonun ustivorligi, hammaning ular oldida tengligi;

ma'naviy sohada - yagona mafkura va dunyoqarashning yakka hokimligini mavjud emasligi, vijdon erkinligi, madaniylik, yuqori ma'naviyat va axloq tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati shaxs erkinligisiz yashamaydi. Erkinlik me'yoriy ko'rinishga ega bo'lgani uchun, bunday shunday xulosa kelib chiqadiki, bir tomondan inson erkinlikka uning normativ talablariga bo'ysunish qobiliyati natijasida ega bo'lgan adi, boshqa tomondan, shaxs erkinligi borligining tashqi shakli - bu erkinlikning chegaralarini belgilovchi ijtimoiy me'yorlar mavjudligini anglatadi. Va faqatgina, jamiyat uchun yoki insonning o'zi uchun eng muhim ahamiyatga ega, eng asosiy hisoblangan sohalaridagina davlatning o'zi erkinlikning o'lchovini, me'yorini belgilab beradi. Bu esa huquqiy me'yorlar, qonunlar, konstitutsiya yordamida amalga oshiriladi.

Bunda huquq va erkinliklarning o'zi, jumladan, bir tomondan, konstitutsiyaviyligi, ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyatining rivojlanganlik darajasi bilan, shuningdek uning iqtisodiy, ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy uyushganligining yetukligi darajasi bilan belgilanadi. Boshqa tomondan qaraganda, inson va fuqaroning huquq hamda erkinligining to'liqligi, ularning kafolatlanganligi darajasi, ularni hayotdagi izchilligi fuqarolik jamiyatining haqiqiy erkinlik va ijtimoiy adolatli jamiyat sifatida muhim tavsiflarini namoyon etadi. Demak, faqat fuqarolik jamiyati sharoitidagina inson va fuqarolar huquqlari har tomonlama ro'yobga chiqadi. *Shu tariqa fuqarolik jamiyati qator muhim funksiyalarni bajaradi:*

1. Qonun ustivorligi asosida u insonning va fuqarolarning shaxsiy xayot sohasini davlat va boshqa siyosiy tuzilmalarning asoslanmagan qat'iy muvofiqlashtirishidan himoya qilishni ta'minlaydi.

2. Fuqarolik jamiyati uyushmalari asosida ijtimoiy (jamoatchilik) o'zini - o'zi boshqarish mexanizmlari yaratiladi va rivojlantiriladi.

3. Fuqarolik jamiyati davlatning demokratik organlarini, uning barcha siyosiy tizimini shakllanishi va sodda ko'rinishga keltirishga ko'mak beradi; bunda u turli vositalardan foydalanadi: saylov kampaniyalari va referendumlar, norozilik yoki bu yoki u talablarini qo'llab-quvvatlash aksiyalarida, u yoki bu masalalar bo'yicha jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etish kabilari.

4. Fuqarolik jamiyatining institutlari va tashkilotlari o'z e'tiborini insonlarning huquq va erkinliklarini amalda kafolatlashni va davlat va jamoat ishlarida teng ishtirokini ta'minlashga qaratadi.

5. Fuqarolik jamiyati o'z a'zolariga nisbatan ijtimoiy nazorat funksiyalarini bajaradi: u davlatdan mustaqil ravishda vosita va sanksiyalar berishga ega bo'lgan ishi mumkinki, ularning yordamida u individlarning jamoa talablariga rioya qilishlariga majburlashi, fuqarolarning ijtimoiylashuvini va tarbiyalanishini ta'minlashi mumkin.

6. Fuqarolik jamiyati kommunikatsiyaviy vazifani bajaradi. Bu jamiyat davlat organlariga fuqarolarning aniq manfaatlari haqida axbortlar berib turadi, bu manfaatlarni amalga oshirish esa faqat davlat organlariga tegishlidir.

7. Fuqarolik jamiyati o'z institutlari va tashkilotlari vositasida barqarorlashtiruvchilik vazifasini bajaradi. U davlat faoliyatida tang holatlar yuz berganida unga yordam beradi, jamiyat hayotini yashashini ta'minlaydigan mustahkam tuzilmalarini yaratadi.

Ma'lumki, Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish bosh strategik maqsad sifatida belgilandi. Shu kabi jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquq va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analar va ma'naviyatimizni qayta tiklashi, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlay olishi e'tirof etildi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri -bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'lganligi bois, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o'rnatishga, uning asosiy qoida va talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi huquqiy normalarining o'z ifodasini topishiga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining asosiy qoida va talablarini aks ettiruvchi prinsiplar ahamiyatga ega bo'lgan normalar sifatida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi (2-modda), xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai hisoblanishi (7-modda), O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'lgan inisihi prinsipiga asoslanishi (11-modda), O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi (12-modda)¹⁰³ kabi fuqarolik jamiyatining asosiy prinsiplari yuridik jihatdan mustahkamlangandir.

Mustaqillik davrida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Konstitutsiyamizda qayd etilgan asosiy prinsiplar va normalar asosida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, saylov huquqi erkinligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tadrijiy islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslari yaratish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishini uch bosqichga bo'lgan inadi:

Birinchi bosqich o'z ichiga 1991-2000 yillarni qamrab oladi. Bu davrda, birinchi navbatda fuqarolik jamiyatining asoslari yaratildi.

Ikkinchi bosqich 2000-2010 yillarda mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash bo'yicha faol jarayonlar davom ettirildi.

Uchinchi bosqich 2011-2016 yillar. Bu davrda fuqarolik jamiyati qurishga doir huquqiy asoslar rivojlantirildi, fuqarolik jamiyatining ijtimoiy tayanchi - o'rta ijtimoiy qatlam yanada mustahkamlandi.

To'rtinchi bosqich 2017 yilda boshlanib, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning amaliy jihatlarini namoyon bo'lgan ishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda fuqarolik jamiyati qurish g'oyalari "Harakatlar strategiyasi" va "Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi"da yanada rivojlantirilib, bu sohada tub burilish davrini boshlab berdi. Bu bosqichda fuqarolik jamiyati shiddat bilan rivojlanib, o'zini har tomonlama namoyon eta boshladi. Bu davrda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar mazmuni yangi bosqich boshlanganidan dalolat bermoqda.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyati tushunchasiga turli xil darajada ta'riflar berilmoqda. Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan fuqarolik jamiyatiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Fuqarolik jamiyati - bu qonun ustuvorligi qiladigan; inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalashni ta'minlanadigan, shaxsning rivojlanishi va o'zligini namoyon qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan; aholinig keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan mustaqil va barqaror institutlar amal qiladigan ijtimoiy makondir".

Mamlakatimizdagi sotsiolog va siyosatshunos olimlar ham fuqarolik jamiyatini ".....bu - erkin, demokratik, huquqiy sivilizatsiyalashgan jamiyat bo'lgan ib, unda yakka hokimlik rejimiga, volyuntarizmga, sinfiy adovatga, totalitarizmga, odamlar ustidan zo'ravonlik qilishga o'rin yo'q. Bunday jamiyatda faqat va faqat qonun, axloq, insonparvarlik, adolat ustuvorlik qiladi. Bu jamiyatda ko'p ukladli raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti, tashshabbuskor tadbirkorlar iqtisodiy rivojlanishning asosini tashkil etadi, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini muvozanatga keltirib turiladi"¹⁰⁴ deyilsa, yana birida quyidagi talqin ilgari suriladi: "Fuqarolar o'rtasidagi muayyan kompromiss, davlat va nodavlat tashkilotlar o'rtasida konsensus madaniyati vujudga kelganda, shuningdek, dunyoqarashlar plyuralizm, davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro ta'sirga kirishishga layoqatli jamoatchilik institutlari vujudga kelganda shakllanishi mumkin"¹⁰⁵ deya

¹⁰³ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. "Ўзбекистон" НМИУ, 2018. –Б.4-6.

¹⁰⁴ Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. -Шарқ, 2003. -Б.20.

¹⁰⁵ Бегматов А. Мустақллик даврида фуқаролик жамияти асосларининг яратилиши ва эволюцияси. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи масалалари. 2015 №1. –Б.66.

tariflaydi. Fuqarolik jamiyati tushunchasiga ta'riflarning turli-tumanligi fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining murakkab, ko'p qirrali jarayon ekanligi bilan tavsiflanadi.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- fuqarolik jamiyatining shakllanishi uzoq davom etib kelayotgan murakkab tarixiy jarayondir. Fuqarolik jamiyatining ba'zi bir unsurlari qadimgi Yunoniston va Rimda namoyon bo'ldi, Yangi davrda esa uning ba'zi shakllanish unsurlari kashf etildi, hozirgi davrda esa uning bir butun tizim sifatidagi tasavvurlar shakllandi;

- fuqarolik jamiyati g'oyasi insoniyatning antik davrdan buyon davom etib kelayotgan tafakkurlashi mahsulidir. Avestoda, Qadimgi yunon faylasuflari fikrlarida, O'rta asr Sharq mutafakkirlarining qarashlarida, Uyg'onish va Reformatsiya davri g'oyalari va bugun XXI asr jahon xamjamiyati tomonidan umuminsoniy ijtimoiy madaniy qadriyatlar sifatida e'tirof etildi. Ma'lumki, har qanday fan, o'z mohiyatiga ko'ra umumbashariydir. Dunyoning barcha xalqlari o'zining katta-kichikligidan qat'iy nazar fuqarolik jamiyati nazariyasiga o'zlarining hissalarini qo'shdi. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi g'oyalar qarashlarga bir yoqlama yondashish uni ularni kamsitish mumkin emas;

- fuqarolik jamiyatining xususiyatlari, belgilari, tamoyillari har qanday ijtimoiy tuzimda mavjuddir, biroq ularning rivojlanish darajasi turli xilda bo'lishi mumkin.

- fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonlari xolati ijtimoiy hayotning va davlat hokimiyati boshqaruvining demokratlashib borishi bilan birgalikda kechadi.

- fuqarolik jamiyatining shakllanishi huquqiy davlatchilikning shakllanish jarayoni bilan uyg'unlikda takomillashib boradi.

- har bir davlatda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos milliy mental xususiyatlarga bog'liq holda, shaklan milliy modellarda namoyon bo'lishi mumkin;

- hozirgi davrdagi dunyodagi biron-bir mamlakat fuqarolik jamiyati eng so'nggi yetuklik bosqichiga erisha olgani yo'q va uni takomillashtirish uzuluksiz davom etadigan jarayondir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti va obyektini deganda nimani tushunasiz?
2. Fuqarolik jamiyati fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Fuqarolik jamiyati fanining asosiy tushunchalari mazmuni to'g'risida qanday tasavvurlarga egasiz?
4. Fuqarolik jamiyati shakllanishining asosiy bosqichlarini yoritib bering.
5. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari nimalarda namoyon bo'ladi?

2.2/1.-MAVZU: FUQAROLIK JAMIYATI G‘OYALARI EVOLYUTSIYASI

1. Qadimgi va O‘rta asrlar ijtimoiy fikr taraqqiyotida fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi g‘oyalar
2. Yangi va eng yangi davrda fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi nazariyalar
3. Fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi zamonaviy konsepsiyalar

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

G‘oya, nazariya, konsepsiya, fuqarolik jamiyati, demokratik davlat, adolatli jamiyat, fuqarolik jamiyatining antik, mumtoz va zamonaviy paradigmalari, „Sharq Arastusi“, „Fozil odamlar shahri“, fuqarolik jamiyati, inson erkinligi, ideal jamiyat, zolimlardan himoya qilish, „Siyosatnoma“, kuchli markazlashgan davlat, „Temur tuzuklari“da Sohibqiron davlat tizimi.

1. Qadimgi va O‘rta asrlar ijtimoiy fikr taraqqiyotida fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi g‘oyalar

„Fuqarolik jamiyati“ tushunchasi - kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsulidir. Fuqarolik jamiyatining poydevorini yaratish va uni amalda shakllantirish uchun avvalo u haqdagi g‘oyalar genezisini bilish lozim. Bu ularning ijobiy jihatlarini muayyan jamiyatga nisbatan tatbiq etish imkonini beradi.

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida fuqarolik jamiyatini qurish eng ezgu g‘oya sifatida amal qilgan. Unga erishish uchun turli darajadagi nazariy qarashlar ilgari surilgan. Bir guruh olimlar fuqarolik jamiyatini qurish g‘oyasi G‘arb tamadduni mahsuli sifatida amaliyotga tatbiq etilmoqda deb hisoblamoqdalar, aslida Sharq mamlakatalari mutafakkirlari ijodida bu masalaga oqilona yondashuv uch ming yil ilgari shakllangan. Ijtimoiy taraqqiyotning ma’lum davrlarida sharq mamlakatlari yetakchilik mavqeini egallagan. Har qanday fan, o‘z mohiyatiga ko‘rat umumbashariydir. Dunyo xalqlari katta-kichikligidan qat’iy nazaruning rivojiga hissalarini qo‘shgan. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish to‘g‘risidagi g‘oyalar, bilimlarni bir yoqlama bo‘rttirish yoki kamsitish noto‘g‘ri yondoshuvdir.

Fuqarolik jamiyati va uning tushunchalari Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotining yorqin namunasi „Avesto“ muqaddas kitobida keltirilgan. 2001 yilda millat ma’naviy madaniyatining eng qadimgi manbasi „Avesto“ning 2700 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov: „... bu noyob asar bebaho tarixiy hujjat bo‘lib, u biz yashagan bu qadim yurtda, bu zaminda o‘zining madaniyati va boy ma’naviyatiga ega bo‘lgan buyuk davlat bo‘lganligidan, ajdodlarimizga, asrlar davomida bitmas tuganmas quch vaqudrat va tayanch sifatida xizmat qilganligidan dalolat beradi“ deb alohida e’tirof etgan edi. Darhaqiqat, „Avesto“ning bosh g‘oyasi „ezgu fikr, ezgu maqsad, ezgu amal“ har qanday jamiyat va insonlararo munosabatlarning ma’naviy asosi ekanligidan dalolatdir.

Avestoning „Yashtlar“, „Vispirat“, „Vididod“ qismlarida oila va jamoada berilgan so‘zdan yoki qasamdan voz kechish, odamlar o‘rtasida tuzilgan ahdomani buzish katta gunoh ekanligi o‘z ifodasini topgan. Xususan, „O Spitama, shartnomani buzuvchi kishi butun mamlakatni buzadi, shu bilan birga Artaga tegishli barcha mulku mollarga putur etkazadi“. „O Spitama, ahdingni buzma...“¹⁰⁶ g‘oyalari davlatlar siyosiy tizimining huquqiy asosi, adolat manbai bo‘lib, ular Rim huquqidan ham qadimiyroqdir.

Avestodagi fuqarolik jamiyatini qurishning birlamchi omili erkak va ayolning teng huquqliligi, oilaning barqarorligini ta’minlash g‘oyasi bugungi kunda ham muhim ahamiyatga bo‘lib, bugun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiva boshqa me’oriy hujjatlarda ayollarning teng imkoniyati va keng huquqlari ta’minlangan. XXI asrda ba’zi mamlakatlarda

¹⁰⁶ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. –Т.: „Шарк“, 2001. 384 б.

ayollarning saylash va saylanish huquqi umuman inkor qilinayotgan bir davrda, O‘zbekiston Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga ayollarning saylanishi uchun 30% kvotaning ajratilishi, 1995 yilda “Oila” kodeksining qabul qilinishi, bir tomondan yurtimizda ayollarga munosabat va oilaviy qadriyatlar qadimiy ildizlarga egaligini ifodalasa, ikkinchi tomondan fuqarolik jamiyatini qurish yo‘l idagi oqilona siyosatning yorqin ifodasidir.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasining Yevropacha an‘anasi antik ildizlarga ega. Mazkur an‘ananing mazmun-mohiyati nafaqat siyosiy, balki shaxsni ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazardan baholash bilan bog‘liq edi. Bunga Aflotun, Arastu, Sitseron kabi mutafakkirlarning qarashlarini misol keltirish mumkin.

Fuqarolik jamiyatining antik konseptual ta‘limotida jamiyat va davlat fenomenlarining uzviyligi qadimgi yunon dunyoqarashining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Aflotunning (mil. av. 427-347 y.) “Davlat” dialogida fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy hayotini ajratishgina emas, ijtimoiy sohani hozirgidek zamonaviy talqinda, siyosiy faollik sifatida tushunilgan. Bunda jamiyat hayotining siyosiy jihatlari, fuqarolik jamiyati tizimining umumiy tavsifi sifatida namoyon bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyati g‘oyasining keyingi rivoji Aflotunning shogirdi Arastu(mil. av. 384-322 y.) ijodi bilan bog‘liq. Ustozi kabi Arastu ham eng mukammal jamiyat g‘oyasini ishlab chiqishga diqqat e‘tiborini qaratadi, biroq fuqarolik jamiyati g‘oyalari tarkibida bu masala o‘zgacha nazariy jihatlarni tashkil qiladi. Uni ko‘proq ijtimoiy transformatsiya emas, balki davlat tuzilmasidagi o‘zgarishlar qiziqtiradi. Bundan tashqari Arastu o‘zining nazariy ishlanmalarida davlat haqidagi mavhum g‘oyaga tayanishni emas, jumladan Aflotunga xos bo‘lgan, balki voqe‘likda mavjud bo‘lgan boshqaruv shakllarini solishtirish, qiyosiy tahlil qilishga tayanadi, bu jihat esa uning davlat va jamiyat borasidagi pozitsiyasini konkretroq bo‘l ishini ta‘minlaydi.

Platondan farqli o‘laroq, Aristotel xususiy mulkni e‘tirof etadi. Chunki u inson tabiatiga xos bo‘lgan, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning o‘zagini tashkil etadi. Aristotel mulk huquqining fuqarolar farovonligi, davlat va uning boshqaruv shakli xavfsizligi, qonunchilik organi ishida fuqarolarning ishtiroki mexanizmi, lavozimlarni egallash va vazifalarni bajarish, sud organlari ishida rolini atroflicha o‘rgangan. Huquqni Aristotel adolat mezoni deb hisoblagan va unga ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va ayni vaqtda ularni muhofaza qiluvchi institut sifatida yondashgan. Aristotel fikriga ko‘ra, siyosiy boshqaruv - bu odamlarning emas, balki qonun boshqaruvidir: hatto eng yaxshi hukmdorlar ham tuyg‘ular va hissiyotga beriluvchan bo‘ladi, qonun esa “oqilona tafakkur”dir.

Qadimgi rim mutafakkiri *Mark Tuliy Sitseron* (mil. av. 106-43 yillar) ham jamiyat va davlat (respublika)ni tenglashtiradi. Davlatni u umumiy manfaatlar bilan o‘zaro bog‘langan odamlar majmui sifatida tasavvur qiladi, davlat xalqning umumiy mulki hisoblanadi va odamlar birgalikda yashashga tabiiy ehtiyoj sezadi. Uning fikricha, davlatning vazifasi mulkni muhofaza qilishdan iborat. Davlat ayni shu maqsadda tashkil etiladi. Sitseron fikriga ko‘ra, uch boshqaruv shakli (monarxiya, aristokratiya va demokratiya) unsurlarini o‘zida mujassamlashtirgan aralash davlat eng ideal davlatdir. Faqat shunday davlatda har bir jamiyat a‘zosining manfaatlarini qondirish va u davlatni boshqarishda ishtirok etishi ta‘minlanadi. “Davlatning mustahkamligi va fuqarolarning huquqiy tengligi” bunday davlat tuzumining muhim fazilati deb hisoblaydi. Sitseronning “Davlat haqida” va “Qonunlar haqida” asarlari davlat va huquq muammolariga bag‘ishlangan. Davlat Sitseron talqinida qadimgi yunon mutafakkirlarining konsepsiyalaridagi kabi davlatning barcha erkin a‘zolari umummanfaat ifodasi sifatidagina emas, balki bu a‘zolarining o‘zaro kelishilgan huquqiy munosabatlari majmui, muayyan huquqiy tuzilma, “umumiy huquqiy tartibot” sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Sitseron davlat tushunchasiga birinchilardan bo‘lgan ib huquqiy tus beradi, bu ta‘limot keyinchalik juda ko‘p mutafakkirlar, shu jumladan “huquqiy davlat” g‘oyasining hozirgi tarafdorlari tomonidan ham e‘tirof etiladi.

Sitseron konsepsiyasiga ko‘ra, “fuqarolik jamiyati” g‘oyasi antik davr uchun klassik ahamiyatga ega bo‘ladi, bu o‘z navbatida yangi davrda shakllangan nazariy qarashlarga asos bo‘ladi. Ko‘pgina ekspertlar fikricha, aynan Sitseronning ijtimoiy-siyosiy ta‘limotida “fuqarolik jamiyati” o‘zining tushunchaviy asoslariga ega bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyatini qurish g'oyasi Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida o'rganilganligi I.A.Karimovning 2014 yilda Samarqandda o'tkazilgan "O'rta asr Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi zamonaviy sivilizatsiyada o'rni va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqida "Olim va tadqiqotchilar fikricha, Sharq xususan Markaziy Osiyo, IX-XII va XIV-XV asrlarda bo'lgan ilmiy hamjamiyat tomonidan Buyuk Sharq uyg'onishi deya nom olgan yirik ilmiy madaniy uyg'onish uchun asos sifatida xizmat qildi"¹⁰⁷ deb alohida ta'kidlagandi. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo uyg'onish davri IX-XV asrlarda davlatni boshqarish va adolatli jamiyat qurish, davlat rahbari va xizmatchilarining faoliyat darajalari tasniflari, ijtimoiy mas'uliyati mezonlarining nazariy jihatlarini haqidagi g'oyalar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqalar ijodida keng tahlil qilingan.

Xususan, *Abu Nasr al-Forobiy* (870–950) ning "Fozil odamlar shahri", "Davlat arbobining aforizmlari" asarlarida sharqona siyosiy-huquqiy va ijtimoiy fikr tarixida ijtimoiy tizim, siyosat, davlat va hukumat haqidagi qarashlar nazariy asoslangan. Abu Nasr Farobiy fikricha adolatli jamiyat qurish uchun uni mudofaa qilish va oqilona boshqarish usulini bilish, odamlarga yovuzlikdan saqlanish ezgulikka intilish yo'larini ko'rsatish lozim. U davlat rahbarining boshqaruv mahorati umumiy baxtga erishish yo'lidir deb hisoblaydi. Adolatli davlatni ma'rifatli hukmdor boshqaradi, u ma'naviyat, adolat yetakchisi bo'lishi, o'z fazilatlarini bilan qat'iy talablarga javob berishi lozim. Bu borada Abu Nosir Forobiy "Ularning o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan eng oliyanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmanidan muhofaza qiladilar"¹⁰⁸, deb davlat boshqaruvida demokratik tamoyillarni ta'minlash bilan bog'liq axloqiy va madaniy qadriyatlarni tizimlashtiradi

Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" asarlarida adolatli jamiyat va uning amal qilishi asoslarini shakllantirish haqidagi g'oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, jamiyatning paydo bo'lishiga odamlarning o'zaro hamkorligi, birga yashashga ehtiyoji va intilishlari sabab bo'lgan. Adolatli jamiyatni qurish axloqiy qadriyatlarga tayanishi va rivojlantirilishi lozim. Davlat rahbarining asosiy vazifasi aholining turli qatlamlari, kuchlilar va kuchsizlar o'rtasidagi siyosiy va huquqiy adolat mezonlarini o'rnatishdadir. Bunga uning fikricha ideal ijtimoiy tuzilmani qurish orqali erishiladi.

Abu Ali ibn Sino (980–1037) fikricha ijtimoiy munosabatlar odamlar o'rtasidagi tafovut va tengsizlik natijasidir. Hususan, Ibn Sino "iqtisodiy va ijtimoiy hamda shaxsiy xususiyatlarga ko'ra tengsizlik - inson ijtimoiy faolligi sababi hisoblanadi" deb ta'kidlaydi. Ideal davlat qurish esa jamiyat aholisining ma'naviy-axloqiy ravnaqi bilan bog'liq. Uning fikricha, ma'naviy axloqiy qadriyatlarning yuksak qadrlanishi nafaqat har tomonlama farovonlikni, balki jamiyatda adolat va barqarorlikni ham ta'minlaydi.

Bu davrda Sharqda ijtimoiy adolat, ma'rifat va tenglik nafaqat nazariy me'yor, balki amaliy hayot me'yori, ijtimoiy - siyosiy muammolar yechimini topish va jamoa bo'lib yashashning asosi sifatida tushunilgan, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ma'rifat yo'li tanlangan bo'lsa, Yevropa ijtimoiy-siyosiy tafakkurida esa nasroniylarning diniy dogmatikasi hukmronlik qilib, diniy va dunyoviy manfaatlar o'rtasida kurash rivoj olgan.

Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" dostonida davlatni boshqarish amallari, qoidalari va siyosiy - axloqiy munosabatlarni jamiyatda qaror toptirishga e'tibor qaratgan¹⁰⁹. U davlat boshqaruvi va xizmatini tashkil etish turlarini hamda shu darajalarga muvofiq sifatlarini tasniflaydi. Jumladan, "Shohlikka da'vogarlar onadan ajib bir iste'dod bilan tug'iladilar va ular darhol yaxshi-yomonni ajratish fitratiga ega bo'ladilar. Bundaylarga Xudo idrok, farosat va yumshoq bir ko'ngil ato etadi, qolaversa yaxshi ish yuritish uquvi bilan ham siylaydi"¹¹⁰ deb ta'kidlagan.

¹⁰⁷ Каримов И.А. Ўрта аср Шарқ мутафаккирларининг илмий мероси замонавий цивилизацияда ўрни ва аҳамияти. // Халқ сўзи. 2014 йил 24 май.

¹⁰⁸ Абу Носир Форобий. Фозил одамлар шаҳри. -Т.: А.Қодирий нашриёти. 1993, -Б.190.

¹⁰⁹ Юсуф Хос Хожиб Қутадғу билиг. -Т.: Фан, 1971, -Б.329.

¹¹⁰ Ўша асар. -Б. 329.

Adolatli davlat boshqaruvi, uning mukammal nazariy asoslarini yaratish borasida ulkan ilmiy meros qoldirgan o'rtas asrlar mutafakkiri, davlat arbobi Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asari muhim manba hisoblanadi. U amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, adolat va insofni oyoq osti qiladigan kishilarni davlat ishlariga aralastirmaslikni, davlatni boshqarishda kengash bilan olib borish, faoliyatlarni muntazam nazorat qilish, itoat, ijro va sifatleri to'g'risidagi qarashlari bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Nizomulmulkning "Ko'pchilik bo'lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo'lib adi va shunday yo'l tutish kerak"¹¹¹ degan fikrlari ajdodlarimizning davlat qurilishining adolatli tartibotlariga katta e'tibor berganligidan dalolatdir.

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ma'naviy asoslarini o'rganishda O'rtas Osiyoda vujudga kelgan tasavvufchilik oqimining ahamiyati ham alohida muhim o'rin tutadi. Tasavvuf garchi islom bag'rida nish urib, Qur'on va hadislar hikmatidan oziqlangan, ko'p hollarda shariat ahkomiga suyanagan bo'lib sada, lekin u rasmiy diniy aqidaparastlik va mutaassiblikka hamda hokim tabaqalarning ayshu-ishratlarga g'arb turmush tarzi, talonchilik va manfaatparastlikka zid o'lib aroq, mehnatkash xalq noroziligini ifodalab keldi. Tasavvuf ta'limoti asosida adolat, haqiqat, to'g'rilik, mehr-shafqat, insof, iymon, e'tiqod, ilm, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi umuminsoniy g'oyalarni targ'ibot qiluvchi futuvvatga asoslangan bir qancha diniy, siyosiy oqimlar paydo bo'lib adi. Ular jamiyatning axloqsiz unsurlariga g'oyaviy kuch sifatida qarshi qo'yiladi

Ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivoji va huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy sharti - qonun ustuvorligi tamoyilini amaliyotda qo'lib lash tajribasini Sharqning buyuk davlat arbobi va sarkardasi *Sohibqiron Amir Temur* (1336–1405) boy ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy merosi asosida ko'rish mumkin. Uning tuzuklarida davlat tizimi, uni idora qilish uslublari va vositalari, undagi turli lavozim-vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, harbiy qo'shinlarning tashkil etilishi, jang olib borish mahoratlari, davlat xizmatchilari rag'batini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni obodonlashtirish tadbirlari milliy davlatchilikning yuksak madaniy va huquqiy darajada shakllantirishga erishganligidan dalolat beradi. "Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda haddilaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Har elning ulug'larini va sharaf-e'tiborli kishilarini hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'l ini to'sdim".¹¹²

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatini - hayotiyligini va samaradorligini ta'minlovchi - huquqiy davlat doirasidan tashqarida tasavvur qilib bo'lib maydi. Shu ma'noda, *Sohibqiron Amir Temurning* quyidagi so'zlari hozirgi zamon bilan hamnafas jaranglaydi: "O'z tajribamda, - deb yozadi u, shuni ko'rib bildimki, davlat agar dinu tartib asosida qurilmas, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalng'och odamga bo'g'ilishdirkim, ko'rgan har kimsa (undan) nigohini olib qochadi. Yoxud har xil qalang'i-qasang'i odamlar tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyga bo'g'ilishdi. Shuning uchun men o'z saltanatim binosini islom dini, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim"¹¹³.

Shu nuqtai nazardan, muvafaqqiyatli boshqaruv qonuniyatiga ko'ra, Amir Temur rahbarning adolatga tayanishini lozim topgan. Uning fikriga ko'ra: "Rahbar uchun barcha ishlarda adolatga amal qilishi kerak: u sotilmaydigan va fazilat egasi bo'lgan odamni vazirlikka tayinlashi lozim, chunki adolatli vazir o'zi mahdud-rahbar adaolatsizliklarni to'g'irlashi mumkin, ammo vazirning o'zi shunday bo'lsa, halokat yaqindir"¹¹⁴. *Sohibqiron* fikricha, davlat boshqaruvida yana bir muhim qonuniyat - qonun ustuvorligi. "Qat'iy tartib va qonunlarga amal qilishim baxt-saodatim kaliti bo'lib di". Bosh qonunlar sifatida diniy ahkomlarni va ular asosida yozilgan fikrlarni bilgan. Buning barchasi buyuk Temur adaolatli va fozil boshqaruvga alohida e'tibor qaratganligini ko'rsatib turibdi.

¹¹¹ Низомулмулк. Сиёсатнома. Т.: Адолат, 1997. –Б.98.

¹¹² Темур тузуклари.-Т .: "Ўзбекистон" нашриёти, 2014, -Б.137.

¹¹³ Темур тузуклари.-Т .: "Ўзбекистон" нашриёти, 2014, -Б..79.

¹¹⁴ Ўша асар. -Б.107.

Komil insonlar jamiyati haqidagi g'oyalar *Alisher Navoiy* (1441-1501) siyosiy va adabiy faoliyati asosi bo'lib xizmat qildi. A.Navoiy ideal ijtimoiy-iqtisodiy tuzum haqidagi qarashlarini o'zining "Saddi Iskandariy", "Mahbub ul qulub", "Payg'ambarlar va donolar tarixi" va boshqa asarlarida yoritgan. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzum muammolarini faqat adolatli hukmdor boshqarayotgan va qonun ustuvor bo'lgan mamalkatda amalga oshishi mumkin. Shunday qilib, A.Navoiy uchun adolat va qonun ijtimoiy taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Uning konsepiyasida hukmdor shaxsi alohida ahamiyat kasb etadi. Fazilatli va ideal shaxs haqida mulohaza yuritar ekan Navoiy o'ziga xos insonparvar nazariyani yaratadi. O'z nazariyasida mutafakkir, bir tomondan hukmdor va bog'bonni, boshqa tomondan davlat va bog'ni solishtiradi. Unga ko'ra, agar bog'bon aqlli va mehnatsevar bo'lsa, uning bog'i gullab-yashnaydi. Xuddi shunday agar mamlakatning aqlli, dono, adolatli, xalqi uchun qayg'uradigan va uni sevadigan hukmdori bo'lsa, u rivojlanib farovonlashadi.

U nazariyotchi va amaliyotchi sifatida davlat siyosatining adolatli asoslari va uning ma'naviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Ayniqsa, adolatsizlik va zulm davlatni tanazzulga, jamiyatni jaholatga olib kelishi to'g'risidagi qarashlari o'z ifodasini topadi: "...davlat ishi bilan mashg'ul bo'lgan amaldorlik chog'larimda ko'ngil mulkini turli odamlarning hujumi bulg'aladi. Goh amirlik o'rnida o'tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini so'rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko'rsatdim"¹¹⁵ deydi. Adolatli jamiyat shakllanishining asosiy omili sifatida Navoiy insoniy fazilatlar: adolatlilik, rahmdillik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, vatanparvarlik, vijdonlilik, insonparvarlik va jasoratni keltirib o'tadi.

Antik va o'rta asr Sharq allomalarining fuqarolik jamiyatigi oid konseptual merosi va nazariy ishlanmalari amaliyotdagi - davlat va jamiyatda hukmron me'yorlarga to'liq mos kelmasada, biroq ular fuqarolik jamiyati tamoyillarining obyektivlashuvi va uning insoniyat sotsiumining tarixiy taraqqiyotining tarkibiy qismi sifatida tushunilishi uchun mustahkam asos yaratdilar.

2. Yangi va eng yangi davrda fuqarolik jamiyati to'g'risidagi nazariyalar

Fuqarolik jamiyatining tarixiy ko'rinishlari ifodasi Yevropa - O'rta yer dengizi an'anasi asosida fuqarolik jamiyatining dastlabki ko'rinishlari - Uyg'onish davridagi italyan shahar-davlatlariga borib taqaladi. Bunda fuqarolik jamiyati shahar boshqaruvi tizimiga asoslangan, muayyan shahar doirasidagi, ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida xarakterlanadi.

Olimlar fuqarolik jamiyatining yana bir tarixiy ildizini, olmon madaniy doirasi ta'siridagi kontinental-Yevropa an'anasi bilan bog'lashadi. Erkin fuqaroning paydo bo'lishiga, birinchilardan bo'lib birlashgan hunarmandlar va savdogarlar gildiyasi, feodallardan himoyalovchi va shaharlar boshqaruviga ta'sir qilgan birinchi assotsiatsiya sabab bo'lgan deb hisoblanadi.

Uchinchi tarixiy ildiz fuqarolik jamiyati zamonaviy tushunchasi shakllanishida liberal anglo-amerika an'anasi muhim ahamiyat kasb etgan. Tadqiqotchilar bu borada turlicha fikr bildiradi. Masalan, fuqarolik jamiyati tabiiy huquq va erkinlik asosida mulkka egalik qilishi haqidagi g'oyani Jon Lokk, modernizatsiya va o'z-o'zini boshqarishni fuqarolik jamiyatining muhim komponentlari sifatida Adam Smit, A.Fergyson minimal davlat konsepsiyasi, fuqarolik jamiyati va zaruriy yovuzlik sifatidagi davlatning o'ta chegaralangan roli haqidagi g'oyani Tomas Peyn, amerikacha demokratiya tahlili g'oyasini Aleksis de Tokvil, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarni belgilab bergan va fuqarolik jamiyati mustaqil bo'lishi kerakligini ta'kidalgan Jon Styuart Mill kabi olimlarni ko'rsatish mumkin.

Fuqarolik jamiyati haqida turlicha tarixiy va metodologik yondashuvlar va interpretatsiyalarni inkor etmagan holda, yangi davrda fuqarolik jamiyati konseptuallashuvi jarayonida muhim rol o'ynagan Uyg'onish davri olimlardan biri Nikolo Makiavelli (1469-1527) bo'lib, u pragmatik, tajribaviy ijtimoiy fanga asos soldi. Fuqarolik jamiyati Makiavelli uchun

¹¹⁵ А. Навоий. Махбуб ул-Кулуб.—Т.: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983, -Б.12.

sinfiy, partiyaviy qarama-qarshi qiziqishlar majmuidir. Unga ko'ra fuqarolik jamiyati xalqdan axloqiy asosni - ezigulik va fazilatni, ijtimoiy qiziqishlar va respublika tuzilmasi qiziqishlari oldida burchni his qilish va jasoratni talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, u erkin individlar uchun munosib birlashma bo'l adi. Davlatni himoya qilish uchun hukmdor qo'l idagi barcha vositalarni ishga solishi kerak bo'l adi, yolg'on, shafqatsizlik hatto urush ham bundan mustasno emas. Davlat qiziqishlari unda birlamchi ahamiyat kasb etgan. Makiavelli davlatning mutlaqo mustaqilligini talab qilgan, cherkovdan ham, ya'ni davlat va umuman siyosat sohasining sekulyarizatsiyasi tarafdori bo'l gan. U davlat boshqaruvining o'ziga xos siyosiy mahorat maktabini yaratadi, unda hech qanday axloqiy normalar bilan hisoblashmay, "maqsad har qanday vositani oqlaydi" degan tamoyilni ishlab chiqqan.

Shunga qaramay, aynan shunday masalani ko'n dalang qo'yish g'oyasi ortidan yangi davrda bir qator faylasuflar fuqarolik jamiyati konsepsiyasini yanada boyitdi. Xususan, "So'z erkinligi haqida" Djon Milton, "Leviatan" Tomas Gobbs, "Davlat boshqaruvi haqida ikki traktat" Jon Lokk, "Qonunlar ruhi haqida" Monteske, "Ijtimoiy kelishuv haqida" Jan Jak Russo, "Ilohiy-siyosiy traktat" Benedikt Spinoza, "Fuqarolik jamiyati tarixi haqida xatlar" Anri Fergyson kabilardir. Mazkur ishlarda u yoki bu darajada inson hayotining o'ziga xos shakli sifatidagi fuqarolik jamiyati muammolari yoritibgina qolmay shaxs va davlatga fuqarolik jamiyatining asosiy subyekti bo'lgan fuqaroning butun potentsialini yuzaga chiqarish uchun zarur bo'l gan prinsipial yangi sifatleri ishlab chiqilgan.

Yangi davrning eng muhim siyosiy hodisalaridan biri bo'lgan "fuqarolik jamiyati" g'oyasi o'z tadrijida bir qancha konsepsiya va talqinlarni vujudga keltirdi. Biroq, u hamisha "davlat" hodisasiga nisbatan qarama-qarshi qo'yilgan. Fuqarolik jamiyatining liberal talqini T.Gobbs, J.Lokk va Sh.Monteskye davriga borib taqaladi. Tushuncha sifatida fuqarolik jamiyati ular tomonidan insoniyatning tarixiy taraqqiyotini aks ettirish, insonning ibtidoiy usuldan taraqqiy topgan turmush tarziga o'tishini ifodalash maqsadida kiritilgan. Inson davlat va tamaddundan bexabar "yovvoyi", "tabiiy" holatda uzluksiz urushlar hamda o'zaro dushmanlik holatida rivojlanib boradi. O'zida tartib-intizom va fuqarolik munosabatlarini ifodalagan rivojlangan jamiyat tabiiy holatdagi sodda (yoki qaysidir ma'noda johil) jamiyatga qarama-qarshi qo'yiladi.

Tabiat va insonning jilovlanmagan tabiiy ehtirolari emas, balki komillik, ya'ni insonning ongli ravishda jamoaviy hayot kechirishga qodirligi jamiyat va inson hayotining tabiiy ibtidosi hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati insonning oziq-ovqat, ust-bosh, boshpanaga bo'l gan asosiy ehtiyojlarini qondirish sharoiti sifatida qabul qilingan. Insonning kundalik ehtiyojlari qondiriladigan turli (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy) sohalarning ajralishi va erkinlashuvi jarayoni fuqarolik jamiyati paydo bo'l ishiga olib kelgan. Ma'lumki, insoniyat rivojlanishining ilk davrida kichik guruhlardan iborat qabilalar (uyushmalar) paydo bo'l ib, ular birgalikda oziq-ovqat topish, uy qurish, dushmanlardan himoyalani, yovvoyi hayvonlardan, tabiiy ofatlardan saqlanish maqsadida birlashishgan. Ushbu uyushmalar oila, urug', qabila doirasida tashkil topgan bo'lib, ularni bir butun yaxlit holdagi manfaat, ya'ni tabiatning tirik bir bo'l agi sifatida yashab qolish zaruriyati asosida birlashgan.

Ijtimoiy ishlab chiqarish va mehnat taqsimotining yuksalishi natijasida insonlarning uyushmasi miqdoriy jihatdan o'sgan, funksional jihatdan rang-baranglashib barqarorlashgan. Umumiy manfaat jamiyat a'zolarini bog'lab turuvchi kuchga aylangan. Shunga qaramasdan, jamiyatning barcha a'zolari fuqarolik jamiyatini ifoda etgan uyushmalarga a'zo bo'l ishlari shart bo'l may, mustaqil holda yashash imkoniyati ham mavjud bo'lgan. Xususiy mulk va sinflarining paydo bo'l ishi bilan jamiyatda tabaqalanish yuz berib, umumiy manfaatlar xususiy, guruhiy manfaatlariga ajrala boshlagan.

Ingliz ma'rifatchi faylasufi va siyosiy mutafakkiri *Jon Lokk* (1632-1704) haqli ravishda huquqiy davlatning atoqli mafkurachilaridan biri hisoblanadi. U o'z g'oyalarini "Davlatni boshqarish haqida ikki risola" asarida bayon etgan. Uning ta'limotida odamlarning tabiiy holati, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va davlatning tashkil topishi muammolari tushuntirilgan. Lokk huquqiy davlatning bosh elementi bo'lgan hokimiyatning bo'l inishi nazariyasining asoschisi hisoblanadi.

Xususiy mulk nazariyasi Lokkda mehnat bilan uzviy bog'liq. Odamlar asosan o'z mulkidan tinch va xavfsiz foydalanish maqsadida jamiyatga qo'shiladilar, bunda mazkur jamiyatda qabul qilingan qonunlar buning asosiy quroli va vositasi bo'l ib xizmat qiladi, deb hisoblaydi Jon Lokk. Fuqarolik jamiyatiga birlashish - bu qulay, tinch va farovon hayot kechirish, o'z mulkidan xotirjam foydalanish va o'zini mazkur jamiyat a'zosi bo'lmagan odamlarga qaraganda xavfsizroq his qilish uchun boshqalar bilan kelishish demakdir.

Liberalizm asoschisi Jon Lokk birinchi bo'l ib shaxsni jamiyat va davlatdan, erkinlikni - boshqa qadriyatlardan ustun qo'ygan. Erkinlikni u davlatning aralashuvidan holi holat sifatida tushungan.

O'zining "Fuqarolik boshqaruvi haqidagi ikkinchi risola" deb nomlangan asarida J.Lokk har qanday odam uchun tabiiy (ya'ni sodda, johil, ibtidoiy - muallif izohi) holatni inkor etgan holda fuqarolik jamiyati talablari darajasiga etish uchun yagona yo'l boshqalar bilan kelishgan holda ijtimoiy birlikka qo'shilish yoki birlashishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi.¹¹⁶

Fuqarolik jamiyati tushunchasining liberal talqini, yuqorida aytib o'tganimizdek, Tomas Gobbs va Jon Lokk davrida yaratilgan. "Fuqarolik jamiyati" tushunchasini ular kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishini, insonning tabiiy mavjudlikdan ma'rifatli hayot tarziga o'tishini aks ettirish uchun ilmiy muomalaga kiritgan.

Tomas Gobbs bunday holatga davlat mavjud bo'lgan holda erishish mumkin deb hisoblagan. U davlat bo'lgan joyda urush, qo'rquv, qashshoqlik, yolg'izlik, yovvoyilik, jaholat, davlatda - oqilonalik, xavfsizlik, boylik, tartib, bilim va olijanoblik hukm suradi, deb yozgan.

Tomas Gobbs antik davr mutafakkirlariga (Platon, Aristotelga) ergashib, jamiyat va davlat tushunchalarini tenglashtiradi. U davlat, fuqarolik jamiyati va fuqaroviy shaxs tushunchalari o'rtasiga tenglik belgisini qo'yadi. Biroq, ayni vaqtda, u agar davlat fuqaro bo'lsa, bu har qanday fuqaro davlat hisoblanishini anglatmasligini qayd etadi. Muayyan xo'jalik, savdo va tijorat ishlarini olib borish uchun a'zolari o'zini hamjamiyat (davlat) xohish-irodasiga to'la bo'ysundirmagan birlashmalar, kompaniyalar, ya'ni "fuqaroviy shaxslar" tashkil etilishi mumkin. Ayni vaqtda bunday fuqaroviy shaxslar (shirkatlar) oxirigacha bo'ysungan bo'lgan adi. Mazkur mantiqni "fuqarolik jamiyati" tushunchasiga nisbatan ham tatbiq etish mumkin.

Fransuz mutafakkiri *J.J.Russo* qarashlarining asosida ijtimoiy shartnoma nazariyasi bo'lgan ib, unda inson, jamiyat va davlat munosabatlari atroflicha tahlil etiladi. Russo o'z davrida ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni tahlil qilar ekan, kishilar o'z salohiyatlarini birlashtirgan holda hukmron sinfga qarshi tura olishlari mumkinligini, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish mumkinligiga urg'u beradi.

Uning fikriga ko'ra kishilar tabiiy holatda yashab qolishlariga qarshi ta'sir kuchli bo'lganligi tufayli ular o'z hayot tarzlarini o'zgartirishga majburdirlar. Ular yangi kuchni vujudga keltira olmas ekan, faqatgina mavjud kuchni birlashtirish va yo'naltirish bilan o'zlarini saqlab qolish, boshqalar bilan birlashgan holda umummanfaat yo'lida harakat qilishi mumkin bo'lgan kuchlar birligini hosil qilishlari mumkin.

Ayni vaqtda Russo, bunday birlashgan kuchni hosil qilish uchun o'z salohiyatidan jamoa manfaati yo'lida voz kechgan insonning eng asosiy boyligi bo'lgan erkinlikni qanday saqlab qolishi haqida ham bosh qotiradi. Bunga javob topar ekan, "uyushmaning shunday shaklini topish kerakki, unda mujassam bo'lgan qudrat uyushma a'zolarining shaxsi va mulkini himoyalashi va asrashi, shu tufayli barcha bilan birlashgan har bir kishi ko'pchilikka bo'ysunadi va ayni vaqtda, ilgariidek erkin bo'lgan ib qolaveradi. Ijtimoiy shartnoma bajaradigan asossiy vazifa ana shudir", deya ta'kidlaydi.¹¹⁷

Russo g'oyalari ijtimoiy shartnoma natijasida ijtimoiy birlik qay tarzda shakllanishiga qaratilgan. "Agar har birimiz o'z shaxsiyatimiz va bor kuchimizni umumjamoa va uning oliy irodasiga topshirar ekanmiz, natijada barchamiz uchun har birimiz yagona butunlikning ajralmas

¹¹⁶Гоббс Т Избранные произведения. В 2-х томах. Т.2. М.1956. -С.137.

¹¹⁷Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты / Пер. с фр. - М.: "КАНОН-пресс", "Кучково поле", 1998. -С.39.

qismiga aylanamiz”¹¹⁸.

Fuqarolik jamiyatini davlat hokimiyatining maqomi nuqtai nazaridan talqin etgan mashhur olimlardan biri *Sh.L. de Monteskye* (1689-1755 y.)dir. Uning asosiy g‘oyalaridan biri hokimiyatning bo‘l inishi to‘g‘risidadir. U o‘zining “Qonunlar ruhi” nomli asarida davlatni fuqarolik jamiyatida fuqarolarning o‘zaro adovatini bartaraf etishga qaratilgan jamaotchilik kelishuvining natijasi sifatida ko‘rib chiqadi. U ushbu ikki tushunchaga aniqlik kiritadi va ularning har ikkisinining o‘ziga xos qonunlari (fuqarolik va davlat) bo‘l ib, o‘zining ta’sir doirasiga ega. Demak, fuqarolik jamiyati fuqarolarning o‘zaro munosabatlarini boshqarsa (shu bilan birga xususiy mulkka egalik qilish), davlat esa insonlarning siyosiy huquqlari va erkinligini ta’minlaydi. Bu borada o‘zining yuqorida qayd etilgan asarida Sh.Monteske shunday yozadi: “fuqaro uchun erkinlik o‘z xavfsizligi borasida ishonchga asoslangan ruhiy xotirjamlikdir. Bunday xotirjamlikka erishish uchun shunday boshqaruv bo‘l ishi kerakki, bu holatda bir fuqaro boshqa fuqarodan qo‘rqmasin”¹¹⁹. Fuqarolik jamiyatida qonunlarning hayotda amal qilishiga urg‘u bergan olim “men biror mamlakatga borsam, u yerda yaxshi qonunlar mavjudligi bilan emas, balki qonunlarga qanday itoat etilayotganligi bilan qiziqaman...”, deb yozadi¹²⁰.

Davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi munosabatlar shartnoma asosiga qurilgan. O‘z mohiyatiga ko‘ra bu munosabatlar taraqqiy topgan, negaki davlat va fuqarolik jamiyati birgalikda, individlarning hayot-faoliyatini ta’minlash va insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratishgan. Davlat insonlarning asosiy huquqlarini himoyalaydi, hokimiyat yordamida tabiiy dushmanlikni chegaralaydi, o‘z yaqinlari va qondoshlari hayotiga nisbatan bo‘l adigan tahdidlarni, o‘z moddiy boyligidan xavotirlikni bartaraf etadi; fuqarolik jamiyati bo‘l sa hokimiyatni jilovlab turadi.

Fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi *A.Fergyussonning* qarashlari ham juda muhimdir. Olimlar fikriga ko‘ra fuqarolik jamiyati tushunchasini dastlab aynan *A.Fergyusson* qo‘l lagan. Unga ko‘ra “shaxslarning baxti fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadidir: a’zolarining har biri baxtsiz bo‘l gan jamiyat qanday farovonlikka erisha oladi?”¹²¹. Jamiyatning baxtini diniy nuqtai nazardan talqin etishda uning diniy tahsil olganligi ta’sir qilgan bo‘l ishi mumkin. Uning fuqarolik jamiyati borasidagi asosiy qarashlari 1767 yilda yozilgan “Fuqarolik jamiyatining tarixiy tajribasi” deb nomlangan asarida mujassamlashgan bo‘l ib, unda o‘sha vaqtda shakllangan jamiyat, ya’ni tijoriy munosabatlarga asoslangan jamiyat axloqiy nuqtai nazardan tanqid qilingan¹²².

Fergyussonga ko‘ra insonning jamoa bo‘lib yashashga bo‘lgan azaliy moyilligi qo‘pol yoki sodda holatdan tamadduniy rivojlanganligini namoyon etadi. Ayni vaqtda, bu taraqqiyot insonning axloqiy xususiyatlari takomiliga mos kelmaydi, bu yerda ijtimoiy jarayonda o‘ziga xos tarzda regress kuzatiladi. Tamadduniy jarayon ijtimoiy munosabatlar va institutlarni qoliplashtirish, millatlarning boyligini ko‘paytirish bilan odamlarni jamiyatdan ajralishiga imkon yaratadi, ular fuqarolik hissini yo‘qotishadi. Bunday teskari harakat korrupsiyaga olib keladi.

Fegryusson o‘z ta’limotida insonning axloqiy qarashlarini birinchi o‘ringa olib chiqadi. U *J.J.Russoning* tabiiy holat borasidagi fikrlariga qarshi chiqar ekan, insonning jamiyat ichida tug‘ilishi va jamiyat ichida qolishi to‘g‘risidagi *Sh.Monteske* fikriga to‘liq qo‘shiladi. U insondagi xudbinlikni qoralar ekan, o‘ta xudbin inson ijtimoiy faoliyat yuritishi mumkin emasligini ta’kidlaydi.

Ommaviy faoliyat yuritish insonga xos bo‘lgan eng ulug‘ xususiyat bo‘lib, insoniyat baxti eng ulug‘ maqsad, jamiyat ichida yashash qobiliyati eng ulug‘ qobiliyatdir. Fergyussonga ko‘ra

¹¹⁸Руссо Ж.Ж. Ўша асар. -С40.

¹¹⁹Мухаев Р Т Политология: учебник для студентов юридических и гуманитарных факультетов. - М.: Издательство «ПРИОР», 2000. –С. 160.

¹²⁰Монтескье Ш.Л. Избранные произведения. Озаконах, в их отношениях к различным существам. - М., 1955.

¹²¹Фергюсон А. Опыт истории гражданского общества / Пер. с англ. Под ред. М.А.Абрамова. М., 2000. – С.107.

¹²²Фергюссон А. Опыт истории гражданского общества / Пер. с англ. И.И.Мюрберг. Под ред. М.А.Абрамова. - М.: РОССПЕН, 2000. –С. 4-10.

inson faoliyatining ikki turi mavjud: egoistik (xudbin) va ijtimoiy. Birinchisi yopiqlik, raqobat va dushmanlik hissiga yaqin bo'lib, ikkinchisi jamiyat ichida yashash, insonlarni birlashtirishga xizmat qiladi.

Inson jamiyat a'zosi sifatida butunlikning qismi bo'lib, aslida u o'z-o'ziga tegishli emas. U jamiyat farovonligi yo'liga to'sqinlik qiladigan har qanday erkinlik va baxtdan voz kechishkerak¹⁸. Ko'rinib turganidek, A.Fergyusson fuqarolik jamiyatiga erishishda jamiyatning taraqqiy topganligi emas, balki axloqiy tarbiyasi muhim o'rin tutishiga e'tibor qaratmoqda.

Fuqarolik jamiyatini tahlil qilishga nisbatan boshqa bir yondashuvni *G.Gegel* (1770-1831) taklif qiladi. U fuqarolik jamiyatiga o'z kundalik ehtiyojlarini mehnat yordamida qondiruvchi individlar majmui deb qaraydi. Uning fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyatining negizini xususiy mulk tashkil etadi.

G.Gegel fikri bo'yicha, tarixiy jarayonni harakatlantiruvchi kuch sifatida fuqarolik jamiyati emas, balki davlat amal qiladi, u barcha fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi, inson shaxsi, umumiy siyosiy, moddiy va ma'naviy asoslarning jamuljam ifodasi hisoblanadi. Davlat insonni har xil tasodiflardan himoya qiladi, adolatni ta'minlaydi, umumiy manfaatlarni ro'yobga chiqaradi.

Davlat, oila, qabila, millat, diniy va boshqa birliklardan farqlanuvchi "fuqarolik jamiyati" kategoriyasi XVIII-XIX asrlarda tadqiqot predmetiga aylandi. G.Gegel o'zining "Huquq falsafasi" asarida fuqarolik jamiyati tushunchasini atroflicha o'rgandi va unga shaxslarning ehtiyoji va mehnat taqsimoti tizimi, adliya (huquqiy muassasalar va huquqiy tartibot), tashqi tartib (politsiya va korporatsiyalar) orqali aloqasi (munosabatlarga kirishishi) sifatida ta'rif berdi¹²³. O'sha davr jamiyati va davlatiga nisbatan G.Gegelning qarashlari eskirganligiga qaramay, uning fuqarolik jamiyati davlatga nisbatan mustaqil bo'lgan shaxsiy manfaatlar jabhasi, ijtimoiy tuzum, mehnat taqsimoti va mulk shakllariga bog'liq ekanligi haqidagi fikrlari ijtimoiy fanlarning rivojlanish yo'lida tashlangan muhim qadam bo'ldi.

G.Gegel fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyati - bu, avvalo, xususiy mulkka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek, din, oila, tabaqalar, davlat qurilishi, huquq, axloq, burch, madaniyat, maorif, qonunlar va ulardan kelib chiquvchi subyektlarning o'zaro yuridik aloqalaridir. Tabiiy, "nomadaniy" holatdan "odamlar fuqarolik jamiyatiga kirishlari lozim, chunki faqat shu jamiyatda huquqiy munosabatlar haqiqiy xususiyat kasb etadi".¹²⁴ Ayni vaqtda Gegel bunday jamiyat faqat "hozirgi dunyoda" mavjud bo'lib ishi mumkinligini qayd etadi. Boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyati yovvoyilik, qoloqlik, ma'rifatsizlikka qarshi qo'yiladi.

Gegel fuqarolik jamiyati oiladan boshlanib to davlatga qadar dialektik harakatlanuvchi alohida bosqich uzoq tarixiy davr davomida o'rta asrdan to yangi davrgacha transformatsiyalashib kelgan tushunchadir. U fuqarolik jamiyati va davlatni aralashtirib yuboruvchi o'sha davrda hukmron bo'lgan tabiiy huquq nazariyasini tanqid qilgan, uning fikricha, ijtimoiylik xususiyatiga asoslanuvchi fuqarolik jamiyati, oilaning axloqiy va davlatning ommaviy hayotidan mutlaqo farqlanadi. U adolatli qonunlar va odil sudlarni fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismlari deb hisoblaydi.

Fuqarolik jamiyatini o'z mehnati bilan kundalik ehtiyojlarini qondiradigan individlarning majmuasi sifatida tasavvur etgan Gegelning yondashuvi o'zgacha bir an'anani namoyon etadi. Unga ko'ra xususiy mulk fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etadi. Kishilar, avvalo xususiy manfaatlariga asoslangan holda harakat qilishadi, ammo ular bir-birlari bilan bog'liq bo'lganliklari tufayli ular o'rtasida ijtimoiy aloqa o'rnatiladi. Fuqarolik jamiyati xususiy mulkka asoslangan ijtimoiy tuzilma sifatida bozor munosabatlari tizimini, oila va davlat orasida joylashgan jamiyatning hayotiylikini, fuqarolik huquqlarini ta'minlaydigan oraliq shaklini ifoda etadi.¹²⁵

Gegel fuqarolik jamiyatiga ta'rif berar ekan, xususiy mulkning birlamchiligiga urg'u beradi. Unga ko'ra, avvalo, xususiy mulkchilikka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek, din, ijtimoiy qatlamlar, oila, axloq, burch, madaniyat, ta'lim, qonunlar fuqarolik jamiyatini tashkil

¹²³Каранг: Гегель Г.В.Ф. Философия права. - Москва, «Мысль», 1990. - С.227.

¹²⁴ Гегель Г. Работы разных лет. Том 2. - Москва, 1973. - С. 50.

¹²⁵Гегель Г.В.Ф. Философия права. М., 1990. -С. 228.

etadi¹²⁶.

Davlat va jamiyat munosabatlari haqida gapirganda, Gegel jamiyat emas, balki davlat taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi ekanligini ta'kidlaydi. Fuqarolik jamiyatiga nisbatan davlatning birlamchiligi, Gegelga ko'ra, butun olam taraqqiyotining negizida "Dunyoviy ruh", "Mutlaq g'oya"ning turganligi bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyati ruh-g'oyaga nisbatan "begona" bo'lgan bir paytda, aynan davlat umumjahon miqyosida o'z-o'zicha rivojlanishda bo'lgan g'oyani o'zida namoyon etgan holda, inson shaxsiyatining, siyosiy, moddiy va ruhiy ibtidolarning eng qudratli ifodachisi sifatida maydonga chiqadi.

Asli irlandiyalik bo'lgan britaniyalik mutafakkir davlat arbobi *Edmund Byork* (1729-1797 y.) konservativ mafkuraning haqiqiy asoschisi hisoblanadi. Byorkning siyosiy risolalari traktatlari,

"Fransuz inqilobi haqida o'ylar" (1790 yilda yozilgan) asari konservatizm mafkurasining mohiyati va o'ziga xosligini ochib berdi.

Byork o'z asarlarida konservatizmning boshqa boshlang'ich vakillari ma'rifatparvarlik mafkurasining asosiy tezisi bo'lgan: inson tabiatini o'rganib chiqish imkoniyati, ongning umumiypozitsiyasida fuqarolik jamiyati va siyosiy hokimiyat, "tabiiy huquq" nazariyasi ratsionalizmni rad etishib, ular insonlarning "tabiiy" tengligini "axloqiy va siyosiy yolg'on" deb atadi.

Jamiyatning me'yordagidek faoliyat olib borishida an'analar, axloq hamda odatlar, did, insonlar ehtiyojlarining tarixiy rivojlanish jarayonida o'zgarib boradi. Uning fikricha, jamiyatda mavjud munosabatlar umuman boshqa yo'l bilan o'rnatiladi: oila qurish, qarindoshlik munosabatlari, biror millatga mansublik orqali amalga oshiriladi. Byork tarix asosida faoliyat yuritadigan siyosiy institutlar legitimlikni ta'minlashlari mumkin. U yoki bu institutning uzoq mavjud bo'lishi xalqning xarakteri va e'tiqodiga mos kelishiga bog'liq bo'lib, aynan shu narsa fuqarolik jamiyati uchun ham zarur.

Fuqarolik jamiyati rivoji ajdodlar an'alariga bog'liq bo'lib, agar u tarixiy doiradan chiqib ketsa, u butun ijtimoiy organizmning halokatiga olib keladi. O'tmishni asrash - kelajak avlodning axloqiy burchidir. Byorkga ko'ra siyosiy tizim va jamiyat faoliyati bir butunlik holda barqaror va doimiy harakatda bo'lishi kerak. Ushbu holat tadrijiy jarayonlarga hamohang ravishda davlatning siyosiy hamda ijtimoiy institutlarini xalqning xarakteri va axloqiga moslashishini anglatadi. E.Byork siyosatda tarixning rolini o'rganishga asosiy diqqatini qaratadi. Unga ko'ra tarix siyosatni belgilashda asosiy manba hisoblandi. Oila, jamoa va cherkov kabi ijtimoiy institutlar tarixiy qadr-qimmatga ega. Ma'rifatparvarlik davrida bir qator mahalliy an'analarning unutilishi ro'y berdi. Shuning uchun Byork o'z davrining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini an'analar va tarixiy amaliyotga qaratishga harakat qildi.

E.Byork ko'pgina ijtimoiy-siyosiy hodisalar, inson tabiati, fuqarolik jamiyati va siyosiy hokimiyatga nisbatan yangicha yondashuvga asos soldi. Xalqlarning taqdirini tarixiy an'analar bilan bog'liq ekanligini asoslab berdi.

Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jamiyatning komilligiga bog'liq: agar fuqarolik jamiyati sodda va tarqoq bo'lsa, davlat uning "tashqi ko'rinishi"ni ifoda etadi xolos. Jamiyat johil bo'lsa davlat fuqarolik jamiyatini barbod etgan holda o'z hokimiyatini mutlaqlashtirish yo'lidan borishi mumkin. G'arb tajribasidan ma'lum bo'lishicha, komillikka etgan fuqarolik jamiyati sharoitida davlat jamiyat bilan o'z munosabatlarini muvozanatlashga majbur bo'lib qoladi.

Davlat insonni tasodiflardan himoyalagan holda, adolatni ta'minlagan va umumiy manfaatlarni amalga oshirgan. Fuqarolik jamiyati va shaxs davlatga bo'ysundirilgan, zero, aynan davlat alohida guruhlar va individlar hayotiga mazmun bag'ishlagan holda ularni bir butunlikka jamlagan. Ayni vaqtda, keng qamrovli davlatning mavjudligi xavfli bo'lib, u fuqarolik jamiyatini "yutib" yuborgan holda fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashga intilmaydi.

Fuqarolik jamiyatini konseptual tushunishga Immanuel Kant (1724–1804) harakat qilgan. Kant fuqarolik jamiyatini butun insoniyat uyi deb bilgan. Bu jamiyatda har bir inson hatti-harakati oliy axloqiy qonun - qat'iy imperativ bilan belgilanad. Uning fikricha, fuqarolik

¹²⁶ Гегель ГВ.Ф. Философия права. М., 1990. –С.228.

jamiyati mavjud qonunlar doirasida hech kim tomonidan cheklanmaydigan intilish, tamoyillarining erkinlik bilan uyg'unligi, boshqacha aytganda, fuqarolarga mos bo'lgan jamiyatdir.

Ijtimoiy hayotga oid turli sohalarining vujudga kelishi individ faoliyatining rang-baranglashuvi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi jarayonini ifoda etadi. Ijtimoiy aloqalarning turlichaligi hokimiyatga tobe bo'lgan magan va boshqa individlar bilan ongli ravishda, oqilona munosabatlar o'rnatishga qodir fuqarolik ongiga ega bo'lgan mustaqil shaxsning shakllanishi natijasi hisoblanadi.

Uning fikriga ko'ra, mutlaq monarxiya fuqarolik jamiyati bilan umuman mutanosib bo'lgan olmaydi va u fuqarolarning erkin boshqaruvi shakliga mos kelmaydi. Bundan tashqari, u xususiy mulk mustaqil individning kristallashuvi jarayoni negizida yotishini, aynan xususiy mulk inson siyosiy mustaqilligi va erkinligining iqtisodiy asosi ekanligini uqtiradi¹²⁷

Emmanuel Kant (1724-1804 y.) o'zining "Butunjahon-fuqarolikda umumiy tarix g'oyasi" asarida huquqiy fuqarolik jamiyati sifatida davlat tuzilishini butun insoniyat ongiga qanday qilib singdirish mumkin degan bir qancha muammolarni qo'yadi. Buning maqsadga muvofiqligini tabiatning o'zi taqozo etadi. Chunki, aynan shunday jamiyatda uning fuqarolariga buyuk erkinlik beriladi va bunda antagonizm mavjud bo'lishi ham mumkin. Harqalay, erkinlikniani ta'riflash va uni boshqalarniki bilan mutanosibligini ta'minlash, insoniyatning barcha sir-sinoatini ochib berish tabiatning eng oliy maqsadi hamdir.

Ijtimoiy fanlarda uzoq vaqtlardan beri davlat va fuqarolik jamiyati ajratilmasdan, sinonim tarzida qo'lanilib kelingan. Biroq, jamiyatdagi turli sohalar bir-biridan ajralib davlatning qattiq nazoratidan ozod bo'lgan boshlagan, o'z huquq va erkinliklariga ega bo'lgan mustaqil shaxs alohida ahamiyat kasb eta boshlagan davr, ya'ni XVII asrga kelib tarixiy taraqqiyotdagi ikki tendensiyani muvozanatlashtirish dolzarb ahamiyatga ega bo'la boshladi. Bir tarafdin, shaxsning mustaqillik va erkinlikka intilishi, natijada ijtimoiy taraqqiyotda tartibsizlik va ixtiyoriy jarayonlarning kuchayishi ijtimoiy fanlarda fuqarolik jamiyati tushunchasini ifoda etgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin ijtimoiy munosabatlarda muntazam murakkablashib boruvchi tartibsizliklar, nizolarni bartaraf etish va tartibga solish, butunlikni saqlash davlat tushunchasini ifoda etdi. Davlat va fuqarolik jamiyati ko'pgina hollarda bir-biriga qerama qarshi qo'yilib kelingan. Shuningdek, ijtimoiy fanlardagi talqinga ko'ra, fuqarolik jamiyati hokimiyatga aloqador bo'lmagan aloqalar va tuzilmalarning ko'p pog'onali va murakkab tizimidir.

3. Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar

XX asrga kelib jamiyat tizimidagi o'zgarishlar - erkin bozor iqtisodiyoti, parlamentar demokratiya va huquqiy davlat, ijtimoiy va siyosiy sohalar o'rtasidagi bo'linish jarayonlari - fuqarolik jamiyatini tushunishning yangi yondashuv va konsepsiyalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Fuqarolik jamiyati haqidagi tasavvurlar rivojini tizimlashtirish: birinchidan ularning ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlili bilan, ikkinchidan, mafkuraviy asoslarning xususiyatlariga ko'ra, uchinchidan, fuqarolik jamiyatining sof ilmiy konsepsiyalarini aniqlash bilan izohlanadi.

Fuqarolik jamiyati modeli tahlil qiluvchi dastlabki ijtimoiy-falsafiy nazariy yondashuv va konsepsiyalarini ikki guruhga bo'linish mumkin:

- formatsion va sivilizatsion yondashuvlar;
- modernizatsiya va postmodernizm konsepsiyasi.

Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalarining asosiy yondashuvlari:

Formatsion yondashuv - fuqarolik jamiyati tushunchasi kapitalistik tizimga bog'lanadi va keng (ya'ni jamiyatning shakli sifatida) va tor (ya'ni iqtisodiy va siyosiy munosabatlar o'rtasidagi shakllanadigan muayan ijtimoiy tashkilotlar majmuasi sifatida) ma'nolarda tushuniladi.

Sivilizatsion yondashuv - fuqarolik jamiyatini sivilizatsiya taraqqiyoti kontekstida ko'rib chiqadi. Uning nazariy asoslarini O.Shpengler, A.Toynbi va P.Sorokin asrarlarida yaratilgan.

¹²⁷Мухаев Р.Т. Политология. - М.: Проспект, 2010. - С.640.

Ularga qaraganda, fuqarolik jamiyati boshqa ijtimoiy shakllardan avvalo yuksak sivilizatsiya darajasi bilan ajralib turadi. Uning asosiy meʼzoni sifatida esa insogn, uning erkinligi, rivojlanish va ijodiylik imkoniyatlari, shuningdek boshqa insonlar bilan tinchlik va totuvlikda yashash qobiliyatlari tan olinadi.

Modernizatsiya yondashuvi - Modernizatsiya konsepsiyalarida (A. Turen, Yu. Xabermas, E. Giddens, Z. Bauman va b.) fuqarolik jamiyati aʼanaviy jamiyat urnini egallagan yoki zamonaviy jamiyatga xos boʻlgan belgilarni shakllantiradigan jamiyati tushuniladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda fuqarolik jamiyatining quyidagi gʻoyaviy-falsafiy doktrinalari koʻrsatiladi:

- ***“byurokratik davlat sotsializmi doktrinasini”;***
- ***“avtoritar davlat kapitalizmi doktrinasini”;***
- ***“demokratik sotsializm doktrinasini”;***
- ***liberal-demokratik (“bozor demokratiyasi”).***

Byurokratik davlat sotsializmi uchun fuqarolik jamiyati - bu burjua, kapitalistik jamiyat, u xususiy mulkka va yollanma mehnatga asoslanadi. Byurokratik-davlat sotsializmi tarafdorlari fuqarolik jamiyatini ijtimoiy notenglik va jamiyatda kuchayib borayotgan keskinlik sababi deb biladi.

Avtoritar-davlat kapitalizmi fuqarolik jamiyatini xususiy biznes, oilaviy-qarindoshlik va boshqa nodavlat munosabatlar sohasi boʻlib, oʻzida kapitalistik davlatning ijtimoiy-iqtisodiy bazasini mujassam qiladi, deb hisoblaydi.

Demokratik sotsializm konsepsiyasi tarafdorlariga koʻra fuqarolik jamiyati - ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va institutlar majmui, u demokratik davlat bilan birga ijtimoiy (iqtisodiy, siyosiy va h.) demokratiya asosini tashkil qiladi.

“Bozor demokratiyasi” nazariyotchilari fuqarolik jamiyatini bozor demokratiyasi jamiyati analogi deb biladi. Ular fikricha, fuqarolik jamiyati iqtisodiy jamiyat boʻlib, iqtisodiy hayotni boshqarish imkoniyatlarida cheklangan va ijtimoiy birlashmalar va harakatlar tomonidan nazorat qilinadi.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyati gʻoyasining qayta jonlanishida jamiyatni davlatlashtirishga, jamiyat hayotida davlat roli va taʼsirining favqulodda oʻsishiga qarshi harakatni koʻrish mumkin. Ch.Taylor, E.Arato, R.Dvorkin va boshqa tadqiqotchilardan iborat boʻlgan oʻziga xos normativ diskurs ham shakllanganligini aytish mumkin¹²⁸.

Shuningdek, nodavlat sohaning ijtimoiy-siyosiy faolligi va oʻz-oʻzini tashkillashtirish ahamiyati yuzasidan, eng muhim quyidagi konsepsiyalar ajratiladi:

- *liberal anʼana konsepsiyasi;*
- *amerikanacha kommunitarizm konsepsiyasi;*
- *Yevropacha neokonservativizm konsepsiyasi;*
- *post-marksistcha konsepsiya.*

Fuqarolik jamiyati zamonaviy konsepsiyasining mafkuraviy modellari

Liberal-demokratik doktrina (“bozor iqtisodiyoti” doktrina)

Avtoritar-burjua doktrina (“davlat kapitalizmi” doktrinasini)

Sotsial-demokratik doktrina (“demokratik sotsializm” va “sotsialistik fuqarolik jamiyati” konsepsiyasi)

Avtoritar-sotsialistik doktrina (“davlat-byurokratik sotsializmi” doktrinasini) .

Fuqarolik jamiyatining liberal anʼana gʻoyasi umuman olganda yangi narsa emas. Fuqarolik jamiyati haqidagi tasavvurlar mumtoz ingliz liberalizmidayoq ishlab chiqilgan.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasining amerikacha madaniy va tarixiy kontekstida “respublikanizm” ideali bilan bogʻliq edi. U XX oʻz-oʻzini boshqarish va oʻz-oʻzini ijtimoiy tashkillashtirishga asoslanuvchi, teng huquqli fuqarolar tomonidan tuzilgan amerika kommunalari, yaʼni lokal birlashmalarning uygʻun va faollikdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagi tasavvurlarga asoslanadi.

Mazkur kommunalar oʻz-oʻzini tashkillashuvi oʻziga xos fuqarolik jamiyati tipi bilan qoʻl lab-quvvatlangan, bu haqda batafsil A. de Tokvil yozadi. Demokratik madaniyat bunda kommunal oʻzaro hamkorlik va sherikchilik qadriyatlarini, shuningdek xristian axloqi qadriyatlarining yuqori darajadagi amaliyoti bilan farqlanadi. Shuning bilan birga, kommunitaristik loyiha tarafdorlari kuzatganidek,

¹²⁸ Гончаров Д. Нормативная дискуссия о гражданском обществе: основные направления. Москва. 2010. С. 86

jamoaviy qadriyatlar individual qadriyatlardan ustun bo'lib, individlar o'zaro ishonch va hamkorlik muhitida o'z qiziqishlarini uyushma qiziqishlariga bo'ysundirishga tayyor bo'lgan¹²⁹.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mumtoz marksizm zamonaviy diskursning alohida konseptual yo'n alishi sifatida fuqarolik jamiyatini kelib chiqishini, jamiyatning feodal-aristokratik paternalistik tizimi o'rniga kommersiya kapitalizmi davridagi iqtisodiy partikulyarizmi bilan bog'lagan. Biroq Marks unda individual erkinlik va avtonomiyani emas, sinfiy jamiyatda obyektiv mavjud bo'lgan notenglikni, erksizlik va ijtimoiy-iqtisodiy begonalashuvni berkituvchi, ya'ni, tashqi shaklni ko'rgan xolos¹³⁰.

Keyinroq esa postmarksistik loyiha doirasida amal qiluvchi nazariyotchilar, fuqarolik jamiyati g'oyasini qaytadan ko'rib chiqishga harakat qilgan. Shunday qilib, postmarksistik tushunishda, u quyidagicha asoslanadi "oxirgi vaqtlarda paydo bo'lgan ayotgan, jamiyatning, erkin ehtiyoriy assotsiatsiyalari, shuningdek, huquqiy va ommaviy institutlari doirasida amalga oshiriluvchi jamoaviylikning nomumtoz shakllari, nafaqat davlat doirasidan, balki kapitalistik bozor iqtisodiyoti chegarasidan ham chiqib ketmoqda"¹³¹. Bu yerda diqqat markazida, birinchidan, davlat-byurokratik mashinasining, umumiy manfaatlar davlati sharoitida, ta'sir doirasining kengayishi, ikkinchidan, jamiyatga transmilliy korporatsiyalar va globallasuv davrining markazlashgan iqtisodiyoti tomonidan bo'lgan xavfi turadi.

Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalari:

- *Liberal an'analar*
- *Yevropa konservatizmi*
- *Amerika kommunitarizmi*
- *Post-marksizm*

Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalarini ko'rib chiqar ekanmiz, ularda mazkur fenomenning ontologik va gnoseologik jihatlariga ijtimoiy qarashlar xilma-xilligini ko'ramiz. Ta'kidlash o'rinliki, fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalari ijtimoiy muammolar tahlilining tizimli mezonlarini ishlab chiqqanligi va ilmiy hamjamiyat oldiga original konseptual va amaliy yechimini talab qilayotgan yangi masalalarni ko'n dalang qilib qo'yganligi. XX asr nafaqat texnik progress, balki tizimli fikrlash shakllanishi va hukmronligi davri bo'lganligini olimlar biladi. Aynan shunday vaqtda, fuqarolik jamiyati - ijtimoiy borliqning tizimli tahlili kontekstida o'rganila boshlanadi. Bu albatta, bugun olim-faylasuflarga zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni nafaqat modellashtirish imkoniyatini, balki, ularning kelajagi haqida aniq tasavvurlar paydo bo'lgan ishga olib keladi. Bugungi kunda ham fuqarolik jamiyatini o'rganish masalalarida bir qator muammolar mavjud: fuqarolik jamiyatining davlat va jamiyat dixotomiyasi yoki sherikligi chegarasi, fuqarolik jamiyati institutlarining individ shaxsiy hayotiga dahl qilishi chegarasi qayerda, fuqarolik jamiyatini tushunishning bazaviy asoslari, fuqarolik jamiyatini tushunishning universal yondashuvlari mavjudmi kabi masalalardir.

Shuning bilan birga, fuqarolik jamiyati haqidagi g'oyalar va tasavvurlar genezisi, mazkur fenomen antik va o'rta asrlarda - davlat qiziqishlari jamiyat, va albatta xususiy qiziqishlardan ustuvorligi kontekstida talqin etilganligidan dalolat beradi. Antik va o'rta asrlar olimlari ijodida davlat, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni boshqarib turgan bosh institut sanalgan. Mazkur jihat insoniyat rivojining dastlabki bosqichida, davlat va jamiyat o'zaro hamkorligi va dixotomiyasi borasidagi konsepsiyalar yo'qligining asosiy omili hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati konseptual diskursining antik paradigmasi - fuqaroning ijtimoiy boshqaruv sohasidagi roli va o'rnini aniqlashdan iborat bo'lgan. Agar ulardan ba'zilari, fuqarolar davlatdan muayyan darajada avtonomdir (Arastu), boshqalar davlat boshliqlarini fuqaro va jamiyat hayotini reglamentatsiya qilishga chaqirgan (Aflotun). Ularning har biri imkoni boricha ideal davlat qurilmasini ishlab chiqishga harakat qilgan. Aynan shu jihat fuqarolik jamiyati keyingi konseptual ishlanmalari turli talqini va yondashuvlarni keltirib chiqardi.

O'rta asr mutafakkirlarining antik davr olimlaridan farqi, ularning ijtimoiy munosabatlarni, davlat va jamiyat munosabatlari shu jumladan, teologik xarakterga ega, antik falsafa esa ijtimoiy

¹²⁹ Walzer M. 1995. Concept of Civil Society – Walzer M., ed. Toward a Global Civil Society. Providence RI: Berghahn Books.

¹³⁰ Baker G. 2002. Civil Society and Democratic Theory: Alternative Voices.

¹³¹ Arato A. 1981. Civil Society Against the State: Poland, 1980-81 – Telos, #47.

munosabatlarni turli ranglarda ko'rib chiqadi, shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyati diniy paradigmasi o'rta asrlarda shakllana boshlagan deyish mumkin.

Sharqning fuqarolik jamiyatini konseptual tushunishdagi o'ziga xos jihat, ularning mazkur fenomenga oid talqinlari fazilat, ma'rifat va o'zaro mas'uliyat tushunchalari prizmasi orqali amalga oshirilganligidadir, bunda ijtimoiy-falsafiy fikr o'z diqqatini davlat boshqaruvchilari va jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning axloqiy-estetik jihatlariga qaratgan.

Yangi davrda davlat roli masalasi yangicha anglay boshlanadi: agar antik davr va o'rta asrlarda ijtimoiy-falsafiy fikr davlat ustuvorligiga qaratilgan bo'lsa, bu davrga kelib, mazkur nisbatda inson (fuqaro) fenomeni, o'z huquqlari, ehtiyoji va qiziqishlari bilan birgalikda ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaydi. Davlat faqat mana shu qiziqishlarni mavjud bo'lgan qonuniy tizim doirasida amalga oshirilishini ta'minlovchi institut sifatida gavdalanadi.

Yangi davr ijtimoiy-falsafiy tafakkuri fundamental yutug'i, davlat va jamiyat tushunchalarini ajratganligida, bu fuqarolik jamiyatini tushunishda klassik paradigmasining shakllanishiga asos bo'lgan edi. Bu o'z navbatida, "davlat - fuqarolik jamiyat" dixotomiyasi kuzatiluvchi konsepsiyalar shakllanishiga olib keladi. Birinchi marotaba Yangi davr mutafakkirlari davlat va jamiyat qiziqishlarining turlicha bo'lishiga o'z diqqat e'tiborini qaratadi, bunda davlat qonun ustuvorligiga tayansa, jamiyat esa xususiy mulkka. Fuqarolik jamiyati haqidagi konseptual diskursning asosiy muammolari sifatida, davlatning roli va davlat va jamiyat o'zaro munosabatlarining mezonlari qanday (axloqiy ideal va real siyosat nisbati mezonlari) degan masala ko'n dalang turadi.

Fuqarolik jamiyati fenomenini konseptual qayta tushunishda kuzatilgan jiddiy rivojiga qaramay, ilmiy pozitsiyalarni o'rganish asosida, ularning qarashlari turli g'oyaviy asosdan mahrum emasligi aniqlandi, bu esa o'z navbatida, fuqarolik jamiyati mazmun va mohiyatini tushunishda subyektivizmning kuchayishiga olib kelgan. Va yana bir kamchiligi sifatida davlat va jamiyat o'rtasidagi chegaralar hanuz belgilanmaganligi masalasi bo'lib, bu mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda ma'lum darajada to'sqinlik qiladi.

Fuqarolik jamiyatini o'rganishda zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurning muhim yutug'i sifatida esa, bu sohani o'rganishning yangi ilmiy yondashuvi sifatida – tizimli paradigmaning shakllanishi bo'ldi. O'z navbatida, bu fuqarolik jamiyatining normativ idrok etishdan uni transformatsiyalashayotgan fuqarolik jamiyatini zamonaviy konseptual diskursi turli yo'nalishlarini o'rganish kontekstida, empirik tahlil qilishga o'tish tendensiyalarini kuchaytirdi.

Immanuel Moris Vallerstayn (1930 yilda tug'ilgan Nyu-York, AQSH) - Fuqarolik jamiyati faqatgina yetarli darajada qo'llab - quvvatlaydigan kuchli davlatlar bo'lgan taqdirda mavjud bo'lishi mumkin, deb ta'kidlaydi I.Vallerstayn. Chunki, fuqarolik jamiyati davlat bilan bilvosita siyosiy munosabatlarga jalb qilish va ularning qonuniylashtirilgan faoliyatini amalga oshirish maqsadida davlat doirasida fuqarolarning tashkil qilinishini anglatadi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish dunyo va ichki tizimdagi tartibning cho'qqisi bo'lgani holda, liberal davlatlarni yuzaga keltirishning asosiy omili edi. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyatidan ilgari liberal davlat tuzilmalarini yaratish uchun birlashtiruvchi omil sifatida foydalanilgan edi. Ammo, avvalambor, fuqarolik jamiyati davlat tomonidan yashirin tarzda amalga oshiriladigan, ammo oshkora tus olishi mumkin bo'lgan halokatli zo'ravonlikni to'xtatish, xavfli sinflarni bostirish borasida tarixan bir vosita bo'lib xizmat qildi. Ammo davlat tanazzulga yuz tutgani sari fuqarolik jamiyati muqarrar ravishda tarqoqlikka yuz tutishga moyil bo'lib boradi, deb bashorat qiladi I.Vallerstayn¹³².

Kelib chiqishi venger bo'lgan iqtisodchi va faylasuf, Sasseks universiteti professori (Buyuk Britaniya) *Ishtvan Messarosh* (1930 yilda tug'ilgan) "Begonalashishning marksizm nazariyasi" (1930) kitobida fuqarolik jamiyati faqat xristian olamida o'zining mukammal darajasiga yetishadi deb yozgan. Xristianlikda fuqarolik jamiyati o'zini davlat hayotidan ajratadi, xudbinlik va xudbinlik zarurati yuzaga keladi, insonlar dunyosi atomistik va anatogonistik shaxslar dunyosida yo'q bo'lib ketadi. J.J.Russo va A.Fergysonni tanqid qilgan I.Messarosh uchun fuqarolik jamiyati - xususiy mulk tayanchi, xudbinlik zarurati va pul ustunligi bilan ifodalanadigan qullikning yangi shaklidir.

¹³² Валлерстайн И. Конец знакомого мира: Социология XXI века. М.: Логос, 2003. -С.368.

D.Markush (1934 yilda tugʻilgan) sotsial-liberalizm va Gʻarb sotsial-demokratiyasi tarafiga oʻtgan hamda bozor iqtisodiyoti va huquqiy davlat prinsiplarini himoya qilgan (“Ehtiyojlardan ustun diktatura”, 1983 yil, A.Xeller bilan hammualliflikda yozilgan). U oʻzining ushbu kitobida, Sharqiy Yevropa mamlakatlarining Gʻarbiy Yevropa bilan yaqinlashuvi iqtisodiy muammolarni hal etishga yordam bermasdan, balki fuqarolik jamiyati konsepsiyasini obroʻsizlantirib, aql-zakovat egalari va ishlayotgan asosiy aholi oʻrtasida tengsizlikni murakkablashtirishi, maʼnaviy keskinlikni kuchaytirishi, tafovutni yuzaga keltirishini eʼtirof etgan.

Nemis va amerikalik faylasuf, Frankfurt maktabining boshqa bir vakili ***Gerbert Markuze*** (1898-1979 yy.) jamoa va shaxs psixologiyasini oʻrganishga eʼtibor qaratgan holda, jamiyat qanday qilib shaxsni oʻzgartirishi mumkinligi toʻgʻrisida fikr bildiradi.

Mashhur “Bir oʻl chamli odam” kitobida G.Markuze uchun jamiyat sinfsiz hisoblanadi, unda niqoblangan neototalitarizm hukm suradi, inson bir yoqlama fikrlaydi, ommaviy axborot vositalari har bir shaxs ongiga yolgʻon, keraksiz narsalar va ulardan foydalanish ehtiyojini singdiradi. “Hukmronlik va muvofiqlashtirish tizimini qamrab olgan texnik taraqqiyot, - deb yozadi G.Markuze, - zohiran tizimga qarshi kuchlarni yarashtiradigan, aslida esa istiqbolda ogʻir mehnat va hukmronlikdan ozod boʻl ish yoʻl idagi har qanday eʼtirozning negizini yoʻq qiladigan hayot (va hokimiyat) shakllarini yaratadi¹³³.”

“Ayni paytda siyosiy hokimiyat mashinalashtirilgan ishlab chiqarish va apparatni texnik tashkil qilish jarayoni ustidan hukmronlik qilish orqali oʻz mavqeni mustahkamlaydi. Rivojlangan va rivojlanayotgan sanoatlashgan jamiyat hukumati oʻz oʻrnini sanoatlashgan taraqqiyot ega boʻlgan texnik, ilmiy va mexanik mahsuldorlikni tashkil qilish, u-ndan foydalanish hamda safarbar etish orqaligina saqlab turishi mumkin”. Uning fikricha, “kapitalizmni rivojlantirishning yuqori bosqichida jamiyat cheklangan plyuralizm tizimi boʻlib, unda institutlar shaxs ustidan hukmronlik qilishni mustahkamlash uchun kurashadi. Shunday boʻlsa-da, boshqariladigan shaxs uchun plyuralistik maʼmuriyatchilik ommaviy maʼmuriyatchilikdan afzaldir. Bir institut uni boshqasidan himoya qilishi, bir tashkilot ikkinchisining taʼsirini yumshatishi mumkin. Qonun hokimiyati cheklangan boʻlsa-da, qonundan ustun yoki uni eʼtiborga olmaydigan hokimiyatdan koʻra ishonchliroqdir”. “Har qanday holatda, - deydi G.Markuze, - markazlashgan hokimiyat va toʻgʻridan-toʻgʻri demokratiyaning birlashishi, rivojlanish darajasiga qarab, cheksiz juzʼiy oʻzgarishlarda namoyon boʻlishi mumkin”.

Amerikalik sotsiolog va publitsist, sanoatlashuvdan keyingi(axborot) jamiyat nazariyasi asoschisi ***Deniel Bell*** uchun (1919-2011 yy.) sanoatlashuvdan keyingi jamiyat - hokimiyat meritokratiya - aql-zakovat egalari tegishli “professionallar”, “aql-zakovatli kishilar jamiyati”dir. “Sanoatlashuvdan keyingi jamiyat, - deb yozadi D.Bell, - vakillari siyosiy darajada maslahatchilar, ekspert yoki texnokratlar boʻlgan intellektual sinfnig paydo boʻlishini koʻzda tutadi”. Fuqarolik jamiyatida intellektual tabaqalashuv roʻy beradi. Bunday tabaqada aqliy mehnatga nisbatan salohiyati past odamlar jamiyatning eng quyi pogʻonasiga kiritiladi. Bundan tashqari, axborotning ustuvor ahamiyati fuqarolik jamiyati uchun oʻziga xos xususiyatdir. D.Bellning fikricha, jamiyatni axborot bilan taʼminlash siyosatda ishtirok etishga qodir, boshqaruv tizimi samaradorligini yetarli darajada taʼminlaydigan “vakolatli fuqaro” konsepsiyasiga mosdir.

Amerikalik sotsiolog va futurolog, sanoatlashuvdan keyingi jamiyat konsepsiyasi mualliflaridan biri ***Elvin (Olvin) Toffler*** (1928 yilda tugʻilgan) “Yaqin kelajakda tashkil etilishi rejalashtirilayotgan institutlarda diniy va shunga oʻxshash guruhlar, global korporatsiyalar, atrof-muhit va inson huquqlarini himoya qilish harakatlari va boshqa shakldagi fuqarolik jamiyatlari qay darajada ifodalanishi kerak?” degan savolni oʻrtaga tashlaydi¹³⁴. Bugungi kunda oʻzini mustaqil davlat sifatida saqlab qolishga urinayotgan jamiyat ommaviy kompyuterlashtirilmasligi darkor. “Fuqarolik jamiyatining faoliyat yuritishi uchun keragidan ortiq narsalarni majburan qabul qildirish va tuzumni abadiylashtirishga qaratilgan tartib bemaʼnilikdir”, - deb yozadi E.Toffler. Hokimiyat - bu insonlar oʻrtasidagi har qanday oʻzaro munosabatning muqarrar

¹³³ Маркузе Г. Эрос и цивилизация.

¹³⁴ Тoffлер Э. Метаморфозы власти. –М.: ООО «Издательство АСТ», 2002.. –Т.2. –С.566.

jihati, hukmdorlar yoki xalqning odamlar faoliyati, fe'l-atvori, ongi va fikriga keskin hamda keng ko'l amla ta'sir ko'rsatish, ularning taqdirini boshqarish qobiliyati va imkoniyatidir. Bizni oldinda hokimiyat uchun global kurashlar kutmoqda, ammo uning asosini zo'ravonlik yoki pul emas, balki bilim tashkil qiladi.

F.Fukuyama fuqarolik jamiyati to'grisida fikr yuritib: "demokratik institutlar soglom fuqarolik jamiyatiga suyangani kabi, fuqarolik jamiyati ham, o'z navbatida, madaniy darajada o'z o'tmishdoshlari va shart-sharoitlariga ega". Zamonaviy demokratik davlatda fuqarolik jamiyatining an'anaviy siyosiy hamda iqtisodiy liberal doktrinaga xos tarqoq shaxsiyaparastlikni tenglashtirish yoki cheklashga qodirligi uning ahamiyati va madaniyatini belgilaydi. Olimning fikricha, haqiqiy kurash aynan fuqarolik jamiyati va madaniyat darajasida ro'y beradi¹³⁵.

Bugungi zamonning mashhur siyosatshunos-faylasuflaridan biri **Lari Zidentopning** fikricha (1936 yilda tug'ilgan), ma'naviy tenglik haqidagi xristian ta'limoti Yevropada fuqarolik jamiyatini yaratgan. Islom dini xristianlik singari universalizm tilida shakllantirilgan, ammo Islom dini faqat Allohga itoat etishda tenglikka e'tibor qaratsa, xristianlik Alloh oldida teng erkinlikni targ'ib qiladi.

L.Zidentop "hokimiyatning nisbiy ochiqdigi singari deyarli hech narsani o'zgartirmaydigan" "rasmiyatchilikka asoslangan o'zaro tiyib turish va muvozanat tizimi"ni tanqid qilgan. Fransiya davlat modeli nisbatan oson eksport qilinishi mumkin, negaki u minimal cheklovlar bilan qarorlar qabul qilishning markazlashgan mexanizmini faqat rasmiylashtirishni ko'zda tutadi. Mazkur modelning mazmun-mohiyati -hokimiyatdir". **L.Zidentopning** fikricha, bu borada "hokimiyatni bo'l ib bo'l ib joylashtiradigan, o'zaro tiyib turish va muvoznat tizimiga ega bo'l gan hamda muxtor Yevropa vakillik demokratiyasi bugungi kunda" muhim ahamiyatga molik masalaga aylanishi darkor".

Germaniyalik taniqli sotsiolog va faylasuf, **Myunxen universiteti** va **London iqtisodiyot maktabi** professori, "releksiv modernizatsiya" va "tavakkalchilik jamiyati" konsepsiyasi muallifi **Ulrix Bek** (1944 yilda tug'ilgan), o'rta sinf va fuqarolik jamiyatining o'zini o'zi tashkil etishi bog'liqligi haqida so'z yuritib⁵²¹ shunday deb yozadi: "Faqat uy-joyi, ishonchli ishi va kelajagi moddiy ta'minlangan odamlargina demokratik odob-axloq qoidalarini o'zlashtirish va demokratiyaga hayot bag'ishlashga qodir fuqarolar hisoblanadi yoki bo'la oladi"¹³⁶.

Zamonaviy tranzitologiyaning yirik vakili, amerikalik iqtisodchi, **Garvard xalqaro taraqqiyot instituti** direktori, **Garvard Universitetining** professori **Jeffri Saks** geografik joylashuv xususiyatlari, tarkibiy sharoitlar, fuqarolik jamiyatining mavjud emasligi - bularning barchasi sobiq SSSR parchalanganidan keyin paydo bo'l gan qator davlatlar, xususan, Rossiyaning chuqur tizimli inqirozining asosiy sabablaridir, deb ta'kidlagan .

D.Saks yuqori sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash va yaxshi ovqatlanishni qo'l lab-quvvatlash bo'yicha kuchli va samarali dasturlar zarurligini yoqlaydi. Uning fikricha, bularning barchasi - skandinaviya davlatlari birinchi bo'lib o'zlashtirgan "sotsial demokratiya", falsafaning dohiyona g'oyasidir. Bu g'oya oddiy va kuchlidir: barcha odamlar imkoniyatga ega bo'lish munosib va jamiyat ularning har biriga ushbu g'oyani ro'yobga chiqarishga yordam berishi lozim. Eng muhimi - oilalar sog'lom, to'yib ovqatlanadigan va o'qimishli bolalarni voyaga yetkazishi uchun ularga yordam berish kerak. Ijtimoiy investitsiyalar katta miqdorga ega, badavlat odamlar bo'yin tovlamasdan to'l aydigan katta soliqlar hisobidan moliyalashtiriladi deb ta'kidlaydi.

Demokratlashtirish g'arblashtirish bilan ziddiyatga kirishadi, deb o'z fikrida davom etadi **S.Xantington**, - demokratiya, o'z mohiyatiga ko'ra, kosmopolitizatsiyaga emas, balki mahalliy manfaatlar himoyasiga olib boradigan jarayon hisoblanadi. G'arb olamiga mansub bo'lmagan jamiyatlardagi siyosatchilar, g'arbona g'oyalarga xayrixoh ekanini namoyish qilgan taqdirda saylovlarda g'olib chiqmaydi. Saylovoldi poygalari odatda ularni eng ommaviy qadriyatlarga murojaat qilishga majbur etadi va bu narsalar etnik, milliy va diniy masalalar bilan bog'liq.

Amerikalik kishi davlat qurilishi muammolari borasida o'ylaganida, uning diqqati boshqaruv organlari va hokimiyatni mustahkamlashga emas, balki hokimiyatni cheklash va taqsimlashga qaratiladi, deb yozadi **S.Xantington**. Boshqaruv tizimini ishlab chiqishga buyurtma

¹³⁵ Фукияма Ф. Конец истории и последний человек. –М.: Ермак, АСТ, 2005.-С.46.

¹³⁶ Бек У. Что такое глобализация? М.: Прогресс-Традиция, 2001.-С.115.

olgan holda, u konstitutsiya, huquqiy qonunlar loyihasi, hokimiyatning bo‘l inishi, tekshirish va muvozanatlar tizimi, federalizm, doimiy saylovlar, partiyalar kurashi kabi - davlat hokimiyatini cheklashning ajoyib vositalarini taklif qiladi. Angliyalik mashhur siyosatshunos, faylasuf Djon Lokk nomi bilan bog‘liq bo‘l gan Lokkcha siyosiy falsafasiga sodiq qolgan mazkur amerikalik olim shu qadar davlatga qarshiki, go‘yo davlat uning uchun hokimiyatni cheklash vositasidir. Hokimiyat va tuzumni imkon qadar darajada mustahkamlaydigan siyosiy tizimni ishlab chiqish kerak bo‘l gan hollarda u yordamsiz qoladi. U butun hayotida bitta qolipdagi qarashga amal qiladi: davlat tizimi erkin va adolatli saylovlarga asoslanishi kerak. S.Xantington hokimiyat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi o‘zaro munosabat haqida shunday yozadi: “Qo‘shma Shtatlarida hokimiyat arxitektorlari his etish mumkin bo‘l gan, ammo ko‘zga ko‘rinmaydigan kuchni yaratishi lozim. Hokimiyat panada turganda kuchli bo‘l adi, quyosh nurlariga chiqqanda esa g‘oyib bo‘ladi”.

Umuman, hozirgi zamon ilg‘or demokratik mamlakatlar jamiyatshunos olimlarining fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi nazariy qarashlari bir tizimga keltirilsa, u holda fuqarolik jamiyati bu - *jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma‘naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasi bo‘l ib, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralashishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyatidir, unda ular o‘zligini namoyon qila olishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega bo‘l adilar.*

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Fuqarolik jamiyati g‘oyasining kelib chiqishi tarixiy shart-sharoitlari nimalardan iborat edi?
2. X–XII asrlarda Markaziy Osiyo mutaffakirlarining ta‘limotlaridagi adolatli jamiyati haqidagi qarashlarni izohlang?
3. Yangi davrda fuqarolik jamiyatining yangi talqinlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuriting?
4. Jadidchilik harakatining g‘oyaviy me‘rosida fuqarolik jamiyati haqidagi konseptual qarashlarni sharhlang?
5. Fuqarolik jamiyati haqidagi zamonaviy konseptual masalalarning g‘oyaviy va mental xususiyatlarini ochib bering?

2.3/1-MAVZU. FUQARO, FUQAROVIIYLK VA FAOL FUQAROLIK POZITSIIYASI

Reja:

- 1. Fuqaro va fuqaroviylik tushunchalarining mazmun-mohiyati va asosiy xususiyatlari**
- 2. Fuqaroviy ong va uning namoyon bo‘l ish omillari**
- 3. Fuqaroviy faollik va uning fuqarolik jamiyatidagi o‘rni.**

1. Fuqaro va fuqaroviylik tushunchalarining mazmun-mohiyati va asosiy xususiyatlari

Fuqarolik jamiyati fuqaroviy ong va faollik yuksak bo‘lgan sharoitda barpo etilishi mumkin. Fuqaroviylik mamlakatning turli rivojlanish bosqichlarida, shuningdek jamiyatning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tish davrida yaqqol namoyon bo‘l adi. Hozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni o‘z boshidan kechirayotgan, ya‘ni, fuqarolik jamiyati barpo etayotgan turli mamlakatlarda fuqaroviylikning namoyon bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqaroviy faollikning mohiyatini anglash uchun avvalo fuqaroviylikning mazmun-mohiyatini tushunish talab etiladi.

Turli ilmiy manbalarda qayd etilishicha, o‘z vatani taraqqiyoti uchun har qanday yo‘l bilan, xususan, o‘zining jismoniy yoki ma’naviy mehnati bilan jamiyatga xizmat qiladigan inson haqiqiy fuqaro sifatida e’tirof etiladi. Bu kabi qarashlar biroz falsafiy ahamiyatga kasb etayotgandek tuyulsa-da, aslida fuqarolik jamiyati barpo etishda aynan fuqaroning faoligi muhim omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

Fuqaroviylik dastlabki qarashda huquqshunoslikka oid atamadek tuyuladi. Aslini olganda, bu hodisaning falsafiy, huquqiy, sotsiologik va siyosiy mohiyatlari mavjuddir.

Fuqaro – o‘zining fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo‘lgan shaxsdir. **Fuqarolik** esa huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etish, ma’lum huquqlardan foydalanish hamda muayyan burchlarni bajarishga mas’ullik bilan yondashadigan, o‘z mehnati va jamoadagi faolligi, ma’naviy yetukligi asosida muayyan davlatga mansublikni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksining 16-moddasida “**fuqaro** (jismoniy shaxs) tushunchasi” quyidagicha belgilangan: “Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi”¹³⁷.

Fuqaroviylik bir davlatga mansublikni anglash, davlatga sodiqlik hamda vatanparvarlik hissi sifatida ham talqin etilishi mumkin. Bunda davlatni, konstitutsiya va qonunlarni, davlat ramzlarini hurmat qilish, davlat tuzumini va qonun ustuvorligini himoya qilishga tayyor turish fazilatlariga ega bo‘lgan shaxs nazarda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- yagona fuqarolik, ya’ni ikki va ko‘p fuqarolik tan olinmaydi;
- fuqarolikda tenglik printsipi mavjud;
- fuqarolikka ega bo‘lish, fuqarolikdan chiqish ixtiyoriylikka asoslanadi;
- fuqarolikdan majburiy chiqarishga yo‘l qo‘yilmaydi;
- O‘zbekiston fuqarolari huquqlari, erkinliklari, manfaati mamlakat tashqarisida ham davlat tomonidan himoya qilinadi.

1992 yil 2 iyulda qabul qilingan va 2004 yil 3 dekabrda tahrir qilingan “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonun asosida O‘zbekistondagi fuqarolik holatlari mustahkamlab qo‘yildi¹³⁸. Shaxs fuqaro bo‘lsagina, u barcha huquqlardan to‘la foydalana oladi va jamiyatni rivojlanishi, mamlakatni xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan burchlarni bajaradi. Shaxsning fuqaroligi uni dunyoni qayerda yashashidan qat’iy nazar huquq va manfaatlarini himoya qilishga asos bo‘ladi. Ya’ni fuqarolarni fuqarosizlarga nisbatan himoyalaniish imkoniyatlari kengrokdir.

Erkinlik shaxsning o‘z ixtiyori buyicha yashash, hayot kechirish imkoniyati bo‘lib, shaxs faqat qonunlarga itoat etishi zarur. Mamlakatimizda har bir kishining erkinligi, uning shaxsiy daxlsizligi bilan ta’minlanadi. Daxlsizlik deganda shaxsning erkinligini cheklovchi hech qanday harakatlarga yo‘l qo‘yilmasligi tushuniladi. Qonunda belgilangan asoslardan tashqari hech kimning erkinligi cheklanishi, erkinlikka zarar etkazilishi mumkin emas. Qonun tegishli hollarda kishilarning erkinligini cheklashga yul qo‘yadi, xolos. Ya’ni ular jinoiy harakatlari sodir etsa, yoki shunday harakat sodir etishda gumon qilinsa, shaxsni jamiyatdan ajratishga zarurat tug‘iladi.

¹³⁷Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси// http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=111189.

¹³⁸Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида”ги Қонуни// Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2005 йил, № 1,18-модда.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-42-moddalarida fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish uchta yo‘n alishda amalga oshiriladi:

Shaxsiy huquq va erkinliklar: yashash huquqi; shaxsiy daxlsizlik huquqlari; aybsizlik prezumptsiyasi ; turar joy dahlsizligi; erkin ko‘chish huquqi; fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi; huquq va manfaatlariga dahldor hujjatlar bilan tanishib chiqish huquqi; vijdon erkinligi.

Siyosiy huquqlar: jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqi; mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar o‘tkazish huquqi; jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi; murojaat qilish huquqi.

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar: mulkdor bo‘l ish huquqi; mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va ishsizlikdan himoyalanih huquqi; dam olish huquqi; ijtimoiy ta‘minot huquqi; malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi; bilim olish huquqi; ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi.

Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari ustuvor huquq hisoblanadi va bu dalil uning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida birinchi o‘rinda berilganligida ham ko‘rinadi. Shaxsiy huquqlar va erkinliklar fuqarolarning hayoti, sog‘ligi, e‘tiqodi bilan bog‘liqdir. Shaxsiy huquq va erkinliklar insonni shaxs sifatida namoyon etuvchi imkoniyatdir. Siyosiy huquqlar fuqarolik bilan bog‘liq bo‘lib, u tegishli davlatning fuqarolariga davlat va jamiyat ishlarini boshqarish imkoniyatini beradi. Siyosiy huquqlarga faqat mamlakat fuqarosi ega bo‘lishi mumkin. Siyosiy huquqlar orqali fuqarolar, tegishli davlat organlarini tuzish, ularni ishida ishtirok etish, davlat organlari va mansabdorlar faoliyatini nazorat qilish, qonunlar yaratilishida ishtirok etish, siyosat va davlat faoliyati haqida o‘z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Fuqarolarning mulkka egalik qilish, mehnat qilish, dam olish, nafaqa olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, ilmiy va texnikaviy yutuqlardan foydalanish kabilarga bo‘lgan huquqlari “Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar” deb belgilangan. Bu huquqlar davlat tomonidan o‘rnatilib, davlatning iqtisodiy qudratini oshib borishi, imkoniyatlarini kengayishi natijasida kengayib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga muvofiq Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas. Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklari oshkora buzilganda (agar fuqaro shunday xulosaga kelgan taqdirda), ular huquq va erkinliklarini amalga oshishiga to‘skinlik qiluvchi holatlar mavjud bo‘lsa, fuqarolar zimmasiga qonunlarda ko‘zda tutilmagan vazifalar yuklansa sudga murojaat etishga haqlidir.

Mamlakat qonunlarida fuqarolarning burchlari o‘rnatilib, ular fuqarolarning huquqlarini buzilmasligi, davlat manfaatlariga ziyon etmasligi nuqtai nazaridan belgilanadi. Konstitutsiyada belgilab kuyilgan har qanday burch fuqarolar uchun bajarilishi shart bo‘lgan majburiyatdir.

Demak, bu birinchidan, har bir fuqaro nafaqat Konstitutsiyaga, balki barcha qonunlarga rioya etishga majburdir. Bu qonuniylik printsiptini mazmun va mohiyatiga mos kelib, ana shu printsiptni amalga oshishini ta‘minlashni nazarda tutadi. Ikkinchidan, har bir kishi-fuqaro boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdir.

Fuqarolarning shaxsiy huquqlarini belgilovchi Konstitutsiya normalarida har kimga o‘z sha‘ni va obro‘sig qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanih huquqi berilgan bo‘lsa (Konstitutsiyaning 27-modda), Konstitutsiyaning 48-moddasiga asosan boshqa kishilarning huquqlari va erkinliklari, sha‘ni va qadr qimmatini hurmat qilishga faqat davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarigina majbur bo‘lmasdan, har bir fuqaro ham majbur ekanligi ko‘rsatilgan¹³⁹.

¹³⁹Ўша жойда. - Б.11 ва 17.

Konstitutsiyaning bu moddalarida huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan fuqarolarning burchlarini, ularning jamiyat va davlatning rivojlanishi asoslaridan hisoblanuvchi Konstitutsiya va qonunlarga to'la va og'ishmay amal qilish zarurligini, shu asosda ijtimoiy hayotni rivojlantirishni ta'minlashni nazarda tutadi. Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilmaslik xavfsizlikka, fuqarolar manfaatiga, davlat boshqaruviga umuman Konstitutsiyaviy tuzumga jiddiy zarar etkazishi mumkin.

Fuqarofuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxsdir. Fuqarolikesa huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy etuklik asosida muayyan davlatga mansublik demakdir.

Fuqaroviylik bir davlatga mansublikni anglash, davlatga sodiqlik hamda vatanparvarlik hissi sifatida talqin etilishi mumkin. Bunda davlatni, konstitutsiyani, davlat ramzlarini hurmat qilish, davlat tuzumini va qonun ustuvorligini himoya qilishga tayyorlik nazarda tutiladi. Fuqaroviylikni insonga huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan layoqatli ekanligini his etishni ta'minlovchi va jamlovchi tushuncha sifatida ham talqin etish mumkin.

Fuqaroviylikni insonga huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan o'zining layoqatli ekanligini his etishni o'zida sezadigan shaxsning belgilari sifatidagi tushuncha sifatida ham talqin etish mumkin. **V.Dalning** lug'atida qayd etishicha, "fuqaroviylik fuqarolik jamiyatini qaror toptirish uchun jamiyatning ongi va bilimi darajasini ifoda etadigan holatdir"¹⁴⁰.

Ko'rinib turibdiki, *fuqaroviylik nafaqat insonning huquqiy maqomi, balki, uning bilimi va jamiyatning va o'zining holatini anglashi, turli ijtimoiy me'yorlardan xabardorligi va ularga rioya qilish bilan bog'liqdir*. Bunda fuqarolar tomonidan jamiyat taraqqiyoti yo'lida amalga oshiriladigan o'zaro birdamlik, o'zaro hamkorlik singari ixtiyoriy faoliyatda ishtirok etish ham nazarda tutiladi. Bunday holatda fuqaroviylikda huquqqa nisbatan ma'naviyatning ustuvorligi namoyon bo'lgan adi. Aslida, an'anaviy jamiyatlarda fuqaroviylik huquqiy mazmunda emas, balki ko'proq ma'naviy axloqiy ko'rinishda namoyon bo'lgan ishi o'z isbotini topgan.

Sho'rolar tuzumi davrida fuqaroviylik vatanga sadoqat va vatanparvarlik sifatida talqin etilsa-da, u asosan mafkuralashgan ko'rinishda namoyon bo'lgan. Ko'pchilik hollarda fuqaroviylik vatanparvarlik bilan aralashib ketishi kuzatilgan. Aslida esa vatanparvarlik fuqaroviylikning bir ko'rinishidir, xolos. Fuqarolik jamiyati fuqarolarning oddiygina yig'indisi bo'lgan magani singari fuqaroviylik ham faqat individuallik ahamiyatiga ega bo'lgan hodisa emas. Fuqaroviylik bir mamlakat hududida yashovchi fuqarolarning o'z vatanlariga sodiqligi, qonunlarni hurmat qilishi, ularga so'zsiz bo'ysunishi, shuningdek vatanni himoya qilish va umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarda o'z faolligini namoyon qilishni nazarda tutadi. Fuqaroviylikka nisbatan turli fikrlarni umumlashtirsak, u holda unga nisbatan quyidagicha ta'rifni qo'llash mumkin: *"Fuqaroviylik bir tarafdin, jamiyatda shaxsning oliy darajada mustaqilligini anglatga, ikkinchi tarafdin, kishilarning jamiyat hayotidagi ishtirokida namoyon bo'lgan adigan yuqori darajadagi o'zaro birdamlikni nazarda tutuvchi qarashlar majmuini ifoda etadi"*.

Quyidagilar fuqaroviylikni ifoda etuvchi muhim jihatlardir:

- fuqaroning o'z haq-huquqlarini anglab etishi va uni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi;
- boshqa fuqarolarning haq-huquqlarini e'tirof etish va hurmat qilish;
- fuqaroning o'z xatti-harakati uchun shaxsiy mas'ud ekanligi;
- shaxsning davlat va jamiyat oldida o'zining huquqiy va axloqiy jihatlardan mas'ulligini anglash;
- fuqarolarning bir-birlari bilan o'zaro tengligi;
- yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlarga asoslangan holda ijtimoiy voqeliklarga nisbatan obyektiv va tanqidiy yondashuvlarga ega ekanligi;

¹⁴⁰Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка (современное написание слов). –М.:Изд. "Цитадель", 1998.-С.401.

- hokimiyat organlari, boshqa fuqarolar va jamoat birlashmalari bilan ijobiy muloqot yuritish va hamkorlik qobiliyati;

- bir mamlakat, jamiyat va davlatga, shuningdek unga tegishli bo'lgan huquqiy, madaniy va tilni o'zida namoyon qilgan, o'zini o'zi anglab qobiliyatini egallagan shaxs.

Fuqaroviylikni shaxsning faolligi darajasi nuqtai nazaridan shartli ravishda quyidagi darajalarga ham ajratib ko'rsatish mumkin:

- fuqaro mas'uliyatli, ongli va vijdonli bo'lsa, uni dastlabki pog'onada, ya'ni fuqaroviy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar qatorida baholash mumkin;

- agar fuqaroda atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ma'lum bir munosabat bildirgan olish qobiliyati shakllangan bo'lsa, uni o'z fuqaroviy nuqtai nazariga ega bo'lgan shaxs sifatida e'tirof etish mumkin;

- agar fuqaro o'z haq-huquqlari va burchi, ulardan amalda foydalanish yoki bajarish ko'nikmalarini egallagan bo'lsa, uni faol fuqaro sirasiga qo'shish mumkin.

Fuqaroviylikning tugal yoki to'kis ekanligini quyidagi mezonlar vositasida talqin qilish mumkin:

1. Agar fuqaroviy pozitsiya hali shakllanmagan, fuqaroviy xususiyatlar, o'z haq-huquqlari uchun kurashish istagi to'liq namoyon bo'lgan masa, u fuqaroviylikning eng quyi darajasi turgan bo'ladi.

2. Fuqaro o'z haq-huquqlari uchun kurashishga moyil bo'lsa, u haqda o'z bilim va qobiliyatini namoyon qilishga tayyor bo'lsa, bundau fuqaroviylikning o'rta darajasini egallagan bo'ladi.

3. Agar shaxsda fuqaroviy xususiyatlar hamda faol fuqarolik pozitsiyasi to'liq shakllangan, o'z haq-huquqlari uchun amaliy harakatga kirish ishtiyoqi yaqqol namoyon bo'layotgan bo'lsa, u holda uni yuqori darajada fuqaroviylik namoyon qilayotgan shaxs sifatida talqin etish mumkin.

Shaxslarning fuqaroviylik sifatleri jamiyat a'zolarini safarbar etish va yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqaroviylik shaxsning o'z tevarak atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan faol munosabatini, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi ishtirokini anglatadi. Shuningdek, fuqaroviylik jamiyat oldida ma'lum bir maqsadning shakllanishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, jamiyatda fuqaroviylikning rivojlanishi uchun tegishli ma'naviy, ijtimoiy va tarbiyaviy chora-tadbirlar ko'rish, uning rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy muhit yaratish ham muhim ahamiyatga egadir.

Fuqaroviylik shaxsning siyosiy jihatdan komillikka erishishi bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, komillik darajasiga etgan shaxs siyosiy jarayonlar va hodisalarga qiziqish bilan qaraydi, ro'y berayotgan voqelikni mustaqil ravishda tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Aynan ana shunday qobiliyatga ega bo'lgan fuqaro kezi kelganda o'z vatani taqdiri uchun befarq bo'lmaydi, vatan uchun o'zining fidoyiligini namoyon qiladi. Vatanparvarlik ruhiyatini o'zida o'zlashtirgan, mas'uliyat hissiga ega bo'lgan, siyosiy madaniyati yuksak va o'zining siyosiy ongini boyitib boradigan jamiyat a'zosini haqiqiy fuqaroviylikka ega bo'lgan shaxs sifatida baholash mumkin.

2. Fuqaroviy ong va uning namoyon bo'lgan ish omillari

Fuqaroviy ongning mazmun-mohiyatini anglab etish uchun uning omillarini bilishga zarurat seziladi. **Fuqarolik ongi** demokratik qadriyatlar, ideallar, huquq va erkinliklar nuqtai nazaridan shaxs, jamiyat va davlat o'zaro munosabatlarni anglab etish demakdir. Albatta har bir davlat va jamiyatda demokratik qadriyatlar o'ziga xos tamoyillir va me'yorlar asosida rivojlanadi. Fuqarolik ongi jamiyat taraqqiyotining shunday bosqichidagi ruhiy holatini anglatadiki, bu davrda demokratik me'yorlar va qadriyatlar hayotning asosiga aylangan bo'ladi.

Fuqarolik ongi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy sohalarida me'yoriy, shakllantiruvchi, yo'naltiruvchi, muloqotga etaklovchi singari rang barang vazifalarni bajaradi. Bu vazifalar o'zaro ta'sirlar natijasida o'zaro kesishadi va bir-birini boyitib boradi. Ularning aksariyati davlat va uning institutlaridan iboratdir. Lekin, davlat organlari qonunlar, me'yoriy hujjatlar, qoida va talablardan iborat huquqiy doirada faoliyat yuritrsa, fuqarolik ongi jamiyatda erkin holda shakllanadi. Fuqaroviy ong me'yorlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida shakllanadi, uni

muvoqilashiradigan yoki uni amalga oshiradigan maxsus tuzilmalar bo'lmaydi. Fuqarolik ongining vazifalari alohida olingan individlarning emas, balki butun jamiyat faoliyati bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Fuqarolik ongi jamiyat hayotida turli shakllarda namoyon bo'ladi. Kishilar shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar muhitida o'z qarashlari, tasavvurlari, qadriyatlari, intilishlari, me'yorlarini turli ko'rinishlarida namoyon etadi. Jamiyat, ijtimoiy guruhlar, shaxsning ijtimoiy manfaatlari namoyon bo'ladigan fuqaroviy manfaatlar bir tizim holiga keladi. Aynan u tizim holida bo'lganligi tufayli fuqaroviy manfaatlar har bir shaxsning qadriyatlarini hayotga tatbiq etishini ta'minlaydi, uning jamiyatga, davlatga, boshqa fuqarolarga nisbatan munosabatini shakllantiradi, fuqaroning mas'uliyati, maqsadlari, vazifalarini belgilashga, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi. Aynan ana shu tarzda shakllangan fuqaroviy ong fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiluvchi qadriyatlar, me'yorlar, g'oya hamda tasavvurlarni shakllantirish, jamiyatni komillik va erkinlikka sari etaklashga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati bir necha avlod almashinuvini talab etadigan jarayon bo'lganidek fuqaroviy ong ham tarixiy davr mobaynida shakllanib boradi. Har bir mamlakatdagi fuqaroviy ong shu mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tizimning tabiatiga mos va xos tarzda shakllanadi, ana shu mamlakatga xos bo'lgan ijtimoiy tizim, aloqalar va munosabatlarni aks ettiradi.

Fuqarolik ongi tabiiy va tadrijiy taraqqiyot mahsuli bo'lib, uni sun'iy jihatdan tezlashtirishning iloji yo'q. U ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy omillar negizida tadrijiy tarzda shakllanadi. Har bir avlod mavjud demokratik qadriyatlarni o'zlashtiradi va yangilarini yaratadi. Bu jarayonda fuqarolik ongini belgilab beruvchi me'yorlar va qadriyatlarni saqlash hamda uzluksiz takomillashtirish muhim faoliyat hisoblanadi. Tadrijiy taraqqiyot natijasida demokratik tasavvurlar shaxs ongida mustahkamlanib boradi, unda asta-sekinlik bilan fuqarolik tajribasi ham to'planib boradi.

Fuqarolik ongi qator o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Fuqarolik ongi ijtimoiy tizimning o'zgarishi bilan yangilanadigan qadriyatlarga moslashib boradi. Boshqa tarafdin, fuqarolik ongi ijtimoiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi faol omil hamdir. U fuqarolarni faol harakatga undovchi tasavvurlar bilan bog'liq bo'lganligi tufayli jamiyat o'zligining yangilanishiga va ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiruvchi omilga aylanishi mumkin. Fuqarolik ongi ijtimoiy taraqqiyotning ruhiy negizini yaratgan holda jamiyatning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Fuqarolik ongi yangi g'oyalarni qabul qilish darajasida ochiq xarakterga egadir. Yangi g'oyalar aynan bir tizimga mos ekanligi o'z isbotini topgan taqdirdagina u asta-sekin jamiyatning hayotiga singib boradi.

Madaniy yangilanishlarning uzluksiz tarzda ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatishi natijasida jamiyatda voqeliklarni his etishning yangicha usullari vujudga keladi va ular o'z navbatida fuqaroviy ongning o'zgarishiga ta'sir qiladi.

Mamlakatdagi siyosiy hayotni tubdan o'zgartirish, hattoki, jamiyatning mulkka nisbatan munosabatni butunlay o'zgartirish mumkin, lekin, kishilarning ruhiy qarashlari va qadriyatlarini tezlik bilan o'zgartirib bo'lmaydi.

Fuqarolik ongi faqat umumiy tamoyillarga asoslanmasdan ham o'z mohiyatini o'zgartirib borishi mumkin. Albatta, jamiyatda barqaror bo'lgan, har qanday siyosiy tizimga xos bo'lgan tarixiy tajriba va an'analarning singari o'zgarishga ega qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ular fuqaroviy ongda ro'y berishi mumkin bo'lgan tezkor o'zgarishlarga bo'lgan intilishlarni tiyib turadi. Yangi tarixiy tajriba aynan ana shunday qadriyatlar negizida vujudga keladi va fuqarolar ongiga singib boradi.

Tushuncha sifatida "fuqarolik ongi" deganda, avvalo, fuqaroning davlat bilan siyosiy-huquqiy munosabatlari nazarda tutilib, kishining biror-bir davlatga mansubligi va shu davlatning qonunlariga bo'ysunishi tushuniladi. Shaxsning huquqiy maqomida ifodalanadigan fuqarolik davlat bilan fuqaro o'rtasida amal qiladigan qator huquq va burchlar bilan mustahkamlangan bo'ladi.

Turli ijtimoiy subyektlarning o'zaro ta'sirlashuvlari ro'y beradigan va manfaatlari ziddiyatlari asosida paydo bo'ladigan jamiyatdagi munosabatlar fuqaroviy ongni boyitib boradi, ular ana shu ongda aks etadi. Shuningdek, fuqaroviy ong kishilararo munosabatlarga ta'sir

ko'rsatgan holda ularga aniqlik, yangi mazmun va shakl bag'ishlaydi. Kishilarning ijtimoiy hayot hamda davlatga nisbatan, shuningdek shaxs bilan davlat o'rtasida haqiqiy va me'yoriy munosabatlar to'g'risidagi tasavvurlari fuqaroviy ongda mujassamlashgan.

Ijtimoiy-siyosiy, diniy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va boshqa me'yorlar, talablar, tamoyillir, qoidalar umumiy fuqaroviy dunyoqarash shaklida fuqaroviy ongning tarkibiy unsurlari sifatida namoyon bo'ladi.

Demokratik jamiyatning barqarorligi demokratik qadriyatlar bilan boyishga zarurat skzadi. Bu jarayon jamiyatdagi fuqarolarning ijtimoiy erkin sharoitda yashashga qanchalik tayyor ekanliklari, ya'ni shaxslarning fuqaroviy etukligi va faolligiga bog'liqdir. O'z navbatida, fuqaroviy yetuklik va fuqaroviy mus'uliyat jamiyat a'zolarining fuqaroviy ongi darajasi bilan belgilanadi. Aynan fuqaroviy ong jamiyatning ma'naviy, intellektual va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini shakllantiradi.

Fuqaroviy ong jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladi, umumiy manfaatlar yo'lida fuqarolar o'rtasida kelishuvlar ro'y berishiga xizmat qiladi. Jamiyatda ro'y beradigan turli ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida fuqaroviy ong o'zgarib boradi va fuqaroviylik to'g'risidagi g'oyalar taraqqiyotida o'z aksini topadi.

Davlat va jamiyat, davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarning tabiati haqidagi bilimlarning kengayishi "fuqaroviylik" tushunchasini qayta qayta tafakkurlashni taqozo etishi – bu tarixiy taraqqiyot zaruratidir. Ijtimoiy jarayonlar natijasida sayqallangan fuqaroviy madaniyat va fuqaroviy ong kishilarni iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy jihatlardan yuksalib borishini ta'minlaydi.

3. Fuqaroviy faollik va uning fuqarolik jamiyatidagi o'rni

Fuqaroviylik va fuqaroviy ong fuqaroviy faollikda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham shaxsning bu sifatlari fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim rol o'ynaydi. Zero, fuqarolik jamiyati nafaqat fuqaroviylik xususiyatlariga ega ongli fuqarolar vositasida, balki faol fuqarolar faoliyati natijasi o'l aroq shakllanadi. Ana shu faollikni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish – fuqarolik jamiyatini shakllantirishning nazariy jihati sifatida muhim ahamiyatga egadir. Zero, bu tushunchalar fuqarolik jamiyatini barpo etishning umumiy va xususiy qonuniyatlarini anglashga imkon beradi.

Fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida ham baholash mumkin. Aynan, insonning fuqaroviy faolligi shaxsning to'laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo'l ish jamiyatda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlari bilishga imkon yaratadi, bu jarayonda paydo bo'l adigan muammolarning echimini topishga yordamlashadi.

Ijtimoiy faollik tushunchasi fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda jamiyatning davlat faoliyatidan xoli holda jamoaviy tashabbuslar bilan rivojlanishi nazarda tutilmoqda. Bu siyosiy partiyalarga a'zolikni nazarda tutuvchi siyosiy faollik, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish, turli ijtimoiy tashabbuslar va ijtimoiy harakatlarga intilishlarni anglatadi. Shu ma'noda, jamiyat uchun foydali bo'l gan turli dasturlar, loyihalar va jamoat birlashmalarida ishtirok etish ham fuqaroviy faollik sirasiga kiradi.

Aslini olganda, jamiyat a'zolarining asosiy ko'pchiligi jamiyatda mavjud qoidalar asosida faoliyat yuritgan holda doimo ham ijtimoiy faollik ko'rsatavermaydi. Bu kabi loqaydlik jamoat tartibini saqlash nuqtai nazaridan qandaydir darajada maqbul bo'lsada, fuqarolik jamiyatini qurishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, vaholanki, fuqarolar faolligi bu kabi jamiyat qurishning asosiy shartlaridan biridir. Zero, loqayd fuqarolar hech qachon o'z huquqlari uchun kurashmaydi. Fuqaroviy faollik - bu o'z kuchiga ishonish, mavjud vaziyatni o'zgartirishga qodirlik hissining yaqqol namoyon bo'l ishi bilan vujudga keladigan omildir. Ko'pchilik hollarda fuqaroviy faollikning boshlang'ich nuqtasi ko'proq sotsiologlarni qiziqtirgan masala hisoblanadi. Zero, aksariyat jamiyatlardagi ijtimoiy o'zgarishlar davlat etakchiligida amalga oshiriladi va jamiyat a'zolari keyinchalik bu o'zgarishlarga moslashib boradi.

Ko'pincha fuqaroviy faollik sifatleri yoshlarda kuzatiladi. Albatta, fuqaroviy faollikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar faqat yosh bilan chegaralanmaydi. Unga shaxsning bilim darajasi, dunyoqarashi, tarbiyai va hatto yashash manzili ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aksariyat hollarda yoshlar fuqaroviy faollik ko'rsatishni istashsa-da, siyosiy sohada bunday faoliyat ko'rsaishga unchalik qiziqmaydi. Boshqacha aytganda, yoshlar davlat siyosati o'ta murakkab hodisalardan iborat bo'l ganligi uchun ham o'z mafaatlari va istaklarini siyosatchilarga singdirishga qodir bo'l maydi. Boshqa tarafdan yondashilganda, siyosiy soha yoshlardan ancha uzoq bo'l ganligi tufayli yoshlar o'z manfaatlarini davlat siyosati bilan muvofiqlashtirishda turli murakkabliklarga duch keladi. Shu tufayli faqat ularning ozchilik qismi siyosiy partiyalarga a'zo bo'l ishadi, aksariyati qismi esa umuman siyosatga qiziqmaydi.

Jamiyatning biron-bir sohasidagi muammolarni bartaraf etish imkoniyati ko'proq nodavlat notijorat tashkilotlarida mavjud bo'l ganligi tufayli ko'pchilik yoshlar shu kabi tashkilotlarga a'zo bo'l ib kirishadi. Davlatning boshqaruv tuzilmalarida professional faoliyatga kirish yoshlardan ma'lum bir vaqt ichidagi shakllanadigan tajriba, bilim va ko'n ikmalarni talab qilsa, jamoat birlashmalariga a'zo bo'l ib kirish uchun bu kabi tajriba talab etilmaydi, balki ularga a'zo bo'l ish uchun faqat qiziqishning o'zi yetarlidir.

O'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda fuqarolar ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, mavjud vaziyatni o'zgartirish, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish bo'yicha o'z tashabbuslarini ilgari surish zarurligini anglab etishga intiladi. Bu holat esa turli ko'n gillilar uyushmalarining tuzilishiga sabab bo'l adi. Insonlarda boshqalarga yordam berish, ayniqsa, muammoli vaziyatga tushib qolgan vatandoshlariga, qo'shnilariga ko'maklashish hissi mavjud bo'l adi. Aynan boshqalarga yordam qo'lini cho'zgan kishi nafaqat muammoni bartaraf etishga hissa qo'shadi, balki, u o'zligini ham yanada chuqurroq anglay boradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'ngillilik yoki ixtiyoriylik butun dunyoda keng tarqalgan hodisalardan biriga aylandi. Bu hodisa ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga o'z hissasini qo'shishga bel bog'lagan kishilarni umumbashariy miqyosda birlashtiradigan jarayonga aylandi. Ko'ngilli uyushmalar o'z faoliyatlarini turli shakllarda amalga oshiridi. Masalan, turli kasalliklarga qarshi kurashish uchun xayriya faoliyatidan boshlab qashshoqlik yoki tabiiy ofatlarga qarshi kurashish shaklida faoliyat yuritadigan minglab nodavlat tashkilotlarning mavjudligi fikrimizga dalildir.

Insonni ixtiyoriy faoliyat, ya'ni ko'n gilli yoki ixtiyoriy faoliyatga chorlovchi istak negizida har bir kishida o'ziga xos bo'lgan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlar paydo bo'lishi mumkin. Jumladan, boshqalarga naf keltirish, o'zini namoyon qilish va o'zaro muloqot istagi kishini faollikka yetaklaydi. Kishida ijtimoiy jihatdan o'zini e'tirof etishga bo'lgan ehtiyojlar ham mavjuddir. Professional va hayotiy tajribani qo'llash istagi ham kishini shunday faoliyatga chorlashi mumkin. O'z imkoniyatlarini ishga solish, o'z g'oyalarini tatbiq etish istagi ham kishini harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish va ishtirok etish ehtiyoji ham kishini faollik sari undaydi.

Ko'ngilli yoki ixtiyoriy faoliyat inson uchun o'z shaxsiy ehtiyojlari bilan jamiyat ehtiyojlarini uyg'unlashgan holda hayotga tatbiq etish uchun o'ziga xos imkoniyatdir. Bu ehtiyoj kishilarning o'z huquq va burchlarini anglashi hamda insonning barkamolligidan dalolat beradi. Inson ko'n gilli faoliyat yuritar ekan, u axloqiy jihatdan takomillashib boradi, o'z muloqot madaniyatini rivojlantiradi, o'zaro hamkorlik va birodarlik hissi, insonparvarlik tuyg'ularini oshirib boradi. Shaxsning ko'n gilli faoliyati faol va ijodiy xarakterga ega bo'lib, uning vositasida inson o'z salohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu faoliyat tevarak atrofda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan faol munosabatning shakllanishiga, siyosiy voqelikka ziyraklik bilan munosabatda bo'lishiga yordam beradi.

Aynan fuqaroviy faollikning o'zining bir necha jihatlar bilan ajralib turadi:

- faol fuqaro guruhiga mansub kishilar asosan siyosiy va iqtisodiy tizim to'g'risida bilim olishga tayyor bo'l gan kishilardan iboratdir;

- faol fuqarolarda o'z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat mavjud bo'l adi;

- faol fuqarolarda ana shu bilimlarni joriy qilish uchun ko‘n ikmalar shakllangan bo‘l adi ¹⁴¹.

Fuqarolik faolligi hozirgi davrda davlat va jamiyat boshqaruvi uchun misli ko‘rilmagan katta kuch sifatida namoyon bo‘l moqda. Turli ijtimoiy loyihalarga birlashgan fuqarolar o‘z atrofida ro‘y berayotgan, paydo bo‘layotgan va mavjud muammolarni o‘rganish, ularning yechimlarini topish, ularni hukumatga taqdim taklif etish kabi ko‘plab imkoniyatlarga egadir. Turli tuman nodavlat tuzilmalaridagi etuk mutaxassislar bozor munosabatlari sharoitida kutilmaganda ro‘y beradigan muammolar, bozorning betartartib jarayonlarida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda hukumatga ko‘maklashmoqda.

Ma‘lumki, bozor munosabatlari sharoitida rang-barang ijtimoiy muammolar yuzaga kelishi avj oladi, lekin, hukumat ularning echimini topishda shoshib qoladi, ular echimini doimo ham o‘z vaqtida hal etishga ulgurmay qoladi. Boshqacha aytganda, hozirgi murakkab zamonada bu kabi muammolarni hukumat har doim ham o‘z vaqtida payqash resurslariga emas. Hayotda shunday muammolar mavjudki, ularning oqibati jamiyat uchun qanchalik mudhish bo‘lmasin, ularning mavjudligini tan olish yoki ularni bartaraf etish uchun aniq belgilangan institutlar topilmay qoladi. Agar hukumat fuqaroviy faollikni yuzaga chiqishiga imkoniyat yaratmas ekan, yoki turli nodavlat va jamoat birlashmalariga ana shunday muammolarni aniqlash va bartaraf etishiga yetarlicha shart-sharoitlar yaratmas ekan, fuqarolik jamiyatini barpo etish muammolari yechimini topib bo‘lmaydi.

Fuqarolik jamiyati rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faoliyat yurituvchi nodavlat va jamoat birlashmalari mavjud bo‘lib, ular juda ham serqirra faoliyat yuritadi. Masalan, ular ko‘pincha jamiyatdagi aholining ma‘lumotlilik darajasini oshirish yoki zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ma‘lum tadqiqotlar olib borishadi, uning natijalarini qonunlarga o‘zgartishlar kiritish uchun parlamentga taqdim etishadi. Yoki, tabiatni asrash yoki ekologik muammolarni bartaraf etish bo‘yicha, yoki yuqumli kasalliklarni oldini olish, shahar havosining ifloslanishiga chek qo‘yish, chiqindilardan tozalash bo‘yicha nodavlat tashkilotlar hukumatga qator amaliy loyihalarni taklif etishi odatga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyati uchun fuqaroviylik, fuqaroviy ong va fuqaroviy faollik o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Taraqqiyot sari intilgan har qanday jamiyat uchun inson salohiyatidan samarali foydalanish, insonning o‘zligida, uning qalbida tabiiy ravishda mavjud bo‘ladigan o‘zaro birdamlik, sahiylik, bag‘rikenglik kabi qadriyatlarga doimo zarurat sezadi va ularni namoyon bo‘lishi tadoriklarini ko‘rib boradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Fuqaroviylikning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
2. Fuqaroviylikning asosiy xususiyatlari haqida nimalar deya olasiz?
3. Fuqaroviy ong nima?
4. Fuqaroviyongning namoyon bo‘l ish omillari.
5. Fuqaroviy faollik va uning fuqarolik jamiyatidagi o‘rni.
6. Fuqarolik jamiyatining vujudga kelishida nodavlat va notijorat tashkilotlarining roli qanday?
7. O‘zbekistonda nodavlat va notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi, ularning davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi o‘rnini aytib bering.
8. Nodavlat va notijorat tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirishdan maqsad nima?

¹⁴¹Карпова Н.В. Политическая культура в процессе становления гражданского общества//Вестник Московского университета.-Сер. 18 :Социология и политология.-2006.-№1.-С.17-19.

2.5/1-mavzu: Axborot sohasini isloh qilish, axborot va soʻz erkinligini taʼminlash .

Oʻquv savollari:

1. Axborot sohasini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratilishi.
2. Oʻzbekistonda jamiyat axborot sohasini isloh qilish jarayoni.
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning yangi davri.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Ommaviy axborot vositalari, ommaviy axborot vositalari turlari va vazifalari, axborot sohasidagi huquq va erkinliklar, senzura, matbuot, matbuot erkinligi, soʻz erkinligi, televideniye, radio, internet, “toʻrtinchi hokimiyat”, kommunikatsiya, ijtimoiy-siyosiy institutlar kommunikatsiyasi, ommaviy axborot kommunikatsiyasi, axborot almashuvi jarayonlari, axborotning rasmiy manbalari, kompyuter kommunikatsion texnologiyalari, jurnalistik tekshiruv, Elektron hukumat (e-Government), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Xalq qabulxonalari, virtual qabulxona, “Yagona darcha” markazlari, “Tezkor davlat xizmatlari agentligi”, “Davlat xizmatlari markazi”, “Oʻzbekiston 24”, “Xalq soʻzi”, Innovatsiya markazi, rezident.

1. Axborot sohasini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratilishi

XXI asrning dastlabki oʻn yilliklarida - mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning eng qizgʻin pallasida axborot vositalarining oʻrni har qachongidan ham yuksakroq darajaga koʻtarildi. Ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalari bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilgan islohotlar natijasida oʻzida fuqarolik jamiyati institutlariga xos boʻlgan xususiyatlarini namoyon qilib bormoqda. Ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatini hukumatning faoliyati haqida, davlat hokimiyati vakillarining fuqarolar huquqini cheklash borasidagi urinishlari va boshqa ioqonuniy faoliyati haqida xabardor qilib turadi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolik jamiyati davlat organlari ustidan jamoatchilik iazoratini amalga oshiradi. Aynan ommaviy axborot vositalari aholining hukumatga nisbatan munosabati hamda hokimiyat organlarini davlat koʻmagiga muhtoj boʻlgan fuqarolar haqida xabardor qilib borish yoʻli bilan davlat va fuqarolik jamiyati oʻrtasida “oʻzaro aloqa” oʻrnatilishiga koʻmaklashadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) fuqarolik jamiyatidagi, fuqarolar manfaatlarini va huquqlarini taʼminlashdagi yuksak oʻrni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ifodalab bergan: “Oliy Majlis rahbariyati qonunlar muhokamasiga keng xalq ommasini jalb qilish, buning uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, jumladan, Internet tarmogʻida maxsus “maydon”lar yaratishi zarur. Shu munosabat bilan mamlakatimiz fuqarolari davlat va jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalar boʻyicha oʻz fikrlarini bildirishlari uchun Internet tarmogʻida **“Mening fikrim”** deb nomlangan maxsus veb-sahifa tashkil etish maqsadga muvofiq. Xususan, demokratiyaning ilgʻor mexanizmi sifatida **jamoat boʻl ib elektron murojaat kiritish tartibini** tatbiq qilish zarur. Yaʼni bir guruh fuqarolar tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni Oliy Majlis yoki xalq deputatlari Kengashlari koʻrib chiqishi majburiy ekani qonunda belgilab qoʻyilishi lozim”¹⁴².

Umuman, axborot va kommunikatsiya vositalari toʻgʻrisida toʻliq tasavvurga ega boʻlish uchun ularga doir tushunchalarni anglashga zarurat tugʻiladi. “Axborot” tushunchasi xabar, maʼlumot maʼnolarini beradi.

¹⁴²Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисиغا Мурожаатномаси. 22.12.2017 й.// <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1371>.

Xalqaro munosabatlarda keng qoʻllaniladigan “informatsiya” soʻzi xabardor qilish, tushuntirish, bayon qilish maʼnolarini beradi. Lekin, axborot - bu maʼlumotlar “hajmi”ning (shaklga ega boʻlgan) tuzilmashtirilgan qismi degan tushuncha ham uchraydi.

XX asrning 50-yillariga qadar “kommunikatsiya” tushunchasi asosan koʻpriklar, telefonlar, temir yoʻllar, pochta xizmatiga nisbatan qoʻllanilar edi. Ular har bir mamlakatni yagona bir butunlikka birlashtirar edi. Lekin, keyingi davrda OAVni, ayniqsa radio, televideniye va internetni tezlik bilan rivojlanishi natijasida - hozirgi davr jamiyatlari yanada koʻproq oʻzaro munosabatlar va muloqotlar kengligiga aylandi. Bu oʻzgarishlar kishilarni bir butunlik sari yanada jipslashtira boshladi. Bu jarayonlar jamiyatni rivojlanishi va bir butunligini taʼminlaydi, bu holat ommaviy kommunikatsiya jarayoniga aylandi. “Kommunikatsiya” tushunchasi ingliz tilidan kelib chiqqan boʻlib, u “aloqa”, “muomala” va “munosabat” maʼnolarini anglatadi. Siyosiy tizimda kommunikatsiya siyosiy xarakter kasb etadi, yaʼni u ommaviy siyosiy kommunikatsiya deyiladi.

Siyosiy yoki ijtimoiy kommunikatsiyaning tuzilishi - bu axborot manbasi atrofida shakllanadigan aloqalar va munosabatlardir. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining (OAV) rasmiy va norasmiy manbalari bir-birlaridan farqlanadilar. Axborotning rasmiy manbalari: davlat institutlari (korxonalar va muassasalari) - rahbariyat, turli vazirliklar, tashkilotlar rahbar vakillari, yoki ular rahbarligidagi matbuot xizmatlari, jamoatchilik bilan aloqalar axborot boʻlimlari.

Davlat milliy OAV: radio; matbuot; televideniye; nashriyotlar; kino;

Mustaqil va muholifiy partiyalar va jamoatchilik harakatlari OAV: mustaqil nodavlat OAV; nodavlat radio.

Korporativ tuzilmalar: jamoatchilik guruhlari; korporativ tuzilmalar; turli harakatlar; reklama va kasbiy agentliklar;

Xorijiy OAV: misol uchun - BBS, “Amerika ovozi” radiolari; ITAR-TASS; Belta.

Norasmiy axborot manbalari: siyosiy masalalar boʻyicha harakat qilayotgan shaxslararo yoki rasmiy aloqalar, uchrashuvlar¹⁴³.

OAVning oʻziga xos belgilari:

- oshkoralik, yaʼni isteʼmolchilarning kimligidan qatʼiy nazar va hech qanday cheklanmagan doirasi uchun tegishli boʻlgan;

- axborotlar uzatish uchun maxsus texnikaviy asbob-anjomlar va uskunalarning mavjudligi;

- kommunikatsiyaviy sheriklarning maʼlum makonda va zamonda toʻgʻridan-toʻgʻri boʻlmagan va boʻlingan holdagi oʻzaro xatti-harakatlari;

- oʻzaro xatti-harakatlarning kommunikatorlardan retsipient sari bir tomonga yoʻnalganligi, ularning rollarini oʻzgartirish mumkin emasligi;

- u yoki bu maqola yoki eshittirish yoki koʻrsatuvga nisbatan paydo boʻlgan diqqat-eʼtibor natijasida goh-gohida toʻplanib turadigan auditoriyaning oʻzgaruvchanligi va yoyiluvchanligi¹⁴⁴.

Hozirgi davrga kelib OAV jamiyatga va insonlar ijtimoiy ongiga kuchli taʼsir etib, saylov kampaniyalarining asosiy vositasiga aylandi. OAV fuqaroviy va siyosiy arboblarning oʻrtasida telemuloqotlar va hokimiyatni shakllantirishning yangidan-yangi usullarini yaratmoqda. OAV hattoki jamoatchi yetakchilar va siyosiy institutlar rahbarlarini sudga tortish imkoniyatlariga ham ega boʻldilar. Lekin, bu kabi holatlar OAVni hokimiyat organlaridan haqiqatda ham mustaqil boʻlgan holda roʻy berishi mumkin. OAVning bu kabi imkoniyatlari demokratik davlatlardagina mavjud boʻladi. Totalitar rejimlarda esa OAV fuqarolardan ajratib qoʻyiladi. Bu holatni muholifat ham oʻzgartira olmaydi.

OAVning eng ommaviy turi - gazetalar eng koʻp ommaviy xarakterga ega boʻlib, ular nisbatan koʻproq ijtimoiy va siyosiy bilimlar beradi, ijtimoiy-siyosiy baholashlar va kayfiyatlarni tashiydi. Oʻquvchi ulardagi axborotlardan xohlaganini oʻqiydi, bir axborotni qayta-qayta oʻqishi mumkin, ularni har qanday joyda oʻqishi mumkin. Bosma nashrdan chiqqan axborot vositalarining kamchiliklari: hodisalar va voqealarga

¹⁴³Каранг: Политические коммуникации. Учеб. пособие. -М.:Аспект Пресс, 2004. -С.29.

¹⁴⁴Каранг: Дедов А. Политические технологии в средствах массовой информации//http://al-dedov.narod.ru/politica.htm#_Тема.-С.2.

nisbatan tezkorlik bilan munosabatga kirisha olmaydi va ulargv tezlik bilan javob bera olmaydi, shaxslararo munosabatlarga unchalik yaqin emas, ularni ayrim shaxslar o'qiydi¹⁴⁵.

Elektron OAV: radio; televideniye. Ularni jamoaviy tarzda, xo'jalik ishlarii bilan shug'ullangan holda ham eshitish va ko'rish mumkin, muhokama qilish mumkin. Ularning kamchiliklari: ularning har biri ba'zi axborotlarni o'ylab chiqirishi yoki to'qishi mumkin, ko'pincha obrazlar haqiqiy holatga to'g'ri kelmaydi. Televideniye esa ko'rish manzaralarini beradi. Lekin, u axborotlarni tushunib yetishga oz miqdorada erkinlik beradi, axborot to'g'risida faqat xotiralar qoladi, ba'zan axbortni aniq mazmunini xotirada saqlab bo'lmaydi¹⁴⁶.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy kommunikatsiya barcha turdagi siyosiy jarayonlarning muhim tasniflaridan biri hisoblanadi. Siyosiy-kommunikativ jarayonlarning yo'n alishi va ularning asosiy mo'ljallari muloqotlarga va bir-birini o'zaro tushunishga, ustunlik qiluvchi qadriyatlarga qaratilgan bo'lib, berilayotgan axborot oqimlari siyosiy tizimning barqarorlik va samaradorlik darajalarini belgilab beradi.

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab, birinchi navbatda axborot-kommunikatsiya vositalarining huquqiy asoslarini yaratishga muhim e'tibor qaratildi va bu sohadagi rivojlangan davlatlar tajribalari sinchiklab o'rganildi. Ommaviy axborot vositalarining xalqaro huquqiy asoslari - bu Inson huquqlari xalqaro umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan axborot siyosatiga doir tuzgan bitim va shartnomalari hisoblanadi. Mazkur huquqiy hujjatlar axborotni izlash, olish, tarqatish jarayonlari va ommaviy axborot vositalari faoliyatini bevosita yoki bilvosita tartibga soluvchi asosiy normalardir.

1991 yilning 14 iyunida "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Shuningdek, 1991 yilning 31 avgustida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi va 1992 yilning 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilinishi ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi muhim voqea bo'ldi. Konstitutsiyaning maxsus XV bobi "Ommaviy axborot vositalari" deb nomlanishining o'zi ommaviy axborot vositalari demokratik tuzumning eng muhim konstitutsiyaviy instituti ekanligining e'tirof etilishi edi. Shuningdek, OAVga katta huquqiy maqom berilishi natijasida mamlakatdagi barcha turdagi OAV demokratik qadriyatlar asosida faoliyat yuritish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'l dilar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida OAVga doir quyidagi qoida mustahkamlandi: "Ommaviy axborot vositalari erkinidir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi"¹⁴⁷.

Konstitutsiyaning 29-moddasidagi quyidagi qoida O'zbekistonda OAVning demokratik qadriyatlar asosida faoliyat yuritishlarining asosiy mazmun va mohiyatini tashkil etdi: "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega..."¹⁴⁸. Spuningdek, Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan vijdon erkinligi, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari kafolatlari ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkin va mustaqil kechishi uchun huquqiy kengliklar yaratdi.

XX asrning 90-yillari o'rtasiga kelib mustaqil demokratik ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini shakllantirishning yangi bosqichi boshlandi. Bu davrda Oliy Majlis tomonidan ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini shakllantirish, ularning demokratik prinsiplar asosida faoliyat yuritishlarini ta'minlash bilan bog'liq qator qonunlar qabul qildi. Xususan, "Noshirlik faoliyati to'g'risida" (1996 y. 30 avgust), "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" (1996 y. 30 avgust), "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida" (1997 y. 24 aprel), "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" (1997 y. 24 aprel), "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" (1997 y. 26 dekabr) kabi qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlar mamlakatda OAVning fuqarolik jamiyati talablariga mos faoliyatlarini yo'l ga qo'yish, matbuotni zamonaviylashtirish uchun huquqiy asos vazifasini bajardi.

¹⁴⁵ Каранг:Швидунова А. СМИ как субъект политического процесса и инструмент политических технологий. http://society.polbu.ru/shvidunova_smi/ch02_i.html.

¹⁴⁶ СМИ и коммуникации //http://rusweb.narod.ru/library/politolog/index.html.-С.3-4.

¹⁴⁷ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон.НМИУ, 2019.-Б.22.

¹⁴⁸ Ўша жойда.-Б.8.

Lekin, shu bilan birga, mazkur qonunlar ommaviy axborot vositalari faoliyatiga keng imkoniyatlar ochish bilan bir qatorda ular zimmasiga katta ma'suliyat yukladi. OAV davlatning mafkuraviy quroli sifatidagi o'ziga xos bo'l magan vazifalardan xalos bo'l ishi va jamiyatning demokratik instituti sifatida "to'rtinchi hokimiyat" funksiyalarini o'z zimmasiga olishi uchun keng shart-sharoitlar yaratildi.

OAV - nafaqat ommaviy kommunikatsiya vositasi, balki aloqa kanali hamdir. OAV va ommaviy kommunikatsiya jamiyatdagi o'zaro munosabatlarni shakllantiradi va o'zgartiradi. Ko'pincha OAV birinchi o'rinda, ommaviy kommunikatsiya vositalari esa ikkinchi o'rinda namoyon bo'l adigan holatlar ham uchrab turadi. *Ma'lumki, taniqli fransuz yozuvchisi Onore de Balzak 1848 yilda OAVni birinchi bo'lib "to'rtinchi hokimiyat" deb atagan.* OAV tarixan siyosiy maydonga siyosiy matbuot organi sifatida kirib keldi., so'n gra uning bosma nashrlari kengayib bordi. Gazetalar aholi o'zini ro'y berayotgan hodisalar ishtirokchisi sifatida his etishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi. Zamonaviy nashr texnikalarini paydo bo'lishi bilan tele-radiotexnika tezlik bilan rivojlana boshladi, ular vositasida insonlar dunyoqarashida va jamiyatda muhim va taraqqiyot sari intiluvchan insoniy kayfiyatlar yuksala boshladi.

OAV jamiyatda va siyosiy jarayonlarda quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi: 1) axborotga doir; 2) ijtimoiylashtirish; 3) regulyativ; 4) aloqa o'rnatish va muloqotni ta'minlashga doir.

Shuningdek, OAVni iqtisodiy qiyinchiliklardan va ijtimoiy himoya qilish maqsadlarida 1996 yilning noyabrda "O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi" ta'sis etildi. Shuningdek, OAVni jamiyatdagi o'rmini oshirish, "to'rtinchi hokimiyat"ni mamlakatdagi islohotlarga nisbatan ta'sirini kuchaytirish maqsadlarida Milliy matbuot markazi tashkil etildi. Jurnalistika sohasida kadrlar tayyorlash ishlariga ham muhim ahamiyat berildi. Bu sohaga doir O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (1999 y. fevral) maxsus qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida O'zbekiston Milliy Universitetining jurnalistika va O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti xalqaro jurnalistika fakultetlari butunlay qayta tashkil etildi va ularning ta'lim bazasi mustahkamlandi. Yangi ruhdagi darsliklar, yangicha o'qitish uslublarini yaratish jarayonlari boshlandi.

XXI asr boshlaridan jamiyat siyosiy sohasini erkinlashtirish islohotlarining boshlanishi bilan bog'liq holda OAV faoliyatini demokratlashtirishga yanada muhim e'tibor berila boshlandi. Shuningdek, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasida fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etishda ommaviy axborot vositalarining o'rni benihoya katta ekanligi e'tirof etildi, ularga katta ma'suliyat yuklandi.

2002 yilning 3 iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ommaviy axborot vositalarini boshqaruvini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Mazkur Farmonga binoan O'zbekiston Davlat Matbuot qo'mitasi O'zbekiston Matbuot va axborot agentligiga aylantirildi. Prezidentning mazkur Farmoni mohiyati ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish, ularning faoliyatiga davlatning aralashuvini cheklash maqsadlari ko'zda tutgan edi. Shu davrgacha o'z o'zining katta vakolatlaridan foydalanib norasmiy senzurani amalga oshirib kelgan O'zbekiston Davlat Matbuot qo'mitasining Matbuotda davlat sirlarini saqlash boshqarmasi faoliyati butunlay tugatildi. Davlat tomonidan OAVning erkin faoliyat yuritishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi¹⁴⁹.

Mustaqillik davrida mamlakatda OAV va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish, internet tarmog'idan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi Farmoni, 2005 yil 16 noyabrdagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2005 yil 28 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining jamoat axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi "Ma'lumotlar uzatish milliy tarmog'ini tashkil etish va jahon axborot tarmoqlaridan foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi, 1999 yil 26 martdagi "O'zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, internetda tarqatish

¹⁴⁹Қаранг:Ўзбекистон Республикаси Президентининг Матбуот хизмати жорий архиви. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2002 й. 3 июлдаги "Оммавий ахборот воситаларини бошқарувини такомиллаштириш" тўғрисидаги Фармони. -Б.1-2.

tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi, 2002 yil 23 sentyabrdagi "Aloqa va axborotlashtirish sohasida boshqaruvni tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi, 2005 yil 22 noyabrdagi "Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida"gi, 2005 yil 28 dekabrdagi "Ziyonet" axborot tarmog'ini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi, 2006 yil 22 sentyabrdagi "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2007 yil 15 yanvarda "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonun, 2007 yil 23 avgustdagi "Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2007 yil 17 dekabrdagi "Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari kabi me'yoriy hujjatlar amalda ochiq jamiyat qurishning huquqiy asoslari vazifasini bajardi.

Shuningdek, 2005-2006 yillar davomida O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalarida davlat hokimiyati organlarining faoliyatini yoritish", "Teleradio ko'rsatuvlar va eshittiruvlar to'g'risida", "Jamoatchilik televideniyesi to'g'risida", "Kabel ko'rsatuvlari to'g'risida", "Ommaviy kommunikatsiyalar sohasidagi iqtisodiy asoslar to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, mamlakatda axborot muhofazasini ta'minlash uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlar, texnik vositalar va kriptografik algoritmlar hamda protokollar negizida yaratilgan dasturiy, apparat-dasturiy va apparat-texnik vositalarni birgalikda qo'l lash bilan samarali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohaslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kirib borishi va rivojlantirishga respublikada mos qonunchilik bazasi ishlab chiqildi. "Axborotlashtirish to'g'risida" (2003 yil), "Elektron raqamli imzo to'g'risida" (2003yil), "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida" (2004 yil), "Elektron tijorat to'g'risida" (2004 yil), "Elektron to'lovlar to'g'risida" (2004 yil) qonunlar shular jumlasidandir.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, davlat va jamiyat qurilishi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilning 21 martida qabul qilgan "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, davlat va jamiyat qurilishi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Shuningdek, mazkur qarorga asosan 2012-2014 yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish dasturi qabul qilindi¹⁵⁰.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatda axborot sohasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga qaratildi. Mazkur Qarorga binoan, 2013-2020 yillarda respublikada telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Mazkur Qaror ijrosini ta'minlash doirasida O'zbekiston Respublikasini o'sha paytdagi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi huzurida yangi tuzilmalar - "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi va Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi tashkil etildi. Ushbu markazlar oldiga mamlakatimiz axborot resurslari, tizim va tarmoqlarini jadal rivojlantirishdek muhim maqsad va vazifalar qo'yildi.

"Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi faoliyati mamlakatimizda davlatning aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan elektron hamkorlik tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirishning strategik yo'n alishlarini ishlab chiqishga qaratildi. Davlat organlarida foydalaniladigan ma'lumotlar bazasi va axborot resurslarini loyihalashtirish, ishlab chiqish va birlashtirish mexanizmini nazarda tutadigan ushbu

¹⁵⁰Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Замонавий ахборот-коммуникация технологияларини янада жорий этиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори.2012 йил 21 март.//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 13-сон, 139-модда.

tizimni shakllantirishga yagona texnologik yondashuvni ta'minlaydigan mazkur markaz bu boradagi jahon hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganadi va ularni amaliyotga qo'l laydi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 avgustdagi "Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, 2017 yil 12 dekabrda "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018 yil 2 fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 avgustdagi "Matbuot va axborot agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish"gi, 2017 yil 14 sentyabrda "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'n alishlariga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to'g'risida"gi Qarorlari soha rivoji uchun katta turtki bo'ldi.

Ko'rinib turibdiki, axborot kommunikatsiya vositalari hokimiyat organlari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni bog'lab turuvchi vosita vazifasini bajarishdan tashqari fuqarolarning turli manfaatlarini tashuvchi va ifoda etuvchi institut sifatida namoyon bo'l adi. Bu holat o'z-o'zidan fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faollashishiga ta'sir ko'rsatadi. Albatta, bu jarayonda fuqarolarning ijtimoiylashuvining asosiy komponentlaridan biri - fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy ongi ham oshib boradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda demokratik ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslari yaratilishi bilan jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida ma'lum o'zgarishlar ro'y bermoqda. Matbuot sohasida jiddiy o'zgarishlarning amalga oshirish uchun zarur bo'l gan shart-sharoitlar shakllandi. Davlat va jamoat tashkilotlari ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda xususiy matbuot tizimi yaratildi. Erkin matbuot bozori shakllandi, bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan mustaqil nashrlar soni kengaydi va dastlabki raqobat muhiti kurtaklari paydo bo'l di. Matbuotning iqtisodiy asoslarini yaratish, ularning huquqiy kafolatlarini ta'minlash va mustaqil nashrlar faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hali milliy matbuot oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini o'rganish, muassis va tahririyat o'zaro munosabatlarini yangi bosqichga ko'tarish masalalari ham o'z echimini kutmoqda. Muhimi, mustaqillik yillarida erkin ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun zarur bo'l gan huquqiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar shakllandi. OAVning fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanish islohotlari davom etmoqda. Hozirgi davrga xos jihatlardan biri - mamlakatda erkin matbuotni rivojlantirmay turib, fuqarolik jamiyati qurish va inson erkinligi, huquqlarini ta'minlash mumkin emasligini jamoatchilik anglay boshladi.

2. O'zbekistonda jamiyat axborot sohasini isloh qilish jarayoni

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishda ommaviy axborot vositalarining o'rni har qachongidan ham yuksak darajaga ko'tarildi. Amalga oshirilayotgan bosqichma-bochqich islohotlar natijasida Ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalari o'zida fuqarolik jamiyati institutlariga xos bo'lgan xusu siyatlarni shakllantirib bormoqda. Axborotning jamiyatdagi va fuqarolar huquqlarini himoyalashdagi yuksak o'rnini Birinchi Prezident I.A.Karimov quyidagicha ifodalab bergan edi: "...fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'l ib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'l sa, tamal toshi hisoblanadi"¹⁵¹.

"Axborot" so'zi arabcha "axbor" so'zidan olingan bo'l ib, "xabar", "ma'lumot" ma'nolarini anglatadi¹⁵². Ommaviy axborot vositalari tushunchasidagi "ommaviy" so'zi ham arabcha "omma" so'zidan olingan bo'l ib, "umumiylik", "oddiy xalq" ma'nolariga ega.

"Senzura" so'zi lotincha "senz" so'zidan olingan bo'l ib, "cheklov" ma'nosini anglatadi. Senzura - bu davlatning matbuot ustidan nazorat qilib turuvchi muassasidir.

"Matbuot"- bu barcha bosma mahsulotlar majmuidir. Bu so'z tor ma'noda gazeta va jurnallarni anglatadi.

¹⁵¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси.-Т.: Ўзбекистон, 2010.-Б.28.

¹⁵² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. -Т., 2007. -Б.123.

“Matbuot erkinligi” degan ibora ham mavjud. Matbuot erkinligi - bu soʻz, shaxs, vijdon erkinligi kabi siyosiy huquqlardan biri boʻl ib, matbuotning erkin faoliyat koʻrsatishini, mamlakatda kishilarning oʻz fikr va tuygʻularini toʻsiqlarsiz ifoda eta olishini anglatadi¹⁵³.

Matbuot erkinligi demokratiyaning koʻrinishlaridan biridir. Matbuot erkinligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va maʼnaviy asoslari mavjud. Matbuot erkinligining negizini soʻz erkinligi tashkil qiladi. Soʻz erkinligi-bu insonning oʻz fikrini har qanday toʻsiq, moneliklardan holi boʻlgan sharoitda ogʻzaki va yozma bayon etishidir.

Ommaviy axborot vositalariga quyidagilar kiradi:

1. televideniye;
2. radio;
3. internet;
4. gazeta;
5. jurnal va boshqa axborot tashuvchi vositalar.

Televideniye. Ommaviy axborot vositalari ichida hayotning turli sohalarini yoritishda televideniye alohida oʻrin tutadi. Televideniye 1928 yilda B.P.Grabovskiy tomonidan Toshkent shahrida ixtiro qilingan. 1971 yildan boshlab rangli televizion koʻrsatuvlar efirga uzatila boshlangan.

Oʻzbekiston televizion teleminorasi balandligi jihatdan (375 metr) Markaziy Osiyoda birinchi oʻrinda turadi¹⁵⁴.

992 yil 7 yanvarda tashkil etilgan “Oʻzbekiston davlat teleradio eshittirish kompaniyasi” 1996 yil mayda Prezident Farmoni asosida “Oʻzbekiston teleradiokompaniyasi” deb atala boshlandi. 2005 yil 8 noyabrda esa “Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi” nomi bilan qayta tashkil etildi.

Hozirgi kunda Oʻzbekistonda “Oʻzbekiston”, “Sport”, “Toshkent”, “Yoshlar” va boshqa davlat telekanallari faoliyat koʻrsatmoqda. Shu bilan birga, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan 2017 yildan eʼtiboran “Oʻzbekiston 24” telekanli faoliyat koʻrsatib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasiga asosan “Oʻzbekiston tarixi” telekanali ochildi.

Radio. “Radio” soʻzi lotincha boʻl ib, “nurlanaman”, “nur tarqataman” maʼnolarini anglatadi. Radio 1885 yilda rus ixtirochisi A.S.Popov tomonidan yaratilgan. Oʻzbekistonda 1927 yilda radio eshittirish yoʻl ga qoʻyilgan.

Hozirgi kunda “Oʻzbekiston”, “Mashʼal”, “Doʻstlik”, “Yoshlar” davlat radiokompaniyalari, “Grant”, “Vodiy sadosi” va boshqa shu kabi FM diapozonidagi nodavlat radio studiyalari faoliyat koʻrsatmoqda. Nodavlat radio eshittirishlar tashkil etilishi demokratiyaning asosiy belgilaridan biridir. Bugungi kunda Toshkent radiosi orqali 10 tilda dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlariga eshittirishlar efirga uzatilmoqda. Mustaqil Oʻzbekistonda radiostudiyalar soni 14 tani tashkil etadi¹⁵⁵.

Internet. Internet soʻzi lotinchadan olingan boʻl ib, “inter” yani, “aro”, “net” “tarmoq” maʼnosini anglatadi, - bu katta (global) va kichik (lokal) tarmoqlarni oʻzaro bogʻlovchi butunjahon kompyuter tizimi boʻl ib, hozirgi kunda eng zamonaviy ommaviy axborot vositasi hisoblanadi.

Oʻzbekistonda internetga ulanish 1997 yildan boshlangan. Hozirgi kunda Oʻzbekistonda internet tizimidan foydalanuvchilar soni 20 milliondan oshib ketgan. Bu oʻsuvchi xarakterga ega yirik raqam hisoblanadi.

Bu masalada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev oʻzining Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan yoʻl lagan tabrigida Internetning bugungi kunda jamiyatimiz aʼzolari kundalik hayotida tutgan oʻrni kata ekanligi taʼkidlab, quyidagi fikrni taʼkidladi: “...eng tezkor axborot vositasi – Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini alohida qayd etish lozim. Hozirgi vaqtda global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda ham faoliyat

¹⁵³ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 8-жилд. –Т., 2004. –Б.197.

¹⁵⁴ Абдуазизова Н.А. Ўзбекистон оммавий ахборот воситалари. –Т., 2003. –Б.17.

¹⁵⁵ Абдуазизова Н.А. Ўзбекистон оммавий ахборот воситалари. –Т., 2003. –Б.16.

ko'rsatayotgani, ushbu yo'n alishda yangi ijodiy avlod - Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e'tiborga sazovordir"¹⁵⁶. Bundan tashqari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda Internetning tezligini oshirish va Wi Fi hududlar sonini ko'paytirish shartligi bo'yicha soha mutasaddilariga topshiriqlar bergan.

Gazeta. "Gazeta" so'zi italyancha bo'lib, "chaqa pul", "bosma (vaqtli) nashr" degan ma'nolarni anglatadi. Gazeta dastlab Venetsiyada axborot byurolari sifatida paydo bo'lgan. Mirzalar tomonidan axborot qo'l da ko'chirib berilgan va xizmatlari evaziga "gazzeta", ya'ni chaqa pul olishgan. Gazetalarda kundalik ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar haqidagi xabarlar berib boriladi.

Turkiston o'lkasida birinchi "Taraqqiy" gazetasining birinchi soni 1906 yil 27 iyunda chop etilgan. Shuning uchun mustaqillik yillarida 1993 yildan boshlab 27 iyun - *Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni* sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Jurnal. Jurnal so'zi fransuzchadan olingan bo'lib, "bosma davriy nasr" ma'nosini bildiradi. Jurnal ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy, ilmiy-ommabop, hajviy, sport va boshqa sohalarga tegishli bo'ladi. Ular jamoatchilik fikrini, dunyoqarashini shakllantiradigan bosma davriy (vaqtli) nashr sanaladi. O'zbekiston hududida birinchi "Oyina" jurnali 1913 yilda Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan nashr etilgan¹⁵⁷.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda "Tafakkur", "Fuqarolik jamiyati", harbiy OTMlarda "O'zbekiston armiyasi", "Qalqon", "Gvardiya", "Inson huquqlari", "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti axborotnomasi" (Hozirda O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti axborotnomasi), "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining axborotnomasi" va boshqa shu kabi jurnallar nashr etish yo'l ga qo'yildi.

Mamlakatda bosma ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirishni davlat tomonidan qo'l lab-quvvatlash, ularning moddiy negizini mustahkamlash va jurnalistlarning kasbiy malakasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatning axborot sohasidagi siyosati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida e'lon qilingan fuqarolarning so'z erkinligi va axborot olish huquqini izchil va to'liq amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan.

Mamlakatda axborot sohasida davlat tashkilotlaridan tashqari jamoat, nodavlat institutlari va tuzilmalarini tuzish va rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy, texnik shart-sharoitlari ham yaratib berilgan. Jumladan, bu sohada O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy uyushmasi va boshqa qator jamoat birlashmalari o'z faoliyatini amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'l lab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondini tashkil etish to'g'risida" 2005 yil 16 noyabrda Farmoni OAVlarni davlat tomonidan qo'l lab-quvvatlash borasidagi muhim qadam bo'ldi.

Fond faoliyatining asosiy maqsadi - mamlakatda mustaqil, o'zini o'zi ta'minlovchi, zamonaviy demokratik talab va standartlarga javob beradigan bosma OAVlarini shakllantirish, ularning moddiy-texnika bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash jarayonini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) davlat boshqaruviga joriy etish va keng qo'l lash ishlari jadallashib borayotganligini hisobga olib, hukumat tomonidan 2003-2010 yillarda davlat boshqaruvida elektron texnologiyalarni joriy etish dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur davlat boshqaruvida elektron hujjatlar aylanishini keng targ'ib qilish, fuqarolarga ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilash va hukumat tomonidan qabul qilinayotgan qaror va

¹⁵⁶ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: "Ўзбекистон"НМИУ, 2017. –Б.498

¹⁵⁷ Абдуазизова Н.А. Мустақил Ўзбекистон журналистикаси тарихи (янгилаштирилган ва раванқ топиш жараёnlари). –Т., 2007. –Б.19-22.

qonunlarni oshkoraligini ta'minlashga qaratildi. Bu dastur mamlakatda "Elektron hukumat"ni shakllantirish yo'lidagi jiddiy islohotlarni boshlab berdi.

Dasturni amalga oshirishning birinchi bosqichida davlat boshqaruv organlarida davlat xizmatlari haqidagi ma'lumotlar (jumladan mansabdor shaxslarning qabul vaqti, xizmat telefonlari) joylashtirilgan veb sahifalari ochildi.

Ikkinchi bosqichda ma'lumotlarni to'liq jamlagan davlat organlarini saytlarda qidirish imkoniyatini beradigan ma'lumotlar bazasi to'zilib, turli murojaatlarga elektron pochta orqali javob berilishini ta'minlandi. Ular fuqarolarga davlat portaliga kirib, bir qator "interaktiv xizmatlar" orqali turli shakllarni to'ldirish imkonini berdi.

Uchinchi bosqichda moliyaviy va huquqiy xizmatlar ko'rsatish, fuqarolar va xususiy korxonalar litsenziya hamda ruhsatnoma olishi, soliq deklaratsiyasini taqdim etishi, jarima to'lashi va ijtimoiy imtiyozlar so'rab murojaat qilishlari uchun imkoniyatlar yaratildi.

Soddalashtirilgan shaklda har qanday mamlakatning ijtimoiy hayotini uch muhim subyektning (davlat, mamlakat fuqarolari, biznes subyektlari) munosabatlarini o'zaro tengligini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, fuqarolik jamiyatiga xos munosabatlarni shakllantirish zamonaviy axborot tizimining asosiy vazifasidir. Bu munosabatlarda davlat integratsiyalovchi omil hisoblanadi.

Bunda davlatning integratsiyalovchi roli bunda uchta tizimosti munosabatlarda namoyon bo'ladi:

- hukumat muassasalarining o'zaro va mahalliy davlat boshqaruv organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish uchun aloqalarni tashkil etish (G2G);
- hukumat muassasalari bilan mamlakat fuqarolari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni amalga oshirish (G2C);
- hukumat muassasalari bilan biznes subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish (G2B).
- AKTni joriy etish jarayonida Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish vazifasi quyidagi muammolarni hal etishga yunaldiradi:
 - umumiy vazifalarni hal etish maqsadida har hil hukumat to'zilmalarining samaraliroq o'zaro hamkorligini qay tarzda tashkil etish mumkin (G2G);
 - fuqarolarning manfaatlarini qanday qilib eng ko'p darajada hisobga olish va tegishli Davlat muassasalarida ularga xizmat ko'rsatish sifatini qanday qilib oshirish mumkin (G2C);
 - Davlatning biznes subyektlari bilan o'zaro foydali munosabatlarini qanday qilib tashkil etish mumkin (G2B).

Davlat boshqaruvida AKT - bu davlat boshqaruv organlarida jami ichki va tashqi aloqalarni tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan qo'l lab-quvvatlash va ta'minlash tizimidir. Bu tizimda quyidagi jarayonlar amalga oshadi:

- kommunikatsiya tarmoqlari orqali axborotni qayta ishlash, uzatish va tarqatishning elektron vositalari (shu jumladan Internet) asosida davlat boshqaruvini axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash;
- davlat hokimiyati barcha tarmoqlari organlarining barcha toifadagi fuqarolarga elektron vositalar orqali xizmat ko'rsatishi;
- davlat organlarining ishi to'g'risida fuqarolarga elektron vositalar orqali xabar berish.

2014 yilga kelib O'zbekistonda "elektron hukumat"ning samarali unsurlarini tashkil etishga doir 20 dan ortiq loyihalar amalga oshirildi. Ularning ichida eng asosiylari quyidagilardan iboratdir:

- O'zbekiston Respublikasining hukumat portalini - gov.uz jismoniy va yuridik shaxslar, turli davlat organlari, tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro elektron-axborot infratuzilmasi tizimini tashkil etuvchi unsurlari sifatida keng rivojlandi. Mamlakatda har qanday fuqaro yoki tashkilot vakillari o'zlari istagan vaqtda davlat hokimiyati faoliyatiga doir to'liq axborotlarni olishi yoki portal orqali har qanday darajadagi hokimiyat organiga elektron so'rovnomalar bilan murojaat qila olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shuningdek, mazkur hukumat portalida mamlakatda Interfaol davlat xizmatining (IDX) ochilishi (reestr.uz) davlat boshqaruvida axborot texnologiyalarini qo'llash sohasidagi katta qadam bo'ldi. IDX fuqarolar, tashkilotlar, korxonalar, nodavlat notijorat tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari - deyarli barcha jismoniy va yuridik shaxslarga telekommunikatsiya tarmoqlari orqali axborot tizimi vositasida xizmat ko'rsata boshladi. Hukumat qarorlari asosida bu xizmatning 100 dan ortiq tayanch davlat xizmatlari tasdiqlandi. Davlat organlarida axborot texnologiyalaridan hamkorlikda foydalanish asosan ichki boshqaruv yoki ishlab chiqarish samarasini oshirishga qaratildi. Bu xizmatning uchta asosiy yo'nalishi - tadbirkorlar va investorlar (G2B), davlat organlari (G2G) hamda fuqarolar va xorijliklar (G2S) yo'nalishlari alohida va maxsus dasturlar bilan ta'minlandi. Shuningdek, xizmat ko'rsatishning quyidagi turlaridan foydalanish tajribasi o'rnatildi:

- hammabop axborotlarni e'lon qilish (tarqatish) - tegishli axborot tizimlari, jumladan, Internet orqali davlat axborot resurslari xizmatidan foydalanish:

- bir tomonlama xatti-harakat - elektron shakldagi turli hujjatlarni tarmoqqa kiritish imkoniyatini berish;

- ikki tomonlama axborot almashish - qabul qilish, tahlil (ko'rib chiqish) va so'rov bo'yicha javob berish (buyurtmalar berish, murojaatlar qilish yoki ularni ishlab chiqish natijalarini taqdim etish) kabi muassasa xizmatlari;

- elektron shakldagi to'liq aqonli ma'lumotlarni amalga oshirish, jumladan, ularni taqdim etish va xizmat haqini to'lash.

Shuningdek, bu jarayonning samarasini oshirish, jamiyatdagi voqeliklar va hodisalarni e'tiborga olish maqsadida, shuningdek o'zaro xatti-harakatlar imkoniyatlari sifatida "rasmiy veb-saytlardan foydalanuvchilar fikrlarini birlashgan forum maydoni va Forumda o'rganishni ta'minlash, forumdagi muhokamalarga axborot xizmatlari vakillarini jalb etish" yo'lga qo'yildi.

Hukumat portalining (MY.GOV.UZning) 3500 dan ortiq ishtirokchilaridan 20 dan ortig'i hammabop resurs ekanligi bilan ajralib turadi, Unda 100 dan ortiq mavzuga doir bo'limlari, 10 dan ortiq yangi servis va xizmatlar doimiy ravishda ishlab turadi. Keyingi o'n yillikda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklarining barchasi Internet tarmog'iga ulanib, ular uchun maxsus veb-saytlar ochildi. Fuqarolarning bu saytlarga kirishlari uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, hukumat portalining (GOV.UZ) o'rnatilishi fuqarolarning markaziy davlat hokimiyati organlariga murojaat qilishlari, muloqotga kirishlari uchun shart-sharoitlar yaratdi.

"E-Kommunal.uz" portalini - uy-joy kommunal xo'jaligi (UKX) sohasida umumiy axborot infratuzilmasi sifatida kommunal xizmat, uy-joy egalari shirkati, nazorat organlari va aholining o'zaro axborot almashishini ta'minlab, bu sohadagi boshqaruv faoliyatini rivojlantirish omili sifatida namoyon bo'lgan.

Bu portalda qulay tarzda O'zbekiston uy-joy va kommunal xizmati, shuningdek, barcha kommunal xizmatlarning interfaol kalkulyatorlari va tariflariga doir axborotlar joylashtirilgan bo'lib, ular muttasil ravishda yangilanib turadi. Har bir fuqaro portalga o'zining rasmi, o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni, kommunal xo'jaligi sohasidagi muammolarni joylashtirishi

mumkin. Bu axborotlar tegishli organlar tomonidan ko'rib chiqilib, muammolarni o'rganib, ularning echimini topish bilan shug'ullanishlari uchun qulay sharoitlar yaratilgan.

Tadbirkorlik subyektlaridan elektron shaklda moliyaviy va boshqa hisobotlarni olish, ularga doir statistik ma'lumotlarni qayta ishlab chiqish tizimini avtomatlashtirish (stat.uz, soliq.uz) ham yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Unda Davlat soliq qo'mitasining sayti joylashgan bo'lib, har qanday fuqaro maslahatlar olishi mumkin, soliq hisobotlari, deklaratsiyalar va boshqa soliq tizimiga tegishli hujjatlarni elektron shaklda yuborishi, ularning javoblarini olishi mumkin.

Shuningdek, elektr energiyasi iste'molchilari uchun uzbekenergo.uz, xorijiy fuqarolarning viza olishlari uchun mfa.uz, litsenziyalar uchun yagona portal license.uz kabilarning ochilishi, unda faoliyat ko'rsatish, ruxsat olishga doir axborotlarning joylashtirilganligi davlat va boshqa darajadagi boshqaruv tizimlarida byurokratiyani kamaytirishga, aholi uchun dolzarb bo'lgan muammolarni tezlik bilan aniqlab, ularga nisbatan tegishli choralar ko'rishga shart-sharoitlar yaratadi¹⁵⁸.

O'zbekistonda Internetga ulanish va uning xizmatlaridan foydalanish keng ko'lganda asosan 1997 yildan boshlandi. Dastlab Naytov (<http://www.naytov.com>), O'znet (<http://www.uz.net> yoki (<http://www.eastlink.uz>) kabi provayd-kompaniyalari faoliyat ko'rsata boshladi, XXI asr boshlaridan O'zbekistonda kompyuterlashtirish (ayniqsa, davlat muassasalari, ta'lim tizimi, tijorat tashkilotlarida), shaxsiy kompyuterlar va zamonaviy elektron aloqaning turlari (peydjer, uyali aloqa) va optik tolali liniyalar tezlik bilan rivojlana boshladi.

Xalqaro Internet tizimida O'zbekiston to'g'risida, mamlakatdagi turli idoralar va muassasalar, kompaniya va firmalar, ta'lim tizimi (universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshq.), tijorat tashkilotlari, bank, moliya, sug'urta tuzilmalari va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar mavjuddir. Maxsus rasmiy varaqchalarda O'zbekiston hukumati, O'zbekistondagi elchixonalar (AQSH, Buyuk Britaniya, Turkiya, Rossiya va boshq.) va boshqa ko'plab mamlakatlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Ayni vaqtda, O'zbekistonga tegishli shaxsiy varaqchalar ham mavjud: "Umid" varaqchasi, "O'zbek estradasi", O'zbekiston televideniyesining "Axborot" dasturi (2000 y.dan boshlab) kabilar rivojlanib va takomillashib bormoqda.

O'zbekistondagi yirik kutubxonalar - Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, O'zbekiston FANing Fundamental kutubxonasi, Tibbiyot kutubxonasi, Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi kabilarning barchasi Internet tizimiga ulangan bo'lib, ular aholini axborotlar resurslari bilan ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

O'zbekistonning barcha mintaqalarida (viloyat va tumanlarida) xalqaro Internet tarmog'iga ulanish "O'zPAK" Davlat kompaniyasining xalqaro kanallari orqali amalga oshirilmoqda. Mamlakatda Internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. 2002 yilda bor-yo'g'i 300 mingdan ortiq Internet tizimidan foydalanuvchilar bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 20 millionga yaqinlashmoqda.

Xususan, nodavlat ommaviy axborot vositalarini qo'lib-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida bir qancha jamoat tashkilotlari tashkil qilindi. O'z tarkibida 100 dan ortiq elektron ommaviy axborot vositalarini birlashtirgan Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, shuningdek, O'zbekiston

¹⁵⁸ Қирғизбоев М.Сиёсатшунослик. Ўқув қўлланма.-Т.: Янги аср авлоди, 2013.-Б.440-443.

mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo‘l lab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi shular jumlasidandir¹⁵⁹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida “Elektron ta’lim” milliy tizimini yaratish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1740-sonli qarorini amalga oshirishni ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 25 iyulda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzurida ta’lim muassasalarida elektron ta’limni joriy etish markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi 228-sonli qarori qabul qilindi.

Bu qaror o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta’minlash, shuningdek oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida yuqori texnologik darajada o‘quv jarayonini tashkil etish uchun elektron o‘quv-metodik va axborot-kutubxona resurslari, axborot tizimlari shakllantirilishini ta’minlovchi yagona organi tashkil qilishga qaratildi. Mazkur qarorga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzurida Ta’lim muassasalarida elektron ta’limni joriy etish markazini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyunda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan 2013-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturining qabul qilinishi mamlakatimizda axborot resurslari, tizimlari va tarmoqlarini yanada jadal rivojlantirishga shart-sharoitlar yaratdi.

Hozirgi umumjahon axborot globallashuvi jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat davlat boshqaruvi va iqtisodiyoti, balki axborot tizimlari xavfsizligini ta’minlashda ham keng qo‘l lashni taqozo etmoqda. O‘zbekiston axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro xavfsizlik tizimiga Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘l ib qo‘shildi. Mamlakat Prezidentining 2005 yil 5 sentyabrda qabul qilingan “Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarining kompyuter xavfsizligini ta’minlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga binoan “Uzinfocom” kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda joriy etish markazi huzurida “UZ-CERT” kompyuter hodisalariga chora ko‘rish xizmati tashkil qilindi. Bu xizmat asosida Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi huzurida Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi tuzildi.

Bu markazning asosiy maqsadi “Elektron hukumat” tizimi ma’lumotlar bazasi, resurslari va axborot tizimlari kompleksining axborot xavfsizligini ta’minlash, davlat organlarining tegishli resurs va tizimlarining axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko‘maklashishdan iboratdir.

Markaz axborot xavfsizligining zamonaviy tahdidlari haqida ma’lumotlar to‘plash va tahlil qilish, “Elektron hukumat” tizimi ma’lumotlar bazasi, resurslari va axborot tizimlari kompleksiga noqonuniy kirishga oid harakatlarning oldini olishga qaratilgan tashkiliy va dasturiy-texnik qarorlar qabul qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish faoliyati bilan shug‘ullanadi. “Elektron hukumat” tizimining axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi me’yoriy-huquqiy bazani, shuningdek, milliy internet segmentini takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqish ham markaz faoliyati yo‘n alishlaridan biridir¹⁶⁰.

¹⁵⁹ Ўша жойда.-Б.444-448.

¹⁶⁰ Обидов Б. Ахборот хавфсизлигини таъминлаш – тараққиётнинг муҳим омили. 17.04.2014.//<http://uza.uz/oz/tech/elektron-ukumat-ulai-va-khavfsiz-17.04.2014-31853>.

Mamlakatda “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish markazi va Axborot xavfsizligini ta’minlash markazining tashkil etilishi hamda ularning o‘zaro hamkorligi O‘zbekistonda milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishning muhim bosqichi bo‘l di.

2014 yilga kelib esa mamlakatda 1400 ommaviy axborot vositasi faoliyat ko‘rsata boshlagan bo‘l sa, 2018 yilga kelib ularning soni 1500 taga etdi. Ularning 62 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalaridir. Hozirgi davrga kelib mamlakat ommaviy axborot vositalari mamlakatimiz hamda dunyoda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni keng yoritib boshladi, aholi tafakkurini shakllantirish, huquqiy ongi va madaniyat darajasini yuksaltirishda bevosita ishtirok etmoqda. Shuningdek, ular fikrlar xilma-xilligini ta’minlashga ko‘maklashmoqda. Bu esa mamlakatimizni demokratlashtirish va jahon axborot makoniga integratsiyalashtirish sharoitida nihoyatda muhimdir.

Shuningdek, O‘zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo‘l lab quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etilganidan buyon o‘tgan vaqt davomida mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha yuzlab loyiha ishlab chiqilib, amalga oshirildi. Bu borada 900 dan ziyod bosma va veb-nashrlar tahririyatlari hamda 4 ta axborot agentligi bilan faol hamkorlik yo‘l ga qo‘yildi. Ommaviy axborot vositalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlarini yoritishda ular ishtirokini faollashtirish uchun fond tomonidan yuzdan ortiq bosma va internet-nashrlarga grantlar ajratildi.

O‘zbekistonda internet jurnalistikasining jadal rivojlanayotgani zamon talabi bo‘l ib, bu yurtimizda global tarmoq ham shiddat bilan taraqqiy etib borayotganidan dalolatdir. Agar 2010 yilda milliy domenda 10 ming veb-sayt ro‘yxatga olingan bo‘l sa, hozirgi davrda ularning soni ikki barobardan ko‘proqqa oshdi¹⁶¹. Provayderlarni texnik jihozlashni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, internet trafikni kuchaytirish va hajmini oshirish inobatga olingan holda, aholining global tarmoqdan foydalanish sharoitlari taboro takomillashib bormoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘zining Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan yo‘l lagan tabrigida ommaviy axborot vositalari tarkibi tubdan o‘zgarib borayotganligiga to‘xtalib o‘tib, quyidagilarni ta’kidlab o‘tdi: “Hozirgi kunda respublikamizda 1500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Birgina O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibidagi telekanallarning bir sutka davomidagi umumiy efir vaqti 616 soatni tashkil etmoqda. Holbuki, mustaqillikdan oldin bu raqam bor-yo‘g‘i 48 soatga teng edi, xolos. E’tiborga molik jihati shundaki, ommaviy axborot vositalarining tarkibi ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Buni yurtimizdagi barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari ekani ham tasdiqlaydi”¹⁶².

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning yangi davri

Hozirgi davrda rivojlangan davlatlarda “axborotlashgan jamiyat” tushunchasi tez-tez tilga olinadigan bo‘l ib qoldi. Bu tushuncha jamiyatni to‘l iq ravishda axborot kommunikatsiyalari asosida boshqarilishi va “elektron hukumat”ni joriy etilganligini anglatib, ko‘pincha fuqarolik jamiyatining sinonimi sifatida ishlatilmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish – bu jamiyat a’zolarining ishonchli axborotdan to‘l iq va o‘z vaqtida foydalanishlarini ta’minlashga qaratilgan choralar kompleksini ishga tushirishni anglatadi. Jamiyatni axborotlashtirishning miqyosi yangi axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish va rivojlantirish darajasiga bog‘liq bo‘l adi. Hozirgi davrda axborotlashgan jamiyat atamasi nafaqat axborot sohasi mutaxassislarining o‘zaro

¹⁶¹ Замоновий ОАВ ва интернет: янги медиа имкониятлар.08.07.2014.//<http://gov.uz/uz/press/society/25477>.

¹⁶² Мирзиёев Ш.М. Миллий таракқиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”НМИУ, 2017. –Б.498.

muomalasida, balki siyosiy faoliyat, iqtisodchi olimlarning o‘zaro munosabatlarida ham namoyon bo‘l moqda.

Axborotlashgan jamiyatni tavsiflovchi mezonlar quyidagilardan iborat:

- texnologik: ishlab chiqarish jarayonida, muassasalarda, ta‘lim tizimida keng qo‘l laniladigan axborot texnologiyalari;

- ijtimoiy: axborot yashash sifatini o‘zgarishlarning muhim omili sifatida yuzaga chiqadi, axborot ichiga chuqur kirib borish natijasida “axborot ongi” shakllanadi va namoyon bo‘l adi;

- iqtisodiy: axborot iqtisodiyotda resurs, xizmat, tovar, qo‘shilgan qiymat va bandlik kabilarning manbai sifatida barcha sohalarga kirib boruvchi omil sifatida namoyon bo‘l adi;

- siyosiy: axborot erkinligi siyosiy jarayonlarda turli siyosiy kuchlar va aholi ijtimoiy qatlamlari orasidagi munosabatlarni yanada rivojlantiradi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda o‘z borayotgan ishtiroki bilan tavsiflanadigan omil hisoblanadi;

- madaniy: axborotning madaniy qadr-qimmatini alohida individ va butun jamiyat rivojining manfaatlari mushtarakligida ifodalaydi, axborot madaniy qadriyatlar va aloqalarni yanada mustahkamlaydi¹⁶³.

Axborotlashgan jamiyat komponentlari quyidagilardan iborat:

- axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, Internet;

- axborot - intellektual mulk;

- elektron axborot markazlari, bazalari va ma‘lumotlar banki, videomahsulotlar, ko‘p tilli tarjimonlar, yangi tasvir vositalari;

- Axborotning umumiy merosiy sohalari (ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari, biotexnologiyalar, farmatsevtik mahsulotlar va x.k.).

Bu komponentlar jamiyat iqtisodiyoti sohasining barcha jabhalarida namoyon bo‘l adi, ularning ta‘siri axborot-kommunikatsiya jarayonlarining o‘z borishiga mutanosib ravishda rivojlanib bormoqda. Axborotlashgan jamiyat konsepsiyasiga binoan “jamiyat rivojining asosiy omili ishlab chiqarish va axborotdan keng foydalanish” qoidasi qonuniyatga aylandi. Hozirgi davrga kelib hukumat va fuqarosi orasidagi o‘zaro ta‘sir va munosabatlar axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida amalga oshirilishi an‘anaga aylandi. Huquqiy davlat “fuqaro-hukumat”, “fuqarolik jamiyati - hukumat” o‘zaro axborot munosabatlari, axborot almashishdagi o‘zaro manfaatlar muvozanati va uning me‘yorlari axborot-kommunikatsiya vositalariga doir qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan. Hukumat va jamiyat, alohida fuqaroning o‘zaro ta‘sirini optimallashtirish uchun “elektron hukumat” tizimidan faol foydalaniladi.

“Elektron hukumat” ikki qismdan tashkil topadi:

1. Hukumat va jamiyatning o‘zaro munosabatlari

2. Hukumatning turli darajalari (markaziy, mintaqaviy, mahalliy) va turli tarmoqlarining (ijro, qonun, sud hokimiyatlari) o‘zaro ichki aloqalari va xamkorligi.

Elektron hukumat aholiga Internet-texnologiyalar vositasida va yordamida (ya‘ni, AKT orqali) o‘z nuqtai nazarlarini ifodalash imkoniyatlarini bergani holda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta‘sir ko‘rsatishlari imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga Internet foydalanuvchilar uchun zamonaviy darajada moslashtirilgan yangi xizmatlarni taqdim etish yo‘l i bilan davlat boshqaruv organlariga murojaat qilish, ularga ta‘sir etish, ulardan axborotlar olishga imkon beradi.

¹⁶³Мустапакулов Я.У., Рахмонова М.Р., Мухсинов Ш. Жойларда давлат ҳокимияти, давлат ва хўжалик бошқаруви органлари ходимлари учун замонавий коммуникация технологияларини эгаллаш, компьютер техникаси ва Интернет тизимида ишлаш бўйича малака ошириш курси.-Т.:ТАТУ,2014. -Б.21.

Fuqarolar axborot va telekommunikatsiya infratuzilmasini shakllantirish natijasida quyidagilarga erishadi:

- tashkilot va fuqarolar uchun davlat hukumat organlari bilan o‘zaro hamkorlikning elektron usullariga murojaat qila olish, aholining davlat boshqaruv organlari bilan o‘zaro hamkorligi yoki muloqoti uchun sarflanadigan vaqtni kamaytirish;

- davlat boshqaruv organlarining aholiga davlat xizmatlarini taqdim etishi va elektron ko‘rinishdagi davlat vazifalarini bajarish harajatlarini kamayishi;

- umumdavlat ahamiyatiga molik bo‘lgan turli vazifalarni bajarish uchun davlat byudjeti harajatlarini kamaytirish;

- aholi bilan hukumat boshqaruv organlari orasida tezkor va himoyalangan axborot almashinuvi uchun yagona texnologik va ishonchli vosita.

Fuqarolik jamiyati va alohida individlarning manfaatlari o‘z ichiga davlat va uning organlari axborotlarining ochiq bo‘l ishiga ehtiyoj sezadi. Axborotning ochiqligidan davlatning o‘zi ham manfaatdordir. Axborotning ochiqligi - bu har qanday demokratik davlatning tavsifi hisoblanadi. Davlatning axborot ochiqligi qanchalik yuqori bo‘lsa, u shunchalik huquqiy davlat belgilariga ega bo‘lgan siyosiy institut hisoblanadi. Hukumat hujjatlari va axborotlariga kirishni ta‘minlashni osonlashtirish va qulaylashtirishga intilgan davlat fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun keng shart-sharoitlar yaratib beradi. Davlat boshqaruvining sifati va demokratik xarakter kasb etishi hukumatning aholini “eshitish” va “tinglash”ga tayyor ekanligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir¹⁶⁴.

2015 yilning 3 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi axborot kommunikatsiyalarini rivojlantirish va so‘z erkinligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Qonunning 3-moddasida “Elektron hukumat”ga doir asosiy tushunchalarning ta‘riflari berildi:

elektron hukumat - davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi;

davlat xizmati - ariza beruvchilarning so‘rovlariga ko‘ra amalga oshiriladigan, davlat organlarining vazifalarini bajarish bo‘yicha ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat. Agar qonun hujjatlariga muvofiq davlat xizmatlari ko‘rsatish funksiyalari boshqa tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa, ular ham davlat xizmatini ko‘rsatishlari mumkin;

so‘rov - ariza beruvchining davlat xizmati ko‘rsatilishi to‘g‘risida davlat organlariga yuboriladigan talabi;

ariza beruvchi - davlat organiga so‘rov bilan murojaat etgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

idoralararo elektron hamkorlik qilish - davlat organlari o‘rtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ma‘lumotlar almashish;

elektron hukumatning yagona identifikatorlari - har bir jismoniy va yuridik shaxsga, kadastr va ko‘chmas mulk obyektlariga, geografik va boshqa obyektlarga beriladigan, ularni elektron hukumatda identifikatsiyalash imkonini beruvchi noyob kodlar;

¹⁶⁴Мустапакулов Я.У., Рахмонова М.Р., Мухсинов Ш. Жойларда давлат ҳокимияти, давлат ва хўжалик бошқаруви органлари ходимлари учун замонавий коммуникация технологияларини эгаллаш, компьютер техникаси ва Интернет тизимида ишлаш бўйича малака ошириш курси.-Т.:ТАТУ,2014. -Б.24-25.

elektron davlat xizmatining reglamenti - elektron davlat xizmati ko'rsatishga doir tartibni va talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjat;

elektron davlat xizmat – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda ko'rsatiladigan davlat xizmati.

Elektron hukumatning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashishni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;

- ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratish;

- o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma'lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reestrini shakllantirish;

- aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o'zaro hamkorligi va ularning ma'lumotlar bazalari o'rtasida axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida "bir darcha" prinsipini joriy etish;

- tadbirkorlik subyektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruv, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o'tkazish;

- tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog'i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to'lovning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;

- naqd bo'lmagan elektron to'lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.

Qonunning 5-moddasiga binoan *"Elektron hukumat"ning quyidagi asosiy prinsiplari belgilandi:*

- davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi;

- elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi;

- "bir darcha" prinsipi bo'yicha elektron davlat xizmatlari ko'rsatish;

- davlat organlarining hujjatlarini birxillashtirish;

- elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish;

- elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish; axborot xavfsizligini ta'minlash¹⁶⁵.

"Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi mamlakatda axborot kommunikatsiyalarini rivojlantirishning yangi davrini boshlab berdi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar hozirgi paytda davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) innovatsiyalarning rivojlanishida, mamlakatning ishlab chiqarish va raqobatdoshligini oshirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda aholining hayot darajasini oshirishda muhim o'rin tutishini har tomonlama isbotlab berdi.

¹⁶⁵Ўзбекистон Республикасининг "Электрон ҳукумат тўғрисида"ги Қонуни . 3 декабрь 2015 й. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2015 й., 49-сон, 611-модда.yoki www.lex.uz

Shuning uchun ham 2016 yilning soʻn ggi choragidan boshlab mamlakat davlat hokimiyati tepasiga kelgan Prezident Sh.M.Mirziyoyev jamiyat va davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qoʻl lashga muhim ahmiyat bera boshladi. Mamlakatimizda AKT uchun xalqaro standartlarga muvofiq dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan sifatli va raqobatdosh dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni ragʻbatlantirishni kuchaytirish, shuningdek 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻn alishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni hal qilish, AKT mahsulotlari eksportini kengaytirish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni ragʻbatlantirish maqsadida 2017 yilning 30 iyunida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonni qabul qildi.

Mazkur Farmon bilan mamlakatimizda birinchi marotaba axborot texnologiyalari sohasida xoʻjalik yurituvchi subyektlarni, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarni birlashtiradigan Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni qoʻl lab-quvvatlash boʻyicha “*Mirzo Ulugbek Innovation Center*” innovatsiya markazi tuzildi.

Innovatsiya markazi mamlakatimiz hududi doirasida eksterritoriallik prinsipi asosida tashkil qilindi, yaʼni AKT sohasidagi korxonalar respublikada joylashgan hududidan qatʼi nazar, Innovatsiya markazi rezidentlari boʻl ishi mumkin. Ushbu tamoyil mamlakatda AKT mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi bklgilab qoʻyildi.

Quyidagilar Innovatsiya markazi faoliyatining asosiy yoʻn alishlari etib belgilandi:

- xoʻjalik yurituvchi subyektlar va oliy taʼlim muassasalarining axborot texnologiyalari mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ichki va tashqi bozorlarda sotishga qaratilgan oʻzaro hamkorligini kengaytirish uchun zarur tashkiliy-texnik va moliyaviy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;

- AKT sohasida raqobatdosh loyihalarni ichki va tashqi bozorlarda sotish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etishda Innovatsiya markazi rezidentlariga koʻmaklashish;

- oliy taʼlim muassasalari va kasb-hunar kollejarining “axborot texnologiyalari” mutaxassisligi boʻyicha bitiruvchilarining ishga joylashtirilishini taʼminlashda, shu jumladan iqtidorli yoshlar tomonidan “*start-up*” loyihalarini amalga oshirishda ularni qoʻl lab-quvvatlash yoʻl i bilan ishtirok etish;

- qisqa muddatli va oʻrta muddatli ixtisoslashtirilgan kurslarni tashkil etish, shu jumladan chet el mutaxassislarini taklif etish yoʻl i bilan AKT sohasidagi kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil qilish;

- yosh tadbirkorlar tomonidan axborot texnologiyalari mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasidagi istiqbolli yoʻn alishlar boʻyicha innovatsiya loyihalari amalga oshirilishini qoʻl lab-quvvatlash¹⁶⁶.

Oʻzbekistonda qisqa davr ichida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xalqaro tashkilotlar tomonidan ham eʼtirof etilmoqda. 2017 yilning noyabr oyida Xalqaro Elektroloqa ittifoqi oʻzining “Axborotlashgan jamiyat koʻrsatkichlari” hisobotini eʼlon qildi. Unda AKTni rivojlantirish boʻyicha 190 dan ziyod davlatlardagi bu sohadagi holatlarni oʻrganish

¹⁶⁶Ўзбекистон Республикаси Президенти “Республикада ахборот технологиялари соҳасини ривожлантириш учун шарт-шароитларни тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони. 30 июнь 2017 йил.// <http://www.president.uz>, www.lex.uz, www.andsavdo.uz/?p=4118.

natijalari e'lon qilindi: "Xalqaro Elektraloqa ittifoqining 2017 yildagi hisobotlariga ko'ra O'zbekiston AKTni rivojlantirish indeksida 15 o'rin yuqoriga ko'tarilib, 192 mamlakat orasida 95-o'rinni egalladi". 2016 yilda O'zbekiston mazkur reytingda 110-o'rinni egallagan edi¹⁶⁷.

"Yagona darcha" Markazi va tadbirkorlarga xizmatlar. Tadbirkorlik tuzilmalariga zamonaviy AKTdan keng foydalangan holda davlat xizmatlarini ko'rsatish sifati hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini tubdan oshirish va shaffofligini ta'minlash maqsadida O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlariga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari ("yagona darcha" markazlari) tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 28 sentyabrdagi PQ-2412-sonli Qaroriga muvofiq faqat "yagona darcha" markazlari (YADM) orqali ko'rsatiladigan 16 ta davlat xizmatlari ro'yxati tasdiqlangan. Ushbu ro'yxat keyinchalik qo'shimcha davlat xizmatlari bilan to'ldirib boriladi (Rasm 10.1)¹⁶⁸.

"Yagona darcha" markalarining tashkil etilishi mamlakatda tadbirkorlikni rivojlanishi, uning yo'l iga g'ov bo'l ayotgan - byurokratiya va korrupsiyaga barham berishda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Ayniqsa, mazkur markazlarning davlat xizmati ish faoliyatida "fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" degan prinsipni o'rnatilishi natijasida tadbirkorlar bir necha o'n yillardan buyon duch kelayotgan muammolarga barxam berildi. Albatta, bu holat davlat hokimiyati boshqaruvi va xizmatini fuqarolik jamiyati prinsiplari asosida nomarkazlashish jarayoni sifatida ham namoyon bo'la boshladi.

Rasm 10.1. "Yagona darcha" markazlari orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ro'yxati:

№	Ko'rsatiladigan davlat xizmatlari nomi
1	Tadbirkorlik subyektlarini injenerlik kommunikatsiya tizimlariga "to'ldirish bajarish" sharti bilan ulash
2	Bino va inshootlarning tashqi ko'rinishini o'zgartirish (fasadni ta'mirlash) uchun ruxsat berish
3	Obyektni qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilish uchun ruxsat berish
4	Qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun ruxsat berish
5	Yer uchastklariga egalik huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish
6	Binolar, inshootlar va ko'p yillik dov-daraxtlarga egalik huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish
7	Ipotekani hamda yuridik shaxslarning binolar va inshootlar ipotekasi to'g'risidagi shartnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish
8	Alkogol mahsulotlari bilan ulgurji savdo qilish uchun ruxsat berish
9	Umumiy ovqatlanish joylarida alkogol mahsulotlari bilan savdo qilish uchun ruxsat berish
10	Ko'chma savdo bilan shug'ullanish uchun ruxsat berish
11	Tashqi reklama joylashtirish uchun ruxsat berish
12	Turar joylarni noturar joyga o'zgartirish
13	Foydalanish davrida zarar ko'rgan yer maydonlarini rekultivatsiyalash bo'yicha xulosa chiqarish
14	O'rmon fondiga kiritilmagan daraxt va o'simliklarni kesish uchun ruxsat berish
15	Maxsus suvdan foydalanish va suv iste'mol qilish uchun ruxsat berish

¹⁶⁷Ўзбекистон АКТ соҳаси жадал ривожланаётган мамлакат деб эътироф этилди. 15.11.2017 й.// <https://sputniknews-uz.com/society/20171115/6835098.html>.

¹⁶⁸Электрон ҳукумат бўйича эслатма: Ўзбекистон Республикасида электрон ҳукуматни ривожлантириш бўйича давлат органларининг асосий вазифалари/Б. А. Авлиекулов, Д. Ю. Атаджанов, Р. Р. Закиров - Т.: Baktria press, 2016. –Б.25.

Davlat boshqaruvi va xizmatini aholini boshqarishga doir tamoyillarini ularga xizmat qilish prinsiplariga almashtirilishi o‘zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Tadbirkorlar va boshqa xususiy faoliyat yurituvchi subyektlarning turli davlat idoralari oldidagi hisobdorligi AKT vositasida amalga oshirila boshlandi. Aholi “elektron hukumat” tizimi orqali istalgan darajadashi davlat hokimiyati organlariga murojaat qilish imkoniyatlariga ega bo‘l di. Aholining ma‘muriyat organlariga murojati jarayonlari sodalashtirildi, xususiy faoliyat yoki tadbirkorlik uchun ruhsatnomlar yoki boshqa litsenziyalar olish muddati nihoyatda qisqartirildi, oldingi byurokratik to‘siqlar olib tashlandi. Ayniqsa, davlat xizmati ko‘rsatadigan mansabdorlarning xalq va yuqori organlar oldidagi mas‘ulligini oshirish, rahbar ma‘naviy kodekslarini qabul qilinishi, parlament nazorati, deputatlik nazorati, jamoatchilik nazorati kabi boshqaruv usullarini takomillashtirilishi, mansabdorlar faoliyati ustidan monitoring qilish xizmatlarini rivojlanishi davlat xizmati yuzini xalqqa qarata boshladi.

Rasm 10.2. "Yagona darcha" markazlari orqali davlat xizmatlari ko'rsatish sxemasi¹⁶⁹

Bos-qich	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1	"Arizachi"	"Yagona darcha" markaziga ariza berish	arizachining xohishiga ko'ra
2	Yagona darcha markazi	1. Davlat xizmati pasportiga muvofiq arizaning to'liqligini tekshirish 2. Arizani unikal raqam ostida elektron jurnalda ro'yxatdan o'tkazish 3. Ariza beruvchiga ariza qabul qilinganligi to'g'risida tilxat berish yoki uning nusxasiga belgi qo'yish 4. Arizani skanerlash va ERI qo'yish 5. Arizani tegishli vakolatli organga yuborish	30 daqiqa mobaynida bir ish kuni mobaynida
3	Vakolatli organ	1. Arizani qabul qilish va ko'rib chiqish 2. Davlat xizmati natijalarini rasmiylashtirish yoki sabablarini keltirib rad etishga tayyorlash 3. Ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zining elektron axborot resurslariga kiritish 4. Davlat xizmati ko'rsatish natijalarini yoki uning asoslangan rad etilishini elektron tarzda YADMga yoki YAIDXP orqali murojaat qilingan taqdirda – arizachiga yuborish	DX pasportida belgilangan muddatlarda DX pasportida ko'rsatilgan muddatdan 3 soatdan kechikmay
4	Yagona darcha markazi	1. Vakolatli organdan davlat xizmatini ko'rsatish natijasini yoki asoslangan rad etishni olish. Arizachini arizada ko'rsatilgan usulda xabardor qilish. 2. Arizachiga berish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni	arizani ko'rib chiqish natijalari olingandan keyin bir ish soati

¹⁶⁹Манба: Ўша жойда.-Б.26.

	rasmiylashtirish. 3.Arizachiga arizada ko‘rsatilgan usulda hujjatlarni berish. 4.Arizalarni ro‘yxatdan o‘tkazishning Elektron jurnaliga tegishli yozuvlarni kiritish.	mobaynida
--	---	-----------

Ko‘rinib turibdiki, mustaqillik davrida axborot sohasini isloh qilishga doir amalga oshirilgan tub o‘zgarishlar ommaviy axborot vositalarini fuqarolik jamiyati tizimidagi o‘n ini mustahkamlashga, fuqarolarning so‘z erkinligini ta‘minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarishdan tashqari aholini jamiyat va davlat boshqaruvida, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishlarini va jamiyatda o‘z erkinliklarini amalga oshirishlarini ta‘minlashlariga ko‘maklashadi. Shuning uchun 2017 yilga kelib AKT va “elektron hukumat” tezlik bilan davlat boshqaruvi va xizmati sohasiga keng miqyoslarda qzllana boshladi. Bu holat mamlakatdagi ma‘muriy islohotlarni tezlashtirishdan tashqari har bir fuqaroning yuqori va oliy davlat hokimiyati organlariga murojaat qilishi, ular bilan muloqotga kirishishi uchun shart-sharoitlar yaratdi. Bu holat ayni fuqarolik jamiyati qurishning asosiy talablaridan biri edi. Mamlakatda AKTni rivojlantirish natijasida 2017 yilning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” sifatida yangi mohiyati va sifatlari namoyon bo‘ldi, davlat organlari bilan xalqning o‘zaro muloqotlari samarali kechdi.

Xalqimizning hayot darajasi o‘ssishi, ko‘pgina muammolar hal qilinishi bilan Xalq qabulxonalariga murojaatlar kamayib boradi. Shuning uchun bu qabulxonalar imkoniyatlari davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasiga yo‘n altirilmoqda. Shu maqsadda barcha davlat idoralari va Adliya vazirligi qoshidagi “Yagona darcha” markazlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni Xalq qabulxonalarini orqali samarali tashkil etish masalasi ko‘rib chiqilmoqda. Shu munosabat bilan Prezident devonining Fuqarolar huquqlarini himoya qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmatiga ushbu masalalar bilan bevosita shug‘ullanish vazifasi yuklandi.

Mazkur xizmat tarkibida yangi tuzilma tashkil etilib, unga “Tezkor davlat xizmatlari agentligi” deb nomlash Prezidentimiz tomonidan taklif etildi¹⁷⁰.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham mazkur sohaga oid to‘xtalib o‘tdi. Jamiyatimiz hayotida demokratik printsiplarni mustahkamlashda OAV muhim va ta‘sirchan omil hisoblanadi. Bu borada chinakkam professional zamonaviy jurnalistikani shakllantirish, xususan nodavlat OAVni, axborot va tahliliy Internet saytlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor qaratish, buning uchun alohida davlat fondini tuzish maqsadga muvofiqligi aytiladi. Hozir yurtimizda 1,5 mingdan ortiq OAV faoliyat olib bormoqda. Ular mulk shakli, yo‘n alishi, axborot uzatish vositalariga ko‘ra turlichadir. O‘z-o‘zidan ravshanki, ularning barchasiga yuqori malakali kadrlar kerakligi, talab darajasidagi tayanch oliy o‘quv yurtlariga ehtiyoj borligi munosabati bilan **Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya vositalari universitetini** tashkil etish zarurligi Prezidentimiz tomonidan ta‘kidlangan edi. Mazkur universitet 2018 yil ochilib, 2018-2019 o‘quv yili uchu talabalarni qabul qilib, o‘z faoliyatini boshladi.

Yurtimizda sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida 2017 yilning 12 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra “Yagona darcha” tamoyili asosidagi xizmat ko‘rsatish tizimi “Davlat xizmatlari ko‘rsatish agentligi”ga o‘zgartirilib, hokimlik tizimidan Adliya vazirligi tizimiga o‘tkazildi.

¹⁷⁰ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Т.: “Ўзбекистон”НМИУ, 2018. –Б.31-32.

Mamlakatda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevral kunidagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga ko'ra, shahar va hududiy infratuzilmani, shu jumladan, kelgusida integratsiyalashgan, "aqli" va "Xavfsiz shahar" yagona kompleksiga birlashtirilgan holda, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish, transport logistikasini, shoshilinch xizmatlarni boshqarishning zamonaviy intellektual tizimlarini joriy etish hamda kiberxavfsizlikni ta'minlash va tarmoqlar, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va resurslarini joriy qilishni ta'minlash bo'yicha kompleks choralarni amalga oshirish, shaxsiy va biometrik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlash bo'yicha texnologiyalarning qo'llanilishini tartibga solishda ishtirok etish va boshqa sohaga oid tadbirlar belgilangan.¹⁷¹

Bugun mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va kundalik hayotga izchil joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018 yilning 9 yanvar kuni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Yig'ilishda bir qator sohaga oid masalalar ko'rib chiqilishidan oldin raqamlarga murojaat etildi. Jumladan, 2017 yilda raqamli televideniye qamrovi 88 foizdan 100 foizga yetkazilgan. Mobil aloqadan foydalanuvchilar soni 7 foizga oshib, 22,8 millionga yetdi. 2017 yilda axborot texnologiyalari sohasida 7,7 trillion so'mlik yoki 2016 yildagiga nisbatan 26 foiz ko'p xizmat ko'rsatildi. Investitsiya dasturi doirasida 260 million AQSH dollari o'zlashtirilganligi aytili.¹⁷²

Mazkur yig'ilishda Yurtboshimiz tomonidan erishilgan natijalar alohida qayd etilar ekan, 2018 yilda va yaqin istiqbolda amalga oshirilishi zarur bo'lgan ustuvor vazifalar haqida ham so'z bordi. Prezidentimiz axborot texnologiyalari sohasida hali qilinadigan ishlar ko'pligi, erishilgan natijalar boshqa davlatlarga qaraganda ancha past ko'rsatkichda ekanini ta'kidladi. Misol uchun axborot texnologiyalari sohasining mamlakat YAIMdagi ulushi Janubiy Koreyada 9 foiz, Yaponiyada 5,5 foiz, Xitoy va Hindistonda 4,7 foiz, O'zbekistonda atigi 2,2 foizni tashkil etadi. Buni axborot-kommunikatsiya rivojlanish indeksi reytingidagi 176 mamlakat orasida O'zbekiston 95-o'ringa ekani ham isbotlab turibdi.

Yig'ilishda internet tarmog'iga ulanish qamrovini kengaytirish va tezligini oshirish, dasturiy ta'minot, telekommunikatsiya sohasida yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan aloqa o'rnatish, "Elektron hukumat" tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborot berildi. Internetdan 20 million aholi foydalanadi, deb hisobot berilgandi, dedi davlatimiz rahbari lekin aholining asosiy qismi internetdan faqat "Telegram"da yozishi uchun foydalanganligini eslatib o'tdi. Yig'ilishda MDH davlatlari bo'yicha internetning o'rtacha tezligi biznikidan 10 marta yuqoriligi qayd etildi. Aloqa operatorlari chekka hududlarda

¹⁷¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 февраль кундаги "Ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. Халқ сўзи газетасининг 34–сони. 2018 йил. 20 февраль. ёқи www.lex.uz

¹⁷²Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2018 йилнинг 9 январь куни ахборот-коммуникация технологияларини янада ривожлантириш ва хавфсизлигини таъминлаш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирлар натижадорлигига бағишланган йиғилиш. Халқ сўзи газетасининг №5–сони. 2018 й. 10 январь.

avtomobil va temir yo‘l larga yaqin hududlarda telekommunikatsiyalarni kengaytirishga sarmoya kiritmagani ta’kidlandi.

Prezidentimiz tomonidan mutasaddilarga internet narxini keskin arzonlashtirish, tezligini kamida 4 marotabaga oshirish, 2020 yilgacha esa MDH davlatlari darajasiga etkazish chora-tadbirlarini ko‘rish bo‘yicha zarur topshiriqlar berildi. Bugun “Xavfsiz shahar” yagona kompleksini yaratish dasturiga muvofiq loyiha kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, Toshkent shahrida 16 mingdan ortiq videokameralar o‘rnatish, ma’lumotlarni qayta ishlash markazi va simulyatsiya markazlarini tashkil etish belgilandi. Shuningdek, “Xavfsiz turizm”, “Xavfsiz hudud”, “112” tizim, oliy ta’lim muassasalariga imtihon topshirish jarayonlariga videokuzatuv hamda yo‘l harakati qoidalari buzilishlarini ro‘yxatga olish tizimlarini yanada keng joriy etish ko‘zda tutilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. “Ommaviy axborot vositalari” tushunchasining mazmun-mohiyati va turlari aytib bering.
2. “To‘rtinchi hokimiyat”, “Senzura”, “so‘z erkinligi va mas’uliyati” tushunchalarining mazmun-mohiyati haqidagi fikrlaringizni bayon eting.
3. O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomi haqida nimalarni bilasiz?
4. O‘zbekistonda mustaqillik davrida axborot sohasini rivojlantirish islohotlari qanday kechdi?
5. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalarini jamiyat hayotidagi tutgan o‘rni qanday?
6. Internetning bugungi kunda tutgan o‘rni to‘g‘risida nima deysiz?
7. Mamlakatimizda “Elektron hukumat” tizimini barpo etishga doir qanaqa chora tadbirlar amalga oshirilmoqda?
8. “Davlat xizmatlari agentliklari” faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

Mavzu - 2.6/1: Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari

- 1. Fuqarolik jamiyati tizimida o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining o‘rni va roli.**
- 2. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda mahalla institutining rivojlanishi.**
- 3. Mahalla institutini yanada takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari.**

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mahalla, munitsipal, fuqarolar yig‘inlari, mahalla oqsoqoli, rais va uning maslahatchilari, mahalla vazifalari, mahalla komissiyalari, o‘zbek mahallasi tarixi, mustaqillik va mahalla, mahallada millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik, ajdodlar merosida mahalla, qadimgi va o‘rta asrlar manbalari. taftish komissiyasi, MFY vakolatlari, “Mahalla” xayriya jamg‘armasi, yarashtirish komissiyasi.

1. Fuqarolik jamiyati tizimida o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining o‘rni va roli

O‘z-o‘zini boshqarish har qanday demokratik jamiyat tuzumining asosini tashkil etadi. Fuqarolarni mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish orqali davlatni boshqarishda ishtirok etishi demokratik tamoyillardan biridir. Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini amalda haqiqiy vakolatlar bilan ta‘minlash o‘z navbatida fuqarolar manfaatlarini ham ta‘minlaydigan boshqarishga erishish imkonini beradi.

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishni o‘z oldiga bosh maqsad sifatida belgilab olgan mamlakatimizda mustaqillik yillarida “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasi asosida siyosiy soha, xususan boshqaruv sohasida ham keng ko‘l amlil islohotlar olib borildi. Natijada zamonaviy asnodagi demokratik davlat, fuqarolik jamiyati manfaatlariga mos davlat va mahalliy hokimiyat organlari yuzaga keldi, ularning huquqiy asoslari yaratildi. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mahalliy davlat hokimiyatining asoslarini belgilab berdi. Konstitutsiyaning XXI bobida viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etishi, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga kiradigan masalalar, ularning vakolat muddati, hisobdorligi, mansabdor shaxslarning lavozimga qo‘yilishi va javobgarligiga oid normalar o‘z ifodasini topdi. Mahalliy davlat hokimiyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatiga ehtiyoj tug‘ilganligi bois, 1993 yil 2 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi (1997, 1999, 2004, 2005, 2007, 2008, 2013, 2014, 2015, 2017, 2018 yillarda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan) va “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunlari qabul qilingan. (1999, 2003, 2004, 2005, 2007, 2008, 2010 qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri 2013 yilda qabul qilindi).

Ushbu Qonunlarning qabul qilinishi mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati organlarining tizimi, tuzilishi, vakolatlari, vazifalari, tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy faoliyat shakllari, joylarda qonuniylilikni ta‘minlashda ularning o‘zaro huquqiy munosabatlarini belgilab berdi. O‘z

navbatida, mahalliy davlat hokimiyati organlarini isloh qilish, hokimliklar apparatini takomillashtirish yoʻn alishlari belgilab berilgan.

Oʻzbekiston Respublikasining “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari toʻgʻrisida”gi Qonunining¹⁷³ 3-moddasiga muvofiq fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni oʻz manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va maʼnaviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va anʼanalardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir. Mazkur Qonun 8-moddasining ikkinchi qismida esa fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan oʻz vakolatlarini tegishli hudud doirasida amalga oshirishi mustahkamlangan.

“Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunning¹⁷⁴ 4-moddasida mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarining oʻzaro munosabatlari belgilangan. Mazkur moddaga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda oʻzini oʻzi boshqarishni rivojlantirishga koʻmaklashishlari, oʻzini oʻzi boshqarish organlarining faoliyatini yoʻn altirib turishlari belgilangan. Ushbu Qonunning 1-moddasida esa Xalq deputatlari Kengashi va hokim davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari oʻrtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni taʼminlashi belgilangan.

Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari turli masalalar yuzasidan oʻzaro munosabatlarga kirishadilar. Ushbu munosabatlar fuqarolar oʻzini oʻzi boshqarish organlarini qoʻl lab-quvvatlash, mahalliy boshqaruvdagi ishtirokini taʼminlash, shuningdek mahalliy hokimiyat organlarini oʻzini oʻzi boshqarishni yoʻn altirishdan iboratligi ayon boʻladi.

“Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari toʻgʻrisida”gi Qonunning 7-moddasiga muvofiq davlat organlari fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi, qonun hujjatlari bilan berilgan vakolatlarni amalga oshirishda ularga koʻmaklashadi. Ushbu moddaga binoan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xususan hukumat va parlament boshqa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining fuqarolar oʻzini oʻzi boshqarish organlari faoliyatiga aralashmasligini taʼminlaydilar. Bunday faoliyat qonunlar va boshqa qonun hujjatlarida, dasturlarda tegishli meʼyorlarni hamda choralarni belgilash, ularning ijrosini taʼminlashdan iborat.

Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida oʻzini oʻzi boshqarish organlari (mahalla)ning oʻrni beqiyosdir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov taʼkidlaganidek, “...oʻzini oʻzi boshqarish organlari - bizning kelajagimiz. Fuqarolik jamiyatini qurmoqchi ekanmiz, uning asoslarini tashkil etuvchi poydevor mana shu organlar boʻladi”¹⁷⁵. Respublikamizda tashkil etilgan oʻz-oʻzini boshqarish tizimi birinchidan, Oʻzbekistonning bozor munosabatlariga oʻtish talablarini hisobga olib amalga oshirilgan boʻl sa, ikkinchidan, shu sohadagi xalqaro miqyosida qabul qilingan huquqiy-meʼyoriy tizimlarga ham mos keladi.

¹⁷³Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 17-сон, 219-модда.

¹⁷⁴ Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 2 сентябрда қабул қилинган “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги 913-ХП-сонли Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 йил, № 9, 320-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил, № 9, 241-модда.

¹⁷⁵Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулдирмиз. Т. 9. Т.: “Ўзбекистон”. Б. 317-318.

Fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad sifatida belgilagan rivojlangan mamlakatlarda ham o'zini-o'zi boshqarish organlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish, mashhur olim Aleksis de Tokvilning talqinicha, "shunday bir siyosiy institutki, u nafaqat siyosatchilar uchun, balki, umuman barcha fuqarolar uchun bir maktabdir. Bu institutga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar yuksak-ki, u fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. O'zini o'zi boshqarish organlari siyosiy madaniyat elementlarini shakllantirishning ham beqiyos omilidir. Oxir oqibatda bu organlar faoliyati siyosiy tizimning bir butun barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlab beradi. Millat jamoaviy institutlarsiz ham erkin hukumat shakllantirishi mumkin. Lekin u erkinlikning haqiqiy ruhiyatiga ega bo'la olmaydi".

XX asrning ikkinchi yarmida "umumiy farovonlik davlati" nazariyasi bilan bog'liq holda munitsipal (o'zini o'zi boshqarishga doir) konsepsiya ham paydo bo'ldi. Munitsipalitetlar jamiyatning barcha tabaqalari manfaatlarini ta'minlovchi va himoyalovchi ijtimoiy xizmat ko'rsatish vositasi sifatida qaraldi. Yevropa, Shimoliy Amerika va Yaponiya kabi mamlakatlarda munitsipal kengashlar maqomi huquqiy jihatdan munitsipal ijroiya boshqaruvidan yuqori qo'yilgan bo'lib, ularning vakolatiga quyidagilar kiradi: mahalliy byudjetni qabul qilish, yuqori tashkilotlar tomonidan hal qilinmagan ayrim masalalar bo'yicha me'yoriy qarorlar qabul qilish, mahalliy soliqlarni joriy etish, qarzlarni olish va ularni ishlatish masalalarini hal etish, munitsipalitetga qarashli mulkni tasarruf etish, shuningdek, ko'pchilik davlatlarda munitsipalitetning ijroiya rahbarlik organlarini tashkil etish va ularni nazorat qilish, mahalliy referendumlarni uyushtirish AQSH ijtimoiy-siyosiy hayotida ham munitsipalitetlar muhim o'rin egallaydi. Chunki, bu mamlakatda munitsipal boshqaruv funksiyalarini nomarkazlashtirish prinsipi keng qo'llaniladi. Munitsipal maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, sanitariya ishlari, suv bilan ta'minlash, parklar, yong'inga qarshi xizmatlarni boshqarish asosan munitsipal kengashlar tasarrufidadir. Ayrim mamlakatlarda (masalan, Germaniyada) kengashlar o'z vakolatlarini ijroiya organlarga berish huquqiga ham egadirlar.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda e'lon qilingan "kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili davlat organlarining vakolatlarini asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich fuqarolik jamiyatiga o'tkazishni taqozo etadi.

Ta'kidlash lozimki, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida XX asrning 50-yillaridan boshlab davlat boshqaruvining nomarkazlashuvi jarayonlari boshlanishi natijasida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari paydo bo'lib boshladi va ular jamiyatning asosiy boshqaruv institutlaridan biriga aylandi. Inglizcha "municipal" so'zi "o'zi o'zi boshqarish" ma'nosini anglatadi.

1985 yil 15 oktyabrda Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi Yevropa Xartiyasi"ning 3-moddasida "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish" tushunchasi to'g'risida quyidagicha ta'rif berilgan: "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish deganda, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z mas'uliyatiga, mahalliy aholi manfaatlarini asosida, qonunlar doirasida uning davlat ishlarining aksariyat qismini boshqarishi va uni real uddalay olish qobiliyatiga aytiladi. Bu huquqlar erkin, yashirin, teng, to'g'ridan-to'g'ri umumiy saylovlarda saylangan a'zolaridan iborat kengashlar yoki majlislar tomonidan amalga oshiriladi. Kengashlar yoki majlislar o'zlariga hisobot berib boruvchi ijroiya organlariga ega bo'lib ishlari mumkin. Bu qoidalar fuqarolar majlislariga, referendumlarga yoki fuqarolar to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishning qonun yo'l qo'ygan boshqa shakllariga murojaat etishni istisno etmaydi"¹⁷⁶.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish - bu u yoki bu ma'muriy-hududiy birliklarda aholi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylangan va ularning siyosiy vakolatlarini ifodalovchi organlar va shu organlarning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlar va masalalarni boshqarish va hal qilishdir.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarishning demokratik tamoyillari quyidagilardan iborat:

¹⁷⁶ Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. –Т, 2010. –Б.192.

1. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarning fuqarolar tomonidan to'g'ridan- to'g'ri saylanishi;

2. ma'lum hududda o'zini o'zi boshqaruvning nisbatan mustaqilligi.

“Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari” iborasi O'zbekistonning huquqiy normativ hujjatlarida ko'pincha “fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari” deb yuritilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari haqida quyidagicha belgilangan: “Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'l ib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi”¹⁷⁷. Ya'ni, mamlakatimizda shaharcha, posyolka, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari sifatida huquqiy maqomga egalar. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartishga ko'ra, 2019 yil may oyida o'tkaziladigan saylovlarda endilikda o'zini o'zi boshqarish organlarini rais (oqsoqol) va uning maslahatchilari uch yil muddatga saylanadilar.

Konstitutsiyaviy asosdan kelib chiqib, 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi (yangi tahriri) Qonunning 1-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tushunchasi quyidagicha ta'riflandi: “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi-fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy hususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir”. Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi tushunchasi va uning huquqiy maqomlari rivojlantirildi va ular ilg'or demokratik mamlakatlardagi huquqiy mezonlar darajasida ifodalana boshlandi.

O'tgan davr mobaynida ham mamlakatimiz prezidenti tomonidan fuqarolik jamiyati institutlari xususan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish masalasiga doimiy kun tartibidagi dolzarb masalalardan biri sifatida qaralib, soha faoliyatidagi yangi yo'n alish va muhim vazifalar ko'lami belgilab berildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda bo'l ib o'tgan qo'shma yig'ilishida yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da oltita asosiy yo'n alish orasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga alohida urg'u berildi.

Konsepsiyada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lami kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi qayd etilib, bu vazifani hal qilishda uchta asosiy masala ko'rsatib berildi. Bular:

I. Aholini manzilli ijtimoiy qo'l lab-quvvatlashni amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish.

II. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazorati sohasidagi funksiyalarini yanada kengaytirish.

III. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini xususiy tadbirkorlik, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish markaziga aylantirish.

Konsepsiyasi ijrosi yuzasidan 2013 yil 22 aprelda “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi hamda “Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida”gi Qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi.

¹⁷⁷ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. –Б.60.

Yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunda fuqarolar yig'inlariga tegishli hududdagi tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi hamda kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha vakolatlar berish nazarda tutildi.

Bundan tashqari, Qonunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini xususiy tadbirkorlik, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish markaziga aylantirish maqsadida ushbu sohani rivojlantirishga ko'maklashuvchi maslahat markazlarini tashkil etish mumkinligi belgilab berildi. Fuqarolar yig'ini ushbu maslahat markazi faoliyatini yo'l ga qo'yish orqali hududidagi tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilmoqchi bo'lgan fuqarolar uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etishi, shuningdek tadbirkorlik faoliyati subyektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va preferensiyalar haqida ma'lumot berishi, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda yoshlarning tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ishga joylashishiga, ularning ushbu korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga, shuningdek hunarmandlarga biriktirilishiga ko'maklashishi nazarda tutilgan.

Yangi tahrirdagi Qonunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo'l lab-quvvatlash borasidagi vazifalari yanada chuqurlashtirilib, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda ijtimoiy qo'l lab-quvvatlashga muhtoj kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni aniqlash, fuqarolarning bandligiga ko'maklashishi haqidagi normalar kiritildi.

Shuningdek, ushbu qonun bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'z hududida tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha vakolatlar berilib, ularning shakl va kafolatlari ham nazarda tutilgan. Bundan tashqari, unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tegishli hududda tadbirkorlik, jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida maslahat markazlarini tashkil etishga haqli ekani belgilab qo'yildi. Xususan, uning 17-moddasiga binoan maslahat markazlari:

- tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilmoqchi bo'lgan, tegishli hududda yashovchi fuqarolarga iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, tadbirkorlik faoliyati va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari asoslarini o'rgatish bo'yicha qisqa muddatli kurslarni tashkil etadi, shuningdek, ularga tadbirkorlik subyektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyoz va preferensiyalar haqida ma'lumot beradi;

- bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda yoshlarning tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ishga joylashishiga, ularning ushbu korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shuningdek, hunarmandlarga biriktirilishiga ko'maklashadi;

- tegishli hududda yashovchi fuqarolarga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda, jumladan, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlarni tayyorlashda yordam beradi;

- tegishli hududdagi tadbirkorlik subyektlariga, jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik subyektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyoz va preferensiyalardan foydalanishda, tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kredit olish uchun hujjatlarni tayyorlashda ko'maklashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va 2017 yil 8-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari bilan tasdiqlangan konsepsiyalarda respublikamizda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarish va modernizatsiyalash jarayonlarining qonuniy va mintaqaviy davomi sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalari taraqqiyotiga asos bo‘l ib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” siyosiy qurilish dasturining bosh yo‘n alishlaridan biri davlatning bir qator vakolatlarini markazdan mahalliy darajaga ya‘ni mahalliy davlat hokimiyati organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkazib borishdan iborat bo‘l ib, keyingi yillarda bu sohada sezilarli amaliy tadbirlar olib borildi.

Bu jarayonda bevosita fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga ham ko‘plab vakolatlar o‘tkazib borildi. Bu esa amaldagi Qonunni yanada takomillashtirish, fuqarolar yig‘inlariga berilgan vakolatlarni amalga oshirish mexanizmlarini qonun bilan tartibga solish zaruratini keltirib chiqardi.

2. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda mahalla institutining rivojlanishi

Markaziy Osiyoda, eng avvalo, O‘zbekistonda mahalla kabi o‘zini-o‘zi boshqaruvchi ijtimoiy institutning noyob shakli azal-azaldan mavjud bo‘l gan va shu kungacha ham saqlanib qolgan. O‘zbeklar uchun mahalla jamoa tushunchasidan ko‘ra, ko‘proq jamoaviy ahamiyat kasb etadi. Mahalla odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda yahshi qo‘shnichilikni, hurmat va insonparvarlikni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. U fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qiladi, aholining muhtoj qatlamlariga aniq yordam ko‘rsatadi.

“Mahalla” so‘zi arabcha so‘z bo‘l ib, “joy”, “makon” ma‘nolarini anglatadi¹⁷⁸. Mahalla mamlakatimiz hududida qadim zamonlardan xalqning mahalliy boshqaruv shakli sifatida mavjud bo‘l gan. Chunonchi, mahalla haqida Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarlarida ma‘lumotlar keltirilgan.

Sobiq Sovet Ittifoqi davrida mahallaning mazmuni va vazifalari butunlay izdan chiqqan edi. O‘sha davrda mahallalarning vazifalari kommunistik partiyaning mahalliy tashkilotlarini qo‘l lab-quvvatlash, ya‘ni partiyaning joylardagi “ko‘z va qulog‘i” bo‘l ishdan iborat bo‘l gan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda mahallaning tashkiliy, ijtimoiy va huquqiy maqomini mustahkamlash borasida chuqur islohotlar amalga oshirildi. Mahallalarga aholining o‘zini o‘zi boshqaruvining noyob shakli sifatidagi konstitutsiyaviy huquqiy maqom berildi. Bu borada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning sa‘y-harakatlarini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz. Birinchi Prezidentning “Respublika “Mahalla” xayriya jamg‘armasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (1992 yil), “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini qo‘l lab-quvvatlash haqida”gi (1998 yil), “Aholini aniq yo‘n altirilgan ijtimoiy madad bilan ta‘minlashda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari rolini oshirish to‘g‘risida”gi (1999 yil) Farmonlari, shuningndek, kam ta‘minlangan va ko‘p bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qator me‘yoriy hujjatlarning e‘lon qilinganligi buning isbotidir.

Birinchi Prezident Islom Karimov mahallalar to‘g‘risida quyidagi fikrni bildirgan: “Ma‘lumki, asrlar mobaynida mahallalarda ko‘pdan-ko‘p hayotiy muammolar o‘z yechimini

¹⁷⁸ Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғат. –Т.,2006. –Б.188.

topib keladi. To'y-ma'rakalar ham, hayitu hasharlar ham mahalla ahlisiz o'tmaydi. Mahallalarda siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi. Bu esa xalqimizning turmush tarzi, ota-bobolarimizdan bizga meros bo'l ib kelayotgan tafakkur tarzidir. Binobarin, hayotning o'zi mahallalarni rivojlantirish va ularni qo'l lab-quvvatlashni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ko'p qirrali islohotlar amalga oshayotgan bir paytda mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'l ib xizmat qilishi lozim"¹⁷⁹.

Hozirgi kunda mahallalarda qariyalar, faxriylar, yetimlar, baynalmilal- harbiylar, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar manfaatlarini himoya qilish, insonning ma'naviy yuksalishi va amaliy tashabbuslarining namoyon bo'l ishi uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'l lab- quvvatlash kabi xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, mahallalar o'z hududlarida ekologik muammolarni yechish, aholining moddiy ahvolini yaxshilash, hashar yo'l i bilan mahalla hududini tozalash, aholini ko'kalamzorlashtirish ishlariga jalb qilish, aholi o'rtasida atrof-muhitni asrash yuzasidan tushuntirish va tarbiyaviy ishlar olib borishga mas'uldirlar.

Mahallalar siyosiy qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini faollashtiradigan muhim vosita bo'l ib xizmat qilmoqdalar. Chunonchi, hozirgi kunda:

- mahalla fuqarolar yig'inlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar o'tkazuvchi uchastka saylov komissiyalari a'zoligiga nomzodlarni tavsiya etib, ularni tasdiqlash uchun okrug saylov komissiyalariga yuborish huquqi berilgan;

- mahalla fuqaro yig'inlariga xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi deputatligiga to'g'ridan-to'g'ri nomzod ko'rsatish vakolati berilgan;

- umumxalq referendumlar o'tkazish va unga tayyorgarlik ko'rish masalalari, birinchi navbatda, mahalla ahli va faollari tomonidan muhokama qilinmoqda va hokazo.

Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi, uning viloyat, shahar, tuman bo'l imlari bilan hokimliklar hamkorligida har yili "Eng yaxshi mahalla", "Eng ibratli oqsoqol", "Mahalla jonkuyari", "Eng tadbirkor mahalla oqsoqoli kabi ko'rik-tanlovlar o'tkazib kelinmoqda.

Mahallalarning demokratik jamiyatning asosi sifatidagi o'rni yildan-yilga yuksalib, mamlakatimiz aholisining mahalla haqidagi fikrlari ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazining 2003 yil yanvarda o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomalarida "Mahalla oiladagi ichki muammolarni hal qila oladimi?", degan savol berilgan. Unda so'ralgan fuqarolarning 63,1 foizi ijobiy javob berganlar. Shu bilan birga, so'ralganlarning 82,5 foizi mahalla yig'inining qo'n i-qo'shnilar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishiga, 84,4 foizi esa to'y, ma'raka, dafn va boshqa marosimlarni tashkil eta olishiga ishonishlarini bildirishgan¹⁸⁰.

2003 yili mamlakatimizda "Obod mahalla yili" deb e'lon qilingan edi. Shu sababli, mustaqillik yillarida mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma'naviy ahamiyatga ega bo'l gan ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'l ib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko'l amli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Shu bois "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun 1999 yil 14 aprelda yangi tahrirda qabul qilindi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli)ni saylash jarayoni ham fuqarolar yig'ini faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy omillaridan biri hisoblanib, ushbu jarayonni yanada tartibli o'tkazish, uning aniq me'yorlarini joriy qilish maqsadida 2004 yil 29 aprelda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur

¹⁷⁹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир 3-жилд.-Т., 1996. –Б.10.

¹⁸⁰ Мамадалиев Ш.О. ва б. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. ИИВ тизимидаги ОТМлар учун дарслик. –Т.: ЎзР ИИВ Академияси, 2011. –Б.85.

Qonun bilan fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovining asosiy prinsiplari, saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish tartib qoidalari hamda nomzodlarga qo'yiladigan talablar ko'rsatib o'tildi.

Yangi tahrirdagi Qonunning yana bir e'tiborli jihati - fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'n alishlari bo'yicha komissiyalarini tuzishning yagona amaliyotini joriy qilinganligidir. Chunki, ilgari fuqarolar yig'inlarida sakkiztadan o'n beshtagacha komissiyalar faoliyat yuritayotgan bo'l ib, ularga uslubiy-metodik yordam ko'rsatish hamda faoliyatini muvofiqlashtirishda bir qator noqulayliklar mavjud edi.

Mazkur Qonunning 18-moddasida fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'n alishlari bo'yicha 8 ta komissiyalar tuzilishi belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, tegishli hududdagi muammolarning dolzarbligiga qarab, fuqarolar yig'ini tomonidan fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'n alishlari bo'yicha boshqa komissiyalar ham tuzilishi mumkin.

Ushbu komissiyalar faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish orqali mahallanig jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 7 oktyabrdagi 274-sonli qarori bilan yuqoridagi komissiyalarning namunaviy Nizomlari tasdiqlab berildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan mazkur Qonun ijrosi doirasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika va hududiy Kengashlarning tashkil etilganligi ham, jamiyat hayotida o'zining mustahkam o'rniga ega bo'l ib borayotgan mahalla institutining rivojlanishida muhim qadamlardan biri bo'l di.

Chunki, mazkur Kengashlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlarini amalga oshirilishiga ko'maklashish, ular faoliyatidagi muammolarni kompleks o'rganish va tizimli hal qilish yuzasidan aniq asoslangan takliflar hamda ta'sirchan mexanizmlar ishlab chiqish maqsadida tashkil etildi.

O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning zamirida "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan ezgu tamoyil o'z ifodasini topgan. Uning maqsadi hokimiyat vakolatlarining bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyati institutlariga bosqichma-bosqich o'tkazishdan iboratdir. Shubhasiz, bunday chora-tadbirlar tegishli hududda xususiy mulkni rivojlantirish, bu orqali aholini ish bilan ta'minlash, iste'mol bozorini to'l dirish, ijtimoiy infratuzilmani taraqqiy ettirish, odamlarning farovonligini oshirish kabi masalalarni mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan hal etish imkonini beradi.

Hozirgi kunda yurtimizda 10 mingga yaqin fuqarolar yig'inlari tomonidan ilgari mahalliy davlat hokimiyati organlariga taalluqli bo'l gan 30 dan ziyod ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik vazifalar muvaffaqiyatli bajarib kelinmoqda. Amalga oshirilgan keng ko'l aml tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar natijasida mahalla noyob, dunyoda o'xshashi bo'l magan tuzilmaga aylandi, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida faol ishtirok etishi uchun mustahkam zamin yaratildi. Shu bilan birga, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamonaviy talablari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda qadimiy va noyob boshqaruv shakli bo'lgan mahalla institutini har tomonlama rivojlantirishga, uning vakolatlarini yanada kengaytirishga hamda qonunchilik tizimida belgilab berilgan vakolatlardan yanada samarali foydalanishga ko'maklashish borasida olib borilayotgan amaliy taadbirlar natijasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni yanada mustahkamlanib bormoqda.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi fuqarolik jamiyati barpo etishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolar yig'ini tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijroiya hokimiyati rahbarlarining sohaga oid masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitish, fuqarolar yig'inlarining murojaatlari ko'rib chiqilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasa va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish hamda ularning natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilish esa jamoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish komissiyasi faoliyatida o'z ifodasini topadi.

Aytib o'tish joizki, qonunda nazarda tutilgan "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi faoliyatining asosiy maqsadi mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik, xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarda ogohlik va hushyorlikni oshirish, huquq-tartibotni mustahkamlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamkorligidagi ishlarni tizimli tashkil etishga ko'maklashishdan iborat edi. Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, huquqbuzarlikning oldini olishda mahalla posbonlari IIB profilaktika inspektorlarining yaqin ko'makchisiga aylangani uchun ham qonunda ushbu tuzilmaga alohida e'tibor qaratilgan edi.

Lekin bu tuzilma bugungi kunga kelib, o'zini oqlamayotganligi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabr kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida o'tgan davr mobaynida, bugungi kunda nomiga faoliyat ko'rsatayotgan "Mahalla posboni" lavozimini tugatish vaqti kelganligi, uning o'rniga profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi lavozimini joriy etish shartligini, bu lavozimga esa joylarda malakali huquqshunos, masalaga qonun nuqtai nazaridan yondashadigan fidoyi kadrlar ishga olinishi ta'kidlangan¹⁸¹.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi Yarashirish komissiyalarining asosiy vazifalari joylarda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishdan iboratdir. Yarashirish komissiyalari tarkibiga, odatda, quyidagilar kiritiladi:

1. Fuqarolar yig'ini raislari yoki ularning o'rinbosarlari;
2. xotin- qizlar qo'mitasi raisasi;
3. hududdagi militsiya tayanch punkti profilaktika inspektorlari;
4. voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi militsiya inspektorlari;
5. hududdagi maktab direktorlari yoki ularning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, mahallada istiqomat qiluvchi namunali oilalarning boshliqlari;
6. imom - xatiblar;
7. faxriylar va nuroniylar.

Qonunga ko'ra fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, tuman va shahar muvofiqlashtirish kengashlari tuziladi. Ular fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy va huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, normativ-huquqiy hujjatlar monitoringini olib borish, qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlarining amalga oshirilishiga

¹⁸¹ Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. "Ўзбекистон" НМИУ, -Т.: 2019. –Б.48.

ko'maklashish, muammolarni kompleks o'rganish, tizimli hal qilish yuzasidan aniq taklif va mexanizmlarni ishlab chiqadi.

Ayni paytda hozirgi mahallalarda xalq bilan ishlash, uning dardini eshitish, oilaviy kelishmovchiliklar, ishsizlik, mahalla ahlidan tushadigan turli xil arzlarni echish, mahallalar hududlarini gazlashtirish, suv bilan ta'minlashni yo'l ga ko'yish, mahallada maishiy xizmatlarni tashkil etish, mahalladagi to'y va ma'rakalarni ro'yxatga olish, tartibli o'tkazish, ko'kalamzorlashtirish, tozalik - ozodalik oylarini o'tkazib borish kabi vazifalarni amalga oshirib kelmoqda.

3. Mahalla institutini yanada takomillashtirishning asosiy yo'n alishlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgarigidek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o'rin egallaydi, deb ishonamiz. "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz avvalo ana shu ijtimoiy institutlarning kuch va imkoniyatlariga tayanamiz¹⁸². - deb ta'kidlagan edi.

2017 yil 3 fevral kuni qabul qilingan "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni qadriyatlar beshigi sanalmish milliy demokratik institut bo'l ishi mahallalarning rolini yanada kuchaytirish, ularning xalqimiz hayotidagi o'rni va nufuzini yanada oshirish borasida muhim ahamiyatga egadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "qaysi mahallada ish to'g'ri tashkil etilib, fuqarolar bilan yaqin hamkorlik o'rnatilgan bo'l sa, o'sha erda hamjihatlik, mehr-oqibat muhiti hukm surmoqda, noxush holatlarga yo'l qo'yilmayapti". Shu bois mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil va tizimli islohotlarning hozirgi shiddatli bosqichida mahallalarni yanada qo'l lab-quvvatlash va rivojlantirish davr taqozosidir.

Birinchidan, "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni mamlakatimizda adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamonaviy talablari asosida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan.

Ikkinchidan, bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorism, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganidan ko'z yumib bo'l maydi. Bunday keskin va tahlikali sharoitda mahalla-ko'y ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik bilan birgalikda bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishi lozim.

Bunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, yoshlarning oiladagi xulq-atvoridan tortib, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi ta'lim-tarbiyani ham qamrab olgan holda, izchil jamoatchilik nazoratini olib bormog'i talab qilinadi. Shu bois farmonda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining yoshlarning ma'naviy va jismoniy kamoloti yo'l ida davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini yanada mustahkamlashiga yo'n altirilgan masalalar o'z aksini topdi.

Uchinchidan, farmonda fuqarolar yig'inlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga doir amaliy choralar ham belgilangan. Ya'ni fuqarolar o'zini o'zi boshqarish

¹⁸² Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Халқ сўзи газетаси. 9.12.2016.

organlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalar sport maydonchalari, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish maqsadida 2017 - 2021 yillarga mo'ljallangan hududiy dasturlar ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Mahallalar kesimida, chuqur tahlil asosida, har bir hududning o'ziga xos xususiyat va imkoniyatlari, talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tayyorlanadigan ushbu dasturlarning joylarda to'la aqonli bajarilishi mahallalarning har tomonlama obod va farovon bo'lishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, keyingi besh yilda fuqarolar yig'inlarining 1600 ga yaqin xizmat binolari joriy, 367 tasi kapital ta'mirlandi va 350 dan ortig'i rekonstruktsiya qilindi, namunaviy loyihalar asosida 216 ta bino yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi. Farmonda ko'rsatilganidek, 2018 yilning 1 dekabriga qadar tumanlar va shaharlar markazlarida "Mahalla markazi" majmualari binolarining namunaviy loyihalar asosida barpo etilishi bu kabi muammolarning yechim topishiga olib keldi.

To'rtinchidan, farmonda mahalla fuqarolar yig'inlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo'yicha mustaqilligini ta'minlash, o'zini o'zi boshqarish tizimida ortiqcha bo'g'inlardan voz kechish maqsadida - tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'inlarini mahalla fuqarolar yig'inlariga birlashtirish va bo'li ish yo'li bilan qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, mahallalardagi tinch va osoyishta hayotni ta'minlash, oilalarni mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'rish, yetimlar va yolg'iz qolgan fuqarolarga mehr-muruvvat ko'rsatish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishga doir intilishlarini qondirish kabi serqirra jamoaviy boshqaruv ham mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyatining asosiy yo'nalishini tashkil etmoqda. Lekin, shu bilan birga o'zini o'zi boshqarish organlarini demokratlashtirish jarayonlari hali davom etadi. Ayniqsa, aholining huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish, siyosiy qarorlar qabul qilishda mahallalarning o'rnini yuksaltirish, mahallalarni mahalliy davlat hokimiyati organlaridan to'la mustaqil bo'lishini ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlar yaratish, fuqarolarni mahallalar vositasida qonunlar ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlaridagi umumhalq muhokamalarida faol ishtirok etishlarini ta'minlash yaqin istiqboldagi islohotlarning asosiy vazifasidir.

Mustaqillik yillarida yurtimizda yosh avlodning har jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun kerakli imkoniyatlar yaratilib, ko'pgina xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Onalik va bolalikning ijtimoiy muhofazasi, sog'lom oila muhitini, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, bolalarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, ularni sportga, qo'shimcha ta'limga jalb etish, sog'lomlashtirish va profilaktika, kasbga yo'naltirish, har taraflama uyg'un rivojlangan yetuk shaxsni tarbiyalash borasidagi sa'y-harakatlar e'tiborga molikdir.

Har qanday davlatning taqdiri, kelajagi yosh avlodga, uning ma'naviy, jismoniy, kamolotiga bog'liq. Jismonan baquvvat, imon e'tiqodli, bilimli, ma'naviyati yuksak, vatanparvar, barkamol avlod - jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligi ko'z oldimizda gavdalanadi. Bunday komil yoshlar tarbiya maskani bo'lish mahallada ulg'ayadi.

Mahalla qadim-qadimdan ezgulik beshigi, tarbiya o'chog'i, yashash tarzi, milliy udumlar, urf-odat va an'analar shakllangan maskan bo'lib kelgan. Insonlarning bir biriga mehr-oqibatli, muruvvatli, saxovatli bo'lishida va o'ziga xos jamoani shakllantirishda mahallalar juda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Oila, mahalla, ta'lim muassasasi" hamkorligi mexanizmini kuchaytirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar majmuasida "Oila, mahalla, ta'lim muassasasi" jamoat kengashlarini shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etish, o'quvchi-yoshlar o'rtasida g'ayriijtimoiy harakatlarning vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish, ularni bartaraf etish,

barkamol avlodni tar-biya-lashga doir ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirish va ularni mazmunan yanada takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro'yobga chiqarish, ularning

moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida:

1. Quyidagilar mahalla institutini yanada takomillashtirishning *ustuvor yo'n alishlari* etib belgilandi:

- fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakkam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish;

- jamiyatimizda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish;

- yoshlarni ma'naviy boy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta'minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'l lab-quvvatlash borasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

- jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo'l lash amaliyotini ta'minlash.

O'z-o'zini boshqarish organlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar:

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashiga (keyingi o'rinlarda Respublika kengashi deb ataladi) yuridik shaxs maqomini bergan holda uni fuqarolar yig'inlarining uyushmasi shaklida tashkil etish;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy kengashlarni (keyingi o'rinlarda hududiy kengashlar deb ataladi) Respublika kengashining tarkibiy tuzilmalari sifatida tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlariga tegishincha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilish vazifasini yuklash;

- respublika kengashi va hududiy kengashlar raislarining birinchi o'rinbosarlari bir vaqtning o'zida O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondining (keyingi o'rinlarda "Mahalla" fondi deb ataladi) tegishincha respublika boshqaruvi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'l imlari, tumanlar va shaharlar bo'l inmalariga raislik qilishlari;

- respublika kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari, shuningdek Respublika kengashi hamda hududiy kengashlarda yoshlar ishlari, diniy-ma'rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha rais o'rinbosarlari lavozimlarini joriy etish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari - yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimini kiritish.

Shuningdek:

“Mahalla” fondi va fuqarolar yig'inlarining taklifiga binoan Respublika kengashi, hududiy kengashlar ijro apparatlari “Mahalla” fondining tegishincha respublika boshqaruvi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'l imlari, tumanlar va shaharlar bo'l inmalari, shuningdek shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'inlarining qayta tashkil etilishi munosabati bilan bo'shaydigan shtat birliklari hisobidan shakllantiriladi;

Respublika kengashi, hududiy kengashlar ijro apparatlarining shtatdagi xodimlarini ta'minlash va moddiy rag'batlantirish “Mahalla” fondi hisobidan amalga oshiriladi, ushbu maqsadlarga yo'n altiriladigan mablag'g'larning etmagan qismi esa O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan qoplanadi;

Respublika kengashi, hududiy kengashlar raislarining birinchi o'rinbosarlari va o'rinbosarlari lavozimlarida ishlovchi pensionerlarga pensiyalarni to'l a miqdorda to'l ash, bunda pensiyalarni to'l ash bilan bog'liq xarajatlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan qoplash tartibi joriy etiladi;

Respublika kengashi raisining birinchi o'rinbosari maqomi, maishiy ta'minoti, tibbiy va transport xizmatidan foydalanish borasidagi shart-sharoitlariga ko'ra - vazirga, Respublika kengashi raisining o'rinbosari - vazir o'rinbosariga tenglashtiriladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga tegishli vazifalarni amalga oshirishda munosib hissa qo'shgan tashabbuskor fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillariga taqdim etiladigan “Mahalla iftixori” ko'krak nishoni ta'sis etiladi.

Mustaqillik yillarida mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma'naviy ahamiyatga ega bo'l gan ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'l ib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko'l amli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni samarali hal qilishdagi rolini oshirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqini ro'yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Xususan, Farmonda mahalla institutini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'n alishlari etib quyidagilar belgilandi:

- fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni va rolini yanada kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakkam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish;

- jamiyatimizda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish;

- yoshlarni ma'naviy boy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta'minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'l lab-quvvatlash borasida fuqarolar o'zini o'zi

boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash;

- jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlashda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo‘l lash amaliyotini ta‘minlash.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashiga yuridik shaxs maqomini bergan holda uni fuqarolar yig‘inlarining uyushmasi shaklida tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlarda tuzilgan kengashlarni esa Respublika kengashining tarkibiy tuzilmalari sifatida tashkil etish belgilandi.

Kengashlarning nufuzi va maqomini oshirish, joylarda aholi tomonidan ko‘tarilayotgan masalalarni ijro hokimiyati organlarining rahbarlari e‘tiboriga yetkazish va mazkur masalalarni hal etish bo‘yicha ularning bevosita ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar va shaharlar hokimlari zimmasiga tegishincha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilish vazifasi yuklatildi.

Kengashlar zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali ta‘minlash, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish bo‘yicha ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida Respublika kengashi va hududiy kengashlar raislarining birinchi o‘rinbosarlari bir vaqtning o‘zida “Mahalla” fondining tegishincha respublika boshqaruvi hamda hududiy bo‘l im va bo‘l inmalariga raislik qilishlari haqidagi tashabbus qo‘l lab-quvvatlandi.

Shuningdek, Farmonda yoshlarni ona Vatanga muhabbat, xalqimizning ko‘p asrlik an‘analariga hurmat ruhida tarbiyalash, mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash, keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligini qo‘l lab-quvvatlash borasida joylarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida Respublika kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo‘yicha rais o‘rinbosari, shuningdek Respublika kengashi hamda hududiy kengashlarda yoshlar ishlari, diniy-ma‘rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo‘yicha rais o‘rinbosarlari lavozimlarini, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida esa jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan mahalla fuqarolar yig‘ini raisining o‘rinbosari - yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchi lavozimini joriy etish nazarda tutildi.

Bundan tashqari, ijtimoiy muhim masalalarni hal etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida kengashlar kollegial organlari tarkibiga tegishincha davlat hokimiyati vakillik organlari vakillari, moliya, ichki ishlar, mehnat, xalq ta‘limi, sog‘liqni saqlash vazirliklari, Yoshlar ittifoqi, “Nuroniy” jamg‘armasi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar hamda ularning hududiy tuzilmalari rahbar xodimlarini kiritish mo‘l jallanmoqda.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta‘minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashi tarkibiga fuqarolar

yig'ini raisining o'rinbosarlarini (fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilarini), hududdagi profilaktika inspektorlarini, ta'lim muassasalari va qishloq vrachlik punktlari (oilaviy poliklinikalar) rahbarlarini kiritish va ularning o'z faoliyati yuzasidan yilning har choragida fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ga hisobot taqdim qilishlari amaliyotini joriy etish belgilab qo'yildi.

Qayd etilgan asosiy vazifalar va yangi normalarni hayotga tatbiq etish uchun Farmon bilan kengashlar faoliyatini yanada takomillashtirish hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'l lab-quvvatlash borasida 37 ta aniq tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan Kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Farmonni ijro etish doirasida "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi, "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari va bir qator boshqa qonun hujjatlariga zarur o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Shuningdek, mutasaddi vazirlik, idora va tashkilotlar zimmasiga fuqarolar yig'inlarining bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari hamda moliya va sog'liqni saqlash organlari bilan o'zaro hamkorligini nazarda tutadigan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish vazifasi yuklandi.

Bundan tashqari, mahalla fuqarolar yig'inlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo'yicha mustaqilligini ta'minlash, o'zini o'zi boshqarish tizimida ortiqcha bo'g'inlardan voz kechish maqsadida tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'inlarini mahalla fuqarolar yig'inlariga birlashtirish va bo'l ish yo'l i bilan qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalar sport maydonchalari, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish maqsadida 2017 - 2021 yillarga mo'l jallangan hududiy dasturlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, 2018 yilning 1 dekabriga qadar tumanlar va shaharlar markazlarida "Mahalla markazi" majmualari binolarini namunaviy loyihalar asosida barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarning amalga oshirilishiga munosib hissa qo'shgan tashabbuskor fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillariga taqdim etiladigan "Mahalla iftixori" ko'krak nishonini ta'sis etish nazarda tutilmoqda.

Farmonda hamda u bilan tasdiqlangan Kompleks chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasidagi vazifalarni samarali bajarish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Mahalla ming yillar davomida shakllangan, xalqimizning o'ziga xos qiyofasini ko'rsatib turadigan noyob ijtimoiy tuzilma. Bir-biriga mehr-oqibat ko'rsatib yashash, yaxshi va yomon kunlarda birga yelkadosh bo'l ish singari insonga xos fazilatlar aynan mahallada tarkib topadi.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri bo'l gan mahalla instituti haqida gap ketganda aytilish mumkinki, qadim-qadimdan xalqimizning milliy turmush va tafakkur tarziga aylanib ketgan jamoa bo'l ib, bir mahalla bo'l ib yashash tuyg'usi ijtimoiy hayotning ham uzviy qismi sifatida katta bir ma'naviy qadriyat deb qaralgan. Birgina to'ylarimizni olib qarang. Mahallada bir kishi to'y qiladi, mehmonlarni butun mahalladoshlar kutib oladi, mehmon qiladi, kuzatib qo'yadi. Yoki uzoqdan to'yga kelgan mehmonlar uchun mahalladoshlar qo'n oq

tayyorlaydi. Ming yillardan buyon an'ana tusini olib kelayotgan milliy qadriyatimiz - hasharga e'tibor qarating. U asosan mahallalarda o'tkaziladi. Bir qarashda oddiy tadbir bo'l ib ko'ringan hashar, odamlarni birdamlikka, hamjihatlikka chorlovchi va ana shu ahillikning hosilasi nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini anglatib turuvchi o'zimizga xos ajoyib an'ana, aslida. Buning zamirida bir yoqadan bosh chiqarish, bir-birini qo'l lab-quvvatlash, bir-biriga yordam berish singari xalqimizga xos ulug' fazilatlar yotadi. Xullas, mahalla o'zbekona yashashning hayotiy in'ikosidir.

Albatta, bu vazifalarning mas'uliyati va zalvori nechog'lik yuqori bo'l masin, mahalla instituti vakillari oilalar, keksalar, yoshlar bilan ishlashda, tadbirkorlikni rivojlantirishda asosiy kuch bo'l ib maydonga chiqdi.

Prezident farmonida belgilanganidek, O'zbekiston taraqqiyotining navbatdagi bosqichida ham "fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro'yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida" qabul qilindi.

Alohida ta'kidlash kerak, ezgu qadriyatlar va milliy an'analar beshigi bo'l gan mahalla tarbiya o'chog'i sifatida qaraladi. Mahalla shunday noyob va ta'sirchan, bugun ko'plab xorijiy mamlakatlarning ekspertlari tomonidan ham munosib e'tirof etilayotgan ijtimoiy boshqaruv usuli tizimidir. Ayni paytda mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda mahalla tayanch va ta'sirchan kuch bo'l ib xizmat qilmoqda.

Ko'p ming yillik tarixga ega xalqimizning turmush va tafakkur tarzini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashda bu maskanning o'rni va ahamiyati katta. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'n g, mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma'naviy ahamiyatga ega bo'l gan ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Va bu tizimli ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Prezidentimizning "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu yo'l da juda muhim huquqiy hujjat bo'l di.

Mazkur farmonning nihoyatda muhim jihatlaridan biri shundaki, unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashiga yuridik shaxs maqomini bergan holda uni fuqarolar yig'inlarining uyushmasi shaklida tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlarda tuzilgan kengashlarni esa Respublika kengashining tarkibiy tuzilmalari sifatida tashkil etish belgilandi.

Kengashlarning nufuzi va maqomini oshirish, joylarda aholi tomonidan ko'tarilayotgan masalalarni ijro hokimiyati organlarining rahbarlari e'tiboriga etkazish va mazkur masalalarni hal etish bo'yicha ularning bevosita ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar va shaharlar hokimlari zimmasiga tegishlicha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilish vazifasi yuklatildi.

Kengashlar zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali ta'minlash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida Respublika kengashi va hududiy kengashlar raislarining

birinchi o‘rinbosarlari bir vaqtning o‘zida “Mahalla” fondining tegishli Respublika boshqaruvi hamda hududiy bo‘l im va bo‘l inmalariga raislik qilishlari belgilab qo‘yildi.

Farmonda ijtimoiy muhim masalalarni hal etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida kengashlar kollegial organlari tarkibiga tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mutasaddilari, jumladan, moliya, ichki ishlar, mehnat, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash vazirliklari, Yoshlar Ittifoqi tashkiloti, “Nuroni” jamg‘armasi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar hamda ularning hududiy tuzilmalari rahbar xodimlarini kiritish mo‘l jallanmoqda.

Qolaversa, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta’minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashi tarkibiga fuqarolar yig‘ini raisining o‘rinbosarlarini (fuqarolar yig‘ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchilarini), hududdagi profilaktika inspektorlarini, ta’lim muassasalari va qishloq vrachlik punktlari (oilaviy poliklinikalar) rahbarlarini kiritish va ularning o‘z faoliyati yuzasidan yilning har choragida fuqarolar yig‘ini (fuqarolar vakillarining yig‘ilishi)ga hisobot taqdim qilishlari amaliyotini joriy etish ham belgilab qo‘yildi.

Farmon bilan kengashlar faoliyatini yanada takomillashtirish hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini qo‘llab-quvvatlash borasida 37 ta aniq tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi esa bu boradagi ishlarni aniq va puxta tashkil etishga zamin yaratadi.

Konsepsiyadagi taklif asosida 2013 yil aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonuniga yangi qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritildi. Jumladan:

- aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari rolini oshirishga doir yangi normalar o‘z ifodasini topdi;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazorati sohasidagi funksiyalarini yanada kengaytirish bilan bog‘liq yangi moddalar kiritildi. Shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga tegishli hududdagi tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalaridan tomonidan kommunal xizmatlar ko‘rsatish sifati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo‘yicha yangi vakolatlar ega bo‘l di;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini xususiy tadbirkorlik, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandlikni rivojlantirish markaziga aylantirishni ta’minlaydigan yangi huquqiy asoslar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ko‘rsatmasi bilan mahalla faollari idorasi va militsiya tayanch punkti bir binoda joylashtiriladigan bo‘l di. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 19 apreldagi 180-son qaroriga asosan “Mahalla posboni” jamoat tuzilmalari to‘g‘risida va Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi Yarashtirish komissiyalari to‘g‘risida” nizomlar qabul qilindi¹⁸³.

“Mahalla posboni” jamoat tuzilmasini tashkil etishdan asosiy maqsad mahallalarda osoyishtalikni ta’minlash, huquq-tartibotni mustahkamlashda davlat idoralari bilan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining hamkorlikda ish olib borishlariga erishishdir.

Lekin bu tuzilma bugungi kunga kelib, o‘zini oqlamayotganligi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabr kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida o‘tgan davr mobaynida, bugungi kunda nomiga faoliyat ko‘rsatayotgan “Mahalla posboni” lavozimini tugatish vaqti kelganligi, uning o‘rniga profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchisi lavozimini joriy etish shartligini, bu lavozimga esa joylarda malakali

huquqshunos, masalaga qonun nuqtai nazaridan yondashadigan fidoyi kadrlar ishga olinishi ta'kidlangan¹⁸⁴.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi Yarastirish komissiyalarining asosiy vazifalari joylarda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishdan iboratdir. Yarastirish komissiyalari tarkibiga, odatda, quyidagilar kiritiladi:

1. Fuqarolar yig'ini raislari yoki ularning o'rinbosarlari;
2. xotin- qizlan qo'mitasi raisasi;
3. hududdagi militsiya tayanch punkti profilaktika inspektorlari;
4. voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi militsiya inspektorlari;
5. hududdagi maktab direktorlari yoki ularning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, mahallada istiqomat qiluvchi namunali oilalarning boshliqlari;
6. imom - xatiblar;
7. faxriylar va nuroniylar.

2019 yil 2 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi muammolarini hal etishda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlarini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonini qabul qilinishi mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada isloh etish va demokratlashtirish, ularni vakolatlarini oshirilishi, davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, asosiysi, fuqarolik jamiyati qurishda aholini ishonchini qozonadigan eng asosiy institut bo'lishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi"ga binoan mahalliy hokimiyat organlariga quydagi vakolatlar berildi:

- Viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari kengashi va partiya guruhlariga mahalliy ijroiya hokimiyatini nazorat qilishga oid yangi vakolatlar berildi.
- tuman va viloyatda rahbar kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishga doir vakolatlar Prezident devonidan viloyat hokimliklariga, viloyat hokimliklaridan tuman va shahar hokimliklariga o'tkaziladi.
- hududdagi fuqarolarga (elektoratga) hokimlarni to'g'ridan-to'g'ri saylash huquqi beriladi.
- mahalla va boshqa o'zini-o'zi boshqarish organlariga mustaqil ravishda o'z hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish vakolatlari beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning taklifi bilan 2020-yildan e'tiboran mamlakatimizda *Mahalla va oilani qo'l lab-quvvatlash vazirligi* tashkil etildi.

Prezidentimizning 2020 yil 29 dekabr kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari sohasida quyidagilar belgilandi:

Mahalliy ijro organlari, vakillik idoralari hamda mahallaning institutsional asoslarini yanada takomillashtirish lozim.

Mahalliy hokimlik va kengashlar bundan 27 yil avval, ya'ni, hokimlik instituti joriy etilgan dastlabki paytda qabul qilingan Qonun asosida ishlamoqda. Bu hujjat bugungi islohotlarimiz talablariga mutlaqo javob bermasligini hisobga olib, uni tubdan yangilash zarur.

Islohotlarimiz natijalari, bo'l ayotgan o'zgarishlar va aholining kayfiyati avvalo mahallada seziladi. Shu ma'noda, "**Mahalla – jamiyatimizning yorug' yuzi va vijdoni ko'zgusi**", desak, to'g'ri bo'l adi. Shuning uchun barcha darajadagi rahbarlar pastga tushib, o'z sohasi bo'yicha mahallalardagi muammolarni o'rganishi va ularga echim topishi, odamlar sezadigan natijani ta'minlashi shart.

¹⁸⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. XXI аср газетасининг 2018 йил 29 декабрдаги № 52 (790) – сони.

Bundan buyon mahalladagi ishlarning ahvoli vazirlik, idoralar va hokimliklar ishini baholashda bosh mezon bo'lib qoladi.

Shuningdek, mahallaning nufuzini, uning resurs va imkoniyatlarini oshirish, xodimlarining moddiy ta'minotini yaxshilash bo'yicha dastur ishlab chiqish zarur.

Joriy yilda tumanlar byudjetiga qo'shimcha manbalarning kamida 10 foizini bevosita mahalladagi muammolarni hal etishga sarflash bo'yicha ishlarni boshlab, bu maqsadlarga 70 milliard so'm ajratildi. Endi bu vakolatni yanada kengaytirib, tuman byudjeti xarajatlarining 5 foizini ham ana shunday maqsadlarga yo'naltirish bo'yicha yangi tartib joriy etiladi.

Buning natijasida bu yangi eksperiment orqali birgina G'ijduvon tumanida 8 milliard so'm yoki Farg'ona shahrida 11 milliard so'm mablag' aynan aholi dolzarb deb hisoblaydigan muammolarni hal etish uchun sarflanadi.

Mahalla raisi va uning o'rinbosarlari vakolatlarini kengaytirib, ularga aholi muammolarini bevosita hal qilish imkonini yaratishimiz kerak. Bunda mahalla raisiga mahalliy kengash majlisida ko'rilishi majburiy bo'lgan masalalarni kiritish huquqini berish lozim. Bu orqali muammolarni tezkor hal qilishga erishish imkoniyati yaratiladi.

Mahallada ishlayotgan malakali va tashabbuskor kadrlarni davlat idoralari rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Qonunchilik palatasi va Senat, Vazirlar Mahkamasi bilan birga 2021 yil 1 aprelga qadar mahalliy ijro va vakillik organlari hamda mahalla instituti faoliyatini tubdan takomillashtirishga oid yangi qonun loyihalarini ishlab chiqsin. Ushbu hujjatlarda hokimlar, ularning o'rinbosarlari va maslahatchilarining vakolat chegarasi, vazifa va funksiyalari aniq belgilanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, mahalla instituti bugun tom ma'noda fuqarolik jamiyatining alohida o'ziga xos institutiga aylanib bormoqda. Yangi qabul qilinayotgan konsepsiya, qonun va farmonlar faqat xalqimizgagina xos bo'lgan noyob va betakror ijtimoiy tuzilma - mahalla institutining faoliyatini, o'rnini va nufuzini yangi bir bosqichga ko'tarilishida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Fuqarolik jamiyatining instituti sifatida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qanday funksiyalarni bajaradi?

2. Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'zaro munosabatlari qanday yo'naltirilgan amalga oshiriladi?

3. Mustaqillik yillarida o'zini-o'zi boshqarishga doir qonunchilik asoslari qanday rivojlandi?

4. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini rivojlantirishga oid qanday vazifalar belgilangan?

5. Harakatlar strategiyasi doirasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini rivojlantirishga oid qanday vazifalar belgilangan?

6. "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" konsepsiyasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarishiga oid qanday vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan?

2.7/1: MAVZU. JAMOATCHILIK NAZORATI VA IJTIMOIIY SHERIKLIK. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Reja

- 1. Jamoatchilik nazorati tushunchasi va uning genezisi.**
- 2. O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining amaliyoti va huquqiy asoslarining shakllanishi.**
- 3. Ijtimoiy sheriklik tushunchasi va uning ilmiy-nazariy jihatlarini hamda O'zbekistonda bandlikdagi ijtimoiy sheriklikning me'yoriy-huquqiy asoslari.**
- 4. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda "Xavfsiz shahar – xavfsiz mamlakat" konsepsiyasining ahamiyati.**

Tayanch so'zlar: fuqaroviylik, jamoatchilik, jamoatchilik nazorati, jamoatchilik nazorati subyekti, jamoatchilik nazorati obyektini, jamoatchilik nazorati shakllari, jamoatchilik nazorati instituti, elektron xizmat, "elektron hukumat", hokimiyat organlarining shaffofligi.

1. Jamoatchilik nazorati tushunchasi va uning genezisi

Hozirgi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat sharoitida davlat hokimiyati organlarining samarali ishlashi uchun albatta ularni faoliyati jamoatchilik nazorati ostida kechishi lozimligini hozirgi davr rivojlangan davlatlar tajribasi isbotlamoqda. Agar, hozirgi g'arb davlatlari tajribasiga e'tibor bersak, fuqarolik nazoratidan holi bo'lgan davlat hokimiyati organlarining mas'uliyatsizligi aniq seziladi: qonunning ishlashi to'liq ta'minlamaydi, hisobsiz davlat vakolatlaridan chetga chiqadigan va turli kampaniyabozliklarga berilishlar avj oladi, byudjet ijrosini amalga oshirishda chetga chiqishlar ro'y beradi, korruptsiya avj oladi, inson huquq va erkinliklariga amal qilish qiyin kechadi, ularni himoya qilishga unchalik ahamiyat berilmaydi, mansabdorlar boshqaruv faoliyati samarasiz kechadi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish ikkinchi darajali ishga aylanadi, davlat hokimiyati resurslarini boshqarishda subyektivlik avj oladi.

Fuqarolik jamiyati sharoitida jamoatchilik nazorati – bu fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari tomonidan davlat hokimiyati organlarini qonunga amal qilishga majbur etish, ularning o'z vazifalarini mas'uliyat bilan bajarishi va buning oqibati o'laroq jamiyatda malakali va samarali boshqaruvni bajarishga majburlash maqsadida davlat hokimiyati organlari va mahalliy boshqaruv organlari faoliyati ustidan nazorat qilish va tekshirishidir.

Jamoatchilik nazorati – bu jamiyatning alohida fuqarolar shaxsida hamda fuqarolik jamiyati institutlari vositasida davlat hokimiyati organlarining qonunlarni va o'z qarorlarini qo'llash, amalga oshirish, shuningdek bu jarayonlar natijalarini baholash mexanizmidir. Jamoatchilik nazorati – bu fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari – jamoat va nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalarining davlat va mahalliy hokimiyati organlarining qonunga amal qilishlarini ta'minlashga majburlash, o'z vazifasini bajarishida mas'uliyatni his etishi, o'z majburiyatlarini sifatli tarzda bajarishi kabi faoliyatlari ustidan turli shakldagi tekshiruvlarni amalga oshirishidir. Shuningdek, rivojlangan davlatlarda jamoatchilik nazoratini jamiyatda tutgan o'rnini uning qanchalik "transparent" ekanligi, ya'ni shaffoflik darajasi bilan o'laroq chanadi.

Hozirgi davrga xos zamonaviy davlatlarda jamoatchilik nazorati ijroiya va boshqa hokimiyat tarmoqlarini qonunga amal qilishni, o'z huquq va vakolatlarini malakali tarzda bajarishga majburlaydi. Jamoatchilik nazorati kuchsiz bo'lgan holatlar ko'pincha o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan

davlatlarda uchraydi. Albatta, olimlarning tadqiqot natijalarida ko'rsatilishicha, bu kabi holatning asosan uchta sababi mavjud:

birinchidan, hokimiyat faoliyatini shaffoflik (ochiqlik) bilan ro'y berishini ta'minlaydigan mexanizmlarning etishmasligi; Ikkinchidan, hali o'rta sinfning jamoatchilik nazoratining bosh ijtimoiy bazasining tashkil etishga ulgurmagani; uchinchidan, davlat hokimiyati organlari mansabdorlarida va fuqarolarida jamoatchilik nazoratining mohiyati, usullari, uslublari, shakllari, mexanizmlari va vositakurollari to'g'risida zarur bilimlar va tasavvurlarning etishmasligi. Shuning uchun ham Rossiya fuqarolik jamiyatini shakllanishiga shart-sharoitlarni yaxshilash omili sifatida G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlari va AQSh kabi davlatlarning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga doir tajribalarini o'rganishga zarurat tug'iladi. Zero, bu vazifa fuqarolik jamiyatini qurishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. rivojlanishi tajribasini bir necha makolada ochib berish dolzarb masala bo'lib kolmokka.

Ma'lumki, davlat hokimiyati organlari boshqaruvchilari – mansabdorlar davlatning markaziy va mintaqaviy moliyaviy muosabatlarini boshqaradi, er va boshqa resurslarni taqsimlaydi, ommaviy axborot vositalari (OAV) va boshqa jamoat resurslarini nazorat qiladi, jamiyatning turli sohalari bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning qabul qilinishiga o'z ta'sirini o'tkazadi, kadrlarni va xizmachilarni ishga oladi va o'z lavozmidan, mehnat jamoalarini o'z ortidan ergashtiradi, mamlakatni rivojlantirish strategiyasini aniqlashda ishtirok etadi.

Davlat hokimiyati organlari rahbarlari o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakatning milliy manfaatlari bilan aynanlashtirgan taqdirdagina ular boshqaruv tizimining haqiqiy va samarali namoyondaga aylanadi. "Milliy manfaatlar" deganda xalqning xavfsizligi ta'minlash, huquqning, qonun ijrosini ustuvorligi, inson erkinligi va huquqlarini himoya qilish, mulkdorlar qatlami - o'rta sinfni fuqarolik jamiyati iqtisodiy va ijtimoiy tayanchi bo'lib oladigan darajada shakllantirishi, demokratik qadriyatlarni va bozor munosabatlari asosida iktisodiy rivojlantirish kabilar tushuniladi. Boshkacha aytganda, agar boshqaruvchilar qatlamida o'zining jamiyatdagi yuqori o'rnini, moliyaviy jihatlarga va mulkga ega bo'lib ishga oid o'z manfaatlarini mamlakatning milliy manfaatlarini himoya qilishi g'oyasining kichik bir qismiga aylangan taqdirdagina u samarali va xalqchil mansabdorga aylanadi. Davlat mansabkori o'zini kuchli va gullab-yashnaetgan mamlakatidagina yaxshi yashashi va o'z xavfsizligini saqlay olishini chuqur anglagan bo'lib ishi lozim. Mohiyatan samarali boshqarish qobiliyatga ega bo'lgan, nafaqat o'zini, balki barcha fuqarolarning xavfsiz, kulay va barqaror hayotini ta'minlash ishida faol ishtirok etadigan, faqat o'zidan yuqori davlat hokimiyati organlari oldidagina emas, balki fuqarolar oldida ham mas'uliyatni his qila oladigan – ya'ni fuqarolik jamiyati talablariga javob bera oladigan mansabdorlar ko'pchilikni tashkil etgandagina davlat rivojlana boshlaydi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, jamoatchilik nazorati jamiyatga ham, davlat hokimiyatiga ham foydali omil sifatida ta'sir etadi. Haqiqatan, u davlat hokimiyati organlarining ma'sul bilan faoliyat yuritishiga - qonunning ishlashini ta'minlashga, inson huquqi va erkinliklarini xurmat qilishga va himoyalashga, binobarin, umumiy farovonlikka samarali va ijobiy ta'sir ko'rsatishga majbur kiladi. Jamoatchilik nazorati davlat hokimiyati organlarini doimiy va muttasil ravishda takomillashib borishini rag'batlantiradi:

birinchidan, u davlat xizmati xodimlarini turli tuman, son-sanoqsiz o'ziga tortadigan, hoyuhavasga beriladigan boyliklar va lazzatlarga igtilmaslik immunitetiga ega bo'lib ishi, ma'naviy boy bo'lib ishga intiladi;

ikkinchidan, fuqarolarning jamoatchilik nazorati jamiyatning hokimiyat organlari bilan o'zaro – ta'sir – aks ta'sir aloqalarining bir omili sifatida namoyon bo'ladi, fuqarolarga mamlakat taraqqiyotining maqsadlari va uning ustuvor yo'n alishlari to'g'risida haqqoniy tasavvurlarga ega bo'lib

ishi va davlat hokimiyati organlari bilan ochiq muloqotlarda bo‘l ib turishini ta’minlaydi. Davlat – jamiyat – fuqarolar o‘zaro aloqalari yordamida hokimiyat organlari fuqarolarning mamlakatda zarur islohotlarni o‘tkazishga doir talablariga nafakat quloq tutadi, balki bu islohotlarni amalga oshirishga kirishadi;

uchinchidan, jamoatchilik nazorati davlat hokimiyati organlarini samarali ishlashga undaydi, u fuqarolarning jamoatchilik nazorati vositasida boshqaruv kadrlarini o‘z vazifalarini astoydil bajarishga undash omili sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqaruv tizimi kadrlari jamiyat a’zolarining nazorati ostidagina samarali boshqaruvni amalga oshirishi mumkin, jamoatchilik nazorati kuchi bilan fuqarolarning yaratuvchilik takliflari hayotda o‘z ifodasini topishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jamoatchilik nazoratining faollashuvi natijasida raqobatbardosh iktisodiyot rivojlanadi, kadrlarning ichki salohiyati ro‘yobga chiqdi, xalqning turmush darajasi oshadi, kuchli fuqarolik jamiyati shakllanadi, milliy xavfsizlik mustaxkamlanadi, insoniy kapital va uning resursi hayotda ishga tushadi. Bularning barchasi pirovard natijada mamlakatni salohiyatli bo‘lishiga olib keladi, jamiyat gullab-yashnaydi, boshqacha aytganda, milliy manfaatlar ro‘yobga chiqadi.

AQShda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun ko‘plab vositalardan foydalanilib, u asosan davlat hokimiyati organlari faoliyati, fuqarolik ishtiroki va ularning birgalikdagi xatti-harakatlarini shaffoflik bilan kechish printsipiga asoslanadi. Davlat hokimiyati organlarining xalq oldida hisobdorligi AQSh tarixini dastlabki davridayoq shakllangan edi. Fuqarolar urushi davrida AQSh Prezidenti Avraam Linkoln o‘zining 1863 yildagi mashhur “Gettinsberg murojaati”da o‘z so‘zini hukumatning tabiatiga doir quyidagi fikr bilan tugatgan edi: “xalq hokimiyati, xalq irodasi va xalq uchun” boshqariladi. AQSh otalardan yana biri – Jeyms Medison 1775-1778 yillarda nashr etilgan “Federalchi” maqolalar to‘plamida haftanomasida “Hech bir shak-shubhasiz respublikaviy erkinlik ruhiyati ...nafaqat barcha hokimiyatning xalqdan kelib chiqishini, balki hokimiyat kimga ishonib topshirilgan bo‘l sa, ularning xalq izmida bo‘l ishini taqozo etadi”¹⁸⁵. Mazkur demokratik printsip hozirgi davrga qadar AQSh siyosiy an‘analari tamal toshi sifatida kelmoqda.

Davlat hokimiyati organlarining fuqarolar uchun axborot ochiqligi tamoyilini davlat miqyosida qaror topishi dastlab Shvetsiyada yuz bergan. Bu davlat 1766 yilda “Nashrlarning erkinligi to‘g‘risida”gi qonun qabul kildi. Bu qonun 1812 yildan buyon “Matbuot erkinligi to‘g‘risidagi qonun” deb atala boshlandi. Bu qonun har qanday davlat organidan fuqarolar va OAV vakillari rasmiy hujjatlar bilan tanishini talab kilganda, davlat organi ularga har qanday axborotni darhol va bepul tarzda takdim etishga majbur edi¹⁸⁶. Bu qonun 1949 yilda yangi o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar bilan “Matbuot erkinligi to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilinadi. Shuningdek, u Shvetsiya Konstitutsiyasining tarkibiy qismi sifatida e‘lon qilingan. Bu qonunga yana 1976 yilda yangi tuzatishlar kiritilib, u axborot erkinligi va ochiqligiga doir me‘yorlarni belgilab berdi: “umumiy xabardorlik asosida har bir shved fuqarosi o‘z erkin fikr almashishini rag‘batlantirish maqsadida barcha rasmiy hujjatlardan foydalanish huquqiga ega bo‘l ishi shartdir”¹⁸⁷.

Davlat ijroiya hokimiyati va uning tuzilmalari hamda o‘zini o‘zi boshqarish organlari fuqarolarning turli so‘rovlariga darhol javob berishlari axborot erkinligining asosiy printsipi sifatida namoyon bo‘l di. Har bir hokimiyat organi rasmiy hujjatlar ro‘yxatini yuritishga majbur ekanligi, ularning ko‘pchiligidan fuqarolar va jamiyat institutlarining foydalanishlari uchun ochiq bo‘l ishi go‘yoki fuqarolik jamiyatining asosiy belgilaridan biriga aylandi. Hozirgi davrdada mazkur

¹⁸⁵Батафсилроқ қаранг: Баталов Э.Я.Проблема демократии в американской политической мысли XX века// http://modernlib.ru/books/e_ya_batalov/problema_demokratii_v_amerikanskoj_politicheskoj_misli_hh_veka/read_4/.

¹⁸⁶Банисар Д. Свобода информации и доступ к правительственным документам. Обзор законодательства по доступу к информации в мире. Перевод с англ./ Ред. – С.Шеввердяева.-М.,2004.-С.141.

¹⁸⁷Конституция Швеции //Конституции государств Европейского Союза.-М.,1997. - С.735.

ro'yxatlardan elektron shaklda foydalanilmoqda. Bunda hujjatlarni ruyxatga olish bo'yicha asosan to'rtta mustasnoqlik mavjuddir:

Birinchi mustasnoqlik – davlat hokimiyati organlari faoliyati uchun unchalik katta ahamiyat kasb yutmagan hujjatlar.

Ikkinchi mustasnoqlik – bu maxfiy bo'lmagan hujjatlar; ularning qachon olinganligi yoki yaratilganligi aniq holda saqlanishi talab etiladi.

Uchinchi mustasnoqlik – bu davlat siri toifasiga kiruvchi hujjatlar.

To'rtinchi mustasnoqlik – bu ro'yhatga kiritilgan, elektron ko'rinishda saqlanadigan va foydalanish mumkin bo'lgan toifaga kiruvchi hujjatlar.

Shvetsiyada fuqarolarning axborot erkinligi huquqi boshqa mamlakatlardan eng uzun tarixga ega bo'lishiga qaramasdan bu fuqarolarning rasmiy axborotdan foydalanish huquqi 1990- va 2000 yillar boshlarida amaliy hayotda hokimiyat organlari tomonidan to'liq tarzda ta'minlamadi. Natijada moliya va ishlab chikarish sohalarida - texnikaviy, mexnat va boshqa resurslarni davlat boshqaruvi tomonidan muvofiqlashtirishning samaradorligini pasayib ketdi. Jahon bozorida raqobatning keskin ortishi sharoitida bu holat yuqori boshqaruv hokimiyati namoyondalarini o'z egallab turgan mavqelari, mablag'lari va mulklarini tashqotib qo'yish xavfini keltirib chiqardi. Shundan keyin 2002 yilda hukumat mamlakatda turli sohalardagi raqobatbardoshlikni oshirish vositasida milliy manfaatlarini himoya qilish maqsadida "Ochiq shved kompaniyasi"ni tashkil etishga qaror qildi. Bu kompaniyaning asosi maqsadi, birinchidan, davlat hokimiyati organlari faoliyatining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan siyosiy yo'nalishlar bo'yicha axborotlarning ochiqligi amaliyoti o'rnatildi. Ikkinchidan, jamiyat a'zolari va institutlarining davlat hokimiyati faoliyatidan xabardorligi darajasi yuqori darajaga ko'tarildi¹⁸⁸.

Shvetsiyadagi ijro hokimiyati faoliyatining ochiqligini ta'minlash tajribasidan Finlyandiya davlatida keng foydalanildi. 1919 yilda mustaqil davlat maqomiga erishgan finlyandiya boshqaruvchi elitasi konstitutsiyaga axborot erkinligi to'g'risidagi maxsus normani kiritdi. 1951 yilda Finlyandiya parlamenti "Rasmiy hujjatlarning oshkorligi to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi¹⁸⁹. 1990 yillar boshidagi chuqur iktisodiy tushkunlik Finlyandiyaning boshqaruvchi siyosiy qatlamiga mamlakatda turli sohalarda raqobatbardoshlikni oshirishga yangidan-yangi imkoniyatlarni topishga majbur kildi.

Bu jarayonda eng muhim me'yor sifatida mamlakatda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga har tomonlama shart-sharoitlar yaratish yo'li bilan hukumatning boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishga erishdi. Jamoatchilik nazoratining faollashtirilishi natijasida 1999 yilda "Hukumat faoliyatining ochiqligi to'g'risida", 2001 yildagi "Davlat boshqaruvi sohasida elektron xizmatlar to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi, shuningdek 2000 yilda Konstitutsiyaga fuqarolarning axborot olish huquqlarini kengaytirishga doir maxsus moddalar kiritildi.

"Hukumat faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonun fuqarolar tomonidan turli ijtimoiy vazifalarni bajaradigan davlat hokimiyati organlari va xususiy tashkilotlar faoliyatlariga doir axborotlarni turli jamoat tarmoqlaridan olish, ulardan foydalanishga katta imkoniyatlar yaratdi. Qonunning maqsadi fuqarolarga va korporatsiyalarga hokimiyat organlari faoliyatini kuzatish, erkin fikrni shakllantirish, davlat hokimiyati siyosatiga ta'sir ko'rsatish va o'z manfaatlarini va huquqlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lish kabilarga qaratildi¹⁹⁰.

Qonun fuqarolarning rasmiy hujjatlaridan foydalanishga nisbatan huquqlarini amalga oshirishning barcha jihatlari belgilab berdi: rasmiy hujjatlardan foydalanishga so'rov, foydalanishni takdim etish to'g'risida qaror, so'rovni boshqa hokimiyat organiga uzatish, ulardan foydalanish turlari.

¹⁸⁸ Банисар Д. Свобода информации и доступ к правительственным документам. С.143.

¹⁸⁹ Ўша жойда.-Б.131.

¹⁹⁰ Закон "Об открытости деятельности Правительства", №621/99 - <http://www.om.fi/1184.htm>.

Qonunga muvofiq axborotni talab qiluvchi fuqarolar o'z so'rovining maqsadini izoxlashga majbur emasligi kabi huquqlarni o'zida ifoda etdi. Bu kabi so'rovlarga beriladigan javoblar 14 kun mobaynida berilishi shart qilib qo'yildi¹⁹¹. Davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan qarorlar to'g'risidagi axborotlarga doir hujjatlar yo'q qilinmasligi shart, ular saklanishi lozim. Qonun fuqarolarning davlat hokimiyati organlarlaridan o'z faoliyatiga doir axbortlarni ham olishi huquqini e'lon qildi. Buning hokimiyat organlari o'z faoliyatlarining asosiy yo'n alishlarini, hisobotlarni va boshqa statistikani nashr etib borishga majburdir¹⁹².

Qonun rasmiy hujjatlarda milliy xavfsizlikka tahdid soladigan ba'zi axbortlarni va boshqa takdim etilishi mumkin bo'l magan hujjatlarni 32 toifaga bo'l di, shuningdek, rasmiy hujjatlarni maxfiy axborotlar toifasiga kiritishining 120 ta qoidasini ishlab chiqdi. Qonunga muvofiq hukumat idoralari va muassasalari o'z faoliyatlari to'g'risidagi axbortlarni doimiy ravishda nashr etib borishga majburdirlar. Hukumat majlislari jamoatchilik uchun ochiq xisoblanishi zarur. Barcha hukumat departamentlari o'z xususiy veb-saytlariga ega bo'l ishi va elektron hukumat standartlarini amalga oshirishlari shartdir¹⁹³.

2000 yilga kelib Finlyandiya Konstitutsiyasining 12-bo'l imiga "har bir kishi ijtimoiy hujjatlardan erkin foydalana olish huquqiga ega" ekanligiga doir qo'shimcha kiritildi¹⁹⁴. 2001 yilda esa Finlyandiya parlamenti jahonda birinchilardan bo'l ib "Davlat boshqaruvi soxasida elektron xizmatlar to'g'risida"gi qonuni qabul kildi. Bu qonunning asosiy maqsadi davlat boshqaruvi xizmatlarining faoliyat yuritishida mansabdorlarning mas'uliyatli bo'l ishi, tezkorlikni ta'minlashi va professional bo'lishni kabilarga qaratildi. Qonun elektron davlat xizmatlari sohasida davlat boshqaruvchi organlari va mijozlarining huquqlari, majburiyatlari va mas'uliyatlariga doir qoidalarni o'z ichiga oldi¹⁹⁵. Qonunga binoan, hokimiyat organlari va etarlicha texnik, moliyaviy va boshqa resurslarga ega bo'l gan rasmiy idoralar fuqarolarga eng kulay muqobiliklardan birini tanlash imkoniyatini yaratishlari lozim: elektron xabarni ko'rsatilgan elektron manzillar bo'yicha jo'n atish yoki masalalarni hal qishining boshqa mexanizmlarini taklif etishi shart. Bundan tashkari, hokimiyat fuqarolarga xabarnomalar, hisob-kitob hujjatlari kabilar va boshqa axbortlarni elektron uzatish tarzida etkazib berishi lozim¹⁹⁶.

Ayni paytda, Finlyandiyada barcha rasmiy idoralarning 90 foizidan ortiqrog'i fuqarolarga o'z xizmatlarini Internet orqali takdim eta boshladi. Bu davlat xizmatlari buyurtmalar va talablarga doir huquqiy hujjatlarni taqdim etish, fuqarolarni turli milliy loyihalarda ishtirok loyihalari to'g'risida xabardor qilish, bo'sh ish o'rinlari to'g'risida va ta'lim olish imkoniyatlari haqida axborotlar berish va boshka xizmatlarni taklif etishi belgilab qo'yildi¹⁹⁷. Bundan tashkari, Bosh vazir devonxonasi o'z saytida vazirliklar tamonidan tayyorlanayotgan qonunlar loyihalari to'g'risidagi axbortlarni nashr etib borish qoidasi ham kiritildi¹⁹⁸. O'z navbatida Finlyandiya parlamenti fuqarolarni o'zi ishlab chiqqan qonunlar loyihalari va hujjatlar bevosita tanishish imkoniyatini yaratdi¹⁹⁹. Internet tizimi yordamida fin fuqarolari Adliya vazirligi saytida e'lon etib boriladigan barcha qonunlarni, me'yoriy hujjatlarni, Finlyandiya davlat organlarining qarorlarini va davlatlararo bitimlarni nazorat qilish imkoniyatlari yaratildi. Finlyandiya davlat organlari saytlarida joylashtirilgan barcha materiallar – qonunlar va boshka rasmiy hujjatlardan fuqarolar bepul foydalanadi.

¹⁹¹ Ўша жойда.

¹⁹² Ўша жойда.

¹⁹³ Ўша жойда.

¹⁹⁴ Конституция Финляндии – <http://www.finlex.fi/pdf/saadkaan/E9990731>.

¹⁹⁵ Қаранг: <http://www.om.fi/2838.htm>.

¹⁹⁶ Ўша жойда.

¹⁹⁷ Мэннинг Н. Реформа государственного управления: международный опыт / Пер. с англ. - М., 2003. - С.441,494.

¹⁹⁸ Қаранг: <http://www.vn.fi>.

¹⁹⁹ Қаранг: www.eduskunta.fi.

Buyuk Britaniyaning eng yaxshi namoyondalarining hokimiyat faoliyati to'g'risidagi axborotdan erkin foydalanishlari uchun sharoitlar yaratish bo'yicha tajribalari diqqatga sazovordir. Jahon bozorlarida raqobatli kurashning oshishi sharoitida hokimiyat samaradarligining dolzarbligi ham ancha ortdi. Buyuk Britaniyada mas'uliyatli, binobarin, malakali hokimiyatni shakllantirish maqsadida 2000 yilda «Axborot erkinligi to'g'risida» Qonun qabul qilingan edi. Bu qonun xar bir kishiga davlat hokimiyati ixtiyorida bulgan axborotdan foydalanish huquqini berdi²⁰⁰. Fuqarolar murojaatiga davlat organlari tomonidan unga 20 kun ichida javob berishlari kerak. Axborot taqdim etishini istisno kiluvchi uchta toifa nazarda tutildi - bu sud hujjatlari, ko'pchilik xususiy axborotlar: xavfsizlik xizmatiga, maxfiy razvedka xizmatiga taallukli axborot, maxfiy olinadigan axborot²⁰¹. «Axborot erkinligi to'g'risida»gi qonunning 2005 yilning 1 yanvardan kuchga kirdi. Asosiy e'tibor elektron hukumatni yaratishga qaratildi²⁰². Xozirgi paytda Buyuk Britaniyada elektron muhitda omilkor va tezkor faoliyat olib borish uchun kulay sharoitlar yaratilgan.

AQSh o'z tarixining 200 ortikroq davrida davlat mansabdorlari axborot erkinligini ta'minlash sohasida katta tajriba orttirdi. 1966 yilga kelib barcha axborot erkinligiga doir huquqiy asoslar shu yilda qabul qilingan «Axborot erkinligi to'g'risida»gi qonunda mujassamlashdi. Unda hukumat va uning quyi tashkilotlari o'zlarining tuzilmalari va funktsiyalariga taallukli materiallarni, shuningdek olib borgan siyosati va boshqaruv faoliyatining yunalishlari to'g'risidagi qabul qilingan qarorlar va axborotlarni rasmiy raishda nashr etilishini shart qilib qo'ydi²⁰³. Qonunga bir necha marta o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. 1996 yilda «Elektron axborot erkinligi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Bu qonun mamlakatdagi bu har bir fuqaroga yoki tashkilotga, fuqaroligi qanday yoki qanday mamlakatda tug'ilganligidan qat'iy nazar federal hukumat va uning quyi organlariga taalluqli hujjatlarni talab qilib olishga imkon bera boshladi. Qonunga muvofiq murojaat qilgan fuqaro davlat hokimiyati organlaridan 20 kun ichida javob xati olishi tartibi o'rnatildi²⁰⁴. Qonun axborotdan foydalanishni istisno etuvchi 9 ta hujjatlar toifasini belgiladi: milliy xavfsizlik, davlat organining ichki qoidalari, shuningdek, boshka qonunlarga muvofiq foydalanish ta'qiqlangan hujjatlar, tezkor axborotlar, hokimiyat organlarining ishchi yozuvlari, xususiy (shaxsiy) hayot to'g'risidagi axborotlar, huquq-tartibot organlarining hisobotlari, moliyaviy institutlar va neft konlari manbalari to'g'risidagi axborotlar²⁰⁵.

Xorijiy tajribalar ko'rsatib turibdiki, o'z ichiga birinchi navbatda hokimiyatning shaffofligi va fuqarolarning davlat boshqaruvida keng ishtirok etishi printsiplari o'z ichiga olgan jamoatchilik nazoratining huquqiy va madaniy asoslanishlari sinovlardan o'tdi. AQSh va Yevropa mamlakatlarida davlat nodavlat tashkilotlar, ijroiya hokimiyati organlari huzuridagi kengashlar, qo'mitalar tomonidan nazorat qilishga doir maxsus axborotlarni oshkor etishga huquqiy asoslarini yaratib berdi. Bu jarayonda ko'n gilli yoki ixtiyoriy harakatlar, jamoatchilik tashabbuslari, ekspertizalar va jurnalist surushtiruvlari muhim rol o'ynaydi. Rivojlangan mamlakatlarda jamoatchilik nazoratining internet-loyihalar keng tarqaldi. Masalan, AQShda Oq uy saytida petitsiyalar uchun maxsus bo'l im – Wethepeople tashkil etilgan²⁰⁶.

Yevropa Ittifoqida (EI) esa jamoatchilik nazoratining to'rtta asosiy shakli keng tarqaldi:

1) jamoat birlashmalari, ittifoqlari kabilardan jamoatchilik fikriga doir so'rovnomalarga javoblar, petitsiyalarga imzo to'plash, turli takliflar olish. Masalan, 2012 yil may oyidan buyon «Yevropa

²⁰⁰См.: <http://www.foi.org.uk/foiact2000.html>

²⁰¹См.: <http://www.foi.org.uk/foiact2000.html>

²⁰²Мэннинг Н.Реформа государственного управления: международный опыт /Пер. с англ.-М., 2003.- С255.

²⁰³Закон «О свободе информации»,5 USC 552, 1996./http://www.epic.org/open_gov/foia/us_foia_act.html

²⁰⁴Мэннинг Н.Реформа государственного управления: международный опыт /Пер. с англ.-М., 2003.- С255.

²⁰⁵Каранг: <http://www.epic.org/opengov/efoia.html>.

²⁰⁶Официальный сайт Белого дома [Электронный ресурс]./URL: <https://www.whitehouse.gov>.

fuqarolik tashabbusi” (“The European Citizens Initiative”) faoliyat yuritadi. U Yevropa Komissiyasiga ko‘rib chiqish tashkiliy va huquqiy takliflarga asoslangan petitsiyalarni yuboradi. Bunda quyidagi shartga amal qilinadi: yuboriladigan petitsiyani EI davlatlarini kamida to‘rt dan bir qismida yashaydigan bir million kishi qo‘l lab-quvvatlashi talab etiladi. Petitsiya fuqarolar tomonidan qo‘l lab-quvvatlanib yuborilganidan keyin Yevropa Komissiyasi uni qabul qiladi, yoki rad etadi. Hozirgi davrga qadar qabul qilingan petitsiyalarning soni rad etilganiga qaraganda ko‘proqni tashkil etmoqda. So‘n ggi marta bir milliondan ortiq fuqarolarni qo‘l lab-quvvatlashiga 2013 yil mart oyida erishildi: bunda “Suv olishga huquq”ga suv bilan kanalizatsiyaga ega bo‘l ishini inson huquqlari qatoriga kiritish talab etilgan²⁰⁷.

2) jamoatchilik maslahatlari – ularda asosan hukumat yoki munitsipal organlarining loyihalari sharhlanadi va baholnadi. Ular ham mansabdorlar, ham fuqarolar – ya’ni o‘z fikrlarini e’tirof etilishini xohlovchilar tomonidan ham chaqirilishi va o‘tkazilishi mumkin. Jamoatchilik maslahatlari barcha manfaatdor tomonlarning ochiq ijtimoiy uchrashuvlarida, jamoatchilik vakillari ishtirokida, yopiq holda va bayonnomalar ko‘rinishida yoki Internet vositasida o‘tkaziladi. Buning o‘ziga xos xususiyatlari – bu muhokamalar vaqtining chegaralanganligi, ya’ni ularni muayyan qaror qabul qilish sanasiga muvofiqlashtirishi hisoblanadi.

3) Keyingi o‘n yilliklarda g‘arb siyosiy munosabatlar va boshqaruv faoliyatida Internetda kollaboratsiya²⁰⁸ (vaziyatli hamkorlik harakatlari) deb ataladigan jamoatchilik nazoratlarini o‘tkazish rusumga kirdi. Bir-biriga begona fuqarolar turli qarorlar va baholashlarni muhokama qiladi, so‘n gra ularni taklif qiladi. Kollaboratsiyalar axbortlardan foydalanadigan o‘zgalarga nisbatan ochiqlikni talab qilishi bir qatorda jamoaviy murosasoz qarorlar qabul qilishni ko‘zda tutmaydi, balki u ko‘pchilik bilan bir qarorga erishishda har bir ishtirokchining xususiy axborotiga muhim ahamiyat qaratadi.

Kollaboratsiya tizimli nazorat sifatida muayyan shart-sharoitlarni talab etadi: zaruriy xabardorlik va ahamiyat kasb etadigan motivatsiyalarga ega bo‘l gan faollarning (ular ochilikni tashkil etishi mumkin) jamoaviy zakovotli ichidan yutib chiqishi va muhokamalarning ochiq tarzda bo‘l ishi. Kollaboratsiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishni o‘rmini bosa olmasada jamiyatda paydo bo‘l gan muammoning yechimini eng yaxshi muqobilini topishi bilan jamoatchilik nazorati funksiyasini bajaradi. Uning ustun tomoni shundaki, uni har qanday turdagi va mazmundagi muammoni echimini topishga qo‘l lash mumkin, uni Internet vositasida, ya’ni qulay tarzda o‘tkaziladi, o‘zini jo‘shqinligi va achiqligi bilan boshqa nazorat shakllaridan ajralib turadi. Kollaboratsiya mutaxassislarning cheklanmagan sonini o‘zida birlashtirib, muammolarning echimlarini oddiylashtiradi, samarali bo‘l ishini ta’minlaydi, uni moliyalashtirishga hojat qolmaydi. U davlat hokimiyati organlariga yordamlashishdan tashqari fuqarolarni jamiyatdagi muammolarni ko‘tarishga va hal etishga safarbar etadi²⁰⁹.

4) munozara maydonlari va anjumanlar (forumlar, konferentsiyalar, fuqarolik jyrilar va boshqalar) jamoatchilik vakillari, ekspertlar va mansabdorlarning turli siyosiy masalalar bo‘yicha birgalikda qarorlar qabul qilishini ta’minlaydi. Unga misol tariqasida Your voice in Europe resursini keltirish mumkin. U EI siyosatini shakllantirishda qanday tarzda ishtirok etishni o‘zida ifodalaydi²¹⁰. G‘arbiy Yevropada ijtimoiy muhokamalarni rivojlanib borishi shuni ko‘rsatadiki, ularning yordamida qarorlarni qabul qilinishi dalillash darajasi oshib bormoqda, jamiyat uchun keraksiz loyihalar rad etilmoqda.

²⁰⁷Фонд Открытой Новой Демократии “Прозрачность и участие: Общественный контроль 2.0 в США и Европе” [Электронный ресурс]. Аналитический доклад, 2013.// <http://fondfond.org>.

²⁰⁸Коллаборация - [фр. collaboration ҳамкорлик].

²⁰⁹Ўша жойда.

²¹⁰Ўша жойда.

5) ijtimoiy tarmoqlar orqali davlat hokimiyatining turli idoralari va nodavlat tashkilotlar o'zaro interfaol muloqotlar. Unga misol tariqasida Atrof muhitni nazorat qilish va axborot bo'yicha Yevropa tarmog'i faoliyatini keltirish mumkin. Unda hamkorlar sifatida 39 ta davlatning ekspertlari, 300 ta atrof-muhitni himoyalash milliy agentliklari, alohida olingan fuqarolar ishtirok etadi. Bu muloqotlarda asosan ekologik muammolar aniqlanadi, ularning echimlariga doir muhokamalar amalga oshiriladi, nazorat funksiyalarini bajaruvchi xujjatlar qabul qilinadi.

6) Bir qancha raijlangan davlatlarda davlat hokimiyati organlari huzurida ijtimoiy kengashlar faoliyatlari institutlashmoqda. Bunga Rossiya Jamoatchilik palatasini misol keltirish mumkin. Unga o'xshash tashkilotlar – Frantsiyada turli kasbiy guruhlar vkillaridan iborat bo'lgan Ijtimoiy va iqtisodiy kengash, Niderlandiya Qirolligi, Avstriya, O'zbekiston kabi davlatlarda faoliyat yuritayotgan Nodavlat notijorat tashkilotlarni qo'l lab-quvvatlash jamg'armasi kabilar jamoatchilik nazoratini samarasini oshirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi²¹¹. Jamoatchilik nazoratining yana bir ta'sirchan shakli jurnalist teshiruvini hisoblanadi. Bu shakl AQShda avj olgan.

XIX asr - XX asr boshlarida AQSh va G'arbiy Yevropa rivojlangan mamlakatlarida hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tajridi. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish usullari deganda fuqarolarning hokimiyat faoliyati ustidan o'z nazoratlarini amalga oshirishda qo'l laydigan xatti-harakatlari yoki harakatlar tizimini tushunish lozim. Jamoatchilik nazorati ikkita asosiy usul bilan – 1) fuqarolar irodasining to'g'ridan - to'g'ri (bevosita) talabi bilan, 2) fuqarolarning topshirig'iga asoslangan - bilvosita (vakolatli) tarzda xatti-harakat qiladigan, ular saylagan idoralar vositasida amalga oshiriladigan usullar bilan o'tkaziladi. Bunda jamoatchilik nazoratining u yoki bu usulining bir-biridan ustuvorligi to'g'risida masala qo'yishning hojati yo'q, chunki bu ikki usulning o'z maqsadlari va vazifalarini amal oshirishining ahamiyati teng tarzda muhim hisoblanadi.

Jamoatchilik nazoratining bevosita va vakolatli (bilvosita) usullari o'zining amalga oshirilishi bo'yicha xilma xil shakllarga egadir. Jamoatchilik nazoratining bevosita usulida fuqarolar irodasining namoyon bo'lgan ishi quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- fuqarolarning hokimiyat faoliyatiga oid axborotlardan voqif bo'lgan olishi;
- jurnalistik tekshiruv;
- arznomalar – fuqarolarning davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga yakka tartibdagi yoki jamoaviy murojaatlari;
- fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolar yig'inlari, ommaviy tarzda tinglashlari vositasida jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroklari;
- jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi va boshqaruvchi eng yuqori doiradagi rahbarlarga ta'sir ko'rsatadigan ilmiy-tadqiqotlar, publitsistik va badiiy asarlar;
- qonun loyixalari va boshqa davlat hayotiga doir boshqa muhim masalalarni ommaviy muhokama qilish;
- xalqning qonunchilik tashabbuslari;
- qonun loyixalarining jamoatchilik tomonidan ekspertiza qilinishi;
- sudlar maslaxatchilari.

Fuqarolar nazoratining bilvosita – vakolatli usuli o'zining turli shakllariga egadir. Ularga parlament nazorati, hudud (shtat, o'lka, viloyat) qonun chiqaruvchi organlarining nazorati va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning vakolatli organlari nazoratlarini keltirish mumkin.

Jamoatchilik nazoratining to'g'ridan-to'g'ri usulining muhim shakli – bu fuqarolarning davlat va mahalliy hokimiyat organlari faoliyati to'g'risidagi axborotdan foydalana olishlari hisoblanadi. Fuqarolarning hokimiyatning faoliyati to'g'risida xabardorligining to'liqligi va o'z vaqtida xabardor bo'lishi inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash hamda himoyalash, davlat organlarining samarali

²¹¹Официальный сайт проекта Your Voice in Europe [Электронный ресурс]//URL: <http://ec.europa.eu/yourvoice>.

boshqaruvi va ijtmoy xizmatlarini sifatli bo‘l ishi uchun ularga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatlariga bog‘liqdir. Shu munosabat bilan AQSh siyosatshunos olimi B.Peydj quyidagi fikrni bildiradi: “Jamiyat hukumat ustidan haqiqiy nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘l ishi uchun uning faoliyatidagi barcha tafsilotlardan yaxshi xabardor bo‘l ishi, fuqarolar esa mamlakatda paydo bo‘l ayotgan barcha muhim muammolarni muhokama qilishda faol ishtirok etishlari talab etiladi”²¹².

2. O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratining amaliyoti va huquqiy asoslarining shakllanishi

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki davridan boshlab huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishni asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e’lon qilinishi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish islohotlarini boshlanishi natijasida jamoatchilik nazoratini shakllantirishga zarurat paydo bo‘ldi. Chunki, jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillik davrida fuqarolik jamiyati institutlarining turli sohalar bo‘yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga doir u yoki bu qoidalar 40 dan ortiq me’yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topdi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va milliy qonunchilikda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ustuvor qoidalari mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyaning 2-, 35- va 60-moddalarida fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarlarning jamoatchilik nazorati amalga oshirishining ba’zi qoidalari mustahkamlandi. 2014 yilning 16 aprelida Konstitutsiyaning 32-moddasiga fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etishning yo‘l i sifatida “davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘l i bilan amalga oshiriladi”²¹³ printsiplari kiritildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi, “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi va boshqa qator qonunlarda fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlar tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishga doir moddalar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga muvofiq “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo‘l gan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin”²¹⁴. Mazkur konstitutsiyaviy huquq asosida 1997 yili 24 aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Axborot olish erkinligi va kafolatlari to‘g‘risida”gi, 2002 yili 12 dekabrda “Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi OAV tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga huquqiy asoslar yaratdi. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan “Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining 4-moddasiga binoan “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har kim axborotni moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega. Axborot olish faqat qonunga muvofiq hamda inson huquq va erkinliklari, konstitutsiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlarini, mamlakatning ma’naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish, xavfsizligini ta’minlash maqsadida cheklanishi mumkin”²¹⁵.

²¹²Page B. Who deliberates? Mass Media in modern democracy.-Chicago,1996.-P.5.

²¹³Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.:Ўзбекистон, 2019.-Б.13.

²¹⁴Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.:Ўзбекистон, 2019.-Б.12.

²¹⁵Ўзбекистон Республикасининг «Аxborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi qonuni//Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Аxborotnomasi, 2003 йил, № 1, 2у-модда.

Shuningdek, mazkur qonunning 8-moddasida “Davlat har kimning axborotni izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqini himoya qiladi. Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga qarab axborot olish huquqi cheklanishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har kimga o‘zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta’minlab berishga, maqbul axborot resurslari yaratishga, foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta’minlashga majburdirlar. O‘zbekiston Respublikasida tsenzura va axborotni monopollashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi”²¹⁶.

Jamoatchilik nazoratining mohiyati, tizimi va subyektlari

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Jamoatchilik nazorati bo‘lgan yoki jamoatchilik nazorati yetarli darajada kuchga ega bo‘lgan mamlakatda fuqarolik jamiyati shakllanishini ham tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun mamlakatimiz Konstitutsiyasida jamoatchilik nazoratining mamlakatimiz fuqarolari davlat boshqaruvida ishtirok etishlarining muhim vositasi ekani e’tirof etilgan. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati, boshqa demokratik davlatlardagi kabi, xalq tomonidan nazorat qilinadi. Bu nazorat to‘g‘ridan - to‘g‘ri va vakillik demokratiyasi (o‘zi saylab qo‘ygan organlar) orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining qariyb 40 ta normativ - huquqiy hujjatlarida “jamoatchilik nazorati” iborasi ishlatilgan. Ushbu hujjatlarda jamoatchilik nazoratini bevosita amalga oshirish vakolatiga ega subyektlar aniq ko‘rsatilgan. Bu subyektlarning eng asosiy lar o‘zini o‘zi boshqarish va fuqarolar hisoblanadi.

Jamoatchilik nazorati - fuqarolik jamiyatining eng muhim belgilaridan bo‘lgan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatini fuqarolik jamiyati institutlari, keng jamoatchilik tomonidan qonunga muvofiqligini muntazam nazorat qilinishi tushuniladi.

Birinchi Prezident Islom Karimov “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” deb nomlangan ma’ruzasida “Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasida “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish fursati yetdi”²¹⁷, - deb ta’kidlagan edi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 12 iyulda parlament a’zolari hamda siyosiy partiyalar vakillari bilan bo‘lgan videosektor yig‘ilishida qonunlarni qabul qilishda jamoatchiligimiz, saylovchilarning keng ishtiroki sezilmayotganiga alohida urg‘u bergan edi: “Qonunlar qabul qilinishi bilan xalqimizning og‘iri yengil bo‘lgan dimi, uning hayotidagi muammolar hal bo‘lgan dimi, degan savollar bilan, afsuski, hech kim qiziqmayapti. Shuning uchun ham qonunlarni qabul qilish jarayonida yangi tizim - aholi bilan muhokama qilish tizimini joriy etish lozim, deb hisoblayman. Ya’ni, katta ahamiyatga ega, muhim qonun loyihalarini birinchi o‘qishda qabul qilgandan keyin ularni joylarda fuqarolar bilan keng muhokama qilish, ularning taklif va mulohazalarini e’tiborga olib, loyihalarni takomillashtirgan holda ikkinchi o‘qishga kiritish

²¹⁶Ўша жойда.

²¹⁷Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси.-Т.: Ўзбекистон, 2010.-Б.46.

tartibini yo‘l ga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘l adi”²¹⁸. Shuningdek, Prezidentimiz 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga yo‘l lagan Murojaatnomasida “Bugungi kunga qadar davlat organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning aniq huquqiy mexanizmlari yaratilmagan. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatini xolisona baholashga xalaqit bermoqda. Shundan kelib chiqib, davlat va jamiyat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta’sirchan va amaliy mexanizmlarini joriy etish maqsadida “*Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida*”gi Qonunni qabul qilish zarur. Shu munosabat bilan barcha davlat organlari qoshida faoliyat olib boradigan jamoatchilik kengashlari tashkil etishni taklif qilaman. Mazkur jamoatchilik kengashlari davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlaydigan, ularni aholi bilan bevosita bog‘laydigan ko‘prik vazifasini bajarishi lozim”²¹⁹.

Jamoatchilik nazoratini tashkil qilish masalalarini tahlil qilishdan avval “jamoatchilik nazorati” tushunchasining turdosh tushunchalar bilan umumiy jihatlari va tafovutlarini aniqlab olish lozim. Hozirgi kunda matbuotda va ilmiy adabiyotlarda “jamoatchilik nazorati”, “ijtimoiy nazorat”, “fuqarolik nazorati”, “parlament nazorati”, “deputatlik so‘rovi” kabi atamalar ko‘p ishlatilmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur atamalar ko‘pincha sinonim sifatida va ba’zan noo‘rin qo‘lanilmoqda.

“Jamoatchilik nazorati” va “fuqarolik nazorati” tushunchalari bir-biriga juda yaqinday tuyuladi. Aslida ular o‘rtasida umumiyliklar bilan bir qatorda jiddiy tafovutlar ham mavjud. Ular o‘rtasidagi tafovutlar avvalo shundan iboratki, harbiy yuristlarning fikriga ko‘ra, fuqarolik nazorati armiya faoliyati ustidan jamoat tashkilotlari olib borayotgan nazoratni anglatadi. Masalan, bizning mamlakatimizda Mudofaa vazirligi qoshida tuzilgan Jamoatchilik kengashi ana shunday nazoratni amalga oshiradi. Shu ma’noda fuqarolik nazorati noharbiy tashkilotlar tomonidan Qurolli Kuchlar faoliyatining mamlakatimiz qonunlariga mosligi va maqsadga muvofiqligini nazorat qilishni bildiradi. Ikkinchidan, fuqarolik nazorati alohida shaxslar tomonidan Qurolli Kuchlar faoliyatining Konstitutsiyaga, xalqaro shartnomalarga mosligi, shuningdek, Qurolli Kuchlar tizimidagi ijtimoiy masalalarning huquqiy me’yorlarga mosligi ustidan o‘tkaziladigan nazoratni ham bildiradi. “Jamoatchilik nazorati” va “fuqarolik nazorati” tushunchalari o‘rtasidagi tafovut xuddi mana shu o‘rinda ko‘rinadi. *Fuqarolik nazoratini hech bir jamoat birlashmasiga a’zo bo‘l magan fuqaro ham amalga oshirishi mumkin. Jamoatchilik nazoratini esa alohida fuqarolar emas, jamoat birlashmalari va ularning vakillari amalga oshiradi.*

“Jamoatchilik nazorati” va “ijtimoiy nazorat” tushunchalari o‘rtasidagi tafovut avvalo, shundaki, “ijtimoiy nazorat” tushunchasi mazmun doirasiga ko‘ra “jamoatchilik nazorati” tushunchasidan kengroq. Bu tushuncha tarkibiga “jamoatchilik nazorati” tushunchasidan tashqari davlat nazorati va fuqarolik nazorati ham kiradi. Chunki ular ham mohiyatan ijtimoiy nazoratning ko‘rinishlaridir.

Jamoatchilik nazoratiga turli-tumanta’riflar berilgan. Jamoatchilik nazoratining asosiy xususiyatlarini qamrab oladigan quyidagicha ta’rifdan foydalanish o‘rinliroq bo‘l adi: “Jamoatchilik nazorati - jamoat birlashmalari tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining amaldagi qonunlarga mosligini aniqlash va baholash bo‘yicha yuritadigan faoliyat”. Shuningdek, “*Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida*” gi Qonunda bu tushunchaga – davlat organlari faoliyatining qonuniyligini ta’minlash, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘l magan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlovchi qonun hujjatlariga rioya qilmaslik

²¹⁸ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимишни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. -Б.572.

²¹⁹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. -Б.103-104.

holatlarini aniqlashga qaratilgan faoliyatdir deb ta'rif berilgan²²⁰.

2018 - yilning 12 - aprel kuni O'zbekiston Respublikasining 21 moddadan iborat "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Qonunda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlari qonunning 6-14-moddalarida ko'rsatib o'tilgan. Qonunda 4 ta asosiy jamoatchilik nazorati subyekti nazarda tutilgan:

- O'zbekiston fuqarolari;
- Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari;
- Nodavlat notijorat tashkilotlari;
- Ommaviy axborot vositalari.

Qonunda jamoatchilik nazoratining maqsadlari quyidagicha ta'riflanadi: *"Jamoatchilik nazoratining maqsadlari quyidagilardan iborat:*

– *fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash;*

– *davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatida qonuniylikni ta'minlash;*

– *jamiyat manfaatlarini himoya qilish"*.

Qonunda jamoatchilik nazoratining vazifalari quyidagicha belgilangan:

– *davlat organlari va jamiyatning o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini ta'minlash;*

– *davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonunlarga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi va ularning ta'minlanishi ahvoli to'g'risida fuqarolarni xabardor qilish;*

– *davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonunga rioya qilmaslik holatlarini aniqlash va keng jamoatchilikni xabardor qilish, ularni jamoatchilik yordamida bartaraf etish, jamiyatda ijtimoiy adolat prinsipini qo'l lab-quvvatlash va rag'batlantirish;*

– *fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash sohasida fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlarining hamkorligi"*.

Fuqarolik jamiyati institutlari o'z tashabbuslari bilan shakllanadigan va o'zini o'zi boshqaradigan institutlar hisoblanadi. Lekin ana shu o'zini o'zi boshqaradigan institutlar o'ziga o'xshash boshqa institutlar bilan mutanosib ravishda faoliyat yuritishlari uchun ular muayyan darajada rivojlangan bo'l ishlari kerak. Shuning uchun ham, fuqarolik jamiyati institutlari o'sha muayyan darajaga yetgunlariga qadar ularga davlatning madadi zarur bo'l adi.

2014 - yilda Konstitutsiyamizga kiritilgan o'zgarishlar jamoatchilik nazoratiga konstitutsiyaviy maqom berdi. Konstitutsiyamizning 32-moddasi endi quyidagi tahrirda bayon qilindi: "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'l i bilan amalga oshiriladi."²²¹. Fuqarolarimizning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishlari davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'l i bilan amalga oshirilishining Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilishi jamoatchilik nazoratiga mamlakatimizda qanchalik katta ahamiyat berilayotganining belgisidir.

²²⁰ Ўзбекистон Республикасининг "Жамоатчилик нazorати тўғрисида"ги Қонуни. // Халқ сўзи. 73 (7031) сони. 2018. 13 апрель. yoki www.lex.uz

²²¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.:Ўзбекистон НМИУ, 2019.-Б.13.

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bogʻliq tarzda rivojlanib boradi. Fuqarolik jamiyati rivojlanib borgan sari jamoatchilik nazorati uchun kengroq imkoniyatlar va istiqbollar paydo boʻladi. Ikkinchi tomondan, jamoatchilik nazoratining rivojlanishi fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga olib keladi. Rivojlangan va keng quloch yoygan jamoatchilik nazoratini fuqarolik jamiyatisiz tasavvur qilib boʻlmaganidek, fuqarolik jamiyatining rivojlanishini ham jamoatchilik nazoratisiz tasavvur qilib boʻlmaydi.

Fuqarolik jamiyati jamoatchilik nazorati rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishining sababi shundaki, tom maʼnodagi samarali, mustaqil va xolis jamoatchilik nazoratini iqtisodiy va siyosiy jihatdan erkin fuqarolar va ularning birlashmalarigina amalga oshirishi mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va modernizatsiyalash sharoitida jamoatchilik nazorati mazmunida ana shunday oʻzgarishlar oʻz ifodasini topadi. Bu esa faoliyat subyekti boʻlgan har bir shaxs oʻz zimmasiga muayyan majburiyatlarni olish bilan birga, boshqalardan, davlat hokimiyati organlaridan ularning zimmasidagi majburiyatlarni, vazifalarni bajarishlarini talab qilishi mumkinligini anglatadi.

Mamlakatning barqaror rivojlanishida jamiyat va shaxsning munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy mexanizmlardan biri boʻlgan davlat nazorati muhim rol oʻynaydi. Ayni paytda, jamiyat, undagi fuqarolik institutlari va barcha fuqarolar jamoatchilik nazorati orqali davlat va boshqaruv subyektlarining faoliyatini mavjud ijtimoiy meʼyorlar, qadriyatlar, huquqiy andozalar yordamida nazorat qiladi.

Jamoat tashkilotlari davlat hokimiyati organlari bilan birga nazorat ishlarini olib borishlari va zarur hollarda davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib borishlari ham mumkin. Bu ikki vaziyat bir-birini inkor qilmaydi.

Davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining zarurligini buyuk allomalar va faylasuflar asoslab berishgan. Masalan, Aristotel oʻzining asarlarida xalqning mansabdor shaxslar va hukmdorlar ustidan nazoratini davlatning siyosiy baqarorligi hamda gullab-yashnashining eng muhim shartlaridan biri deb hisoblagan.

Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ham hukmdorlarning aholi oldida hisob berib turishlari va ularning qonunlarga soʻzsiz boʻysunishlari zarurligi alohida taʼkidlanadi²²².

Sh.Monteske jamiyat hukumatsiz mavjud boʻla olmasligi, lekin mavjud qonunlar fuqarolarga hukumat faoliyati ustidan nazorat olib borish imkoniyati berishini taʼkidlaydi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish boʻyicha olib borilayotgan saʼy-harakatlar davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning dolzarbligini yanada oshirib yuboradi. Birinchi Prezident I.A.Karimov davlat boshqaruvi organlari faoliyatining mavjud qonunlarga qay darajada mos kelishi yoki kelmasligini nazorat qilish zarurligiga koʻp marta eʼtibor qaratgandi.

Prezidentning demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolar jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida quyidagicha taʼkidlangan edi, “Qonunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va suybektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartligini belgilab qoʻyish zarur”²²³.

²²²Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: А.Қодирий номли халқ мероси нашриёти, 1993. –Б.24.

²²³ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятни ривожлантириш концепцияси. –Т.: “Ўзбекистон”НМИУ, 2010. –Б.46.

Davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiq-oshkoraligi jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi. Xuddi shuni hisobga olib, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Mazkur qarorni bajarish yuzasidan Samarqand va Buxoro viloyatlarida davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha eksperiment o'tkazildi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ikki yo'nalishda olib borilmoqda. Birinchidan, davlat o'zining bosh boshqaruv subyekti maqomini saqlagan holda jamoat tashkilotlari bilan aloqalarni yangi asosga o'tkazmoqda. Endi, davlat o'zining muayyan funksiyalarini jamoat tashkilotlariga o'tkazmoqda, bir qator vakolatlarini, huquq va resurslarni ularga bermoqda. Shu yo'l bilan davlat jamoat tashkilotlarining o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ikkinchi tomondan, jamiyat jamoat tashkilotlarini rivojlantirish orqali ularningulgan salohiyatlarini mamlakatni boshqarish yo'n alishida faollashtirmoqda.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda huquqiy me'yorlar poydevor vazifasini bajaradi. Huquqiy me'yorlarning asos vazifasini bajarishi jamoatchilik nazoratining har bir qadami mavjud qonunlar asosida qo'yilishini taqozo etadi.

Jamoatchilik nazoratining mohiyat jihatidan huquqiy nazorat ekani fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismi bo'lgan huquqiy davlatning mohiyatiga to'la mos keladi. Ayni paytda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, huquqiy davlatni yaratish yo'lida amalga oshirilayotgan jamoatchilik nazoratining o'zi ham mavjud qonuniy me'yorlarga asoslanishi lozim.

Davlat organi o'zining nazorat funksiyalarini amalga oshirishda jamoatchilik nazorati subyektlaridan kelib tushadigan axborotdan foydalanadi, jamoatchilik nazorati esa, o'zining funksiyalarini ko'pincha tegishli davlat organlariga murojaat qilish orqali amalga oshiradi. Ana shunday o'zaro bog'liqlik mamlakatimizda "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash to'g'risida"gi Qonun loyihasini muhokama qilish jarayonida hamda mazkur qonun loyihasini hayotga tadbiq qilish bo'yicha Buxoro va Samarqand viloyatlarida o'tkazilgan eksperiment davomida o'zining yorqin ifodasini topdi.

NNTlarning vujudga kelishi obyektiv voqelikning in'ikosi bo'lib, hatto eng rivojlangan demokratik mamlakatlarda ham davlat o'zining fuqarolariga o'z organlari va mansabdor shaxslarining suiiste'molliklardan holi ekaniga to'la kafolat berolmaydi.

Demokratiya fenomenining yirik tadqiqotchilaridan bo'lgan Aleksis de Tokvil demokratik tuzumning mohiyati hukumatning hokimiyatini cheklashda, deb talqin qilgan edi. Insonning huquqini hukumat emas, birinchi navbatda, qonun, shaxsning o'zi va jamiyat himoya qilishi kerak. Demokratik jamiyatda jamoat birlashmalarining vujudga kelishi jamiyatni boshqarish qonunlaridan biri bo'lgina qolmay, mutlaq zaruriy qonun hamdir. De Tokvilning fikriga ko'ra, "Dunyodagi mamlakatlar orasida eng demokratik mamlakat fuqarolari maqsadga yetishishda o'zaro maslahatlashish asosida ish ko'radigan va mazkur jamoaviy harakat usulini boshqalardan ko'ra ko'proq qo'llaydigan mamlakatdir"²²⁴. Huquqni himoya qilish bo'yicha tuzilgan jamoat tashkilotlari barcha mamlakatlarni tezkor, samarali va kam sarf bilan inson huquqlari muammosini hal qilishga ko'maklashadigan va hokimiyat organlari suiiste'molliklaridan himoya qiladigan tashkilotlarga bo'lgan ehtiyojni ifodalaydi.

Demokratik mamlakatlarda tuzilayotgan NNTlar bir qator umumiy funksiyalarga ega. Fuqarolarning talablarini ifodalash; so'z erkinligini ta'minlash; jamoatchilikni davlatni boshqarish va demokratik jarayonlarda ishtirok etishga safarbar qilish kabilar ana shunday funksiyalar jumlasiga kiradi..

²²⁴Токвиль А. Демократия в Америке. –М.,1998.-С.33.

XX asr oxiriga kelib bir qator muammolarni hal qilishda, xususan, inson huquqlarini himoya qilishda NNTlarning ishtirokini ta'minlash xalqaro-huquqiy jarayonning uzviy tarkibiy qismiga aylandi. BMT doirasida inson huquqlariga oid asosiy hujjatlarni tayyorlashni NNTlarning ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin.

Jamoatchilik nazorati quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- u jamiyat va uning alohida institutlarini boshqarish, jamiyatning barcha a'zolari ehtiyojlari va manfaatlarini uyg'unlashtirish shakli sifatida namoyon bo'ladi;

- mamlakatdagi turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini uyg'unlashtirishda va bu manfaatlar o'rtasida nizolar kelib chiqishining oldini olishda muhim vosita hisoblanadi.

- jamiyatdagi tezkor hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarni bajarishda jamiyatning kuch-g'ayratini birlashtirish va muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi.

- jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy me'yorlarning bajarilishini kafolatlaydigan vosita hisoblanadi.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib boruvchi institutlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mamlakatdagi turli ijtimoiy-madaniy hamda kasbiy guruhlarining manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy partiyalar. Saylovchilar saylov jarayonida u yoki bu partiya ovoz berar ekan, ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini bevosita nazorat qiladi. Ayni paytda, ular ovoz bermagan partiyalarning faoliyatiga ishonchsizlik bildirgan hisoblanadi;

- mehnatkashlarning manfaatlarini taqdim va himoya qilish maqsadida tuzilgan kasaba uyushmalari;

- notijorat xarakterga ega bo'lgan jamoat tashkilotlari va uyushmalarining turli-tumanligi. Mazkur uyushma va tashkilotlar davlat hokimiyati organlari oldida fuqarolarning huquq va manfaatlarini taqdim qilish va himoya qilish maqsadida tuziladi;

- mamlakatda jamoat-davlat tuzilmalarining mavjudligi. Bunday tuzilmalar qatoriga turli vazirliklar va idoralar qoshida tashkil etilgan jamoatchilik kengashlari va uyushmalarini kiritish mumkin;

- mamlakat hududida jamoatchilik hokimiyatining quyi bo'g'in i hisoblanadigan o'zini o'zi boshqarish organlarining mavjudligi. O'zbekistonda ana shunday organlardan hisoblanadigan mahalla institutining faoliyati aholini o'zining ehtiyoj va manfaatlarini qondirish va himoya qilish maqsadida uyushtirishga yo'naltirilgan bo'ladi;

Ijtimoiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlaridan biri shundaki, jamiyat o'sib va rivojlanib borishi jarayonida oddiy xalq va hokimiyat o'rtasidagi bevosita aloqalar murakkablashib boradi. Masalan, qishloq joylarda har bir fuqaro qishloq oqsoqoli bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega. Shaharlarda, ayniqsa, katta shaharlarda istiqomat qiluvchi fuqarolar bunday imkoniyatga ega emas. Bunday shaharlarda har doim vositachilar paydo bo'ladi, ular bir tomondan, xalqning ehtiyoj va kayfiyatini yuqori idoralarga yetkazib tursa, ikkinchi tomondan, hokimiyat faoliyati to'g'risida aholiga axborot yetkazib turadi. Ana shunday vositachilar jumlasiga ommaviy axborot vositalari, reklama va piar agentliklarini kiritish mumkin. Shundan xulosa qilib aytish mumkinki, xalq va hokimiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ikki turli bo'ladi:

1. Unchalik katta bo'lmagan ijtimoiy tizimlar uchun xos bo'lgan bevosita o'zaro ta'sir.

2. Shaharlar va umuman, katta ijtimoiy tizimlarda hokimiyat va aholi o'rtasida bevosita o'zaro ta'sir vujudga keladi. Bunda vositachilik vazifasini ommaviy axborot vositalari, PIAR va reklama agentliklari kabilar bajarishadi.

Jamoatchilik nazorati juda qadim zamonlardan buyon mavjud. Masalan, ibtidoiy jamoada shaxs xulqini jamoa nazorat qilgan. Agar shaxs xulq-atvorida jamoa tomonidan qabul qilingan

me'yorlardan og'ish bo'l sa, jamoa a'zolari turli sanksiyalar yordamida uning xulqini tegishli tomonga o'zgartirgan.

O'zbekistonda qadimdan o'zini o'zi boshqarish organi bo'lgan mahalla nazoratchilik funksiyalarini ham bajargan. Bunday funksiyani mahalla jamoasi yuqoridan tushirilgan farmonlar, buyruqlar va boshqa huquqiy me'yorlarga munosabat bildirish shaklida ifodalagan.

Jamoatchilik nazorati uzoq tarixga ega bo'lsa ham, uni ilmiy tushuncha sifatida fanga ijtimoiy psixologiyaning asoschilaridan bo'lgan T.Tard olib kirdi. Uning talqinida mazkur tushuncha jinoyatchining xulq-atvorini me'yoriy qoidalar doirasiga qaytarish uchun qo'llaniladigan usullar majmuini ifodalagan. Keyinroq, bu tushunchaning mazmuni ancha kengaydi. Bunday kengayish amerikalik sotsiologlar E.Ross va R.Park tadqiqotlari tufayli yuz berdi. Ularning talqinida jamoatchilik nazorati individga uning xulq-atvorini ijtimoiy me'yorlarga mos keltirish maqsadida o'tkaziladigan ta'sirni anglatadi.

Amerikalik sotsiolog T.Parsons tavsifida jamoatchilik nazorati sanksiyalar yordamida deviant xulq-atvorga ta'sir o'tkazish orqali uni me'yoriy holatga keltiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, jamoatchilik nazorati ijtimoiy tizimning o'zini o'zi tartibga solish usulidir. Mazkur usul huquqiy me'yorlar yordamida hamda mazkur tizimning tarkibiy qismlari orqali tartib va barqarorlikni ta'minlash maqsadida o'tkaziladi. Jamoatchilik nazoratining xarakteri, mazmuni, yo'naltirilganligi mazkur ijtimoiy tizimning xarakteri, mohiyati va tipi bilan belgilanadi. Jamoatchilik nazorati ibtidoiy, arxaik jamiyatlarda hozirgi rivojlangan industrial jamiyatlardagiga nisbatan mutlaqo o'zgacha xususiyatga ega bo'ladi. Arxaik jamiyatlarda u sodda tuzilmaga ega bo'l sa, industrial jamiyatlarda murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Sanksiyalar - jamoatchilik nazoratining elementi. Alohida shaxslar va ijtimoiy guruhlarning xatti-harakatiga tezkor munosabat bildirish maqsadida jamiyat ijtimoiy sanksiyalar tizimini yaratgan. Sanksiyalar o'z mohiyatiga ko'ra, alohida shaxs va ijtimoiy guruhlar, muassasa va tashkilotlarning xatti-harakatiga munosabatdir. Ijtimoiy sanksiyalar tizimining vujudga kelishi tasodifiy hol emas. Me'yorlar jamiyat qadriyatlarini himoya qilish maqsadida yaratilgan bo'l sa, sanksiyalar ijtimoiy me'yorlar tizimini himoya qilish va mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Me'yor sanksiya yordamida himoya qilinmasa, unga odamlar amal qilmay qo'yadi.

Sanksiyalar moddiy va ma'naviy bo'l ishi mumkin. Moddiy sanksiyalar vazifasini jarima, mol-mulkni musodara qilish kabilar bajaradi. Ma'naviy sanksiyalar esa tanqidiy fikr, xayfsan, kesatiq, piching, izza qilish kabi shakllarda bo'l ishi mumkin. Fuqarolik jamiyati institutlari ma'muriy va huquqiy sanksiyalarni qo'llash vakolatiga ega emas. Ular faqat ma'naviy sanksiyalarni qo'llashi mumkin. Lekin o'rinli va to'g'ri qo'llangan ma'naviy sanksiyalarning kuchi huquqiy sanksiyalar kuchidan kam bo'l masligi mumkin.

Yuqorida bayon qilinganlardan xulosa qilib aytish mumkinki, me'yorlar va sanksiyalar bir butunlikni tashkil qiladi. Birorta me'yor tegishli sanksiyalarga ega bo'lmasa, u odamlar va ijtimoiy guruhlarning xulq-atvoriga ta'sir o'tkaza olmaydi. Bunday me'yor shior, chaqiriq bo'lishi mumkin. Lekin, u jamoatchilik nazoratining tarkibiy qismi bo'l a olmaydi.

Alohida shaxs yoki ijtimoiy guruh ijtimoiy me'yorlarga bo'yinsunishni istamasa yoki ularni chetlab o'tishga harakat qilsa, jamiyat majburlash choralarini qo'llaydi. Hozirgi jamiyatlarda majburlash orqali nazorat qilishning qat'iy ishlab chiqilgan qoida va tizimlari mavjud. Mazkur tizimlar me'yorlardan og'ishning tiplari va darajasiga ko'ra, mutanosib ravishda qo'llaniladigan sanksiyalar yig'indisidan iborat.

Jamoatchilik nazoratining subyektlari

2018 yilning 12 aprel kuni qabul qilingan “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi . Qonunda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlari qonunning 6-14-moddalarida ko‘rsatib o‘tilgan. Qonunda 4 ta asosiy jamoatchilik nazorati subyekti nazarda tutilgan:

- O‘zbekiston fuqarolari;
- Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari;
- Nodavlat notijorat tashkilotlari;
- Ommaviy axborot vositalari.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning davlat hokimiyati organlari faoliyati qonunlarga mosligini nazorat qilish huquqi ularning davlat boshqaruvidagi faqat yakuniy-nazorat bosqichida ishtirok etishi bilanгина cheklanmaydi. Ular o‘zlarining mazkur huquqini davlat boshqaruvining avvalgi bosqichlari, ya‘ni rejalashtirish va tashkillashtirish bosqichlarida ham namoyon qilishlari mumkin. Shuning uchun nodavlat notijorat tashkilotlari davlat hokimiyati organlari faoliyatining qonunlarga mosligini nazorat qilish huquqini faqat nazorat bosqichigabog‘lab qo‘yish unchalik to‘g‘ri bo‘l maydi.

Mazkur tashkilotlar davlat boshqaruvining rejalashtirish bosqichlaridayoq ishtirok etish huquqi ular davlat hokimiyati organlari, jumladan, mahalliy davlat boshqaruvi organlarining ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlar va dasturlarini rejalashtirish bosqichidayoq nazorat qilishida namoyon bo‘l adi. Bundan tashqari, har qanday nazorat, jumladan, jamoatchilik nazoratining samaradorligi davlat hokimiyati organlari, jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlari muayyan tadbir va dasturlarni amalga oshirib bo‘l gandan keyin ularning qonunlarga mos yoki mos emasligini nazorat qilishi mumkin va ba‘zi hollarda zarur bo‘ladi. Lekin bunday yo‘l tutish samarali emas. Chunki tadbir yoki dastur amalga oshirilib, unga davlatning, ya‘ni soliq to‘lovchilarning mablag‘lari sarflanib bo‘l gandan keyin bu tadbir yoki dastur o‘rinsiz ekani aniqlansa, bu tadbir yoki dastur uchun mablag‘lar noo‘rin sarflangan, deb topish ehtimol to‘g‘ridir. Lekin endi noo‘rin sarflangan mablag‘larni qaytarib bo‘l maydi. Shuning uchun ham NNTlar o‘zlarining nazorat qilish huquqini o‘sha tadbir yoki dastur rejalashtirish bosqichida ekanidayoq amalga oshirishlari kerak. Buning uchun muayyan shart-sharoit zarur.

Ma‘lumki, NNTlar hokimiyat funksiyalari va vakolatlariga ega emas. Lekin ular davlat hokimiyat organlari faoliyatini nazorat qilish huquqiga ega. Ana shu huquq samarali ishlashi uchun davlat hokimiyati organlari faoliyatining shaffofligini ta‘minlash zarur. Shuning uchun mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiqligini ta‘minlash bo‘yicha maxsus qonun qabul qilingan.

Bu Qonunning 5-moddasida, jumladan, shunday deyiladi: “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborot jumlasiga quyidagilar kiradi: davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning, normativ va boshqa hujjatlarning loyihalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar. Mamlakatimizda jamoatchilik nazoratiga aloqador qonunlarning puxta o‘ylab tuzilayotgani va qabul qilinayotgani Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborot jumlasiga normativ va boshqa hujjatlarning loyihalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kiritilganida ham namoyon bo‘l adi. Mazkur holat jamoatchilik nazoratining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyatini tadbirlar rejalashtirilishi bosqichidayoq nazorat qilish uchun imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunida ham fuqarolarning birlashmalar tuzish huquqi kafolatlangan: “Inson huquqlari bo‘yicha Umumjahon deklaratsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asoslanib, ushbu Qonunda fuqarolarning jamoat birlashmalarini tuzish erkinligi ularning ajralmas huquqi sifatida mustahkamlab qo‘yiladi”. Mazkur Qonunda “jamoat birlashmasi” tushunchasiga ta‘rif ham

berilgan: “O‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir.” Ko‘rinib turiptiki, jamoat birlashmalariga berilgan ta‘rif ko‘pchilik tomonidan e‘tirof etilgan “Vikipediya” lug‘atida keltirilgan ta‘rifga to‘la mos keladi va ta‘kidlash joizki, bizning qonunimizda jamoat birlashmalariga berilgan ta‘rifning bir qator jihatlari “Vikipediya”dagidan kengroq va mustahkamroqdir.

Konstitutsiyamizda davlatimiz ijtimoiy davlat ekani mustahkamlab qo‘yilgan. Jamoatchilik nazorati davlatning ijtimoiyligini ta‘minlaydigan muhim omildir. Jamoatchilik nazorati bo‘l magan davlatni ijtimoiy davlat deb bo‘l maydi. Jamoatchilik nazorati qanchalik kuchli bo‘lsa, davlatning ijtimoiylik darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Davlat ijtimoiy hayotida xalq qo‘l lab-quvvatlagan narsalargina yashashi kerak.

Jamoatchilik ekspertizasi yakunlariga ko‘ra aholi qo‘llab-quvvatlamaydigan narsa va hodisalarga barham berish zarur. Jamoatchilik nazoratining shakllaridan biri bo‘lgan jamoatchilik ekspertizasi mamlakatda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy jarayonlarga aholining munosabatini aniqlaydi va mazkur jarayonlarning qay biri yashashi va qay biridan voz kechilishi kerakligi to‘g‘rsida xalqning hukmini ifodalaydi.

Fuqarolik jamiyati institutlari jumlasiga jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari va boshqa turli jamg‘armalar, uyushmalar kiradi. Bu institutlar tom ma‘noda jamoat birlashmalaridir. Konstitutsiyamizning XIII bobi 56-moddasida jamoat birlashmalariga quyidagicha ta‘rif beriladi: “O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e‘tirof etiladi”²²⁵.

Ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, barcha fuqarolik jamiyati institutlarini jamoat birlashmalari tashkil qiladi. Demak, fuqarolik jamiyati institutlari jamoat birlashmalari sifatida jamoatchilik nazoratining subyektlari hisoblanadi. Mana shu jumlaning o‘zida fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazoratini tashkil qilishdagi o‘rni va roli o‘z ifodasini topgan.

Jamoat birlashmalari orasida siyosiy partiyalar jamoatchilik nazoratini tashkil qilishda ancha faol ishtirok etmoqda. Mamlakatimizdagi eng ko‘p sonli jamoat tashkiloti kasaba uyushmalaridir. Ular mehnatni muhofaza qilish, mehnatkashlarning dam olishini tashkil qilish va nazorat qilish kabi masalalarda birqancha ijobiy ishlarni amalga oshirdi.

Tashkilot va korxonalaridagi Jamoa shartnomalarining ma‘muriyat tomonidan bajarilishini nazorat qilish kasaba uyushmalarining eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifani kasaba uyushmalarining ko‘pchilik boshlang‘ich tashkilotlari qoniqarli bajarmoqda.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining rivojlanishida muhim omillardan hisoblangan ommaviy axborot vositalari taraqqiy topmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda o‘n lab nodavlat telekanallari, yuzlab bosma axborot vositalari faoliyat yuritmoqda. Ularning bari jamoatchilik nazoratining subyektlari hisoblanadi. Jamoatchilik nazoratida ular ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ular mazkur jarayonda bevosita ishtirok etishlaridan tashqari nazoratning boshqa subyektlari tomonidan aniqlangan qonunga xilof holatlarni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Ular yetkazgan ma‘lumotlar jamoatchilikning qonunlarni buzish hollariga nisbatan murosasiz munosabatlarini shakllantiradi.

O‘zbekistonda huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davlat organlari barcha sohalaridagi faoliyatini jamoatchilik tomonidan nazorat qilinishini eng dolzarb

²²⁵ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.:Ўзбекистон НМИУ, 2018.-Б.19.

masalalardan biriga aylantiradi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davlat hokimiyati organlari va o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati shaffofligini ta'minlash, ijroiya hokimiyati organlari tomonidan tayyorlanayotgan ijtimoiy ahamiyatga molik qarorlarni jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazish, ijroiya hokimiyati organlari qoshida jamoatchilik kengashlarini tuzish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash mexanizmlarini yaratish bilan bog'liq.

Jamoatchilik nazoratining hokimiyat vakolatlariga ega emasligi, uning yetarli ta'sir kuchiga ega emasligi to'g'risida noto'g'ri tasavvurlar keltirib chiqarishi mumkin. Aslida, unday emas. Jamoatchilik nazorati jarayonida aniqlangan qonundan chetga chiqish holatlari vakolatli davlat organlariga yoki jamoatchilik fikriga murojaat etish orqali bartaraf etiladi. Mazkur holat jamoatchilik nazorati subyektlari nazoratning ham huquqiy, ham ijtimoiy mexanizmlardan foydalanishi mumkinligini anglatadi. Davlat nazorati esa, asosan, huquqiy mexanizmlardan foydalanadi.

Jamoatchilik nazoratining mohiyati davlat hokimiyati organlari faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo'l ishdagina emas, ana shu tanqidiy munosabat orqali davlatni qo'llab-quvvatlashda ham namoyon bo'ladi.

Jamoatchilik nazoratining samaradorligini ta'minlashda muhim omillardan biri davlat hokimiyati organlari faoliyatining shaffofligidir. Shuni hisobga olib mamlakatimizda muhim ijtimoiy eksperiment o'tkazildi. Ana shu eksperiment boshlanishida ma'lum qilinganidek, Buxoro va Samarqand viloyatlari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari 2013 yilning may-noyabr oylarida qonun loyihasi talablariga mos keladigan yangi rejimda faoliyat yuritdi. Masalan, yangi talablarga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslarning so'rovlari qayd etilgan kundan boshlab, 15 kun davomida ko'rib chiqilishi belgilandi. OAVning eksperiment subyektlari faoliyati, mansabdor shaxslar bilan intervyu tashkil qilish haqidagi so'rovlarini esa, yetti kundan oshmagan muddatda ko'rib chiqish belgilandi.

Qonunning aprobatsiyasi bo'yicha o'tkazilayotgan eksperiment to'g'risida keng jamoatchilik va jamoat tashkilotlarini xabardor qilish maqsadida, 2013 yilning may-iyul oylarida Buxoro va Samarqand viloyatlarida fuqarolar bilan 120dan ortiq uchrashuvlar o'tkazildi. Shuningdek, mazkur eksperimentning o'tkazilish tartibi va qoidalari bo'yicha boshqa viloyatlar hokimiyatlari hamda boshqa davlat hokimiyat organlari xodimlari uchun yo'riqnoma tashkil qilindi.

Eksperiment o'tkazish bo'yicha ishchi komissiyasi a'zolarining so'zlariga ko'ra, eksperiment boshlangandan keyingi dastlabki oylardayoq mazkur viloyatlarda fuqarolarning siyosiy va axborot olishga nisbatan faolligi keskin o'sdi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2013 yilning 2-choragida 1-chorakka nisbatan fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga yozma va og'zaki murojaatlari ikki baravar oshdi va Samarqand viloyatida 1514, Buxoro viloyatida 1230 tani tashkil qildi.

3. Ijtimoiy sheriklik tushunchasi va uning ilmiy-nazariy jihatlari hamda O'zbekistonda bandlikdagi ijtimoiy sheriklikning me'yoriy-huquqiy asoslari

Ijtimoiy sheriklik nazariyasi va zamonaviy jamiyatlarning o'z holicha harakatlanishi va fuqarolik jamiyati nazariyasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu ikki nazariyaning biri-biri bilan o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratish o'zaro bog'liq tamoyillardan kelib chiqib, ijtimoiy jarayonlar taraqqiyotini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Avvallari "ijtimoiy sheriklik" deganda, ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilari: ish beruvchilar – tadbirkor, mulkdorlar va yollanma ishchilar manfaatlarining uyg'unlashuviga ular orasida boradigan hamkorlik aloqalari orqali erishish borasidagi institutsional munosabatlar tushunilar edi. Bu tushuncha XIX asrning oxiri va XX

asrning boshlariga xos dunyoqarashlar, ishchilar va ish beruvchilar orasidagi ixtiloflarni tinch yo‘l bilan hal qilishga qaratilgan harakatlar natijasida shakllangan edi.

Hozirgi kunda, ijtimoiy sheriklik tushunchasiga muhim o‘zgarishlar kiritilgan. Axborot jamiyati sharoitida sinflar orasidagi tafovutlar nazariyalarining o‘rniga fuqarolik jamiyati tushunchalari kirib keldi. Bunda jamiyatni shakllantiruvchi asosiy sinflar sifatida faqat ishchilar va ish beruvchilar emas, balki qator boshqa jamiyat a‘zolari ham nazarda tutiladi. Ular orasida ziyolilar, uy bekalari, xizmat sohasi xodimlari, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ta’lim, sog‘liqni saqlash va qator sohalarda qatnashuvchilar hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining jamiyat taraqqiyoti va o‘zaro sherikchiliklari bilan bog‘liq munosabatga kirishadigan jamiyat a‘zolari ham bor.

Jamiyat tarkibi va undagi aloqalarning murakkabligi ijtimoiy sheriklik tushunchasini ham murakkablashtirib, nafaqat sheriklik qatnashchilarining kengayishini, balki undagi keskin muassasaviy o‘zgarishlar, me‘yoriy-huquqiy ta‘minlanganlik, tashkillashtirish, nodavlat muassasalari o‘rnining o‘sishi, jamiyat a‘zolarining o‘zligini anglashi va manfaatlariga erishishdagi faoliyatlarini ham ifodalay boshladi. Hozirda “ijtimoiy sheriklik” deganda, ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari bo‘lgan ishchilar va ish beruvchilar manfaatlarini kelishtirish mexanizmlari va institutlari tizimi, yakka turdagi tadbirkorlar, nodavlat notijorat muassasalari, byudjet tashkilotlari, davlat boshqaruv organlari, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari hamda boshqa tashkilot va muassasalar orasida keng qamrovli sheriklik tushuniladi.

Fuqarolik jamiyatiga asoslangan axborot jamiyati sharoitida sheriklik munosabatlari faqat ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitidagina amal qilishi mumkin bo‘lib, bunda jamiyat ijtimoiy hayotining asosini mutlaqo o‘z manfaatini ko‘zlash, merkantillik va qanday qilib bo‘lsa foyda olishga intilish tashkil qilmay, balki jamiyat ehtiyojlarini qondirish va uning har bir a‘zosi farovonligining yuqori darajasini ta‘minlash tashkil etadi. Boshqacha aytganda, ko‘pchilik kishilar ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskinlashgan, ijtimoiy portlash xavfi solayotgan vaziyatda yo‘qotishi mumkin bo‘lgan turmush darajasini erishgan bo‘lishlari zarur. Xalqaro tajriba tahlilining ko‘rsatishicha, ijtimoiy sheriklikning rivojlanish darajasi ijtimoiy hayot barcha sohalarning rivojlanish darajasiga mos keladi va uni aks ettiradi.

Iqtisodiyot sohasida quyidagilar bunga asos bo‘lib xizmat qiladi:

- mulkchilik shakllari xilma-xilligi sharoitida xususiy mulkchilikning daxlsizligi;
- ilg‘or texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqaruvchi kuchlarning holati;
- bozorning tovarlar va xizmatlar bilan ta‘minlanganligi;
- firma ishida yangi ishchilar qatnashishi sharoitida firma va korporatsiyalar daromadlarining adolatli taqsimlanishi.

Ijtimoiy sohada jamiyatning fuqarolik deb nomlash qabul qilingan holati sheriklik munosabatlarining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday holatda inson, uning farovonligi, ijtimoiy qulayliklar ijtimoiy rivojlanishning asosiy mezonlari hisoblanadi. Davlat jamiyat ustida turmaydi, balki unga xizmat qiladi. Tuzilmaning butun tashqi noaniqligida sinflar, ijtimoiy qatlamlar (toifalari), guruhlar o‘z qiziqishlari, ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidagi, daromad hajmidagi, jamoatchilik ishlarini boshqarishdagi o‘rni va rolini puxta belgilaydilar.

Ijtimoiy sheriklik asosini tashkil etuvchi fuqarolik jamiyati o‘zida quyidagilarni aks ettiradi: ijtimoiy va birinchi navbatda, ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy mexanizm tuziladi va samarali amal qiladi. “Ish beruvchi-ish oluvchi” bo‘g‘inidagi o‘zaro ta‘sir ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri, davlat organlarini chetlab o‘tgan holda amalga oshiriladi. Faqat tomonlar o‘z munosabatlarida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga layoqatsiz bo‘lgan vaziyatlardagina davlat tartibga solishi (sud, ma‘muriy ish) kiritiladi.

Ijtimoiy sheriklikning siyosiy asosini nafaqat demokratiyaning rivojlangan shakllari, balki qonunning oliyligi ham o'zida mujassamlashtiradi. Diktatorlik yoki avtoritar tartiblar, aniqlanishicha, sheriklik munosabatlarini ta'minlay olmaydi. Masalan, Koreya yoki Singapur davlatlaridagi tizim G'arbiy dunyoqarash nuqtai nazaridan, demokratik tamoyillarga balkim to'liq javob bermas. Lekin bu davlatlar qonun ustuvorligining ta'minlanishi, ijtimoiy sheriklik va ijtimoiy hamkorlik, mavjud fuqarolik jamiyati va o'z-o'zicha harakatlanish borasida katta yutuqlarga erishganliklarini namoyish etmoqdalar. Boshqaruvning demokratik shakllarida va qonunchilikning oliyligini ta'minlashda xalqaro me'yorlarga muvofiq deklaratsiyalanadi va kafolatlanadi. Bunda davlat jamiyat a'zolarining barcha huquqlarini ta'minlaydi, uning vakolatlari sohalari, jamiyat, shaxs hayotiga ta'sir ko'rsatish tavsifi puxta va aniq belgilangan. U sheriklar uchun "o'yin qoidalari"ni o'rnatadi, ularning bajarilishini nazorat qiladi. Jamiyat a'zolari bu qoidalarga puxta amal qiladilar, bu qoidalar doirasida bir-birlari bilan o'zaro ta'sirlashadilar.

Ijtimoiy sheriklik tizimi sinflar, guruhlar va qatlamlarning ijtimoiy-siyosiy o'zini-o'zi belgilashini, jamiyat turli a'zolari manfaatlarini ifodalovchi yoki ko'zlovchi tashkilotlar (siyosiy partiyalar, nohukumat va xususiy tashkilotlar, harakatlar, kasaba uyushmalari va h.k.)ni tuzish va faoliyati erkinligini ko'zda tutadi. Bunda sheriklik munosabatlarining tarkibida siyosiy jihat garchi mavjud bo'lsa-da, ammo ijtimoiy jihat ustuvorligicha qolmoqda. Ijtimoiy sheriklik nazariyasi zamonaviy jamiyatlarning o'z holicha harakatlanish nazariyasi bilan uzviy bog'liq. Ijtimoiy rivojlanishning burilish bosqichlariga e'tibor qaratish ijtimoiy rivojlanishni tartibga solish zarurligining ikki, o'zaro bog'liq tamoyillaridan og'ish imkoniyatini beradi. Birinchidan, hozirgi bosqichda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlar davlat muassasalari tomondan tegishli nazoratsiz amal qilishi mumkin emas. Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati uchun ijobiy jarayonlar "umumiy farovonlik davlati"ni yaratishni ta'minlay oladigan ijtimoiy tuzilmalar "akkumulyatsiyasi"(quvvatlantiruvchi)siz amalga oshirilmaydi.

Ko'plab G'arb mamlakatlarida ijtimoiy sheriklik g'oyasi va siyosati, asosan, mehnat huquqi me'yorlari orqali huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Ijtimoiy sheriklik ijtimoiy hodisa sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan, bunda industrialashtirishning rivojlanishi natijasida yollanma ishchilar armiyasining o'sishi kuzatildi, burjua jamiyatida sinfiy ziddiyatlar kuchaydi. Bu davrda dunyoning qator mamlakatlarida siyosiy partiyalar, ishchi klublari, manfaatlar (bosim) guruhlari, kasbiy va deputatlik birlashmalari vujudga keldi. XX asrning boshlarida burjua tuzumini inqilobiy o'zgartirishga chaqirgan Yevropadagi radikal oqimlar bilan bir qatorda, Rim Papasi Lev XIII ning "Rerum Novarum" (1891) ensiklika (lotincha "encyclica"so'zidan olingan bo'lsa ham, "tuman, asosiy" ma'nosini bildiradi. Papaning ijtimoiy-siyosiy, diniy va ma'naviy-axloqiy masalalar bo'yicha hujjati) sida bayon qilingan nuqtai nazarlarni ajratuvchi dunyo partiyalari ham shakllandi²²⁶. Unda pontifik ishchilarni zo'ravonlikni qo'l lamaslikka, mavjud ijtimoiy va siyosiy tartibni ag'darishga urinmaslikka, kuchlarni jamiyatning inqilobiy emas, balki tadrijiy rivojlanishini ta'minlaydigan ijtimoiy sheriklik tomonga yo'naltirishga chaqirdi.

²²⁶ Rerum Novarum – Рим католик черкови барча епископларига йўлланган, уларнинг эътиборини ишчилар синфининг ахволига қаратган очик хат. Вильгелм Эммануэль фон Кеттелер ва кардинал Генри Эдвард Мэннинг бу номанинг мазмунига катта таъсир кўрсатдилар. Энцикликада ҳукумат, бизнес, ишчилар ва черков ўртасидаги муносабатлар ўрганилган. Папа ишчиларнинг касабга уюшмаларини тузиш ҳукуқини социалистик ғояни инкор қилган ва хусусий мулкчилик ҳукуқини эътироф этган ҳолда қўллаб-қувватлашини айтган. Rerum Novarumнинг кўпгина бандлари энцикликлар Пий XI "Quadragesimo Anno" (1931), Иоанн XXIII "Mater et Magistra" (1961) ва Иоанн Павел II "Centesimus Annus" (1991)лар томонидан тўлдирилган.

G'arbda ijtimoiy sheriklik nazariyasi va amaliyoti ishlanmalarini faollashtirishga sobiq SSSRda ijtimoiy inqilob va sotsializm qurilishi jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ijtimoiy yutuqlarni e'tirof etgan holda G'arb mamlakatlari mehnat va kapital o'rtasidagi munosabatlar strategiyasi va taktikasini o'zgartirishga, davlat, tadbirkorlar va yollanma ishchilar vakillarining kelishilgan, o'zaro qabul qilingan xulq-atvor yo'n alishini ishlab chiqishga majbur bo'l dilar. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda ham, xalqaro maydonda ham kasaba uyushmalari va tadbirkorlar uyushmalari singari jamoat birlashmalari, OAVlari, demokratik muassasalarni rivojlantirmagan holda bu jarayonlarning yuz berishi mumkin emas. 1919 yildan boshlab faol amal qilayotgan Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ana shunday tashkilotlardan biri bo'l di.

Biroq xalqaro tashkilotlar faoliyati samarali bo'l magani kabi ta'siri doimo cheklangan tashqi omil ham hisoblanadi. Mamlakatda ijtimoiy sheriklik munosabatlari vujudga kelishining asosiy omili, birinchi navbatda, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohasida yuz berayotgan real o'zgarishlarni, byudjet sohasi samaradorligini, islohotlarini, aniqrog'i tegishli qonunchilik asosining shakllanishini aks ettiradigan omil hisoblanadi. Fan-texnika inqilobi (FTI) ijtimoiy sheriklikning vujudga kelishida kuchli turtki bo'l di. Bir tomondan, FTI natijasida jamiyat aholi turli qatlamlarining hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi imkoniyatlarga ega bo'l di. Boshqa tomondan, FTI tomonidan ishchi kuchi sifatiga qo'yilayotgan nihoyatda yuqori talablar sharoitida ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-ruhiy tarkibiy qismi, bu munosabatlarni insonparvarlashtirish zarurati muhim ahamiyatga ega bo'l ib bordi.

Axborot jamiyatini shakllantiradigan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, ijtimoiy sheriklik tizimi va uning mexanizmlari hozirgi sharoitda munozarali masalalarni ish tashlash yoki namoyishlar yo'l i bilan emas, balki muzokaralar stoliga o'tirish, o'zaro kelishuv, turli aholi ijtimoiy guruhlari manfaatlariga qarshi turish o'rniga ularni muvozanatlashtirish yo'li bilan hal qilish imkonini beradi. Turli ijtimoiy-siyosiy kuchlarning sherikligi boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yadigan konfrontatsiya o'rniga oqilona murosani, bir tomonlama harakatlar o'rniga kelishuvni, radikalizm o'rniga chidamlilikni, inqilob o'rniga tadrijiylikni ko'zda tutadi. U barqarorlashtiruvchi rol o'ynaydi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka yordam beradi. Sheriklik va hamkorlikni ijtimoiy o'zaro ta'sir taraflari tomonidan murosasida erishiladigan manfaatlar muvozanati sifatida keng ma'noda tushunish, jamiyatda ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka erishish, iqtisodiy osoyishtalik uchun yaratiladigan ta'sirchan sharoit bugungi kunning yutug'i hisoblanadi.

Shu bilan birga, siyosiy sheriklik ijtimoiy sheriklik va ijtimoiy hamkorlikning muhim sharti hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati hukm surayotgan sharoitdagi siyosiy sheriklik quyidagi tamoyillarga suyanadi:

- a) tomonlarning teng huquqliligi;
- b) majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda zimmasiga olish;
- c) majburiyatlar bajarilishi ustidan javobgarlik;
- d) qonunchilik me'yorlariga rioya qilish;
- e) o'zaro qiziqish uyg'otadigan muammolarni muhokama qilish erkinligi;
- f) sheriklik nuqtai nazarlarini, mavqeini hurmat qilish va b.

Ko'pgina mamlakatlarda ijtimoiy sheriklik g'oyasi va siyosati, asosan, mehnat huquqi me'yorlari orqali huquqiy mustahkamlab qo'yildi. Ijtimoiy sheriklikning ham milliy, ham mintaqaviy va xalqaro darajalarda institutsionallashtirish yuz berdi. "Fordizm" deb nomlangan ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va nazorat qilish tahlili ijtimoiy sheriklik nazariyasini rivojlantirish nuqtai nazaridan qiziqarlidir. Ommaviy iste'mol uchun ommaviy ishlab chiqarish –

G'arbda tarqalgan ijtimoiy konsepsiyalardan birining nomini bergan amerikalik yirik tadbirkorning shiori ana shunday qisqa bo'lgan. Fordizm jamiyatdagi siyosiy va iqtisodiy hokimiyatning uch asosi mavjudligini ko'zda tutadi: kasaba uyushmalari shaklida tashkil qilingan ishchi kuchi, tadbirkorlik uyushmalari shaklida tashkil qilingan kapital hamda "umumiy farovonlik" tarafdori bo'lgan davlat. Kam ta'minlanganlarga yordam dasturlari, jamoat mehnat shartnomalari tizimi, pensiya ta'minoti, tibbiy xizmat, kadrlar tayyorlash kabi ijtimoiy regulyatorlar yagona organizmning keyingi unsurlari bo'lib xizmat qiladi.

Siyosiy nuqtai nazardan olganda, fordizm asosiy ijtimoiy kuchlar orasidagi kompromissni anglatsa, iqtisodiy jihatdan u mehnat unumdorligi va ish haqi o'sishining uzviy o'zaro aloqadorligiga tayanadi. Sotsial demokratiya va keynschilik g'oyalari qorishmasi bo'lgan fordizm ommaviy miqyosda umumiy farovonlikning haqqoniyligiga, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy egalitarizmning cheklanmagan imkoniyatlariga ishonch uyg'otdi. Biroq fordizm "umumiy farovonlik davlati" konsepsiyasining inqirozini bartaraf qilishga ham, bu g'oyalarni boshqa mamlakatlarga samarali eksport qilishga ham yordam bermadi. Shu bilan bog'liq ravishda, "ijtimoiy sheriklik"ning nazariy jihatlari yuzasidan korporativizm konsepsiyasini o'rganish maqsadga muvofiq. Bunda yirik ijtimoiy kuchlarni: siyosiy elita, armiya, cherkovlar, ishbilarmon doiralar, kasaba uyushmalari, yoshlar, ayollar tashkilotlari, manfaatdor guruhlar va boshqalarni oqilona uyg'unlashtirish asosida jamiyatni tashkil qilish tamoyillari tushuniladi. G'arb demokratiyasida korporativizmga ijtimoiy-siyosiy jarayonning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. U tegishli muassasalar doirasida rasmiy hokimiyat organlarini qonuniylashtirgan ijtimoiy qiziqishlarga ega etakchi kuchlar bilan uzviy muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi. G'arb nazariyotchilari korporativizmni jamiyatda manfaatlar muvozanatini, jumladan, ham gorizontal, ham vertikal mexanizmlarni o'rnatishdagi hamkorlik tizimi sifatida talqin qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi sharoitida ijtimoiy sheriklik va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish, albatta, mahalliy an'ana va urf-odatlarini, turmush tarzi va bu jarayonlarning institutsionallashtirish darajasini hisobga olishi zarur.

Quyidagilar bu jarayonlarning tayanch omillari hisoblanadi:

- *siyosiy barqarorlik saqlanishini ta'minlash;*
- *fuqarolik jamiyatining yanada rivojlanishini ta'minlaydigan qonunchilik muhitining vujudga kelishi va rivojlanishi;*
- *ijtimoiy guruhlar, mintaqalar va fuqarolik jamiyati ijtimoiy institutlarining o'z holicha rivojlanish tamoyillarining shakllanishi va rivojlanishi;*
- *turli ijtimoiy guruhlar tomonidan xususiy manfaatlarining anglanishi, bu ijtimoiy sheriklik va ijtimoiy hamkorlik ishtirokchilarining ma'lumot darajasi va dunyoqarashining ancha oshishi bilan birga boradi.*

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi mamlakatda ijtimoiy sheriklik va ijtimoiy hamkorlikning yanada rivojlanish imkoniyatlarini ancha kengaytirdi.

O'zbekistonda bandlikdagi ijtimoiy sheriklikning me'yoriy-huquqiy asoslari

Mamlakatimizda kichik va xususiy biznes rivojiga, uning ijtimoiy muammolarni hal etilishidagi ahamiyatini keskin oshirishga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Natijada uning hajmi kengayib, tobora ko'proq fuqarolar kichik biznesga jalb etilmoqda. Vaholanki, mehnat qonunchiligining, xususan, ijtimoiy sheriklikka oid qonunchilikning ham ushbu sohaga e'tibori oshib bormoqda. Bunga sabab kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lgan hodimlarning meg'nat huquqlarini himoyalash, ularda ijtimoiy sheriklikni amalga oshiruvchi

xodimlarning asosiy vakillari bo‘l mish kasaba uyushmalarini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati bilan bog‘liq bo‘l moqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida kichik va xususiy korxonalarda kasaba uyushmalari yo‘qligi jamoa shartnomalarini tuzmaslik holatlarini vujudga keltiradi. Natijada mehnat qilayotgan xodimlarning asosiy qismi o‘z huquqlarini, mehnat munosabatlaridagi qonuniy manfaatlarini o‘zlarining vakillik organlari orqali himoya qilish imkoniyatidan mahrumdirlar.

O‘zbekiston Respublikasida 2014 yil 25 sentyabrda qabul qilingan *“Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-376-sonli* yangi qonunning qabul qilinishi bilan O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklikning oshkora ta‘rifi va mazkur institutni tartibga soladigan qator me‘yorlari birinchi marta paydo bo‘l di. Mazkur qonunning 3-moddasida ijtimoiy sheriklik- davlat organlarinig nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘l gan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir.

Ijtimoiy sheriklikning maqsadi ishchilar va ish beruvchilarning qonuniy manfaatlarini kelishtirish, tashkilotning samarali faoliyatini va ishchilar uchun qonuniy huquq va kafolatlarni hisobga olishga qaratilgan qarorlar qabul qilish hisoblanadi. Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlarida ishchilar mehnat jamoasi sifatida qaraladi.

Prezidentimizning 2020 yil 29 dekabr kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘n alishlari sohasida ijtimoiy sheriklik masalasida quyidagilar belgilandi:

Prezident tomonidan Qonunchilik palatasida nodavlat notijorat tashkilotlarining doimiy vakili institutini joriy etishni taklif qilingan. Ushbu vakil quyi palata yig‘ilishlarida ishtirok etish, qabul qilinayotgan qonunlarga ta‘sirchan jamoatchilik nazotari va ijtimoiy sheriklik masalalarini kiritish bo‘yicha takliflar berish vakolatiga ega bo‘l ishi zarurligi ta‘kidlangan.

4. Jamoat xavfsizligini ta‘minlashning mohiyati hamda “Xavfsiz shahar – xavfsiz mamlakat” konsepsiyasining ahamiyati

Mamlakatimizda Harakatlar strategiyasi doirasida olib borilayotgan islohotlar taraqqiyotga xizmat qilmoqda. Buning asl sababi yurtimizda o‘rnatilgan tinchlik va barqarorlik ifodasi hisoblanadi. Bunda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar singari Milliy gvardiyaning ham salmoqli hissasi mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 10 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig‘ilishida “Keyingi paytlarda Qurolli Kuchlarning tashkiliy tuzilmasi bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida so‘z yuritganda, Milliy gvardiya tashkil etilganini alohida ta‘kidlash lozim. Ma‘lumki, bu maxsus harbiy bo‘l inma faoliyati jamiyat va davlat xavfsizligini ta‘minlash, inson huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, aholini turli terrorchilik xatarlaridan, jinoiy va boshqa noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilishga

qaratilgan”²²⁷ - deb ta’kidlab, Milliy gvardiya tashkil etilganligi va uning asosiy vazifalariga to’xtalib o’tgan edi.

Haqiqatdan ham mamlakatda tinchlik osoyishtalik, xotirjamlik va mustahkam barqarorlikni ta’minlashda Milliy gvardiya o’z o’rnini topdi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy hayotida harbiy-vatanparvarlik, Vatanni sevish hissini uyg’otish Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari o’z hissasini qo’shib kelmoqda. Bu borada jamoat va davlat tashkilotlari bilan hamkorlikning o’rni beqiyos. Yaqin o’tmishda yurtimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan hadik, qo’rquv, muammolarni bartaraf etishga ishonchsizlik hissi mavjud ekanligi hammamizga sir emas. Fuqarolarimiz huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga murojaat etish va o’z dardu tashvishini etkazish og’ir muammolardan biri edi. Ya’ni huquqni muhofaza etuvchi organlarga ishonchsizlik mavjud edi desak to’g’ri bo’ladi.

Bugun Milliy gvardiya xalq ishonchiga mustahkam kirib bormoqda. O’ziga yuklatilgan vazifalarni to’la to’kis bajarayotgan mazkur tuzilma qisqa davrda bunday ishonchga ega bo’l ishining muhim jihatlardan biri o’zaro hamkorlikni mustahkamlash hisoblanadi. Fuqarolar bilan hamfikrlikni shakllantirishdan iboratdir. Milliy gvardiyaning tuzilishi va huquqiy asoslarining yaratilishi jamiyatimizda aholining tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlash va jamoat tartibini saqalashga xizmat qilib kelmoqda.

Shu o’rinda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “...butun dunyoda mamlakat ichida tartib-intizom va jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan armiya emas, Mudofaa vazirligi emas, balki alohida tuzilmalar shug’ullanadi”²²⁸ degan fikrlaridan kelib chiqib, bizda “Xavfsiz shahar – xavfsiz mamlakat” konsepsiyasi asosida yurtimizda jamoat tartibini ta’minlashga qaratilgan ulkan ishlarni amalga oshirishda Milliy gvardiya faoliyati katta ahamiyatga egadir.

Jamoat xavfsizligi deganda bu – jamoat joylarida aholi tinchligi saqlash, tartibbuzarliklarni oldini olish, jamoat xavfsizligi obyektlarini ularga zarar etkazishi mumkin bo’lgan xavf va tahdidlardan himoya qilish holati tushuniladi.

O’zbekistonda davlat mustaqilligi qo’lga kiritilgandan so’ng, demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish oliy maqsad qilib qo’yildi. Huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri esa, jamiyat va davlat hayotida qonun ustuvorligining so’zsiz tan olinishi, jamiyat a’zolari o’rtasida yuzaga keladigan barcha munosabatlarda qonunga itoat va hurmat ruhining mavjudligidir.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda jamoat xavfsizligining obyektiga ya’ni, jamoat joylarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, shaxsiy xavfsizligi va mulkiy himoyasini ta’minlash masalasiga to’xtalib o’tish darkor. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini 15-moddasida “Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko’radilar”, deb qat’iy belgilab qo’yilgan.

Davlat tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan siyosiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot, huquqiy va boshqa tadbirlar tizimi amalga oshiriladi. Asosiy Qomusimizning qator moddalarida umumiy asoslarni belgilovchi normalar mavjudki, mazkur institutni tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari belgilangan konstitutsiyaviy norma asosida va uning doirasida qabul qilinadi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 2-moddasida “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar

²²⁷ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т., “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – Б. 155-156.

²²⁸ Ўша манба: -Б.156.

jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar", 7-moddada esa, "Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi", deb belgilangan²²⁹.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining roli ortib borayotganligi O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 18 noyabrdagi "Jamoat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni loyihasida ham aks etgan. Unda jumladan;

- jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan kompleks maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- jamoat xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan maqsadli tarmoq dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish;
- fuqarolarning xavfsizligini va jamoat xavfsizligini vaqtincha tabiatdagi jamoat joylarida, shuningdek doimiy ishlaydigan jamoat joylaridagi alohida bo'limlarda, jinoiy holati og'ir bo'lgan ichki ishlar organi tomonidan tashkil etish va ta'minlash;
- doimiy va vaqtincha yashash joylarida va muhofaza qilinadigan shaxslarning marshrutlarida joylashgan jamoat joylarida jamoat xavfsizligini, shuningdek xorijiy davlatlar va hukumatlar rahbarlari, xalqaro tashkilotlarning rahbarlari va boshqa shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lganlarida himoya qilinadigan xavfsizlikni ta'minlash;
- fuqarolarga va yuridik shaxslarga shartnoma asosida vaqtincha xarakterdagi jamoat joylarida jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini, ayrim diplomatik va boshqa obyektlarni qo'riqlashda xizmatlar ko'rsatish; vaqtincha tabiatdagi jamoat joylarida sodir bo'lgan voqealar, huquqbuzarliklar har tomonlama va tizimli tahlil qilinishini amalga oshiradi, huquqbuzarliklarning sabablari va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek jamoat xavfsizligi samaradorligini oshirish to'g'risida davlat, jamoat va boshqa tashkilotlarga taqdimnomalar berish;
- ichki ishlar organlariga bir martalik xarakterdagi jamoat joylarida jamoat xavfsizligini ta'minlashda, shu jumladan ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda amaliy yordam ko'rsatish;
- jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun fuqarolarni o'z roziligi bilan jalb qilish; jamoat joylarida huquqbuzarliklar profilaktikasi, shu jumladan, ushbu huquqbuzarliklarning sabablari va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish kabi normalar belgilab berilgan. Huquqni muhofaza qilish faoliyati hamda harbiy xizmatchilarning o'zi ham uyushgan jinoyatchilikning diqqat obyektlaridan biri bo'lib qolishi mumkin.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilariga hujumlarni oldini olish maqsadida o'zlarining xizmat intizomiga qat'iy rioya qilishlari va yo'riqnomaga asosan harakat qilishlari, obyektlarga xizmat ko'rsatuvchi personal bilan yaqin aloqa o'rnatishlari, ko'pchilik odam to'planib qolgani joylarda maksimal ogoh bo'lgan ishlari, bu to'planib qolishlarning sababini aniqlash uchun choralar ko'rishlari zarur.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining roli ortib borayotganligi O'zbekiston Respublikasining 54-moddadan iborat, 2020 yil 18 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi Qonunda ham ko'rishimiz mumkin. Qonunning 3-moddasida O'zR Milliy gvardiyasining huquqiy maqomi va asosiy vazifalari belgilab berilgan, jumladan:

²²⁹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2019. – Б. 4-7.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi (bundan buyon matnda Milliy gvardiya deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish sohasida huquqni muhofaza qilish ayrim vazifalariga ega bo'lgan qo'shinlarining maxsus turidir.

Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish;

tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruv o'tkazish, jinoyat ishlarini qo'zg'atish va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish;

davlat obyektlarini, o'ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash;

qo'riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish;

jamoat tartibini muhofaza qilish, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo'lgan joylarda jamoat tartibini muhofaza qilish;

favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o'tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta'minlash;

qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish;

chet davlatlarning rasmiy vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegatsiyalarni kutib olishda va kuzatib qo'yishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog'da rasmiy marosimlarni o'tkazish;

huquqbuzarliklarni oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish;

O'zbekiston Respublikasi hududiy mudofaasini tashkil etish tizimida Qurolli Kuchlarni jangovar qo'l lash rejaları bo'yicha maxsus vazifalarni hal qilish, Davlat xavfsizlik xizmati CHegara qo'shinlariga O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash hamda himoya qilishda ko'maklashish.

Milliy gvardiya O'zbekiston Respublikasining qonunlariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Qonunning 27-moddasida Milliy gvardiyaning majburiyatlari belgilangan:

Milliy gvardiya o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish chog'da:

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini himoya qilish bo'yicha choralar ko'rishi;

jamoat joylarida, shu jumladan ko'chalarda, maydonlarda, istirohat bog'larida, transport magistrallarida, vokzallarda, aeroportlarda, shuningdek ommaviy tadbirlarni o'tkazish chog'da fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashi;

g'ayrihuquqiy qilmishlarga chek qo'yishi, fuqarolarning xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etishi, jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi holatlarini, hodisa holatlarini hujjatlashtirishi, jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik, hodisa izlari saqlanishini ta'minlashi;

jismoniy va yuridik shaxslarning turar joylariga hamda boshqa obyektlariga mulkdorlarning yoki ular vakillarining xohishiga xilof tarzda yoki ular yo'qligida Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari (xodimlari) kirganligining barcha hollari to'g'risida yigirma to'rt soat ichida prokurorni yozma shaklda xabardor qilishi;

jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyda yoki hodisa joyida jabrlangan fuqarolarga, shuningdek nochor ahvolda qolgan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam yoki boshqa yordam ko'rsatilishini tashkil etishi;

jinoyatlar faktlari bo'yicha jinoyat ishlarini qo'zg'atishi, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishi;

jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish va ularni fosh etish, shuningdek ularga tayyorgarlik ko'rishga hamda ularni sodir etishga aloqador bo'lgan shaxslarni aniqlash va topish choralari ko'rishi;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishi, ularning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rishi;

o'ta muhim va toifalangan obyektlarni, chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalarini, konsullik muassasalarini hamda boshqa vakolatxonalarini, xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini, shuningdek Milliy gvardiya qo'riqlashi lozim bo'lgan boshqa obyektlarni qo'riqlashni amalga oshirishi;

xizmatga doir axborotning, shuningdek xizmat majburiyatlarini bajarishi chog'da o'ziga ma'lum bo'lgan davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarning maxfiylikini va saqlanishini ta'minlashi;

qo'riqlash faoliyati, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirishi;

ma'lumot-axborot fondlarini shakllantirishi, hisob-axborot tizimini yaratishi, hisobni, davlat statistika hisobotini va boshqa statistika hisobotini yuritishi;

qo'riqlanayotgan shaxslarning harakatlanish yo'nalishlarida va bo'lgan joylarida huquqbuzarliklarning oldini olishi hamda ularga chek qo'yishi;

terrorchilikka qarshi va boshqa maxsus tezkor-jangovar operatsiyalar o'tkaziladigan obyekt bo'shalarida ruxsatsiz kirishlarga chek qo'yishi, nazorat-o'tkazish rejimini o'rnatishi;

Milliy gvardiya organlarida maxfiylik rejimi ta'minlanishi ustidan nazoratni tashkil etishi shart.

Milliy gvardiyaning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lgan ishi mumkin²³⁰.

Mazkur majburiyatlarni amalga oshirish uchun malakali kadrlar talab etiladi, albatta. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 apreldagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5077-son Qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetiga sifatida qayta tashkil etildi.

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida keng qamrovli islohotlar jarayoni olib borilmoqda. Mamlakatimizda ham olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu albatta, xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liqdir.

²³⁰ www.lex.uz

Bizga ma'lumki, mamlakatimizda har yilga beriladigan nomdan kelib chiqib, mamlakatimizda qulay investitsion muhitni yaratishimiz va ijtimoiy rivojlanishga katta e'tibor berishimiz talab etiladi. Chunki, xavfsizlik ta'minlangan mamlakatga va shaharga investorlar hech ikkilanmasdan o'z kapitalini kiritishi, sayyohlar mamlakatimizning tarixiy-me'moriy obidalariga boy shaharlariga tashrif buyurishi mumkin va ijtimoiy sohadagi rivojlanishlar o'z samarasini berishi mumkin.

“Xavfsiz shahar – xavfsiz mamlakat” konsepsiyasini amalga oshirishda eng avvalo, ichki va tashqi havf xatar va tahdidlarni bartaraf etishga katta e'tibor berish lozim. Mamlakatning ichki xavfsizligi va barqarorligiga tahdid soluvchi omillarga – jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oshib borishi, korrupsiya va boshqa bir qator omillarni keltirib o'tish mumkin.

Albatta, bugungi kunda mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash jarayonida davlatimizning mudofaa qudratini oshirish va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining salohiyatini mustahkamlash borasida ham muhim islohotlar jarayoni amalga oshirilmoqda. Hususan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida yangi tuzilma O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasini tashkil etilishi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasida muhim qadamlardan biri bo'ladi.

Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, “Ma'lumki bugungi kunda biz “Xavfsiz shahar – xavfsiz mamlakat” konsepsiyasi asosida yurtimizda jamoat tartibini ta'minlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Shu munosabat bilan mana shu yangi tuzilma, ya'ni Milliy gvardiya tashkil etildi. Endi bundan buyon har bir shahar va viloyatda xavfsiz hudud loyahasini amalga oshirish, jamoatchilik tartibini saqlash uchun Ichki ishlar vazirligi bilan birga Milliy gvardiya ma'sul va javobgar etib belgilanadi. Bu vazifalarni bajarish uchun Milliy gvardiya joylardagi davlat hokimiyati idoralari, jamoat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib boradi”²³¹.

Darhaqiqat, bugungi kunda Prezidentimizning tashabbusi bilan tashkil etilgan yangi tuzilma Milliy gvardiya mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lib bormoqda.

Prezidentimiz tomonidan 2018 yil 24 dekabrda qabul qilingan “Jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha chora tadbirlar to'g'risida” Qarori mamlakatimizda jamoatchilik xavfsizligini ta'minlash va sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning barvaqt oldini olish borasida ishlarni samaradorligini oshirishga qaratilganligidir.

Mamlakatning xavfsizligi va barqarorligiga tahdid soluvchi tashqi omillarga bugungi kunda mavjud bo'lgan terrorizm, ekstremizm, narkobiznes va noqonuniy qurol-yarog' savdosi va boshqalarni keltirish mumkin.

Bugungi kunda tomonidan mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash borasida Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud bo'lgan turli xavf-xatarlarni oldini olish borasida O'zbekiston davlatining faol pozitsiyani namoyon qildi. Chunonchi, bugungi kunda davlatimiz Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan “Yaxshi qo'shnichilik va qardoshlik hamda o'zaro teng huquqli hamkorlik” asosida munosabatlarni yo'lga qo'yimoqda. Albatta, bu kabi faol pozitsiya Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilganligi bilan belgilanadi. Chunki, mintaqaviy tinchlik va barqarorlikdan barcha davlatlar birdek manfaatdordir.

²³¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. –Б.156-157.

Demak, mamlakatning xavfsiz deb topilishi eng avvalo ichki va tashqi xavflardan holiligi sifatida izohlash mumkin. Umuman olganda, mamlakatning xavfsiz deb topilishini bir qator ko'rsatkichlar asosida baholash mumkin bo'l sada, umumiy bir so'z bilan har bir insonni o'z yurtida, shahrida erkin yashashi va faoliyat yuritishi, unga hech qanday xavf-xatarlar tahdid solmasligi nazarda tutiladi.

2018 yil 7 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xavfsiz shahar» loyihasini amalga oshirish bo'yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar va yagona texnologik yondashuvni tashkil qilish to'g'risida Qarori e'lon qilinib, unga muvofiq, «Xavfsiz shahar» tizimini yaratish, shuningdek, «Xavfsiz hudud», «Xavfsiz turizm», «Xavfsiz dam olish» kabilarni ham rivojlantirish ko'zda tutilgan²³².

Prezidentimizning 2018 yil 19 iyundagi «Toshkent shahrida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq, 2018 yil 1 iyuldan Toshkent shahrida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi asosida «Xavfsiz poytaxt» konsepsiyasini eksperiment tariqasida joriy etish va keyinchalik 2018 yil yakuni bo'yicha ushbu amaliyotni butun mamlakat bo'ylab joriy etish ko'zda tutilgan²³³.

Albatta, bu tizim bugungi kunda amaliyotga joriy etilib, uni amalga oshirishda Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya saf bo'l inmalari o'zaro hamkorlikda samarali faoliyat olib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik borasida muhim ko'rsatkichlarga erishilib, jinoyatchilik va huquqbuzarliklar miqdori keskin qisqardi. Natijada bir necha ko'rsatkichlar borasida O'zbekiston dunyo mamlakatlari orasida turizm, investitsion jozibadorlik, terrorizm va ekstremizm xavfining mavjud emasligi kabilarda yuqori o'rinlarga ega bo'l di.

Jumladan, Butun jahon Solo Travel Safety Report 2019 [hisobotiga](#) ko'ra, O'zbekiston yolg'iz sayyohlar uchun eng xavfsiz bo'l gan mamlakatlar reytingida 5-o'rinni egalladi.

Safar uchun eng xavfsiz mamlakat Singapur bo'l di. Shuningdek, O'zbekiston bilan bir qatorda birinchi beshlikka Islandiya, Norvegiya va Finlyandiya kirgan.

Hisobotga ko'ra, 142 davlatlar aholisi o'rtasida bir necha talablar bo'yicha so'rov o'tkazilgan. Savollar ular tungi shaharda yolg'iz aylanib yurganlarida o'zlarini xavfsiz his qilishlari, mahalliy politsiya xodimlariga ishonishlari va o'g'irlikka yoki bosqinchilikka duch kelishlari haqida bo'l gan.

Bundan tashqari, sayohat uchun eng xavfsiz bo'l magan mamlakatlar ham e'lon qilingan. Ro'yxatda Venesuela, Afg'oniston va Janubiy Sudan etakchilik qilmoqda.

Shuningdek, Global Terrorism Index 2019 hisobotiga ko'ra terrorizm xavfining mavjudligi bo'yicha ko'rsatkichlarda O'zbekiston 135-o'rinni²³⁴ egallagan holda 0.019 ballga ega bo'l gan. Bu reytingda terrorizm xavfining yuqoriligi bo'yicha birinchi 5 talikni Afg'oniston, Iroq, Nigeriya, Suriya va Pokiston egallagan bo'l sa, terrorizm xavfi mavjud bo'lmagan davlatlarning 5 – taligini Belorussiya, Gvineya-Bisau, Ummon, Gambiya, KXDR lar egalladi.

²³² (Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.05.2018 й., 09/18/343/1203-сон)

²³³ Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 20.06.2018 й., 09/18/3786/1368-сон; 30.05.2019 й., 07/19/4343/3206-сон).

²³⁴ Institute for Economics & Peace. Global Terrorism Index 2019: Measuring the Impact of Terrorism, Sydney, November 2019. Available from: <http://visionofhumanity.org/reports> (accessed Date Month Year).

Demak, bugungi kunda mamlakatimizdagi keng qamrovli islohotlarning ustuvor yoʻn alishlardan biri xavfsizlik va barqarorlik hisoblanadi. Chunki, jamiyatda xavfsizlik va barqarorlik taʼminlangan taqdirdagina, biz oʻz oldimizga qoʻygan maqsadlarga erisha olishimiz mumkin.

MAVZU: 2/8.1. FAOL FUQAROLIK POZITSIYASIGA EGA BOʻLGAN YOSH AVLODNI TARBIYALASHNING ASOSIY YOʻN ALISHLARI

Reja

- 1. Yoshlar huquq erkinliklari xalqaro huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi.**
- 2. Mustaqillik davrida davlatning yoshlarga oid siyosatini rivojlanishi va uni amalga oshirilishi.**
- 3. Mamlakatda barkamol avlodni shakllantirishning yangi bosqichi.**

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolik madaniyati, fuqarolik burchi, fuqarolik masʼuliyati, yoshlar, yoshlarga oid davlat siyosati, komil inson, barkamol avlod.

1. Yoshlar huquq erkinliklari xalqaro huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi

Insoniyati tarixi bir necha ming yilliklar ichida yoshlarni alohida ijtimoiy qatlam, jamiyatining barcha bilan teng aʼzosi sifatida oʻrniga unchalik ahamiyat bermay keldi. Va nihoyat, fuqarolik jamiyati kurtaklari va unsurlari paydo boʻlganidan keyin yoshlarning jamiyatdagi oʻrni masalalari koʻtarila boshlandi. AQShda 1776 yilda, Frantsiyada 1849 yilda inson huquqlarini himoyalash masalalari koʻtarilib, uning tarkibiy qismi sifatida yoshlar va bolalar huquqlarini himoyalash gʻoyalari ilgari surila boshlandi. Dastlab, 1833 yilda Angliyada 9 yoshgacha boʻlgan bolalarni fabrikalarda ishlatish taʼqiqlandi. 1896 yilda Germaniyada oʻz bolalariga tazyiq qiladigan ularni tahqirlaydigan, yoki ularga gʻamxoʻrlik qilmaydigan otionalarni jazolashga doir qonun qabul qilindi. 1899 yilda AQShda dastlabki yuvenal²³⁵ sudlar tashkil topdi.

1919 yilda jahon xalqaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tuzilgan Millatlar Ligasi Bolalar ravnaqi qoʻmitasini taʼsis etdi. U oʻz eʼtiborini qarovsiz qolgan bolalar, yetimlar va qullikka tushib qolgan bolalarga qaratdi. Bu paytda bolalar himoyasiga doir nodavlat tashkilotlar shakllana boshladi. Bolalarni qutqarish xalqaro ittifoq (Save the Children International Union) birinchi jahon urushidan keyin tuzildi. 1924 yil 24 sentyabrda Millatlar Ligasining Bosh Assambleyasi Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasini qabul qildi.

1959 yil 20 noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi Bola huquqlari deklaratsiyasini qabul qildi. Shu davrdan boshlab 20 noyabr Bola huquqlari kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. 1995 yilda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan “Yoshlar boʻyicha umumjahon harakatlar dasturi” qabul qilindi. Ushbu dastur har bir mamlakat miqyosida tegishli chora-tadbirlar koʻrilishi, butun dunyoda yoshlar sharoiti, holatini yaxshilashga qaratilgan xalqaro loyiha va dasturlarning amalga oshirilishi uchun mustahkam zamin va yoʻl-yoʻriqlarni taʼminlab berdi.

Mazkur dasturni hayotga tadbir qilish uchun, avvalambor, yoshlar orasida asosiy inson huquqlari va erkinliklarining toʻliq bajarilishi, amalga oshirilishini taʼminlash, hamda barcha mamlakatlar bunday huquq va erkinliklarning buzilishiga qarshi aniq choralarning koʻrishi, kamsitmaslik, bagʻrikenglik, xilma-xillikka hurmat, turli diniy va etnik qadriyatlariga, madaniy, falsafiy qarashlarga hurmat tamoyilini ilgari surishi, barcha ayol va erkaklar uchun imkoniyatlar tengligi, hamnafaslik, xavfsizlik, jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishi, kafolatlashi talab qilinadi.

BMT tizimi barcha mamlakatlarni bolalar va yoshlarga sarmoya ajratishga chorlaydi. Qolaversa, BMT mamlakat hukumatlariga tegishli siyosat, loyiha va dasturlarni ishlab chiqishga

²³⁵Ювенал [лат. juvenalis ёш]- жинсий балоғатга етмаган болалар.

va amalga oshirishga yordam beradi. Dunyoning har bir mamlakatida BMT agentliklari bolalar va yoshlar holatini tahlil qilib boradi, muayan sohalarga mablag' ajratilishi lozimligi haqida jamoatchilikni xabardor qilib boradi, barcha mamlakatlar qo'l lashi mumkin bo'lgan samarali strategiyalarni yig'ib, ularni targ'ib qilishga intiladi.

Hozirgi kunga kelib dunyo aholisining 18%ini yoshlar tashkil etmoqda. Bu nisbiy ko'rsatkich albatta. Ma'lumki, bugungi kunda jahon mamlakatlarida «yoshlar» tushunchasi turlicha tasnif qilinadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida aholining 16 yoshdan 30 yoshgacha (ba'zan 35 yoshgacha) bo'lgan vakillariga yoshlar sifatida qaraladi. YuNESKO esa 17 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlarni yoshlar sirasiga kiritadi. Aksariyat MDH davlatlarida esa (jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham) 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar yoshlar hisoblanadi. Bugungi kunga kelib yoshlarga oid siyosat yuritish, bu borada muayyan siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlarining faoliyat olib borishi ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar qonunchiligida salmoqli o'rin tutadi.

Hozirgi davrdagi yoshlarga oid davlat shakllanishi va tarixi XX asrning 60-80 yillarida BMT tomonidan yoshlar ijtimoiy qatlamiga bo'lgan munosabatning yangicha printsiplarini belgilab berilgan qator hujjatlar qabul qilinishi bilan uzviy bog'liqdir. 1965 yilda BMT Bosh Assambleyasining "Yoshlar o'rtasida tinchlik g'oyalari, millatlararo o'zaro hurmat va tushunishni targ'ib etish to'g'risidagi Deklaratsiya"si e'lon qilinishi bilan yoshlarning ijtimoiy muammolari tashkilot e'tibor markazidagi vazifaga aylandi. YuNESKO yo'n alishida yoshlar muammolariga daxldor yuzdan ortiq hujjatlar qabul qilindi. Aynan YuNESKO tashabbusi bilan 1985 yildan Yoshlar masalalari butunjahon kongressi faoliyat ko'rsata boshladi va shu yil BMT tomonidan "Xalqaro yoshlar yili" deb e'lon qilindi.

Xalqaro huquqiy aktlar asosida 2008 yil 7 yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning 10-moddasida bolalarning erkinlik va daxlsizlik huquqini himoyalashga doir quyidagi huquqiy asoslar belgilandi:

Har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, turar joyi daxlsizligi va xat-xabarlarini sir tutish huquqiga ega.

Har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalanih huquqiga ega.

Bola qonunga asoslanmagan holda ushlab turilishi, hibsga olinishi, qamoqqa olinishi mumkin emas.

Davlat bolaning shaxsi, turar joyi daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiyaning barcha shakllaridan, shu jumladan jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'rvonlikdan, qiynoqqa solishlardan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, jinoiy faoliyatga, fohishalik bilan shug'ullanishga jalb etilishdan himoya qilishni amalga oshiradi²³⁶.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bolalar huquqini himoya qilish huquqiy asoslarini rivojlanishi asnosida bolalar va yoshlar huquqlarini kafolatlash davri boshlandi. Bu davrdan boshlab qator rivojlangan davlatlarda yoshlar huquqini himoyalash, yoshlarga doir davlat siyosatlarini rivojlanib, ular hayotda qo'l lana boshladi. Xususan, Frantsiyada yoshlar siyosati Yoshlar, sport va ijtimoiy tashkilotlar bilan ishlash vazirligi tomonidan amalga oshirilib, unga ta'lim, madaniyat va kommunikatsiya hamda bandlik bo'yicha tegishli vazirliklar ko'maklashadi. Frantsiyada ishsiz aholining ko'pchiligini yoshlar tashkil etganligi bois, ushbu muammolarni hal etish maqsadida "Yangi xizmatlar, yangi ish o'rinlari" davlat dasturi joriy qilingan. Shuningdek, yoshlarning huquqlarini himoya qilish uchun "Imkoniyatlar tengligi to'g'risida"gi qonun qabul qilingan bo'lganib, ushbu qonun mamlakatdagi xususiy korxonalar va tashkilotlarga yoshlarni ishga qabul qilish bo'yicha qo'shimcha vazifalar yuklaydi. Bundan tashqari, Frantsiyada madaniyat sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish borasida ham ko'pgina ishlar qilinmoqda.

²³⁶Ўзбекистон Республикасининг "Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида"ги қонуни. 7 январь 2008 й.// "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2008 йил, 1-2-сон, 1-модда.

AQShning yoshlar borasidagi davlat siyosati o'ziga xosligi, ya'ni, mazkur siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda bevosita yoshlarning o'zlari ishtirok etishi bilan boshqa mamlakatlardan ajralib turadi. Hozirgi kunda Amerika yoshlari orasida narkotik moddalar iste'moli, jinoyatchilik va irqchilik bilan bog'liq muammolar avj olgan. Shundan kelib chiqib, ushbu muammolarni hal etishga qaratilgan ko'pgina qonunlar qabul qilinib, amalga tatbiq qilingan. Ayni paytda AQShda yoshlarni qo'l lab-quvvatlash va himoya qilish yuzasidan 400 dan ortiq dasturlar ishlab chiqilgan. Shundan eng ko'p a'zolarga ega bo'lganlari "Yoshlarni himoyalash ligasi", "Talabalar ocharchilikka qarshi", "Tashqariga nazar", "Yordam" ("Help") hamda Qutqaruv armiyasi kabilar hisoblanadi. Mazkur harakatlar AQShning barcha kasb-hunar o'quv muassasalaridagi yoshlarni qamrab olgan. AQShda "Yoshlar siyosati kontseptsiyasi"ni amalga oshirishda davlatning roli birmuncha oz bo'lib, bu jarayonga, asosan, xususiy tashkilotlar keng jalb qilingan. Davlat yordami ijtimoiy himoyaga o'ta muhtoj bo'lgan yoshlarga qat'iy chegaralangan miqdorda ko'rsatiladi. AQShda yoshlar siyosati davlat idoralarining alohida bir faoliyat sohasi hisoblanmaydi, yoshlar muammolari yuzasidan bir necha vazirliklar ish olib borishadi. Jumladan, Mehnat vazirligi yoshlarning bandligi, Adliya vazirligi jinoyatchilik, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot vazirligi esa yoshlar hamda o'smirlarning sog'ligi borasidagi muammolar bilan shug'ullanishadi. Yoshlar bilan ishlashda siyosiy tashkilotlar, sport muassasalari hamda diniy tashkilotlarning o'rni ham baland. "Yosh respublikachilar" milliy federatsiyasi hamda "Amerikaning yosh demokratlari" AQShdagi eng katta yoshlar siyosiy birlashmalari hisoblanishib, ular mamlakatdagi ikki yirik siyosiy partiyaning yoshlar bo'yicha rasmiy tashkilotlaridir. Yoshlar siyosiy tashkilotlarining asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni siyosiy hayotga jalb qilish, ularning davlat siyosatidagi o'rnini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, AQShda "Lyuteranlik ligasi" va "Katolik yoshlarning milliy federatsiyasi" kabi diniy, milliy yoshlar tashkilotlari ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Buyuk Britaniya davlatining yoshlar bo'yicha olib borayotgan siyosati misolida davom ettiradigan bo'lib sak, bu mamlakat ushbu sohada uzoq tarixga ega bo'lib, o'zining ko'p qirraliligi bilan Yevropaning boshqa davlatlaridan ajralib turadi. Jumladan, Angliyadagi siyosat yoshlar bilan bog'liq barcha jabhalarni qamrab olgan bo'lib, ular orasida ta'lim sohasi eng yuqori o'ringa qo'yilgan. Ingliz yoshlarining aksariyat qismi turli tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan "yoshlar klub"lariga a'zo bo'lib, ularning yoshlar borasidagi tadbirlariga keng jalb qilingan. Shuningdek, ushbu davlatda yoshlarning "ko'n gilli harakatlari" o'ta rivojlangan bo'lib, kichik shahar va tumanlar miqyosida davlat siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur harakatlarni moliyalashtirish davlat tomonidan amalga oshirilib, faoliyati davomida, asosan, qiyin vaziyatlarda qolgan tarafdorlarining muammolarini hal etishga harakat qilinadi. Shu bilan birga, yoshlar madaniy va ijtimoiy sohalarida o'z faolliklari bilan aholining boshqa qatlamlariga nisbatan ajralib turadi. Angliyadagi yoshlar tashkilotining kamchiliklaridan biri ularning davlat boshqaruvidagi roli qat'iy emasligidir. Ushbu holat davlat boshqaruvi tizimi konservativ tamoyillarga asoslanganligi bilan xarakterlanadi²³⁷.

Yevropa davlatlari orasida Germaniyaning yoshlar borasidagi davlat siyosati o'ziga xos xususiyatga ega. Nemis yoshlar siyosatining mohiyati shundaki, unda asosiy e'tibor 18-27 yoshdagi aholining ijtimoiy bandligiga qaratilgan. Bundan tashqari, ushbu siyosat fuqarolarning qonuniy himoyasi hamda ularning ijtimoiy va individual rivojlanishini ham ko'zda tutadi. Mamlakatning deyarli barcha katta shaharlarida yoshlarga tegishli bo'lgan ko'pgina kompaniyalarga qarashli maxsus markazlarni uchratish mumkin. Ushbu markazlar faoliyati yosh fuqarolarning ishga joylashishi bilan bog'liq muammolarni hal etishga qaratilgan, bu esa davlatning ishsizlik borasidagi siyosati samarali amalga oshishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur ishlarning mas'uliyati Oila va yoshlar vazirligiga yuklatilgan bo'lib, ushbu vazirlik qoshidagi yoshlar masalalari bo'limi bevosita mazkur sohadagi turli loyihalarni amalda qo'llash bo'yicha o'z faoliyatini olib boradi. Shu bilan birga, Germaniyada yoshlarning axloqiy qarashlari va ularning madaniy savodxonligini oshirish ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tuzilgan bo'lib, ularning harakatlari jamiyatning etuk shaxslarini kamol toptirishga qaratilgan.

²³⁷Ўтбосов Э. Ёшлар сиёсати: ўзбекистон ва жаҳон тажрибаси.25.07.2017.//<http://fayzboq.uz/yoshlar-siyosati-uzbekiston-va-jahon-tajribasi/>.

Yaponiyada yoshlar siyosati muhimligi inobatga olinib, mazkur sohada olib borilayotgan ishlar milliy siyosat darajasiga olib chiqildi. Yaponiyada BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konventsiyasiga asoslanib yoshlar borasidagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun Milliy assambleya tashkil etildi. Mazkur tashkilot asosan 4 ta dastur asosida ish olib boradi. Birinchisi, “Milliy harakat” dasturi bo‘l ib, u asosan kuch va vositalarini Assambleya faoliyatini qo‘l lab-quvvatlashga yo‘n altiradi. Ikkinchisi, “Hayot yo‘l ini tanlashga ko‘maklashish” dasturi 2007 yilda tasdiqlangan bo‘l ib, uning faoliyati yoshlarni kasb tanlashga yo‘n altirish, ularning turli iqtidorlarini o‘rganishga qaratilgan. Uchinchisi, “O‘smirlar orasida huquqbuzarlikning oldini olish choralari” dasturi bo‘l ib, uning asosiy maqsadi yoshlar orasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlat organlariga yaqindan yordam berish hamda yoshlarning jinoiy xatti-harakatlarini o‘rganish markazlari bilan hamkorlikni amalga oshirishdan iborat. So‘n ggi, “OITSga qarshi kurash” dasturi o‘z ichiga yoshlar orasida ushbu kasallikning kelib chiqish sabablarini o‘rganishga qaratilgan turli maslahatlar berish va boshqa tadbirlar o‘tkazishni nazarda tutadi²³⁸.

Hozirgi davrda yoshlarga oid davlat siyosati davlatning yoshlarga, yoshlar tashkilotlariga munosabatida, shuningdek qonun chiqaruvchi, ijroiya, sud hokimiyati sohalarida yoshlarni huquq va erkinliklarini ta‘minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda o‘z ifodasini topadi. Bu siyosatning mazmun-mohiyati yosh avlodning ijtimoiy jihatdan rivojlanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, tashkiliy shart-sharoit yaratib berish, ularning hayotda o‘z yo‘l ini tanlab olishlari, intellektual, ma‘naviy va jismoniy jihatdan kamol topishini ta‘minlash, yoshlarning ijodiy iqtidori va salohiyatini shaxsiy va mamlakat manfaatlari yo‘l ida ro‘yobga chiqarish demakdir. Shuningdek, yoshlar siyosati yoshlarni ijtimoiy qo‘l lab-quvvatlash bilan bir vaqtda, yosh avlodning mehnat va ijodiy faoliyati uchun muhim va zarur bo‘l gan innovatsiyaviy va ishlab chiqarishga doir jihatlarni ham o‘ziga qamrab oladi. Bu yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda yoshlarni jamiyatni rivojlantirishning asosiy va muhim resurslaridan biri sifatida e‘tirof etiladi.

2. Mustaqillik davrida davlatning yoshlarga oid siyosatini rivojlanishi va uni amalga oshirilishi

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab Birinchi Prezident I.A.Karimov boshchiligida amalga oshirilayotgan farovon demokratik davlat va jamiyatni barpo etishga yo‘n altirilgan tub islohotlar siyosatining o‘ziga xos xususiyati – bu uning aniq ijtimoiy yo‘n altirilganligi bo‘ldi. Hozirgi davrda O‘zbekiston aholisining 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ijobiy o‘zgarishlar zamirida har tomonlama barkamol – jismonan sog‘lom, aqlan etuk, nafaqat ko‘plab bilimlarni, hozirgi davrda talab katta bo‘l gan kasb-hunarlarini egallagan, ayni paytda, mustaqil va ijodiy fikrlashga qodir, intellektual salohiyati yuksak yosh avlod to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishdek ustuvor maqsad mujassam ekani tabiiydir.

Mamlakatda yuritilayotgan kuchli yoshlar siyosati o‘zining mustahkam huquqiy asoslariga egadir. Bu siyosat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalarida, ushbu sohaga tegishli 22 qonunda o‘z ifodasini topgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘n g qabul qilingan dastlabki qonun hujjatlaridan biri – bu 1991 yil 20 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonundir. Ayni paytda, bu davrda ko‘plab maqsadli davlat dasturlari ham hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etildi. Bu boradagi ishlarning yuqori samaradorligi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda jamoat tuzilmalari, shu jumladan, o‘z saflarida 5,5 million yigit-qizni birlashtirgan “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, “Mahalla” xayriya jamoat fondi va boshqa tashkilotlar o‘rtasida tobora kengayib borayotgan ijtimoiy hamkorligi natijasida ta‘minlanmoqda.

Mamlakatda o‘sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama rivojlanishi uchun barcha qulay shart-sharoitlarni yaratib berish borasida olib borilayotgan kompleks chora-tadbirlar xalqimizga xos xususiyat bo‘l ib, milliy tabiatimizning uzviy qismiga aylandi. Har bir oilada, har

²³⁸Ўша жойда.

bir mahallada, eng avvalo, yoshlarning salomatligini ta'minlash, ularga yaxshi bilim berish, ayni paytda yuksak ma'naviy va ahloqiy fazilatlariga ega munosib shaxslar etib voyaga etkazish azaldan muhim masala bo'lib kelgan. Mustaqillik yillarida ushbu vazifalar O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va bu esa barcha sohalarda yuksak yutuqlarga erishish imkonini bera boshladi.

Salomatlikni ta'minlash, uzluksiz ta'lim va barkamol yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha mamlakatimizda yaratilgan milliy modellar butun dunyoda yuksak baholanmoqda. Jumladan, 2011 yilning noyabrida "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: "Sog'lom ona – sog'lom bola" mavzuida Toshkentda bo'lib o'tgan xalqaro simpoziumda nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan bu borada amalga oshirilgan ishlarga yuqori baho berildi va ular boshqa mamlakatlar uchun namuna sifatida e'tirof etildi. 2012 yilning fevralida poytaxtimizda o'tgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" xalqaro konferentsiyasida O'zbekistonda yaratilgan uzluksiz ta'lim va tarbiya milliy tizimi boshqa davlatlar uchun namuna deb e'lon qilindi²³⁹.

Mustaqillik yillarida demokratik va bozor o'zgarishlari talablariga mos ravishda ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Ushbu nihoyatda muhim sohadagi chuqur islohotlar 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, ayni paytda ko'labirami, qamrovi va maqsadlariga ko'ra o'ta noyob Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida amalga oshirildi. Mamlakatimizda ta'lim shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik va madaniy ehtiyojlarini ta'minlaydigan ustuvor soha, deb e'lon qilindi. Mavjud ta'lim muassasalarini davr talablarini hisobga olgan holda isloh qilishdan tashqari MDH davlatlarida o'xshashi yo'q yangi turdagi o'quv yurtlari – kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar tashkil etildi. Shu tarzda iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning barcha tarmoqlari uchun yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga, yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va har tomonlama ijodiy rivojlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish ta'limining noyob yaxlit tizimi shakllantirildi.

2003 yil 1 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish "Iste'dod" jamg'armasi tuzilib, u keng ko'labirami ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Uning faoliyati mamlakatimizda ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga, barcha hududlarda o'quv jarayoniga zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish, yosh pedagoglar va olimlarning kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini oshirishga yo'naltirildi. Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va maktablar xodimlari uchun o'nlab kunduzgi va masofaviy ta'lim dasturlari ishlab chiqildi. Hozirgi paytgacha jamg'armaning faqat kunduzgi kurslarida 10 mingdan ziyod pedagog va ilmiy kadrlar o'z malakasini oshirdi.

Mamlakatimizning jahon maydonidagi nufuzi va raqobatbardoshligini oshirish ko'p jihatdan yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini yuksaltirishga bog'liqdir. Shu sababli iqtidorli yoshlarni aniqlash va rag'batlantirishga, yosh avlodning zamonaviy dunyoqarashini, ijodiy va shaxsiy xususiyatlarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi, unga o'qishda, ijodiy va jamoat ishlarida katta yutuqlarga erishayotgan qizlar munosib ko'riladi. San'at sohasidagi yutuqlari uchun eng iqtidorli yosh raqqosalar, musiqachilar va xonandalarga "Nihol" mukofoti berish an'anaga aylandi.

O'zbekistondagi yoshlar siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri iqtidorli yoshlarni ilmfanga keng jalb etishdir. Hozirgi davrga kelib o'quv yurtlari, birinchi navbatda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Muayyan ishlab chiqarish korxonalarini va tarmoqlar uchun maqsadli ravishda kadrlar tayyorlash keng qo'llanilmoqda, o'quv yurtlari, korxonalar va o'quvchilar o'rtasida uch tomonlama shartnomalar imzolanoqda va bu bitiruvchilarning kelgusida ish bilan ta'minlanishini kafolatlaydi. Shu maqsadda kasb-hunar kollejlarning ish beruvchi korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarining

²³⁹Иванова А. Ўзбекистонда ёшлар сиёсати – мамлакатни янада ривожлантириш йўлида.22.01.2013.//http://www.uza.uz/oz/society/zbekiston-eshlar-siesati-mamlakatni-yanada-rivozhlantirish-ilida-22.01.2013-25026?sphrase_id=3182081.

boshqa shakllaridan ham foydalanilmoqda. Mamlakatimizda har yili minglab ish o‘rinlari tashkil qilinadi, bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatda mustaqillik yillarida yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun yanada qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib borildi. Jumladan, mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan yosh oilalarga zarur yordam ko‘rsatish, amaliy rag‘bat va barqaror daromad manbalarini shakllantirish mexanizmini yaratish, ularning turar-joy va maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash maqsadida 2007 yil 17 mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yosh oilalarni moddiy va ma‘naviy qo‘l lab-quvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Har bir hududda yangi ish o‘rinlari tashkil etish, yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka faol jalb qilish, yosh oilalarga o‘z biznesini tashkil etishi uchun mikrokreditlar ajratish ishlari kuchaydi. Bugun O‘zbekistonda yosh oilalarga ipoteka va iste‘mol kreditlari ajratish orqali uy-joy sotib olish yoki qurishda, ro‘zg‘orini butlashda har tomonlama yordam ko‘rsatilmoqda²⁴⁰.

Mamlakatdagi yoshlarga oid davlat siyosati muhim siyosiy yo‘n alish sifatida izchil jarayon bo‘lib, u yoshlar mavqei va hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan voqelikning bosh xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarga oid davlat siyosati siyosiy yo‘n alish sifatida O‘zbekistonning mustaqillik yillari tarixida yuz bergan hamda davlat tomonidan maqsadli amalga oshirilgan yoshlarga oid barcha ijtimoiy o‘zgarishlar, tub islohotlar, transformatsiya jarayonlarini bosib o‘tdi. Ya‘ni yoshlarga oid davlat siyosati yoshlar hayotini demokratik tamoyillar asosida ijtimoiy tashkillashtirish, yoshlar va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni pozitiv asosda qurish, yoshlar manfaatlari va qadriyatlarining davlat manfaatlari bilan muvofiqligini ta‘minlash uchun olib borilgan sa‘y-harakatlar va maqsadlar majmuini tashkil qiladi.

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘n alishlari quyidagilardan iboratdir:

- yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash;
- yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash;
- yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish;
- yoshlar uchun ochiq va sifatli ta‘limni ta‘minlash;
- yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta‘sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat‘iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;
- yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalariidan himoya qilish;
- yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish; iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish;
- yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yosh oilalarni ma‘naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;
- yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati borasida olib borilayotgan tadbirlarning barqarorligiga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil etish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining yo‘n alishlarini aniqlashtirib olishni talab etadi. Bular quyidagilarni qamrab oladi:

1. “Barkamol avlod” yo‘n alishi;

²⁴⁰Ўша жойда.

2. “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi” yo‘n alishi;
3. “Yoshlar va ijtimoiy himoya” yo‘n alishi;
4. “Yosh oila” yo‘n alishi;
5. “Yoshlar professionalizmi” yo‘n alishi;
6. “Yoshlar axborot makonida” yo‘n alishishi²⁴¹.

Birinchi yo‘n alish - «Barkamol avlod yo‘n alishi», aytish mumkinki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining negizini tashkil etadi. Bu yo‘n alishda ishlab chiqilgan Davlat dasturlarining amalga tatbiq etilishi aholi, ayniqsa bolalar va yoshlar salomatligiga e‘tiborning ortishi bilan birga kechmoqda. Bu yo‘n alishdagi chora-tadbirlar yillar davomida takomillashtirib borildi. Bir qator nufuzli xalqaro institutlarning baholashicha, O‘zbekiston dunyoning 125 davlati orasida xotin-qizlar uchun qulay sharoitlar yaratish va onalikni muhofaza qilish borasida etakchi o‘rinlardan birini egallab turibdi. Buni YUNISEFning Sharqiy Yevropa, Boltiqbo‘yi va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari bo‘yicha ofisi tomonidan onalik va bolalikni muhofaza qilish borasidagi dasturlarni joriy qilishda O‘zbekistonning mintaqadagi namunaviy model sifatida e‘tirof etilgani ham isbotlaydi.

Yoshlarni huquqbuzarliklar, zararli illatlar, ekstremistik g‘oyalar va “ommaviy madaniyat” ta’siridan himoya qilish bugungi globalizatsiya sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. 2010 yilda O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni va 2011 yil 5 oktyabrda “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqalishi hamda iste‘mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi ham muhim ahamiyatga ega bo‘l di.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturining amalga oshirilishi natijasida o‘tgan yillar mobaynida ta’lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish bo‘yicha miqyosi va ko‘l amiga ko‘ra ulkan ishlar amalga oshirildi. Qariyb 9,5 ming yoki mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan maktablarning deyarli barchasi yangitdan qurildi, kapital rekonstruksiya qilindi va zamonaviy o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalar bilan ta’minlandi. Mamlakatimizda 1500 dan ortiq yangi kasb-hunar kolleji va akademik litseylar barpo etildi.

Ikkinchi yo‘nalish - Respublikamizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘l ib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga mos bo‘l ishi shart deb belgilab qo‘yilgan. Bugun huquq va burchlarini chuqur anglab etgan, yangicha fikrlaydigan, o‘z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, mamlakatimizning kelajagini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog‘liq holda ko‘radigan yangi avlod vakillari hayotga dadil kirib kelmoqda.

Uchinchi yo‘nalish - «Yoshlar va ijtimoiy himoya» yo‘n alishi, avval boshdanoq, respublikamiz yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘n alishi bo‘l ib kelmoqda. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy himoyaning huquqiy asoslari yaratildi, sohaga doir qariyb 90 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatni qo‘l lab-quvvatlashda boshqa nodavlat tashkilotlari ham munosib o‘rin tutadi. Respublikamizda yoshlar uchun:

- bepul tibbiy xizmat;
- bepul ta’lim olish;
- sog‘lomlashtirish va madaniy-ma’rifiy muassasalarga imtiyozli shartlarda qatnash;
- uy-joy qurish uchun imtiyozli kreditlar berish;
- dastlabki mehnat faoliyati uchun ish joyi bilan ta’minlanish yoki amaldagi qonunlarga muvofiq moddiy kompensatsiya olish huquqi;
- ijtimoiy infrastruktura obyektlarini loyihalash va qurish chog‘da yoshlarning talab-ehhtiyojlarini hisobga olish;

²⁴¹Ўзбекистон Республикасида ёшлар сиёсатининг муаммолари ва ечимлари .Лекция №16.-Т.,2014.-Б.10-12.

- o'quvchilar, talaba yoshlar va voyaga etmagan fuqarolar uchun transportda yurish imtiyozlari;

- voyaga etmaganlarga kompensatsiya to'lovlarini kafolatlovchi ijtimoiy ta'minlanish minimumi belgilanadi.

To'rtinchi yo'nalish - «Yosh oila» yo'n alishi. Oila xalqimizda muqaddas dargoh sanaladi. 2012 yilni mamlakatimizda «Mustahkam oila yili» deb nomlanishi, unga muvofiq qabul qilingan davlat dasturini amalga oshirish o'z samarasini berdi. Hozirgi kunda O'zbekistonda salkam 7 mln. oila yashaydi, shundan 995 mingdan ortig'i yosh oilalar hisoblanadi. Ya'ni, respublikamizda yosh oilalar jami oilalarning 16% ini tashkil etadi. Barkamol yosh avlod, avvalo oilada ulg'ayadi. Umuman, bu borada amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar turli yillarning nomlanishida ham o'z aksini topib kelmoqda. Xususan, 1998 yil - Oila yiliga bag'ishlab ishlab chiqilgan Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlarning ijrosi orqali oilani ijtimoiy himoya qilish ko'lamlarini yanada kengaytirish va kuchaytirishga erishildi. «Yoshlar yili» deb nomlangan 2008 yilda yosh oilalarni qo'l lab-quvvatlash maqsadida 30 mlrd. so'mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratildi.

Beshinchi yo'nalish - «Yoshlar professionalizmi» yo'n alishi. Bu shuni anglatadiki, yosh avlodga zamon talabi darajasida ta'lim-tarbiya va kasbga ko'n ikma bergan holda uning jamiyatdagi mehnat bozoriga kirib borishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq, mamlakatimizda «9Q3» sxemasi bo'yicha 12 yillik umumiy majburiy bepul ta'lim tizimi joriy etildi. Umumta'lim maktabidagi 9 yillik o'qishdan so'n g o'quvchilar keyingi 3 yil davomida ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda ta'lim olib, ularning har biri umumta'lim fanlari bilan birga mehnat bozorida talab qilinadigan mutaxassislik bo'yicha kasb-hunarlarni egallamoqda. O'tgan yillar davomida 1573 ta yangi turdagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari barpo etildi. Bugungi kunda mavjud 143 ta akademik litsey va 1430 ta kasb-hunar kollejida 1 million 700 mingga yaqin o'g'il-qizlar ta'lim olishmoqda. Kasb-hunar sirlarini egallagan yoshlar xalq xo'jaligining turli sohalarida faoliyat yuritmoqdalar. Umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining xalqaro fan olimpiadalaridagi ishtiroki ham yildan-yilga kengayib bormoqda.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish kontseptsiyasi asosida mamlakatimizda ikki bosqichli bakalavriat va magistratura tizimiga o'tildi. Bugungi kunda yoshlarimiz 75 ta oliy o'quv yurtida xalqaro andozalarga mos shart-sharoitlarda ta'lim olmoqda. Jahondagi nufuzli universitetlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Jumladan, Toshkentda Buyuk Britaniyaning xalqaro Vestminster universiteti, Italiyaning Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Koreyaning Inxa universiteti, Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Lomonosov nomidagi Rossiya davlat universitetlari filiallari tashkil etildi. Iqtidorli talabalarni har tomonlama rag'batlantirish, ularga o'z iste'dodlarini namoyon etishlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Beruniy, Ibn Sino nomidagi davlat stipendiyalari ta'sis etildi.

Oldinchi yo'nalish - «Yoshlar axborot makonida» yo'n alishi bugungi murakkab globallashuv davrida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Butunjahon axborot tarmog'i orqali «ommaviy madaniyat» niqobi ostida milliy manfaatlarimiz, mafkuramiz, ma'naviy-axloqiy qarashlarimizga yot zararli g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishga urinishlar ham kuzatilmoqda. Shuning uchun ham davlatimiz hozirgi davrga kelib axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadallik bilan rivojlantirishga muhim ahamiyat bermoqda, «elektron hukumat» tizimiga jamiyatning barcha tarmoqlari ulanmoqda²⁴².

2016 yil 14 sentyabrda yangi O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinib (mazkur qonun asosida O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 20 noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonuni bekor qilindi), u 4 ta bob, 33 ta moddada mujassamlashdi. U oldingi qonundan fuqarolik jamiyati talablariga javlb berishi, yoshlarni ijtimoiy himoyalashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

²⁴²Ўша жойда.-Б.12-15.

Qonunda ishlatilgan tushunchalarga quyidagi ta'riflar berildi:

yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'n alishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi;

yoshlar (yosh fuqarolar) – 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar;

yosh oila – er-xotinning ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga etkazayotgan 30 yoshdan oshmagan yolg'iz otadan yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol);

yosh mutaxassis – oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini bitirgan, ta'lim muassasasini bitirganidan so'ng olgan ixtisosligi bo'yicha 3 yil ichida ishga kirgan va ma'lumoti to'g'risidagi hujjatda ko'rsatilgan ixtisosligi bo'yicha ishlayotganiga 3 yildan ko'p bo'lmagan 30 yoshdan oshmagan xodim;

yoshlar tadbirkorligi – yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta'assischilari yosh fuqarolar bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati.

Qonunning 5-moddasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari o'zida insoniy va demokratik jihatlar mujassamlashtirgani bilan ajralib turadi:

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash;

yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;

yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash;

yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarni vatan parvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqim larga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalariidan himoya qilish;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish²⁴³.

Qonunning fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan muhim jihatlaridan biri — bu yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahallalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining o'rnini aniq belgilab qo'yilganligidir. Ayniqsa, mazkur tuzilmalar huquqlarida yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi, davlat dasturlarining va hududiy dasturlarning ro'yobga chiqarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish belgilangani mamlakatimizning kuchli fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini anglatadi.

Shuningdek, qonunda yoshlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasiga alohida ahamiyat berilib, unda yosh fuqarolarning huquqlari va erkinliklari qonunda belgilangan hollardan tashqari cheklanishi mumkin emasligi qayd etildi: ya'ni qonunosti hujjatlari bilan yoshlarning huquq va erkinliklari cheklanishi mumkin emas. Qonunda ta'lim muassasalarida o'qish uchun imtiyozli

²⁴³Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни. 14 сентябрь 2016 й.// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016, 37-сон, 426-модда; 2017, 24-сон, 487-модда.

kreditlar berish, etim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni turarjoylar bilan ta'minlash, o'rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ta'lim muassasasini bitirganidan keyin bandlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish kabi yoshlarni ijtimoiy himoya qilishning oldinlari qonunda bo'lgan davlat kafolatlari belgilandi.

Mustaqillik davrida yoshlar tarbiyasi, ular orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jinoyatchilikning oldini olishda, bandlikni ta'minlashda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida", "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida", "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida", "Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida", "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi kabi bir necha qonun va dasturlarning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

3. Mamlakatda barkamol avlodni shakllantirishning yangi bosqichi

2016 yilning so'n ggi choragida Sh.M.Mirziyoyevning davlat rahbari sifatigi faoliyati boshlanganidan keyin davlatimizning yoshlar siyosatida rivojlangan mamlakatlar tajribasi va fuqarolik jamiyati talablariga xos bo'lgan jihatlar shakllana boshladi. 2017 yil 30 iyun kuni "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining Yoshlar ittifoqiga aylantirilishi, ana shu ishlarning mantiqiy davomi bo'lgan, davlat tomonidan yoshlar borasida olib borilayotgan siyosatni yana bir pog'ona yuqoriga olib chiqdi. Shuningdek, yangi nizom va uslubda ish olib borilishi ko'zda tutilgan mazkur Ittifoq oldiga yoshlar orasiga tobora chuqurroq kirib borish, jamiyat ravnaqi yo'lida faol ishtirok etish kabi dolzarb vazifalar yuklandi.

O'zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oyasi asosida boshlangan islohotlar natijasida yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatlardan himoyalash, ularnisalohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni fuqarolik jamiyati qurish islohotlaridagi ishtiroklarini faollashtirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishi sifatida e'lon qilindi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev yoshlar qurultoyidagi (30 iyun 2017 y.) nutqida mamlakat yoshlari vakillariga qarata quyidagi fikrlar bilan murojaat etdi: "O'zbekiston yoshlari rasmiyatchilikdan, kampaniyabozlikdan xoli, navqiron avlod manfaatlarining haqiqiy himoyachisibo'lgan oladigan demokratik yoshlar tashkilotini tuzish haqida o'z xohish-istaklarini bildirmoqda. Bunda ilgarigidek barcha yoshlarni bir tashkilotga «ixtiyoriy-majburiy» asosda birlashtirish emas, aksincha, ularning orzu-intilishlari, hayotiy va kasbiy qiziqish doirasi, ijtimoiy maqsadlari bo'yicha uyushtirish to'g'ri bo'lgan adi, degan takliflar ilgari surilmoqda Mening nazarimda, bunday fikrlarda chuqur asos va mantiq bor. Bu taklifning afzalligi shundaki, u mamlakat yoshlarining barcha toifa va guruhlarini qamrab oladi, eng muhimi, ularni demokratik printsiplar asosida birlashtiradi. Bu, o'z navbatida, bugun O'zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlar jarayoni bilan hamohang ekani ayniqsa e'tiborlidir. Ana shularning barchasini hisobga olib, mamlakatimizda yoshlarning chinakkam suyanchi va tayanchi bo'lgan oladigan mutlaqo yangi tashkilot – **O'zbekiston yoshlar ittifoqini** tashkil etsak, nima deysizlar?"²⁴⁴. Mazkur purhikmat so'zlardan ko'rinib turibdiki, davlatimizning yoshlarga oid siyosati hozirgi davrda o'zining insonga, uning sha'niga, yoshlarni har tomonlama qo'l labquvvatlagan holda fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan insoniy birlikni shakllantirishga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyulda qabul qilgan "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'l labquvvatlash to'g'risida"gi farmoni mamlakatda yoshlarni ijtimoiy qilish, ularni o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun imkoniyatlar yaratishda tarixiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgani bilan ajralib turadi.

²⁴⁴ Мирзиёев Ш.М. Жисмоний ва маънавий баркамол ёшлар – бутунги ва эртанги кунимизнинг хал қилувчи кучидир. "Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойида сўзланган нутқ. 2017 й. 30 июнь.// Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.-Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2017.-Б.515-516.

Farmonga muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘l lab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O‘zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati negizida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun – 30 iyun sanasi mamlakatimizda “Yoshlar kuni” sifatida nishonlanadi. Shuningdek, O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘n alishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog‘liq bir qator yangi va muhim vazifalar qo‘yildi.

Farmonga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida Yoshlar siyosati masalalari xizmati tashkil etilib, unga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati masalalari bo‘yicha Davlat maslahatchisi – O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi rahbarlik qilishi belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati masalalari bo‘yicha Davlat maslahatchisi – O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o‘z lavozimiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a‘zosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda yaqindan ko‘maklashish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish, O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni talablarini hayotga to‘l aqonli joriy etish va nazorat o‘rnatish maqsadida Yoshlar masalalari bo‘yicha respublika idoralararo kengashi tashkil etildi. Ayni paytda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlari raisligida Yoshlar masalalari bo‘yicha hududiy idoralararo kengashlar faoliyat yuritadi.

Shu bilan birga, 2017-2018 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida “katta yetakchi” va “to‘garak rahbari” shtat birliklarini tugatish hisobiga lavozim maoshi yuqori sinf o‘qituvchisiga tenglashtirilgan “yoshlar etakchisi” shtat birligi joriy etildi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida “yoshlar etakchisi” vazifasi yuklatilgan xodimga o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasasining direktor jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan oliy ma‘lumotli o‘qituvchi bazaviy tarif stavkasining 50 foizi miqdorida har oylik ustama belgilanadi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi qoshida yoshlarning xohish va intilishlaridan kelib chiqib, yoshlar uyushmalari hamda yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish markazlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tashkil etilishi Farmonda belgilab berilgan.

Ta‘lim muassasasini tamomlaganiga uch yil bo‘l magan, birinchi marta ishga qabul qilingan yoshlarga daromad solig‘ini birinchi yil uchun 50 foiz, ikkinchi va uchinchi yillar uchun esa 25 foizga kamaytirish, shuningdek, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida turli fanlar, jumladan, chet tillarni o‘rgatish, kompyuter dasturlarini tuzish va tadbirkorlik asoslarini o‘qitish maqsadida tashkil etiladigan sho‘rba korxonalarini 2027 yil 1 avgustga qadar barcha soliqlardan ozod etish, bunda korxonalar ixtiyorida qoladigan summaning 20 foizini O‘zbekiston yoshlar ittifoqining rivojlantirish jamg‘armasiga o‘tkazish amaliyoti joriy etiladi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar kengashlari raislari tegishliligi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining yoshlar siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi hisoblanadi va maqomi bo‘yicha ularning birinchi o‘rinbosarlariga tenglashtirildi. Respublikamizning tuman markazlari va shaharlarda Yoshlar tadbirkorlik klasterlari tashkil etiladi. Foydalanilmayotgan davlat obyektlarini, shuningdek, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalaridagi obyektlarni O‘zbekiston

yoshlar ittifoqining a'zosi bo'lgan yosh tadbirkorlarga to'lgan ovsiz ijaraga berish tartibi joriy etiladi²⁴⁵.

2017 yilning ikkinchi yarmida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish yo'lida katta amaliy sa'y-harakatlarni amalga oshirdi. Xususan, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi, Kinematografiyani rivojlantirishga ko'maklashish markazi, O'zbekiston Fermerlari kengashi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Savdo-sanoat palatasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Fan va texnologiyalar agentligi bilan hamkorlik bitimlari imzolandi. Ushbu hujjatlar asosida ta'lim muassasalarida 11 ming 266 ta, madaniyat, sport va sog'liqni saqlash sohalarida 3 ming 200 ta, tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklarida 3 ming 755 ta, jamoat tashkilotlarida 2 ming 365 ta hamda vazirlik, idora va tashkilotlarning respublika boshqaruv organlarida 50 ta yetakchilar kengashi tuzilib, faoliyat olib bormoqda.

Yoshlarning xohish va intilishlaridan kelib chiqib tashkilot qoshida mustaqil huquqiy maqomga ega yigirmaga yaqin yangi tuzilma: Respublika yosh olimlar kengashi; Yosh ijodkorlar kengashi; Yoshlar turizmi agentligi; Yoshlar nashriyot uyi, Yosh kinoijodkorlar uyushmasi, O'zbekiston yosh fermerlari assotsiatsiyasi, Yoshlarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish markazi, Imkoniyati cheklangan yoshlar va bolalar markazi, O'zbekiston yosh tadbirkorlar assotsiatsiyasi, "Yoshlar ovozi" radiosi va boshqalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, Ittifoqning Markaziy Kengashi qoshida Yoshlar press-klubi tashkil etildi.

Yosh oilalarni yanada qo'l lab-quvvatlash, uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash maqsadida 2018-2021 yillarga mo'ljallangan Yoshlar uylarini barpo etish dasturi ishlab chiqildi. Uning ijrosi doirasida barcha yirik shaharlarda ko'p qavatli, qishloqlarda esa, bir-ikki qavatli namunaviy loyihalar asosida 29 ta arzon uy qurilib, 1 ming 12 nafar yosh oilaga imtiyozli kredit asosida taqdim etiladi.

Mamlakatimizda jadal amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va demokratik o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini yoshlarga to'la aqonli tushuntirish, yoshlarni, jumladan, uyushmagan yoshlarni o'ylantirayotgan muammolarni aniqlash, ularni hal etishga ko'maklashish, takliflarini qo'llab-quvvatlash va intilishlarini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik ko'niqimlarini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan "Fidoing bo'lgaymiz seni, O'zbekiston!" shiori ostidagi "Yoshlar poyezdi" targ'ibot aksiyasi Yoshlar ittifoqining eng yirik loyihalaridan biriga aylandi.

Qisqa muddat ichida 47 vazirlik va idora, 10 mingga yaqin ta'lim muassasasi hamda 3 ming 25 ta korxonalar va tashkilotda O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotlari tuzildi, shuningdek, o'n bir yillik ta'lim tizimiga o'tish munosabati bilan bo'shab qolgan 46 ta tuman va shahardagi kollejlar bazasida Yoshlar markazlarining tantanali ochilish marosimlari bo'lib o'tdi.

Respublikaning barcha tuman va shaharlarida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashabbusi bilan tashkil etilgan mehnat yarmarkalari natijasida ikki ming nafardan ortiq uyushmagan yoshning ishga joylasha olgani ham tahsinga loyiq jihatdir. Bundan tashqari, Ittifoqning tuman va shahar kengashlari qoshida tashkil etilgan yosh tadbirkorlar konsultativ markazlari 580 nafar yigit-qizga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda ko'mak bergan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrida ichki ishlar idoralarida profilaktik hisobda turuvchi voyaga etmagan yoshlar uchun hududlarda tarbiya va sport sog'lomlashtirish oromgohlari tashkil etildi. Loyihaga 3 ming 561 nafar yosh jalb qilinib, shundan 2 ming 523 nafarini ichki ishlar idoralarida profilaktik hisobda turuvchi voyaga etmaganlar, 1 ming 38 nafarini kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan oila farzandlari tashkil etdi.

2017 yilning iyul-avgust oylari mobaynida 6 ming 665 nafar yosh tadbirkor, 3 ming nafardan ziyod yosh fermer hamda 5 ming nafardan ortiq uyushmagan yoshni qamrab olgan holda joylarda yosh tadbirkorlarning muammolari hamda taklif-istaklarini o'rganishga qaratilgan

²⁴⁵Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида"ги фармони. 2017 й 5 июль. //http://www.press-service.uz/uz/lists/view/748.

ochiq muloqotlar tashkil etildi. Ishtirokchilar tomonidan tilga olingan 653 ta muammo jamlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan alohida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va ijroga qaratildi. Shu bilan birga, muloqotlarda qatnashgan yoshlar uchun kichik iqtisodiy va sanoat zonalari hamda ishlab chiqarish korxonalariga biznes-sayohatlar tashkil etildi. 17-20 sentyabr kunlari Orol dengizining bugungi kundagi holatini o'rganish hamda bu fojiga keng jamoatchilik e'tiborini yana bir bora qaratish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumaniga yoshlar ekspeditsiyasi uyushtirildi. Unda yosh olimlar, gid-ekskursovodlar, fotosuratchilar, bloger va jurnalistlar ishtirok etdi. 25 nafar kishidan iborat ekspeditsiya a'zolari uch kun mobaynida Orolbo'yi mintaqasida istiqomat qilib, u erdagi haqiqiy holat bilan yaqindan tanishdi. Ekspeditsiya davomida "#SaveAral" ("Orolni asra") guruhi tashkil etilib, Orol dengizi sohilida istiqomat qiluvchi aholi hamda sayyohlar tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Yoshlarni foydali mehnat bilan band qilish, ularni moddiy qo'l lab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi paxta yig'im-terimi mavsumida jonkuyar fermerlarimizga elka tutishga oshiqdi. Shu niyatda respublika bo'ylab ko'n gilli, shu jumladan, uyushmagan yoshlardan iborat "Fidoiy yoshlar" otryadlari tuzildi. Ayni vaqtda "Fidoiy yoshlar" mamlakatimiz paxta xirmonini to'ldirishga munosib hissa qo'shdi²⁴⁶.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi va mamlakat yoshlarning xalqaro maydondagi faoiyati ham beqiyos darajada o'sdi. Jumladan, O'zbekistonda BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (YuNFPA) mamlakat Hukumati, joylardagi hukumat idoralari bilan hamkorlikda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarni ishlab chiqishda qo'l lanadigan demografik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish bo'yicha keng ko'l amli tadbirlarni amalga oshirdi. Sog'liqni saqlash vazirligi bilan esa, YuNFPA butun O'zbekiston bo'ylab bolalar va yoshlar sifatli birlamchi tibbiy-sanitariya yordamidan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan tashabbuslarini hayotga tadbir etib kelmoqda. BMT yordamida Sog'liqni saqlash vazirligi yoshlarga yanada sifatliroq va aynan yoshlarga mo'l jallangan tibbiy xizmatlarni ko'rsatishga erishmoqda. BMTning Taraqqiyot dasturi esa, Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda yoshlar orasida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, tadbirkor yoshlarga keng yo'l ochib berishni ko'zlab, bir qator keng ko'l amdagi tashabbuslarni amalga oshirib kelmoqda. Xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar doirasida yosh ayol va qizlarda etakchilik qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yoshlarga sarmoya ajratish masalasiga BMT alohida urg'u bermoqda. Ayniqsa, yoshlar uchun sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini takomillashtirishga va shuning hisobiga kelajakda sog'lom va yuqori toifali mutaxassislarni tayyorlashga katta e'tibor qaratmoqda. Sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini yanada takomillashtirish dasturlarining amalga oshirilishi tufayli, endilikda barcha bolalar va yoshlar aynan ularning manfaatlari va ehtiyojlarini inobatga oluvchi xizmatlardan foydalanish imkoniga ega bo'l ib, kelajakda o'z yurtining iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga qodir bo'l gan sog'lom, bilimli, dono insonlarga aylanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ushbu maqsadlarga yo'n altirilgan sarmoyalar tufayli, endilikda mamlakatlar o'zining odam resurslari, ya'ni "demografik dividendi", etuk mutaxassislari sonini ko'paytirib, yangi yutuqlarga erishmoqda.

BMTning O'zbekistondagi Doimiy vakili Xelena Freyzerning yoshlar masalasiga bag'ishlangan ma'ruzasidagi quyidagi fikrlar uning chin e'tirofini ifodalaydi: "O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev BMTning Bosh Assambleyasida so'zga chiqib "ertangi kunimiz, sayyoramizning farovonligi bolalarimiz qanday inson bo'l ib ulg'ayishiga bog'liq", deb ta'kidladi. Uning so'zlari amalda aniq ishlarda mujassam bo'l di, zero joriy yilning 30 iyun kuni "Yoshlar kuni" deb e'lon qilinib, shu kunning o'zida "Harakatlar strategiyasi 2017-2021"ga muvofiq O'zbekiston yoshlar ittifoqi vujudga keldi. Mazkur tashkilotga yoshlar irodasini izhor etish, ularning jamiyat hayotidagi ishtirokini ta'minlash, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish kabi vazifalar yuklatildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat yoshlar siyosatining samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqining faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan "Yoshlar bo'yicha umumjahon harakatlar dasturi"ga muvofiq bo'l gan 12 ta asosiy vazifalar belgilandi. Bundan tashqari, o'tgan haftada Vazirlar

²⁴⁶Ёшлар иттифоқи: Садоқат ва саодат майдони.//<http://www.yoshlarovozi.uz/2017/12>.

Mahkamasining “Yoshlar tadbirkorligi klasterlarini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Konstitutsiyangiz bilan kafolatlangan huquqlaringizni biling, O‘zbekiston imzolagan bitimlar va BMT konvensiyalaridan xabardor bo‘ling, hukumat tomonidan siz uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan xabardor bo‘ling. Oilangiz, jamiyatingiz, yoshlar hamjamiyati, hukumatigiz hayotida faol ishtirok eting. Hayotda unchalik katta imkoniyatlarga ega bo‘l magan insonlarni qo‘llab-quvvatlang, ularga yordam bering. Mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlardan foydalanib, o‘z yurtigiz taraqqiyotiga hissa qo‘shing!”²⁴⁷

Fuqarolik jamiyati qurish islohotlarining hozirgi bosqichida O‘zbekiston yoshlari alohida ijtimoiy qatlam, faol ijtimoiy-siyosiy kuch, hozirgi avlod davomchilari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Davlatimizning yoshlarga oid siyosati amalda o‘zini namoyon qilish davrining boshlanishi natijasi o‘l aroq yoshlarda o‘z atrofida kechayotgan hodisalarni mustaqil baholaydigan, har qanday shart-sharoitlarda o‘zining pozitsiyasiga ega bo‘lgan yangi sifatlar va fazilatlar shakllanmoqda. Yoshlar o‘rtasida jonlanish, ijtimoiy va siyosiy voqeliklarga befarqlik bilan qaramaslik, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga intilishlar ko‘zga tashlanmoqda. Zero, bu hozirgi fuqarolik jamiyati qurish islohotlarining o‘zining qizg‘in pallasiga kirganligi bilan izohlanadi.

Mamlakatimizda Harakatlar strategiyasi doirasida "Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili" Davlat dasturini amalga oshirish hamda BMTning bola huquqlari bo‘yicha Konvensiyasini implementatsiya qilish doirasida bola huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish masalalari" mavzusida 2018 yil 19 iyul davra suhbat bo‘lib o‘tdi. Davra suhbatida O‘zbekiston Respublikasi yosh, mustaqil, dinamik tarzda rivojlanayotgan davlat ekanligi ta‘kidlanib, mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimiz aholisining 30%ni yoki 10 millionini bolalar hamda yoshlar tashkil qilishi xaqidagi ma‘lumotlariga to‘xtalib o‘tildi. SHuningdek, bolalar va yoshlarning jismoniy, intellektual hamda ma‘naviy-ahloqiy rivojlanishini yuqori darajada ta‘minlashga qaratilgan qonunchilik, dasturiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi ekanligi ham ta‘kidlandi²⁴⁸.

Davlatning yoshlar siyosatini takomillashtirish, yosh avlodni har taraflama qo‘llab-quvvatlash, bolalar va yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabrdagi BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma‘ruzasida davlatlarning yoshlar huquqlarini himoya qilish sohasidagi siyosatini takomillashtirish hamda Yoshlar huquqlari bo‘yicha Xalqaro konvensiya qabul qilishning muhimligini alohida ta‘kidlab o‘tganligi ham e‘tirof etildi. Yig‘ilishda bolalar va yoshlar huquqlari bo‘yicha Vakil institutini joriy qilish hamda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi bolalar va yoshlar huquqlari bo‘yicha Vakil to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish orqali yosh avlod huquqlarini himoya qilish milliy tizimini mustahkamlash zarur ekanligi ta‘kidlandi²⁴⁹.

2018 yilning 9 avgust kuni Xalqaro yoshlar kuni munosabati bilan “Yoshlar mamlakatning iqtisodiy o‘rinishini ta‘minlovchi kuch” mavzusida tadbir bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston YOshlar Ittifoqi tomonidan BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan mazkur tadbirdan ko‘zlangan asosiy maqsad yoshlarga mamlakat taraqqiyoti hamda O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga hissa qo‘shish uchun imkon yaratishdan iborat bo‘ladi. Ushbu tadbirda YOshlar masalalari bo‘yicha parlament komissiyasi, YOshlar Ittifoqi, vazirlik va idoralar, NNT, shuningdek, qator xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, YUNISEF, YUNFPA vakillari ishtirok etdilar. Xalqaro yoshlar kuni ilk bor alohida bayram sifatida BMT taklifiga binoan, YOshlar uchun mas‘ul vazirlarning Lissabonda o‘tkazilgan xalqaro konferensiyasi tavsiyasining BMT Bosh

²⁴⁷ БМТнинг Ўзбекистондаги Доимий вакили Хелена Фрейзернинг ёшлар масаласига бағишланган маърузаси. 27.11.2017//<http://www.un.uz/uzb/news/display/252>.

²⁴⁸ www.press-service.uz

²⁴⁹ Халқ сўзи газетасининг № 148 - сони. – 2018 йил 20 июль.

Assambleyasi rezolyusiyasi bilan tasdiqlanishi natijasida 2000 yilning 12 avgust kuni nishonlangan edi. Joriy 2018 yilda Xalqaro yoshlar kuni uchun tanlangan mavzu – “Yoshlar uchun xavfsiz maydonchalar” – yoshlarning o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishi, muloqotga kirishishi hamda qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishi uchun xavfsiz maydonchalarni yaratishga qaratilgan o‘ziga xos global da’vatdir. BMT Bosh kotibi Antoniu Gutierrez o‘zining Xalqaro Yoshlar kuni munosabati bilan yo‘l lagan murojaatida ta’kidlashicha: “Dunyo yoshlariga xavfsiz ijtimoiy, fuqaroviy, jismoniy va raqamli maydonlar zarurki, ular bu kengliklarda o‘z qarashlarini erkin bayon qilib, orzularini amalga oshirishlari mumkin bo‘lsin”.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda 18 yoshga to‘l magan 10 400 000 ga yaqin o‘g‘il-qiz mavjud va bu mamlakat aholisining taxminan 30% dan ortig‘ini tashkil etadi. 17 milliondan ortiq, ya’ni 64% aholi 30 yoshga to‘l maganlardir. O‘zbekistonda 2016 yilda qabul qilingan Yoshlarga oid davlat siyosatiga ko‘ra yoshlar sifatli ta’lim, tibbiy xizmat va ish o‘rinlari bilan ta’minlanishi, ularning huquqlari, erkinlik va manfaatlarini kafolatlanishi, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda samarali ishtirok etishi va o‘z kelajaklarni shakllantirishlariga imkon yaratish majburiyati mavjud.

“Yoshlar mamlakatning iqtisodiy o‘rishini ta’minlovchi ulkan kuch. Ulardagi potensialni hayotga tatbiq etish uchun hukumat yoshlarning sog‘lom va ilmi bo‘l ishlari, munosib ish bilan ta’minlanishlari yo‘lidagi siyosat va dasturlarni amalga oshirishi lozim. Shuningdek, iqtisodiy o‘rish va atrof-muhit o‘rtasidagi muvozanat saqlanishiga va ushbu o‘rish barchaga birdek foydali bo‘l ishiga ham e’tibor qaratish zarur. Shu bois BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi yoshlar bilan va yoshlar uchun ishlashi lozim!”, - o‘z ma’ruzasida ta’kidladi BMTning aholi masalalari bo‘yicha O‘zbekistondagi jamg‘armasi vakili Mieko Yabuta xonim²⁵⁰.

Xalqaro yoshlar kuni arafasida o‘tkazilgan ushbu tadbir BMTning O‘zbekistonda mamlakat yoshlari bilan va ular uchun qanday ishlayotgani, yoshlarga oid davlat siyosatining sog‘liqni saqlash va sog‘lom turmush tarzi, ta’lim, bandlik, odil sudlov va qarorlar qabul qilishda ishtirok etish masalalariga oid ustuvor yo‘n alishlarga muvofiq keluvchi loyihalarni amalga oshirayotganini namoyish qilish uchun yaxshi imkondir.

2018 yil 27 iyun sanasi yurtimiz yoshlari hayotida yangi sahifa ochilgan kun sifatida tarixga muhurlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan “Yoshlar -kelajagimiz” Davlat dasturi tasdiqlandi. Mazkur hujjatning muhimligi shundaki, u joylarda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g‘oyalari va loyihalarini ro‘yobga chiqarish, shuningdek, shu asosda yoshlar bandligini ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan.

Albatta, ushbu hujjatning samarali ijro etilishini ta’minlash barchamiz uchun ustuvor vazifa. Shu nuqtai nazardan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiyaning bo‘l ib o‘tgan davra suhbatini dolzarb mavzuga bag‘ishlandi. Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni mazmun-mohiyati, unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini olib borish, Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya hamda siyosiy partiyalarning “Yoshlar qanotlari” oldida turgan vazifalar muhokama etildi.

Deputatlar, siyosiy partiyalarning “Yoshlar qanotlari” rahbarlari va faollari, mutasaddi vazirlik hamda idoralarning mas’ul xodimlari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashgan tadbirda davlatimiz rahbari Farmonida belgilab berilgan ustuvor yo‘n alishlardan kelib chiqib, parlament quyi palatasining pozitsiyasi belgilab olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2018 yilning 4 iyul kuni “Yoshlar - kelajagimiz” Davlat dasturi ijrosini samarali tashkil etish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan ham Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, Davlat dasturi ijrosini joylarda samarali tashkil etish maqsadida mamlakatimizning har bir hududiga Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiyasi a’zolari va deputatlar birlashtirilib, ular Respublika ishchi guruhlari tarkibida ish olib bordilar.

²⁵⁰ www. YI.uz

Qonunchilik palatasining hududlarga birlashtirilgan deputatlari tomonidan Davlat dasturining mazmun-mohiyatini keng yoshlar ommasiga yetkazish bo'yicha targ'ibot va tashviqot tadbirlari olib borildi, Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan qilinayotgan ishlarda hududiy va mahalliy ishchi guruhlarga amaliy ko'mak ko'rsatildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda Yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari mustahkamlanib, Yoshlar masalalari bo'yicha respublika idoralararo kengashi tuzildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilib, 30 iyun "Yoshlar kuni" etib belgilandi. Hozirda Ittifoqqa a'zo bo'lgan yoshlar soni 7 million 690 ming. Bugungi kunda barcha sohada bilimli, siyosiy va ijtimoiy faol, xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadigan, halol va jonkuyar yosh rahbarlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Dunyoqarashi keng, kreativ fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan yoshlar mas'uliyatli vazifalarga tayinlanyapti. Joylarda 8 nafar yosh avlod vakillari hokim o'rinbosari etib tayinlangan. 2019 yil 22 dekabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga 9 nafar yigit-qiz saylangan, mahalliy Kengashlarda g'alaba qozonganlarning qariyb 10 foizini yoshlar tashkil etadi. Bundan tashqari, davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida jonbozlik ko'rsatib, mamlakatimizning xalqaro obro'-e'tiborini yuksaltirishga hissa qo'shayotgan 84 nafar yoshlar «Mard o'g'lon» davlat mukofoti va «Kelajak bunyodkori» medali bilan taqdirlangan²⁵¹.

Xo'sh, yoshlarning siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirish qanday amalga oshiriladi? O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvarda «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi PF-5618-son Farmoni qabul qilindi. Farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish «shaxs – oila – mahalla – ta'lim muassasasi – tashkilot – jamiyat» prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi ko'zda tutilgan²⁵². Bundan tashqari, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jihatdan faolligi va ishtiroki to'g'risida yana bir qator savollar mujassam bo'ladi. Jumladan, buning uchun ma'lum bir muassasa yoki fuqarolik jamiyati instituti yoki fuqaroning o'zi mas'ulmikin? Yoshlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb etish, siyosiy madaniyat va siyosiy faollikni targ'ib etuvchi partiyalar zimmasiga qanday vazifa va mas'uliyat yuklanmoqda? Mas'uliyat yuki turmush tarzimiz, hayotimizda aks etmoqdami? Ushbu savollarga ijobiy javob topish esa siyosiy partiyalar faoliyatidagi faollikni talab etadi. Shu bilan birga yoshlardan ham siyosiy jarayonlarga qiziqish, faollik va bilim talab etiladi.

Shu bilan birga, 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini 2020-yil «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturining ijrosini ta'minlash maqsadida Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari tuzildi, Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar masalalari bo'yicha idoralararo kengash tashkil etildi.

Mamlakatimizda so'n ggi yillarda yoshlar nafaqat ertaning bunyodkori, balki bugunning hal qiluvchi kuchi sifatida o'zlarini namoyon etishlari uchun keng imkoniyat yaratildi. Aholini 18 millionga yaqini (60%) yoshlar hisobiga to'g'ri keladi, o'sish ko'rsatkichlari yiliga 500 ming nafardan ortiqni tashkil etadi. Keyingi yillarda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida 2 ta qonun va 16 ta qonunosti hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 ta farmoni, 4 ta qarori, 1 ta farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 14 ta qarori va 3 ta farmoyishini qabul qilinishi yoshlar siyosati sohasidagi islohotlarning tizimi, bosqichma-bosqich amalga oshirilishiga huquqiy zamin yaratdi²⁵³.

2020 yil iyul oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi «Yoshlar parlamenti»ga demokratik tamoyillar asosida, erkin raqobat muhitida, qizg'in tortishuv va bahs-munozaralar sharoitida o'tkazilgan saylovlarda mamlakatimizda turli sohalarida faoliyat yuritayotgan 11 mingdan ortiq yoshlar orasidan 250 nafar a'zo saylandilar. Bu orqali yoshlarning parlament faoliyati va qonun ijodkorligiga jalb etish, ularning faolligini yanada kuchaytirish hamda

²⁵¹ Мирзиёев Ш.М. Ёшларга оид давлат сиёсатида туб бурилиш даври бошланмоқда. Халқ сўзи, 2019 йил 28 декабрь.

²⁵² <https://lex.uz/docs/4149765>

²⁵³ <http://regulation.gov.uz/ru/document/4824>

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish koʻzda tutilgan.

Joriy yilda Oliy Majlis Senati huzurida Yoshlar parlamenti tashkil etildi. Yoshlar ishlari agentligi tavsiyasiga asosan Senat Kengashi tomonidan Yoshlar parlamenti aʼzolari tasdiqlandi. Yoshlar parlamenti komissiyalari Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus asosida yoʻn alishlarga ajratilgan boʻl ib, Yoshlar parlamenti yoshlarning oʻz fikrini erkin bayon etishlari uchun yuksak minbar boʻl ishi, ularning har biri oʻz hududidagi yoshlarga tegishli muammolarini oʻrganib, sabablarini aniqlab, echimi yuzasidan takliflar ishlab chiqishlari nazarda tutilgan.

Hozirgi zamonda intellektual va maʼnaviy etuk, tashabbuskor yoshlar barqaror taraqqiyotning drayveriga aylanib bormoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq soʻzlab, Oʻzbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari toʻgʻrisidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish taklifini bergan edi.²⁵⁴

Mamlakatimizda 2020 yil 12-13 avgust kunlari yoshlar huquqlarini targʻib qilishning dolzarb masalalariga bagʻishlangan «Yoshlar – 2020: global birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari» mavzusidagi inson huquqlari boʻyicha Samarqand forumi oʻtkazildi. Mazkur forum ishtirokchilariga Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev oʻz tabrigini yoʻl lab, quyidagilarni taʼkidlab oʻtdi, «Bugungi kunda yangi Oʻzbekiston yoshlari – mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan jadal va keng koʻl aml islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi va faol ishtirokchisi boʻl ib maydonga chiqmoqda. Hozirgi vaqtda «Oʻzbekiston yoshlari – 2025» konsepsiyasi ishlab chiqilildi, yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholashning yagona mezonlari, yoshlar siyosatini baholashning milliy indeksi joriy etilmoqda. Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan koʻplab muammolar – tinchlik va xavfsizlikka tahdidlar, terrorizm va ekstremizm, irqchilik, iqlim oʻzgarishlari, shuningdek, COVID-19 pandemiyasi – oʻzaro kelishilgan global hamkorlikning hal etish jarayonlariga yoshlarni faol jalb qilishni talab etmoqda. Shu munosabat bilan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Oʻzbekiston tomonidan ilgari surilgan Yoshlar huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyaning qabul qilinishi jahondagi ikki milliarddan ortiq yigit va qizlarning haq-huquqlarini taʼminlashda muhim ahamiyatga egadir»²⁵⁵. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 23 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida nutq soʻzlab, BMTning Yoshlar huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyani qabul qilish boʻyicha Oʻzbekiston tashabbusini qoʻl lab-quvvatlashga chaqirdi.

Darhaqiqat, mazkur konvensiyani qabul qilinishi yosh avlodni maʼrifiy ruhda tarbiyalash, ijtimoiy qoʻl lab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilish, oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratishdek ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining 2019 yil 27 dekabrda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlarning ilgʻor vakillari bilan uchrashuvda Yoshlar ittifoqi negizida Yoshlar ishlari agentligini tashkil etish tashabbusi ilgari surilgan. Ushbu tuzilma yoshlarning orzu-umidlarini roʻyobga chiqarish, tashabbuslarini qoʻl lab-quvvatlash, muammolarini hal etish bilan davlat tashkiloti shugʻullanishiga imkoniyat yaratadi. Mazkur jabhada xalqaro tajribaga ham eʼtibor qaratiladi. Albatta, bu borada har bir davlat oʻziga xos yoʻl tutadi. Fikrimizcha, mazkur tanlov davlat boshqaruvi uslubi va xalqning milliy mentalitetidan kelib chiqqan.

²⁵⁴ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Ўзбекистон Республикаси. Президенти Ш.М Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нуткидан. 2-жилд. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ,2018. –Б.245-254.

²⁵⁵ Мирзиёев Ш.М. «Ёшлар – 2020: глобал бирдамлик, барқарор таракқиёт ва инсон ҳуқуқлари» мавзусидаги инсон ҳуқуқлари бўйича Самарқанд форуми иштирокчиларига табригидан. Халқ сўзи, 2020 йил 13 август.

Jumladan, AQSHda yigit-qizlarni bolaligidanoq shaxs sifatida tarbiyalash asosiy maqsaddir. Shu bois yoshlarga puxta ta'lim berish bilan birga, ularni jamoat ishlariga jalb etish (Youth Service) va mazkur amaliyot orqali ijtimoiy faolligini oshirish (Youth Learning)ga alohida e'tibor qaratiladi. Jarayonda biznes sektorlar, xususan, turli xayriya tashkilotlari o'z dastur va loyihalari bilan qatnashadi.

Fransiyada yoshlar siyosati bilan Sport va yoshlar ishlari vazirligi shug'ullanadi. Ushbu vazirlik hududlarda boshqarma va departamentlarga ega. Vazirlik nodavlat notijorat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib boradi. Bundan ko'zlangan maqsad yoshlar bandligini ta'minlash, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashishdir.

Shvetsiyada yoshlar siyosati Madaniyat vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakat parlamentida Yoshlar davlat kengashi hamda uning mahalliy munitsipal bo'l inmalari faoliyat yuritadi. Shvetsiyada yigit-qizlarni ish bilan ta'minlash va mehnatga maxsus tayyorlash masalasi mahalliy mehnat bozori va biznesning kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib hal etiladi.

Finlyandiya yoshlar siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish Ta'lim vazirligiga yuklatilgan. Yosh avlod bilan ishlashda, asosan, maktab jamoatchiligi bilan hamkorlikka asoslanadi. Yoshlarning fuqarolik va ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida Finlyandiya parlamentida muntazam tarzda ikki yilda bir marta (1998 yildan buyon) «Yoshlar parlamenti» yig'iladi. «Yoshlar parlamenti» Maktab klublari markazi bilan birgalikda tashkil etilgan.

Kanada esa yoshlar siyosatini amalga oshirishda eng barqaror davlatlardan biridir. Buning sababi ushbu davlatdagi Vaterlo universiteti olimlari tomonidan yoshlarning fikri va qiziqishlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy eksperiment va tadqiqotlar muntazam o'tkazilib, natijalari hayotga izchil tatbiq etib kelinayotganidadir. Shu bois Kanadada navqiron avlodning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy faolligi ancha yuqori²⁵⁶.

Mamlakatimizda yoshlar muammolarini samarali hal etish maqsadida, yoshlar tadbirkorligini har tomonlama qo'l lab-quvvatlash, yoshlarni biznes bilan shug'ullanishga faol jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, ish o'rinlari yaratish va yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'n alishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining vazifalariga muvofiq, 2018 yil 27 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida»gi PF-5466-son Farmoni qabul qilindi. Farmonda yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish va qo'l lab-quvvatlash, band bo'l magan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko'n ikmalariga o'qitish, shuningdek, umuman yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali bandligini ta'minlashga qaratilgan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi negizida «Yosh tadbirkorlar» markazlari va «Yoshlar mehnat guzari» komplekslarini tashkil etish belgilandi²⁵⁷.

2020 yil 30 iyunda «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-6017-son Prezident Farmoni qabul qilindi²⁵⁸. Ushbu Farmonga muvofiq, yoshlar siyosatini yuritishda davlat idoralari oldiga masala qo'ya oladigan, zarur vakolat va moliyaviy resurslarga ega bo'lgan YOshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Mazkur agentlik bo'yicha 2020 yil 30 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi YOshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-4768-son Qarori qabul qilindi²⁵⁹.

Yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunarlar, raqamli iqtisodiyot ko'n ikmalarini puxta egallashlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash jarayonlariga ko'maklashish Yoshlar ishlari agentligi faoliyatining asosiy yo'n alishlari hisoblanadi. Agentlik tomonidan har bir tuman kesimida «Ishga marhamat» monomarkazlari tashkil etilib, yoshlarni kasb-hunarga o'qitish, sektorlar rahbarlari boshchiligida ishsiz yoshlar ro'yxatini shakllantirish va ularni o'sha

²⁵⁶ Кодиров Э. Ёшларга оид давлат сиёсати: йўллар турлича, мақсад битта... Халқ сўзи 2020 йил 21 май.

²⁵⁷ <https://lex.uz/doc/3826820>

²⁵⁸ <https://lex.uz/docs/4880189>

²⁵⁹ <https://lex.uz/docs/4880129>

hududdagi bo'sh ish o'rinlari hamda kasb-hunarga o'rgatib, mehnat bozoriga olib kirish ishlari amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, xorijdagi O'zbekiston yoshlarini qo'l lab-quvvatlash maqsadida, ular bilan yaqin muloqot o'rnatish, ularni istak-intilishlari va maqsadlarini o'rganish, shu orqali ularni mamlakatimizdagi mos bo'sh ish o'rinlariga jalb etish orqali ona Vatanga qaytarish mexanizmlari yaratiladi. «Fidoyi yoshlar otryadlari»ni tuzish orqali ishsiz yoshlarni haq to'l anadigan jamoat va mavsumiy ishlarga jalb qilish, «Yoshlar qurilish otryadlari»ni tashkil etish orqali oliy ta'lim muassasalari talabalarini yozgi ta'til vaqtida haq to'l anadigan ish bilan band etish ham yoshlarni daromad manbalari bilan ta'minlash nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, 2021 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida»gi PF-5466-son Farmoni doirasida «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan resurs mablag'lari bo'yicha tijorat banklarining Jamg'arma oldidagi majburiyatlarini Davlat byudjeti oldidagi majburiyatlar sifatida qayta rasmiylashtirish va har yili ushbu majburiyatlarning Davlat byudjetiga qaytarilgan qismi hisobidan Agentlikning ustuvor dasturiy vazifalari amalga oshirilishini moliyalashtirish belgilangan²⁶⁰.

Yuqoridagilarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida yoshlar siyosati bilan shug'ullanish bevosita davlat boshqaruvi organlari zimmasiga yuklatilgan. Shu bilan birga, yoshlar muammolarini hal etishda davlat organlari qatori fuqarolik jamiyati institutlari ham faol ishtirok etib kelmoqda. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yoshlar siyosatiga yangicha yondashilib, istiqbolli g'oyalar va mexanizmlarni hayotga joriy etishda hozirgi kunda ilg'or va uzoq yillar davomida sinovdan o'tgan xorijiy tajribaga tayanilayotganligi jamiyat hayotida muhim o'zgarishlarga olib kelmoqda.

Xullas, islohotlarning taqdiri, samarali natijalar berishi va istiqboli aholining, ayniqsa, yoshlarning faolligiga, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga bog'liq. Chunki davlatning ijtimoiy-siyosiy salohiyatini belgilovchi omillardan biri shu mamlakat yoshlarining faolligi, aql-zakovati va fidoyiligidir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish uchun avvalambor kelajak vorisi bo'l mish yoshlarning demokratik jarayonlarning chinakkam ishtirokchisiga, demokratik qadriyatlarining faol himoyachisiga aylanishiga erishish lozim. Bu o'ta murakkab vazifa yoshlarning siyosiy va huquqiy madaniyatini sobitqadamlik hamda qat'iyat bilan yuksaltirib borishni talab etadi.

Prezidentimizning 2020 yil 29 dekabr kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida

Yoshlarga oid davlat siyosatini yuritish ustuvor vazifalari belgilab olindi:

Ana shu muhim yo'n alishlarda boshlagan ishlarimizni davom ettirish va yangi, yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida kirib kelayotgan 2021 yilga mamlakatimizda **“Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”**, deb nom berishni taklif etaman.

2021 yil nomida belgilangan sohalarni tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi keng ko'lamlil ishlarni amalga oshirishimiz lozim.

Birinchidan, bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi.

Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'n alishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat.

Kelgusi yil yakuni bilan maktabgacha ta'lim qamrovini 65 foizga, 2023 yil oxirida esa 75 foizga yetkazishimiz kerak. Bu ishlarga byudjetdan 600 milliard so'm subsidiya berish hisobidan qo'shimcha ravishda 2 mingta nodavlat bog'cha tashkil etilib, xususiy sektor ulushi 25 foizga etkaziladi.

²⁶⁰ <https://lex.uz/docs/4880189>

Shuningdek, 2021 yilda maktabga tayyorlashning bepul tizimi bilan 560 ming nafar 6 yoshli bolalar yoki ularning 82 foizi qamrab olinadi.

Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'limning muqobil shakllari yanada kengaytiriladi. Bunda YUNISEF hamda Jahon banki bilan hamkorlikda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktabgacha ta'limni uyda berish modeli ham yo'l ga qo'yiladi.

Ikkinchidan, maktab ta'limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish, muallimlarga munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar jadal davom ettiriladi.

Kelgusi yili 30 ta yangi maktab qurish, 320 ta maktabni ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida byudjetdan 2 trillion so'm ajratiladi.

Sohada yagona "elektron ta'lim" tizimini joriy etishga kelgusi 2 yilda 250 milliard so'm yo'n altiriladi.

Ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchi va domlalar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish lozim.

Bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazzun va tushunarli darsliklar yaratish zarur. Bu borada kelgusi o'quv yilida boshlang'ich sinflarda davlat ta'lim standarti o'rniga, ilg'or xorijiy tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan "Milliy o'quv dasturi" joriy etiladi.

Umumta'lim maktablardagi ta'lim sifati poytaxtda ham, olis qishloqlarda ham yuqori bo'l ishi shart. Buning uchun chekka hududlarda maktablarni malakali kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha alohida dastur amalga oshiriladi. Jumladan, boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan o'qituvchilar oyligiga 50 foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa – 100 foiz ustama haq to'lanadi.

Shuningdek, hududlarda xususiy maktablar faoliyatini rag'batlantirish uchun byudjetdan subsidiyalar ajratiladi.

Yoshlarning iqtidori va salohiyatini to'g'ri yo'n altirishga qaratilgan uzluksiz tizim yaratiladi.

Kelgusi yilda yurtimizda 10 ta Prezident maktabi, kimyo-biologiya, matematika, axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan 197 ta maktab o'z faoliyatini boshlaydi.

Iqtidorli o'g'il-qizlarimizning yuqori texnologiyalar va bilimlarni chuqur o'zlashtirishiga keng sharoit yaratish hamda raqobatbardosh milliy kadrlarning yangi avlodini tayyorlash maqsadida Toshkent shahrida yangi zamonaviy universitet tashkil etamiz. Ushbu oliygohda chet eldagi yetakchi olimlar va professor-o'qituvchilar jalb qilinib, yoshlarga eng zamonaviy dasturlar asosida ta'lim-tarbiya beriladi.

Bolalarimizning mehnat ko'n ikmalarini maktab davridan boshlab shakllantirib borish maqsadida "kasbga o'rgatish tizimi" joriy etiladi.

Yana bir masala – pedagoglar malakasini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ma'lumki, muallimlar hozirgi vaqtda har 5 yilda malaka oshiradi. Bundan buyon ularning "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida o'z malakasini uzluksiz oshirib borishi yo'l ga qo'yiladi.

Shuningdek, o'qituvchilarning o'z fanini bilishi, pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligidan kelib chiqib, toifa berish mezonlari ham qayta ko'rib chiqiladi.

Yana bir bor takrorlayman, jamiyatda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'l ishi lozim. Muallimlarimiz bolalarga sifatli ta'lim berish va o'z ustida ishlashdan boshqa narsa haqida o'ylamasligi uchun davlat barcha sharoitlarni yaratib berishi zarur. Shu bois o'qituvchi, murabbiy va metodistlar mehnatiga munosib haq to'lash bo'yicha boshlagan ishlarimiz kelgusi yilda ham davom ettiriladi. Buning uchun xalq ta'limi xodimlarini rag'batlantirish hududiy jamg'armalariga 330 milliard so'm yo'n altiriladi.

Shu bilan birga, 240 mingdan ziyod maktab o'qituvchilariga sinf rahbarligi uchun ustama to'lovlar 1,5 barobarga oshirilib, byudjetdan 400 milliard so'm qo'shimcha mablag' ajratiladi.

Uchinchidan, oliy ta'limning qamrovi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Keyingi yildan boshlab oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshiriladi.

Oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga yetkazamiz. A'lo baholarga o'qiyotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar uchun maxsus stipendiyalar joriy etiladi. Hozirgi vaqtda yoshlar eng nufuzli oliygohlarga kirish uchun intiladi, lekin oliy o'quv yurtlari o'rtasida bilimli va iqtidorli yoshlarni jalb qilish bo'yicha raqobat yo'q. SHU sababli xususiy oliygohlarga ham zarur mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmasi berish tizimi yo'l ga qo'yiladi.

Oliyogohlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'in lari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkaziladi. Shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'n alishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga birlashtiriladi.

Nufuzli xorijiy universitetlar, ilmiy va innovatsion markazlar bilan aloqalarni kuchaytirish, ular bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirishimiz zarur.

Shu munosabat bilan kelgusi yilda "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali etakchi xorijiy oliy o'quv yurtlarining magistratura va doktoranturasida o'qishga yuboriladigan yoshlar soni 5 barobarga oshiriladi. Bu dastur orqali ilk bor bakalavr yo'n alishida chet ellarga 100 nafar o'g'il-qizlarimizni yuboramiz. Keyingi yillardan ularning soni 2-3 barobarga ko'paytiriladi.

Yangi yilda yurtimizdagi 30 ta yetakchi oliygohga o'quv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi beriladi.

To'rtinchidan, mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalardir.

Kelgusi yilda ilm-fan sohasida oliygohlar va ilmiy tashkilotlardagi doktorantlar soni 4,5 mingtaga etkaziladi yoki 2017 yilga nisbatan 3 barobarga oshiriladi. Ushbu maqsadlar uchun byudjetdan qo'shimcha 240 milliard so'm ajratiladi.

Ilg'or xalqaro amaliyot asosida dotsent va professor ilmiy unvonlari, falsafa va fan doktori ilmiy darajalarini berish vakolati o'z yo'n alishi bo'yicha nufuzli bo'lgan oliygohlarning ilmiy kengashlariga o'tkaziladi

Ehtiyojmand oilalarning farzandlari, chin yetim, nogironligi bo'lgan va davolanishga muhtoj bolalarga alohida mehr-muruvvat ko'rsatish bo'yicha yangi tizim joriy etiladi.

Hozirgi kunda respublikamizda alohida e'tiborga muhtoj 18 yoshgacha bo'lgan 150 ming nafar farzandlarimiz bor. Ularning ta'lim olishi, aniq bir kasbni egallashi uchun ko'maklashish, og'ir kasallikka chalinganlarni davolash, chin etimlarga hayotda o'z o'rnini topishga yordam berish, uy-joy bilan ta'minlash – nafaqat vazifamiz, avvalo, insoniy burchimizdir.

2021 yilda birinchi marta byudjetdan 900 nafar chin yetim yoshlarni uy-joy bilan ta'minlashga 50 milliard so'm ajratiladi.

Umuman, bunday ezgu ishlarni tizimli yo'l ga qo'yish uchun Bolalarni qo'l lab-quvvatlash jamoat fondini tashkil etib, unga byudjetdan 100 milliard so'm yo'n altirsak, o'ylaymanki, sizlar ham bu tashabbusni qo'l lab-quvvatlaysiz. Bu mablag'lar yil davomida ko'paytirib boriladi.

Bu tashabbus umumxalq harakatiga aylanishi, saxovatpesha hamyurtlarimiz ushbu xayrli ishga munosib hissa qo'shishiga ishonchim komil.

Oliy Majlis palatalari Bolalarni qo'l lab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini qonun darajasida mustahkamlab, bu borada faollik ko'rsatgan yurtdoshlarimizni rag'batlantirishni ham nazarda tutishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, Bolalar Ombudsmani to'g'risidagi qonunni qabul qilishning ham vaqti-soati keldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Fuqarolik pozitsiyasi tushunchasiga izoh bering?
2. Fuqarolik madaniyati va mas'uliyatining o'zaro aloqadorligini qanday tushunish kerak?
3. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qanday ustuvor yo'n alishlarni bilasiz?
4. Yoshlarga oid davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy asoslari nimalardan iborat?
5. Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi va uni amalga oshirish mexnaizmlarini qanday tasavvur qilasiz?

O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI.
FUQAROLIK JAMIYATI
FANIDAN TESTLAR TO‘PLAMI

1. *Fuqarolik jamiyati fanining predmeti qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?*

- A. Fuqarolik jamiyati ijtimoiy sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni.
- B. Davlatning tashqi siyosatini.
- D. Fuqarolik jamiyatida inson huquq va erkinliklari himoya qilinadi.
- E. Fuqarolik jamiyatining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini.

2. *O‘zbekistonda “Fuqarolik jamiyati” fanini o‘qitish qachon ta’lim tizimiga kiritildi?*

- A. 2016 yilda
- B. 2000 yilda
- D. 2015 yilda
- E. 1991 yilda

3. *Fuqarolik jamiyati tushunchasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?*

- A. Kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo‘lib inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadigan ijtimoiy tizimdir.
- B. Kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan iqtisodiy faoliyatining mahsuli bo‘lib, davlatning rivojlanish darajasini belgilaydigan munosabatdir.
- D. Qadimgi davrdan shakllanib kelayotgan huquqiy munosabatlaridir.
- E. Jamiyatning ijtimoiy munosabatlari tizimidir.

4. *Fuqarolik jamiyatining shakllanish bosqichlarini ko‘rsating?*

- A. IX –XV, XVI-XIX asrlar.
- B. IX –XV, XVI-XIX, XX asrdan hozirgi kungacha.
- D. XV-XVI, XVII-XIX asrlar.
- E. XVI-XVII, XVIII-XIX, XX asrdan hozirgi kungacha.

5. *Fuqarolik jamiyati shakllanishi asoslari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?*

- A. Huquqiy, ma’naviy.
- B. Ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, huquqiy.
- D. Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy.
- E. Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy.

6. *Fuqarolik jamiyati holatini belgilash asosiy mezonni aniqlang?*

- A. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar.
- B. Demokratlashtirish ko‘rsatkichlari.
- D. Inson huquq va erkinliklarining ta’minlanishi.
- E. Insonni kamolotga erishish darajasi.

7. *Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari nimalardan iborat?*

- A. Erkin individlar uyushmasi; o‘zaro hamkorlikka asoslangan ijtimoiy tuzilma;
- B. Barcha javoblar to‘g‘ri
- D. Murakkab tuzilishga ega bo‘lgan plyuratistik tizim;
- O‘zini o‘zi rivojlantiradigan va o‘zini o‘zi boshqaradigan tizim.

8. *O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslariini yaratish va rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil institutti tomonidan necha bosqichga bo‘lib tahlil qilish tavsiya etiladi?*

- A. 2 bosqich
- B. 3 bosqich
- D. 4 bosqich
- E. 5 bosqich

9. *2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning birinchi yo‘nalishi qanday nomlanadi?*

- A. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari
- B. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish
- D. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish;
- E. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish vazifalari

10. *O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasi qachon qabul qilingan?*

- A. 2016 yil 14 dekabr
- B. 2017 yil 3 yanvar
- D. 2017 yil 7 fevral
- E. 2017 yil 8 sentyabr

11. *“Mamlakat boshqaruvida to‘rt qoidaga amal qilish kerak: mashvarat, muhokama, qat‘iy qaror, tadbirkorlik, ogohlik va ehtiyotkorlikka” degan fikrni qaysi alloma ilgari surgan?*

- A. Amir Temur
- B. Abu Ali ibn Sino
- D. Abu Rayxon Beruniy
- E. Abu Nasr Farobiy

12. *“Hukumat boshlig‘ining asosiy vazifasi etib aholining turli qatlamlari, kuchlilar va kuchsizlar o‘rtasida siyosiy va huquqiy adolat mezonini o‘rnatish” deb kim ta‘kidlaydi?*

- A. Amir Temur
- B. Abu Ali ibn Sino
- D. Abu Rayxon Beruniy
- E. Abu Nasr Farobiy

13. *Qaysi davrdan boshlab fuqarolik jamiyati g‘oyasi demokratiya rivojlanishi bilan chambarchas bog‘lanib kelmoqda?*

- A. antik davrda
- B. o‘rta asrlarda
- D. yangi davrda
- E. XX asr boshlarida

14. *Yangi davrda Yevropadagi fuqarolik jamiyati konsepsiyasi shaklanish necha an‘anaridan iborat?*

- A. ikki
- B. uch
- D. to‘rt
- E. besh

15. *“Fuqarolik jamiyati faqat mustaqil mamlakat doirasida amalga oshishi, haqidagi xulosasini ilgari surgan g‘oyaviy oqim – bu ...*

- A. jaddidchilik
- B. marksizm
- D. konservatizm
- E. liberalizm

16. *Fuqarolik jamiyati zamonaviy konseptual diskursining normativ yondoshuvi vakillarini aniqlang.*

- A. Aleksis de Tokvil
- B. Endryu Arato
- D. Karl Marks
- E. Nikkolo Makiavelli

17. *Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalarining qaysi yondashuvi fuqarolik jamiyati a‘naviy jamiyat o‘rnini egallagan yoki zamonaviy jamiyatga xos bo‘lgan belgilarni shakllantiradigan jamiyati sifatida tushuniladi?*

- A. formatsion
- B. sivilizatsion
- D. modernizatsiya
- E. taraqqiyot

18. *Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalarining qaysi yondashuvi fuqarolik jamiyati kapitalistik tizimga bog'lanadi va keng va tor ma'nolarda tushuniladi?*

- A. formatsion
- B. sivilizatsion
- D. modernizatsiya
- E. taraqqiyot

19. *"Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asarining muallifi?*

- A. Aleksis de Tokvil
- B. Samuel Xantington
- D. Immanuel Vallerstayn
- E. Nikolo Makiavelli

20. *"Bir o'lchamli odam" asarining muallifi?*

- A. Gerbert Markuze
- B. Samuel Xantington
- D. Deniel Bell
- E. Jeffri Saks

21. *Qaysi javob fuqaroviylkni aniqroq ifoda etadi?*

- A. biror bir davlatga oid bo'lish;
- B. pasportga ega bo'lish;
- C. huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy layoqatlilik
- D. barchasi to'g'ri

22. *Manbalarda qanday fuqaro haqiqiy fuqaro sanaladi?*

- A. o'z vatani taraqqiyotiga jismoniy yoki ma'naviy mehnati bilan hissa qo'shgan shaxs
- B. to'laqonli huquqiy hujjatlarga ega bo'lgan shaxs
- C. jinoyat sodir etmagan shaxs
- D. befarq bo'lmagan shaxs

23. *Sho'ro davrida fuqaroviylkda qaysi jihat ustuvorlik qilgan?*

- A. sho'roviy mafkura;
- B. vatanparvarlik;
- C. pasportga egalik;
- D. qonun doirasida yashash.

24. *Fuqaroviylkning xususiyatlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?*

- A. o'z haq-huquqlarini tushunish va amaliyotda qo'llay bilish;
- B. boshqalarning haq-huquqlarini hurmat qilish;
- C. mas'uliyatlilik, tenglik
- D. barchasi to'g'ri;

25. *Faol fuqarolik darajasi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?*

- A. mas'uliyatli, ongli va vijdonli
- B. voqea-hodisalarga nisbatan munosabati shakllangan
- C. o'z haq-huquqlarini chuqur tushunadi
- D. o'z huquqini amaliy jihatdan himoya qila oladi

26. *Faol fuqarolikning xususiyatlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?*

- A. siyosiy va iqtisodiy tizim to'g'risida bilim olishga tayyor;
- B. o'z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat mavjud;
- C. bilimlarni joriy qilish uchun ko'nikmalar mavjud;
- D. barchasi to'g'ri.

27. *Fuqarolik jamiyatida passiv fuqaro qanday namoyon bo'ladi?*

- A. ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarga befarq;
- B. jamoaviy ishlarda faollik ko'rsatadi;

C.faqat davlatga ishonadi;

D.imkoni darajasida faoliyat yuritadi.

28.Fuqaroviy faollik dastlab qanday ko'rishda namoyon bo'ladi?

A.ko'ngillilar jamiyatlari vositasida

B.siyosiy partiyalar orqali

C.tadbirkorlik orqali

D.mahalla faoliyati orqali

29.Fuqaroviy faollik qanday institutlar orqali namoyon bo'ladi?

A.fuqaroviy tashabbuslar;

B.siyosiy partiyalar;

C.nodavlat-notijorat tashkilotlar

D. barchasi to'g'ri

30.Fuqaroviy faollikka to'sqinlik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

A.fuqarolik jamiyati shakllanmay qoladi;

B.fuqarolik institutlari faoliyati namoyon bo'lmaydi;

C. fuqarolarda norozilik kayfiyati paydo bo'ladi;

D. barcha javoblar to'g'ri.

31. Jamiyatda qonun ustuvorligi deganda nimani tushunasiz?

A.Huquqiy bilimga ega bo'lgan kishilarning qo'p bo'lishi; huquqiy bilimlarni amaliyotda tadbiq eta oladigan kishilarni ustuvorligi; fuqarolarning qonunchilik tashabbusiga ega ekanligi;

B.Uning barchaga baravar taalluqli ekanligini, butun bir davr ichida va shaxslar doirasida, mamlakatning barcha hududlarida to'la ko'lamli tarzda amal qilishini anglatadi; Huquqiy bilimga ega bo'lgan kishi; fuqarolarning qonunchilik tashabbusi;

C.Qonunning kuchini jamiyatda e'tirof etish.

D.Qonunlar amal qilinishini jamiyatning barcha sohalariga tarqalishi.

32. Qonunchilik palatasi qonun qabul qilishda qanday funksiyani bajaradi?

A.O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini va qonunlar loyihasini ishlab chiqish;

B.O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

C.O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini amal qilishini nazorat qilish;

D.O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarni qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish.

33. Quyidagi javoblardan qaysi biri to'g'ri?

A.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati milliy vakillik palatasi bo'lib, u 150 ta Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat;

B.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat;

C.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mahallalarning vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat;

D.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati oliy va hududiy vakillik palatasi bo'lib, u fuqarolarning markazdagi vakili hisoblanadi.

34. Qabul qilingan qonunning kuchga kirishi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A.Qonunchilik palatasi tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi.

B.Qonun Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi.

C. Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi

D. Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi.

35. *O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning asosiy prinsiplaridan biri nima?*

A. Qonun ustuvorligi;

B. Iqtisodiyot qonunlarining ustuvorligi;

C. Siyosiy fikrlar rang-barangligi va erkinligi;

D. Barcha javoblar to'g'ri.

36. *Quyidagilardan qaysi biri O'zbekistonda ijroiya hokimiyatini anglatadi?*

A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

B. Oliy Majlis;

C. Sud hokimiyati;

D. Parlamentning yuqori palatasi – Senat.

37. *Demokratiyaning asosiy prinsiplaridan birini ko'rsating:*

A. Xalqning erkin xohish irodasi va hokimiyat tarmoqlarining taqsimlanganligi

B. Fuqarolarning teng huquqli va inson huquqlarining ustuvorligi

C. Hokimiyat organlarining saylab quyilishi va ularning saylovchilarga buysunishi hamda tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylab qo'yiladigan organlar oldida hisob berishga burchliligi,

D. A va B javoblar to'g'ri

38. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrda qabul qilgan "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga binoan jazoning qanday yangi turi joriy etildi?*

A. Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoning qimoqda saqlash turlarini;

B. Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoning surgun va badarg'a qilish turlarini;

C. Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoning muqobil turlarini;

D. Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni engillatish turlarini.

39. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 noyabrda qabul qilgan "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida jinoyat sifatida dalil emasligi belgilab qo'yildi?*

A. Jinoyat protsessi ishtirokchilari yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish, psixologik va jismoniy tazyiq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlarini qo'llagan holda;

B. Jinoyat protsessidagi guvohlar yoki ularning gumondagi shaxsning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish, psixologik va jismoniy tazyiq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy muomala turlarini qo'llagan holda;

C. Jinoyat protsessida jinoyati tasdiqlanmagan shaxslar yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish, psixologik va jismoniy tazyiq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy muomala turlarini qo'llagan holda;

D. Jinoyat protsessida advokat ishtirok etmagani holda gumondagi shaxs yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish, psixologik va g'ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlarini qo'llagan holda;

40. *Quyidagi javoblardan qaysi biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi (7 fevral 2017 y.) Farmonida belgilab qo'yilgan?*

A. Fuqarolarning murojaatlariga e'tibor berish, ularning murojaatlarni ko'rib chiqishni tezlik bilan amalga oshirish, halol bo'lmagan mansabdorlarga qarshi zarur choralarini ko'rish;

B. Fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko'rish;

C. Fuqarolarning murojaatlari har oyda ko'rib borish, ularni o'z vaqtida hal etish, bs ishda sansalorlik qiluvchilarni jazolash;

D. Fuqarolarning murojaatlarini tezlik bilan ko'rib chiqish, ularda keltirilgan ma'lumotlar va dalillarni to'g'ri yoki to'g'ri emasligini aniqlash, shu asosda ularga ko'rilgan choralar haqida ma'lumot jo'natish.

41. *Quyidagi javoblardan qaysi biri O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasiga tegishli?*

A. Ommaviy axborot vositalari davlat bosharuvi uchun xizmat qiladi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi.

B. Ommaviy axborot vositalari qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun mas'uldirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi.

C. Ommaviy axborot vositalari davlat tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi.

D. Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi.

42. *Quyidagi javoblardan qaysi biri O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga tegishli?*

A. "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligini o'zi tanlaydi. Har kim o'ziga kerakli axborotni talab etish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axboro va qonun bilan belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir".

B. "Har kim o'zi xohlagan fikrni e'lon qilish, din va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axboro va qonun bilan belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir".

C. "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axboro va qonun bilan belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir".

D. "Har kim o'zi istagan fikrni e'lon qilishi mumkin, so'z erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni talab etish, uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axboro va qonun bilan belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir".

43. *Zamonaviy axborot texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?*

A. Zamonaviy axborot texnologiyalari shaxsiy axborotolish uchun ishlatiladigan uskunalardir. Bu uskunalar kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni qayta ishlaydi.

B. Zamonaviy axborot texnologiyalari shaxsiy kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni qayta ishlashning uslublari, xamda texnik va dasturiy vositalarining jamlanmasidir.

C. Zamonaviy axborot texnologiyalari shaxsiy kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalarini ishlatish demakdir. Ulardan foydalangan holda ma'lumotlar o'zlashtiriladi.

D. Zamonaviy axborot texnologiyalari shaxsiy kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalaridan iborat bo'lib, ular axborot olish uchun ishlatiladi. Ulardan foydalangan holda ma'lumotlarni qayta ishlanadi, o'z egalariga etkaziladi.

44. *O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan sanani belgilang:*

A. 2015 yil 3 dekabr.

B. 2012 yil 23 dekabr.

C. 2014 yil 13 dekabr.

D.2013 yil 3 noyabr.

45. *Axborot tizimi deganda nimani tushunasiz?*

- A. Axborot tizimi - deb bizni o‘rab olgan atrof muhitni jamlanmasiga aytiladi. Bu tizimda axborot izlanadi.
- B. Axborot tizimi - deb belgilangan maqsadga erishish uchun axborotni saklash, izlash, ajratish, uni qayta ishlash prinsiplari, usullarn va vositalarining o‘zaro bog‘langan majmuiga aytiladi.
- C. Axborot tizimi - deb belgilangan davlat tomonidan o‘rnatilgan qonunlar va qoidalar asosida axborot izlash muhiti tushuniladi.
- D. Axborot tizimi - deb muayyan jamiyat va davlat chegarasi ichidagi axborotlar to‘planmasiga aytiladi.

46. *Axborot xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?*

- A. Axborot vositasida amalga oshirilayotgan hujumlarni bartaraf etish, ularga qarshi kurash.
- B. Axborot xavfsizligi subyektlarini axborot xurujlaridan himoya qilish.
- C. Axborot sohasida amalga oshiriladigan axborot xavfsizligi subyektlarining xukuk va erkinliklari, axborot resurslari, axborot infratuzilmasi.
- D. Axborot sohasini mustahkamlash, uni davlat himoyasiga olish, fuqarolarni yot g‘oyalardan asrash.

47. *“Elektron hukumat” deganda nimani tushunasiz?*

A. Oliy Majlisning fuqarolarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi;

B. Nodavlat notijorat tashkilotlarning jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi;

C. Davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi;

D. Siyosiy partiyalarning jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi.

48. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qachon qabul qilindi?*

- A. 2016 yilning 30 iyulida;
- B. 2017 yilning 30 iyunida;
- C. 2015 yilning 30 iyunida;
- D. 2014 yilning 30 iyulida;

49. *“Yagona darcha” Markazining asosiy faoliyati nimalardan iborat?*

A. Tadbirkorlik tuzilmalarini sifati va sonini aniqlab boradi, zamonaviy AKTdan keng foydalangan holda ularga yordam beradi, byurokratiyadan holi ravishda xizmat ko‘rsatadi;

B. Tadbirkorlik tuzilmalariga zamonaviy AKTdan keng foydalangan holda davlat xizmatlarini ko‘rsatish turlarini taqdim etib, tadbirkorlik faoliyatini nazorat etadi va uni tekshirib boradi;

C. Tadbirkorlik tuzilmalariga zamonaviy menejment xizmati ko‘rsatadi, ularni ish samarasini oshirishga yordamlashadi;

D. Tadbirkorlik tuzilmalariga zamonaviy AKTdan keng foydalangan holda davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifati hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini tubdan oshiradi va

ularning shaffofligini ta'minlash maqsadida tadbirkorlik subyektlariga «yagona darcha» tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatadi.

50. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?*

A. Xususiy, umumiy va ishlab chikarish kommunikatsiyasida axborotlar tayyorlash, qayta ishlash va eltib berish bilan bog'lik bo'lgan obyektlar, harakatlar va qoidalar, shuningdek barcha texnologiyalar xamda sanab o'tilgan jarayonlarni birlashgan ravishda ta'minlovchi sohalar majmuasi.

B. Davlat va jamiyatdagi nodavlat tashkilotlarning ishida axborotlar tayyorlash, qayta ishlash va eltib berish bilan bog'lik bo'lgan obyektlar, harakatlar va qoidalar, shuningdek barcha texnologiyalar xamda sanab o'tilgan jarayonlarni birlashgan ravishda ta'minlovchi subyektlar;

C. Tashkilot kommunikatsiyasida axborotlar tayyorlash, qayta ishlash va eltib berish bilan bog'lik bo'lgan tashkilotlarning tez va sifatli xizmat ko'rsatishi;

D. Jamiyatda axborotlar tayyorlash, qayta ishlash va eltib berish bilan bog'lik bo'lgan ishlar jamlanmasi, ularni boshqarish tizimi.

51. *Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish...*

A. fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning o'z manfaatlaridan rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlarlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

B. fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek rivojlangan xorijiy mamlakatlarning urf-odatlarlar va an'alaridan kelib chiqqan holda jahonning ahamiyatga molik masalalarini hal qilish borasidagi faoliyatidir.

C. fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning davlat manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlarlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi davlat boshqaruvidir.

52. *Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari qancha muddatga saylanadilar?*

A. 1 yil;

B. 2,5 yil;

C. 5 yil;

D. 3 yil.

53. *Mahalla - bu...*

A. Davlat boshqaruvining quyi bo'g'ini hisoblanadi;

B. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi hisoblanadi;

C. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining hududiy birligidir.

D. Fuqarolar yig'ini hisoblanadi.

54. *Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi hisoblanadi*

A. mahalla;

B. fuqarolar yig'ini;

C. fuqarolar yig'ini Kengashi;

D. fuqarolar yig'ini taftish komissiyasi.

55. *Fuqarolar yig'inida kimlar qatnashadilar?*

A. shaharcha, qishloq va ovul, shuningdek shahar shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla hududida yashayotgan, voyaga etgan shaxslar qatnashadilar;

B. shaharcha, qishloq va ovul, shuningdek shahar shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla hududida doimiy yashayotgan qatnashadilar;

C. shaharcha, qishloq va ovul, shuningdek shahar shaharcha, qishloq va ovulda doimiy yashayotgan, voyaga etgan shaxslar qatnashadilar;

- D.shaharcha, qishloq va ovul, shuningdek shahar shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla hududida doimiy yashayotgan, voyaga etgan shaxslar qatnashadilar;
56. *Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi namunaviy Nizom kim tomonidan tasdiqlanadi?*
- A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari;
 - B. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;
 - C. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
 - D. Mahalliy davlat hokimiyati
57. *Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarining raislarini va a'zolarini hisobotlarini qancha muddat oralig'ida eshitadi?*
- A. Yilning har oyida;
 - B. Yilning har choragida;
 - C. Yilning har olti oyida;
 - D. Yilda bir marotaba;
58. *Fuqarolar yig'inini kim chaqiradi?*
- A. fuqarolar yig'ini komissiyalari raislari;
 - B. tuman(shahar) hokimi;
 - C. Fuqarolar yig'inining kengashi;
 - D. Fuqarolar yig'ini raisi maslahatchisi.
59. *Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplarini ko'rsating.*
- A. demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga molik masalalami yechishda mustaqillik, jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam.
 - B. demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy himoya, chegaralar daxlsizligi, mahalliy ahamiyatga molik masalalami yechishda mustaqillik, jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam.
 - C. demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga molik masalalami yechishda o'zidan yuqori pog'onadagi organlarga bo'ysunish, jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam,
60. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika «Mahalla» jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi Farmoni qachon tasdiqlangan?*
- A. 2016 yil 12 sentyabr
 - B. 2017 yil 3 fevral
 - C. 2018 yil 23 fevral
 - D. 2015 yil 19 aprel

GLOSSARIY

Avtonomiya - yunon. “autos” + “nomos” - o‘zi+qonun; 1 Yagona davlat miqyosida hududiy - milliy tuzilmalarga (viloyat, o‘l ka) o‘zini o‘zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma’muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo‘jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o‘zini o‘zi boshqarish huquqi.

Avtoritar - lot. “auctoritas” - hokimiyat, ta’sir; hokimiyatning bir kishi yoki bir hokimiyat organi qo‘l ida to‘planishi, diktatorlik uslublari bilan idora etishga asoslangan siyosiy rejim.

Aristokratiya - yunon. “aristokratia” , zodagonlar hukmronligi; biron-bir ijtimoiy qatlam yoki guruhning imtiyozli qismi.

Assotsiatsiya - lot. “association” - qo‘shilma; qo‘shilish, aralashish; shaxslar birlashmasi yoki faoliyat turi bo‘yicha tuzilgan muassasa.

Agregatsiya - lot. “aggregatus” - qo‘shilgan, to‘plangan; nodavlat va jamoat tashkilotlari ayrim manfaatlarni agregatsiya qilish, ya’ni turli munozaralar va muhokamalar vositasida asosiy va muqim manfaatlar uyg‘unlashtiriladi va ular o‘rtasida muayyan munosabatlar tizimini shakllantiradi.

Aktor - lot. “actor” - aktyor, arbob; muayyan xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi individ, ijtimoiy guruh, institut yoki boshqa subyekt, ziddiyatlarda ishtirok etuvchi tomonlar. Siyosatshunoslikda aktor va subyekt tushunchalari sinonim sifatida ishlatiladi.

Anarxizm - yunon. “anarchia” - boshliqsizlik, hokimiyatsizlik; jamiyatni davlatsiz qurish, har qanday institutlashgan hokimiyat shaklini fuqarolarning erkin va ixtiyoriy uyushmalariga almashtirish tarafdori bo‘lgan siyosiy oqim.

Anaxronizm - yunon. “ana+chromos” - orqaga+vaqt,zamon; yangilish holda bir davrdagi voqea yoki hodisalarni boshqasiga almashtirib qo‘yish.

Apatiya - yunon. “apatheia” - behushlik, e’tiborsizlik; butunlay befarqlik holati, loqaydlik.

Antreprenyer - fr. “entrepreneur” - tadbirkor, ishbilarmon; xususiy, tomosha qilish (teatr, sirk va boshq.) korxonalariga egasi.

Atribut - lot. “attributum” - muhim belgi, aniqlovchi; biron-bir predmet yoki hodisaning muqim va ajralmas xususiyati, nimanidir tarkibiy qismi.

Artikulyatsiya - lot. “articulation” - alohida-alohidaga bo‘l inish; nodavlat va jamoat tashkilotlari individlar va ijtimoiy guruhlarining tarqoq qarashlari, ijtimoiy ruhiy kechinmalari va umidlari ni aniq va ma’lum siyosiy maqsadlar va talablarga aylantirish jarayonini anglatadi.

Askriptiv - ingl. “ascription” - nisbat berish; askriptiv mezonlar - individning kelib chiqishi bo‘yicha qanday toifa, urug‘, oila kabilarga tegishli ekanligiga asoslangan mezonlari.

Bipolyar - ingl. “bi+polar”- ikki+qutbli; ikki qutbli.

Blokada - ingl. “blockade, block” - to‘siq qo‘ymoq, to‘sqinlik qilmoq.

Veto - lot. “veto” - taqiqlayman taqiq (ko‘pincha parlament hukumatga nisbatan ishonchsizlik vetosini bildirish huquqiga ega bo‘ladi).

Verbal - lot. “verbalis” - so‘z orqali; og‘zaki; bunda siyosiy ishtirokni shaxsning subyektiv jihatiga bog‘liq emasligiga ishora qilinmoqda.

Vester - ingl. “west” - g‘arb; vesternizatsiya-mamlakatlar siyosiy tizimi yoki madaniyatlarini g‘arblashuv jarayoni.

Volyuntaristik - lot. “voluntas” - iroda; bu tushuncha subyekt iroda asosida siyosat yuritayotgan shaxs yoki shaxslarni aniqlash uchun ishlatiladi.

Gildiya - nem. “gilde” - korporatsiya; o‘rta asrlarda savdogarlarning sex korporatsiyalarini, keyinchalik savdogarlarning tabaqaviy birlashmalari nomini anglatgan tushuncha.

Gipotetik - yunon. “hypothetikos” - taxminiy; faraz qilingan, taxmin qilingan.

Developement - fr. “developpement” - rivojlanish.

Deviant - lot. “deviatio” - chetga chiqish, og‘ish.

Dezintegratsiya - fr. “dez” lot. “integratio” bir butunning tarkibiy qismlarini bo‘linishi, parchalanishi, integratsiyaning teskarisi.

Determinizm - lot. “determinare” - aniqlash, ifodalash; falsafada umumiy qonuniyat sifatida tan olingan hodisalar, tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalarning shartlanganlik sabablari.

Diversifikatsiya - lot. “diversificatio” - o‘zgarish, turli-tumanlik; siyosiy fanlarda muammoga turlicha yondashuvlar birligi va siyosiy faoliyatning turli uslublaridan foydalanish tushuniladi.

Diskriptiv - ingl. “descriptive” - tavsif, tasviriy, ko‘rsatmali, ko‘rgazmali.

Differensiatsiya - lot. “diversificatio” - farqlash, har xillik; taqsimlanish, biron-bir narsani alohida turli xil unsurlarga ajralishi, bo‘laklarga bo‘linish.

Dixotomiya - yunon. “dichatome” - ikki qismga+kesilgan.

Dualizm - lot. “dualis” - ikki taraflamalik; (shuningdek, falsafadagi dunyo asosida ikkita mustaqil bosh sabab - ruh va modda, ideallik va moddiylik mavjud degan qarashlar haqidagi ta’limot).

Ierarxiya - yunon. “hierarchia” - mansab pog‘onasi; mansab va unvonlarning pastdan yuqoriga va bo‘ysunish tartibi bo‘yicha joylashish qatori.

Inklyuzivlik - ingl. “inclusive” - o‘z ichiga olmoq, ichida, ichiga kirib borishi.

Instantsiya - lot. “instans” - kelgusidagi; bir-biriga bo‘ysunadigan organlar tizimida izchillikdagi har bir pog‘onalari.

Irratsional - lot. “irrationalis”; bilishning asosiy vositasi sifatida his-tuyg‘u, instinkt va e’tiqodni tan oluvchi falsafiy qarash.

Kvazi - lot. “quasi” - go‘yoki, xayoliy; go‘yoki shunday; murakkab so‘zlarda “xayoliy”, “tagi-tugi yo‘q”, “sun‘iy”, “qalbaki” ma‘nolarida ishlatiladi. Masalan, kvaziolim- soxta olim.

Kibernetika - yunon. “kybernetike” - boshqarish san‘ati; boshqaruv jarayonlari va tashkillashgan tizimlardagi aloqalarning umumiy qonuniyatlari haqidagi fan.

Kommunikatsiya - lot. “communicatio” - xabar, aloqa.

Kommunikator - lot. o‘zagi “communicatio” - “xabar”; axborot uzatishdagi vositachi.

Kompetent - lot. “competens” - loyqlik, mutanosiblik; o‘z bilimi yoki vakolati bilan biron-bir qarorni qabul qilish, masalani yechish yoki ular yuzasidan hukm chiqarish uchun zarur bo‘lgan ilmga yoki qobiliyatga ega bo‘lgan ishni anglatadi.

Konsensus - lot. “consensus” ; kelishuv, hamfikrlilik, yakkilik, birlik, til biriktirish.

Konstituyentlar - ingl. “constituent” - saylovchi; bir butunning bir qismi; siyosatshunoslikda yetakchi bilan fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liqlik sifatida ishlatiladi.

Kontinuum - lot. “continuum” - uzluksiz, yalpi.

Konflikt - lot. “conflictus” - tomonlar to‘qnashuvi; tomonlar fikrlar, manfaatlarga to‘qnashuvi; jiddiy ixtiloflar va ziddiyatlar, o‘tkir tortishuv, janjal.

Konformizm - lot. “conformus” - o‘xshash. monand; moslashuvchanlik, mavjud tartibotlar va hukmron fikrlarni passiv ravishda qabul qilish.

Korrelyativ - lot. “correlativus” - o‘zaro nisbat; o‘zaro munosabat, munosabatdosh, munosabatdorlik.

Legal - lot. “legalis” - qonuniy; ruxsat berilgan, qonun e‘tirof etgan.

Libertarizm - ingl. “libertarian” - iroda erkinligi tarafdori; jamiyatda oshkora hokimiyat sohasini imkoni boricha qisqartirish, insonning individual erkinligi sohasini kengaytirish zaruratini ilgari surgan e‘tiqod.

Lokal - lot. “localis” - mahalliy; shu joy uchun xoslik.

Loyallik - fr. “loyal” - ishonchli, sadoqatli; shaxslarni o‘zini qonun doirasida tutishi, hokimiyat organlari talab va ko‘rsatmalariga amal qilishi va hokazo.

Majoritar - fran. “majoritare” - ko‘pchilik; lot. “major” - katta, ko‘p so‘zidan olingan; ko‘pchilikka taalluqli, tegishli; ko‘pchilikka asoslangan. Ba‘zan «ko‘tarinki», «quvnoq kayfiyat» ma‘nolarini ham beradi.

Marginal - fr. “marginal” - chekkada turuvchi; ikkinchi darajali, oxirgi; siyosatshunoslikda - oldingi ijtimoiy aloqalarini yo‘qotgan, yangi hayot shart-sharoitlariga hali moslasha olmagan, qandaydir ijtimoiy guruhlar orasida yoki eng chekkasida turgan ijtimoiy odam, jamiyatning sirtida qolgan; lyumpen, miskin va qokazo.

Missiya - ba‘zi dinlarda zulmni yo‘qotish va insoniyatni qutqarish uchun keladigan ilohiy xaloskor (“Muso” va “Masih” ma‘nolarida ham ishlatiladi).

Minimum - lot. “minimum” - eng kam, eng oz.

Minoritar - fran. “mineur” - kichik; partologiyada mag‘lubiyatga uchragan yoki parlamentdan kam deputatlik o‘rinlari olgan partiyaga nisbatan qo‘l laniladi; «minor» so‘zi «xafa», «g‘amgin», «qayg‘uli kayfiyat» kabi ma’nolarni ham beradi.

Model - fr. “modele” - namuna, tarh, nimanidir tasviri tavsifi.

Modifikatsiya - fr. “modificatio” - ko‘rinish yoki shakl o‘zgarishi.

Muxtoriyat - arab. o‘ziga mustaqillik; avtonomiya.

Nominal - lot. “nominalis” - nomiga berilgan, yozilgan; rasmiylashgan, o‘rnatilgan, belgilangan.

Oligarxiya - yunon. “oligos” - ozchilik, kichik, katta bo‘l magan + “arhe” - hokimiyat, hukmronlik; siyosiy hukmronlik, ta’sirli shaxslarning tor doirasiga tegishli bo‘lgan hokimiyatni idora etish shakli.

Oxlokratiya - yunon. “ochlos” – olomon, “kratos” - hokimiyat; olomon hukmronligi; populistik shiorlar bilan jamiyatdagi qashshoq qatlamlarga suyanib faoliyat yuritadigan ijtimoiy-siyosiy guruhlar hokimiyati.

Partikulyar - lot. “particularis” - alohida; xususiy va tor guruhli manfaatlar doirasida o‘ralashib qolish.

Partitsipatsiya - ingl. “participation” - ishtirok, hamishtirok; ishtirok etmoq; fuqarolar tomonidan davlat va jamiyat ishlarini boshqarish jarayonida u yoki bu funksiyalarni bajarishini shart qilib qo‘yadigan demokratiyaning modeliga doir nisbat.

Paternalizm - lot. “paternus” - otalarcha; davlatning jamiyatdagi o‘rnini kuchaytirish, davlatni fuqarolarga homiylik qilishini amalga oshirishga doir hokimiyat institutlarini tuzishga moyil davlat doktrinasi.

Penitensiar - lot. “penitentiary” - qamoqxona, turma; ko‘proq jinoiy va qamoqxonalar bilan bog‘liq jiddiy jazolashlarga taalluqlilik.

Permaient - lot. “permanens” - doimiy, uzluksiz davom etish.

Permanetizm - lot. “permanens” - doimiylik, uzluksiz davom etishga doir qarashlar.

Plebistsit - lot. “plebiscitum” - xalq qarori; xalq qarori, davlatning yirik masalalarga doir o‘tkazadigan umumxalq saylovi.

Poliarxiya - yunon. “poly”+ “arhe” - ko‘pchilik+hokimiyati, boshqaruvi; “ko‘pchilik boshqaruvi” ma’nosini beradi.

Politiya - siyosiy xarakter kasb etuvchi hokimiyatni vakil etishga asoslangan jamiyat; Aristotelga binoan, barchaning manfaatlari uchun ko‘pchilikning boshqaruvi.

Populizm - lot. “populus” - xalq; xalq ehtirolari va ehtiyojlaridan foydalanib, ularni aldash, yolg‘on va’ dalar bilan o‘z siyosiy maqsadlariga erishish, obro‘ga erishish o‘yinlari.

Populyarlar - lot. "populares" - xalqchil; qadimgi Rimda qishloq va shahar aholisi manfaatlarini ifoda etuvchi xalq partiyasi.

Pragmatizm – "pragma" - harakat, amaliyot; falsafadagi oqimlardan biri bo'lib, obyektiv haqiqatni bilishni inkor etadi, amaliy foydali natijalarni haqiqat sifatida tan oladi.

Radikalizm - lot. "radicalis" - tub; 19 asrda tub (radikal) islohotlar va o'zgarishlarni talab qilib chiqqan siyosiy oqim.

Ratsional - lot. "rationalis" - oqilona; maqsadga muvofiq, asoslangan, dalillangan (eng to'g'ri yo'l ma'nosida ham ishlatiladi).

Rekrut - nem. "rekрут" - yangi olingan askar; yollamoq; xorijiy armiya tomonidan o'z tarkibini to'ldirish uchun yollash yoki majburiyat asosida askarlikka olish; siyosiy jarayonda siyosat subyektlarini o'z saflarini o'zi uchun zarur bo'lgan odamlar qisobiga to'ldirishi.

Refleks -lot. "reflectere" - ifodalash, ko'zgu, aks, yoritish; odamning turli ta'sirlarga nerv tizimi orqali u yoki bu qarshi ta'sir ko'rsatish yoki hayvon organizmiga nerv tizimi orqali u yoki bu ta'sir etishga qarshi unda javob tariqasida paydo bo'ladigan hodisa.

Restavratsiya - lot. "restauratio"; biron-bir narsani dastlabki ko'rinishini tiklash; siyosiy fanlarda inqilob yoki boshqa yo'l bilan ag'da- rilgan eski tuzum yoki dinastiyani tiklash;

Retsipient - lot. "recipiens" - oluvchi; ko'pincha axborot oluvchi ma'nosida ishlatiladi.

Sekulyar - lot. "secularis" - dunyoviy; nimanidir cherkov va diniy idoralar tasarrufidan olish, davlatni dindan ajratish, dunyoviy jamiyat qurish ma'nolarida ishlatiladi.

Sindrom - yunon. "syndrome" - qo'shilish; kasallikning muayyan alomatlari; to'planish, narsalarning birlashuvi.

Sotsium - lot. "socium" - umumiy, birgalikda; kishilar hayot faoliyati shart-sharoitlarining umumiylikini tavsiflovchi ijtimoiy birlik.

Strata - lot. "stratum" - qatlam.

Subordinatsiya - lot. "subordination" - taqsimlash; tartibga keltirish; xizmat intizomi qoidalariga tegishli holda martaba darajalari bo'yicha kichik mansabdorlarning katta mansabdorlarga bo'ysunishiga qat'iy amal qilish.

Suverenitet - fran. "souvernitit"; davlatning ichki ishlar va tashqi munosabatlarda xorijiy aralashuvlarga yo'l qo'ymagan holdagi mustaqilligi va muxtoriyati.

Tolerantlik - lot. "tolerantia" - chidam; begona fikrlar va dinlarga nisbatan chidamli bo'lish.

Totalitar - lot. "totalis"- to'la, butunlay; jamiyatning barcha sohalarini nazorat qilishga asoslangan, demokratik tashkilotlarni taqiqlash, inson konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari tugatilgan, taraqqiyparvar kuchlarni quvg'in qiladigan, militaristik ijtimoiy tuzum, davlat, siyosiy rejim.

Tranzit - lot. "transitus" - o'tkinchi, o'tish; siyosatshunoslikda bir tuzumdan ikkinchisiga o'tishdagi oraliq davr yoki modernizatsiya jarayoni nazarda tutiladi.

Transaksiya - lot. "transactio" - bitim tuzish; turli shakllardagi buyurtmalarni elektron shaklda berish uchun kasbiy faoliyat yuritishga litsenziya olish va hujjatlar almashish uchun soliq deklaratsiyalari kabilardir (masalan, masofali ta'lim berish, elektron aloqa bilan sog'liqqa doir maslahatlar berish va hokazo).

Transformatsiya - lot. "transformatio" - o'zgarish, boshqa narsaga aylanish, shakl o'zgarishi); siyosatshunoslikda siyosiy o'zgarish yoki modernizatsiya jarayoni natijasida bir holatdan ikkinchisiga o'tish ma'nosida ishlatiladi.

Trigger - ingl. "trigger" - tepki ilmog'i (masalan, miltiqdagi).

Universal - lot. "universalis" - umumiy; har tomonlama, keng qamrovli, ko'plab maqsadlar uchun yaroqli, turli vazifalarni va funksiyalarni bajara oladigan.

Urbanizatsiyalashuv - lot. "urbanus" - shaharga taalluqli; sanoat va aholini yirik shaqarlarda to'planishi, jamiyat rivojlanishida shaharlar rolining ortib borishi.

Utilitar - lot. "utilitas" - naf; foyda, amaliy foyda olishni nazarda tutish.

Fanatizm - lot. "fanaticus" - jazavasi tutgan; o'z e'tiqodiga kuchli berilgan. boshqacha qarashlarga toqatsizlik bilan munosabatda bo'l adigan dunyoqarash.

Federalizm - fran. "federalism" - ittifoq; federativ asoslardagi davlat tuzumi prinsipi.

Federatsiya - fran. "federation" - ittifoq, birlashma; qator mustaqil ma'muriy-hududiy birliklar (respublikalar, shtatlar va hokazo) yagona bir butun mamlakat va umumiy jamoaviy boshqaruv organlarini tashkil etadigan davlat tuzumi shakli.

Feminizm - lot. "femina" - ayol; erkaklar bilan ayollar huquqlarini tenglashtirish uchun faoliyat yuritadigan ayollar harakati.

Fenomen - yunon. "phainomenon" - noyob; kamdan-kam uchraydigan va favqulodda yuz beradigan hodisa, noyob, g'aroyib.

Sikl - yunon. "kyklos" - doira; muayyan tizimni tashkil etuvchi va o'zaro bir-birlari bilan bog'liq bo'l gan hodisalar, ishlar, jarayonlar yig'indisi yoki rivojlanishning tugallangan doirasi.

Sirkulyasiya - lot. "circulatio" - aylanma harakat; uzluksiz almashinish, aylanma harakat.

Egalitarizm - fr. "egalitarisme" - tenglik; umumiy baravrlashtirishning sotsiumni tashkil etish prinsipiga asoslanuvchi ijtimoiy fikr yo'n alishlaridan biri.

Eklektiv - yunon. "eklektikos" - tanlovchi; turli-tuman, ba'zan qarama-qarshi prinsiplar, qarashlar, nazariyalar va odatlarni mexanik tarzda qo'shish.

Ekspansiya - lot. "expansio" - kengayish, tarqalish; davlatlarning iqtisodiy, harbiy va diplomatik usullar bilan o'z hukmronligini boshqa davlatlar hisobiga kengaytirish.

Ekstraktiv - lot. "extraactus" - ko'chirilgan, olingan .

Ekumenizm - lot. "oecumenius" - jahon, yer yuzi; diniy konfessiyalarining birlashtirish harakati.

Elektoral - lot. "elector" - saylovchi; saylanadigan, tanlanadigan.

Elektorat - lot. "elector" - saylovchi; saylovchilar.

Embargo - ispan. "embargo" - hibsga olmoq, taqiqlamoq.

Yashillar - ekologik siyosatni amalga oshirish tarafdori bo'lgan, tabiiy muhitni sog'lomlashtirish va himoyalashni asosiy maqsad qilib olgan jamoatchilik harakati yoki siyosiy partiya.

O'ng- siyosiy kuchlar joylashuvida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi saqlanishini maqsad qilib olgan konservativ siyosiy oqim.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI.
FUQAROLIK JAMIYATI**

FANIDAN O‘QUV - USLUBIY

MAJMUA

**Xursandov Alisher Suyunovich
Sattorov Asrorjon Akramjonovich**

O‘quv-uslubiy qo‘llanma.

A.S.Xursandov va A.A.Sattorov. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati fani bo‘yicha OO‘MTVning 2018 yil 25 avgust 744 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy fan dasturi asosida tayyorlangan.